

**JO'RAYEVA S.N., SHARAFUTDINOVA X.G.,
MAMARADJABOVA B.A.**

UMUMIY PSIXOLOGIYA



JO'RAYEVA S.N., SHARAFUTDINOVA X.G., MAMARADJABOVA B.A.

UMUMIY PSIXOLOGIYA

O'QUV QO'LLANMA

**Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2022**

UDK:15.010
BBK:88.3
Sh 21

S.N.Jo'rayeva
Umumiy psixologiya / X.G.Sharafutdinova,
B.A.Mamaradjabova./ O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 404 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada umumiy psixologiya fanining maqsadi, predmeti va vazifalari, psixologiyaning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish tarixi, psixologiyaning nazariy manbalari, psixologiyaning asosiy mavzulari, psixologiyaning sohalari, asosiy metodlari, tamoyillari, psixika, ong va ongsizlik, shaxs, faoliyat, muloqot psixologiyasi, shaxsning bilish jarayonlari jumladan, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq va xayol jarayonlari, ularning bilish faoliyatidagi o'rni, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, individual psixik xususiyatlari muammolari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada fanni o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'quv faoliyatini samarali olib borishda mustaqil ishlarni tashkil etish masalalari keltirilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma hozirgi kunda psixologiyaning alohida sohasi sifatida shaxsning o'z-o'zini va o'zgalarni anglashi, o'z-o'zini boshqarish jarayonlarni tushunish va unga adekvat munosabat o'rnata olishga yordam berar ekan, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga, va ayniqsa, psixologiya hamda pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilar, shuningdek, psixologiya fani o'qituvchilari va qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Abdullaeva R.M.

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Djuraev T.S.

Termiz davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug'i bilan (guvohnoma raqami № 166-120) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7267-9-6

© S.N.Jo'rayeva va boshq., 2022.


© "Innovatsiya-Ziyo", 2022.

KIRISH

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatimizning barcha sohalari qatori ta'lim va tarbiya tizimida ham ulkan o'zgarishlar amalga osha boshladi. Bu o'zgarishlar voyaga yetib kelayotgan shaxsni kamol toptirish bilan bog'liq. Har qanday jamiyatda shaxs va uning kamol topish muammosi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. SHaxsning har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishi unga beriladigan ta'lim va tarbiya bilan uzluksiz bog'liqdir. Shu maqsadda "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida" ta'lim va fan sohasini rivojlantirish masalalariga a'lohida e'tibor qaratilgan. Unda ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazariga ega, Vataniga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan vazifalarni bajarish davomida yoshlarni psixologik bilimlar bilan qurollantirish ham muhim vazifalardan biridir. Chunki psixologiya jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan insonni shakllantirishda alohida o'rinda tutadi. Psixologik bilimlarning insonning har qanday faoliyatini tashkil qilishda yetakchi ekanligini bugungi kunda barcha tan olmoqda.

Oliy ta'limning barcha yo'nalish va mutaxassisliklarida ta'lim olayotgan yoshlarni psixologik bilimlar bilan qurollantirishga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda.



Psixologiya fani talabalarni kasbiy faoliyatga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. SHuningdek, psixologik bilimlarni chuqur o'zlashtirgan talabalar o'zlarining kelgusi faoliyatlarida, qaerda o'z faoliyatlarini davom ettirishlaridan qat'iy nazar, psixologik bilimlar ularga turli hayotiy muammolarni, nizolarni hal qilishda, shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishlariga yordam beradi.

Bugungi kunda turli buzg'unchi g'oyalar yoshlar ongiga psixologik ta'sir ko'rsatish orqali singdirilmoqda. SHu sababli psixologik bilimlar yoshlarni turli buzg'unchi kuchlardan o'zlarini himoya qilishlarida juda qo'l keladi.

Mazkur darslik bo'lajak psixolog mutaxassislariga mo'ljallangan bo'lib, ularni psixologiya fani bilan tanishtiradi. Darslikda psixologiyaning fan sifatida shakllanishi, uning tarixi va barcha bilish jarayonlari, shaxsning individual psixologik xususiyatlari o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari bakalavr talabalari, magistrlar, professor-o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'lib, undagi asosiy masala psixologiyaga oid bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgandir.

Oliy o'quv yurtida yuqori malakali pedagogik kadrlar yetishtirishda psixologiya fanining roli va o'rni beqiyosdir. CHunki psixologiya jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan insonni shakllantirishda alohida o'rinda turadi. Biz tayyorlayotgan mutaxassislar psixologiya fanini chuqur va puxta o'zlashtirgan taqdirdagina yosh avlodni har tomonlama kamolga erishgan kishilar qilib tarbiyalay olishlari mumkin.

Psixologiya fani harbiylarga aynan psixologik bilimlar asosini berib, ularda o'z atroflarida ro'y berayotgan islohotlarga xolis baho berish, o'zi va o'zgalari ruhiyatiga befarq bo'lmaslik, o'z layoqatlarini o'stirishning elementar vositalaridan xabardor bo'lishlariga yordam beradi.

BIRINCHI BO'LIM

I BOB. PSIXOLOGIYANING METODALOGIK ASOSI

PSIXOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI, YO'NALISHLARI

Psixologiyaning asoslari. Ma'lumki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishga mo'ljallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga tatbiq etilayotganligi uning nufuzi, mas'uliyati ortayotganligidan dalolat beradi. Istiqloq sharofati tufayli ilmiy yondashuvlarga, oldingi metodologik muammolarga xolisona munosabatda bo'lish imkoniyati vujudga keldi. Mutaxassislarni tayyorlashda umumiy psixologiya fani ularning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish ustuvor o'rin egallaydi. Jahon fanlarining muayyan qonuniyatlariga asoslanib turkumlarga kiritilishiga ko'ra, psixologiya fani bu tizimda salmoqli o'rin egallaydi. Shu boisdan fanni to'liq yetkazib berish maqsadida xorij tajribalari, adabiyotlaridan foydalangan holda, murakkab psixologiya fanining ilmiy-amaliy bilimlarini tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qilamiz.

Eramizdan avvalgi 300 yillarda yunon faylasufi Arastu til, xotira, motivatsiya, emotsiya, anglash va shaxs haqida fikr yuritgan: Masalan u: "To'yib tamaddi qilgandan keyin asosiy organ- yurak atrofida gaz va issiqlik yig'iladi",- degan fikrlarni bergan. Bugungi kunda bu fikrlar biz uchun kulguli. 1600 yillarda ingliz faylasuflari kuzatishga asoslangan bilim va ratsional yondashuvga asos solgan. Jumladan: Jon Lok tug'ma g'oyalar tushunchasini rad etadi. Charlz Darvinning eng mashhur g'oyasi – bu tabiiy tanlanish g'oyasidir. Bu evolyutsiya nafaqat biologiya, balki, psixologiyaning ham printsipligiga aylangan.

Germaniyalik professor Velgelm Vund tomonidan birinchi psixologik eksperiment o'tkazilgan, u "Ong" atomlarini o'lchashga harakat qiladi. Keyinchalik Velgelm Vund yanada murakkabroq topshiriqlarni bajarishga harakat qiladi. Shunday qilib, psixologiyada psixologik laboratoriyaga ehtiyoj tug'ildi. Velgelm Vund eksperimental laboratoriyasida biologiya va falsafa fanlari asosida yosh psixologiya fani rivojlandi. Psixologiyaning dastlabki zabardast olimlari sifatida fiziolog va faylasuf V. Vund, ingliz tabiatshunosi

Ch.Darvin, birinchi rus fiziologi I. Pavlov, mashhur avstriya vrachi psixo – analiz asoschisi Zigmund Freyd, bolalar psixologi Piaje hamda amerikalik faylasuf Uilyam Djeymslarning ilmiy qarashlari psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Psixologiya - nima o'zi? degan savolga bir nechta psixologik ta'riflarni ko'rish mumkin. Avvaliga psixik jarayonlarni o'rgangan V. Vundning fikricha, psixologiyaning asosiy vazifasi introspektsiya bo'lib, u shaxsiy psixolog ya'ni emotsional holat va hissiy jarayonlarni o'zi tahlil qilishidir.

1920 yillardan 1960 yilga qadar amerikalik psixolog J.B.Uotson introspektsiyani rad etib, psixologiyani xatti-harakati kuzatuvchi fan deb atadi.

Psixologlar 1960 yillarda bu fanni xulq va ruhiy jarayonlar haqidagi fan deb atashgan. Xulq, ya'ni organizm bajaradigan barcha holatni qichqirish, kulish, ko'zni qisish, terlash – barcha harakatlarni kuzatish mumkin. Ruhiy jarayonlar ichki subyektiv jarayon bo'lib, buni hulqiga qarab aniqlaymiz – his qilish, anglash, tush ko'rish, o'y-xayol hislardir. Psixologiya fan sifatida kuzatuv asosida fikrlarni tahlil qilish va g'oyalarga baho berishga intiladi-degan ilmiy fikrlar ham bo'lgan. Psixolog olimlar qarama-qarshi g'oyalarni qanday tahlil qilishadi? Psixologlar o'z fikriga ega: psixologik g'oyalarni ilmiy filtratsiyadan o'tkazib, ko'plab tushunchalar beradi, lekin biz ulardan eng yaxshisini tanlab olamiz.

Psixologiyaning ilmiy tavsifi. *Psixologiya inson ongi va psixikasining paydo bo'lishi, rivojlanishi qomuniyatlari haqidagi fandır.*

Psixika – bu obyektiv olamning subyektiv tasviri. Psixika individning hulq-atvori va faoliyatida shakllanadi, rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Psixika inson va hayvonlarga tevarak atrofdagi predmet va hodisalarning ta'sirini aks ettirishini ta'minlovchi bosh miyaning xususiyatidir.

Ong inson psixikasining oliy formasi bo'lib, tarixiy taraqqiyot mahsulidir.

XIX asr oxiri - XX boshlarida faoliyat yuritgan mashhur psixolog G.Ebbingauz shunday yozgan: "Psixologiyaning tarixgacha bo'lgan katta va kichik tarixi bor". Bu yerda tarix deyilganda psixologiyaning falsafadan ajralib chiqib, mustaqil fan sifatida shakllanish, tabiiy

fanlar bilan yaqinlashish va o'zining eksperiment metodiga ega bo'lish davri nazarda tutilmoqda.

Psixologiyaning tarixida psixikani o'rganishning quyidagi asosiy davrlarni ajratish mumkin:

ruh haqidagi ta'limot doirasida psixik hodisalar haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi (qadimgi davrdan XVII asrgacha);

falsafiy ta'limotlarda psixika haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi (XVII asr boshlaridan -XIX asr o'rtalarigacha);

psixologik bilimlarning psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi tizimida o'rganish (XIX o'rtalaridan hozirgi kungacha).

Psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar va psixik holatlar zamonaviy psixologiyaning predmeti hisoblanadi (1-sxema).

Psixik jarayonlar ruhiy dunyoning uchta asosiy tomonini qamrab oladi: bilish, his va iroda. Bilish jarayonlariga sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va nutqni kiritish mumkin. Bu jarayonlar orqali biz dunyoni va o'zimizni bilamiz. Hissiyot insonning tevarak dunyodagi va o'z hayotidagi hodisalariga munosabatining kechinmalarda aks etishidir. Iroda xatti-harakatni boshqarishni ta'minlaydi.

SHaxsning psixik holatlari – shaxsning faollik darajasini xarakterlaydigan muayyan vaqtdagi ichki holati.

SHaxsning psixik xususiyatlari - uning barqaror xususiyatlari: yo'nalganlik, motivatsiya, temperament, xarakter, qobiliyatdir.

Inson psixik hayotining barcha tomonlarining birligi uning faolligida – tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirlashuv jarayonida va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Faollikning asosiy shakli faoliyatdir. Faoliyatning asosiy shakllari: o'yin, muloqot, o'qish va mehnat. Faoliyatda shaxsning asosiy xususiyatlari shakllanadi, uning qobiliyatlari rivojlanadi.

Demak, psixologiya - voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakli sifatida psixikaning rivojlanish va namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganadigan fan.

Psixika insonning faoliyatida va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan faolligining ichki boshqaruvini ta'minlaydi.

SHuning uchun zamonaviy psixologiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

➤ psixik jarayonlar va hodisalarning sifat xususiyatlarini o'rganish;

- psixik hodisalarning faoliyatda shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish;
- psixik hodisalarning asosida yotadigan fiziologik mexanizmlarni o'rganish;
- psixologik bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga ko'maklashish.

Psixologiya fanining predmeti



1-sxema. Zamonaviy psixologiyaning predmeti

Psixologiya fanini amaliy vazifalarni yechishga jalb etish uning nazariyasining ham rivojlanish xususiyatlarini ma'lum darajada o'zgartiradi. Psixologik kompetentlikni talab etadigan masalalar jamiyatning hayotining barcha sohasida uchraydi. Bugungi kunda psixologiya inson hayoti va faoliyatining davlat boshqaruvi, ta'lim, tibbiyot, sport, harbiy, yuridik sohalar va h.k. tizimlardagi inson ruhiyatining turli tomonlarini qamrab oladigan juda katta tuzilishga ega.

Psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi va uning tarmoqlari. Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va yetakchidir.

Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendentsiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani ma'lumotlar bilan boyitadi.

Sotsiologiya fani erishgan yutuqlardan psixologiya ham foydalanadi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladilar. Respublikamizda "Ijtimoiy fikr" markazining turli mavzular bo'yicha olib boradigan ijtimoiy so'rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xohishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga, hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar tuzishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-psixologik so'rovlarning oliygohlarda o'tkazilishi ustoz-shogird, talaba-o'qituvchi munosabatlarini, ish joylarida o'tkazish xodim-rahbar, xodim-xodim munosabatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Bu orqali nafaqat sotsiologik so'rov, balki inson shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish pedagogik jarayonning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va h.k. psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniksa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarni boshqarishda va ularni muvofiklashtirishdagi ahamiyatini hisobga olib, psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni

taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellardan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rnini va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismidir. Bugungi kunda har bir fanning rivoji uchun inson omilini hisobga olish juda muhimdir. Psixologiya bu fanlar bilan o'zaro aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

SHu o'rinda bugungi kunda psixologiya fanidan alohida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar xususida ham fikr yuritish lozim.

Insonning shaxsiy hayoti ham unga psixika haqidagi muayyan tasavvurni beradi. SHuning uchun maishiy va ilmiy psixologiyani ajratib olish zarur. Turmush psixologiyasi insonning hayotdan olgan psixologik bilimlaridan iborat. Har bir odam ma'lum darajada psixolog, chunki, u o'zining hayotiy tajribasiga ega. Ilmiy psixologiya –bu nazariy va eksperimental tadqiqotlar davomida olingan barqaror psixologik bilimlar tizimi.

Zamonaviy psixologiya psixikaning yuqori darajadagi materiyaning obyektiv voqelikni psixik hodisalar shaklida aks ettira oladigan alohida xususiyati sifatida bilimlarning juda keng sohasiga ega.

Ko'p qirrali psixologiya fanini turli asoslarda toifalarga ajratish mumkin. A.V.Petrovskiy ajratishning 3 ta asosiy toifa belgilarini

ko'rsatadi. Bularga quyidagilar kiradi: inson faoliyatining xilma-xilligi, inson va jamiyat munosabatlari hamda rivojlanish. Inson faoliyatining xilma-xilligiga ko'ra psixologiya fanidan quyidagi tarmoqlarni ajratib ko'rsatish mumkin: mehnat psixologiyasi, pedagogik psixologiya, tibbiy psixologiya, yuridik psixologiya, harbiy psixologiya va h.k.

Ikkinchi belgisi inson va jamiyat munosabatlari bo'yicha ijtimoiy psixologiya va differentsial psixologiya tarmoqlari ajratiladi.

Uchinchi belgi - rivojlanish bo'yicha yosh davrlari psixologiyasi, maxsus psixologiya - surdopsixologiya (eshitish-gapirishda nuqsonlari), tiflopsixologiya (ko'rishdagi nuqsonlari) va zoopsixologiya kabi tarmoqlar ajratiladi. Lekin psixologiya fani bu alohida tarmoqlargina emas, balki asosini *umumiy psixologiya* tashkil etgan butun bilimlar tizimidir. U bir tomondan barcha tarmoqlarni nazariya va tekshirish metodikalari bilan ta'minlaydi, bir metodologiya bilan birlashtiradi. Boshqa tomondan, umumiy psixologiya barcha tarmoqlarning yutuqlarini umumlashtiradi.

Bugungi kunda ilmiy psixologiya fundamental va amaliy psixologiyaga ajratiladi.

Fundamental psixologiya:

Umumiy psixologiya;
SHaxs psixologiyasi;
Differentsial psixologiya;
Neyropsixologiya;
Ijtimoiy psixologiya;
Taraqqiyot psixologiyasi;
Maxsus psixologiya;
Zoopsixologiya.

* ***Amaliy psixologiya:***

Pedagogik psixologiya;
Yuridik psixologiya;
Iqtisodiy psixologiya;
Siyosiy psixologiya;
Din psixologiyasi;
Sport psixologiyasi;
Mehnat psixologiyasi;
Harbiy psixologiya;
Kosmik psixologiya va boshqalar.

Fundamental psixologiya inson uchun xarakterli bo'lgan psixologik hodisalarni, barcha psixik hayot sohalaridagi umumiy psixologik qonuniyatlarni o'rganadi.

Fundamental psixologiyaning tarmoqlari:

Umumiy psixologiya psixologiyaning predmeti, psixologik bilimlarning tuzilish tamoyillarining nazariy va metodologik asoslarini o'rganadi, katta odam psixikasining umumiy xususiyatlari va qonuniyatlarini, bilish va emotsional jarayonlarni, shaxsning emotsional holatlarini tadqiq etadi.

Umumiy psixologiya psixologik bilimlarning fundamenti, chunki, uning tushunchalarini, qonunlarini va psixik ishlash mexanizmlarini o'zlashtirmasdan turib, uning muayyan tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib bo'lmaydi.

SHaxs psixologiyasi insonning ijtimoiy muvofiqlashgan xususiyatlarini, qobiliyatlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, temperamenti, xarakteri, motivatsiyasi, o'z-o'zini anglashini o'rganadi.

Differentsial psixologiya (yoki individual farqlar psixologiyasi) odamlar orasidagi individual psixofiziologik farqlarni, oliy asab faoliyatining xususiyatlarini va ularning xatti-harakatlarda namoyon bo'lishini o'rganadi.

Psixofiziologiya psixikaning markaziy asab tizimi faoliyati va organizmning fiziologik jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Insonning psixik jarayonlari, holatlari, xususiyatlarining paydo bo'lishiga olib keluvchi miya faoliyatining fiziologik mexanizmlarini o'rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Neyropsixologiya oliy psixik funktsiyalarning anatomik-fiziologik asoslarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Mutaxassislar idrok, xotira, xayol, tafakkur, diqqat, emotsiyalarning asosida yotuvchi inson miyasidagi jarayonlarni tadqiq etadilar.

Ijtimoiy psixologiya odamlarni ijtimoiy guruh tarkibida bo'lganlik fakti bilan muvofiqlashgan xatti-harakatlari va faoliyatlarining qonuniyatlarini, shuningdek, mazkur guruhlarining psixologik xarakteristikasini o'rganadi.

Taraqqiyot psixologiyasi (yosh davrlari psixologiyasi) shaxsning turli psixik jarayonlari va xususiyatlarini rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Taraqqiyot psixologiyasida bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirinlar psixologiyasi, yetuk

insonlar psixologiyasi, gerontopsixologiya (keksalik psixologiyasi) ajratiladi.

Maxsus psixologiya (yoki anomal rivojlanish psixologiyasi) normadagi rivojlanishdan og'ish bilan bog'liq psixologik muammolarni o'rganish bilan shug'ullanadi. U bir necha bo'limlardan iborat: miyaning tug'ma nuqsonlari bilan bog'liq psixik rivojlanishdagi patologiyani o'rganadigan oligofrenopsixologiya, eshitishida jiddiy nuqsoni bor bolalarning rivojlanishini o'rganadigan surdopsixologiya, ko'rmaydigan yoki zaif ko'radigan bolalarning rivojlanishini o'rganadigan tiflopsixologiya, psixik kasalliklarda shaxsning psixik faoliyati va xususiyatlaridagi buzulish qonuniyatlarini, psixikadagi o'zgarishlarni o'rganadigan patopsixologiya.

Zoopsixologiya – hayvonlar psixikasi, psixik aks ettirish qonuniyatlari, ularning xulqining tug'ma va egallangan shakllari haqidagi fan.

Qiyosiy psixologiya – odamning va hayvonning psixik faoliyatidagi umumiy jihatlarni va farqlarni, inson xulqidagi biologik va ijtimoiylik munosabatlarining muammosini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Amaliy psixologiya insonning muayyan kasbiy faoliyati uchun xarakterli umumiy psixologik muammolarni o'rganadi.

Pedagogik psixologiya – insonning ta'lim va tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatlari haqidagi fan. U ta'lim va tarbiya psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi, psixikasida og'ish bo'lgan bolalar bilan o'quv – tarbiyaviy ishlar psixologiyasi kabi bo'limlarga ajratiladi. Pedagogik psixologiyada bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarish, intellektual faoliyatning usul va ko'nikmalari muammolari ko'riladi; o'quvchilarning tafakkurining shakllanishiga, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi; o'quvchilarning bir-birlari bilan, pedagoglar bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek, o'qituvchilarning ota-onalar bilan munosabatlari o'rganiladi; o'quvchilarning individual farqlari tadqiq etiladi.

Tibbiy psixologiya turli kasalliklarda psixikaning namoyon bo'lishini, kasalliklarning paydo bo'lishi va kechishida, ularni davolashda, kasalliklarni oldini olish va salomatlikni mustahkamlashda psixikaning rolini o'rganadi.

Yuridik psixologiya huquqiy munosabatlarni boshqarish sohasiga psixologik bilimlarni tatbiq etish bilan shug'ullanadi. Huquqiy, operativ-qidiruv, sud, kriminal va petentsiar psixologiya kabi bo'limlarga ajratiladi.

Iqtisodiy psixologiya odamlar orasidagi iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Mutaxassislar, bozor, talab va taklif masalalarini tadqiq etadilar. Iqtisodiy psixologiyada xizmat ko'rsatish, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi psixologik muammolarni o'rganadigan savdo psixologiyasi muhim o'rin egallaydi.

Siyosiy psixologiya millat, sinf, ijtimoiy guruh, davlat, individning siyosiy ongi darajasida shakllanadigan va namoyon bo'ladigan va ularning aniq siyosiy harakatlarida amalga oshadigan jamiyatning siyosiy hayotidagi turli psixologik komponentlar (kayfiyat, ijtimoiy fikr, hislar va h.k.) ni o'rganadi. Psixologik targ'ibot va tashviqot, ommaviy ijtimoiy-psixologik jarayonlar, siyosiy arbobning va hokimiyatning psixologik imidji siyosiy psixologiyaning o'rganish muammolari hisoblanadi.

Din psixologiyasi odamlarning diniy ongi, tasavvurlari va hislarini tadqiq etadi.

Sport psixologiyasi sportchi shaxsining va faoliyatining psixologik xususiyatlarini, samarali mashq jarayonining sharoitlari va vositalari, shuningdek, musobaqalar bilan bog'liq psixologik muammolarni o'rganadi.

Harbiy psixologiya harbiy xizmatchining shaxsi va harbiy jamoaning psixologik xususiyatlarini, zamonaviy jang hamda harbiy va janogovar xizmat faoliyatining, harbiy qurol-aslaha va texnikaning harbiy xizmatchi shaxsiga ta'sirini o'rganadi.

Mehnat psixologiyasi insonning mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy tashkil qilishning psixologik asoslarini o'rganadi. Mutaxassislarning vazifalari insonlarning kasbiy faoliyatlari bilan bog'liq psixologik xususiyatlarni, mehnat ko'nikma va malakalarining shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish, ishlab chiqarish jarayonining insonni holatiga va uning faoliyati samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Mehnat psixologiyasiga psixologiyaning bir qator tarmoqlari kiradi. Bular: muhandislik psixologiyasi, aviatsiya psixologiyasi, kosmik psixologiya va boshqalar.

Psixologiya fanining umumiy metodologiyasi. Har bir fan rivojlanishi uchun o'rganayotgan fenomenlari haqida to'g'ri tasavvur beradigan boshlang'ich qoidalarga ega bo'lishi kerak. Bunday qoidalarga nazariya va metodologiya kiradi.

Metodologiya (yunon. *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, *logos* – fan, ta'limot) – fanning g'oyaviy pozitsiyasi, mantiqiy tuzilishi, tadqiqotdagi ilmiy yondoshuvlar haqidagi ta'limdir.

Fan bilimlar, faktlar, qonunlar va tadqiqot metodlaridan iborat tizimdan tashkil topgan. Metodologiya umumiylik xarakteriga ega bo'lib, turli amaliy va nazariy faoliyat sohalariga qo'llanilganda konkretlashadi. Psixologiyada bunday soha tadqiqoti muayyan metodlarni ishlab chiqishni talab etadigan psixika hisoblanadi. Psixologiyaning metodologiyasida uchta daraja ajratiladi: umumiy, maxsus va xususiy.

Psixologiya fanining umumiy metodologiyasi sifatida tevarak muhit va unda psixikaning o'rni va rolini tushunishga dialektik – materialistik yondoshuv olinadi.

Dialektik – materialistik yondoshuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1) tabiat va jamiyatdagi mavjud narsa va hodisalar o'zaro bog'liqlikda hamda o'zaro munosabatda yashaydi. Biron narsa yoki hodisa bilan bog'liq bo'lmagan, yakka holda yashaydigan narsa yoki hodisa bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas;

2) tabiat va jamiyatdagi mavjud narsa va hodisalar har doim harakatdadir, harakatdan to'xtab, qotib qolgan hech narsa va hech bir hodisa bo'lmaydi va bo'lgan ham emas;

3) tabiat va jamiyatdagi mavjud narsa va hodisalar har doim o'zgarib turadi. Narsa va hodisalarning bunday o'zgarishi dastlab bilinar-bilinmas bo'lishi mumkin. Lekin ma'lum bir nuqtaga yetganda bu miqdor o'zgarishlari sakrash yo'li bilan sifat o'zgarishlariga o'tadi. Ya'ni narsa va hodisalar evolyutsion tarzda (sekin-asta emas), balki revolyutsion tarzda (birdaniga) o'zgaradi;

4) tabiat va jamiyatdagi mavjud narsa va hodisalarning taraqqiyoti asosida ichki qarama-qarshiliklar kurashi yotadi, ya'ni taraqqiyot ichki ziddiyatlarning hal qilinishi jarayonida amalga oshadi.

Psixologiya fanining tamoyillari. Determinizm tamoyili, ya'ni psixik hodisalarning sababiy muvofiqlashuvi. Bu psixikaning tabiiy va

ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanishi va ularning ta'sirida o'zgarishini anglatadi;

Ong va faoliyat birligi tamoyili. Ong faoliyatda paydo bo'ladi, rivojlanadi va namoyon bo'ladi va o'z navbatida ong faoliyatning faollik xarakterini ta'minlaydi;

Rivojlanish tamoyili psixikani rivojlanish mahsuli sifatida va rivojlanish jarayonida ko'rish imkonini beradi;

SHaxsiy yondoshuv tamoyili tadqiqotchilarni insonning individual va ijtimoiy –psixologik xususiyatlarini o'rganishga yo'naltiradi.

Psixologiya fanining xususiy metodologiyasi psixologiya tarmoqlarining o'ziga xosligini aks ettiruvchi yanada aniqroq psixologik yondoshuvlardan iborat.

PSIXOLOGIYA FANINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Antik dunyoda psixologiyaning paydo bo'lishi. Bizni o'rab turgan dunyo haqidagi qadimgi tasavvurlar animizm (lot. anima-ruh) bilan bog'liqdir. Animizmda har bir predmetning ruhi bor degan dunyoqarash shakllangan va u harakat hamda rivojlanish manbai hisoblangan.

Ruh haqidagi qarashlarning rivojlanishiga qadimgi Yunoniston faylasuflari katta hissa qo'shishgan. Ular tabiatning qaeida harakat va issiqlik bor bo'lsa, o'sha yerda ruh bor deb hisoblashgan. Qadimgi yunon faylasuflari dunyoning mohiyatini, uning kelib chiqishini bilishga intilganlar. SHu sababli, ular tabiat, inson, insonning ruhi haqida va ruhiy hayoti haqida o'z g'oyalarini ilgari surganlar.

Qadimgi yunon faylasuflarining ta'limotlariga ko'ra, dunyoning asosida moddiy narsa yotadi. Ularning fikriga ko'ra, inson ham dunyoning bir qismi sifatida shu moddadan tashkil topadi.

Animizmdan gilozoizmga (yunon. – hyle - materiya) o'tish aql inqilobi bo'lgan. Gilozoistlar ruhni tabiiy ilmiy qonunlar nuqtai nazaridan o'rgana boshlashgan.

Gilozoist *Geraklit* (m.a. 530-470 y) tabiatning asosi olovdan iborat deb hisoblagan. "Hamma narsa olovdan paydo bo'ladi va hamma narsa yana olovga aylanadi". U insonning ruhi ham olovdan paydo bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Fales butun mavjudotning, shuningdek, insonning ham tabiati suv deb hisoblagan. Insonning ruhini bug' shaklida tasavvur qilgan.


Anaksimening fikriga ko'ra, dunyodagi barcha mavjudot havodan tashkil topadi va ruh siyraklashgan havodir.

Gippokrat odamlarni ilmiy tarzda tiplarga ajratishga asos soldi (m.a. 460-377 y). Gippokrat insonlardagi farqlarning manbaini va sababini organizmning ichidan qidirdi. Uning fikriga ko'ra, inson organizmida to'rt xil suyuqlik mavjud. Bular: o't, qon, shilimshiq, qora o't. Gippokrat bu suyuqliklarning nisbatiga ko'ra xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik kabi to'rt xil temperament turini ajratgan. U insonlarni to'rt xil temperament turidan biriga mansub deb hisoblagan.

Demokrit (m.a. 460-370 y) dunyoning asosida bitta manba yotadi, olov ham, suv ham, tuproq ham, havo ham dunyodagi barcha turli-tuman narsa va hodisalar ham shu manbadan paydo bo'ladi, degan ta'limotni ilgari surdi. U butun mavjudotning asosini materiya deb atagan. Demokrit materiya atomlardan, ya'ni juda mayda, ko'zga ko'rinmaydigan zarralardan tashkil topgan, bu atomlar doimo harakatlanib turadi degan g'oyani ilgari surgan. Uning fikricha, atomlar faqat shakl jihatdangina bir-biridan farq qiladi va ular harakatlanganda bir-biriga tegib ketib harakatlari sekinlashadi.

Demokritning ta'limotiga ko'ra, inson ham xuddi shunday atomlardan tarkib topgan. Odanning tanasi qo'polroq atomlardan tashkil topadi, ruhi esa eng silliq va harakatchan atomlardan tashkil topadi. Ruh atomlari insonning butun tanasiga tarqalgan bo'lib, ular tananing barcha a'zolariga joylashgan. Insonning sezgilari, hislari va fikrlari shu ruh atomlarining o'ziga xos harakatidan iborat deb hisoblagan. Tabiatdagi barcha narsalardan doimo atomlar ajralib chiqadi. Mana shu atomlar ko'zga tushsa inson ko'radi, qulog'iga tushsa eshitadi, burunga kirsam, biror narsaning hidini sezish mumkin. Insonning fikrlari – bu bosh miyadagi ruh zarralarining harakati, insonning hislari, intilish-ehtiroslari – bu yurakdagi ruhlarning harakati. Demokrit ruhiy hayotning markazi yurakda deb hisoblagan. U barcha ruhiy atomlarning tamadan butunlay ajralib chiqib ketishi o'limga olib keladi deb hisoblagan.

Sugrot (m.a. 470-399 y) birinchi bo'lib ruhi inson axloqining manbai sifatida ko'radi. U savollar berish orqali haqiqatni topish



metodining asoschisidir. Ruh - individning psixik xususiyati sifatida aqli mavjudot bo'lganligi uchun unga xos ekanligini aytgan.

Platon (m.a. 427-347y) Suqrotning shogirdi bo'lgan. U ruh materiya bilan hech qanday umumiylikka ega emas deb hisoblagan. Moddiy dunyodan farqli ravishda ruh idealdir degan g'oyani ilgari surgan. Bilish –bu psixikanining tevarak atrof bilan o'zaro ta'siri emas, balki ruhning odam tanasiga kirishdan oldin ideal dunyoda ko'rganlarini eslashidir deb hisoblagan.

Suqrot va Platon jon va tanani bir-biriga butunlay qarama-qarshi qo'yadilar, tanani moddiy, jon esa moddiy emas, u ruhiydir degan g'oyani ilgari surganlar. Tana moddiy bo'lgani uchun uni ko'rish mumkin. Jon moddiy bo'lmagani uchun uni ko'rib bo'lmaydi. U g'oyalar dunyosiga taalluqlidir. Ularning fikriga ko'ra, jon tanada vaqtinchalik mavjud bo'lib, tana o'lganidan so'ng, yana o'z dunyosiga qaytib ketadi.

Ular jonni uch qismga bo'lganlar. Oliy qism - yuksak aql hisoblanadi. Jonning bu qismi insonning boshida joylashgan bo'ladi. Jonning ikkinchi qismi yurakka joylashgan bo'lib, ular insonning axloqiy fazilatlarini manbaidir. Jonning uchinchi qismi qorinda joylashgan bo'lib, u his-tuyg'ular manbaidir.

SHunday qilib, Qadimgi Yunoniston falsafasida psixikaga nisbatan ikkita qarama-qarshi nuqtai nazar vujudga kelgan – materialistik (Demokrit yo'nalishi) va idealistik (Platon yo'nalishi).

Buyuk faylasuflardan biri Arastu (m.a.384-322y) o'simlik, hayvon va aqli ruhlarni ajratgan va bu bilan inson psixikasining o'ziga xosligini qayd etgan. Antik psixologiyaning cho'qqisi Arastuning "Ruh haqida"gi traktatlari bo'ldi. Arastu o'z traktatlarida ruh va uning faoliyati haqidagi g'oyalarini birinchi bo'lib tizimli ravishda bayon etgan. U aqli ruh ideal va tanadan ajrala oladi, uning mohiyati ilohiy deb tasavvur etgan. Tana o'lganidan keyin ruh tanasiz havoga qaytadi deb hisoblagan.

Arastu ruh bilan tana munosabatlari masalasida o'z fikrlarini bildirgan. Uning ta'limotida aqli ruh markaziy o'rin egallaydi. Uning fikricha, ruhning bu turi, ya'ni aqli ruh faqat insonlarga xos bo'lib, u ilohiy yo'l bilan paydo bo'ladi. Tana ruhga tobe, ruh tanani harakatlantiradi, hayotiga ma'no va yo'nalish beradi. Tana o'lgandan keyin aqli ruh ilohiy ruh bilan qo'shilib ketadi.

Arastu ta'limotida beshta sezgi organlari, tafakkur, ijobiy va salbiy hislar, ixtiyoriy va ixtiyorsiz jarayonlar va tasavvurlar o'z aksini topgan. U inson sezgisi tashqi qo'zg'atuvchi ta'sirida vujudga keladi degan g'oyani ilgari surgan,

Arastu mantiqiy tafakkur shakllarining mukammal tizimini ishlab chiqqan. SHuningdek, u organizmdagi ruhiy va fiziologik o'zgarishlarning o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga harakat qilgan.

Lukretsiy Karr (99-55 y). Epikurning shogirdi va Demokritning izdoshi bo'lgan Qadimgi Rim faylasufi Lukretsiy o'zining "Narsalarning tabiati haqida" degan asarida moddiy bo'lmagan ruhning mavjudligini inkor qiladi. U ruhni materiyaning turlaridan biri sifatida ko'radi. Ruhning faolligini va tanani o'ziga bo'ysundira olishini hamda uning dag'al materiyadan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

Lukretsiy psixik hodisalarning tanaga bog'liqligini tajribaga asoslanib isbot qiladi. Uning fikricha, tana o'sgani sari aql ham o'sadi, tana kasal bo'lgani singari aql ham kasal bo'ladi. U ruhning abadiyligini inkor etgan. U psixik jarayonlarni ham tahlil qilib, barcha qo'zg'atuvchi ham sezgini paydo qilmasligini, buning uchun qo'zg'atuvchi ma'lum bir kuchga ega bo'lishi kerakligi haqidagi fikrni bildirgan. Bu g'oyani sezgi chegaralari haqidagi birinchi fikr desak to'g'ri bo'ladi.

O'rta asr psixologiyasi. Arastu bilan Platon yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'rta asrlarga kelib SHarqda ham, G'arbda ham rivojlantirildi. Psixologiyadagi bu oqim XVII asrlarga kelib metafizik yoki ratsionalistik psixologiya deb nom oldi.

Bu yo'nalishning metafizik deb atalishiga sabab, ruhning, psixik jarayonlarning –hissiy dunyo chegarasidan tashqaridagi g'ayri jismiy narsa deb tushuntirilishidadir.

O'rta asr mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati, uning kuchi, qobiliyatlari va kelib chiqishi, uning tana o'lgandan keyingi tadbiri, ruhning tanaga bo'lgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi.

Deterministlar (Lot. Determinare – belgilamoq) inson irodasi ham, dunyodagi hamma narsalar singari, sababiyat qonuniga bo'ysunadi, binobarin, insonning barcha irodaviy harakatlari ham erkin emas, balki zarurat bilan, o'z sabablari bilan belgilanadi degan g'oyani ilgari surganlar.

Indeterministlar, deterministlarga qarama -qarshi inson irodasi va uning xatti-harakatlari har qanday sababiyatdan xoli va hech qanday zaruratga bog'liq emas, degan g'oyani ilgari surganlar. Indeterminizm sof idealistik ta'limot bo'lgan, lekin determinizmga esa, materialistik tendentsiyalar o'z ifodasini topgan edi.

Realistlar – umumiy tushunchalar obyektiv ko'rinishda aks etadi, deb ta'kidlaganlar.

Nominalistlar (lot.nominale – nom, ot) faqat individual sifatlarga ega bo'lgan alohida-alohida narsalargina real mavjuddir degan g'oyani ilgari surganlar.

Psixologiyaning o'rganilish bosqichlari

| | | |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 4 bosqich | Psixologiya, psixikaning mexanizmlari, qonuniyatlari va faktlarini o'rganuvchi fan sifatida | Dunyoga materialistik nuqtai-nazardan qarash shakllangan. Rossiya psixologiyasining asosida aks ettirish nazariyasi asosiy qonuniyat sifatida ko'rsatiladi. |
| 3 bosqich | Xulq atvor haqidagi fan sifatida | XX asrdan boshlanadi. Psixologiyaning vazifasi ko'rgan narsalarni bevosita kuzatish, aniqrog'i inson xulq-atvorini, faoliyatini, reaksiyasini kuzatish deb hisoblangan. Bunda motivlarning o'rni hisobga olinmagan. |
| 2 bosqich | Psixologiya ong haqidagi fan | XVII asrda tabiiy fanlar rivojlanishi bilan boshlanadi. Fikrlash, xoxlash, his qilish, qobiliyatini ong deb atashgan. O'z-o'zini kuzatish asosiy metod hisoblangan. |
| 1 bosqich | Psixologiya jon haqidagi fan sifatida. | Bu yo'nalish psixologiyada bundan 2000 yil oldin paydo bo'lgan. Inson hayotidagi barcha narsalar tushunchasi, tushunarsiz hodisalarni jon, ruh bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilganlar. |

Fanning rivojlanishining har bir bosqichida ilmiy amaliy-nazariyalar yaratilgan. Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni “yagona voqeilik” - deb tan olib, uning qonuniyatlari

psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta'kidlaydi. Uning negizida – erifenomalizm (yunoncha eri - o'ta, rhainominon – g'ayritabiyy hodisa) vujudga keldi, ya'ni psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ruy beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Garvard astronomi Oven Gingerich 100 milliard samo yo'li borligini xabar beradi. Bizning o'zimizni ham samo yo'limiz bor, u nisbiy dog' shaklida, yana 200 milliard yulduzlar borki, ular bizning quyosh-yulduzlarga o'xshaydi. Ulardan ko'pi planetalararo aylanadi. Tashqi fazo qatlamida bizning umrimiz davomiyligi okean schilidagi yolg'iz qum zarrasidan ham kichikroq tuyuladi.

Hali ham bizning ichki olamimizda qo'rquvdan ko'ra ko'proq jonlantiradigan, o'z domiga tortadigan hech narsa yo'q. Olim Gingerich qo'shimcha qilganidek, "bizning miyamiz domiga tortadigan hech narsa yo'q. Olim Gingerich qo'shimcha qilganidek, "bizning miyamiz butun kosmosdagi eng murakkab fizikali obyekt". Bizning ongimiz xotiramiz teran mahoratni eslatuvchi moddadan paydo bo'lgan. Bizning o'y-fikr, his-tuyg'u va harakatlarimiz va boshqalarning o'y fikrlari, hissiyot va harakatlarining ta'siri bilan bizni o'ziga jalb qiladi. Tashqi fazo bizni o'zining johilliklari bilan o'zidan chetlashtiradi. Lekin ichki fazo o'ziga jalb qiladi.

Falsafiy ta'limotlarda psixika haqidagi qarashlar va psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi. XVII asrda ilm-fanning taraqqiyoti, mexanikaning kashf qilinishi psixologik g'oyalarning rivojida yangi davrni boshlab berdi. Fanda tajribaga asoslangan yangi oqim (empirik oqim) rivojlana boshladi. Ilm-fan sohasidagi rivojlanish ingliz faylasuflari F.Bekon, Gobbs, Lokk, frantsuz faylasufi R.Dekartning nomi bilan bog'liqdir.

* Ingliz faylasufi Frensis Bekon materializmning asoschisi hisoblanadi. U Yevropa sxolastik falsafasini qattiq tanqid qildi va ilmiy bilimlarning yangi yo'llarini ko'rsatib berdi. Bekon fan, avvalambor, tevarak atrofdagi tabiatni, tabiatda ro'y beradigan hodisa va qonunlarni o'rganish bilan shug'ullanishi kerak deb hisoblagan. Tabiatni o'rganish tabiatga hukmronlik qilishga yordam beradi. Tabiat tajriba orqali o'rganilib, umumiy og'zaki mulohazalardan voz kechilishi kerak deb uqtirgan. Bekon ratsionalistik fanda deduktiv metodning qo'llanilishiga qarshi chiqib, tajribaga asoslangan induktiv metodni asoslab berdi. U o'zining metodini "Yangi organon" deb

atalgan kitobida yoritib berdi. SHu vaqtda Bekon ruh va ruhiy hayot haqidagi masalalarga ham e'tibor qaratgan. Bekon ruhni aqliy va hissiy ruhlarga ajratgan. Aqliy ruh ilohiy nafsdan kelib chiqadi, hissiy ruh moddiy (jismaniy) bo'lib, barcha organik mavjudotlarga xos hisoblanadi. Hayvonlarning tanasi hissiy ruh organi bo'lib xizmat qiladi, insonning tanasi esa aqliy ruhning organidir. Lekin aqliy ruhni faqat teologiya o'rganishi mumkin deb hisoblaydi.

Bekonning ta'limotiga ko'ra, hissiy ruh moddiy bo'lishiga qaramasdan, issiqlik ta'sirida ko'zga ko'rinmaydigan suyuqlikka o'xshagan bo'lib, tabiatiga ko'ra havo va olovga yaqin turadi. Bekon ruh miyada joylashgan bo'ladi, lekin asab tolalari va qon tomirlari orqali butun tana bo'ylab harakatlanishi mumkin deb hisoblagan.

Bekon fahm, aql, xotira, istak, irodalarni ruhning qobiliyatlari deb hisoblagan. Psixologiyaga oid masalalarda F.Bekon ba'zi bir mulohazalarnigina bildirgan xolos.

Bekon fizik olam qonuniyatlarini insonning psixik hayotiga ko'chirish mumkinligini, psixikani tajriba va kuzatish yordamida o'rganish mumkinligini taxmin qilgan. Uning fikricha, "birinchi psixik element" (o'ziga xos psixik atom) tasavvur hisoblanadi. Psixologiyaning ideali "tibbiyotdagi atomlar mexanikasidan namuna olib, "tasavvurlar mexanikasini" yaratish deb hisoblagan.

Ingliz faylasuf materialistlaridan biri Tomas Gobbs Bekonning tasavvurlar mexanikasi haqidagi fikrlarini yanada rivojlantirdi. Uning fikricha, o'ziga tortuvchi, jalb qiluvchi (huzur, istak, muhabbat) va ranjitadigan (og'riq, qo'rquv, nafrat) kuchlaridan iborat bo'lgan ehtiroslar psixik hayotning asosini tashkil etadi. Psixologik hodisalarning o'zi moddiy tartibdagi omillardir. Ularning rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda kechadi.

Rene Dekart. Frantsuz faylasufi, matematigi va tabiatshunosi R.Dekart tabiat fanlarini o'rganishda tajriba metodiga e'tiborini qaratadi. SHu bilan bir vaqtda u ratsionalistik metodning himoyachisi ham bo'lib chiqqan. Dekartning fikriga ko'ra, ratsionalistik metod tajribadan ham mukammalroqdir. Uning fikricha, to'liq ilmiy falsafa tizimi, shu jumladan, psixologiya ham, faqat ratsionalistik metod asosidagina ko'rinishi mumkin ekan.

Dekart o'zining psixologiya sohasidagi g'oyalarini o'zining "Ruh ehtirosi haqida" degan asarida bayon etgan. Dekart tana bilan ruhni bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi deb hisoblagan. U tananing

mohiyati, barcha moddiy narsalarniki singari, fazoviylikdir, ruhning mohiyati esa tafakkur deb hisoblagan. Dekart sezgi, tasavvur va irodani ham shunga kiritadi. Dekartning fikriga ko'ra, hayvonlar ruhga ega emas, ruhga faqat insonlar ega bo'la oladi. Ruhning faoliyati sezgilar, xotira, tafakkur, iroda o'z qonuniyatlariga ega bo'lib, mana shu qonunlarga binoan ro'y beradi, tananing faoliyati (harakat) esa mexanika qonunlariga binoan amalga oshadi. SHunday qilib, psixik va fiziologik (moddiy) jarayonlar bir-biriga parallel holda ro'y beradi. Dekart psixofizik parallelizm ta'limotining asoschisi hisoblangan. Bu ta'limot tafakkur va borliq munosabatlari haqida bo'lib, unga ko'ra tafakkur va borliqda ro'y berayotgan barcha jarayonlar bir-biriga mos keladi, lekin o'zaro ta'sirlashmaydi.

Dekart ruhiy hodisalarni inson miyasida kechayotgan organik jarayonlar bilan tushuntirishga urindi. U organizmning tashqi ta'sirga avtomatik javob usuli sifatida refleks tushunchasini kiritdi. Tana harakat qilishi mumkin, ruh esa fikrlashi. Tananing ishlash tamoyili refleks, ruhniki refleksiya. Bu tushuncha orqali u inson va hayvon xatti-harakatlarini tushuntirib berdi. Lekin u ruhiy holatlarni ilmiy jihatdan asoslab bera olmadi. Dekart ruhning makoni miyaning asosida joylashgan shishsimon bez deb taxmin qilgan. Dekart yashagan paytda shishsimon bez faqat odamlarda topilgan bo'lib, ko'p vaqt o'tmay u bir qancha hayvonlarda ham topildi. Bu holat Dekartning ruh va tananing munosabati haqidagi ta'limotining inkor etilishiga olib keldi.

Dekart inson organizmini o'rganib, organizmning faoliyati organizmga tarqalgan va bir markazda – miyada birlashadigan asablar yordami bilan amalga oshiriladi deb hisoblagan. Bu asablar organizmning sezishiga, idrok qilishiga va atrofdagi olam hodisalarini bilishiga yordam beradi. Asablar orqali miyadan u yoki bu javob – mushak harakatlariga beriladi. Masalan, Dekart fiziologiyaga "refleks" tushunchasini kiritdi va birinchi bo'lib asab fiziologik jarayonlarning mexanizmini aniqladi. "SHartli reflekslar" nomini olgan asablar o'rtasidagi yangi bog'lanishlar mexanikasini ham u ta'riflab bergan.

Dekart tajribaga asoslangan bilimlarga katta ahamiyat bergan. Lekin shuning bilan birga, u matematika va falsafaga doir eng umumiy tushunchalar tajribadan hosil qilinmasdan, balki ular insonga

tugʻma holda beriladi, deb hisoblagan. Bu masalada Dekart Platonning “tugʻma ideallar haqidagi” taʼlimotini qoʻllab quvvatlagan.

SHunday qilib, Dekart psixika masalasida idealist, tabiat haqidagi, hayvon va inson haqidagi ilmda esa mexanistik materialist boʻlgan. Dekart oʻz-oʻzini kuzatishni psixologiyaning asosiy metodi hisoblagan. Dekartdan boshlab ruh aql bilan tenglashtirila boshladi: “Men fikrlayapman, demak, men mavjudman...”

Tomas Gobbs (1588-1679) psixikani asosida assotsiatsiyalar yotadigan moddiy substantsiyaning harakatlanishidir deb hisoblagan. Gobbs aqlni assotsiatsiyalar mahsuli va organizmning moddiy dunyo bilan bevosita hissiy aloqasini uning manbai sifatida eʼtirof etadi. Bilishning asosi sifatida tajriba olinib, ratsionalizmga empirizm qarshi qoʻyildi. Tajriba shiori ostida empirik psixologiya vujudga keldi. .

Jon Lokk. (1632 -1704). Ingliz olimi va pedagogi Jon Lokk Bekonning izdoshi boʻlgan. Lokk psixologiya tajribaga asoslanishi kerak, deb hisoblagan. U ruhning va uning kuchlarining asl mohiyatini bilish mumkin emasligiga ishongan. Lokk tajriba va kuzatish orqali ruhiy hodisalarni oʻrganish tarafdori boʻlgan.

Lokk sezgini asosiy va birlamchi psixik hodisa deb hisoblagan. Ruhiy hodisalarning qolgan turlari, murakkab boʻlishiga qaramasdan, faqat sezgilarning bir-biriga munosabati va qoʻshilishidir degan fikrni ilgari surgan. Ruhda hech qanday tugʻma gʻoyalar yoʻq. Ruh oʻzining barcha gʻoyalarini tashqi tajriba- sezgilardan (birlamchi sifatlar) va qayta ishlangan ichki tajriba- refleksiylar, xotira, farq qilish, taqqoslash, murakkab tasavvur va boshqalardan (ikkilamchi sifatlar) hosil qiladi. Lokk yangi tugʻilgan bolaning ruhini toza taxtaga oʻxshatadi, lekin tarbiyachi va hayot tajribasi bunga sezgilar orqali xohlagan narsani yozishi mumkin degan fikrni ilgari surgan.

Sezgilar haqidagi taʼlimotida J.Lokk birlamchi va ikkilamchi sifatarni ajratadi. Uning fikriga koʻra, narsalarning sezgi organizmlariga bevosita taʼsir etishi natijasida birlamchi sifatlar yoki obrazlar hosil boʻladi. Bu sifatlar obyektivdir. Lokk birlamchi yoki obyektiv sifatarga harakatni, oʻtkazuvchanlikni, zichlikni, zarrachalarning ulanishini, figurani, hajmini va boshqalarni sezishni kiritgan. Ikkilamchi yoki subyektiv sifatlar “narsalarning oʻzida emas”, balki birlamchi sifatarga bogʻliq boʻlib, subyektiv ravishda yaratiladi.

M.V.Lomonosov birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limotni tanqid qilib chiqqan. U sezgilar obyektiv va hech qanday ikkilamchi subyektiv sifatlar yo'q deb hisoblagan.

Ingliz faylasufi J.Berkli (1689-1753) va uning izdoshlari Lokkning ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limotining tarafdori bo'lib, ular insonning barcha hamma sezgilari subyektiv bo'lib, ong tomonidan yaratilgan deb hisobladilar. Xristian Volf (1679-1754). Nemis faylasufi X. Volf "ratsionalistik" va "empirik" psixologiyaning birgalikda mavjudligi qonunini taklif etdi. U o'zining "Empirik psixologiya" va "Ratsionalistik psixologiya" nomli ikki katta asarlarida bu ikki oqimni asoslab bergan. Ratsionalistik psixologiya aqliy-ratsionalistik metoddan foydalanib, ruh va uning mohiyatini o'rganadi. Empirik psixologiya kuzatish va tajriba yordamida ruh hodisalarini, ya'ni ichki tajriba faktlarini o'rganadi.

Umuman shuni aytish kerakki, XVIII asrda Yevropaning barcha mamlakatlarida empirik psixologiya yagona hukmron psixologiya tizimi bo'lib qoldi. Metafizik ratsionalistik psixologiyaning masalalari ba'zi bir faylasuflar (Leybnits, Kant va boshqalar) tomonidan bahs qilina boshladi. Dekartning opponentlaridan biri B.Spinoza bo'lgan (1632-1677y). Spinoza uchta asosiy undovchi kuchni ajratgan: xohish, quvonch, g'am. U quvonch tananing harakat qobiliyatini oshiradi, g'am esa teskarisi susaytiradi, ya'ni ruhning holati tananing harakatlariga ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblagan.

Frantsuz faylasuflari D.Didro (1713-1784), P.Golbax ((1713-1789), K.Gelvetsiy ((1715-1771), E.Kondilyak (1715-1780) lar psixik sifatarning rivojlanishi ijtimoiy muhit ta'sirida ro'y beradi degan g'oyani ilgari surishdi.

D.Gartli (1705-1757). Angliyalik olim D.Gartli J.Lokkning g'oyalarini rivojlantirib assotsiativ psixologiyaning asoschilaridan biri bo'ldi. Assotsiatsiyalar tushunchasi ostida bir psixik hodisalarning boshqalari bilan qonuniy aloqasi tushunilgan. Gartlining fikriga ko'ra ruhiy dunyo uchta unsur: sezgi, fikr (g'oya) va hislarning asosida quriladi. U assotsiatsiyalar mexanizmini psixik faoliyatni tushuntiruvchi universal tamoyilga aylantirdi.

Evropada XIX asrda assotsiatsiyalar va ularning inson psixik faoliyatidagi roli haqidagi g'oyalar juda keng tarqaldi. Bu o'z navbatida empirik psixologiyaning tarkibida "assotsiativ psixologiya" deb atalgan yangi yo'nalishning vujudga kelishiga olib keldi.

Assotsiativ psixologiya ayrim sezgi va tasavvurlar o'zaro mexanik bog'lanishlar bilan birlashadi degan g'oyani ilgari surdi.

Assotsiativ psixologiyaning diqqat markazida ongning yuksak murakkab jarayonlarini, ya'ni tafakkur, nutq va irodalarni tajriba asosida (asosan o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan) o'rganishi turdi. Bu assotsiativ psixologiyaning psixologiyaga qo'shgan eng katta xizmati edi. XIX asrning 70-yillarida fanning rivoji psixika haqidagi barcha bilimlarni birlashtirib, alohida fan bo'lish zaruratini vujudga keltirdi.

V.M.Vundt (1832-1920). V.Vundt fiziolog bo'la turib, psixologiya bilan shug'ullana boshlagan. "Fiziologik psixologiya asoslari" asarida psixika haqidagi barcha bilimlarni to'plab yangi fanni shakllantirdi va unga psixologiya nomini berdi.

Vundt 1879 yilda Leyptsigda birinchi tajriba laboratoriyasini tashkil etdi. Bu laboratoriyada sezgi qonuniyatlari, turli qo'zg'atuvchilarga reaksiyalar vaqti, assotsiatsiyalar mexanizmi, diqqat o'rganilgan. Asosiy metod –introspektsiya, subyektning o'z ongidagi jarayonlarni kuzatishi hisoblangan. Tafakkur va iroda kabi murakkab jarayonlar masalasida Vundt dasturining kamchiliklari ko'rinib qolgan. Lekin shunday bo'lsada, Vundt maktabi tomonidan amalga oshirilgan ishlar eksperimental psixologiyaga asos solgan.

Xorij psixologiyasida zamonaviy yondoshuvlar. Psixologiya xorijda jadal rivojlandi: psixikani tadqiq etuvchi turli yo'nalishlar va yondoshuvlar vujudga keldi. Bir necha eng mashhurlarini ko'rib chiqamiz.

Bixeviorizm (behaviour xulq) XX asr amerika psixologiyasidagi yo'nalish hisoblanadi. Bu yo'nalish ongni ilmiy metodlar bilan o'rganishni inkor etadi va xatti-harakatni o'zlarining o'rganish predmeti sifatida tanlaydilar. Bu yo'nalish xatti-harakatni tevarak - muhit ta'sirotlariga organizmning javob reaksiyalarining yig'indisi sifatida ko'radi.

Bixeviorizmning asoschisi amerikalik psixolog D.Uotson (1878-1958y) va uning izdoshlari ko'nikmalarning rivojlanishini S-R (stimul-reaktsiya) sxemasiga javob beruvchi shartli reflekslarning vujudga kelishi natijasi sifatida tushuntirishga harakat qiladilar. Bu har bir vaziyatga (stimulga) muayyan harakat (reaktsiya) mos keladi. D.Uotson o'zining "Bixeviorizm" kitobida yozadi: "Menga o'nta sog'lom normal bolani ishonib va ularni o'zim xohlaganimdek tarbiyalashga imkon bering va men ulardan har birini ixtiyoriy tanlab

qobiliyati, layoqati va ajdodlarining irqidan qat'iy nazar o'zimga o'ylaganimdek: vrach, yurist, rassom, sotuvchi, qashshoq yoki o'g'ri odam qilishga kafolat beraman". D.Uotson hayotining oxirida faqat muhit emas, irsiyat ham insonning taraqqiyotini belgilashini tan oldi.

B.Skinner (1904-1990) Uotsonning izdoshi bo'lgan. U tirik mavjudotning har qanday harakati muhitga bog'liq, degan xulosaga kelgan. U ichki mexanizmlarni o'rganishdan voz kechib, xulq reaksiyalarining namoyon bo'lishida tashqi omillarning roliga e'tiborini qaratgan.

Psixoanaliz. 1896 yilda Z.Freyd (1856-1939y) o'zining metodlarini tavsiflash uchun birinchi marta "psixoanaliz" tushunchasini qo'llagan. Psixoanalizning asosiy metodi erkin assotsiatsiyalardir. Psixoanalizning maqsadi ilgari kirish mumkin bo'lmagan ongsizlikdagi materialni ongli tahlil qilish uchun ozod etish. Asta-sekin uning atrofida uning g'oyalari bilan qiziquvchi vrachlar to'plana boshladi: A.Adler, K.Yung, K.Abraxam va boshqalar. Freyd butun hayoti davomida o'z g'oyasini rivojlantirdi. Uning asarlari to'plami 24 tomndan iborat. Freyd qanchalik mashhur bo'lgani sari, uning tanqidchilari ham ko'paydi. 1933 yilda fashistlar Berlinda uning ko'p kitoblarini yoqib tashlashgan. Buni ko'rib Freyd: "Qanday rivojlanish. O'rta asrlarda ular meni yoqqan bo'lishardi, endi kitoblarimni yoqish bilan cheklanishdi" degan edi. Freyd ong, ong osti va ongsizlikdan iborat uchta toifani ajratadi. Ong –aqliy faoliyatning kichik bo'lagi bo'lib, biz mazkur vaqtda angelayotgan narsalardan iborat. Ongsizlik oldingi fikrlar va hislar bilan bog'liq bo'lmagandek tuyulayotgan fikr yoki his. Ong osti osongina ongli bo'lishi mumkin bo'lgan va xotiradan chiqazib olingan ongsizlikning bir kichik bo'lagi.

Freyd insonni harakatga keltiruvchi ikkita asosiy instinktni ajratadi: hayot instinkti va o'lim. Birinchisi, hayotiy muhim jarayonlarni ushlab turishga xizmat qiluvchi va turning ko'payishini ta'minlovchi barcha kuchlardan iborat. Bunda jinsiy instinkt energiyasi – libido katta ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi guruh instiktlari – o'lim instinkti shavqatsizlik, tajovuzkorlik, qotillik kabi harakatlarning asosida yotadi.

20-yillarning boshlarida Freyd psixikaning kontseptual modelini qayta ko'rib chiqdi va uchta strukturani kiritdi: id, ego, super-ego.

Id (lot. id – u) – ovqat, uyqu kabi shaxsning eng oddiy, tug'ma mexanizmlari. Ular organizmga energiya beradi va qoniqish hissi

tamoyili bo'yicha harakat qiladi. Ego (lot. ego-men) shaxsning qaror qabul qilish uchun javob beruvchi komponenti. U reallik tamoyiliga bo'ysunadi. Uning maqsadi instinktlarni qondirishni mumkin bo'lgunga qadar kechiktirish yo'li bilan organizmning butunligini saqlashdan iborat. Super-ego (lot. super ego – oliy-men) o'zida xulqning standartlari va normalarining yig'indisini namoyon etuvchi shaxs komponenti.

Freydning izdoshlari (K.Xorni, E.Fromm, E.Erikson, A.Freyd) yaratgan ta'limotlarning yig'indisi neopsixoanaliz deyiladi.

Kognitiv yondoshuv (lot.cognoscere - bilmoq) zamonaviy psixologiyadagi yondoshuv bo'lib, XX asrning 50-yillarida vujudga kelgan. Bu yo'nalish ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va uning odamni xulqiga ta'siri qonuniyatlarini o'rganadi. Kognitiv psixologiyaning vujudga kelishiga bixeviorizm va psixoanalizning ong unsurlariga murojaat emasdan insonning xatti-harakatlarini tushuntirib bera olmasliklari turtki bo'ldi. Kognitiv psixologiya o'zida ikkita yo'nalishni geshtalpsixologiya va konstruktivizmni birlashtirdi.

Geshtalpsixologiya. XX asrning 20-yillarida vujudga keldi. Uning asosiy maqsadi psixikani yaxlit struktura (geshtal'tlar) nuqtai nazaridan tadqiq etish bo'ldi. Geshtal'tchilarning asosiy g'oyasi tevarak dunyo yaxlit, demak, bizning bu dunyoni idrok qilishimiz ham yaxlit bo'ladi, ya'ni biz yaxlit butunni idrok qilamiz, uning bo'laklarini emas. Geshtal'tpsixologlar ilgari surgan g'oyalar psixologiyaning idrokdan tortib guruh dinamikasigacha bo'lgan bo'limlariga kiritilgan.

Konstruktivizm. Bu yondoshuvning asoschilaridan biri shveysariyalik psixolog J.Piajedir (1896-1980 y). U psixikani rivojlanishining davrlashish nazariyasini ilgari surdi. Bu yondoshuv tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari: idrok jarayonlari, obrazlarni tanish, taraqqiyot psixologiyasi, tafakkur, intellekt, motivatsiya va boshqalar.

Gumanistik yondoshuv (K.Rodgers, A.Maslou, G.Olport, R.Mey). Gumanistik psixologiya zamonaviy psixologiyaning yo'nalishi sifatida XX asrning 60-yillarida vujudga keldi. U o'z-o'zini anglash jarayonida o'z imkoniyatlarini ochuvchi sog'lom ijodiy shaxsni o'rganadi. Gumanistik psixologiyaning o'rganish obyekti sevgi, ijod, rivojlanish, insoning o'z harakatlari uchun mas'uliyati va boshqalar.

PSIXOLOGIYA FANIGA NAZARIY YONDASHISH

Zamonaviy psixologik yondashuvlar

Birinchi psixologik fenomenga turlicha nazariya bilan yondashish mumkin. Biologik yondashuvda miyadagi jarayonlarni va jismoniy o'zgarishlarini o'rganadi, masalan, yuz qizarishi, asabiylashish holatlari kirilgan. Evolyutsion yondashuv uchun individning "g'azab" holati geniga ta'siri e'tiborlidir deb keltirilgan. Bugungi kunda shu kabi zamonaviy psixologik yondashuvlar esa psixologiyaning nazariyasini boyitib bormoqda. Ularni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin

Zamonaviy psixologik yondashuvlar

| Nazariy yondashuvlar | Tadqiqot predmeti | Muhim savollar |
|----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Biologik | Fiziologik jarayonlar asosida emotsiya, xotira, sensor tajribaning paydo bo'lishi | Impulslar qanday kuzatiladi? Qonning kimyoviy tarkibi kayfiyat bilan qanday bog'liq? |
| Emotsiyalar | Muayyan genlar yig'indisidagi xususiyatlarning tabiiy tanlash jarayonida saqlanishi | Evolyutsiya xulq-atvorga qanday ta'sir ko'rsatadi? |
| Xulq-genetikasi | Genlarning va atrof-muhitning individual farqlanishga ta'siri | Intellekt, shaxs, jinsiy orentatsiya, depressiya qay darajada gen va atrof muhitga bog'liq? |
| Bixevioristik | Kuzatuv orqali bilimga ega bo'lish | Nima uchun ba'zi obyekt va vaziyatlardan qochamiz? Ortiqcha vazn va chekish kabi odatlarni qanday o'zgartirish mumkin. |
| Kognitiv | Ma'lumotga ishlov berish, saqlash va qayta ishlab chiqish | Eslab qolishda, fikrlashda va muammoni yechishda ma'lumotdan qay tarzda foydalanamiz. |
| Sotsio-madaniy | Muayyan hayotiy vaziyat va madaniy an'analarga xulq-atvor va fikrlashning bog'liqligi | O'xshashlik nimada? Afrikalik, Avstriyalik, Osiyolik, Amerikalik - bir oila sifatida nima bilan farq qilamiz? |

Genetik mutaxassislar fikricha inson temperamentiga irsiyat va tajriba ta'sir ko'rsatadi –degan yondashuvlarni berishgan.

Bixevioristlarni mimika va pantomima jarayonlari qiziqtirib kelgan.

Kognitiv yondashuvda esa, g'azab qismining intensivligi va uning ongga bo'lgan ta'siriga e'tiborini qaratadi.

Sotsial-madaniy yondashuvlar hisni paydo qiluvchi vaziyatni o'rgatadi.

Yuqorida ko'rsatilgan psixologiyadagi bu barcha nazariy yondashuvlar ziddiyatli bo'lishi shart emas, aksincha bitta psixologik holatga 6 xil nuqtai nazarning mavjudligidir. Bu yondashuvlar bir-birini to'ldiradi. Demak, ko'plab hodisalarga bog'liq turli xil savollar o'z-o'zidan psixologik yondashuvlarni talab qiladi.

Psixologik yondashuvlardagi komplementorlik tamoyili (to'ldirish) boshqa nazariy fanlarga ham xosdir va bu tabiatdagi bizning o'mimizni o'z holicha tushuntirib beradi. Tabiiy fanlar tabiatning qonuniyatlarini (atom, quvvat kuchlari, tirik hujayra)larni o'rganadi. Gumanitar fanlar hayot mazmunini va qadr-qimmatini o'rgatadi. Psixologiya esa bizning fikrimizni va xatti-harakatlarimizni o'rganadi.

Psixologiyaning o'z chegaralari bor, u sizga aniq va yakuniy javob bermaydi. Masalan, Lev Tolstoyning quyidagi “Nima uchun yashayapman? Nimadir qilishim shartni? Hayotda kutib turgan o'limga bo'ysunmaslikdan maqsad bormi”,-degan savollarga har bir shaxs o'zicha javob beradi. Biroq psixologiya sizga fan sifatida odamning hissiyoti, o'yi, xatti-harakatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

PSIXOLOGIYANING ASOSIY MUAMMOLARI

Psixologiyaning asosiy muammosi biologik va ijtimoiy omilning insonga ta'siridir. Psixologiya hal qiladigan muammolardan biri o'zgaruvchanlik va qat'yatlikning nisbatidir.

Inson hayoti davomida o'zgaradimi? Tortinchoq bolakay, o'spirinligida sho'x yigitga aylanadimi?

Inson shaxsi turli vaziyatlarda o'zgaradimi? – kabi savollarga ilmiy izlanishlari, tajribalari bilan javob beradi. Psixologiyaning keyingi muammosi – ratsional va irratsionallik nisbati.

“Aqlli inson tushunchasiga qay darajada loyiqmiz? Ba'zan biz til bilishda abstrakt g'oyalarga ishlov berishda, eng yangi kompyuterdan

ham o'tib tushamiz. Ba'zan xulqni sabab bilan bog'lashga harakat qilamiz, ba'zan ratsional, ba'zan oqilona fikr bildiramiz. Biroq, biz xato qilishga moyilmiz. Ba'zan reallikni o'zimizning soxta qarashlarimizga qarab o'z-o'zimizni aldaymiz. Ba'zan bizga quruq statistikadan ko'ra latifa ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Mavjud bo'lmagan sabab va aloqalarni ko'ramiz. Biroq, eng asosiy muammo biologiya va tajriba o'rtasidagi nisbatdir.

Psixologiya qanday fan?

Djeyms Kalatning "Psixologiyaga kirish" nomli kitobida psixologiyani o'rganishda 3 ta asosiy aspektlariga e'tibor qaratilgan. 1) xulq-atvorning barcha xususiyatlarini o'rganish; 2) xulq-atvorning genetik tomonidan o'rganilishi; 3) xulq-atvorning ijtimoiy muhit ta'sirida o'zgarib borishi. Djeyms U, Kalatning fikricha, psixologiya keng qamrovli fan bo'lib, u o'ziga shaxsning hissiyotlarini, idrok etishi, xotirasi, och qolishi, chanqashi, e'tibor berishi, bola rivojlanishining bosqichlarini ya'ni yosh davrlariga qarab xulq-atvorning o'zgarib borishini ko'rsatadigan ko'p aspektlarning o'zaro ta'sirini ham o'rganib boradigan fan deb aytib o'tgan. Psixologiya faniga shaxs xarakterini va tajribalarini o'rganuvchi tizim sifatida qarashimiz mumkin. Shaxsning xarakteri o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Masalan:



2-rasm

Ushbu rasmda siz ko'rib turgan 1 xil chiziq ahamiyatsizdek ko'rinadi. Yaxshilab qarasangiz 1-chiziq uzun ko'rinadi 2-chiziq esa kalta ko'rinadi. Psixologiyada xarakter tushunchasiga juda ko'p ta'riflar mavjud. Shunday bo'lsa-da 1 chiziq xarakterning cheksiz,

o'zgaruvchan ekanligini ko'rsatadi. 2- chiziqda esa biz tajriba jarayonidagi ma'lum xarakterni ko'rishimiz mumkin¹.

Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida odam o'zini hayajonlantirgan, taajjubga solgan savollarga javob izlash imkoniyatini topgan. Buning natijasida "inson o'ziga-o'zi ta'sir o'tkaza oladimi?" "O'zgalargachi?", "Inson qanday fikrlaydi?" Psixologiya o'zi nima? kabi turli-tuman muammolar yechimini qidirishga to'g'ri keldi.

PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Insonda jismoniy tanadan tashqari undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdan mavjud bo'lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko'rish hodisasi orqali ayrim odamlarning noyob qobiliyatlari (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o'lim va boshqa hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilgan. Ammo dastlabki qarashlar mifologik xarakterda edi. Ular fikrlash orqali emas, ko'r-ko'rona ishonch vositasida egallanardi. Ruh haqidagi qarashlar ko'pincha nafas bilan bog'lanardi, ruhni esa uchar maxluq sifatida tasavvur etardilar. Bu fikrlarga ko'ra ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o'zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar «animizm» deb ataladi. Animizm so'zi –anima «jon» degan ma'noni anglatadi. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi Geraklit tomonidan, yoki olovsimon atomdan iboratligi Demokrit tomonidan ta'kidlangan. Demak, Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarning rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi. Psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelish bosqichlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Psixologik ilmlar qachon va qanday boshlandi? Inson bo'lish bu o'zimiz haqimizda bizni o'rab turgan dunyo haqida bilishga intilish hisoblanadi. Eramizdan 300 yil oldin grek tabiatshunosi va filosofi Aristotel o'rganish va xotira, motivatsiya va shaxs haqida o'z mulohazalarini bildirib o'tgan. Bugungi kunda, biz uning ba'zi

¹ James W. Kalat Introduction to Psychology, USA 2013

taxminlaridan hayratlanamiz. Lekin, Aristotel psixologiyaga to'g'ri savollar bilan murojaat qilgan.

Ilmiy psixologiyaning rivojlanishi. Psixologiya keyingi vaqtlarda yosh ilmiy psixologiya sifatida ko'proq e'tibor qaratilgan sohalar: filosofiya va biologiya tarkibida rivojlandi. 1879 yilda V. Vund Leypsing universiteti huzurida eksperimental psixologiya bo'yicha birinchi laboratoriya ochgan. Faylasuf V. Vundning psixologik ilmiy nazariyalari paydo bo'la boshladi. Amerikalik faylasuf D.Jeymes, Rossiyalik psixolog Ivan Pavlovning markaziy nerv sistemasini o'rganishlari, V.F.Skinnerning qarashlarning xulq-atvorni o'rganuvchi yetakchi mutaxassis sifatida "rad etilgan fikrlar va g'oyalar kuzatuvchisi va oqibatlar qanday qilib xulq-atvorni shakllantirish"ini o'rganib psixologiyaning ilmiy izlanishlariga turtki berdilar.

Psixologik munosabatlar, xulq-atvor, ichki kechinmalar va fikrlar bilan aloqador bo'lgani uchun psixologiyani xulq-atvor va aqliy jarayonlar haqidagi fan sifatida ta'riflashimiz mumkin. Aniqroq ta'rif beradigan bo'lsak, xulq-atvor bu tirik mavjudot bajaradigan, biz ko'radigan va xotiraga saqlab qo'yadigan barcha harakatlardir. Dodlash, kulish, ko'zni pir-piratish, terlash, suhbatlashish va savol-javob o'tkazish bular barchasi kuzatiluvchi xulq-atvorlardir. Aqliy jarayonlar esa bu ichki, shaxsiy tajribalardan kelib chiqadigan taassurotlar, tushunchalar, orzular, fikrlar, ishonch va hissiyotlardir. Psixologiyadagi asosiy so'z bu ilmdir. D.Mayersning ta'rifi bo'yicha "Psixologiya bu savol so'rash va javob berishdan farqli o'laroq bir butun kashfiyotlar yig'indisidir".

PSIXIK AKS ETTIRISH

Psixikaning nerv-fiziologik asoslari. Reflekslar. Nerv tizimining tuzilishi. Odam psixikasi qanday murakkab hodisa bo'lishidan qa'tiy nazar o'zining moddiy asosiga egadir. Psixikaning moddiy asosi organizmning nerv tizimi hisoblanadi. Psixika birinchi navbatda organizm nerv tizimining yuksak qismi bo'lmish bosh miyaning faoliyati bilan bog'liq.

Odam va yuksak taraqqiy etgan hayvonlarning asab tizimlari g'oyat murakkab tuzilishga ega. Organizm nerv tizimining tuzilishi va

faoliyati, ya'ni qanday ishlashi haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lmay turib, psixik jarayonlarning mohiyatini bilish mumkin emas.



Odam va hayvonlarning nerv tizimlari anatomik jihatdan juda murakkab tuzilgan bo'lib, asosan ikki qismdan iboratdir. Ulardan birinchisi markaziy nerv tizimi bo'lsa, ikkinchisi periferik nerv tizimidir.

Organizmning hamma a'zolari kabi nerv tizimi ham hujayralardan tarkib topgan. Nerv tizimi hujayrasi protoplazmadan iborat tanacha va ikki xil o'simtga ega bo'ladi(1-rasm). Bu o'simtalarning bittasi kalta, lekin juda shohlab ketgan sertarmoq bo'lib, dendrit deyiladi. Ikkinchisi esa, tarmoqsiz uzun bo'lib, neyrit deyiladi. Neyrit, odatda, nerv tolasi deb ataladi. Nerv hujayrasi o'simtalar bilan birgalikda neyronni hosil qiladi. Demak, organizmning asab tizimi nihoyatda ko'p neyronlardan tuzilgan bo'ladi.

Nerv tolasi ikkita parda bilan o'ralgan bo'ladi. Neyritga yopishib turadigan birinchi pardasi yoysimon parda bo'lib, uni et parda yoki *mielin* pardasi deb ataladi. Ikkinchi tashqi pardasini *shvani* pardasi deyiladi. Bu pardalar toladan o'tuvchi nerv qo'zg'alishini ajratib turuvchi izolyatsiya vazifasini bajaradi.

Nerv hujayralari va mielinli tolalar to'plami miyaning kul rang moddasini, mielinli nerv tolalarning to'plami esa miyaning oq moddasini tashkil etadi.

Hujayralar, ularning yadrolari va tolalari *sinapslar* (yunoncha sinaps - «ilgak») degan ma'noni bildiradi) degan maxsus mayda tolachalar yordami bilan bevosita bog'lanadi.



1-rasm. Nerv hujayrasi: 1-dendrit, 2-hujayra tanasi, 3-neyrit


Nerv tizimining, shu jumladan, nerv hujayralarining maxsus xossalari bo'lib, ulardan asosiylari – qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlikdir. Agar nerv tizimining biron joyiga ta'sir etilsa, ana shu joyda maxsus fiziologik jarayon yuz beradi. Bu qo'zg'alish jarayonidir. Organizmning nerv tizimiga istalgan narsa bilan ta'sir qilib qo'zg'alishni vujudga keltirish mumkin. Agar nerv tolasi yetarli darajada qo'zg'atilsa, bu qo'zg'alish jarayoni sodir bo'lgan joydagina qolmay, balki nerv tolasi bo'ylab tez tarqaladi, ya'ni bir nerv hujayrasidan ikkinchi nerv hujayrasiga o'tib, markaziy nerv tizimiga (bosh miya yarim sharlari yoki orqa miyaga) yetkaziladi. Nerv to'qimasida qo'zg'alish yuz berganda bir qancha hodisalar: elektr, kimyo, issiqlik hodisalari yuzaga keladi. Yonma – yon turgan bir nerv hujayrasining nerv tolasi bilan ikkinchi nerv hujayrasining tutashadigan joyi sinapslar borligi tufayli, ko'zg'alish nerv tolalarida bir tomonga tarqaladi. Mielin parda mavjudligi sababli, qo'zg'alish nerv tolasida alohida-alohida tarqaladi.

Odamning nerv tizimi hayvonot olamining uzoq, evolyutsiyasi jarayonida va odamning tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelgan.

Markaziy nerv tizimi. Markaziy nerv tizimi bosh miya va orqa miyadan iborat bo'lib, organizmning butun faoliyatini boshqaradi. Markaziy nerv tizimi barcha psixik jarayonlarning moddiy asosi hisoblanadi. Bosh va orqa miya alohida tuzilishga ega bo'lib, har birining o'ziga xos maxsus vazifalari bordir. Orqa miya umurtqa pog'onasining, ya'ni umurtqa suyagining o'rtasidagi kanalda joylashgan. Orqa miyada ongli psixik jarayonlarni emas, balki asosan ongsiz, ya'ni oddiy reflektor harakatlarni boshqaradigan markazlar joylashgandir. Orqa miyada asosan tana va qo'l-oyoq muskullarini, ko'z muskullarini, bo'yin muskullarini idora qiladigan va shuningdek, organizmda bo'ladigan bir qancha fiziologik jarayonlarni, ya'ni tomir harakatlari, +ter chiqarish hamda shu kabi jarayonlarni ham boshqaradigan nerv markazlari joylashgan. Ana shunday markazlardan ba'zilar vegetativ nerv tizimiga tegishlidir. Vegetativ nerv tizimi periferik nerv tizimining maxsus qismi bo'lib, orqa miyaning har ikki tomoniga joylashgan nerv tugunlaridan iboratdir. Vegetativ nerv tizimi, asosan ichki a'zolarning (yurak, o'pka, oshqozon, jigar, buyrak) ishlarini idora qiladi.

Markaziy nerv tizimining eng asosiy va eng murakkab qismi bosh miyadir. Bosh miya asosan ikkita katta miya yarim sharlari va yana bir

necha qismlardan tashkil topgan. Bu qismlarga: oraliq miya, o'rta miya, Varoliy ko'prigi, uzunchoq miya va miyacha kiradi (2-rasm).



2-rasm. Bosh miya yarim sharining ko'rinishi:1-miya sopi, 2-uzunchoq miya, 3-miyacha, 4-Varoliy ko'prigi, 5-o'rta miya,6-oraliq miya, 7-bosh miya yarim sharlari

Bosh miyaning har bir qismi o'zining maxsus vazifalariga ega. Bosh miyaning qaysi qismi yuqoriroq joylashgan bo'lsa, uning bajaradigan vazifasi ham murakkablashib boradi. Masalan, nerv tizimining eng quyi qismida joylashgan orqa miya organizm muskullarining ishini hamda ayrim ichki a'zolarining faoliyatini boshqaradi. Orqa miyadan yuqoriroqda joylashgan uzunchoq miya va miyacha esa ancha murakkab vazifalarni, ya'ni qon aylanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish a'zolarining faoliyatini (uzunchoq miya) hamda organizmning ayrim ixtiyorsiz harakatlari va muvozanatini saqlab turishini (miyacha) idora qiladi. Miyachaning juda katta ahamiyatga ega ekanligi shundan bilinadiki, miyacha olib tashlangandan keyin tananing muvozanat va harakat funktsiyalari buziladi, harakatlar tartibsiz, chalkash, poyma-poy bo'lib qoladi (xuddi mast odamnikidek). Miyachasi olib tashlangan har qanday hayvon qaddini ko'tara olmaydi va boshini tutib tura olmaydi. Undan ham yuqoriroqda joylashgan o'rta miya, Varoliy ko'prigi va oraliq-miyalar organizmning ixtiyorsiz (ya'ni reflektor) harakatlarini va muskullarning taranglik holatlarini boshqaradilar. SHuningdek, oraliq miya organizmning umumiy sezgirligini ham idora qiladi.

Bosh miya yarim sharlari. Markaziy nerv tizimining eng yuqori joylashgan qismi bosh miyaning katta yarim sharlaridir. Bosh miya katta yarim sharlari markaziy nerv tizimining oliy qismi hisoblanadi.

Bosh miya yarim sharlari ikki qismdan iborat. Ulardan birinchisi bosh miya katta yarim sharlarining butun sirtini qoplagan po'st qismi, ikkinchisi esa, bosh miya yarim sharlarining butun hajmini tashkil qilgan po'st osti qismi. Bosh miya katta yarim sharlarining po'sti kul rang moddadan iborat bo'lib, u nerv hujayralarining tanachalaridan tashkil topgandir. Bosh miya katta yarim sharlari po'stini tashkil etgan nerv hujayralarining soni 14-15 milliardga yaqin bo'ladi.

Bosh miya katta yarim sharlarning po'st osti qismi oq rangdagi moddadan iborat bo'lib, aslida organizmning hamma tomonlaridan kelgan va bosh miya katta yarim sharlari po'stidagi nerv hujayralarining tanachalari bilan borib tutashadigan millionlab nerv tolalaridan iborat.

Bosh miya katta yarim sharlarining po'sti va po'st osti qismlari eng murakkab vazifalarni, ya'ni organizmning individual hayoti davomida orttiradigan barcha harakat va faoliyatlarini boshqaradi. Odamning tashqi muhitga moslashishi va bilim orttirish kabi g'oyat murakkab faoliyatlarini ham ana shu bosh miya yarim sharlarining po'sti va qisman po'st osti qismi boshqaradi. SHuning uchun bosh miya katta yarim sharlari po'sti va po'st osti qismining faoliyati psixik jarayonlarning moddiy, ya'ni fiziologik asosini tashkil etadi.

Psixik jarayonlarning yuzaga kelishida faqat bosh miya katta yarim sharlari hamda uning po'sti qismlari faoliyatigina emas, balki periferik nerv tizimining ham faoliyati katta rol o'ynaydi. Periferik nerv tizimi markaziy nerv tizimi (bosh va orqa miya bilan) bilan chambarchas bog'liq bo'lib, undan ajralmasdir.

Periferik nerv tizimi son-sanoqsiz nerv tolalaridan tuzilgan bo'lib, bu nerv tolalari markaziy nerv tizimidan, chiqib butun organizmga tarqalib ketgan. Periferik nerv tizimining nerv tolalari organizmning har bir qismini bosh miya va orqa miya bilan bog'laydi. Binobarin, periferik nerv tizimining nerv tolalari bosh miyaning hamma qismlari bilan ham bog'lanadi.

Periferik nerv tizimining nerv tolalari o'zining bajaradigan vazifasi va xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Ulardan birinchisi – sezuvchi nervlar bo'lib, ular organizmning har bir joyida yuz bergan ta'sirotni darhol orqa yoki bosh miyaning tegishli joyiga yetkazadi. Ikkinchisi esa – harakatlantiruvchi nerv tolalari bo'lib, ular bosh va orqa miyaning tegishli markazlaridan organizmning turli a'zolariga nerv impulsini, ya'ni markazlarning buyruqlarini o'tkazadi.

Demak, har bir psixik jarayon periferik nerv tizimi sezuvchi nerv tolalarining tashqi yoki ichki muhit ta'siridan qo'zg'alishi hamda bu qo'zg'alishni orqa yoki bosh miyaga o'tkazishidan boshlanadi.

Odam va hayvonlar organizmining tashqi muhitga moslashuvi, ya'ni tashqi muhit bilan qiladigan o'zaro munosabati nerv tizimining (markaziy va periferik) yordami bilan amalga oshiriladi, odamning o'z ichki muhiti bilan, ya'ni ichki a'zolari bilan ham qiladigan munosabatlari nerv tizimi yordami bilan amalga oshiriladi.


Katta yarim sharlar po'stining peshona qismlarida periferik nerv tizimining ham funktsiyalarini birlashtiradigan yuksak markazlar bor. Bosh miya po'stidan periferik nerv tizimiga ham, vegetativ nerv tizimiga ham impulslar kelib turadi. Binobarin vegetativ nerv tizimini ham, shuningdek, boshqa qism va markazlarni ham bosh miya po'sti boshqaradi.

Vegetativ nerv tizimi umumiy nerv tizimining bir qismi bo'lib, ichki organlar – hazm qilish, nafas olish, qon aylanish organlarining ishlarini va ichki sekretiya bezlarning faoliyatini idora qiladi. Vegetativ nerv tizimi organizmning umuman hamma hayotiy jarayonlarini idora etadi. Organizm jarayonlarining shu tariqa vegetativ nerv tizimi tomonidan idora etilishi organlar faoliyatining kuchayishi va susayishida, ortishi va kamayishida ko'rinadi. Vegetativ nerv tizimi ichki organlar bilangina bog'lanib qolmay, balki organizmning boshqa hamma qismlari bilan ham bog'langandir. Vegetativ nerv tizimining markazdan qochuvchi tolalari hamma sezgi organlarida va teri hujayralarida bor. Vegetativ nerv tizimi o'sha tolalar orqali sezgi organlariga ta'sir etib, ularning faoliyatini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Jumladan, vegetativ nerv tizimi sezgi organlarining adaptatsiyasiga, ya'ni moslashishiga ancha yordam berar ekan. Vegetativ nerv tizimi markaziy nerv tizimining turli qismlariga, jumladan, bosh miya po'stiga ham ta'sir etadi. SHuning uchun ham vegetativ nerv tizimining ta'siri psixik jarayonlarda ham ko'rinadi.

Shartli va shartsiz reflekslar. Mashhur rus fiziolog olimlaridan I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlarning ta'limotlariga ko'ra, nerv tizimining hamma ishi reflektor xarakterga ega, ya'ni har xil murakkablikdagi reflekslardan iborat.

Refleks lotincha soʻz boʻlib, aks ettirish degan maʼnoni anglatadi. *Refleks deb organizmning tashqi muhit taʼsiriga nerv tizimi orqali beradigan javob reaksiyasiga aytiladi.*

Odatda oddiy refleks quyidagicha sodir boʻladi. Odamga hamma vaqt tashqi muhitdan juda koʻp qoʻzgʻatuvchilar taʼsir etib turadi (masalan, har xil tovushlar, quyosh nuri, turli ranglar, har xil harorat va shular kabi). Ana shunday taʼsirotlarning har biri maʼlum sezgi organiga taʼsir etib, u yerdagi sezuvchi nerv tolalarida qoʻzgʻalish jarayonini yuzaga keltiradi. Hosil boʻlgan qoʻzgʻalish nerv tolalari orqali orqa yoki bosh miyadagi muayyan markazga yetkaziladi. Markazda bu taʼsirot tegishli tahlil qilinib, javob reaksiyasi harakatlantiruvchi nerv tolalari orqali maʼlum mushaklar yoki sezgi organlariga yuboriladi (3-rasm).



3-rasm. Tashqi qoʻzgʻatuvchiga organizmning javob reaksiyasi

Masalan, qoʻl kuyganda, qoʻl tortib olinadi, ogʻizga ovqat solinganda soʻlak chiqib boshlaydi, yorugʻda koʻz qorachiqalari torayadi, qorongʻida esa kengayadi. Bu misollarda qoʻlning kuyishi, yorugʻlik qoʻzgʻatuvchilardir, soʻlak ajralishi, koʻz qorachigʻining torayishi va kengayishi organizmning javob harakatlardir. Organizmning tashqi muhit taʼsiriga beradigan ana shunday reaksiyasi, yaʼni javobi odamning irodasiga bogʻliq boʻlmaydi. Suv ichayotgan paytda ozginagina suv nafas olish yoʻliga oʻtib ketsa, odam qattiq qalqib ketadi. Bunda odam toʻsatdan kuchli yoʻtalib, suvni nafas olish yoʻlidan chiqarib tashlaydi. Bu ham refleks, yaʼni organizmning tashqi muhit taʼsiriga javob reaksiyasi.

Ana shunday reflektor harakatlar faqat tashqi muhit taʼsiriga nisbatan emas, balki organizmning oʻz ichki muhitidan boʻlayotgan

ta'sirotlarga nisbatan ham bo'lishi mumkin. Chunki sezuvchi va harakatlantiruvchi nerv tolalari organizmning tashqi muhitga muvofiqlashuvini ta'minlovchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. Agar reflekslar, ya'ni organizmning tashqi va ichki muhit ta'siriga nerv tizimi orqali beradigan javob reaksiyasi bo'lmaganda edi, u paytda organizm o'z hayotini saqlab qola olmas edi.

Akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, reflekslar ikki xil bo'ladi: shartsiz reflekslar va shartli reflekslar.

Shartsiz reflekslar markaziy nerv tizimining quyi qismlarining (orqa miyaning) faoliyati tufayli amalga oshiriladi. Shartsiz reflekslar organizmga tug'ma ravishda, ya'ni nasliy yo'l bilan tayyor holda beriladigan va nisbatan o'zgarmaydigan reflekslardir. Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqda uning hayotini saqlab qolishni ta'minlovchi bir qancha shartsiz reflekslar tayyor holda mavjud bo'ladi. Chaqaloqqa qanday yo'l bilan ovqatlanish lozimligini o'rgatishning hojati yo'q va o'rgatib ham bo'lmaydi, tushuntirib ham bo'lmaydi. Chaqaloqda tug'ilishdanoq ovqatlanish, so'lak ajralish, yutinish, yo'talish, aksirish kabi bir qancha shartsiz reflekslar bor. Shartsiz reflekslar, o'zgarmaydigan doimiy bo'lib, shaxsiy hayot davomida o'rgatishni talab qilmaydi.

Akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, nasliy yo'l bilan tug'ma ravishda beriladigan va son jihatdan nisbatan oz bo'lgan shartsiz reflekslar organizmning o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashuvini to'liq ta'minlay olmaydi. Organizmning doimo o'zgarib turuvchi tashqi muhitga moslashuvini ta'minlovchi mexanizm shartli reflekslardir. Shartli reflekslarning, shartsiz reflekslardan asosiy farqi ular organizmga nasliy yo'l bilan, tayyor holda berilmaydi. Shartli reflekslar organizmning individual hayoti, ya'ni tug'ilgandan keyingi hayoti davomida orttiriladi.

Akademik I.A.Pavlov ta'limotiga ko'ra, reflekslar markaziy nerv tizimining eng yuksak qismlari tomonidan, ya'ni bosh miya katta yarim sharlari va uning po'st qismi tomonidan amalga oshiriladi. Shartli reflekslarning eng muhim xususiyatlari shundan iboratki, ular vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi. Ular ma'lum vaqt mavjud bo'lib, keyinchalik so'nib (tormozlanib) qolishi va yana kerak bo'lgan paytda tiklanishi mumkin.

Shartli reflekslar har doim shartsiz reflekslar asosida hosil qilinadi. Agar biror odamga limon ko'rsatilsa, uning og'zida so'lak

ajrala boshlaydi. CHunki bu odam ilgari o'z hayotida bir necha marotaba limon yegan, uning ta'mini, nordonligini biladi. Limonning ko'rinishi bilan ta'mi o'rtasida shartli refleks vujudga kelgan. SHuning uchun limonning ta'mini totib ko'rmasa ham, uning ko'rinishini o'zi so'lak bezlarini ishga soladi. Agar limon hech qachon ta'mini totib ko'rmagan yosh bolaga ko'rsatilsa, uning og'zida so'lak ajralish jarayoni sodir bo'lmaydi. CHunki yosh bolada hali hayot tajribasi juda oz bo'lgani tufayli limonning ko'rinishi bilan ta'mi o'rtasida shartli refleks yuzaga kelgan emas. Demak, shartli refleks kishining turmush tajribasi bilan bog'liq bo'lgan juda murakkab hodisadir.

SHartli reflekslar mexanizmi itlar ustida tajriba qilish orqali ochilgan. Akademik I.P.Pavlov organizmga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday narsalami qo'zg'atuvchilar deb ataydi.

SHartli refleks organizmga ayni bir vaqtning o'zida ikkita qo'zg'atuvchining ketma-ket ta'sir qilishi orqali hosil qilinadi. Bunda bu qo'zg'atuvchilardan bittasi shartli, ya'ni organizm uchun mutlaqo befarq (indifferent), ikkinchisi esa shartsiz, ya'ni organizm uchun ma'lum biologik ahamiyatga ega bo'lgan (masalan, ovqat) shartsiz qo'zg'atuvchi bilan ta'sir qilinadi. Ana shu tartibdagi ta'sirot bir necha marta takrorlangandan so'ng bosh miya katta yarim sharlari po'stidagi ilgari bog'liq bo'lmagan ikkita markaz o'rtasida vaqtinchalik aloqa yuzaga keladi. Natijada ilgari organizm uchun butunlay befarq bo'lgan (ya'ni indifferent) qo'zg'atuvchi shartli qo'zg'atuvchiga aylanib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, shartli qo'zg'atuvchi shartsiz qo'zg'atuvchining ishini (so'lak ajralishini) bajaradigan qo'zg'atuvchiga aylanib qoladi. Murakkab shartli refleksning mohiyatini aniqroq tushunish uchun I.P.Pavlovning tajribalaridan birortasini olib ko'rish mumkin. SHartli reflekslar hosil qilishda I.P.Pavlov asosan itlarda so'lak ajratish metodidan foydalanadi. Bu organizmda shartli refleks hosil bo'lganini yaqqol ko'rsatuvchi juda qulay metod hisoblanadi. Itlarda shartli refleks hosil qilishdan oldin ularni maxsus tarzda tayyorlanadi. SHartli refleks hosil qilinadigan itlarda dastlab so'lak bezlaridan birining so'lak chiqarish yo'li og'izga ochilmay, tashqariga, ya'ni lunjning sirtiga ochiladi. Bu ajralgan so'lakni ko'rish imkonini beradi. SHundan so'ng itni tajriba o'tkaziladigan, ya'ni shartli refleks hosil qilinadigan maxsus xonaga olib kiriladi. Bu yerda itga dastavval ovqat beriladi. Ovqat it uchun

shartsiz, ya'ni bevosita qo'zg'atuvchidir. It ovqatni og'ziga olishi bilan so'lak ajrala boshlaydi. So'lakning ajralayotganini lunjning sirtiga ochilgan so'lak yo'lga qo'yilgan shisha naychadan bemalol ko'rib turish mumkin. Ovqat og'izga tushishi bilan so'lak ajralishi shartsiz refleksdir. SHundan so'ng ovqat berishdan oldin qandaydir boshqa biror qo'zg'atuvchi (qo'ng'iroqning jaranglashi yoki elektr lampochkasining yonishi kabi) bilan ta'sir qilinadi. Bunday qo'zg'atuvchining ta'siri it uchun batamom befarq, akademik I.P.Pavlov so'zi bilan aytganda, indifferent qo'zg'atuvchidir. Ana shu tariqa ayni bir vaqtning o'zida itga ikkita qo'zg'atuvchi bilan, ya'ni shartsiz qo'zatuvchi (ovqat) va befarq qo'zg'atuvchi (qo'ng'iroq tovushi) bilan ta'sir qilinadi. Ikkala qo'zg'atuvchi – shartli va shartsiz qo'zg'atuvchi yordami bilan ketma-ket bir necha marta ta'sir qilinadi. Natijada qo'ng'iroq chalinib, shartli qo'zg'atuvchi bilan ta'sir qilib, ovqat berilmasa ham, ya'ni shartsiz qo'zg'atuvchi bilan ta'sir qilinmasa ham so'lak ajraladi. Demak, itda shartli refleks hosil bo'ldi.

Bosh miyadagi eshitish markazi bilan so'lak ajratishni boshqaruvchi markaz o'rtasida vaqtinchalik aloqa vujudga keldi. Buning natijasida ilgari befarq bo'lgan qo'zg'atuvchi (qo'ng'iroqning ovozi) shartli qo'zg'atuvchiga aylanib qoldi. Qo'ng'iroqning ovozidan hosil bo'lgan qo'zg'alish endi eshitish markazidan hosil bo'lgan vaqtinchalik yo'l (aloqa) orqali tezda so'lak ajralishini idora qiluvchi markazga o'tib uni ishga tushiradi va so'lak ajrala boshlaydi. Binobarin, shartli qo'zg'atuvchi, ya'ni qo'ng'iroqning ovozi, so'lak ajralish jarayonini bevosita qo'zg'amaydi, balki so'lak ajratishga undovchi shartsiz qo'zg'atuvchi haqida signal beradi. U yoki bu organizmda shartli reflekslar hosil bo'lgandan so'ng shartsiz reflekslar hali organizmga shartsiz qo'zg'atuvchilar (ovqat) bevosita ta'sir etmasdan turib, voqe bo'laveradilar. Organizmga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan atrof muhitdagi har qanday narsa shartli qo'zg'atuvchiga, signalga aylanib qolishi mumkin. SHuning uchun ham akademik I.P.Pavlov bosh miya po'stining faoliyatini signal faoliyati deb atagan.

SHartsiz reflekslar bilan shartli reflekslar o'rtasidagi farq yana shundaki, shartsiz reflekslar doimiy bo'ladi, shartli reflekslar esa zaiflashishi yoki so'nishi mumkin.

Inson va hayvonlar organizmi atrofidagi muhit hech vaqt o'zgarmasdan doimo bir xil turganda edi, hayvonlar organizmi muhit bilan faqat shartsiz reflekslar yordamida bog'lana olar edi. Ammo

organizm yashaydigan tashqi muhitning doimo o'zgarib turishi ma'lum. SHu sababli hayvonlarning saqlanib qolishi uchun shartsiz reflekslarning o'zi kamlik qiladi. Demak, ularga yangi bog'lanishlar, shartli reflekslar qo'shilishi kerak. SHuning uchun ham tashqi muhit tez o'zgarganda quyi darajadagi hayvonlar, shuningdek, hashoratlar nobud bo'ladi, chunki, ularda shartli reflekslar kam va buning ustiga juda sekinlik bilan hosil bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan hayvonlarda esa juda ko'p shartli reflekslar mavjud va ular tez hosil bo'ladi. SHuning uchun bunday hayvonlar tevarak – atrofdagi muhitda tez – tez bo'lib turadigan o'zgarishlarga osonroq moslashadi.

Organik va anorganik materiya doimo harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Inson psixikasining paydo bo'lishi va rivojlanish masalasi tadqiqotchilar oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Ilmiy-materialistik ta'limotga ko'ra psixikaning paydo bo'lishi materiyaning uzoq rivojlanishi natijasidir.

K.E.Fabri eng sodda hayvonlar psixikasi taraqqiyotini ikki bosqichga – quyi va yuqori bosqichga bo'ladi. Psixik taraqqiyotning quyi bosqichi asossan bir hujayrali, qisman ko'p hujayrali hayvonlarga xos bo'lib, bu bosqichda psixika primitiv holatda bo'ladi va hayvon tashqi ta'sirlarga seskanuvchanlik bilangina javob beradi.

O'simlik va hayvon shaklidagi barcha tirik organizmlar o'z evolyusiyasining hamma bosqichlarida aks ettirishning biologik shakli ya'ni, seskanuvchanlikka ega bo'ladi. Seskanuvchanlik tirik organizmning biologik ta'sirlarga javob berish qobiliyatidir.

Oddiy seskanuvchanlikni bir xo'jayrali hayvonlarda ham ko'rish mumkin. Ular muhitning ta'siriga harakatlanish bilan javob beradilar. Biologik ta'sirlarga organizmning o'ziga xos harakatlari bilan javob berish usuliga tropizm yoki taksis deyiladi.

Tropizmning bir qancha turi farq qilinadi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

| TROPIZM TURLARI | |
|-----------------|------------------------------------------------|
| TOPOTROPIZM | derazadagi gulning yorug'likka qarab intilishi |
| GELIOTROPIZM | o'simlikning quyoshga intilishi |
| FOTOTROPIZM, | derazadagi gulning yorug'likka qarab intilishi |

| | |
|--------------|----------------------------------------|
| XEMOTROPIZM | kimyoviy moddalarga moslashuvi |
| TOPOTROPIZM | tebranish va qimirlashdan ta'sirlanish |
| TERMOTROPIZM | haroratga nisbatan o'zgaruvchanlik |

Masalan, derazadagi gulning yorug'likka qarab intilishi - fototropizm, o'simlikning quyoshga intilishi geliotropizm, kimyoviy moddalarga moslashuvi xemotropizm, tebranish va qimirlashdan ta'sirlanish topotropizm, haroratga nisbatan o'zgaruvchanlik termotropizm deyiladi va boshqalar.

Ko'p hujayrali hayvonlarda qo'zg'aluvchanlikning yangi shakli sezuvchanlik mavjuddir. A.A.Leontevning gipotezasiga ko'ra sezuvchanlik genetik jihatdan olganda seskanuvchanlikning o'zidir. U ham muhitning tashqi ta'sirlarga javob berishi asosida vujudga keladi. Faqat sezuvchanlik seskanuvchanlikka nisbatan yuqoriroq bosqichdir.

K.E.Fabri fikricha, psixik taraqqiyotning ikkinchi bosqichi ko'p hujayrali hayvonlarga xosdir. Ko'p hujayrali hayvonlarda aks ettirish bir muncha yuqori bo'ladi. Bunday hayvonlarga kavakichlilar (gidra, meduzani kiritish mumkin. Ular ham bir hujayrali hayvonlar kabi suvda yashaydi. Lekin kavakichlilar o'zining tuzilishi jihatdan bir hujayrali hayvonlardan ancha murakkabdir. Ularning murakkabligi hujayralarining bir- biridan farq qilganligidadir: tanasining tashqi qismidagi xujayralar qoplagich, ichki hxujayralar esa hazm qiluvchi bo'ladi.

Evolyusiya zanjirining yuqoriroq pog'onasida turgan ko'p hujayrali hayvonlarda tana tuzilishi ham ancha murakkablashadi, er sharoitiga mos o'zgarishlar yuz beradi, turli taassurotlarni aks ettiradigan sezgi organlari vujudga keladi, aks ettirish ham murakkablashadi.

Rus fiziolog olimi I.M.Sechenov inson miyasi va organizmining psixik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi bo'yicha ulkan ishlar olib borgan va psixologiyaga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Keyinchalik uning fikrlarini Pavlov rivojlantirdi va shartli reflekslar hodisasini ochdi. *I.P.Pavlovning* fikrlari va ixtirolari hozirgi kunda yangi nazariyalar yaratishga asos bo'ldi. Bularning ichida Breynshteyn, Xoll, Anoxin, Sokolovlarning nazariya va konsepsiyalari ajralib turadi. Sechenov fikricha, barcha psixik hodisalar o'zining ortidan murakkab reflekslar va fiziologik

hodisalarni namoyon qiladi. Pavlovning fikricha o'zini tutish murakkab shartli reflekslarning qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Biroq shartli reflekslar bu oddiy bir fiziologik hodisalar ekanligi keyinchalik ma'lum bo'ldi. SHartli-reflekslar haqidagi ilmlarning ochilishiga qaramay, keyinchalik tirik jonzotlarning yangi qobiliyatlarni o'zlashtirishning boshqa usullari ustida ham ishlar olib borildi. Bunda, ayniqsa, Sokolov va Izmaylovlarning xizmatlari katta. Ular tomonidan konseptual reflektor yoyi tushunchasi ilgari surilgan. U uch o'zaro bog'liq lekin nisbatan erkin neyronlar sistemasidan iborat: afferent(sensorli analizator), effektor(bajaruvchi, harakat organlariga javob beruvchi) va modellashtiruvchi (afferentiv va effektor sistemasi ustidan boshqarib turuvchi). Birinchi neyronlar sistemasi ma'lumotlar qabul qilinishi va qayta ishlanishini taminlaydi, ikkinchi sistema buyruqlar ishlab chiqarilishi va ularning bajarilishini taminlaydi, uchinchi ikkinchi va birinchi sistema ustidan ma'lumotlar almashinuvini taminlaydi. Bu nazariya bilan bir qatorda boshqa nazriyalar ham mavjud, bir tomondan psixik jarayonlarning o'zini boshqarishdagi roli, boshqa tomondan o'zini boshqarishda umumiy boshqaruv modellarining tuzilishida fiziologik va psixologik hodisalarning namoyon bo'lishi. Bernshteynning fikricha eng sodda o'zlashtirilgan xatti-harakatning o'zi ham, murakkab harakatlarni inobatga olmagan holda, psixikaning ishtirokisiz amalga oshirilishi mumkin emas. Uning ta'kidlashicha, har qanday harakatning paydo bo'lishida psixomotor reaksiya mavjud.

Har qanday harakatning o'zlashtirilishi ongning ta'siri ostida amalga oshiriladi. Ong tushunchasi juda ko'p muammolarga duch keladi. Bularga turli xil yondashuvlar ham mavjud. Ong muammosi psixologiyadagi global va eng murakkab muammolardan biridir. Muammoga asosiy yondashuvlarda "Ong"- dedi V.Vund, - bu o'zimizning har qanday psixologik jarayonlarga duch kelishimizdir. Ong psixologik jihatdan o'zida ichki yorug'likni, yorqin yoki zulmatni, ifodalaydi. Inson o'zini yo'qotgan paytda u go'yoki o'chishi ham mumkin.

K.Djeymsning fikricha ong bu "psixik funksiyalarning xo'jayini". Ong – bu o'zgacha psixik kenglik. Ong psixologiyaning sharti bo'lishi mumkin, lekin uning predmeti bo'la olmaydi. Uning mavjudligi psixologik fakt bo'lishiga qaramasdan, uni aniqlash mumkin emas va faqatgina o'zidan chiqarilishi mumkin. Ong sifatsizdir chunki uning

o'zi sifat- psixik jarayon va hodisalarning sifatidir. Sifatni bo'lib bo'lmaydi, u yoki bor yoki yo'q. Yuqorida keltirilgan qarashlarning umumiy xulosasi – bu psixologik sifatsiz ongga urg'u. Vigotskiyning ongga qarashlari qiziqish uyg'otadi. Uning aytishicha “ong- bu o'ziga o'zi, reallikka refleksiya. “Ong o'zi bilan o'zi aloqadadir”. Ong - bu ongdir, ong faqatgina jamiyat onggi va tili mavjud bo'lgandagina mavjud bo'lishi mumkin. Ong tug'ma bo'lmaydi yoki tabiat tomonidan berilmaydi balki u jamiyatda rivojlanadi. Shuning uchun ong psixologiyaning sharti emas balki uning muammosi – ilmiy psixologik izlanishlar predmetidir².

Aytishlaricha, odam miyasida taxminan 14 milliard hujayra mavjud bo'ladi, lekin yangi tug'ilgan bolada ularning ko'pchiligi hali ishga tushmagan bo'ladi.

Yangi tug'ilgan bola va katta yoshdagi kishilarning bosh miya hujayralarini solishtirish shuni ko'rsatdiki, miyaning rivojlanish jarayonida uning hujayralari o'rtasida maxsus o'simta (shoxcha) — ko'priklar shakllanib borar ekan. Bosh miya hujayralari sezgi organlari orqali tashqaridan olayotgan ma'lumotlarga javob berar ekan, go'yo bir – birlariga qo'llarini uzatib, bir-birlarini mahkam ushlab oladi. Bu jarayon elektron kompyuterdagi tranzistorlar ishiga o'xshab ketadi. Har bir alohida olingan tranzistor o'zi alohida ishlay olmaydi, faqat ma'lum bir yagona tizim (sistema) ga birlashgandagina ular kompyuter sifatida ishlay olishi mumkin.

Hujayralarning bir-birlariga bog'lanishi shakllanishining eng faol davri — bu bola tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan davrdir. Bu vaqtda taxminan 70-80% shunday birikmalar vujudga keladi va ular qanday rivojlanishiga qarab, miya imkoniyatlari ham ortib boradi. Tug'ilgandan keyingi dastlabki olti oyda miya o'zining voyaga etish imkoniyatining 50 foiziga erishadi, uch yoshga kelib esa bu ko'rsatkich — 80 foizga etadi. Albatta, bu bola miyasi uch yoshdan keyin o'sishdan to'xtaydi, degani emas. Uch yoshga etib, asosan miyaning orqa (ensa) qismi voyaga etadi, to'rt yoshga kirganda esa bu murakkab jarayonga uning "peshona qism" degan qismi ham qo'shiladi.

Miyaning muhim (asosiy, fundamental) qobiliyati tashqaridan signal qabul qilish, uning obrazini yaratish va esda olib qolishdir. Bu shunday

¹ James W. Kalat, Psychology. USA, 2013 215 p

o'zakki, shunday kompyuterki, bolaning kelajakdagi intellektual rivojlanishi shularga asoslanadi. Tafakkur, ehtiyoj, ijod, hissiyot kabi etuk qobiliyatlar uch yoshdan keyin rivojlanadi, lekin ular shu yoshgacha shakllangan bazadan foydalanadilar.

Psixika —bu yuksak darajada rivojlangan, alohida tashkil topgan materiyaning xususiyatidir. Psihika-bu ob'ektiv olam ta'sirlarini sub'ektiv tarzda inson miyasida aks ettirilishi hamdir.

Shunday qilib, agar dastlabki uch yoshda mustahkam negiz shakllanmagan bo'lsa, undan qanday foydalanishga o'rgatish befoyda. Bu xuddi yomon kompyuterda ishlayotib, yaxshi natijalarga erishishga intilish bilan barobar.

Albatta, yangi tug'ilgan bola mutloq nochordir, biroq aynan shunday bo'lganligi uchun ham uning mavjud (potensial) imkoniyatlari ancha katta bo'ladi. Odam bolasi hayvon bolasiga qaraganda ancha kam rivojlangan bo'lib tug'iladi: u faqat yig'lashni va sut emishni biladi xolos. Hayvon bolasi esa, masalan, itlar, maymunlar yoki otlar emaklashni biladi, tirmashadi yoki hatto birdaniga tik tura olishi va yurib ketishi mumkin. Zoologlarning ta'kidlashicha, yangi tug'ilgan bola, yangi tug'ilgan hayvon bolasidan 10-11 oyga orqada qolgan bo'ladi va buning asosiy sababi — odamning yurishdagi holatidir. Odam tik (vertikal) holatda yurishga o'tishi bilanoq bachadonda bola to'la rivojlanguncha tura olmaydigan bo'lib qolgan, shuning uchun ham bola hali etarlicha rivojlanib ulgurnay butunlay "nochor" bo'lib tug'iladi (dunyoga keladi). Unga tug'ilgandan so'ng o'z tanasidan foydalana olishga o'rganishga to'g'ri keladi. U miyadan foydalanishni ham xuddi shunday o'rganadi. Hind fiziologi *Masaru Ibuka* "Agar har qanday hayvon bolasining miyasi tug'ilish arafasida deyarli shakllanib bo'lgan bo'lsa, yangi tug'ilgan bolaning miyasi — go'yo toza qog'oz varog'i. Bolaning qanchalik iqtidorli bo'lishi shu qog'ozga (varoqqa) nima yozilishiga bog'liq bo'ladi" degan fikrni bildiradi.

Psixika va ongning psixologik tavsifi. Miya fiziologiyasini tadqiq qilish va bolalar psixologiyasini o'rganish, bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlanti ruvchi kalit, bu uni — o'z hayotining dastlabki uch yilida, ya'ni miya hujayralarining rivojlanish davrida o'zlashtirgan shaxsiy bilish - tajribasi ekanligini ko'rsatadi. Hech bir bola daho bo'lib tug'ilmaydi va hech bir bola ahmoq bo'lib ham tug'ilmaydi. Hanmasi bola hayotining

hal qiluvchi yillarida bosh miyaning rivojlanish darajasi va stimulyasiyasiga bog'liq bo'ladi. Bu tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi.

Psixika- Subyektning haqiqiy obyektiv shakli bo'lib hisoblangan materiyaning yuqori tashkiliy xususiyatidir. Insonning ma'naviy shakllanishi uning qalb xislatlarining boshqarilish majmuidir.

Onglilik:

Borliqning umumiyashtirilgan va ko'p qirrali nutqi bilan bog'liq bo'lgan va faqat insonga tegishli yuqori ko'rinishidir.


B) O'ylash qobiliyati, muhokama qilish insonning eng yuqori asab tizimi bilan bog'liq harakati faoliyatidir.

V) Insonning sog'lom holati, kuchli xotirasi o'z his- tuyg'ulari va ishlarida javobgarligi holati.

Amaliy nuqtai nazardan ong tez o'zgarib turadigan his- tuyg'u va aqlli obrazlar subyeksi oldida turgan insonning ichki dunyosidir. Biroq, taxmin qilish mumkinki, bunday psixik faoliyat hayvonlarda ham yuqori rivojlangan. Masalan: itlar, otlar, delfinlar, maymunlar va boshqalarda sodir bo'lishi mumkin.

K.Djeymsning ikricha, ong bu "psixik funksiyalarning xo'jayini".

Ong – bu o'zgacha psixik kenglik. Ong psixologiyaning sharti bo'lishi mumkin, lekin uning predmeti bo'la olmaydi. Uning mavjudligi psixologik fakt bo'lishiga qaramasdan, uni aniqlash mumkin emas va faqatgina o'zidan chiqarilishi mumkin. Ong sifatsizdir chunki uning o'zi sifat- psixik jarayon va hodisalarning sifatidir. Sifatni bo'lib bo'lmaydi, u yoki bor yoki yo'q. Yuqorida keltirilgan qarashlarning umumiy qismi – bu psixologik sifatsiz ongga urg'u. Vigotskiyning ongga qarashlari qiziqish uyg'otadi. U aytilishicha "ong- bu o'ziga o'zi, reallikga refleksiyaadir. "Ong o'zi bilan o'zi aloqadadir". Ong - bu ongdir, ong faqatgina jamiyat onggi va tili mavjud bo'lgandagina mavjud bo'lishi mumkin. Ong tug'ma bo'lmaydi yoki tabiat tomonidan berilmaydi balki u



Ong- ob'ektiv haqiqatning eng yuqori psixik namoyondasi, hamda faqat sotsial mavjudotga tegishli bo'lgan o'z- o'zini boshqarishning eng yuqori sathidir.

jamiyatda rivojlanadi. Shuning uchun ong psixologiyaning sharti emas balki uning muammosi – ilmiy psixologik izlanishlar predmetidir» har qanday tirik organizm uni o‘rab turgan muhitga o‘zaro munosabati bilan xarakterlanadi. O‘zaro munosabatning buzilishi muhit va shaxs o‘rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Organizmlar va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat faqat har qanday organizm seskanuvchanlik qobiliyatiga, ya’ni, muhit ta’sirida aktiv holatiga o‘tish va modda almashish qobiliyatiga ega bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin.

Seskanuvchanlik aks ettirishning ancha umumiy, hamma yirik organizmlar uchun xos bo‘lgan biologik formasidir. Materialistik yo‘nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo‘lishini materiyaning uzoq muddat davom etgan taraqqiyoti bilan tushuntiradilar. Olimlar materiyaning tabiatini tekshirib, materiya harakatining turli shakllarini aniqladilar. Harakat esa materiyaning yashash usuli. Uning mohiyatini tashkil qiluvchi ajralmas xususiyatidir.

Jami materiya, jonsiz anorganik materiyadan tortib, to materiyaning yuksak hamda murakkab formasi-inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyati bo‘lmish aks ettirish xususiyatiga, ya’ni ta’sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. Aks ettirish formalari materiyaning yashash formalariga bog‘liqdir. Aks ettirish materiyaning yashash tarzi va ta’sir xarakteriga muvofiq ravishda tashqi ta’sirlarga javob qaytarish qobiliyatidan namoyon bo‘ladi.

Tirik materiyaga o‘tishda materiya harakatining yo‘nalishlari ham sifat jihatidan o‘zgaradi. Tirik materiyaga aks ettirishning biologik ko‘rinishi xosdir. Tirik materiya taraqqiyotining ma’lum bosqichida esa aks ettirishning sifat jihatidan yangi ko‘rinishi hisoblangan psixika yuzaga keladi.

Psixikaning taraqqiyoti. Psixologiyada psixikaning taraqqiyotini ikki bosqich orqali tushuntiriladi. Birinchi bosqich psixikaning filogenetik taraqqiyot bosqichi bo‘lib, unda oddiy organizmdan boshlab murakkab organizmgacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘li bosib o‘tiladi. Ikkinchi bosqich psixikaning ontogenetik taraqqiyot bosqichi bo‘lib, bunda organizm tug‘ilgandan boshlab umrining oxirigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘li o‘rganiladi.

Psixikaning turli shakllarda ko‘rinishlari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, xususiyatlar mavjud bo‘lib, psixik aks ettirish bir

qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, ya'ni shaxs individualligi orqali namoyon bo'ladi; shaxsning faoliyati jarayonida yuzaga keladi; atrofdagi voqelikni to'g'ri aks ettirish orqali namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanining predmeti masalasida psixika va uning namoyon bo'lish shakllaridan zamonaviy psixologiya umumiy psixologiyaga aloqador soha bo'lib, ko'plab olimlar o'z ilmiy adabiyotlarida bu jihatni muhim deb qaraydilar. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari biz (mualliflar) tomonidan tasnifi 1-rasmda

Psixika va uning namoyon bo'lish shakllari

| PSIXIKANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI VA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI | | |
|----------------------------------------------------------------------|---------------------|-------------------------|
| PSIXIK JARAYONLAR | PSIXOLOGIK HOLATLAR | SHAXSNING XUSUSIYATLARI |
| BILISH JARAYONI | HISSIY IRODAVIY | INDIVIDUALLIK |
| Sezgilar | Emotsiyalar | Yo'nalishlar |
| Idrok | e'tiqodlilik | Temperament |
| Xotira | bardamlik | Xarakter |
| Tafakkur | Tetiklik | Qobiliyatlar |
| Hayol | Apatiya | Iqtidor |
| Nutq | qiziquvchanlik | aqliy salohiyat |
| Diqqat | hayratlanish | xulq motivatsiyasi |
| | ishonchlilik | ish uslubi |
| | Ijodiy ruhlanish | Mas'uliyat |

Ong va uning taraqqiyoti. Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib, u faqat insongagina xosdir. Ong inson psixikasining eng yuksak formasi hamdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishi hamda til yordamida boshqa odamlar bilan doimiy munosabatda bo'lishi natijasida paydo bo'ladi. Ong ijtimoiy munosabatlar mahsulidir.

Ongning bir qator xarakteristikasi bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Ongning birinchi xarakteristikasi-atrof-muhit voqea hodisalarini anglashdan iborat. Ongning strukturasi insonning bilish jarayonlari kiradi. Inson ana shu bilish jarayonlari yordamida o'z bilimlarini doimo boyitib boradi.

2. Ongning ikkinchi xarakteristikasi- subyekt bilan obyekt o'rtasidagi farqlilikni anglash, ya'ni odam "men" degan tushuncha bilan "mendani boshqa" degan tushunchani anglab etishidir.

3. Ongning uchinchi xarakteristikasi- ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'min etiladi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi.

4. Ongning to'rtinchi xarakteristikasi- odamning muayyan munosabatlarini ongning tarkibiy qismiga kirishidir.

Ong jamiyat mahsuli bo'lib, faqat insongagina xosdir. Hayvonlarda ong bo'lmaydi. Psixikaning quyi darajasi ongsizlik holatini tashkil etadi. Ongsizlik ham psixik hodisa bo'lib, voqelikni shunday aks ettirish formasidirki, bunda qilinayotgan ishlarga hisobot berilmaydi, ish harakatlar qaerda va qancha bajarilayotganini anglash xususiyati yo'qoladi, xulq atvorni nutq orqali boshqarish buziladi. Ongsizlik holatiga quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu holatidagi hodisalar, ya'ni tush ko'rish; sezilmaydigan lekin haqiqatdan ham ta'sir qiladigan javob reaksiyalari; kasal odam psixikasida yuzaga keladigan patologik o'zgarishlar va boshqalar.

Insonning hayvondan asosiy farqi, avvalombor psixik obrazlarning jism deb qabul qilinganligida emas, balki maxsus mexanizmlar va ularning asta-sekin bajarilishidadir. Aynan psixik obrazlarning shakllanish mexanizmi va ular tmonidan ychilgan xususiyatlardir. Odamda bunday fenomenlarni yaratish ong hisoblanadi.

Ong boshqa psixik fenomen kabi aniq xususiyatga ega. Ong har doim faol. Ongning faolligi shunda namoyon bo'ladiki, inson obyektiv dunyosining psixik ko'rinishi passiv xususiyatga ega emas. Balki psixika orqali namoyon bo'layotgan jismlar bir xil ahamiyatga ega. Balki teskarisi bo'lishi mumkin.

Bu xususiyatlarning borligi insonning o'z- o'zini boshqarishdek eng yuqori xususiyatlarini ko'rib chiqishga ruxsat beruvchi ongning boshqa bir qator xususiyatlarini shakllantiradi. Ongning shakllanish guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin: o'z-o'zini kuzatish xususiyatlari(refleksiya) va yana ongning ilhom va qadr xususiyati.

O'z navbatida, ongning quyidagi xususiyatlari mustaqil odam ontogenez jarayonida shakllanishini aniqlab berishga imkon beradi. "Men- konsepsiya"si, inson o'zi haqida va atrof- muhitning borligi haqida butun sistemaning muntazam yadrosidir. Atrof-olam haqida qilingan butun xabarlarni inson o'zi haqidagi ong va psixik rivojlanishlar orqali ajratib oladi. Mukammal va motivatsion qurilmalardan kelib chiqqan holda o'zini tutishni shakllantiradi.

Shuning uchun uning qarashlari tartibi qat'iy individualdir. Odamlar sodir bo'layotgan voqealarni va o'zining harakatini, aniq dunyo obyektlarini har xil baholaydilar. Vaholanki, ba'zi odamlarning baholashi aniqdir va borliqqa mos keladi. Boshqalarning baholashi esa teskari- subyektivdir. Ongimizning adekvatligi nimaga bog'liq?

Ushbu savolga javob berish uchun inson tomondan qabul qilinayotgan real hayotning obrazini va o'ziga baho berishini bir-biroviga moslashtiruvchi bir qator faktorlarni ko'rsatib o'tish lozim. Ammo ko'pchilik holatlarda insonning tashqi muhitni to'g'ri qabul qilish darajasi, uning imkoniyat faktorlari bilan bog'liq bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda, qabul qilish chegarasi bu yaxshi va yomon tushunchalarni anglash xususiyatiga bog'liq. Aynan shu bo'lib

Ong xususiyatlari funksiyaga oid a'zolar sifatida:

- Tashqi ta'sirga javob berish qobiliyati (reaktivlik)
- Ta'sirchanlik
- Dialogizm
- Polifonilik
- Tashqi ta'sirsiz rivojlanish
- Tashqi ta'sirga nisbatan beixtiyor ko'rsatadigan reaksiya (reflektivlik)

Ongning vazifalari

Asosiy ong vazifalariga

quyidagilar kiradi:

- Aks qaytarish
- Tug'ma (ijodiy)
- Boshqarib-baholash
- Refleksivlik
- Ma'naviylik

Ong tuzilishi

L.Feyerbax ongni ong uchun va ong turmush uchun degan fikri ilgari surgan. A.N.Leontev ongni uch qismdan iborat ekanligini ajratgan:

- Obrazning seziladigan asosi
- Ma'no

o'tayotgan hodisani to'g'ri tanqid qilish, qabul qilingan ma'lumotni o'z qarashlari bilan taqqoslash, taqqoslashdan kelib chiqib o'zining xulqini tuzish, ya'ni harakat maqsadi va dasturini aniqlash, qo'yilgan maqsad sari harakatlanish insonni hayvonlardan farqlantiradi. Shunday qilib, tanqid qilish, o'z xulqini nazorat qilish mexanizmida asosiy o'rin egallaydi.

Ongning xususiyatlari.

S.L.Rubinshteyn quyidagi ong xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: munosabat o'rnatish bilish boshdan kechirish(kechinma)Ongning har bir xususiyati kam hollarda yoki faqat bilish, yoki faqat kechinma, yoki faqat munosabat bo'lishi mumkin; ko'pincha shu uch xususiyat birlashgan holda ko'rinadi. Ammo bu uch tarkibiy qismning (

komponentlarning) har birini ifodalanish darajasi turlicha. Shuning uchun har bir ong xususiyatini, psixologik tushunchasini koordinata sistemasining uch muhim nuqtasi sifatida ko'rish mumkin. Ong mexanizmini tahlil qilishda aqliy metaforani bartaraf qilish muhimdir. Ong bu faoliyat sistemasi mahsuli va natijasidir, unga nafaqat miya balki shaxs, jamiyat ham kiradi. Bu sistemalarning muhim xususiyatlari unga etishmayotgan funksiyaga oid organlar, o'ziga xos yangidan yuzaga keladi. U asosan dastlabki sistemadan yo'qotib bo'lmaydigan u yoki bu imkoniyatlar hisoblanadi.

Ong va o'z o'zini anglash. O'z- o'zini anglash insonga nafaqat tashqi dunyoni aks ettirishga imkon beradi balki, uni o'zini shu olamda ajratib ya'ni topib, o'zining tushunib etishiga, nazorat qilishiga va ma'lum bir shaklda o'ziga nisbatan munosabatda bo'lishga yordam beradi. O'zini biror bir barqaror obyekt sifatida anglash ichki butunlikni talab qiladi, shaxsning doimiyligini, uni o'zgaruvchan vaziyatlarga qaramasdan o'zligicha qola olishini anglatadi. O'zlikni anglash boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sir davomida shakllanadi va inson faoliyatining muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan o'z o'zini baholash bilan bog'liqdir. O'zlikni anglashning muhim vazifasi - inson uchun uning harakatlari sababi va natijasini bilishi va o'zini baholashi, aslida qanaqa insonligini tushunishga sharoit yaratishdir. Agar baho qoniqarsiz bo'lsa, inson o'z-o'zini o'stirish (kamolotga etkazish) bilan shug'ullanishi kerak, yoki himoyalovchi mexanizmlar yordamida ondan bu yomon ma'lumotlarni yo'q qilish mumkin.

Ruhiyat va miya bog'liqligi haqida savollarni ko'rayotganda, psixo- fiziologik muammolarni ko'rib chiqish lozim. Shunday qilib, har ikki mavjud yondashuvlar psixofiziologik muammoni echa olmaydi. SHuning uchun psixologiyada muammolarni o'rganishda yagona uslubiy yondashuv mavjud emas. Shu bilan birga aqliy va fiziologik jarayonlar o'rtasida yaqin bog'liqlik ham bor deb aytish mumkin. Shu sabab uchun ruhiy holatlarni hisobga olganda, har doim aqliy va fiziologik jarayonlar qattiq bog'liq hodisa va jarayonlar faoliyatini lgaoshimvchi «substrat»ni aks ettiradi. Shuning uchun, aqliy va fiziologik jarayonlar o'zaro bog'liq va inson xatti harakatlariga ta's

Psixika va onging paydo bulishida muxit, a'zolarning tuzilishi va mexnat faoliyatining ijtimoiy-tarixiy moxiyati. Agar

jonli mavjudodlarning xayot kechirish muxiti xamma joyda mutlako bir xil bulganida, extimol, yr yuzi bir xil turdagi xayvonlar bilan tulib ketgan bulardi. Haqiqatda esa muxit iklim jixatidan xam, yashash sharoiti jixatidan ham goyat rang-barang bulib bu organizmlarning tabakalanishini takazo etadi. Yr yuzida hodisalar juda rang-barang bulsa ham, ularning siklili almashinuvi va hakovolar mavjuddir. Barcha jonzot mavjud shart-sharoitlarga moslasha boradi.

Misol uchun, muhitning harorati uzgarishi bilan organizmdagi kimyoviy reaksiyalarning tezligi hami o'zgara boshlaydi: harorat ko'tarilishi bilan reaksiyalarning tezligi oshadi, pasaygan taqdirida pasayadi, harorat haddan ziyod oshib yoki pasayib ketganda esa bir hujayrali organizm halok bo'ladi. Agar juda past haroratli sharoitga joylashtirilsa, shubhasiz, boshqa bir jonli organizm ham shunday qismatga uchraydi. Lekin mana shunday sharoitlarda yuksak taraqqiy etgan hayvonlarning hatti-harakatlarida jiddiy tafovut bo'ladi.

Shunday qilib, hayvonlar muhitga bevosita boglikligidan sekin-asta qutila boradi. Lekin jonli mavjudotlar rivojlanishning har qanday darajasida ham bunday bogliklikdan hech qachon qutila bo'lmaydi. Muhit - jonli organizmning hayot kechirish shart-sharoiti, jonli mavjudotlar hayot kechirishning bosh omili, boshqacha aytganda, jonli organizmlarining hayot kechirishi muhitning shart-sharoitlari bilan aniq belgilab qo'yilgandir.

Aks ettirishning bir-biriga o'xshashligi eng avvalo sezgi a'zolari va nerv sistemasining tuzilishiga bogliqdir. Retseptor muayyan turagi ko'zgatuvchilarga qanchalik nafis javob qilsa, reaksiya ham shunchalik bir-biriga o'xshash bo'ladi. Bunda ma'lum darajada tugridan-tugri boglanish bor. Masalan, ko'rish retseptori quyoshning tarqoq nurini aks ettirishga moslashuv munosabati bilan rivojlanadi.

Retseptorlarning rivojlanishi ma'lum darajada muayyan turdagi nerv sistemasining rivojlanishi bilan birga boradi. Sezgi a'zolari va nerv sistemasining rivojlanish darajasi muqarrar ravishda psixik aks ettirishning darajasi va shaklini belgilab beradi. Nerv hujayralari faqat turlar emas, balki tugunlar (gangliylar) ham hosil qiladi. Tugunli yoki gangliyli nerv sistemasi eng ko'p miqdordagi ko'zgatuvchilarni kabul kilish va qayta ishlash imkonini beradi. Negaki, sezuvchan nerv xujayralari kuzgatuvchilarga bevosita yaqin joylashgan bo'lada va qo'zgalishini tahlil etish sifatini o'zgartirib yuboradi.

Tananing har bir qismida gangliylar qo`shilib, bir-biri bilan nerv yo`llar orqali boglangan nerv markazlarini tashkil qiladi. Ayniqsa bosh qismida joylashgan markaz murakkab tuzilgandir.

Nerv sistemasining oliy tipi - naychasimon nerv sistemasidir. U naychasimon qilib birlashgan nerv xujayralaridan tashkil topgan bo`ladi. umurtqalilarda evolyusiya jarayonida orqa va bosh miya - markaziy nerv sistemasi paydo bo`ladi va rivojlanadi. Nerv sistemasi va retseptorlarning rivojlanishiga muvofiq ravishda psixik aks ettirish shakllari ham murakkablashadi. Bosh miyada turli xildagi funksiyalarni uz zimmasiga oladigan alohida cheklangan markazlar hosil bo`ladi. Bu markazlar maxsus nerv birikmalari - assotsiativ zonalar orqali uzaro boglanadi.

Shunday qilib, psixikaning evolyusiyasi retseptorlar funksiyalari shakllarining, shuningdek signal faoliyatining murakkablashuvida ifodalanadi.

Shubha yuqki, odam psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvonning psixikasi urtasida juda katta tafovut mavjuddir. Masalan, hayvonlarning tili bilan odamning tilini bir-biriga taqqoslab bo`lmaydi. Hayvon o`z qabiladoshlariga muayyan, bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar haqida faqat xabar berishgina mumkin bo`lgan bir paytda kishi til vositasida boshqa odamlarga o`tmish, hozirgi payt va kelajak haqida axborot berishi, ulara sotsial tajribani etkazishi mumkin.

Odam psixikasi bilan hayvon psixikasining ikkinchi farqi, odam oldindan o`ylagan rejaga binoan qurol yaratadi, uni belgilangan maqsadda foydalanadi va saqlaydi. Inson nisbatan doimiy narsalar olamida yashaydi. Kishi quroldan boshqa odamlar bilan birgalikda foydalanadi, biridan quroldan foydalanish tajribasini o`zlashtirsa, boshqa odamlar bilan uni baham ko`radi.

Inson psixik faoliyatining ajralib turadigan uchunchi belgisi - ijtimoiy tajribaning biridan ikkinchisiga utkazilib turishdir. Kishi psixikasini ko`proq darajada u egallab oladigan ijtimoiy tajribada rivojlantiradi. Kishining psixik funksiyalari alohida subyekt tomonidan insoniyatning madaniy rivojlanishida qurollarini egallab olishi tufayli sifat jixatidan o`zgarai. Kishidan oliy, xususan insoniy funksiyalar (ijtimoiy xotira, ixtiyoriy diqqat, abstrakt tafakkur) rivojlana boradi.

Inson psixikasining hayvon psixikasidan eng muxim farki ularning rivojlanish shart-sharoitlaridan k o`rindi. Agar hayvonot dunyosining rivojlanishi davomida psixikaning taraqqiyoti biologik evolyusiya qonunlariga binoan r o`y bergan b o`lsa, xususan inson psixikasining, kishi ongining rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy tarakkiyot konunlariga buysunadi.

To`daning jamiyatga aylanishga ta`sir ko`rsatgan omil - bu mehnat faoliyati, ya`ni qurollarni birgalikda yaratish va qullanish jarayonida odamlar tomonidan amalga oshiriladigan tarzdagi faoliyat b o`ladi.

Rivoj topayotgan mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlarning, jamiyatning rivojlanishiga, ijtimoiy munosabatlarning rivoji esa meynat faolitining takomillashuviga ta`sir kursatdi.

Shunday qilib, mehnatning paydo b o`lishi va kishilik jamiyatining tuzilishi odamning odamsimon ajdodlarining odamga aylanish sababi b o`lib hisoblanadi.

Mehnatda kishining ongi - aks ettirishning evolyusion y o`nalishidagi eng oliy shakli - ashyoviy faoliyatning obyektvi barqaror xususiyatlarini ajrata olish va shu asosda atrofdagi reallikni tubdan o`zgartira olish xususiyatiga ega b o`lgan shakli ham rivojlana bordi.

Yuqorida aytib o`tilgandek, hayvonlar tasodifiy narsalar olamida yashaydi, odam esa doimiy narsalar olamini yaratadi. Odamlar yaratgan uzidan oldingi ajdodlar bajargan ish jarayonlari, hatti-harakatlar va faolitning moddiy ifodasi hisoblanadi.

Psixikaning ontogenezda va filogenezda rivojlanishi. Psixikaning ontogenezda rivojlanishi - inson tug`ilgan vaqtdan boshlab voyaga etgunga qadar murakkab psixik rivojlanish yoshidan o`tadi. Agar bolaning tug`ilgan birinchi yilidagi psixikasini 5-6 yildan so`nggi psixika bilan taqqoslasak, uning ma`lumot qabul qilishida nafaqat miqdorda, balki sifatida farq bo`ladi.

Tashqi faoliyatni ichki faoliyatga ta`siri, aks etishi bu tashqi faoliyat oldindan mavjud bo`lgan "rejalashtirilgan ong"ga ko`chib o`tishi degani emas; bu shunaqangi jarayonki unda o`sha ichki plan(sistema) shakllanadi. Ong bu, bevosita subyektga ochiladigan olam manzarasidir, unda subyektning o`zi ham shuningdek, uning faoliyati va holati ham kiradi deb hisoblaydi Leontev. Dastlab ong faqatgina subyektga atrofidagi olamni ochib beradigan psixologik ong va psixik rivojlanish sifatida qaraladi; keyingi bosqichlarda faoliyat

ongning predmetiga aylanadi, bu bosqichda boshqa insonlarning harakatlarini, ulardan kelib chiqib esa subyekt o'zining shaxsiy harakatlarini anglay boshlaydi. Natijada, aql- idrokimizdagi, "rejalashtirilgan ong"dagi ichki harakatlar vujudga keladi. Ongdagi ko'rinish yoki tasvir haqiqiy ko'rinishga aylanadi, ya'ni xayolan

B. G. Ananevning fikricha, "ong psixologik faoliyat sifatida his-tuyg'uli va mantiqiy bilimlarni jo'shqin o'zaro bog'lanishi, bir butun bo'lib ishlashini ta'minlaydigan va har birini alohida bilim deb aniqlaydigan sistemadir.

harakat qilish mumkin bo'lgan model (nusxa) ga aylanadi. Bu ishlaydigan sistema insonning sergaklik holati yoki boshqa so'z bilan aytganda, insonning o'ziga hos sergaklik xususiyati bu onmdir".

Ananevning fikricha, ong harakat ta'sirining murakkab qismi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ongning dastlabki xususiyatlari - bu idrok qilish va insonning bolalik vaqtidagi o'zining shaxsiy harakatlari natijasida paydo bo'lgan kechinmalaridir. Asta-sekin nafaqat harakat ta'siri, shuningdek

bolaning faoliyat jarayoni ham anglab etiladi. Ongning o'ziga xos rivojlanishida inson alohida harakatlarni bajarishidan, bir maqsadga qaratilgan, rejalashtirilgan faoliyatga o'tadi. Shu holda, sergaklikning butun holati yaxlit "ong oqimi" ga yuzaga keladi, bu bir faoliyatdan boshqa bir faoliyatga o'tishni anglatadi. "Ong butun borliqni faol aksi sifatida, insonning amaliy faoliyatini uni o'rab turgan olamga, muhitda tartibga solib turadi".

Psixikaning filogeneza rivojlanishi - kishi psixikasining paydo b o'lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri b o'lib, tabiat qonunlarining mohiyatini tushunib etishga harakat kiladigan tadqiqotchilarni bu muammo hamma vaqt qiziktirib kelgan.

Metrialistik yunalishidagi olimlar psixikaning paydo b o'lishini materiyaning uzoq davom etgan rivojlanishining natijasi deb izoylashadi. Ular materiyaning hayot kechirish usuli, uning tarkiban uziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun ham materiya harakatining turli xil shakllarini o'rganadilar. Harakatsiz, hamisha mutlaqo harakatsizlikdagi materiya umuman b o'lmaydi. Olamdagi butun materiya jami noorganik va organik tabiat harakatlanish, o'zgarish va rivojlanish holatida b o'ladi.

Jonsiz, noorganik materiyadan tortib to eng oliy va murakkab materiya hisoblanmish kishi miyasiga qadar barcha materiyalar moddiy olamning yalpi xususiyati - *in'ikos* etish xususiyatiga, ya'ni ta'sirotlarga javob kaytarish qobiliyatiga egadir. I'ikos materiyaning mavjud b o'lish tarziga muvofik javob qaytarishga qodirligi bilan namoyon b o'ladi.

Jonsiz tabiatda harakat jisn va moddalarning mexanik, fizikaviy yoki kimyoviy ta'siri tarzida yuz berish mumkin. Jonli materiyaga utishda harakati tarzi ham sifat jixatidan o'zgaradi. Jonli materiyaga in'ikosning biologik shakllari xos b o'lib, jonli materiyaning ma'lum bir bosqich daesa in'ikosning yangi shakli sifatidagi psixika paydo b o'ladi.

Materiya harakatining biologik shakli - hayot - tabiat rivojlanishining sifat jixatidan yangi bosqichdir. O'lik materiyaga utishni izohlaydigan qator gipotezalar mavjud. Ulardan biri *A.I. Oparinga* tegishli b o'lib, unga k o'ra organik moddalar atomlar turli shakllarda azotning, kislorodning, vodorodning, fosfor va oltingugurtning atomlari bilan boglangan modda - uglerod negizida hosil b o'lgan birikimalarning paydo b o'lishi jonli materiya paydo b o'lishining zarur sharti hisoblanadi. Oparning gipotezasiga k o'ra, taxminan ikki milliard yil ilgari atmosferada erkin kislorod ajralib chikib, organik moddalardan tayyorlangan allaqanday «sh o'rva»ga uxshash b o'lgan. Organik birikmalarning rivojlanishi jarayonida uglerodning juda ham murakkab birikmalari - benihoya katta molekular paydo b o'ldi.

Oqsilli molekula bilan muhit o'rtasida modda almashinuvi avval boshdanoq faol jarayon edi. Bu beniyoya katta molekular kontservatlar degan nom bilan atala boshladi. Kontservat tomchilari ma'lum ma'noda t o'yimli moddalar uchun kurashda o'zaro raqobat qilishardi, degan taxminlar ham bor. Bu tomchilarning ancha qulay kimyoviy tarkibiga yoki strukturaga ega b o'lgan ba'zi birlari boshqalariga nisbatan tezroq o'sdi. Ular ertaroq kattalashib, beqaror b o'lib qolishar va ancha mayda zarrachalarga parchalanib ketishardi. So'ngra jarayon yana takrorlanardi: o'sish, parchalanish va hakoza.

In'iksoning o'ziga xos qoldiq shakllari mavjud bo'lgan bunday organik strukturalar bir kancha geologik davomida faoliyat k o'rsatgan holda hozirgi zamon jonli sistemalari ajdodlarining paydo b o'lishiga olib kelganligini faraz qilish uchun asos bo'lgan.

Har qanday jonli organizm barcha tashki kuzatuvchilarga nisbatan tanlangan holda (faol) munosabatda bo'ldai va bu bilan jonli materiyaning sifat jihatidan yangi xususiyatni - o'z-o'zini tartibga solish xususiyatini namoyon qiladi.

Uzoq davr davom etgan evolyusiya natijasida hozirgi organizmlarda in'ikosning kuzgaluvchanligidan tortib to uning ancha yuksak darajasidagi shakllari - psixik hayotning ifodaga kadar turli xildagi shakllarni ko'ramiz.

O'simlik va xayvonlarga mansub shakllar evolyusiyasining barcha boskichlarida jamiki jonli organizmlar in'ikosning aloxida, biologik shakli - ta'sirlanuvchanlikka ega bo'ladi. Ta'sirlanuvchanlik tirik organizmning biologik ahamiyatiga ega bo'lgan (biotik) ta'sirotlarning ta'siriga javob berish qobiliyati demakdir.

Shunday qilib, sodda hayvonlarda tashki muhitga yoruglik bilan issqlik ko'shib, muvakkat boglanishlar hosil qilinishiga nisbatan ham faol mo'ljal ola bilish tendensiyasi mavjudligi namoyon bo'ladi.

In'ikos etish darajasi ko'p hujayralilarga o'xshab suvli muhitga hayot kechiradigan kovakchilar eng sodda ko'p hujayralilar jumlasiga kiradi. Lekin bu organizmlarning tuzilishi bir hujayralilarga nisbatan anchagina murakkabdir. Murakkabligi bu hayvonlarning ko'p hujayrali ekanligida emas, balki ulardagi hujayralarning nisbatan bir emasligidadir: masalna, tanasining tashqi qismida sanchiladigan hujayralar joylashgan bo'lsa, ichki qismi esa ovqat hazm qiladigan hujayralar bilan qoplangan bo'ladi. Ko'p hujayralarning organizmida, shuningdek, organizmning biror-bir qismida ro'y bergan qo'zgalishning o'tkazgichi funksiyasini bajaradigan alohida sezuvchan protoplazmali hujayralar ham bo'ladi. Alohida sezuvchan (nerv) hujayralari o'zaro birikib, hayvonning butun tanasiga yoyilgan nerv shaxobchasini tashkil etadi.

Shunday qilib, ko'p sonli nerv tugunchalarining paydo bo'lishi haliveri yana ham nafisrok aks ettirish va demak tevarak-atrofdagi tashki muxitga moslashish uchun sharoit tugdirishi mumkin bo'lgan usha haqiqiy foyjali murakkabligini ta'min eta olmaydi. Lekin hozirdayoq, ancha murakkab aks ettirish imkoniyatlari paydo bo'la boshladi - ular asosiy gangliyda mujassamlashganlar. Asosiy gangliyning funksiyalari va boglanishlariga ko'ra bir xil bo'lmagan nerv hujayralarining birikuvidan tarkib topadi. U hayvon tanasining istalgan qismida yuz beradigan qo'zgalishlarni jamlaydi, ularni tahlil

qiladi, boshqa hujayralarga utkazadi, impulslarni segmentlarning mushak apparatiga yo'naltiriladi. Sudraluvchi va kavlovchi hayvonlar sifatidagi chugalchalarda asosiy gangliylar mavjud bo'lganligi tufayli tananing imkonini beradigan tukchalar, m o'ylabchalar, k o'z murtaklari paydo buladi. Gangliy funksiyali nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvonlarning aks ettirish imkoniyatlari shartsiz reflekslar bilangina cheklanmaydi. Hayot kechirish jarayonida ularda tugma reaksiyalargiga nisbatan yanggi, ancha harakatchan reaksiya shakllari - sharti reflekslar paydo bo'ladi.

Shunday qilib gangliy funksiyali nerv sistemasining o'ziyoq, cheklanmagan unkdordagi ta'sirlari javob kilishning ytarli darajada murakkab vositasidan iboratdir. Ytakchi gangliy bilan idora kiluvchi ganglioz nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvonning hatti-harakatlari diffuziyali, turli nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvonlarning hatti-harakatlaridan jiddiy farq qiladi.

Instinktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat'iy bogliq bo'ladi. Instinktning amal qilish mexanizmi shundan iboratki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabat bildirishga undaydi, eng oxirida esa navbatdagi munosabat bildirish uchun qo'zgaydi va hakoza. Shu tarzda reflekslarning butun bir zanjirini harakatga keltiradi va bu bilan nasliy yo'l bilan mustahkamlangan programmani amalga oshiradi. Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar uzgarishi bilanoq uzining maqsadga muvofiqligini yo'qotadi. Shunday qilib, hatti-harakatlarning instinktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofiqdir.

Shuni qayd qilish kerakki, ba'zi bir instinktlar mazkur turning barcha shakllariga xos bulsa ham, lekin ularning namoyon bo'lishi afrimlarida biroz boshqacharoq tarzda kechadi.

Instinktning bu tarzdagi nisbiy har xilligi turli hayot kechirish sharoitlari keskin o'zgarib takdirida ham saklanib qolishini ta'minlaydi. Yosh hayvonlarda instinktiv harakatlarni qo'zatayotib, bu harakterlar yosh hayvonlarda qarilarga nisbatan ancha beso'naqay yuz beradi. Jozotning individual hayot kechirishi jarayonida orttirilgan va tugma hatti-harakat programmasining puxta bajarilishini ta'minlaydigan tajriba instinktlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, instinktiv harakatlar turli xildagi ko'p sonli qo'zgatuvchilarning aks etishini ta'min eta olmaydi va shunga ko'ra umurtqalilarning aks ettirish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Umurtqalilardan naychali nerv sistemasi (orqa va bosh miya bilan qushilib) rivojlangan bo'lib, shu tufayli ularda tashki muhitni asliga ancha o'xshaydigan tarzda aks ettirishning potensial imkoniyatlari oshadi. Ganglioz nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvonlarga nisbatan umurtqali hayvonlarda retseptorlar yanada takomillashib, tobora ko'proq maxsuslashib boradi. Evolyusiya natijasida erishiladigan ana shu ichki imkoniyatlar atigi birgina instinktiv harakatlarni keltirib chikarish uchun foydalanilmaydi, albatta.

Hayvon evolyusiya taraqqiyotining yuqori bosgichiga ko'tarilgan sari, hosil bo'ladigan shartli boglanishlari ham shuncha murakkabroq va yana ham nafisrok bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, shartli boglanishlar ham holatlar uzgarganda hayvon hatti-harakatning yangi belgilarini mustaqil hosil qilishga asoslangan nafis individual hatti-harakatning yanada murakkabroq shakllarini chiniktirishdir. Nafis individual harakat uchun muhitning ayrim xususiyatlarigina (harorat, rang, hid) emas, balki butun bir konkret vaziyatlar taxlil va sintez qilishi shart.

Birinchi holatda hatti-harakat instinktiv progammaga asosan bo'lgan bo'lsa, ikkinchi holda hatti-harakat bevosita vaziyatni tahlil qilish natijasida ro'y beradi.

Hatti-harakatning ikkinchi tipi ayniqsa sut emizuvchilarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunday hayvonlar endi butun bir vaziyatlarni idrok etib, tahlil qila boshlaydi, uz hatti-harakatlarini tugrilab, uzgarayotgan shart-sharoitlarga moslasha boshlaydi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda hatti-harakatning instinktiv shakllari bilan bir qatorda uzgaruvchan individual shakllari - malakalar va intellektual hatti-harakatlar ham mavjud bo'ladi. Malakalar deganda hayvonlarning shartli boglanishiga asosan bajaradigan va avtomatik tarzda takrorlanadigan hatti-harakat tushuniladi. Malakalar xuddi instinktlarga o'xshab rivojlanishning nisbatan quyi bosqichlarida ham bo'ladi, lekin aniq ifoda etilgan malakalar faqat bosh miya qobigi bo'lgan hayvonlardagina namoyon bo'ladi.

Hayvonlarning malakalari tarkibiga kiradigan harakatlanuvchi elementlar turning o'ziga xos tajribasini takrorlaydigan tugma harakatlardan iborat bo'lishi ham, shuningdek tasodifiy harakat namunalardan iborat bo'lishi ham, shuningdek tasodifiy harakat namunalarning takrorlanishi jarayonida kunikma hosil bo'lgan harakatlardan iborat bo'lishi ham mumkin.

PSIXOLOGIYANING ILMIY TADQIQOT METODLARI VA METODOLOGIK ASOSLARI

Psixologiya fanining asosiy ilmiy tadqiqot metodlari.

Psixologiya fan sifatida kuzatuv asosida fikrlarni tahlil qilishda g'oyalarga baho berishga intiladi. Psixolog ohmlar qarama-qarshi g'oyalarni qanday tahlil qilashadi? Psixologlar o'z fikriga ega: G'oyalarning ilmiy tahlili bizga ko'plab tushunchalarni beradi. Biz ulardan eng yaxshisini tanlab olamiz.

Psixologiyaning asosiy muammosi biologik va ijtimoiy omilning insonga ta'siridir. Psixologiya hal qiladigan muammolardan biri o'zgaruvchanlik va qat'yatlikning nisbatidir.

Inson hayoti davomida o'zgaradimi? Tortinchoq bolakay o'spirinligida sho'x yigitga aylanadimi?

Inson shaxsi turli vaziyalarda o'zgaradimi?

Keyingi muammo – ratsional va irratsionallik nisbati. Aqlli insonga qay darajada loyiqmiz? Ba'zan biz til bilishda abstrak g'oyalarga ishlov berishda, eng yangi kompyuterdan ham o'tib tushamiz. Ba'zan hulqni sabab bilan bog'lashga ratsional oqilona fikr bildiramiz.

Biroq biz xato qilishga moyilmiz. Ba'zan reallikni o'zimizni soxta qarashlarimizga qarab o'z-o'zimizni aldaymiz. Ba'zan bizga quruq statistikadan ko'ra latifa ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Mavjud bo'lmagan sabab va aloqalarni ko'ramiz. Biroq eng asosiy muammo biologiya va tajriba o'rtasidagi nisbatdir.

Garvard astronomi Oven. Gingerich (Owen Gingerich) (2006) 100 milliard samo yo'li borligi haqida xabar beradi. Ulardan biri bizni o'zimizni samo yo'limiz ham bor, u nisbiy dog' shaklida, yana 200 milliard yulduzlar bor bizning quyosh-yulduzga o'xshagan. Ulardan ko'pi planetalar orqali aylanadi. Tashqi fazoning qatlamida bizning umrimizning davomiyligi barcha okean sohilidagi yolg'iz qum zarrasidan kichikroq tuyuladi.

Hali ham bizning ichki olamimizdan ko'ra qo'rquvni ko'proq jonlantiradigan o'z domiga tortadigan hech narsa yo'q. Gingerich qo'shimcha qilganidek "bizning miyamiz butun kosmosdagi bizga ma'lum eng murakkab fizikali obyekt".

Bizning ongimiz xotiramiz teran mahoratni eslatuvchi moddadan paydo bo'lgan. Bizning o'y-fikr, his-tuyg'u va harakatlrimiz, boshqaralarning o'y fikrlari, hissiyot va harakatlari bilan ta'siri bizni o'ziga jalb qiladi.

Tashqi fazo bizni o'zining johilliklari bilan o'zidan chetlashtiradi. Lekin ichki fazo o'ziga jalb qiladi.

Kundalik so'zlashuvlarimizda biz ba'zida "teoriya" so'zidan "oddiy faraz" ma'nosida foydalanamiz. Ilm-fanda nazariya kuzatishlar bilan bog'liq. Ilmiy nazariya, kuzatilayotgan hulq yoki hodisalarning har xil turlarini birlashtiradigan va oldindan aytib beradigan printsiplarning ma'lum birligidan foydalanib, tushuntiradi. Tarqoq faktlarni sistemaga keltirib, nazariya obyektlar va hodisalarni soddalashtiradi. Hozirgi vaqtda hulqqa doir tarqoq faktlar shunchalik ko'pki, biz ularni hech qachon eslab qololmasdik. Nobel mukofoti laureati psixolog Alen N'yuel ulardan 3000 tasini sanagan (jumladan yozuv mashinkasi oldida o'tirganimizda bizga ta'sir ko'rsatadigan 29 tasi).

Nazariya ularni bir butunga birlashtirishga yordam beradi. G.E.Morton (1994) nazariyani yaratish jarayonini puzzle - mozaika o'yiniga o'xshatadi. Uning tarqoq bo'laklari bir-biri bilan birlashishadi, aniq bir kartina vujudga keladi, hatto mozaikaning hamma qismlari birlashtirilmagan bo'lsa ham. Depressiya nazariyasi, masalan, bu hodisa yuzasidan cheksiz kuzatishlarni o'zaro bog'langan printsiplarning qisqa reestriga aylantiradi. Aytaylik, biz odatda odamlarning depressiya holatida eng qora ranglarda o'z o'tinishlarini eslashlarini, hozirgi kunlarini tasvirlashlarini va kelajaklarini bashorat qilishlarini kuzatamiz. SHu tufayli xulosa qilish mumkinki, o'z-o'ziga past baho berishda depressiyaning birlamchi sababi yashiringan. Qancha ilgariilasak, shuncha tushunarli: o'z-o'ziga baho berish holat haqidagi ma'lumotlarning uzun ro'yxatini birlashtiradi.

Ammo nazariya qanchalik aqlli bo'lmasin (o'z-o'ziga past baho berish esa haqiqatan ham depressiyaning vujudga kelishi uchun arzirli sabab bo'lishi mumkin), biz uni tekshirib ko'rishimiz kerak. Yaxshi nazariya keyinchalik amaliyotda tekshirib ko'riladigan takliflarning mavjudligini nazarda tutadi va ular gipotezalar, deb ataladi. Bunday prognozlar va oldindan ko'rishlar butun ilmiy tadqiqotni ma'lum yo'nalishga yo'naltiradi va nazariyani tekshirish va takomillashtirish imkonini beradi.

Depressiya o'z-o'zini hurmat qilish darajasiga bog'liq degan nazariyani tekshirib ko'rish uchun, bu darajani test o'tkazib aniqlashimiz kerak. Bunda ishtirokchilar, masalan, "mening kayfiyatim yaxshi" degan tasdiqlarga javob qilishlari kerak. So'ngra esa gipotezalarimiz tasdiqlangan yoki yo'qligini ko'ramiz: haqiqatan ham o'z-o'zini hurmatning past darajasini ko'rsatgan odamlar chuqur depressiya holatidami?

Nazariyani tekshirar ekanmiz, u o'z holicha bizning tadqiqotlarimizning borishiga ta'sir ko'rsatmasligini yodda tutishimiz kerak. Masalan, depressiyaning kelib chiqishi haqida nazariy xulosa qilar ekanmiz, kutayotgan narsamizni dathol ko'ramiz. Bizning ko'nglimiz kamsitilish kabi ezilgan holatdagi odamlarning barcha gaplarini eshitishga sust ketishi mumkin.

Oldindan xato fikrlashdan qochish usullaridan biri - boshqa olimlar kuzatishlarimizdan foydalana olishlari mumkin bo'lishi uchun tadqiqot natijalarini aniq ifodalash kerak. Agar tadqiqotchilar boshqa subyekt va materiallar bilan o'xshash natijalar olsalar, muvofiq ravishda bizning o'z kashfiyotlarimizning ishonchliligi borasida ishonchimiz ortadi. "insayd" fenomenining ilk tadqiqoti psixologlarning qiziquvchanligi sababli o'tkazilgan. Bugun, turli odamlar ishtirokida va turli verbal materiallar yordamida birinchi eksperimentlarni ko'p sonli muvaffaqiyatli takrorlashlardan keyin biz fenomen muhim ahamiyatga ega ekanligini his qilamiz.

Va nihoyat, bizning nazariyamiz foydali bo'ladi, agar u a) ko'p sonli tadqiqotlarni samarali gruppalasa; b) boshqa nazariyalarda yoki amaliy natijalarni olish uchun foydalansa bo'ladigan gipotezalarni ilgari sursa. (Agar biz odamni o'ziga past baho berishidan xalos qilsak, undagi depressiya yo'qoladimi?) Vaqt o'tishi bilan bizning nazariyamiz depressiya bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni yaxshiroq tizimlashtiradigan va prognozlashtiradigan boshqa nazariya bilan alishtiriladi. Tadqiqotning muqobil metodlari - bu tasvirlash, korrelyatsion va eksperimental metodlardir. Xatti-harakatlarni kuzatar va tasvirlar ekanmiz, ularni oldindan aytib berishga yordam beradigan korrelyatsiyalarni payqar ekanmiz, gipotezalarni tekshiramiz va nazariyalarni takomillashtiramiz, xatti-harakatlarni tushuntirib beradigan eksperimentlar o'tkazamiz.

Hamma tomonidan qabul qilingan psixologik bashoratlarni tanqidiy anglash uchun ilmiy metodlar yo'lidan borish va bizning

odatdagi fikrlashimizni rivojlantirish uchun ulardan qanday foydalanishni bilishimiz kerak.

TASVIRLASH

Har qanday fanning boshlang'ich punkti - hodisa va faktlarni tasvirlash. Kundalik hayotda biz odamlarni kuzatamiz va ularga xarakteristika beramiz, bunda ko'pincha ular o'zlarini nega aynan shunday tutganlari borasidagi o'z shaxsiy gipotezalarimizni izlab topamiz. Professional psixologlar ham xuddi shunday qilishadi, ammo buni tizimli va xolisona bajarishadi.



11-rasm. Maymunlarda murakkab tanlash-ajratish qobiliyati borligini ko'rsatuvchi tajriba.

ALOHIDA FAKTLARNI O'RGANISH

Bu eng qadimiy metodlardan biri bo'lib, bunda psixologlar hammamiz uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlarni aniqlash uchun bir yoki bir necha individlarni chuqur o'rganishadi. Miyaning ishlashi haqidagi dastlabki bilimlarning katta qismi alohida individlarni tadqiq qilish jarayonida olingan bo'lib, ular miyalarining ba'zi sohalari shikastlanishi natijasida miya faoliyatining buzilishi kuzatilgan odamlar edi. Zigmund Freyd bir necha konkret faktlarni o'rganish asosida o'zining shaxs nazariyasini yaratdi.

Bizning representativ bo'lmagan ma'lumotlardan qochishga moyilligimiz - xato fikrlarning odatiy manbalari. Haqiqatdan ham, agar tadqiqotchi o'z ishining natijalari haqida gapirsa (kashandalar erta vafot etishadi: 85 yoshdan yuqori bo'lgan erkaklarning 95 % i chekmaydi), albatta unda o'z-gacha ma'lumot borligini aytadigan odam topiladi ("mening amakim kuniga ikki quti sigaret chekardi,

ammo u 89 yoshga kirgan edi"). SHaxsiy hayotdagi hodisalar - bu hayotiy voqealar, shaxsiy tajriba, hatto psixologik misollar ham - odatda umumiy haqiqatlarga zid bo'lishadi.

Raqamlar ba'zida hayratga soladi (o'g'irlangan bola taqdiriga oid bir tadqiqotda uning 1300 ishtirokchisiga bolaning turgan joyini tushlarida ko'rgan - ko'rmaganliklarini xabar qilishlari so'ralgan. Va ularning faqat 5% gina bolani tushlarida o'lik ko'rganlarini aytishgan, va bu haqiqatga mos edi). Ba'zida voqealar juda dramatik bo'ladi ("Men bir odamni bilaman, u tushida opasi avtomobil halokatiga uchraganini ko'rgan, ikki kun o'tgach esa u rostdan ham og'ir jarohatlar olgan"). Kaliforniya shtatida 12 yashar Polli Klas o'z yotoqxonasidan o'g'irlanib, o'ldirilgach, ikki yashar Djeymis Balgerni Liverpulning yirik magazinlaridan birining bolalar o'ynaydigan maydonchasidan olib chiqib, to'qmoq bilan o'lgunicha do'ppostlanganidan keyin bu ikki mamlakatlardagi bolalar va ularning ota-onalari ancha "qo'rqoq" bo'lib qolishdi (Ntwsweek jumali muqovasida yozilishicha, 1994), ular kidneppingdan yuz baravar ko'proq bolalar nobud bo'lishiga sabab bo'ladigan avtomobil halokatlari yoki saratondan ko'ra ko'proq qo'rqadigan bo'lib qolishdi. Qo'pol kidneppinglar odamlarning ongiga o'r mashib qolishdi, ular turli xavfli vaziyatlar haqida esda qoladigan voqealar asosida intuitiv mulohaza yuritishadi. Psixolog Gordon Ollport kunlardan bir kun shunday degan edi: "Odamlarga angishvonadek fojia haqida gapirib ko'ring va ular shu zahotiy oq shunchalar ko'p xulosa qilishadiki, butun boshli chelak to'ladi".

SHunday qilib, alohida faktlar sermahsul g'oyalarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Ammo alohida voqealarni bosib ketadigan umumiy haqiqatlarni farqlash uchun biz boshqa metodlarga murojat qilishimiz kerak.

SO'ROV

Odatda tasviriy va korrelyatsion tadqiqotlarda foydalaniladigan so'rov metodi tadqiqotning sayozligi bilan ajralib turadi. Odamlardan o'z xatti-harakatlarini va o'z fikrini xarakterlash so'raladi. Haligacha odamlarga berilmagan biror-bir ma'noli savolni o'ylab topish mushkul. AQSHda, masalan, jamiyat fikrining Gellap Instituti tomonidan o'tkazilgan oxirgi so'rovi aniqlashicha, odamlarning 72% televideniada zo'ravonlik ko'p deb hisoblaydi, 84% odamlar

gomoseksualistlarning ishga kirishlari uchun boshqalar bilan teng huquqli bo'lishlari tarafdori, 89% amerikalik stress vaziyatda yashayotganlarini ta'kidlashgan, 95% xudoga ishonadi, 96% esa o'z tashqi qiyofasidan ko'ngli to'lmaydi va unda nimanidir o'zgartirishni xohlashadi.

SAVOLLARNING IFODALANISHI

Har bir daraja xulq-atvoriga bog'liq aniq fikrlar bilan ta'minlaydi, garchi to'liq bo'lmasa ham. Turli akademik intizomlari singari, psixologik qarashlarni turli savollar so'rash va o'z chegarasi doirasida turlarga ajratadi. Bir perspektiv biologik, psixologik yoki ijtimoiy-siyosiy darajalarni ta'kidlab o'tadi.

Savol qo'yish - bu butun boshli fan, chunki ularda so'zlarning o'rnini ozroq o'zgartirish ham sezilarli samara beradi. Televideniya sigaretalarni va pornografiyani reklama qilishiga ruxsat berish kerakmi? Odamlarning bunday narsalarga "ta'qiqlash" yoki "tsenzura kiritish" dan ko'ra "ruxsat bermaslik" atamasi bilan kelishishlari ehtimoli ko'proq. Oxirgi so'rov natijalariga ko'ra, 66% Amerikalik "televizorda ko'rsatilayotgan narsalar ustidan ko'proq nazorat o'rnatish"ni qo'llab-quvvatlashgan bo'lsa ham, ularning faqat 27 % ommaviy axborot vositalarida seks va zo'ravonlikning namoyishiga qo'yilgan "hukumat tsenzurasini"ni yoqlashdi.

Odamlar "Muhtojlarga yordam"ni "ularning turmush farovonligini oshirish" dan ko'ra ko'proq yoqlashadi, "daromadni oshirish vositalari" ni - "soliqlar" dan ko'ra. Chunki savollarni ifodalash - juda nozik ish, tajribali intervyuchilar savollar ifodalinishini o'zgarishi respondentning javobiga qanday ta'sir ko'rsatishini diqqat bilan taroziga solib ko'rishadi.

RESPONDENTLARNI TANLASH

Kundalik hayotda biz turli-tuman odamlar bilan muloqotda bo'lamiz, ammo asosan kim bizning odatlarimiz va hayotga munosabatimizni yoqlasa, o'shalar bilan. SHuning uchun ham qancha odam u yoki bu fikrni yoqlashini tasavvur qilishga urinsak, miyamizga darhol o'zimizga hamfikir bo'lganlar keladi. Boshqalar ham biz kabi o'ylaydi deb taxmin qilishga moyillik yolg'on konsensus effekti deb ataladi. Vegetarianlar dunyoda faqat o'simliklar bilan oziqlanadigan

odamlar go'sht yeydiganlarga qaraganda ancha ko'p deb o'ylashadi, konservatorlar esa o'zlarining siyosiy shiorlari liberallarnikiga qaraganda aholi tomonidan ko'proq qo'llab - quvvatlanadi deb faraz qilishadi.

So'rov odamlarning fikri va hulqini aniqlash metodi, savol javoblarga asoslanadi; odatda tasodifiy tanlash printsipti bo'yicha tanlab olingan reprezentativ guruh so'rov qilinadi.

Yolg'on konsensus effekti

Boshqa odamlar ham bizning fikrimizga qo'shilishi va xatti-harakatlarimizni ma'qullashiga bo'lgan haddan tashqari ishonch.

Muhim yig'indi

Tadqiqot uchun tanlov o'tkazish mumkin bo'lgan u yoki bu guruhda barcha alohida hodisalarning yig'indisi.

Tasodifiy tanlov

Respondentlarning shunday tanlovi bo'lib, muhim yig'indini eng yaxshi namoyish qiladi, chunki jamoaning har bir a'zosi reprezentativ guruhga kirishga bir xildagi imkoniyatlarga ega.

Ko'pchilik so'rovlar uchun respondentlarni maxsus tanlab olish xarakterli. Agar siz kollejingiz talabalari o'rtasida so'rov o'tkazmoqchi bo'lsangiz, hammasidan so'rab chiqishingiz mumkin, ammo bu ehtimol, ko'p vaqtni oladi. Yaxshisi, biz tadqiq qilmoqchi va xarakterlamoqchi bo'lgan barcha turdagi talabalarni ko'rsatib berishi mumkin bo'lgan guruh tanlab olish kerak.

Maqsadga tasodifiy tanlov yordamida erishiladi, qachonki mazkur jamiyatning har bir a'zosi bizning guruhimizga kirishga bir xil imkoniyatga ega bo'lishadi. Ammo tasodifiy respondentlarni bunday guruhga qanday tanlab olish kerak? Siz ularning hammasini anketa to'ldirish uchun uylariga jo'natmaysiz-ku, chunki ularni qaytaradigan barcha halol odamlar endi tasodifiy respondentlar bo'lishmaydi. Eng yaxshisi, har biridan javob olishga ishongan holda alfavit bo'yicha tuzilgan umumiy ro'yxatdan har o'ninchisi yoki yigirmanchisini tanlab olasiz. Yaxshisi 500 kishidan iborat ennas, balki 100 kishidan iborat reprezentativ guruh tanlab olish kerak.

Bunday tasodifiy tanlov printsipti davlat rniqyosidagi so'rovlarda o'zini yaxshi tavsiya qildi. Bahaybat bochkanu tasavvur qiling, unda 60 million oq rangdagi loviya 40 million yashil rangdagi loviya bilan aralastirilgan. Agar tavakkaliga 1500 loviyani suzib olgan shufel, o'z ichiga 60% oq va 40% yashil loviyalarni sig'dirsa - 2-3 % xatoga

yo'l qo'yiladi. Keng qamrovli so'rovlarda respondentlarni tanlab olish loviyalarni tanlab olishdek gap; tasodifiy tanlab olingan 1500 odam butun jamiyatning kayfiyati va fikri haqida hayratlanarli darajada aniq ma'lumotlar berishadi. Respondentlarni tasodifiy tanlab olish sertashvish ish bo'lganligi sababli ba'zi so'rovlarning tashkilotchilari respondentlarni tanlashga alohida zo'r berishmaydi. SHer Xaytning "Ayollar va sevgi" nomli kitobida u pochta orqali olgan va 100 ming amerikalik ayolning fikrini aks ettiradigan faqatgina 4,5% javoblarga asoslangan so'rov natijalari haqida so'z boradi. Bu so'rov natijalarini nafaqat so'ralganlarning foizi past bo'lganligi uchun, balki kontakt o'rnatilgan ayollar tashkilotlarining a'zolari bo'lib chiqishgani uchun ham ikki marta reprezentativ emas deb hisoblash mumkin.

SHunga qaramasdan Xayt "Javoblar umumiy miqdorda 4500 odamdan olingan. Men uchun shuning o'zi yetarli", - deb ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, uning so'rovlari natijalarini muqovasiga joylashtirgan "Time" jurnali uchun ham bu yetarli bo'lgan: nikohiga 5 va undan ortiq yil bo'lgan 70% ayolning jazmani bor; 95% ayollar o'zlari sevgan erkaklardan emotsional stress olishadi.

Ko'rinib turibdiki, jumal xodimlari uchun unchalik reklama qilinmagan so'rovlarda ixtiyorsiz ravishda saralangan guruhlardagi ayollar o'zlarining shaxsiy hayotlaridan ko'proq qoniqishlarini aytganlari haqidagi fakt hech qanday ahamiyatga ega emas ekan: ularning yarmidan ko'pi nikohda "juda baxtli" ekanliklari yoki "mamnun" ekanliklari haqida guvohlik berishgan, faqat 3% gina "butunlay baxtsiz" ekanliklarini ta'kidlashgan. Har 7 ayoldan bittasi nikohli bo'lsa ham jazmani borligini ta'kidlagan. Sodiq umr yo'ldoshilikning bu darajasi Britaniya, Frantsiya va Daniyada o'tkazilgan so'rovlar bilan tasdiqlangan.

Respondentlarni tasodifiy tanlab olmasdan odamlarning katta guruhlarida so'rov o'tkazish, masalan Xayt o'tkazgani singari, shu jumladan telefon orqali ham, - bu noto'g'ri raqamlarni olishga olib boradigan to'g'ridan to'g'ri yo'l.

Ob-havoni bulutlarga qarab yoki barmoqni shamolga tutib ko'rib, oldindan aytib berish mumkin, u haqda yana ishonchli meteorologik xabarlardan ham bilib olish mumkin. Odamlarning hayoti haqida ham umumiy tasavvurlardan kelib chiqib, turli hayotiy afsonalar, o'z kuzatishlarimiz yoki hayotdan olingan tarqoq faktlarga asoslanib xulosa chiqarish mumkin. Ammo hayotning ishonchli kartinasini va

butun populyatsiya kayfiyatini aniqlash uchun faqat bir usul zarur - representativ so'rov.

Yodda saqlang: so'rov ma'lumotlariga tanqidiy yondoshish kerak. Saralangan respondentlarga e'tibor qarating. Saralashning representativ emasligini unga boshqa qo'shimcha respondentlarni jalb qilib kompensatsiyalash mumkin emas.

Biz bu ustanovkani kuzatilayotgan ayrim faktlarni umumlashtirish usulimizga ham qo'llashimiz mumkin. Kollejga tashrif buyurib, bir necha talaba bilan tanishib, darslarga qatnashib, biz barcha talabalar - yaxshi do'stlarimiz, ta'lim darajasi esa shunchaki ajoyibligi haqida umumiy xulosa chiqaramiz. SHotlandiyada bir hafta bo'lganimizda ob-havoni kuzatamiz va keyin do'stlarimizga bu mamlakatning iqlimi haqida hikoya qilamiz. Ayrim voqealardan global xulosalar chiqarish doimo kishilarni yo'ldan ozdiradi, ayniqsa ular yorqin va esda qolarli bo'lsa. Bir tarafdin talabalarning professorga bergan baholari haqidagi statistik ma'lumotlarni hisobga olib va salbiy kayfiyatdagi ikki talabaning emotsional sharhini eshitib, ma'muriyat vakili ikkita arazlagan talabaning ta'sirida ham, ko'p sonli ijobiy fikrlar ta'sirida ham bo'lishi mumkin. CHikagoga janub tarafdin kirisharkan, odamlar avtotrasa bo'ylab ko'plab milga cho'zilib ketgan, yashovchilar tomonidan ijaraga olingan ko'p xonadonli uylarni ko'rishadi va "Bunday baxtsiz shahar", - deb o'ylashadi. Supermarket kassasiga navbatda turarkan, Djordj undan oldinda turgan ayol xaridlari uchun hukumat tomonidan berilgan talonlar bilan to'layotganini payqab qoladi, so'ngra u BMV ga o'tirib ketganini ko'rib hayratga tushadi. Bu vaziyatlardan har birida ayrim yorqin, ammo representativ bo'lmagan voqealardan umumlashgan xulosa chiqarishning yo'ldan ozdirishini deyarli yengib bo'lmaydi.

Yodda saqlang: umumlashtirishning eng yaxshi usuli - bu ayrim ekstremal faktlarga tayanmasdan representativ saralash bilan ishlash.

TABIY SHAROITLARDA KUZATISH

Tirik jonzotlarning xatti-harakatlarini odatdagi sharoitlarda kuzatish va natijalarini yozib borish tabiiy sharoitlarda kuzatish nomi bilan ma'lum. Ular har xil bo'lishadi: djungli sharoitida shimpanzening to'da ichidagi xatti-harakatlarini kuzatishdan madaniy an'analari turlicha bo'lgan mamlakatlarda ota-onalar va bolalar

o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuzatishgacha, hamda oq va qora tanli talabalar o'qiydigan kollejlarda talabalar stol atrofida qanday qilib o'zlariga joy tanlashlarini kuzatishgacha.

Xuddi alohida voqealarni tadqiq qilish metodi va so'rov kabi, kuzatishlar ham xatti-harakatlarni izohlamaydi, ular shunchaki xatti-harakatlarni tasvirlab boradi. SHunga qaramasdan bu tasvir juda namunali bo'ladi. Bir qancha vaqt mobaynida turli xil uskunlardan faqat odamlargina foydalanishadi deb hisoblashardi. Ammo tabiiy sharoitlarda kuzatishlar natijasida ma'lum bo'lishicha, shimpanzalar ko'pincha terminiga novda tiqishadi va uni keyin sug'urib, yopishib qolgan termitlarni yeyishadi. SHimpanze va babuinlar o'z maqsadlariga yetishish uchun boshqa ayyorliklardan ham foydalanishadi. Psixologlar Andrew Whiten va Richard Byrne (1988) bir necha marta qanday qilib yosh babuin o'zini go'yoki birov tashlangandek qilib ko'rsatgan va bularning hammasini o'z onasini kelgindining o'z ovqatidan haydab solishga undash uchun qilgan.

Tabiiy sharoitlarda kuzatishlar tufayli biz lotin amerikaliklar, arablar va frantsuzlarga nisbatan skandinavlar, shimoliy amerikaliklar va britaniyaliklarga ko'proq shaxsiy hudud kerakligi haqida bildik. Agar kimdir bizning shaxsiy hududimiz - biz tanamiz atrofida yaratishni yaxshi ko'radigan bufer zonamizga bostirib kirsam, - biz o'zimizni noqulay his qilamiz. Turli millat vakillari bo'lgan odamlar uchrashib qolishsa, o'zlarini har xil tutishadi. Masalan, meksikalik amerikalik bilan suhbat uchun qulay masofa izlab, xona bo'ylab uning atrofida "raqsga tushadi"unga yaqinlashmoqchi bo'ladi, amerikalik esa undan doim qaerlargadir qochadi. Amerikalikka meksikalik juda shilqim bo'lib tuyulishi mumkin, meksikalikka esa amerikalik - juda bosiq va dimog'dor bo'lib.

KORRELYATSIYA

Xatti-harakatni tasvirlash ularni prognozlashga qo'yilgan birinchi qadamdir. Odam xarakterining qandaydir bir xususiyati yoki hulqining o'ziga xosligi boshqa bir xususiyat yoki o'ziga xoslik bilan hamroh bo'lsa, biz ular o'rtasida ma'lum munosabatlar bor yoki ular bir - birlari bilan korrelyatsiyada deymiz. Korelyatsiya - bu muvofiqliklarning statistik me'yori. U ikki obyekt bir-biriga nisbatan

qanday o'zgarishini va qanday qilib ulardan biri ikkinchisini prognozlashini ko'rsatadi.

Pozitiv korrelyatsiya (0 va +1,00 o'rtasida) to'g'ridan to'g'ri o'zaro aloqani anglatadi. Bu 2 ta parametr bir vaqtning o'zida yo o'sadi, yoki kamayadi degani.

Bir nechta misollar:

-Ba'zi tadqiqotlarning ma'lumotiga ko'ra, biz televizordan ko'radigan zo'ravonlik sahnalari agressiv ijtimoiy hulq bilan +0,3 pozitiv korrelyatsiyalaydi. Odamlarning shunday teleko'rsatuvlar ko'rish odati ularning agressivligiga ta'sir qiladi (yoki aksincha).

-Bir urug'li egizaklar ekstraversiyalar uchun topshirilgan testlarda munosabatlarda +0,6 korrelyatsiyalashadi. Bu degani, egizaklardan birining xatti-harakati ikkinchisining xatti-harakatini prognozlaydi.

-Michigan universitetining 71 ming odamdan iborat bo'lgan yuqori kurs talabalarining representativ saralash tadqiqotlari o'tkazilgan so'rovlarda shuni ko'rsatdiki, talabalar qanchalik ko'p vaqt shug'ullansalar, shunchalik kam uxlashgan va harakat qilishgan, ko'proq chekishgan, alkogol va narkotiklar iste'mol qilishgan.

Negativ korrelyatsiyani ham shu darajada oldindan aytib berish mumkin, u teskari aloqani bildiradi. Bir parametr o'sganida, ikkinchisi kamayadi. Bizning o'z-o'zimizni hurmat qilishimiz va depressiya o'rtasidagi muvofiqlik haqidagi ma'lumotlar negativ korrelyatsiyaga misol bo'la oladi: o'ziga past baho beradigan odamlar kuchli depressiv holatlarga ko'proq moyil bo'ladilar. Negativ korrelyatsiya - 1 gacha yetishi mumkin. Bu ko'rsatkichlarning bir majmuasi yuqoriga ko'tarilganida, boshqasi pastga tushadi.

Korrelyatsiya yetarlicha axborot bersa ham, ko'pincha uning yordamida ba'zi shaxsga oid parametrlarning o'zgarishi boshqalarining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan aytib berib bo'lmaydi. Biz keyinchalik ko'ramizki, ota-onalarning qo'polligi va shafqatsizligi, ularning bolalari ham ota-ona bo'lgan paytlaridagi o'xshash xususiyatlari o'rtasida korrelyatsiya mavjud. Ammo bu ota-onalarining shafqatsizligidan azob ko'rgan bolalarning ko'pchiligi o'z bolalariga nisbatan shafqatsiz bo'lishadi degani emas.


Korrelyatsiya shunchaki o'zaro statistik aloqani ko'rsatadi: ota-onalarining shafqatsizligidan aziyat chekkan ko'pchilik bolalar katta bo'lganlarida shafqatsiz odamlar bo'lishmaydi: o'zlariga nisbatan

shafqatsiz munosabatni his qilmagan bolalar unga yanada kamroq moyil bo'ladilar.

O'xshash tarzda erda jinoyatchilik kechkisi bilan korrelyatsiyada bo'ladi. 14 yoshida sudlangan bolalarning doimo qonunbuzarlik qilishlari ehtimoli bu yoshda qamalmagan tengdoshlariga nisbatan 18 baravar ko'p, doimiy ravishda qonunni buzuvchilarning og'ir jinoyatlar sodir qilishlari ehtimoli esa 14 baravar ko'p). shunday bo'lsa ham bir marta qamalgan o'g'il bolalarning uchdan ikki qismi og'ir jinoyatlar sodir etishmaydi. Korrelyatsiya bashorat qilishga qodir, ammo odatda unchalik aniq emas.

ILLYUZION KORRELYATSIYALAR

Korrelyatsiyalar oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan o'zaro aloqalarni ko'rinadigan qiladi. Ular aslida mavjud bo'lmagan o'zaro aloqalardan voz kechishga yordam berishadi. Aslida mavjud bo'lmagan korrelyatsiya illyuzor korrelyatsiya deb ataladi. Agar biz ikki obyekt o'rtasida aloqa bor deb, faraz qilsak, biz albatta fikrimizni tasdiqlovchi hodisalarni payqaymiz va eslaymiz. Illyuzor korrelyatsiyalar ko'pgina xurofiy fikrlarni, masalan, oy to'lgan kunda ko'proq bolalar tug'iladi, yoki farzandsiz juftlik farzand asrab olsa, tezda homilador bo'ladi va farzandini tug'adi degan fikrlarni izohlashga yordam beradi. Bola asrab olgan ayolning homilador bo'lishi diqqatimizni o'ziga tortadi. Ammo biz bola asrab olsa ham haligacha o'zining farzandi bo'lmagan, yoki farzand asrab olmasdan homilador bo'lgan ayollarni juda kam payqaymiz. Boshqacha qilib aytganda, illyuzor korrelyatsiyalar biz 1.2 rasmning boshqa kvadratlaridagi muhimligi jihatdan teng bo'lgan ma'lumotlarni pisand qilmasdan, barcha umidlarimizni chap yuqori kvadratida tasvirlangan ma'lumotga bog'laganimizda paydo bo'lishadi.



Bunday illyuzor tafakkur nima uchun odamlar shuncha uzoq vaqt (ko'pchilik hatto hozir ham ishonadi) shakar bolalarga juda katta quvvat berishiga, sovuq qotish yoki oyoqni ho'l qilib olish - kasal bo'lish demakligiga va ob-havo artritning zo'rayishiga ta'sir qilishiga ishonishgan. Vrach Redelmeyer va psixolog Amos Tverski 18 nafar artrit bilan og'rikan bemorlarni 15 oy davomida kuzatib, "inson intuitsiyasini aniqlash" bo'yicha tajribalar o'tkazishdi. Tadqiqotchilar bemorlarning shikoyatlarini yozib borishgan va har kuni havo haroratini, namlikni va bosimni qayd qilib borishgan.

Bemorlarning ob-havo ularning ahvoriga ta'sir qilishiga bo'lgan ishonchiga qaramasdan, ob-havo ular shikoyat qilgan kuni ham, undan bir kun oldin ham, bir kun keyin ham ularning ahvoriga aloqador bo'lmagan. Hatto kollej talabalariga ham ixtiyorsiz ravishda olingan "artritdan og'rish" va "bosim" ko'rsatkichlarini ko'rsatishganida, ular korrelyatsiya bo'lmagan joyda uni ko'rishgan. Biz turli hodisalarni - bo'lgan va bo'lmaganlarini - juda muvaffaqiyatli tarzda payqaymiz, ammo o'z gipotezalarimizni bu kabi muvaffaqiyatli tekshirib ko'rmaymiz.

Bizni odatda fojiali yoki noodatiy hodisalar qiziqtiradi: biz birin-ketin ro'y beradigan hodisalarni payqash va eslab qolishga moyilmiz. Masalan, biz umuman odatiy bo'lmagan telefon qo'ng'irog'ini kutamiz va turli his tuyg'ularga to'lamiz. Ammo shunda odatdagi telefon qo'ng'irog'i keladi. Agar shu bo'lmaganida edi, biz o'zimizning noodatiy qo'ng'iroq bilan bog'liq bo'lgan barcha kutishlar va oldindan sezishlarimizni bunchalik yaxshi eslab qolmasdik.

Yoki yana bir misol. Saraton bilan kasallangan odamlar vrachlarning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilib, tuzalib ketganlarida vrachlarning instruksiyalarini metodik tarzda bajarish kasallikka qarshi tura oladi deb hisoblaydigan odamlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ammo kasallikka bo'lgan bunday munosabat aslida kasallikka qanday ta'sir ko'rsatishini baholash uchun bizga yana uch xildagi ma'lumot kerak. Birinchidan, vrach ko'rsatmalarini tirishqoqlik bilan bajargan odamlarning qanchasi davo topmaganini aniqlashimiz kerak. Keyin esa saraton bilan kasallanganlarning vrach ko'rsatmalarini bajarmaganlarining qanchasi davo topganu, qanchasi tuzalmaganini bilishimiz kerak. Bunday solishtirma raqamlarsiz unchalik ko'p bo'lmagan umidga to'la odamlarning tuzalishlari haqidagi ijobiy

misollar kasallikka bo'lgan munosabatlar va kasallikning o'zi o'rtasidagi bog'liqlik haqiqiy korrelyatsiya haqida hech narsa deya olmaydi.

Yodda tuting: tasodifiy mos kelishlarni payqar ekanmiz, biz bu haqda unutishimiz va ularni korrelyatsion deb idrok qilishimiz mumkin. SHu tariqa, biz yo'q narsani ko'rib, osongina adashishimiz mumkin.

Psixologiya fanida quyidagi tadqiqot metodlarining tasnifidan foydalaniladi. Tadqiqiy metodlar (usullar) - bu psixikaning xususiyatlari, qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi yangi obyektiv bilimlar olishga yo'naltirilgan maxsus tarzda tashkil topgan faoliyat usullaridir. Subyektiv yangi bilimlar (dalillar, baholar, ko'rsatkichlar, belgilar, psixologik yordam, maslahat, korreksiya uchun muhim) omillarga qaratilgan psixologiya usullarini umumiy, pragmatik usulublar deb ataladi.

Psixologiyasi metodlari asosan ikkita metodologik tamoyillarga asoslanadi:

Subyektiv tamoyil - o'zini o'zgartirishga qaratilgan kasbiy shakllanishga erishishni ta'minlovchi tamoyil. Obyektiv tamoyil - psixik hodisalarni tashqi tomonlama anglashning turli tadqiqiy vositalari orqali kasbiy shakllanish belgilarini o'rganishni nazarda tutuvchi tamoyil.

Tadqiqiy metodlarning 2 ta turi mavjud;

1. Longityud
2. Kesimli

Longityud metodi – ma'lum kishilar guruhi yoki aniq kishilarning bir xil belgilariga ko'ra psixik xususiyatlarini davomli va muntazam o'rganishni nazarda tutadi. Kesimli metod – ma'lumotlarni tadqiqotda qatnashuvchilarning turli guruhlariga nisbatan taqqoslash xosdir. Bu metod orqali sinovdan o'tayotgalarining ko'p miqdorini qisqa vaqt ichida qamrab olishi mumkin. Kesimli tadqiqotlarni o'tkazishda savol-javob usullari, testlar tajribalar keng qo'llaniladi.

Longityud metodi - kasbiy shakllanishda individual yo'lni o'rganishga yordam beradi. Mazkur metod yordamida shaxsning obro' orttirishi uning faoliyatidagi turli xildagi tanqidiy holatlarini aniqlaydi. Psixologiyada qo'llaniladigan tadqiqot usullari kelib chiqishiga ko'ra umumpsixologik ko'rinishga ega, lekin spetsifik xususiyatiga ega emas.

Umumiy psixologiya yosh psixologiyasiga yondosh ekanligini hisobga olsak, bu o'z navbatida shakllanib bo'lgan metodlarni o'zlashtirishga olib keladi. Barcha tadqiqotlarda keng doirada metodlarni qo'llash o'ziga xos tadqiqiy metodlarni yaratilishiga olib keladi. Umumiy psixologiya tadqiqot metodlarining tizimlanishi, ularning qo'llanishi sohasini aniqlash shuningdek, sifat, xususiyatini ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Psixologiya fanida yagona umuman olganda, tadqiqotlar metodlarining to'liq tasnifi mavjud emas. Ko'pincha, alohida metodlar yoki psixologiyada ma'lum muammoni hal etishga tavsiya etiladigan metodlar ro'yxati beriladi.

Psixologiyaning metodlar tizimini tahlil etgan olimlar quyidagi metodlar guruhini taklif etadi.

1. Tadqiqotni tashkillashtirish va rejalashtirish metodlari, ya'ni tashkiliy metodlar.

2. Dalillar to'plash, ilmiy ma'lumotlar olishga qaratilgan empirik metodlar (usullar).

3. Ma'lumotlarni qayta ishlash usullari

4. Interpretatsion metodlar (usullar).

Boshqa bir qator psixolog-olimlar psixologiyasining quyidagi usullarini ajratishadi:

1. Subyektiv metodlar (o'zini o'zi kuzatish);

2. Obyektiv metodlar (kuzatishning har xil turlari; eksperimental, testlar, savol-javob, so'rovnomalar).

Afsuski, bu metodlar muallifi psixologiya metodlarining tasniflanishini (klassifikatsiya) taqdim etmay, faqatgina psixologiya fanidagi mavjud metodlarini sanab o'tish bilan chegaralanadilar. Bu esa o'z navbatida aniq ilmiy tasniflanishning mavjud emasligi, psixologiyada metodlarning ko'pligi hamda bir tizimga solinmaganligi bilan izohlanadi. Yosh va pedagogik psixologiyaning metodlarini tahlil etib, tadqiqiy metodlarni tasniflashning asosi sifatida muhim jihatlarni ajratib olish kerak. Bu masalalar 4 xil shaklga ega: tasvirlash, o'lchash, tushuntirish va psixik hodisani shakllantirishdan iborat. SHunga muvofiq metodlarning 4 ta guruhi taklif etiladi: noeksperimental (klinik), diagnostik, eksperimental va shakllantiruvchi.

SHunday qilib Umumiy psixologiya oldida quyidagi tadqiqiy masalalar turibdi:

1 guruhi - shaxsning kasbiy shakllanishi bu murakkab, ba'zida esa dramatik jarayonning psixologik xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Bu jarayonni tadqiq etish uchun longityu'd, savol-javob, psixobiografiya, tanqidiy voqealar metodlarini qo'llash to'g'ri bo'ladi. Bu metodlar guruhini genetik metodlarga kiritishi mumkin.

2 guruhi - kasblarning psixologik tavsifi, kasbning psixologik mazmunini tadqiq etish, faoliyat mahsuldorligini o'rganish, mehnat metodi, hujjatlarni o'rganish, kuzatilayotganlarni savol-javob orqali o'rganish metodi, shuningdek, professiografiya yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu uslublar guruhi praksimmetrik uslublarga tegishlidir.

3 guruhi - muhim kasbiy ko'rsatkich faoliyat va shaxs belgilarini o'lchash. Bu tadqiqiy masalani hal qilish uchun maxsus qobiliyat testlari, muvaffaqiyat va ta'lim testlari qo'llaniladi. Bu psixometrik usullar guruhidir.

4 guruhi - psixik shakllanishning xususiyatlarini, qonuniyat va mexanizmlarini tushuntirishdan iborat. Bu vazifani bajarish usullari eksperimental usullardir: ya'ni laboratoriya, modellashtiruvchi va tabiiy eksperimentlardir.

5 guruh - usullari tadqiqiy ma'lumotlarga miqdoriy ishlov berishga yo'naltirilgan. Ularga matematik ishlov berish usullari kiradi: ya'ni korrelyatsion, faktorli tahlil va boshqalar.

GENETIK USULLAR

Genetik metodlar uzoq vaqt davomida shaxs rivojlanishining o'zgarishlarini tadqiq etish uchun mo'ljallangan. Psixologiyada longityud metod, psixobiografiya, individning kasbiy shakllanishini monografik tasvirlash usullaridan keng foydalaniladi. Longityud metod - bir xil yoshdagi sinluvchilarning ularni rivojlanishi jarayonini ko'p marotabali tizimli ravishda o'rganishdan iborat. Longityud metodi insonlardagi turli xususiyat va sifatlarni o'rganish maqsadida yillar davomida o'tkaziladi.

Longityud metodi psixologiyada XX asrning 20-yillarida shakllana boshladi va asosan psixik genezisi va bolalar, yoshlar psixik pragnozini ilmiy jihatdan asoslab berish uchun qo'llanilgan. Keyingi yillarda (20-30 yil davomida o'tkazilgan) davomli longityud tadqiqotlari jarayonida dearli qo'llanilmagan. Longityud metod bir

vaqtning o'zida boshqa metodlarni qo'llanilishini ham nazarda tutadi. Jumladan, kuzatish, savol-javoblar, test, psixografiya, praksimetriya va hokazo.

Longityud metodi yordamida olingan natijalar shaxsning yoshiga, ish stajiga, tadqiqot o'tkazilgandagi ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga hamda kasbiy faoliyat turiga bog'liq bo'ladi. Longityud metodini Umumiy psixologiyada qo'llash orqali shaxs kasbiy shakllanishining individual o'zgarishlarini o'rganish imkonini beradi shuningdek, kasbiy faoliyatda rivojlanish, obro'-e'tibor qozonishning yo'l-yo'riq va vositalarini aniqlash imkonini beradi. Longityudni qo'llashdagi qiyinchiliklardan biri sinovda ishtirok etayotganlarni tanlash hamda ularning sonining ko'pligi va kamligida bilinadi. Keyingi muammo o'lchovlar o'rtasidagi oraliq masofalar hisoblanadi. Bu metod orqali insonlarda tadqiqotlar gohida bir yil ayrim vaqtlarda esa undan ham uzoq vaqtlar oralig'ida o'tkazilgan.

SHaxsning shakllanishini o'rganishda tadqiqot intervali sifatida kasbiy rivojlanish fazalari va bosqichlarini ajratib olish mumkin. Longityud metodidagi muammolardan biri uning davriyligini belgilash bo'lib, bunda u 5-yildan 50 yilgacha davom etishi mumkin. Klassik longityud sifatida 1928 yildan bugungi kungacha davom etib kelayotgan Kaliforniya longityudini misol sifatida keltirish mumkin. Longityud metodning kamchiligi uning davriyligidadir.

SHaxsiy va kasbiy o'zgarishlar tasodifiy yoki drammatik voqealarga bog'liq bo'lishi mumkin. Yillar davomida tekshiriluvchilar sonining qisqarishi, o'rganilayotgan jarayonlarning mazmun mohiyati kengayib boradi. Longityud metodining qo'llanilishini chegaralovchi omillardan biri shaxsni o'rganish uchun ko'p vaqtni ketishidir. Longityud metodining kamchiliklarini boshqa psixobiografik usullarni qo'llash yordanida bartaraf etish mumkin.

Biografik usul - shaxs hayot yo'lini o'rganish va loyihalashtirish usullari, hayotiy dasturlar, kasbiy rejalar, kasbiy shaxsiy shakllanishining tsenariylarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Biografik usullarga tarjimai hol, ma'lumotlarni o'rganish, kasbiy mehnatdan qoniqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Kavzometriya - Ye.I.Golovaxa va A.A.Kromiklar tomonidan taklif etilgan usul bo'lib, u shaxsning psixologik vaqti va hayotiy subyektiv holatlarini tahlilini tadqiq etish metodi hisoblanadi. Bu intervyu quyidagi jihatlarini o'z ichiga oladi: biografik savol-javob,

muhim voqealar ro'yxatini tuzish, voqealarni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va boshqalardir. Interv'yu natijalari kavzometriya shaklida tasvirlanadi. Kavzometriya kasbiy muammo va inqirozlarni yechish uchun qo'llaniladi.

Psixobiografiya -shaxslarning hayot yo'lini psixologik o'rganish metodi hisoblanadi. Avval psixobiografiya siyosatchilarining obro'-e'tiborini, kishilarning individual kasbiy biografiyalarini o'rganish maqsadida qo'llanilgan. Kasb psixologiyada psixobiografiyani qo'llash orqali shaxsning kasbiy maqsadlarining paydo bo'lishi, kasbiy shakllanishdagi inqirozlar haqida qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Anamnez metod - bu insoning mehnat subyektini sifatida rivojlanish tarixi haqidagi ma'lumotlarni yig'adi. Bu usul Ye.A.Klimov tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Kasbiy anamnez mehnat motivlarini o'rganish, tanqidiy voqealarni aniqlash, kasbiy faoliyatda obro'-e'tibor qozonishni oldindan tashxis qilishda qo'llaniladi.

PRAKSIMMETRIK USULLAR

Faoliyat mahsulotlari va jarayonlarini tahlil etish yo'llari bo'lib, unga B.G.Ananev xronometriya, profesiografiya, bajarilgan ishlar va buyumlar bahosini izohlashlarni kiritadi. Umumiy psixologiyaning bu guruhidan quyidagi usullar muhim ahamiyatga ega.

Topshiriqlar tahlili - bu kuzatilayotgan inson va uning yashirin kasbiy xulqining yo'nalganligini psixologik jihatlarini tadqiq qilish metodidir. Topshiriqlarni tahlil etish metod F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tasvirlash va tahlil etish maqsadida qo'llanilgan. Topshiriqlarni tahlil etish hamda bajarilgan ishlarni tahlil etish metodi ham muhandislik psixologiyasida keng qo'llaniladi.

Hujjatlarni o'rganish metod - mehnat jarayoni ishchilar tarkibi, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasi to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarni yig'ish metodi hisoblanadi. Bu ma'lumotlar quyidagi hujjatlardan olinadi:

" Ishchilar harakatlarini tasvirlovchi texnologik kartalar, ishning bajarilish usullarini sifatiga quyiladigan talablar;

" Insonga psixofiziologik va psixologik ta'sir ko'rsatadigan asbob-uskunalarining texnik tavsifnomasi;

" Yoshi, staji, ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, kadrlar qo'nimsizligi uning sabablari va hokazolar xaqidagi ma'lumotlar;

" Ishlab chiqarishdagi avariya va travmalar shuningdek, ishchilar sog'ligining holati to'g'risidagi ma'lumot.

Mehnat metod - bu kasbiy faoliyatni to'g'ridan-to'g'ri ish joyida o'rganishga qaratilgan tadqiqot metodidir. Kasbiy faoliyatni egallagan va bajaruvchisi sifatida psixolog ham tadqiqotchi ham ishchi sifatida faoliyat olib boradi. Har bir ish kundan keyin standartlashgan sxema bo'yicha bayonnoma to'ldiriladi. Ish joyida tadqiqot olib borish usullari samaraliroq hisoblanadi. Tadqiqotchi standart kuzatish chizmasi asosida ishchining faoliyatini o'rganadi. Bu usullarning afzaligi kasbiy realikka maksimal darajada yaqin bo'lishidir.

KUZATISH – ma'lumotlarni psixik hodisalarning qayd etish yo'llari orqali to'plashdan iborat. Kuzatish ikki turda bo'ladi - formallashgan kuzatuv va erkin kuzatuv. Erkin kuzatuv tadqiqotning boshlang'ich bosqichlarida qo'llaniladi, u o'rganilayotgan masala mohiyatiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Formallashgan kuzatuv standart dastur asosida olib boriladi hamda kuzatilayotgan voqealar bayonnomada qayd etilgan holda alohida elementlarga bo'linadi.

Tadqiqot metod sifatida kuzatishning xususiyati shundaki, ma'lumotlarni to'plash, turli sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi, ya'ni ko'rish, eshitish, hid bilish va hokazo. Chunki kasbiy faoliyatda hidlar, shovqinlar va shunga o'xshash holatlar tez kuzatiladi va ular sinovdagilarning psixik holatiga hamda faoliyat mahsuldorligiga, mehnatdan qoniqishiga ta'sir etadi.

Kuzatilayotgan jarayonda tadqiqotchining ishtirok etish darajasiga ko'ra, kiritilgan kuzatish va tomonli kuzatishga ajratiladi. Kiritilgan kuzatuvda tadqiqotchi guruh tarkibiga kirib, shu guruhning barcha faoliyat turlarini bajaradi. Tomonli kuzatishda tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalardan chetda turib kino yoki videokameraga tushirgan holda psixik hodisalarni tahlil etadi. Umumiy psixologiyaning tadqiqot metodi sifatida kuzatish ish o'rmini tashkil etish va umuman faoliyatdagi vaziyatga baho berish, sinovdagilarning kirishimlilik xususiyatlarini tahlil qilish, uning kasbiy xulqi, kasbiy ta'limi va malakasiga baho berishda qo'llaniladi.

Kuzatishning negativ holatlari olingan ma'lumotlarning yetarli darajada ishonchli emasligi chunki, tadqiqot paytida ba'zida hodisalar

ko'p uchraydi va kuzatilayotgan voqealarga aralashib ketish ehtimoli mavjud bo'ladi. Kuzatish paytida sinovdagilarga tadqiqot vazifalari haqida ma'lumot berishga to'g'ri keladi, bu esa ularning kasbiy xulqi va faoliyatiga o'zgartirish kiritishlariga olib keladi. Undan tashqari, ishchilar, rahbarlar ham tadqiqot natijalari ularning ish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishidan qo'rqishadi.

PSIXOMETRIK USULLAR

Psixometriya-psixik voqea va hodisalarning miqdoriy tomonining nisbati va tavsiflarini o'rganadi. Psixometriyaning muhim belgisi psixik jarayonlarning individual farqlar, empirik dalillar dinamikasini, parametrlarini o'lchash texnologiyasining standartlashganligidir. Psixometriya ishonchliligi bilan ajralib turuvchi psixodiagnostik metodikalarini yaratishga yo'naltirilgan. Psixometrik usullar tarkibiga psixologik test ham kiradi.

TEST - psixologik diagnostika metod bo'lib, u ma'lum ma'noga ega bo'lgan standart savol va masalalardan iborat. Test intellektual va maxsus qobiliyatlarini, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishini, kasbiy layoqatni aniqlash, kasbiy ekspertiza va rehabilitatsiya shuningdek, kasbiy maslahatlar jarayonida qo'llaniladi.

Test o'tkazish 3 bosqichga ajratiladi:

- test, savolnomasini tanlash (tadqiqot masalasi bilan belgilanadi);
- test o'tkazishda etika normalariga rioya qilgan holda ko'rsatmaga muvofiq tashkil etish;
- olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarni o'rganish.

Umumiy psixologiyada maxsus qobiliyatlarning diagnostikasi va kasbiy yutuqlar muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy intellektual testlar akademik qobiliyatlarni o'rganishga qaratilgan. Vakant (bo'sh) o'rinlarga nomzodlarni kasbiy tanlovi uchun ishonchli usullarga bo'lgan ehtiyoj psixologlarni maxsus qobiliyatlarni diagnostika qilish uchun test ishlab chiqildi. Ishlab chiqarishning turli sohalari ishchilarning oldiga o'ziga xos talablarni qo'yadi.

Kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kadrlarni joylashuvi, vakant ishchi o'rinlarini to'ldirish maqsadida muhim kasbiy psixofiziologik xususiyatlar, psixologik sifatlar, kasbiy malakalarni aniqlash imkonini

beruvchi testlar bo'lishi lozim. Kasbiy yutuqlar testi faoliyatning ma'lum bir turini egallash darajasini o'lchash yoki kasbiy tayyorgarlik natijalarini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Maxsus qobiliyatlar testi asosan kasbiy tanlov uchun qo'llaniladi. Ayniqsa, sensor qobiliyatlar diagnostikasi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Ko'pgina, kasblar sensor sohaning xususan ko'rish va eshitishning yuqori darajada rivojlanishini talab qiladi.

Vizual qobiliyatlar testi muhim kasbiy belgilarga bog'liq holda ko'rish o'tkirligini, ranglarni farqlay olish va ularning ichki xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqliklar darajasini aniqlaydi. Eng keng tarqalgan ko'z o'tkirligini aniqlab beruvchi test - sinovda ishtirok etayotgan sinaluvchilarga bosma harflar tasvirlangan jadval ko'rsatiladi va tadqiqotchi tomonidan ko'rsatilayotgan harflarni aniqlash kerak bo'ladi. Eshitish qobiliyatlarini aniqlashda ovoz, signal ko'p hollarda odam ovozi eshittiriladi. CHuqurroq o'rganilishi maqsadida masalan, musiqiy eshitish qobiliyatini aniqlash testlari qo'llaniladi.

Harakat qobiliyatlarini diagnostika qilish-harakat reaksiyalarini tasvirlash va koordinata tezligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bunday hollarda biz sensomotor diagnostikasini nazarda tutishimiz kerak, chunki aksariyat hollarda bu ko'rish orqali bajariladi. CHet elda barmoqlar mahoratini, buyumlarni o'ynata olish tezligi, qo'l mustahkamligi, reaksiya vaqti, qo'l harakatining tezligini tahlil etuvchi testlar keng tarqalgan. Motor testiga misol keltiramiz. Bunda tadqiqotda ishtirok etayotganlarning oldiga ikki seriyadan iborat bo'lgan to'g'ri burchakli taxta qo'yiladi. har qaysi seriyasida 48 tadan teshik bo'lib, seriyalardan biridagi teshiklar silindrlil sterjenlar bilan to'ldirilgan. Sinaluvchilarga imkon qadar sterjinlarni boshqa seriyalardagi teshiklarga olib o'tish taklif qilinadi. Bunday tadqiqotda ishtirok etayotgan kishi ma'lum vaqt davomida ishning qancha qismini bajara olgani hisobga olinadi. SHuningdek, ishchilar kasbiy tanlovida texnik qobiliyatlar testi muhim o'rin egallaydi.

Texnik qobiliyatlar deganda - murakkab intellektual qobiliyatlar tushuniladi. Bu qobiliyatlar o'z ichiga keng tasavvurlar, texnik salohiyat va sensomotor malakalarini qamrab oladi. Texnik qobiliyatlar testi - injenerlar, mexaniklarni kasbiy tanlovida keng doirada qo'llaniladi. Bu borada A.A.Beknet va Minnesotski testlari keng tarqalgan. Maxsus qobiliyatlarning so'nggi guruhiga A.Anastazi

kasbiylashgan qobiliyatlarni kiritadi. Ularni o'lchash uchun tuzilgan testlar faoliyatning ma'lum kasb sohasida shakllantiriladi.

AQSHda Minnisota shtatida konselariya testi keng ommalashgan bo'lib, tartibni qabul qilish tezligi, ishbilarmonlik atamalar ro'yxatini bilishi, eshitishi, xabardorlik, savodxonlik chiroyli nutqqa egalik kabi qobiliyatlarni aniqlab beradi. Kasbiylashgan qobiliyatlarga shuningdek, badiiy, musiqaviy, tadqiqiy konstruktorlik, ishbilarmonlik, ijtimoiy va ijrochilik qobiliyatlari kiradi. Yutuqlar testi sinovdagilarning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarini egallanganlik darajasini aniqlab beradi. Iqtidor testlaridan farqli ravishda ular maxsus ta'lim dasturlarining kasbiy tayyorgarlikning ma'lum samaradorligiga, kasb egallashga bo'lgan ta'sirini o'lchaydi. Boshqacha qilib aytganda, yutuqlar testi asosan individning ta'lim yakunidagi so'nggi muvaffaqiyatlarini baholashga yo'naltirilgan.

Insonlarda yutuqlar testining 3 ta shaklini qo'llashadi: harakat testlari, yozma va og'zaki testlar. Bu testlarda aniq kasbiy faoliyatda eng muhim bo'lgan bir qator topshiriqlarni bajarish talab etiladi. Harakat testlari idoraviy kasblarda (texnik kotiba, mashinistka, stenografist va hokazolarda) keng qo'llaniladi. Yutuqlarning yozma testlari maxsus bilimlar ya'ni, savodxonlik uchun muhim bo'lgan kasblarda ishlatiladi. Mazkur testlar asosiy tushunchalar, mavzulardagi sinfiy belgilar, texnik tavsiflar, formulalarni o'rganilganligini o'lchashga yo'naltirgan.

Standartlashgan baholash shakli obyektiv harakatga ega bo'lib, guruhiiy ishlashga imkon beradi va ko'p vaqtni talab etmaydi. Kasbiy yutuqlarning og'zaki testlari - maxsus kasbiy bilimlarga tegishli bo'lgan standartlashgan savollar seriyasidan iborat. Savollar kasbiy faoliyatni tahlil etish, malakali ishchilarni kuzatish va har qaysi savolning muhimligi asosida tanlanadi. Yutuqlar testlarini kasbiy salohiyatni baholash maqsadida qo'llanishi AQSHda psixologlar attestatsiyasi tajribasidan ko'rish mumkin.

Psixologlikka imtihon topshirish uchun nomzodlar universitetning psixolog ma'lumotga ega bo'lishlari va diplomli psixolog sifatida 2 yil ishlagan bo'lishlari shart. Imtihon ikki qismdan iborat. Yettita faoliyat sohasi bo'yicha 100 ta topshiriqni bajarish: klinik psixologik, rivojlanish psixologiyasi, umumiy eksperimental psixologiya, test va statistik tahlil, ijtimoiy psixologiya va psixologik konsultatsiya. Beshita savolga tasviriy javoblar berish, ulardan bittasi - tadqiqot

metodologiyasi bo'yicha va 4 tasi sanab o'tilgan 7 ta faoliyat sohalarining 2 tasi bo'yicha hamda bu sohalaridan qaysi biridan topshirishini nomzodning o'zi tanlaydi. Har qaysi shtatda psixolog unvonini va amaliy faoliyatga litsenziya berishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Ammo ularning hammasi o'zlarni psixolog deb nomlovchi salohiyatsiz psixologlardan jamiyatni chegaralash maqsadiga qaratilgan. Yutuqlar testining keng tarqalishi ular mutaxassislarga, ishchi kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda shaxsda kasbiy tanlashni kuzatish va kasbiy yutuqlarni bashorat qilish imkonini beradi.

EKSPERIMENTAL USULLAR (TAJRIBA USULLARI)

Ekspiriment metod - psixologik reallik mexanizmi va qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha asosiy metod hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati nazorat qilinadigan va boshqariladigan sharoitlarda yangi ilmiy bilimlarni olishga qaratilgan. Ekspirimentning asosiy nomutaxassislik vazifasi - sabab-natija aloqalarini o'rganish va psixologik jaryonlar va hodisalarni tushuntirishdan iborat.

Ekspiriment o'tkazishda farq va rozilik qoidasini qo'llaydilar (J.S.Mill) A, B guruh voqealar guruhi ketidan D voqeasi kelsa ammo B, V ketidan A kelmasa, unda A, a, ning sababidir. Ikkala voqealar guruhidan birinchisi eksperimental sifatida ko'rib chiqiladi, ikkinchisi - nazorat guruhi deb ko'riladi. Ularni yagona farqlovchi voqea mustaqil o'zgaruvchi deyiladi va u jarayonning davomida turli o'zgarishlarga duch kelish mumkin. Eng tarqalgan eksperiment modeli quyidagi jadvalda ko'rsatilgan bo'lib, unda tadqiqotchi tahlil natijalarida subyektiv baholardan foydalangan holda, ya'ni x2 x1 dan katta, u2 esa u1 katta degan xulosani ta'kidlab qolmasdan balki, hech bo'lmaganda umumiy hollarda qay darajada kattaligini aniqlashi kerak bo'ladi. Aks holda, eksperiment va nazorat guruhlaridagi o'zgarishlarni tasdiqlashning o'zi bo'lmaydi.

Ekspiriment modeli. Ekspirimental tadqiqotni kasbiy tanlov misolida ko'rib chiqamiz. Korxonada mutaxassislar murakkab mexanik agregatlarni qabul qilishda ishlab turgan muhandislar ko'p deffektlarni o'tkazib yuborganliklari sabab, ishchilar orasidan nazoratchilarni tanlash zaruriyati kelib chiqadi. Ekspirimentning mazmuni shundan iboratki nazoratchi uchun muhim bo'lgan

qobiliyatlarni tashxis qilib beruvchi (diqqatni jamlay olish, mustaqillik, sensor farqlash darajasi, keng fikrlash) test loyihalashtiriladi.

Test tanlovchilar orqali nazoratchilarning eksperimental guruhi tuzildi. Eksperimental va nazorat guruhi ishlarini korreksion tahlil qilish asosida tasdiqlash, testning samaraliligini va nazoratchilarni tanlash va tayyorlash metodikasini aniqlash imkonini beradi. Psixologik tadqiqotlarda eksperiment natijalarini miqdoriy ifoda qilish masalasi eng qiyin masala hisoblanadi. SHuning uchun miqdoriy ma'lumotlar, odatda, absolyut emas, balki nisbiy ahamiyatga ega. Ular ikki guruh darajasini tasdiqlash imkonini beradi, ammo har qaysining absolyut tavsifini aniqlay olmaydi. SHunday bo'lsa-da, psixologiya fani real o'quv-kasbiy faoliyatida o'zgarishlarni kutmaydigan, imkoniyatlar beruvchi vaziyatlar yaratish orqali shaxsdagi o'zgarishlarni o'lchash uchun turli xil shakllarni yaratadi.

Eksperimentni o'tkazishda o'rganilayotgan jarayon o'tadigan sharoitlarni keng miqiyosda o'zgartiriladi, o'zgaruvchan omillar ta'sirini ajratish, ularning o'zaro aloqasini aniqlash va shu tariqa psixik hodisalarning qonuniyatlari va mexanizmlarni o'rgatish mumkin. Eksperiment metodining muhim sifati shundaki-o'rganilayotgan jarayoniga to'g'ri baho berish,

Ma'lumotlarning miqdoriy hisobini olish imkonini beradi, bu esa tadqiqot natijalariga ishlov berish muhim statistik xulosa chiqarishga imkon beradi. Eksperimental usulning 3 turi mavjud: tabiiy, modellashtiruvchi va laboratoriya eksperimentlaridir. Tabiiy eksperiment psixik hodisalarni odatiy tabiiy sharoitlarda o'rganishni nazarda tutadi (darsda, mehnat topshiriqini bajarish jarayonida va hokazo). Tabiiy eksperimentning afzalligi - tadqiqot maqsadlarining nisbatan yashirinligi, jarayonning norasmiy muhitda o'tishi va sinovdagilarning hayoti va faoliyatiga bevosita kirib borishi bilan belgilanadi. Modellashtiruvchi eksperiment ayrim mehnat jarayonlarining nazariy dinamikasi va murakkabligi tufayli real texnik moslamalarni odatiy ish tartibidagi usullarni o'rganib bo'lmaganligi tufayli qo'llaniladi. Bu jarayonlar anglanilgan holda o'rganilayotgan mehnat jarayonida ishning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi uning tarkibiy qismlariga ajratiladi, bu faoliyatni amalga oshirish uchun sun'iy sharoitlar yaratiladi va shu tariqa modellashtirilgan sharoitlarda murakkab mehnat jarayoni o'rganiladi. Modellashtiruvchi eksperiment

shaxsning kasbiy shakllanish jarayonidagi muhim kasbiy sifatlarini o'rganishda qo'llaniladi. Laboratoriya eksperiment tadqiqotlarni maxsus asbob-uskunalari bilan jihozlangan psixologik laboratoriyada o'tkazishni nazarda tutadi. Eksperimentning bu turi odatda elementar psixik funktsiyalarni o'rganish maqsadida qo'llaniladi ya'ni, sensor va motor reaksiyalari tanlov reaksiyalari va boshqalarni kiritish mumkin. Insonning ish-harakatlarini o'rganish borasida oxirgi 20 yil mobaynida videotexnika va turli antik mexanik moslamalar rivojlanishining yuqori darajasiga ko'tarilgan. Bu bir tomondan videoga tushirish, stereoskopik tushirish kabi usullarni keng qo'llashga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan tayyorlov ishlari ya'ni, eksperimentni o'tkazish va materiallarni tahlil etish kabi ishlarni yengillashtirishga xizmat qiladi. Videofotoregistratsiya metodining universalligiga qaramay tadqiqotlarda EHM va boshqa maxsus texnikaning qo'llanilishi bugungi kunda murakkab muammo bo'lib kelmoqda. SHakllantiruvchi eksperiment - bu usulning asosiy belgisi V.V Davidovning "psixikaning u yoki bu empirik shakllarining xususiyatlarini oddiygina ta'kidlab emas, balki ularni faol modellashtirib maxsus sharoitlarda namoyon etib, ular mohiyatini ochib berishi" kerak degan fikri bilan belgilanadi. SHakllantiruvchi eksperiment usullarini qo'llash o'quv-kasbiy jarayonlarning ma'lum tavsiflarini o'zgartirish va shu o'zgarishning ta'lim oluvchilarning yosh, intellektual xususiyatlariga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq.

Mohiyatiga ko'ra, bu usul keng tadqiqot o'tkazish vositasi sifatida boshqa usullarni qo'llash orqali o'tkaziladi. SHakllantiruvchi eksperiment V.V.Davidov bergan tavsifiga ko'ra - birinchidan, ko'p sonli ya'ni, statistik muhim; ikkinchidan, u yoki bu konseptsiyani yuritish uchun amalga oshiriladigan; uchinchidan uzoq davomli va nihoyat pedagogik-nazariyotchi diagnostik metodistlarni o'zaro hamjihatligini ta'minlab beruvchi eksperimentdir. SHakllantiruvchi eksperiment kasbiy ta'limning optimal texnologiyalarida, korxonada kasbiy tayyorgarlikning samarali metodikasida, malaka oshirish tizimiga innavatsion usullarni qo'llash jarayonida foydalaniladi.

MATEMATIK ISHLOV BERISH USULLARI

Miqdoriy ma'lumotlarga ishlov berish usullariga tadqiqot xulosalarini chiqarishning statistik usullari hamda ular o'rtasidagi

ma'lum aloqalarini aniqlash, ilgari suralgan gipotezaning haqqoniyligini tekshirish kabilar hisoblanadi. Natijalarga matematik ishlov berish, tadqiqotlarning isbotlanganligini (reprezantiligi) tanlab beradi. Sifat ko'rsatkichlarining miqdoriy ishlov berilganlik bilan bir qatorda psixologik tadqiqotning obyektligi sezgilari darajada oshiriladi. Tadqiqot usullarining to'g'riligi nafaqat qo'llanilgan matematik apparatning takomillashganligiga balki, o'rganayotgan hodisa va obyektlarni real miqdoriy tavsiflarini qay darajada aks etishiga bog'liq. Bu talablarga rioya etmaslik, matematik o'lchovni oddiy formulalar o'yiniga aylantiradi.

Ta'lim yoki tarbiyaning u yoki bu amallarini yoki tomonlarini baholash uchun miqdoriy belgilarni topish - matematik muammo hisoblanmaydi. Bu vazifani tadqiqotchi psixologlar hal etishi kerak. Ammo bu masalani hal etish uchun o'lchov usullarining qo'llash chegaralari va sharoitlarini hisobga olib, psixologik hodisalarni to'g'ri o'lchash kerak bo'ladi. O'lchov -- ma'lum qoidalarga muvofiq voqealar va obyektlarga raqamlarni qo'yib, yozish raqamli tavsiflarni, narsa - buyum va hodisalarga qo'shilib yozilishining eng oddiy metodi - ularni qayd etishdir. Qayd etishning mohiyati shundaki - qandaydir belgini ajratib kuzatish va eksperimentda shu belgisi bo'lgan predmet yoki hodisa paydo bo'lsa shu holat muntazam qayd etib boriladi. Masalan, o'qish sabablarini o'rganishda so'rovnoma asosida javobning u yoki bu variantini tanlangan talabalar sonini aniqlashadi qayd etish natijalariga statistik ishlov berish o'rganilayotgan hodisalarga nisbatan ayrim muhim umumlashgan va xulosalarni qilish imkonini beradi.

Qayd etishning muhim xususiyati shundaki, u psixologik - pedagogik tadqiqotlarda ko'p uchraydigan qol bo'lib, ya'ni o'rganilayotgan hodisalarning belgilarini aniqlash, imkoni bo'lmagan hollarda ham miqdoriy jihatlarni tahlil qiladi. Masalan talabalarning bilim va malakalari darajasini, u yoki bu ma'naviy sifatlarining rivojlanishi bu ta'lim metodining samarali darajasini to'g'ri o'lchash qiyin. Ammo shunga tegishli voqealarni - xatolar, o'zini tutishi va hokazolarni qayd etib, bu sifatning ma'lum miqdoriy tavsifini olish mumkin. Demak, ular paydo bo'lishining qonuniyatlarini o'rganish mumkin. Ma'lumotlarga miqdoriy tavsif berishning keyingi metodi - tartibga solish operatsiyasidir. Uning mohiyati shundaki, o'rganilayotgan hodisalar ma'lum belgi hajmining o'sish yoki

pasayish tartibida joylashadi. Keyin obyektlarning har qaysi guruhiga o'sish yoki pasayish qatoridagi bir guruh o'rniga tegishli bo'lgan son bo'ladi. Bu obyektlarda o'rganilayotgan sifatning tartibini ko'rsatib beruvchi sonidir. Ma'lumotlarni tartibga solgandan keyin ularni guruhlashadi. Buning uchun o'rganilayotgan sifat ma'nosini ma'lum intervali o'lchov belgisi deb qabul qilinadi. O'rganilayotgan hodisalarda belgi ma'nosi necha marta shu o'lchov birligi kuzatilayotgan obyektida namoyon etilishi son bilan belgilanadi. Ma'lum sabablarga ko'ra, matematik apparatni qo'llashda va o'lchovda qiyinchiliklar kelib chiqadi. O'lchov natijasida olingan miqdoriy sifatlar matematik statistika usullari yordamida ishlab chiqiladi va bu empirik natijalarni umumlashtirishga "Tasodifiy" natijalar sababini tushuntirishga unga ma'lum ishonarli izoh berishga imkon beradi. Amaliy psixologiyada miqdoriy ma'lumotlarga ishlov berishning eng keng tarqalgan usullari - dispersion, korrelyatsion va faktorli tahlil usullaridir.

Dispersion tahlil - o'rganilayotgan o'zgaruvchiga turli omillarning ta'sirini tahlil etish imkonini beruvchi statistik usuldir. Dispersion tahlilning mohiyati shundaki o'rganilayotgan sifat mustaqil tarkibiy qismlarga bo'linib ketadi, bu qismlarning har biri u yoki bu omilning yoki o'zaro aloqaning ta'sirini tavsiflab beradi. Korrelyatsion tahlil - o'rganilayotgan sifatlar yoki omillar aloqasining shakli, belgisi yoki zichligini baholash statistik metodidir.

Faktorli tahlil - ko'p o'lchovli matematik statistika metod bo'lib, bu usul statistik jixatdan bog'liq sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Bu usul ilmiy tadqiqotlarning boshlang'ich bosqichlarida sermahsul hisoblanadi, chunki bu paytda o'rganilayotgan sohadagi qonuniyatlarni ajratish kerak bo'ladi. Tadqiqotlarga matematik ishlov berishning boshqa metodi ham mavjud. Biz eng ko'p tarqalgan usullarini ko'rib chiqdik. Tadqiqot tajribasi shuni ko'rsatadiki, matematik ishlov berish ko'pgina muhim psixologik tavsiflarni, ularning aloqalari, munosabatlari, qonuniyatlarini o'rnatish va tasvirlashning samarali vositasi hisoblanadi. Tadqiqot usullarini tavsiflash xulosalarida shuni ta'kidlash kerakki, ayrim usullarni boshqalariga qarama-qarshi qo'yish yoki qaysilarinidir imkoniyatlarini absolyutlashtirib bo'lmaydi. U yoki bu usulni tanlash tadqiqot predmeti va vazifalari bilan belgilanadi. har qaysi psixologik

tadqiqotlarda o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va haqqoniy xulosalar chiqarish imkonini beruvchi usullar kompleksi qo'llaniladi.

Olimlar psixologik metodlarni ishlab chiqishar ekan, ular bu metodlardan subyektiv talqin qilish va asossiz xulosa chiqarish imkonini bermaydigan, obyektiv, ishonchli, har qanday xatolardan xoli material olishga intiladilar

OBYEKTIV METODLAR

Obyektiv metodlar tadqiqotchining shaxsi ta'sir ko'rsata olmaydigan yoki juda kam darajada ta'sir ko'rsatadigan natijalarni olish imkonini beradi. Bu metodlarga kuzatish, eksperiment, test, so'rovnoma, suhbat kiradi.

Kuzatish metodi. Kuzatish metodi psixologiyaning asosiy metodlaridan biri bo'lib, bu metod yordami bilan psixik jarayonlarni tabiiy sharoitda, ya'ni odamning u yoki bu faoliyatida qanday ro'y bersa, shundayligicha o'rganiladi.

Kuzatishning ichki va tashqi kuzatish metodlari ajratiladi. Tashqi kuzatish tadqiqotning dasturiga mos holda obyektning xatti-harakatini tahlil qilish va tushuntirish uchun maqsadga yo'naltirilgan holda tizimli idrok qilishdir.

Tashqi kuzatishning bir necha turlari mavjud. Umumiy psixologiyada shaxsni tashqaridan, ya'ni obyektiv kuzatish metodidan keng foydalaniladi. Ma'lumki, ko'pchilik hollarda psixik jarayonlarning juda aniq ifodalangan tashqi alomatlari bo'ladi. Psixik jarayonlarning tashqi alomatlari asosan odamning harakatlari va imo-ishoralarida namoyon bo'ladi. Tashqaridan kuzatishning maqsadi psixik jarayonlarning faqat tashqi alomatlarinigina emas, balki, ularga qarab, psixik jarayonlarning ichki mazmunlarini ochish hamda shunday yo'l bilan kuzatilayotgan psixik jarayonlardan ma'lum ilmiy natijalar chiqarishdir. Ana shuning uchun tashqaridan kuzatish metodidan foydalanish kishidan durustgina kuzatuvchanlik malakasiga ega bo'lishni talab etadi. Kuzatish metodi o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi (1-jadval).

Tashqaridan kuzatish hamisha oldindan belgilangan qat'iy maqsad asosida olib borilishi lozim. Kuzatish metodidan foydalanilayotganda shaxslar o'zlarini kuzatilayotganliklarini mutlaqo sezmasliklari kerak.

| | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| Obyektiv metodlar: Kuzatish Eksperiment Test So'rovnomma Suhbat Kontent-tahlil Grafologiya | Tavsiflovchi metodlar: O'z-o'zini kuzatish Empatik suhbat Identifikatsiya Dialogli suhbat Biografiya Intuitsiya | Psixologik yordam metodlari: Individual Guruhiy Oilaviy |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|

2-rasm. Psixologiyaning tadqiqot metodlari

1-jadval. Kuzatish turlari va ularning tavsifi

| Kuzatish turlari | Tavsiflari |
|----------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
| Aloqaga kirishish bo'yicha | Bevosita (eksperimentator o'zi tekshiradi) Bilvosita (tayyor materiallardan foydalaniladi) |
| Faoliyat sharoitlari bo'yicha | Dala sharoiti (tabiiy sharoitda) Laboratoriya (eksperiment) |
| Obyekt bilan o'zaro ta'sir xarakteriga ko'ra | Ochiq yoki yashirin Kuzatuvchining ishtiroki bilan yoki ishtirokisiz |
| Vaqt bo'yicha | Uzoq muddatli Qisqa muddatli |
| Natijalarni qayd etish bo'yicha | Aniqlovchi Baholovchi |

Kuzatish turiga bir tadqiqotni misol tariqasida ko'rib chiqamiz. Tadqiqotchilar odamlarning muloqot jarayonidagi oralaridagi masofani yashirin kuzatishgan. Xonaning o'rtasida o'rta bo'lyli erkak turgan. Uning oldiga turli odamlar kelib, biror narsani so'rashgan. Bu vaziyatda bo'yi balandroq erkaklar u odamga yaqinroq kelishgan, bo'yi pastlari esa uzoqroqda turib so'rashgan. Ayollarda teskari tendentsiya kuzatilgan. Bo'yi balandroqlari uzoqroq masofada turishgan.

Mazkur holatda kuzatishning tavsifi quyidagicha: kontakt bo'yicha – bevosita (eksperimentator tadqiq qilyapti), faoliyat sharoitiga ko'ra – laboratoriya (eksperimental vaziyat yaratilgan), obyekt bilan o'zaro ta'sir bo'yicha – yashirin (erkakka yaqinlashayotgan odamlar ularni kuzatishayotganlarini bilishmagan), birga emas (eksperimentator tadqiqotda ishtirok etmagan), vaqt

bo'yicha - qisqa muddatli (kichik vaqt oralig'i), natijalar bo'yicha – qayd etish (begona odamlar orasidagi masofa o'lchab qayd etilgan).

Yuqorida aytib o'tganimizdek, kuzatish metodi bilan tekshirishning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda biror psixologik hodisa qanday yuz berayotgan bo'lsa, shu holicha tekshiriladi. Bunda tekshirilishi lozim bo'lgan biror psixik jarayonning tabiiy sharoitda yuz berishini kutishga to'g'ri keladi. Bu esa juda ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Bundan tashqari, tashqaridan kuzatish metodi yordami bilan ba'zi murakkab psixik jarayonlarning mohiyatini bilish juda qiyin. SHuning uchun psixik jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlashda faqat kuzatish metodidagina foydalanish yetarli emas. Murakkab psixik jarayonlarning qonuniyatlarini biz eksperiment (tajriba) metodi orqali o'rganamiz.

II BOB. SHAXS VA UNING MOHIYATI

SHAXS HAQIDA TUSHUNCHA

«SHaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan. SHaxsni o'rganish bilan bog'liq masalalarni psixologiya bilan bir qatorda falsafa, siyosatshunoslik, iqtisod, pedagogika va boshqa sohalar o'rganadi.

SHaxs - bu konkret inson bo'lib, uning axloqiy xatti-harakatlarini ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy munosabatlar belgilab beradi.

SHaxs- ijtimoiy munosabatlar mahsuli hisoblanadi. SHuning uchun shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi. Inson tug'ilganida zarur bo'lgan biologik omillar bilan tug'ilib, o'sib ulg'ayar ekan, u ijtimoiy tajribanining turli ko'rinishlarini egallab, shaxs sifatida shakllana boradi.

SHaxs shakllanishining dastlabki davrida, unga oila muhiti katta ta'sir ko'rsatadi. Insonning jamoadagi (bolalar bog'chasi, maktab, institut, tashkilot va h.k.) faol faoliyati, jamoa a'zolari bilan o'zaro munosabati shaxsning individual sifatlarining shakllanishini ma'lum darajada belgilab beradi. «SHaxs» tushunchasining mazmuni uning boshqa odamlarga va ijtimoiy hodisalarga munosabatini belgilovchi barqaror xususiyatlardan iborat.

Psixolog olimlar shaxs tushunchasiga o'zlarining ta'riflarini berganlar. A.G.Kovalyov shaxsni ijtimoiy munosabatlarning ham obyektini ham subyektini deb hisoblaydi. A.N.Leont'ev shaxsni faoliyatning subyektini deb bilgan. K.K.Platonov jamiyatda o'z rolini anglovchi, jamiyatning ishga layoqatli, yaroqli a'zosini shaxs deb ta'riflaydi. S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi, ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

SHaxs deb biror-bir ijtimoiy guruhning a'zosi bo'lgan, ma'lum bir faoliyatni amalga oshiruvchi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan ijtimoiy munosabatga kirishuvchi individga aytiladi.

Har bir insonning shaxsi o'zining individual belgilari bilan xarakterlanadi. Lekin shu bilan birga har bir shaxsning boshqa shaxslar bilan o'xshashlik tomonlari ham mavjud.

S.L.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev va boshqa ko'pgina olimlar insonning shaxs sifatida shakllanishida faoliyatni birinchi o'ringa qo'yadilar. Ularning fikriga ko'ra, dastavval o'yin faoliyatida, so'ngra o'qish hamda mehnat faoliyatida insonning bilish jarayonlari, irodasi, xarakteri va qobiliyatlari rivojlanadi, e'tiqodi va dunyoqarashi shakllanadi.

SHaxsning asosini uning tuzilishi, ya'ni uning bir butun tuzilma sifatidagi barcha tomonlarining nisbatan barqaror o'zaro ta'siri tashkil etadi. Hozirgi kunda psixologiyada shaxsning ichki tuzilishi bo'yicha bir necha nuqtai nazarlar mavjud. (12-sxema)

SHaxsning tuzilishi.

S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxsning tuzilishi:

1. *Yo'nalganlik* - e'tiqodlar, ideallar, mayllar, qiziqishlar, ehtiyojlar va faoliyat motivlarida, dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. *Bilim, ko'nikma, malakalar* - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3. *Individual - tipologik xususiyatlar* - xarakter, temperament, qobiliyatlardan iborat.

K.K.Kovalyov bo'yicha shaxsning tuzilishi:

1. *Yo'nalganlik* - insonning voqelikka nisbatan munosabatini belgilaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

2. *Xarakter* - shaxsning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorini belgilaydi. Odamning psixologik hayotining shakli va mazmuni unda aks etadi.

3. *Imkoniyatlar* (qobiliyatlar) - faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi, o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turli qobiliyatlar tizimi.

4. *Mashqlar tizimi* - shaxsning o'zini-o'zi nazorat qilishini va xatti-harakatlarini, xulq - atvorini to'g'rilash (korrektsiyalash) ni ta'minlaydi.

K.K.Platonov bo'yicha shaxsning tuzilishi:

1. *Yo'nalganlik*.

2. *Tajriba* (odatlar, bilimlar, ko'nikmalar, malakalar).

3. *Psixik jarayonlar* (iroda, idrok, tafakkur, hissiyotlar va hislar, xotira).


4. *Biopsixik xususiyatlar* (temperament, jins, yoshi xususiyatlari).

V.A.Krutetskiy bo'yicha shaxsning tuzilishi:

1. *SHaxsning yo'nalganligi* (motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, hissiyotlar).

2. *SHaxsning imkoniyatlari* (faoliyat muvaffaqiyatining psixologik zamini, qobiliyatlar, layoqatlar).

3. *SHaxs xatti-harakatining o'ziga xos usullari* (xarakter, temperament).



4-sxema. SHaxsning tuzilishi

Umumlashtirib aytilganda, shaxsning psixologik tuzilishida quyidagilar ajratiladi: yo'nalganlik, qobiliyatlar, temperament, xarakter, o'z-o'zini anglash.

SHaxsning yo'nalganligi. SHaxsning yo'nalganligiga shaxsning e'tiqodlari, qobiliyatlari, munosabatmotivlari va maqsadlari tizimini kiritish mumkin. U to'liq ravishda ijtimoiydir, ya'ni ular shaxsning tug'ma xususiyatlari bilan emas, balki insonning orttirilgan ijtimoiy

tajribalari, ta'lim, tarbiya va faoliyati bilan belgilanadi. Yo'nalganlik inson uchun nima muhim va ahamiyatga ega ekanligini, o'z oldiga qanday vazifalar qo'yganligini tushunishga yordam beradi. Yo'nalganlik shaxsning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi va uni shakllantiradi hamda mana shu xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

N.S.Efimova yo'nalganlikni quyidagicha ta'riflaydi: "Yo'nalganlik – hayotiy maqsadlar va ularga erishish uchun faol faoliyatda namoyon bo'ladigan shaxsning dunyoqarashi, ehtiyojlari va motivlari tizimi bilan belgilanadigan yetakchi xususiyati"³.

Yo'nalganlikning namoyon bo'lish sohalari:

kundalik –moddiy narsalarga intilish, estetik va madaniy ehtiyojlar;

kasbiy –tanlagan kasbiga bog'lanib qolish, kasbiy yutuqlarga erishishga intilish;

psixologik – g'oyaviylik, vatanparvarlik, siyosiy yetuklik va h.k.

SHaxsning o'zini-o'zi anglashi. SHaxsning o'zini-o'zi anglashi o'zini tevarak muhitdan ajratib olib, uning o'ziga va o'zining unga bo'lgan munosabatini aniqlashiga yordam beradi. (Sxema 1)



5-sxema. O'z-o'zini anglashning tuzilishi

³ Ефимова Н.С. Основы общей психологии. Москва, ИД "ФОРУМ"-ИНФРА-М, 2013г. Стр 180.

SHaxsning o'zini-o'zi anglashining bilish komponenti shaxsning o'zini bilishidir va uning natijasi sifatida o'zi, o'zining imkoniyatlari, hayotdagi o'rni va roli haqidagi bilimlar tizimidir. Insonning o'ziga hissiy munosabati va o'zi haqidagi tasavvurlari uning "Men-obrazini" belgilaydi. "Men obrazi" asosida insonning o'ziga beradigan bahosi shakllanadi.

O'zini-o'zi anglash insonning o'z xatti-harakatlarini, fikrlarini, hislarini, jismoniy va irodaviy urinishlarini boshqarishga yordam beradi. O'zini-o'zi boshqarish o'zini-o'zi nazorat qilish va o'ziga baho berish asosida o'z xatti-harakatlarini, fikrlarini jamiyat talablariga va muayyan faoliyatga, sharoitlarga muvofiq o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zini-o'zi ongli boshqarish tizimi to'liq ravishda ijtimoiydir. U shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonida, butun hayot davomida yaratiladi.

SHaxsning shakllanish jarayoni maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Jamiyat unda jamiyatda qabul qilingan obrazning xususiyatlarini shakllantirishga intiladi. SHaxs shakllanishining qonuniyatlari va mexanizmlarini chuqur o'rganish psixologiyaning muhim vazifalaridan biridir.

K. Yung va A. Adlerlarning. SHaxs strukturasi bo'yicha nazariyalari

K. Yung va uning Analitik psixologiyasi

Freydning izdoshlari sifatida faoliyat olib borgan olimlardan biri K. Yung. Yungning shaxs muammosiga doir yondashuvi Analitik psixologiya deb nomlanib, u o'ziga xos yondashuvni ifoda etadi.

SHaxs tipologiyasiga doir yondashuvi:

Ekstraversiya – «ichkaridan tashqariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko'proq odamlar ichida bo'lishni yoqtirishadi, o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radi. Muloqotga kirishuvchan, tanishlari doirasi keng. Ba'zi hollarda jiddiylik yetishmaydi. Odamlarni tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil.

Introversiya-«tashqaridan ichkariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalari qat'iy amal qiladigan. Muloqot doiralar cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradigan.

Shaxsda "Men"obrazi

Har bir inson tevarak atrof haqidagi ma'lumotlarni o'zi haqidagi tasavvurlar tizimi asosida baholaydi va xatti-harakatlarini o'zining ideallari, ustanovkasi, motivatsiyasi, qadriyatlaridan kelib chiqib shakllantiradi.

“Men obrazi” shaxsning o'zi haqidagi tasavvuridir. U doim o'zgarib turadi. Masalan, “Men obrazi” murakkab vazifalarni bajarishdan oldin yoki undan keyin, imtihondan oldin yoki imtihondan keyin turlicha bo'ladi. Insonning “Men obrazi” ning qanchalik to'g'ri ekanligi uning o'ziga beradigan bahosini o'rganish orqali aniqlanadi.

O'z-o'ziga beradigan baho – insonning o'z o'ziga, o'zining imkoniyatlariga, o'zining sifatlariga, odamlar orasidagi o'rniga beradigan bahosidir.

Insonning tevarak – atrofdagilarga munosabati, o'ziga bo'lgan talabchanligi, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarga munosabati o'ziga beradigan bahosi bilan belgilanadi. O'z-o'ziga beriladigan baho insonning tevarak atrofdagilar bilan muloqoti jarayonida, ularning inson xatti-harakatiga beradigan baholari ta'sirida shakllanadi. Insonning ongida o'zi haqida tasavvur shakllanadi. Bu tasavvur insonning o'zini boshqalar bilan solishtirish jarayonida vujudga keladi. Biz o'zimiz haqimizdagi tasavvurlar asosida harakat qilamiz. Agar biz suhbatdoshimizni o'zimizdan aqlliroq deb hisoblasak, u holda, u bilan suhbat davomida o'zimizni aqliy jihatdan o'zimiz bilan teng deb hisoblagan odam bilan tutgandek tutmaymiz. Bunga suhbatdoshimizning aqli ekanligi emas, bizning o'zimizga beradigan bahoyimiz sababdir. Bizning o'zimizga beradigan baho haqiqatga to'g'ri kelmasligi mumkin.

SHaxsning o'ziga beradigan bahosi insonning biror narsaga erishishga intilish darajasi bilan bog'liq. O'ziga yuqori baho berishga erishishga intilish ikki usul bilan amalga oshishi mumkin: maksimal darajadagi muvaffaqiyatni his etish uchun intilishni oshirish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqib intilishni pasaytirish. Muvaffaqiyatga intiladigan insonlar bilan muvaffaqiyatsizliklardan qochadigan insonlarning harakatlari bir-biridan farq qiladi. Muvaffaqiyatga intiladigan insonlar o'z oldilariga ijobiy maqsadlar qo'yadilar, faol ishga kirishadilar, maqsadga erishishning qisqa yo'llarini va vositalarini qidiradilar. Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga harakat qiladigan insonlar boshqacha yo'l tutadilar. Ular o'z kuchiga, muvaffaqiyatga erishishga ishonchsizlik, tanqiddan qochishga harakat

qilishi bilan xarakterlanadilar. Insonning intilishlari bilan real imkoniyatlari o'rtasidagi farq shaxsning o'ziga noto'g'ri baho berishiga olib keladi, oqibatda uning harakatlari ham noadekvat tus oladi.

SHaxsning o'ziga beradigan bahosi uch xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. *O'ziga yuqori baho berish.* Agar yoshlikdan bolaning xatti-harakatlari doim ota-ona tomonidan, so'ngra atrofdagilar tomonidan maqtalsa, uning yutuqlari oshirib ko'rsatilsa, u o'ziga, o'zining imkoniyatlariga yuqori baho bera boshlaydi. Agar biror bir faoliyatda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, u bu muvaffaqiyatsizlikda boshqa odamlarni yoki sharoitni ayblaydi.

2. *O'ziga past baho berish.* Agar bolaning harakatlari ko'p tanqid qilinsa, bolaning imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan topshiriqlar beriladigan bo'lsa bolada o'ziga past baho shakllanib boradi. Agar bu shaxs ishtirok etgan biror loyiha muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, bu holda u: "Agar mening o'rnimda biror qobiliyatliroq odam bo'lganida bunday bo'lmasdi" deb hisoblashi mumkin.

3. *O'ziga adekvat (to'g'ri) baho berish.* Oilada samimiy va to'g'ri munosabatlar ichida voyaga yetgan bolada o'ziga real baho shakllanadi. Bolaga imkoniyatlari darajasida topshiriq berib borilganda, murakkabroq ishlar kattalar bilan birgalikda bajarilganda, yutuq va kamchiliklari to'g'ri ko'rsatib borilsa, yutuqlari e'tirof etilib, kamchiliklari ustida birgalikda ishlansa, bu holda bolada o'ziga to'g'ri baho shakllanadi.

Ko'pgina psixologlarning tadqiqotlari insonning o'ziga beradigan bahosi uning bilish faoliyatiga (idrok, tasavvur, aqliy masalalarni yechish) va uning shaxslararo munosabat tizimidagi o'rniga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. SHuningdek, o'ziga adekvat bahoni shakllantirish usullari hamda shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali o'ziga beriladigan bahoni o'zgartirish yo'llari aniqlangan.

"Men-kontseptsiya" – shaxsning o'zi haqidagi tasavvurida ifodalangan o'zini-o'zi bilishning natijasidir. O'zini –o'zi bilish individuallashtirgandir. "Men-kontseptsiya"si shaxsning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. "Men-kontseptsiya"si ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

shaxsning boshqalar tomonidan (ota-ona, tengdoshlar) qanday idrok qilinishini anglash;

o'zini-o'zi tahlil qilish (shaxsiy sifatlar va kamchiliklarni tahlil qilish);

shaxsning ideallari, ijtimoiy qadriyatlari;

ijtimoiy xulq tajribasi;

tashqi ko'rinishi, o'z kuchi va sog'lig'ini his etish.

“Men-kontseptsiya”si o'zini –o'zi ayblash va o'zini-o'zi rag'batlantirish vazifasini bajarishi mumkin. Insonning xatti-harakati uning “Men-obrazi” bilan mos kelsa, bu holda u o'zidan mamnun bo'ladi, atrofdegilarni uni qo'llab quvvatlashi talab etilmaydi. “Men-kontseptsiya”si o'zini-o'zi ayblash tendentsiyasiga ham ega. O'zini omadsiz deb hisoblaydigan insonlar, o'zlarining obrazlarini saqlab qolish uchun vaziyatni to'g'rilash bo'yicha o'z harakatlarini anglamagan ravishda to'xtatishga yoki noto'g'ri amalga oshirishga intiladilar.

“Men-kontseptsiya”sining mazmuni turli ijtimoiy ta'sirlar ostida shakllanadi. Ayniqsa, inson uchun obro'li insonlar bilan aloqalar juda muhim bo'lib, bu insonning o'zi haqidagi tasavvurini belgilaydi. Dastlab, deyarli barcha aloqalar “Men-kontseptsiya”siga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. “Men-kontseptsiya” vujudga kelgan zahoti shaxsiy tajribani sharhlashda faol ishtirok etadi. SHunday qilib, “Men-kontseptsiya”si uch xil vazifani bajaradi:

-shaxsning ichki muvofiqlashuvga erishishiga yordam beradi;

-tajribalarning sharhini belgilaydi;

-kutishlarning manbai hisoblanadi.

Shaxsni o'rganish bo'yicha asosiy yondoshuvlar

Psixologiyada shaxs turli yondoshuvlar nuqtai nazaridan o'rganiladi. Lekin chet el psixologiyasida shaxsni o'rganishda eng keng tarqalgan yondoshuv uchta: biogenetek, sotsiogenetik, psixogenetik. (Sxema 3)

Biogenetik nazariya shaxsning rivojlanishiga biologik yetilish jarayonini asos qilib oladi. XX asr boshlarida amerikalik psixolog S.Xoll biogenetik “rekapitulyatsiya qonunini” rivojlanishning asosi deb bilgan. Bu qonunga muvofiq individual rivojlanish, ontogenez filogenezning asosiy bosqichlarini takrorlaydi. XX asrda E.Krechmer, U.SHeldon tomonidan ishlab chiqilgan tipologik tasniflarda inson xarakteri tananing jismoniy tuzilishi bilan bog'lashga harakat qilingan. Z.Freydning shaxs nazariyasida biologik omillar, ayniqsa, yorqin

ifodalangan. Uning nazariyasiga ko'ra, shaxsning butun xulqi uning ongsiz biologik mayllari va instinktlari bilan muvofiqlashgan.



6-sxema. SHet el psixologiyasida shaxsni o'rganishdagi asosiy yondoshuvlar

SHaxsning rivojlanishi inson biologik tabiatining jamiyatdagi hayotga moslashuvi, unda himoya mexanizmlari va "Oliy-Men" bilan kelishilgan ehtiyojlarni qondirish usullarining ishlab chiqilishi orqali amalga oshadi, deb hisoblanadi.

Sotsiogenetik nazariya shaxs xususiyatlarini jamiyat tuzilishi, ijtimoiylashuv usullari, tevarak muhit bilan o'zaro munosabatlardan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik mavjudot sifatida dunyoga kelib, hayotning ijtimoiy ta'siri sababli shaxsga aylanadi. Bixevioristlar (E.Torndayk, B.Skinner)ning fikriga ko'ra, shaxs insonning tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirining natijasidir. Ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxs shaxslarning o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi. G'arbda keng tarqalgan nazariyalardan biri –bu rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga muvofiq, jamiyat har bir odamga uning mavqei bilan belgilangan xatti-harakatlarning (rollarning) barqaror usullarining majmuini

taqdim etadi. Bu rollar shaxsning xatti-harakatining xarakteriga, atrofdagilar bilan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi.

Psixogenetik nazariya biologik omillarning ahamiyatini ham, ijtimoiy muhitning ahamiyatini ham inkor etmaydi, lekin asosiy rolni bilish jarayonlarining rivojlanishiga beradi. Unda uchta oqim ajratiladi.

Psixodinamik kontsepsiyalar - shaxsning xatti-harakatlarini hissiyotlar va mayllari orqali tushuntirib berishga intiluvchi oqim (E.Erikson va boshqalar).

Kognitivistik oqim - intellektning bilish tomoniga urg'u beruvchilar (J.Piaje, D.J.Kelli va boshqalar). Kognitiv yondoshuv shaxsning shakllanishi tashqi hodisalarni idrok qilishda ularni nazorat qilishga qanday rol ajratilganligi bilan belgilanadi, degan g'oyani ilgari suradi.

Diqqat markazida shaxsning butun rivojlanish jarayoni turadigan oqim personologik oqimdir (E.SHpranger, A.Maslou va boshqalar). Ular insonning butun hayoti davomidagi tanlovlari orqali o'z - o'zini anglashga moyillik yoki o'zini namoyon qilishga intilishi uning tabiatining asosida yotadi, degan g'oyani ilgari suradilar.

Rus psixologlari shaxsni o'rganishda L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leont'evning faoliyat nazariyasiga tayanadilar. L.S.Vigotskiy shaxsni insoniyatning madaniy-tarixiy rivojlanishi nuqtai nazaridan tushuntiradi: "SHaxs ijtimoiy tushuncha. U insondagi tabiiylikdan yuqori, tarixiylikni qamrab oladi. U tug'ma emas, lekin madaniy rivojlanish natijasida paydo bo'ladi, shuning uchun shaxs tarixiy tushunchadir".

Tizimli xususiyat sifatida shaxsning paydo bo'lishi, individning boshqalar bilan birgalikdagi faoliyatida dunyoni o'zgartirishi va bu o'zgartirishlar orqali o'zini o'zgartirishi bilan muvofiqlashgan (A.N.Leont'ev, S.Ya.Rubinshteyn). SHaxs individ va ijtimoiy muhit sharoitining birligi sifatida ko'riladi (A.N.Leont'ev, B.G.Anansev).

SHaxs - insonning ontogenetik rivojlanishi va tarixiy taraqqiyotining nisbatan kechroq vujudga kelgan mahsuli. SHaxsning haqiqiy asosi faoliyatda, to'g'rirog'i, xilma-xil faoliyatda amalga oshadigan munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir.

Zamonaviy psixologiya shaxsni bioijtimoiy deb hisoblaydi. Biologik zamin (nerv tizimining tipi, jinsiy belgilar, layoqatlar) insonning rivojlanish moyilligini belgilaydi. SHaxsning rivojlanishiga

muhit, ta'lim va tarbiya, ijtimoiylashuv usullari katta ta'sir ko'rsatadi. SHaxsning tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan faolligining ahamiyati katta. SHunday qilib, shaxs nafaqat biologik yetilish mahsuli yoki hayot sharoitining o'ziga xos belgisi, balki individ o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib boradigan muhit bilan faol o'zaro ta'sirlashuv jarayonining subyektidir.

SHaxsning rivojlanishi

Psixik rivojlanish umumpsixologik kategoriyadir. Insonning ontogenezda (tug'ilgandan umrining oxirigacha) rivojlanishi bir qator nazariyalarda ishlab chiqilgan.

Psixoseksual rivojlanish nazariyasi (Z.Freyd).

Z.Freyd tadqiqot predmeti sifatida insonning tug'ma instinkt va mayllarga asoslangan jinsiy xatti-harakatlari, istaklari va hissiyotlarini oladi. Go'dak bolaga, bola o'smirga, o'smir katta odamga aylana borgani sari uning istaklari va xohishlari hamda ularni qondirish usullari ham o'zgarib boradi. Z.Freyd "fiksatsiya" tushunchasi bilan insonning bir bosqichdan boshqasiga o'tmasdan mazkur bosqichda qolib ketishini ifodalaydi. Muayyan bosqichda qolib ketgan inson o'z ehtiyojlarini normadagi rivojlanishda namoyon bo'ladigan, kattalar foydalanadigan usullarda emas, sodda "bolalarcha" usullardan foydalanib qondirishga harakat qiladi. Freyding fikricha bolalar beshta psixoseksual bosqichni bosib o'tadilar. (1-jadval)

1-jadval. SHaxsning psixoseksual rivojlanish bosqichlari

| Rivojlanish bosqichi | Qoniqish sohalari | Qoniqish usullari | Qayd etilish |
|--------------------------------|-------------------------|-------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| Oral (2 yoshgacha) | Lab, til, tishlar | Ovqatlantirish bilan zo'riqishning kamayishi (ochlik, chanqoqlik) | To'yib ketish, chaynash, so'rish tirnoqlarni tishlash |
| Anal (2 yoshdan 3 yoshgacha) | Sfinkter va siydik qopi | Siyish va ich kelishi | Ozodalik, ehtiyotkorlik va o'jarlikning birligi |
| Fallik (4 yoshdan 5 yoshgacha) | Jinsiy a'zolar | Jinsiy farqlarni anglash | Qizlarda jinsiy ta'qiqlarga noto'g'ri |

| | | | |
|---------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--------------------------------------------|
| | | | munosabat, o'g'il bolalarda edip kompleksi |
| Latent (6yoshdan 12 yoshgacha) | Bu bosqichda jinsiy rivojlanish jadallashmaydi, ota-onaga bog'liqlik zaiflashadi. Munosabatlar tengdoshlarga, sportga, o'qishga qaratiladi. | | |
| Genital(12yoshdan 18 yoshgacha) | Libinoz energiyaning jinsiy a'zolariga qaytishi. Yigitlar va qizlar o'zlarining jinsiy mansubliklarini anglaydilar va o'zlarining jinsiy va shaxslararo ehtiyojlarini qondirish yo'llarini qidira boshlaydilar | | |

SHaxsning psixosotsial rivojlanishining epigenetik nazariyasi (E.Erikson)

So'nggi yillarda shaxsga turli nazariyalar va yondoshuvlarning birligi nuqtai nazaridan qarash kuchaymoqda. Bunday yondoshuvlarning biri amerikalik psixolog E.Eriksonga tegishli. Uning asosiy qarashlari quyidagilardan iborat:

inson butun hayoti davomida butun insoniyat uchun universal bo'lgan bir necha bosqichlardan o'tadi;

bu bosqichlardan o'tish yetilishning epigenetik tamoyiliga muvofiq amalga oshadi;

epigenetik tamoyilining mazmuni shundan iboratki, shaxs keyingi o'sish yo'nalishiga tayyor bo'lishi bilan bir bosqichdan boshqasiga o'tish orqali rivojlanadi;

inson hayoti har bir yosh davri uchun o'ziga xos bo'lgan sakkizta psixik inqirozdan iborat bo'lib, uning qanday tugashi bilan shaxsning keyingi takomillashuv imkoniyati belgilanadi. (2-jadval)

2-jadval, E.Erikson bo'yicha shaxsning rivojlanish bosqichlari

| | Bosqichlar | Normal rivojlanish yo'nalishi | Normadan og'uvchi rivojlanish yo'nalishi |
|---|------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Erta go'daklik (1 yoshgacha) | Bolaning asosiy ehtiyojlari qondirilishi orqali, muloqot, ota-onaning mehri orqali odamlarga ishonch shakllanadi | Yomon munosabat, ko'krakdan ajratib tashlash, emotsional muloqotning yetishmasligi oqibatida shubhalilik |
| 2 | So'nggi go'daklik | Bolaning mustaqillik ko'nikmalarini egallashi | |

| | | | |
|---|---------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | (1yoshdan 3 yoshgacha) | orqali avtonomlashishi shakllanadi | |
| 3 | Ilk bolalik (3 yoshdan 5 yoshgacha) | Tashabbuskorlik qiziqishda, tevarak muhitni o'rganishda, kattalarga taqlidda, dastlabki jinsiy harakat elementlarining namoyon bo'lishida ko'rinadi | Bolaning muvaffaqiyatsizliklarni ketma-ket boshdan kechirishi, kattalar tomonidan haddan ortiq g'amxo'rlik, tashabbusning bostirilishi bo'ysunuvchanlikni shakllantiradi |
| 4 | O'rta bolalik (5 yoshdan 11 yoshgacha) | Mehnatsevarlik – bola kelgusidagi murakkab vazifalarni bajarishga tayyorlanar ekan ishlashga o'rganadi, ishlash istagi rivojlanadi | O'zida kamchilikni his etish hissi –mehnat ko'nikmalari zaif rivojlanganligi, murakkab vazifalardan, boshqa bolalar bilan musobaqalashishdan qochish o'zida kamchilikni his etishning rivojlanishiga olib keladi |
| 5 | O'smirlik va o'spirinlik (11yoshdan 20 yoshgacha) | Identifikatsiya – o'smir uchun ahamiyatli odamlarning harakatlarini o'zlashtirish. SHaxslararo harakat shakllarida aniq jinsiy ajralish. Dunyoqarashning shakllanishi, o'z taqdirini belgilash | Rollarning tartibsizligi – identifikatsiya qilishga qodir bo'lmaslik yoki u bilan bog'liq qiyinchiliklar o'smir affektiv, ijtimoiy va kasbiy sohalarida o'ynaydigan rollarning tartibsizligiga olib kelishi mumkin, |
| 6 | Erta yetuklik (20yoshdan 45 yoshgacha) | “Ish-farzand dunyoga keltirish – dam olish”ni birgalikda amalga oshiradigan sevimli inson bilan yaqinlikni qidirishda yaqin munosabatlar tajribasi egallanadi | Odamlardan ajralish yaqin intim munosabatlardan qochish yoki tartibsiz aloqalar bilan bog'liq |
| 7 | O'rta yetuklik (45 yoshdan 60 yoshgacha) | Generativlik oilani saqlab qolish hissining rivojlanishi, kelgusi avlodga va uning tarbiyasiga qiziqish bilan xarakterlanadi | Turg'unlik – yolg'on yaqinlik holati er-xotinni o'zi uchun yashashiga, shaxslararo munosabatlarning qashshoqlashuviga olib |

| | | | |
|---|--------------------------------------|-----------------------------|------------|
| | | | keladi |
| 8 | So'nggi yetuklik (60 yoshdan yuqori) | Yashagan hayotidan qoniqish | Umidsizlik |

Zamonaviy psixologiyada ontogenetik rivojlanish muammosi organizmning doimo muhit bilan muayyan munosabatda bo'lishiga asoslanadi.

L.S.Vigotskiy nazariyasida shaxs rivojlanishi

L.S.Vigotskiy bolaning kattalar bilan muloqoti psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch degan g'oyani ilgari surgan. U shaxsning rivojlanishida beshta bosqichni ajratadi:

1. Yangi tug'ilgan go'dakda eng sodda "Men" mavjud emas, ya'ni shaxs va boshqalarga munosabat. Bola hayotining birinchi yili, xuddi insoniyat hech qanday yozuvlar qoldirmagan rivojlanishining ilk davri kabi, biz hech narsani eslay olmaydigan rivojlanishimizdagi eng dastlabki davrdir.

2. Ikkinchi bosqich ikkita asosiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi: bolaning tik yurishni (fazoga moslashuvi, narsalar ustidan hukmronligining ortishi) va tafakkuri, xotirasi va boshqa oliy funksiyalarning qayta qurilishiga olib keladigan nutqni egallashi. Bolada "Men" tushunchasi boshqalar haqidagi tushunchalar bilan birgalikda rivojlanadi.

3. Bolaning psixik rivojlanishidagi keyingi bosqich o'yin yoshidir (bola osongina boshqa odam va o'zi bo'lishi mumkin), lekin u o'zining shaxsiy o'yinini va kattalar faoliyatini ajrata olmaydi.

4. Maktab yoshidagi bola ko'proq individual va ijtimoiylashgan bo'ladi. Faqat 12 yoshga kelib, u o'zidagi egotsentrik fikrlashni yengadi va aqliy operatsiyalarni egallashga o'tadi.

5. Jinsiy yetilish bilan bog'liq o'smirlik davrida bolaning hayotida ikkita yirik o'zgarish sodir bo'ladi: o'zining "Men"ini ochish va dunyoga munosabat va dunyoqarashning shakllanishi.

SHaxsning rivojlanishiga faoliyat yondoshuvi (A.N.Leont'ev)

A.N.Leont'ev P.P.Blonskiy va L.S.Vigotskiylarning ta'limotiga asoslanib, ong, psixika nafaqat faoliyatda namoyon bo'ladi, balki u faoliyatda shakllanadi deb hisoblaydi va u shaxs rivojlanishining quyidagi shartlarini keltiradi (7-sxema)

"Etakchi faoliyat" tushunchasi (D.B.Elykonin)

D.B.Ельконин A.N.Leont'ev tomonidan psixologik yoshni ajratish mezonini sifatida ishlab chiqilgan "etakchi faoliyat" tushunchasini ishlatgan. Har bir yoshda faoliyat turlarining xilma-xil tizimi mavjud bo'lib, yetakchi faoliyat unda alohida o'ringa ega. Yetakchi faoliyat tayyor shaklda paydo bo'lmasdan (kattalarning rahbarligida) rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tadi (2-jadval).

Etakchi faoliyat – bu bolaning eng ko'p vaqtini oladigan faoliyat emas, bu psixik rivojlanish uchun ahamiyati bo'yicha asosiy faoliyatdir.



7-sxema. SHaxs rivojlanishining shartlari va sohalari

2-jadval. Bolalik davrida psixik rivojlanishni davrlashtirish

| Yosh davri | Etakchi faoliyat | Faoliyat tipi |
|------------------------|-----------------------------------|------------------------------|
| Go'daklik | Bevosita emotsional muloqot | "Bola – ijtimoiy katta odam" |
| Ilk bolalik | Predmetlar bilan nozik harakatlar | "Bola – ijtimoiy predmet" |
| Maktabgacha yosh davri | Rolli o'yin | "Bola – ijtimoiy katta" |

| | | |
|---------------------------|--------------------------|------------------------------|
| | | odam” |
| Kichik maktab yoshi davri | O’quv faoliyati | “Bola – ijtimoiy predmet” |
| O’smirlik davri | SHaxsning intim muloqoti | “Bola – ijtimoiy katta odam” |
| O’spirinlik davri | Kasbiy-o’quv faoliyati | “Bola – ijtimoiy predmet” |

SHaxs “bola – ijtimoiy katta odam” va “bola – ijtimoiy predmet” tizimidagi faoliyat natijasida shakllanadi. Predmetlar bilan ijtimoiy ishlab chiqilgan harakat usullarini o’zlashtirishda bolaning jamiyat a’zosi sifatidagi shakllanishi, shuningdek, uning intellektual, bilish va jismoniy kuchi rivojlanishi ro’y beradi. Bolalar tomonidan kattalarning faoliyatida mavjud bo’lgan vazifalar, motivlar va munosabatlar normasini o’zlashtirish bu munosabatlarni o’zlarining faoliyatlarida, ularning jamiyatlarida, guruhlarida va jamoalarida qayta tiklash yoki modellashtirish orqali amalga oshadi. Demak, katta odam bolaning ko’z o’ngida tevarak atrofdagi voqelikda to’g’ri harakat qilish uchun zarur bo’lgan jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan norma va etalonlarning tashuvchisi sifatida gavdalanadi.

Bolaning rivojlanishida shunday davrlar borki, u davrda bola quyidagilarni o’zlashtiradi:

odamlar orasidagi munosabat normalari, motivlar va vazifalar hamda uning asosida motiv-ehtiyoj sohasining shakllanishi;

predmetlar bilan jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar va intellektual–bilish va operatsional-texnik imkoniyatlarning shakllanishi.

Bir bosqichdan boshqasiga o’tish bolaning operatsional-texnik imkoniyatlari va faoliyat motivlari va ularning asosida shakllangan vazifalar mos kelmay qolganda ro’y beradi. Mazkur o’tishlar inqirozlar bilan amalga oshadi va bolalar psixologiyasida “uch yosh inqirozi”, “jinsiy yetilish inqirozi” deb yuritiladi. Ikkala o’tish davrida ham mustaqillikka intilish tendentsiyasi va kattalar bilan munosabatda bir qator noxush holatlar kuzatiladi.

Bir qator psixologlarning nuqtai nazarlarining tahlili ontogenetik rivojlanishning quyidagi davrlarini ajratish imkonini beradi:

irsiy dasturlar hisobiga amalga oshadigan o'sish va yetilish jarayonidan iborat embrional yoki ona qornidagi bolalik davri bosqichi;

hayotdagi bosqich, tug'ilish natijasida bola tevarak muhit bilan faol o'zaro munosabatga kirishadi va bu holat uning psixik jarayonlariga ta'sir etadi. Bu bosqichda chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha davr, kichik maktab yoshi davri, o'smirlilik davri, o'spirinlik davri va yetuklik davrlari ajratiladi.

Hayotning har bir davri ajoyib va betakror. Shakllangan ostuzilish va sifatarni o'zgartirish juda qiyin. Bu jarayon ta'lim va tarbiya bilan shug'ullanuvchi insonlardan katta mas'uliyat talab etadi. SHaxs haqidagi barcha bilimlarni o'zlashtirish uning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

FAOLIYAT VA UNING TUZILISHI

SHaxsning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi va shaxsni unda shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Sotsiologiya fani biron bir aniq jamiyat a'zosi, yoki biror bir toifadagi guruhga mansub bo'lgan insonni shaxs deb ataydi. Psixologiya fani shaxsni nafaqat jamiyatdagi o'zni, uning jamiyatning bir subyekti nazarida, balki shaxsni jamiyatga bo'lgan ta'sirini ham o'rganadi. Chunki nafaqat jamiyat shaxsiga, balki shaxs ham jamiyatga ta'sir eta oladi.

Individual "Men" obrazi

Agar kimdir sizni har qanday ijtimoiy aloqalardan cheklab qo'ysa, sizning shaxsingizning qaysi qismi saqlanib qolgan bo'lar edi? Javob sizda aynan individualizmni anglatuvchi mustaqil "Men" yoki kollektivizmni anglatuvchi o'zaro bog'liq "Men" ni qanday rivojlanganiga bog'liq bo'ladi.

Individualistlar shaxsining katta qismida o'z "Men"ini his qilish, shaxsiy qadriyatlarini anglash saqlanib qolgan bo'lar edi. Individualizm darajasi insonlarda turlicha bo'ladi va u xalq madaniyatidan kelib chiqqan holda bo'ladi, masalan Osiyo jamoatchilik muhim bo'lsa, AQSH da individualizm (Hofftede, 1980; Triandis, 1994). Individualistlar shaxsiy maqsadlari va shaxsiy xususiyatlarini birinchi o'ringa qo'yadilar. Ular shaxsiy nazoratga va individual yutuqlarga intiladilar.

Kollektivistlar uchun begona muhitda yo'qolib qolish imkoniyati shahsning katta qismini yo'qotishni anglatishi mumkin. Oilasi, guruhi va yaqin do'stlaridan ajralgan kollektivistlar ularni shaxs sifatida belgilab turgan aloqalarini yo'qotgan bo'laredilar. Kollektivistik madaniyatda ijtimoiy tarmoq (muhit) inson uchun tayanch vazifasini o'taydi. Bunda "Men" muhim emas, lekin "Biz" muhim rol o'ynaydi. Kollektivistlar o'z guruhlari - oilasi, kasbdoshlarining maqsadlarini birinchi o'ringa qo'yadi va shu bilan o'z shaxsini aniqlaydi. Kollektivistlar guruhda qadriyatlar tizimiga, u haqida qayg'uradigan odamlarga va havfsizlik ishonchiga ega bo'ladilar.

Agar amerikalik talabalarni yaponiya, hitoy va xindiston talabalari bilan taqqoslasak, ularda shaxsiy sifatlarini "Men" bilan bilan tugatish ehtimoli (men samimiyman, men o'zimga ishonganman) juda kam, lekin o'zining ijtimoiy maqomi haqida (Men Keyos universiteti talabasiman, Men oilada uchinchi farzandman) gapirish ehtimoli juda ko'pdir. G'arbliklar uchun individuallik birinchi o'rinda. Osiyaliklar uchun esa kollektivism birinchi o'rinda turadi.

Individualistlar kollektivistlar madaniyatidagi farq hatto insonlarning ismlarida ham ifodalanadi. Individualistik madaniyat ismini birinchi o'ringa qo'yib (Kristina Brun) shaxsini birinchi o'rinda ekanligini ko'rsatsa, kollektivistik madaniyat oilasini birinchi o'rinda ekanligini familiyasini birinchi o'ringa (Guy Garri) qo'ygan holda ko'rsatadi. Oilaga sodiqlik mashxur hitoy ashulalarida ham ko'rinadi, ularda ko'pincha g'arb ashulalarida juda kam uchraydigan ot-onalariga nisbatan ijobiy his tuyg'ular ifodalanadi. Individualistik madaniyat vakili bo'lmish insonlar uchun bunday ashulalar g'alati ko'rinishi mumkin. Qishloqlarda yashaydigan hitoyliklar uchun esa "Men faqat o'z-o'zim bilan bo'lishim kerak" degan ashula g'alati ko'ringan bo'lar edi.

Individualistlar ijtimoiy guruhlariga nisbatan oson kirishib ketadilar va uni oson tark etadilar. Ular din va ish tanlashda ham nisbatan mustaqillikni his etadilar, ular hatto o'zining katta oilasini tashlab boshqa yangi joyga ko'chib ham ketishlari mumkin. Oila ham har ikkala tarafni bir-birini yaxshi ko'rgunicha davom etadi. Kollektivistlar esa yangi guruhlarda o'zlarini zaif his qilishlari yoki uyalishlari mumkin. Ular tanishlari va do'stlariga nisbatan chuqur va muntazam bog'liqlikni his etadilar. Ularning munosabatlari uzoq muddatli harakterli bo'ladi. Shunday qilib, ish beruvchi va ishchi

o'rtasida nisbatan kuchli bog'liqlik vujudga keladi. Kollektivistik guruhlarda yoshi kattalar va yuqori lavozimdagi shaxslarga nisbatan hurmat qilinadi.

Individualizm va kollektivizm o'ziga yarasha imtiyozlarga va kamchiliklarga ega. Individualistik madaniyatdagi insonlar katta shaxsiy mustaqillikka egadirlar, ko'proq o'zlarining shaxsiy yutuqlari bilan faxrlanadilar, o'z oilalariga kam bog'langan va alohida yolg'iz qolishni yaxshi ko'radilar. Novatorlik va ijodiylik yaxshi qarshi olinada va har qanday inson huquqlari hurmat qilinadi.⁴

Individualizm va kollektivizm qadriyatlarining farqlanishi

| Tushunchalar | Individualizm | Kollektivizm |
|--------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| Menligi | Mustaqillik (Bir hillik manbai - individual xususiyatlar) | O'zarobog'liqlik (bir hillik manbai - guruhga taaluqlilik) |
| Hayotiy maqsad | O'zining qaytarilmasligini kashf etish va ko'rsatish | Aloqalarni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash |
| Nima muhim | Men - shaxsiy yutuqlari va natijalari, huquqi va mustaqilligi | Biz - guruhiy maqsadlar va solidarlik, ijtimoiy masul'iyat va munosabat |
| Qiyinchiliklar bilan kurashish | Reallikni o'zgartirish | Reallikka moslashish |
| Ma'naviyati | Individlar bilan aniqlanadi (menligiga asoslangan) | Ijtimoiy tarmoqlar bilan aniqlanadi (qarzga asoslangan) |
| Boshqalar bilan munosabati | Ko'p miqdorda, ko'pincha vaqtinchalik va tasodifiy; konfrontatsiya ham bo'lishi mumkin | Kam miqdorda, yaqin va mustahkam; munosabatlar mutanosibligi qadrlanadi |
| Xulq-atvori | Insonning shaxsiy xususiyatlarini va ustanovkalarini aks ettiradi | Ijtimoiy me'yorlar va rollarni aks ettiradi |

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatni muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Faollik (lotincha "aktus" - harakat, "aktivus" - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha)

⁴ David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 595-596 betlar

shaxsning hayotidagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi turkumdir . Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish davrida amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglash muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroke va uni*uddalashiga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi mavjud :

A. Tashqi faollik - bu tashqi dunyoda o'z ichki istak-hoxishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

B. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixologik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat davomiyligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hissiyotlarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotda kechadigan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga etdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini silashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik - o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog'inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta'siri), ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovchi ichki, bir qarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo'lsak, hamda uni ifodalagan rasmni ko'rsak, tahminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala faoliyat turi ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning*asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning extiyojlariga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faoliyat turlari aslida ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, shaxsning jamiyat bilan kechadigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faoliyati "harakat", "faoliyat", "hulq" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib

taqaladi. Shaxs aynan turli faoliyatlar jarayonida shakllanadi, hamda o'zligini namoyon qiladi. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman extiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu - moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'hshash holatlardandir. Inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi.

Faoliyat turlari. jismoniy va aqliy harakatlar. Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga - predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabanning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo'ladi.

Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki - aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat kuzatiladi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga ta'sir ko'rsatib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishga o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.


Aqliy harakatlarning ko'rinishlari

- *perseptiv* - ya'ni bular shunday harakatlarki, ular oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;
- *mnemik faoliyat*, narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab qolinishi bilan bog'liq murakkab faoliyat turi;
- *fikrlash faoliyati* - aql, faxm - farosat vositasida turli hil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat;
- *imativ* - ("image" -obraz so'zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda hayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyalik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, hattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'htamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyatni his qilayotganligidan habar berib turadi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga

oshirayotgan - misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan halos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargni va nima uchun ortiqcha ekanligini anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mehanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimentāl tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishda, ifoda etilishi mumkin:



Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat tashqi harakatlar asosida shakllanadi va alohida komponentlardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish kuzatilsa, bunday jarayon psixologiyada interiorizatsiya deb ataladi, aksincha, aqlida shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi ekteriorizatsiya deb yuritiladi.

O'yin va o'qish faoliyatining o'ziga xos jihatlari. Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, qabul qilib alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o'girilganda, malaka hosil bo'ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni ko'nikmalar deb ataymiz. Ko'nikmalar - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko'nikma va malakalar o'zaro bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham o'quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko'nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo'lsak, uning shakllanish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

-oddiy namoyish etish yo'li bilan;

-tushuntirish yo'li bilan;

-ko'rsatish bilan tushuntirishni uyg'unlashtirish yo'li bilan.

hayotda ko'nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni yengillashtiradi va o'qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlaydi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo'lgan asosiy faollik turlari bo'yicha tabaqalashdir. Bu - muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlaridir.

Muloqot - shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

1933 yilda "o'yin" tushunchasining etimologik tahlilini amalga oshirgan va uning o'ziga xos alomatlarini tasniflashga harakat qilgan golland olimi F.Boytendayk hisoblanadi. O'yinning alomatlari "u yoqqa va bu yoqqa harakat ehtiyojsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik". Bunday alomatlardan qanoatlanmagan muallif, uning fenomenini bolalar faoliyatini kuzatish orqali aniqlashiga harakat qiladi, chunki o'yinning qiymati va ahamiyati ularning o'zlari tomonidan oqilona baholash, deganlari hulosaga keladi.

O'yin - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi.

O'yin faoliyati faoliyatning oddiy shakllaridan biri hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib sodda harakatlarni keyinchalik syujetli, rolli o'yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi, atrof muhitni aks ettirishda ishtirok eta boshlaydi.

Tajribalardan hulosasi qilish mumkinki, 5-6 yoshdagi bolalar uchun eng muhimi u o'ynayotgan rol. Rolni gavdalanitirish davomida bolaning faoliyatga bo'lgan munosabati yuzaga chiqadi. Ko'rilgan

vaziyatdan shunday gipoteza tug'iladi. Demak, bola o'ziga boshqa odamlarning rolini olayotgan ekan, shu rolga xos, tegishli faoliyat va munosabatlarni aks ettirishi o'yinning birlamchi asosidir.⁵ "Bolalar o'yinlarining mohiyati shundan iboratki, u o'yinda u yoki bu rolni bajaradilar va eng qiziq jihati, mayda, keraksiz buyumlarni haqiqiy tirik mavjudotlarga aylantirishni xohlashlari ham mumkin".⁶

V.Vundning mulohazalariga ko'ra, o'yinning manbai huzur qilish, rohatlanishdan iboratdir. V. Vund bildirgan fikrlar yoyiq xususiyatga ega bo'lib, o'yinning u yoki bu jihatlarini yoritishga hizmat qiladi. Uning fikricha o'yin - bu bolalarning mehnatidir. har qanday o'yin jiddiy mehnatning u yoki bu shaklining prototipidir. Yashash zaruriyati insonni mehnat qilishga majbur qiladi. Mehnat orqali inson o'z kuch-qudratini baholashga o'rganib boradi, mehnatning huzur qilish va rohatlanishning manbai ekanligiga iqror bo'ladi. O'yin mehnatning foydali jihatini ko'rsatib boradi.

A.Arkin esa o'yinlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi:

1. Ishlab chiqarishga: Sanoat, qishloq xo'jaligi , qurilish kasb-hunarga oid o'yinlar;
2. Maishiy va ijtimoiy siyosatga: Bog'cha, maktab kundalik turmushga oid o'yinlar;
3. Harbiy: urush o'yinlari;
4. Dramalashtirilgan: Kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar.

D. B. Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o'yinlarning syujetiga ko'ra 3 ta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Maishiy mavzudagi syujetga oid o'yinlar.
2. Syujetiga taaluqli o'yinlar.
3. Ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

D. B. Elkonin harakatli o'yinning qoidalari mazmunini o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, ularni besh guruhga ajratadi:

1. Harakatga taqlid qilish: taqlidiy-prosessual o'yinlar.
2. Muayyan syujetli dramalashtirilgan o'yinlar.
3. Syujetli o'yinlar.
4. Syujetsiz o'yinlar.
5. Aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o'yinlari.⁷

⁵ D.B.Elkonin "Psixologiya igri" M.:1999 5-bet.

⁶ Selli Djems Ocherki po psixologii detstva /Per.s ang. M.,1901 56 bet

⁷ D.B.Elkonin "Psixologiya igri" M.:1999 26-bet.

O'qish faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faoliyatki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.


O'rganish faoliyati bu - biron bir organizm xatti- harakatining tajribaga ko'ra o'zgarishidir. O'rganish faoliyatining uch turi bor: ular 1- Classical conditioning (Klassik sharoit) 2-Operant condition (rag'batlantirilish orqali biron bir ish harakatini bajarishga o'rgatish) 3-Observational learningning (Kuzatish orqali o'rganish)

200-yil oldin faylasuf Jon Loke va David Hyuman Aristotelning hulosalari asosida shunday degan: Biz assosatsiyalar orqali o'rganamiz. Bizning miyamiz izchil ravishda voqea va hodisalarni bir-biriga bog'laydi. Faraz qiling: Siz yangi tandirda yopilgan nonni ko'rsangiz uni hidlaysiz, tatib ko'rasiz, shuningdek undan rohatlanasiz. Keyingi safar siz yangi yopilgan nonni ko'rganingizda tajribangizdan siz uni yana tatib ko'rsangiz undan rohatlanishingizni bilasiz (Wells,1981).

Yuqoridagi assosatsiya bizning doimiy xatti-harakatlarimizni tushuntirib beradi (Wood&Neal, 2002). Xatti-harakatlarimizning takrorlanishi natijasida bizda assosatsiya hosil bo'ladi. Xatti-harakatlar vaziyatlar bilan assosatsiyalanadi. Misol uchun uyqu jarayonini kravat bilan bog'laymiz. Biron bir vaziyat asosidagi tajriba tufayli keyingi safar ushbu harakat avtomatik tarzda bajariladi. (Siegal 2005).

Conditioning ning (inglizcha shart qo'yish, sharoit muhit deb tarjima qilinadi) - o'rganish assosatsiyasining bir jarayonidir. Classical conditioningda biz ikki ta'sir qiluvchi omil va bu omilni bashorat qiluvchi bog'lanishlarni ya'ni assosatsiyalarni o'rganamiz. Biz chaqmoq y'rug'ini birinchi ko'ramiz va chaqmoq chaqishini bilamiz va biz momaqaldiroq bo'lganda chaqmoq chaqishini assosatsiya qilamiz. Biz bu jarayonni ushbu rasmda ko'rsak bo'ladi:

Biz birinchi rasmda chaqmoq chaqishini birinchi marta guvohi bo'layotgan kishini ko'rib turibmiz, keyingi rasmda esa bu shaxsning ushbu jarayonni ikkinchi marta guvohi bo'lganini ko'ramiz. Bu shaxs yorug'likni ko'rishi bilanoq momaqaldiroq bo'lishini biladi (o'ylaydi).



Operant conditionda biz biron bir ish-harakatni yaxshi natijaga erishmaguncha takrorlaymiz va yomon natijalarni takrorlamaslikka harakat qilamiz.

Ushbu rasmda morj ko'ptokni boshida ushlab turishni o'rganyapti.



Birinchi rasmda u bu harakatni birinchi marta bajardi va buning evaziga baliq bilan rag'batlantirildi va buning natijasida u keyingi safar bu harakatni juda yaxshi bajaradi. Soddashtiramiz, biz assosatsiyali o'rganishning ikki farqli turini kashf etdik. Ko'pincha ular birgalikda sodir bo'ladi. Yaponiyalik bir chorvador podasidagi mollarga peydjer (signal beruvchi mahsus moslama)lar taqib qo'yadi. Oradan bir hafta o'tgach mollar ikkita narsani assosatsiya qilishni o'rganadi: birinchisi signal chalinishini va so'ng ovqat olib kelinishini biladi-bu classical conditionning. Ular yemish idishlarini surishni ya'ni kelganlari uchun yemish so'rashni o'rganadi- bu esa operant condition (rag'batlantirilish orqali biron bir ish harakatni bajarishga o'rgatish).

O'rganish jarayoni faqatgina yuqoridagilardan iborat emas. Observational learning (kuzatib o'rganish)da biz boshqalarning xatti-harakatlaridan o'rganamiz. Misol uchun, shimpanzalar boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatib o'rganadi. Agar bittasi boshqa birining biror bir harakatni bajarib rag'batlantirilganini ko'rsa, u ham shu zahoti ushbu harakatni takrorlaydi.

Hulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, biz harakatlarni sharoitga ko'ra va observatsion (kuzatish) orqali o'rganamiz va sharoitga moslashamiz. Biror bir belgini sezamiz va undan so'ng nima bo'lishini tajribamiz orqali bilamiz va unga tayyorlanamiz bu classical condition (Klassik sharoit)

Biz shuningdek biror bir xatti - harakatlarni o'rganib yaxshi natijaga erishmaguncha takrorlayveramiz. Bu esa Operant condition (rag'batlantirilish orqali biron bir ish harakatni bajarishga o'rgatish)

deyiladi. Boshqalarni kuzatib yangi xatti harakatlarni o'rganishimiz Observational learning (Kuzatuv orqali o'rganish) deyiladi.⁸

Mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlari. Faoliyat – bu ehtiyojlar paydo qiladigan hamda o'zini va tevarak dunyoni bilish va o'zgartirishga yo'naltirilgan inson ongi tomonidan boshqariladigan faollikdir.

A.N.Leont'evning nuqtai nazariga ko'ra, faoliyat individning muayyan sharoitdagi muhtojlik holati, ya'ni ehtiyojlarni paydo qiladigan faollik shakli. Ehtiyoj - bu noqulaylik, zo'riqishni his etish, qoniqmaslik holati. U qidiruv faolligida namoyon bo'ladi. Qidiruv davomida ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan predmetga e'tibor qaratiladi, natijada faollik yo'naltiriladi, ehtiyoj predmetlilik xususiyatini kasb etadi, ya'ni muayyan narsaga nisbatan qaratiladi va faoliyat motiviga aylanadi. Predmetlilik faqat inson faoliyatigagina xosdir. U inson faoliyatining ijtimoiy muvofiqlashganligida namoyon bo'ladi. Faoliyatning boshqa xususiyati bu uning subyektivligidir, ya'ni faoliyatning yo'nalganligi, tanlovchanligini belgilovchi motivlar, maqsadlar, ustanovkalar, hissiyot, ehtiyojlarning o'ziga xosligi, ilgari tajribaning psixik obrazi bilan muvofiqlashganligida, uni bajarishning o'ziga xosligidadir.

Faoliyat birligi harakatlar bo'lib, u muayyan ahamiyatga ega predmetlarga yo'naltirilgan alohida harakatlardan iborat. Harakatlar nafaqat predmetlarga, atrofda odamlarga ham yo'naltirilishi mumkin. Agar ular jamiyatdagi normalarga mos kelsa – xulq, xatti-harakat, ularga to'g'ri kelmasa tartibbuzarlik harakatlari bo'ladi. Muayyan ijtimoiy vazifani bajarishga qaratilgan va umumiy maqsad bilan birlashgan harakatlar yig'indisi faoliyat deyiladi.



3-sxema. Motiv, faoliyat va maqsadning bog'liqligi.

O'z faoliyatlarida odamlar maxsus tashkil etilgan vositalar va harakat usullari yordamida erishiladigan, ongli ravishda qo'yilgan maqsadlari asosida harakat qiladilar.

⁸ David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 331-333 betlar

Faoliyatning tuzilishi:

motivlar – insonni u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishga majbur etuvchi ichki turtki kuchi;

usullar va yo'llar – bu faoliyat maqsadlariga erishish uchun inson tomonidan qo'llaniladigan harakatlar. Faoliyat natijalariga erishish usullari va yo'llari bitta yoki bir necha operatsiyalardan iborat bo'lishi mumkin;

maqsadlar – bu inson uchun egalik qilish va erishish ahamiyatli bo'lgan predmetlar, hodisalar, vazifalar va obyektlar. Maqsadlar inson uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligidan va uning faoliyati ijtimoiy hayotda qanday rol o'ynashidan kelib chiqqan holda shaxsiy yoki ijtimoiy, yaqin yoki istiqboldagi bo'lishi mumkin;

natijalar – bu inson faoliyati davomida erishadigan natija va u maqsadlarga mos kelmasligi mumkin bo'lgan faoliyat yakuni. Inson o'z faoliyatining natijalarini va ahamiyatini va ular orqali o'zini baholaydi.

Mehnat faoliyati eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdan iboratdir.

Z. Freydning ta'kidlashicha, sog'lom turmush tarzi mehnat va sog'lom muhabbat bilan to'ldiriladi. Bizning ko'pchiligimiz uchun mehnat hayotning eng katta va faol mashg'ulotidir. Yashash bu mehnatdir. Mehnat faoliyati Maslou piramidasidagi ehtiyojlarni qondirilishiga yordam beradi. Mehnat faoliyati bizni ta'minlaydi. Mehnat faoliyati orqali biz boshqalar bilan kommunikativ aloqaga kirishamiz. Mehnat faoliyati bizning kim ekanligimizni anglatadi. Birinchi bor kim bilandir ko'rishganimizda qiziqib «Siz kimsiz?», «Qanday faoliyat bilan shug'ullanasiz?», «Nima ish qilasiz?» deb savol beramiz.

Ishimizga bo'lgan e'tibor, munosabatlar yoki tenglikdan qoniqish hosil qilmasak, kim uchun yoki qaerda ishlashimizdan qat'iy nazar ish joyimizni o'zgartirishimiz mumkin. Masalan, Avstraliyaliklarning 16 foizi huddi shu sabab bilan o'z ishlarini o'zgartirdilar. (Trevin 2001). Yigirma yil oldin siz mehnat faoliyati qanday bo'lishini hozirgiday tasavvur qila olmagan bo'lar edingiz. Siz o'zingiz uchun kollej, litsey yoki universitetlarni tanlashda o'zingizning layoqat, qobiliyatlaringizni anglashingiz va tushunishingiz o'sha ish muhitiga moslasha olishingizga yordam beradi. Emi Vrznesnievskiy va uning hamkasblari

(1997- 2001) insonlarning ishlariga bo'lgan munosabatlarini identifikatsiya yordamida o'rganadilar

Buning natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: ba'zi odamlar o'z ishlarini faoliyat sifatida, bajarish kerak bo'lganligi uchun pul topishning bir yo'li deb bajaradilar. Boshqalar esa o'z ishlarini jamiyatda ijtimoiy mavqeiga ega bo'lishning bir imkoniyati sifatida ya'ni kar'era uchun bajaradilar. Qolganlari esa o'z ishlarini ijtimoiy foydali mehnat deb biladilar va ishidan mamnun va qoniqish hosil qilib, rohatlanib ishlaydilar.⁹

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakalarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar - sabablar muhim bo'lib, bu faoliyat motivlaridir.

Olimlar, maslahatchilar va professional boshqaruvchilar, sanoatlashgan ruxiy tashkilotlar ish davomida hilma hil soha yo'nalishlarini topishmoqda. Kasbiy faoliyat chuqur, umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rilgan, ishlash tajribasi natijasida egallangan maxsus bilimlar va amaliy ko'nikmalar to'plamiga ega insonning faoliyati, mashg'ulot turidir.

Kasbning rivojlanish mantig'i shundaki, u boshlanishida odamlarning ma'lum bir talablaridan paydo bo'ladi. Keyin amaliy tajribani yig'ish va uni chuqur mulohaza qilish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyatning nazariy bazasi shakllantiriladi. Kadrlarni tayyorlash masalasi hal qilinadi. Mutaxassisning amaliy faoliyatiga ilmiy asoslar uchun imkoniyatlar beriladi, bu tashqarida, kasbiy jumallar, monografiyalar, o'quv-uslubiy adabiyotlarning paydo bo'lishida aks etadi; kasbiy tashkilotlar yaratiladi.

Jumladan, turli shakllar va nomlar bilan ataladigan ijtimoiy hizmatchining kasbi turli tarixiy va turli madaniy-tarixiy davrlardan

⁹ David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 521 bet

buyon ma'lum. Ijtimoiy ishning birinchi marta tilga olinishi eramizdan avvalgi 1750 yilga taalluqlidir. Bu vaqtda Bobilda adolat kodlari - fuqarolik aktlari yaratilgan bo'lib, ular odamlarni o'z yaqinini sevishga, kambag'allar to'g'risida qayg'urishga chorlaydi. Qadimgi Gretsiyada ijtimoiy ish "filantropiya" (yunon tilidan tarjima qilinganda "insoniyatga nisbatan muhabbatni ifodalash" ma'nosini bildiradi) sifatida ma'lum bo'lgan, Rimda esa- "xalq an'anasi" sifatida qadimgi inklar yordam berish jarayonini "minka" deb, ma'jusiy slavyan qabilalari "slepnya" deb ta'riflaganlar. Rossiyada ijtimoiy ish 1864 yildagi yer islohotlarini o'tkazish davrida paydo bo'ldi, lekin u paytda bu nom bilan atalmagan edi. Ijtimoiy hizmatchilarning e'tiborini ko'rlarga, kambag'allarga, qarovsiz bolalarga, zotsiz va boshpanasiz yoshi katta odamlarga qaratish bo'yicha vazifalarni maxsus vakillar bajarganlar. Bu faoliyatning muvaffaqiyati, boshqa istalgan har qanday faoliyatdagi kabi, odamlarning bilimlariga, hayotiy tajribasiga va kasbiy mahoratiga bog'liq edi.

Jahon amaliyotidagi zamonaviy yondashish ijtimoiy ish, ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyat shakllaridan biri ekanligi ani?-ravshan . Shu nuqtai nazardan ijtimoiy ish jamiyatdagi ijtimoiy kataklizmlarni va ziddiyatlarni qat'iy to'xtatib turadigan vosita hisoblanadi va unga jamiyat va davlat qanchalik ko'p mablag' ajratsa, u shunchalik samaraliroq bo'ladi. Demak, jamiyatning katta qismini oldindan tayyorlamasdan va roziligini olmasdan ijtimoiy qayta taqsimlashga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu borada zamonaviy Rossiyaga tatbiq qilinsa, ijtimoiy hizmatlarning jadallik bilan rivojlanishi, ijtimoiy ishga jamoat birlashmalarini, hayriya jamg'armalarini, ijodiy va kasbiy ittifoqlarni, konfessiyalarning qo'shilishi siyosiy masala va ayni paytda milliy havfsizlik sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Bizning mamlakatimizda ijtimoiy ish amaliyotida, uning paydo bo'lishidan boshlab hozirgi vaqtgacha, ijtimoiy pedagogikaning asosiy, hal qiluvchi rol o'ynashi ahamiyatlidir. Bunda "ijtimoiy pedagogika" tushunchasi "maktabdagi ijtimoiy ish" tushunchasiga teng emasligini tushuntirish muhim. Ijtimoiy pedagogika yoki sotsiumdagi pedagogik munosabatlar aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish hizmati uchun ilmiy asos sifatida ko'riladi. Bu sotsiumdagi munosabatlarga tashhis qo'yish, ularni aniqlash va pedagogik maqsadga muvofiq ta'sir etish imkonini beradi.

Ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogika muammolarining ko'lami katta va o'zida hayotiy vaziyatlarning juda ko'p qirralarini va turli yoshdagi va ijtimoiy holatdagi odamlarning kolliziyalarini mujassamlashtiradi.

quyidagi uchtagina misol yordamida hozirgi kun ijtimoiy pedagoglari va ijtimoiy hizmatchilari nima ishlar bilan bandligini tasavvur etish mumkin;

1. Ijtimoiy hizmatchi birinchi navbatda qaysi muassasalar bilan aloqa o'rnatishi lozim?

2. Bu oila bilan qanday reja asosida ish olib borish kerak?

Ijtimoiy hizmatchilar inson va jamiyatning quyidagi ijtimoiy muammolarini yechish uchun tashkil etilgan:

ijtimoiy va psixologik ziddiyatlar, inqirozlar, stressli vaziyatlar;

hissiy va ruxiy muammolar;

muhtojlik va qashshoqlik;

ichkilikbozlik va giyohvandlik;

zo'ravonlik va diskriminatsiya;

irqiy va milliy muammolar;

jinoatchilik va qonunbuzarlik;

ishsizlik va kasbiy moslashish;

nogironlik va yolg'iz qarilik;

uy-joy muammosi;

vasiylik, farzandlikka olish masalasi;

ota-ona shafqatsizligi va boshqalar.

Ijtimoiy ish boshiga kulfat tushgan odamlarga yordam berish bilangina chegaralanadi, deb o'ylash noto'g'ri. Shu bilan birga u ijtimoiy nazoratning eng nozik vositalaridan biri hamdir. hamho'rlik qilish va nazoratning funksiyalari o'rtasidagi ziddiyat, yordamning har qanday turida nazorat qilish elementlarining muqarrar mavjud bo'lishi - ijtimoiy hizmatchilar har doim to'qnash keladigan dilemmalardan biridir. Bu dilemma yana bitta jiddiy muammo bilan, ya'ni: ijtimoiy hizmatchi birinchi navbatda kimning manfaatlarini ifodalaydi - davlatningmi, ish beruvchiningmi, mijozningmi yoki umuman jamiyatning?-degan masala bilan ham bog'liq. Kasbiy qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan, ijtimoiy hizmatchi eng avvalo mijoz manfaatlarini undan keyin - jamiyat va undan ham keyin esa - o'zining tashkiloti va davlat manfaatlarini ifodalashi kerak. Ustuvorliklarning bunday tizimini hayotga tadbiiq etish har doim ham

yengil ko'chmaydi. Ko'pincha ijtimoiy hizmatchiga hamkasblarining qo'llab-quvvatlashi va umuman kasbiy hamjihatlikka tayangan holda ular uchun kurashishga to'g'ri keladi.

Bugun kunda "ijtimoiy ish" kasbiga ko'plab va turfa mutaxassisliklar ko'lami mos keladi: ijtimoiy pedagog-psiholog; etnolog; ijtimoiy huquqshunos, ekolog, valeolog, ijtimoiy animator, gerontolog, yanada torroq mutaxassisliklar, ijtimoiy hizmatchilar (qochqinlar, nogironlar, "hatar guruhlar" bilan ish olib boradigan mutaxassislar, tibbiy ijtimoiy hizmatchi va boshqalar) yoki ma'lum muassasalarda (maktabdagi, ishlab chiqarishdagi ijtimoiy hizmatchi), mikromuhitning maxsus sohalaridagi (qabiladagi, qishlog'dagi ijtimoiy hizmatchi; harbiy sohadagi ijtimoiy hizmatchi; favqulodda vaziyatlardagi ijtimoiy ishchi va; ijtimoiy ishni tashkil etish).

Tashxis qo'yish - mutaxassis "ijtimoiy tashxis" qo'yadi, psixologik va yoshga oid hossalarni, insonning qobiliyatlarini o'rganadi, uning manfaatlari olamiga, muloqot doirasiga, uning hayoti sharoitlariga kirib ketadi, nisbiy va salbiy ta'sirlarni, muammolarni aniqlaydi;

Tashkiliy - mutaxassis u yoki bu faoliyatni amalga oshiradi, dam olishning mazmuniga ta'sir ko'rsatadi, ishga joylashishga, kasbiy yo'nalishga va moslashishga yordam beradi, o'smirlar va yoshlar tashkilotlari faoliyatini markazlashtiradi, mijozga tibbiy, ta'limiy, madaniy, sport, huquqiy muassasalar va hayriya tashkilotlari bilan o'zaro ta'sir qiladi ;

Prognostik - mutaxassis mikrorayon va ma'lum bir mikrosotsiumning ijtimoiy rivojlanish jarayonini dasturlashtirish va oldindan aytib berish bo'yicha ijtimoiy ishda qatnashadigan turli institutlarning faoliyatida ishtirok etadi;

Ogohlantirish - profilaktik va ijtimoiy-terapevtik - mutaxassis salbiy ta'sirlar oldini olish va bartaraf etishning ijtimoiy-huquqiy, yuridik va psixologik mexanizmlarini harakatlantiradi va ularda o'zi ham qatnashadi, muhtojlarga sotsioterapevtik yordamni tashkil etadi, jamiyatda huquqlarning himoyasini ta'minlaydi, o'smirlarga va yoshlarga ijtimoiy va kasbiy yo'nalishida o'zini-o'zini baholash davrida yordam ko'rsatadi;

Tashkiliy-kommunikativ - mutaxassis ko'ngilli yordamchilarning, aholining ijtimoiy ishga, birgalikda mehnat qilish va dam olishga, xizmat bo'yicha va shaxsiy muloqotlarga kirishishiga ko'maklashadi,

axborot to'playdi va turli ijtimoiy institutlar o'rtasida, ularning mijoz bilan ishlashida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

Qo'riqlash-himoya qilish - mutaxassis mijozlarning manfaatlarini himoya qilish uchun huquqiy me'yorlarning barcha majmuini ishga soladi, mijozlar huquqiga nisbatan bevosita yoki bilvosita g'ayri qonuniy harakatlarga yo'l qo'yayotgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan majburlash va yuridik javobgarlik choralari qo'llanilishiga yordam ko'rsatadi.

Ijtimoiy ishni tashkil etish va boshqarish sohasida band bo'lgan xizmatchi ijtimoiy yordamning turli hil muassasalari bilan ishlashi, turli ko'rinishdagi ijtimoiy ishlar olib borishiga to'g'ri keladi. Turli muassasalarda ijtimoiy yordam tashkilotchilarining ishida o'ziga xosliklar ham mavjud bo'lib, ular avvalo ijtimoiy ishning quyidagi yo'nalishlarida namoyon bo'ladi: a) oilaga yordam berish; b) ekstremal vaziyatlarda va "xatar guruhleri" bilan ishlash; v) sog'liqni saqlash tizimida ishlash; g) ta'lim sohasida ishlash; d) bandlik hizmatlarida ishlash. Tegishli xizmatlarning hodimlari sifatida, ijtimoiy hizmatchilar va ijtimoiy pedagoglar o'zlarini birinchi navbatda aholining ijtimoiy zaif guruhlarining himoyachilari deb his qilishlari kerak. O'zining vazifasini professional darajada amalga oshirish uchun ular odamlarning qanday rivojlanayotganlari, o'zaro ta'sir qilayotganlari, o'zgarishlari, o'qishlari, qiyinchilik va muammolarga munosabatlari, alohida odamlarga ijtimoiy shart-sharoitning ta'sir o'tkazishini bilishlari, shuningdek, ishontirish va majburlash usullarini ularning o'z faolliklarini rag'batlantirish yo'lida nozik biriktirishni bilishlari lozim. Ijtimoiy ishdagi muhim jihat - biz ko'pincha boshqa odamlar uchun nima kerakligini hal qilish huquqiga ega emasligimizni anglash, ularning o'zlari mavjud variantlardan eng maqbulini tanlashga izn berishimizga bo'lgan ishonchdir. Odatda, ularning mavjud muqobilliklarni anglab etishida, hulq-atvorning mavjud variantlaridan har birining siyosiy ustunliklari va kamchiliklarini baholashda, qarorlarni ongli va oqilona qabul qilishida yordam kerak bo'ladi.

Bunday yondashuv davlat vakillari odamlarga o'zini qanday tutishlari lozimligini zo'rlik bilan tushuntirish, ularga yordam ko'rsatish, harakterini belgilashda o'zlarining tavsiyalarini tiqishtirish an'anasi bilan bog'liq avtoritar yondashuvdan keskin farq qiladi. Mushkul ahvolga tushib qolgan odamlarga o'zlarining his-tuyg'ularini

ifodalash, tanglik holatidan chiqish yo'llarini topish, tegishli qaror qabul qilish va uni hayotga tatbiq etishda yordam berish uchun avtoritar ish usullaridan voz kechishdan tashqari har bir odam o'z hayotini o'zi muvaffaqiyatli tarzda tashkil etish huquqiga egaligi va layoqatligiga chindan ishonish ham zarur.¹⁰

Shaxsni faoliyatda tadqiq qilish va o'rganish borasidagi tajribalar.

Bu erda to'rtta yangi habarlar bor, ba'zilari tabiiy kuzatuvdan olingan so'rovnomalardan iborat munosabatlar kuzatuvidir. Qay biri ijobiy va qay biri salbiy munosabat ekanligini belgilay olasizmi? (quyidagi jadvaldan javoblaringizni tekshiring)

1. Bolalar qanchalik ko'p televizor ko'rishsa, shunchalik kam miqdorda kitob o'qiydilar.

2. Bolalar qanchalik ko'p behayo dasturlarni tomosha qilsalar, shunchalik jinsiy yaqinlashishga bo'lgan ihtiyorlari oshadi.

3. Qanchalik ko'p bolalar ko'krakdan oziqlanishda davom etsalar, shunchalik buyuk maqsadlarga erishadilar.

4. O'smirlar qanchalik ko'p nonushta tanavvuul qilsalar, shunchalik qomat buzilishi kuzatiladi. (Timlin, 2008)

Ba'zan ko'zlarimiz payqamay qoladigan narsalarni statistik ma'lumotlar ko'rishga yordam beradi.

Munosabat va sabab. O'zaro munosabatlar bizga bashorat qilishga yordam beradi. O'zini o'zi sust hurmat qilish munosabati bu depressiyadir. O'z o'zini sust hurmat qilish depressiyaga sabab bo'ladimi? Agar munosabat holatiga asoslansak, siz ha deb o'ylaysiz. Qanchalik munosabatlar kuchli bo'lmasin, siz hech narsani isbotlay olmaysiz!

Bu qarash juda muhim - shuning uchun asosiysi bu psixologik jihatdan o'ylash - bu narsa yana bir misolga ya'ni 12,000 dan ziyod o'smirlar so'roviga qarata olinadi. O'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, o'smirlar qanchalik ota onasini yahshi ko'rishsa shunchalik kam yomon va nosog'lom yo'llar(barvaqt jinsiy yaqinlik, ichish, alkohol mahsulotlariga mukkasidan ketish va narkotiklar va zo'ravonlik) dan yurishar ekan -(Resnitsk et al 1997). "O'smir bolalarga maktab yillarida har bir davrdan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatishadi"-deb ta'kidlanadi Assosiated Press (AP) nashriyoti tomonidan.

¹⁰ David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 520-524 betlar

Mavjud bo'lmagan munosabatlar. Bular qanday munosabatlar? Aloqadorlik koeffitsenti biz ilg'amay qolgan munosabatlarni ko'rsatib berishi mumkin. Biz noodatiy va g'aroyib narsalarga ko'ngilchanligimiz sababli, ayniqsa payqash va eslab qolishda sodir bo'lgan ikki va undan orti? hodisalarni birma bir eslab qolamiz. Misol uchun, qo'ng'iroq ketidan qo'ng'iroq. Agar ko'ngilni g'ash qiluvchi qo'ng'iroq bo'lmasa, biz ko'pincha buni payqamaymiz yoki eslab qolmaymiz.

Mana shunday qarashlar ko'plab insonlarda shakarning bolalarda quvvatni oshirishiga, ivib ketish odamlarning shamollashiga sabab bo'lishi, ob-havo o'zgarishi bo'g'inlardagi og'riqqa sabab bo'lishiga ishonch uyg'otgan.¹¹

MALAKA, KO'NIKMA VA ODATLAR

Faoliyatda malaka va ko'nikmani shakllanishi. Faoliyatning shakllanish jarayoni – pedagogik psixologiyaning muhim masalalaridan biridir. Inson biror bir faoliyatga kirishar ekan, u faoliyatni bajarishning usullarini egallagan bo'lmaydi. SHuning uchun insonning ongli ravishda harakat qilishiga va maqsadga yo'naltirilgan butun faoliyatning o'zinigina emas, balki faoliyatni amalga oshirishga yordam beradigan alohida harakat va operatsiyalarni ham nazorat qilishiga to'g'ri keladi.

P.A.Bemshteyn harakatlarni boshqarishning sensor korrektsiyasi printsipini taklif etgan. U harakatlar haqidagi sensor ma'lumotlar asosida impuls'larga kiritiladigan korrektsiyalarni nazarda tutgan. U faoliyatning malaka, ko'nikma va odatlardan iborat tuzilish elementlarini ajratgan.

Malakalar – bu faoliyatning maqsadi va shartlariga to'g'ri keladigan harakatlarni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. Ular doim bilimlarga tayanadi. Malakalarni boshqarishda eng muhimi har bir harakatning bexato bo'lishini ta'minlash, ko'nikmalar tizimining o'zgaruvchan sharoitga ishning ijobiy natijalarini saqlab qolgan holda moslashuv imkoniyatidir. Misol uchun, malakali odam biror bir mahsulotni tayyorlashda bir materialni boshqasi bilan almashtirishi, qo'l ostidagi asboblarning o'zidan foydalanishi mumkin

¹¹ David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 84-87 betlar

Malakalar ko'nikmalardan farqli ravishda faol aqliy faoliyatga tayanadi. Mohiyatiga ko'ra, ko'nikmalarni eksteriorizatsiya, ya'ni bilim va ko'nikmalarni real harakatlarda amalga oshirish deyish mumkin. Ye.A.Mileryan quyidagi malakalarni ajratadi: bilish, umummehnat, konstruktiv-texnik, tashkiliy-texnologik va operatsion-nazorat. Biror ishni bajarishdagi oddiy malaka tasodifiy bilimlar va taqlid harakatlaridan paydo bo'ladi. Lekin faoliyat turi qanchalik murakkab bo'lsa, malakaning shakllanishi bilimlardagi ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha butun operatsiyalar tizimini egallash, predmetdan olinayotgan ma'lumotlar va ularni harakatlar bilan taqqoslashga shunchalik bog'liq bo'ladi.

Ko'nikma mashqlar jarayonida shakllangan, harakatlarning to'liq avtomatlashgan komponentlaridir. Uning vazifasi ongni alohida harakatlarni bajarish ustidan nazoratdan ozod qilish va harakatlarning maqsadi va shartlariga qaratilishini ta'minlashdan iborat. Ko'nikmaning fiziologik asosi bosh miya yarim sharlari po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarining barqaror tizimini hosil qilishdan iborat.

Har bir ko'nikma, inson egallagan ko'nikmalar tizimida hosil bo'ladi. Yangi harakatlarni egallash jarayonida ularning ba'zilari jarayonga yordam berishi yoki tormozlashi mumkin. Masalan, bir inson "Matiz" avtomashinani yaxshi haydaydi. Demak, u har qanday rusumidagi mashinani hayday oladi. Lekin bu odamning ruli chap tomonda bo'lgan mashinalarni haydash ko'nikmasi ruli o'ng tomonda bo'lgan mashinalarni haydashda qiyinchilik tug'diradi. Bir ko'nikmalarning boshqa ko'nikmalarga ta'sir ko'rsatish fenomeni ko'nikmalarning o'zaro ta'siri deyiladi.

Ko'nikma va malakalar harakat usuli sifatida doim muayyan faoliyat turida ishtirok etadi. Ular o'quv, sport, gigienik va boshqalarga bo'linishi mumkin. Ko'nikmalar mashqlar yordamida, ya'ni maqsadga yo'naltirilgan va harakatlarning muntazam takrorlanishi natijasida shakllanadi. Ko'nikmalarni egallashdagi muvaffaqiyat nafaqat harakatlarni takrorlash miqdoriga, balki, insonning individual xususiyatlari, mazkur harakatga bo'lgan qobiliyati, uni egallash motivining ahamiyatiga bog'liq. Ko'nikmani saqlash va mustahkamlash uchun undan muntazam foydalanish kerak, aks holda, harakatlarning avtomatlashuvi so'nadi.

Odat harakat komponenti bo'lib, uning asosida ehtiyoj yotadi, U taqlid, harakatni ko'p marotaba takrorlash natijasida, ongli maqsadga

yo'naltirilgan harakatlar orqali shakllanadi (masalan, harakatni moddiy predmet, so'zli baho va emotsional obraz orqali ijobiy mustahkamlash yo'li bilan). Odatlar avtomatik ravishda amalga oshiriladi va ongli maqsadga yoki yorqin namoyon bo'ladigan mahsuldor yakunga ega emas. Odatlar oddiy ko'nikmalardan farqli ravishda ma'lum darajada ong tomonidan nazorat qilinishi mumkin. U malakadan doim ham foydali bo'lavermasligi bilan farq qiladi.

Ko'nikma va odatlar bolaning ilk kunlaridan shakllana boshlaydi. Dastlab ular juda oddiy bo'lib, shartsiz reflekslar va emotsional holatlarga asoslanadi. Bolada foydali odatlarni mustahkamlash juda muhim. Buning uchun qabul qilingan qarordan chekinmasdan muayyan yo'nalishda harakat qilish kerak. Odatlar shakllanganda biz faqat odatlanganimizdek harakat qilamiz, chunki boshqachasiga harakat qila olmaymiz.

III BOB. BILISH JARAYONLARI

SEZGI PSIXIK JARAYON SIFATIDA

Bilish jarayonlar haqida asosiy tushunchalar. Psixik hodisalar psixik holatlarni, psixik jarayonlarni va psixik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Psixik hodisalar ichida psixik jarayonlar alohida ahamiyatga ega.

Psixik jarayonlar tashqi olamni ongda aks ettirish, unga javob reaksiyalarini berish bilan bog'liq jarayonlarning barchasini o'z ichiga oladi. Psixik jarayonlar ongning o'zida paydo bo'lib, ongning o'zida tugallanadi degan fikrni Sechenov mutlaqo noto'g'ri fikr deb hisoblagan edi. Psixik hodisa hali yuzaga kelmagan natijadan ham darak beradi.

Psixik jarayonlar signal yoki boshqaruv funksiyasini bajarib, sharoitga moslashtirishga yoki javob reaksiyasini berishga xizmat qiladi.

Psixik jarayon o'z o'zidan sodir bo'lmaydi, balki, miyaning mohiyati, uning tegishli bo'lmalari funksiyasi sifatida olam haqidagi axborotlarning qaerga ketishi, qaerda saqlanishi va qayta ishlanishini ko'rsatuvchi javob reaksiyasining boshqaruvchisidir.

Ma'lumki, odamlar bir-birlaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ba'zi odamlar ko'rgan kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtda aniq esga tushira oladilar. Ba'zilar ko'zi bilan ko'rgan har qanday obyektini mayda detallarigacha bayon qilish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikrlaydilar, kimdir sodda, ravon tilda o'z his-kechinmalarini ayta olsa, boshqalar har bir hikoyaga, albatta, fantaziya elementlarini qo'shishga moyil bo'ladilar. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan har-xil taassurotlari har xil bo'larkan. Ikkinchi tomondan, shunday kasblar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatlarning mukammallashib, rivojlanib borishiga imkon beradi. Tashqi olam xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidorining o'sishi va professional malakalarining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun har bir ongning aks ettirish shakllari bo'lmish bilish jarayonlari - sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, iroda va hissiyotlarning muhimligini inobatga olgan holda, ularning inson hayotidagi roliga to'xtalib o'tamiz. Darhaqiqat, bilish jarayonlari ham


ma'lum ma'noda boshqariladigan jarayonlar bo'lib, agar siz imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lumotlarni bilishingiz kerak.

Insonga uni o'rab turgan tashqi olamni va o'z-o'zini bilib olishga imkon beruvchi psixologik jarayonlarga bilish jarayonlari deyiladi.

Sezgi psixik jarayon sifatida. Psixologlar fikricha, sezish jarayoniga kirish psixik faoliyatni tushunishdagi eng birinchi qadam hisoblanadi. Bizning miya faoliyatimiz sezgan narsalarimizni aniqlab beradi. Shu bilan birga, bizning sezish qobiliyatlarimiz turli chiziqdami, burchaklarni va ranglarni anglashga yordam beradi.

Tabiat sezish qobiliyatini har narsaga in'om etadi. Sensor tizimi organizmga eng kerakli ma'lumotlarni topa olish imkoniyatini beradi. Qurbaqa uchadigan hasharotlar bilan oziqlanadi. Bunga sabab, qurbaqaning ko'zida faqat mayda va harakatlanayotgan qora va oq ranglar signalini sezuvchi retseptor hujayralarining joylashganligidir. Agar, shunday bo'lmaganida, ko'plab hasharotlar orasida bo'lishiga qaramasdan, qurbaqa ochlikdan nobud bo'lishi mumkin edi, biroq, qurbaqaning "detektor" hujayralari qisqa lahzalarda harakatlanayotgan obektni payqaydi.

Atrof muhitda sodir bo'layotgan muhim voqea-hodisalarni biz sezgi organlarimiz orqali qabul qilamiz. Bizning quloqlarimiz eng sezgir organ bo'lib, atrofimizdagi olamdan biz uchun eng muhim tovushlarni qabul qilamiz. Tovush chastotalari orqali inson ovozi, chaqaloq yig'isidan farqlaymiz.



Insoniyat tajribasi natijasida hayvonlarda ham - sezish qobiliyati aniqlangan. Ko'chib yuruvchi qushlar ichki sezgisi orqali qayer

qolish uchun munosib joy ekanligini biladi. Ko'rshapalak va delfinlar esa o'ljasini qayerdan osonroq tuta olishiga qarab joy tanlashadi. Bulutli kunlarda asalarilar o'zlari uchun ma'lum quyosh nurini hosil qila oladilar.

O'ylab ko'ringga, nega biz har doim atrofimizdagi narsalarni diqqat bilan kuzatamiz. Chunki bizning ko'zlarimiz shunga moslashgan.

Marining ko'zi harakatlanishi bilan proektordagi rasm ham harakatlana boshlaydi. Mari qayerga qaramasin tasvir ham shu tomonga harakatlanadi.

Agar biz bunday qurilmani yon tomondan yuz orqali joylashtirsak, Mari nimani ko'rar ekan? Birinchidan, u to'liq manzarani ko'radi. Lekin bir necha soniyadan so'ng uning ko'rish tizimida charchoq kuzatiladi va narsalar boshqacha ko'rina boshlaydi. Oz-ozdan tasvir yo'qola boshlaydi, birozdan so'ng tasvir to'liq yoki tanish bo'lak shaklida tiklanadi va keyin g'oyib bo'ladi¹².

Sezgi psixik jarayonlarning boshlang'ich darajasi hisoblanadi. Faqat sezgi jarayoni orqali ma'lumotlar bizning ongimizga kirib keladi. Sezgi faqat "signallar" tizimi deb e'tirof etilsa xato bo'ladi. Ular narsalarning sub'yektiv xususiyatlarini ham aks ettiradilar. Sezgi tufayli bizda ob'yektiv dunyoning sub'yektiv obrazi paydo bo'ladi. Bu obyektiv dunyoning subyektiv obrazi insonga tashqi muhitga moslashish imkoniyatini beradi.

Sezgining klassifikatsiyasi.

Sezgilarni 3 ta katta sinfga ajratish mumkin. Bular *eksterotseptiv* sezgilar (tashqi dunyodan kelayotgan sezgilar), *introtseptiv*(organizmdagi sezgilar), *propriotseptiv* sezgilar (harakatdagi organlar sezgisi)dir.

Ekstereoretseptiv sezgilar. Sezgilarning birinchi katta sinfi ko'p darajada tadqiq qilingandir, bular ekstereoretseptorlar hisoblanadi, ular tashqi dunyodagi signallari tizimidir.

Ekstereoretseptorlarning klassifikatsiyasida ikki xil tizim mavjud sistematik va genetik. Ekstereoretseptor sezgilarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Kontakt sezgilar bu sezgilar bevosita aloqaga kirishadigan sezgilardir bular ta'm bilish, teri tuyish, hid bilish sezgisi hisoblanadi, distant sezgilar: bular ko'rish va eshitish sezgisi hisoblanadi.

Introtseptiv sezgilar. Hamma ichki organlarda tomir devorlari, oshqozon devorlarida sezuvchan to'qimalar joylashgan, ular har bir holatlarga javob beradilar, bu to'qimalardan biri esa bosimga javob beradi. Har qanday ichki organlarning holatlari boshqariladi bunda introtseptorlarning o'rni katta. Bu to'qimalarning qo'zg'alishi

¹² David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 235-236

anglangan sezgilarni aniqligini ko'rsatmaydi. Sechenov ularni «qorong'u sezgilar» deb nomlab, tashqi dunyodan ajratuvchi deb atagan. Bu qorong'u sezgilar so'z orqali ifodalanmaydigan sezgilarni beradi. Ba'zi bir tadqiqotchilar komfort yoki diskomfort tushunchasini beradi deb e'tirof etishadi. Bu sezgilar emotsional xarakterga ega, bular organizmning holatlarini aks ettiradi.

Bu sezgilarning organizm uchun o'rni kattadir. Bu sezgilar mayl va ehtiyojlarni ham tug'diradi. Ochlik, chanqoq, havo yetishmasligi va boshqalar, bu sezgilar biologik mayl va ehtiyojlarning asosi deb hisoblanadi. Bizning qomimiz ochsa, ovqatlanamiz, chanqasak, chanqoqni qondiramiz. Bu sezgilarni murakkab reflektor jarayoni desak, mubolag'a bo'lmaydi, bularning natijasida esa ehtiyojlar qondiriladi.

Proprioreseptiv sezgilar. Introreseptiv sezgilar bilan bir qatorda boshqa sezgi organlari ham mavjud. Bu proprioreseptorlar tizimidir, ular harakat, muskul to'qimalari signallarini qabul qilish imkoniyatini beradi. Bizning muskul, bo'g'in to'qimalarimizda sezuvchan nerv to'qimalari mavjud, ular bizning muskullarimiz haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Ko'p vaqtlar davomida harakatni amalga oshirish uchun efferent harakat qo'zg'atuvchilarining o'zi kifoya qiladi, degan fikr mavjud edi. N.A.Bernshteyn umrining ko'p qismini harakatni o'rganishga bag'ishladi, uning tadqiqotlarida ko'rsatishicha harakat apparati murakkab tuzilgan, uni harakatga keltirish uchun efferent impulsning o'zi kifoya qilmaydi. Ixtiyoriy harakatni boshqarish uchun proprioreseptorlardan keluvchi afferent signallarni mustahkamlash kerak, bo'g'imlarning harakatlari esa bevosita shu retseptorlarga bog'liqdir.

Interoreseptorlar ichki gemostazisning organi hisoblanadi, proprioreseptorlar tashqi gemostazisning organi hisoblanadi. Interoreseptorlar organizmdagi moddalar almashinuvini nazorat qiladi, proprioreseptorlar harakatlarni koordinatsiya qiladi va koordinatsiya apparatini nazorat qiladi.

Qanday qilib sezgi biz kutgan narsamizga, emotsiyalarnimizga ta'sir etadi?

Hamma ko'rgan narsasiga ishonadi. Bizda kam bo'lsa-da to'liq ma'lumot bo'lsa, biz unga ko'proq ishonamiz. Tajribamiz, kutgan narsamiz bizni sezishimizni ta'minlaydi, yoki aqliy qobiliyatimiz sezgi

hissimizga katta ta'sir ko'rsatadi. Odamlar o'spirinlarning o'ziga o'xshagan juftiga ularning ota-ona yoki bolasi bo'lishsa ularga ishonishadi. (Bressan & Dai Martello, 2002).

Jumladan, quyidagi rasmni biz qanday tasavvur qilishimiz mumkin? Ayolmi yoki saksafon chalayotgan insonmi? Rasmda ifodalangan ikkala tasvirga ketma-ket qarasadik, biz ularning har ikkovini ham yaqqol tasvirini ko'rishimiz mumkin.



Har kuni sezgiga oid bir qator misollarga duch kelamiz. 1972-yilda Britaniya gazetalarining birida Shotlandiyadagi Loch Ness ko'lidagi mahluq haqida ma'lumotlar bosib chiqarilgan edi. Undagi bir surat yoki tasvir olingan rasmlar ichidagi eng hayratlilaridan biri bo'lgan edi. Agar bu ma'lumot sizda ham ishonch hissini uyg'otgan bo'lsa demak, siz ham xuddi ko'plab mushtariylar singari 1-rasmda bu mahluqning rasmini ko'rishga musharraf bo'lasiz. 2-rasm: Ishontirish. Do'stingizga ikkala rasmni ham ko'rsating. Rasm markazini ko'rsatib o'rtada nimani ko'rayotganini so'rang agar do'stingiz bir qarashda ikkala rasmda saksafonchi va ayolning rasmini payqay olsa, demak bunda u o'z ishonchiga asoslangani aniq bo'ladi.

Sezgilarning turlari

Tevarak – atrofdagi narsa va hodisalarning insonga ta'sir etadigan belgi va xususiyatlari xilma – xil bo'lganligi sababli bu ta'sirotlarni aks ettiruvchi sezgi a'zolari ham turlicha bo'ladi (4-rasm).

Sezgi turlari. Mazkur analizatorga ta'sir ko'rsatayotgan qo'zg'atuvchining xarakteriga bog'liq ravishda sezgining alohida turlari ajratiladi. Avvalambor sezgining besh turidan tashkil topgan guruhni ajratib olish kerak. Bu guruhdagi sezgilar tashqi olamdagi predmet va hodisalarning hususiyatlarini aks ettiradi. Bu sezgi turlari:

ko'rish sezgisi;

eshitish sezgisi;
hid bilish sezgisi;
ta'm bilish sezgisi;
teri tuyish sezgilari yu



4-rasm. Sezgi a'zolari

Ikkinchi guruh organizmning holatini aks ettiruvchi sezgilar:

organik sezgilar;
muvozanat sezgisi;
harakat sezgilari.

1. Ekstretseptiv sezgilar signalni tashqi muhitdan olinishini ta'minlaydi, retseptor tananing sirtqi qismida joylashadi. Quyidagi ekstretseptiv sezgilar ajratiladi:

kontaktli (bevosita kontakt orqali): teri tuyish va ta'm bilish sezgilari;

distantli (masofadan turib): ko'rish, eshitish, hid bilish sezgilari.

2. Interretseptiv sezgilar tananing ichki jarayonlarining holati haqida signal beradi, retseptorlar tananing ichki a'zolarida joylashadi. Bular:

organik sezgilar;
og'riq sezgilari.

3. Proprioretseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati hamda harakatlari haqida ma'lumot beradi. Retseptorlar mushaklarda, qo'l va oyoqlarda joylashgan bo'ladi. Bular;

harakat sezgilari;
muvozanat sezgilari.

Sezgilarni toifalarga ajratishga juda ko'p harakatlar qilingan. Lekin hozirgi vaqtda eng umumqabul qilingan sezgi toifalari ingliz

fiziologi CH.SHerringtonga tegishli. (11-sxema). U sezgilarni uchta asosiy toifaga ajratadi:



11-sxema. Sezgi turlari

Rus psixologi A.R.Luriya interoretseptiv sezgilar bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning fikriga ko'ra, interoretseptiv sezgilar asl, tub, ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilar to'la o'rganilmaganligi sababli uni "noma'lum hislar" deb atagan. Bu asosan ichki organlarning xastaliklarida vujudga keluvchi holatlarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Interoretseptiv sezgilar insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki bola tana a'zolaridagi ichki holatini anglash, his qilish imkoniyatiga ega emas. SHuning uchun undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilaridan buni sezish mumkin.

Interoretseptiv sezgilar organizmdagi ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashish muvozanatini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni bir so'z bilan aytganda, organizmdagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishning gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. SHuningdek, mazkur sezgilar insonda yuzaga keladigan puls, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qotish, tug'ilib kelayotgan mayllarni

qondirish bilan bog'liq vazifani bajaradi. Natijada ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan chiqarish holati yuz berishi mumkin.

Interoretseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari K.M.Bikov, V.N. CHernigovskiylar kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning fikriga ko'ra, bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyat mexanizmlaridan kelib chiqadi

Proprioretseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatini boshqaruvchisi va harakatning afferent asosi hisoblanadi.

Pereferik retseptorlar muskullar, pay va bo'g'imlarda joylashgan bo'lib, maxsus tanachalar shakliga ega va ular Puchchini tanachalari deb ataladi.

Proprioretseptorlar A.Orbeli, P.K.Anoxin, N.A.Bernshteynlar tomonidan o'rganilgan.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati sezgirliги statik sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, ular o'zaro bir-biriga perpendikulyar bo'shliqda tutash holatda yotadi. Vestibulyar sezgi apparati ko'rish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni mo'ljalga olish (orientirlash) jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobil yo'lidan o'tish va hokazo. Bu jarayon patologik holatda ham uchrashi mumkin.

Ekstretseptiv sezgilar intermodal, nospetsifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi orqali 10-15 sekundga tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlar) payqash – vibratsiya sezgilari deyiladi. Masalan, karlarni tovushlarni idrok qilishi. Odatda vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Uning quyidagi ko'rinishlari ham mavjud:

hid, ta'm va maza sezgilarida;

o'ta kuchli tovushda, o'ta yorqin yorug'likda;

uch xil ta'sirning uyg'unlashgan integrativ holatida.

Sezgining nospetsifik shakliga terining foto sezgirliги kirib, u ranglarni, qo'l uchlarini bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirliги A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tadqiqot asosan qo'l uchiga yashil va qizil ranglarni yuborish orqali amalga oshirilgan. Terining foto sezgirliги tabiati psixologiyada yetarli darajada o'rganilmagan.

Ko'rish sezgilari. Ko'rish sezgilari - yorug'lik nuri va turli ranglarni sezish – insonning tevarak olamni bilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikriga ko'ra, tevarak olam haqidagi ma'lumotning 80-90 foizi miyaga ko'rish analizatori orqali boradi. Ko'rish sezgisi yordamida inson predmetlarning shakli va rangi, ularning katta va kichikligi, hajmi va uzoq yoki yaqinligini biladi. Ko'rish sezgisi insonga fazoda to'g'ri mo'ljal olish, harakatlarni to'g'rilashga yordam beradi. Ko'rish sezgilarining organi ko'zdir. Bu organ ko'z soqqasi bilan undan chiqayotgan ko'rish asablaridan iborat. Ko'z soqqasida uchta parda, ya'ni tashqi tomirli va to'r parda bor. Tashqi pardaning tiniqmas (oq) qismi sklera (qotgan yoki qattiq parda) deb ataladi. Tashqi pardaning oldingi birmuncha bo'rtgan qismi tiniq (miguz) parda deb ataladi.

Tashqi pardaning orqasida tomirli parda bor. Tomirli pardaning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi. Rangdor pardaning rangiga qarab, insonlarni ko'k ko'z , qo'y ko'z, qora ko'z deb atashadi. Rangdor pardaning o'rtasida yumaloq teshik bor, qorachiq deb nomlangan ana shu teshikdan ko'zning ichiga yorug'lik nurlari o'tadi. Yorug'likning oz-ko'pligiga qarab, qorachiq kengayishi va torayishi mumkin. Ko'zning uchinchi pardasi-to'r parda bo'lib, u ko'z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachiq bilan rangdor pardaning orasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism – ko'z gavhari turadi, yorug'lik nurlari ko'z gavharida sinadi va natijada to'r pardaga narsaning aksi (surati) tushadi. Xalqa shaklidagi ko'priksimon muskulning uzayishi va qisqarishi tufayli gavhar goh yassilanadi, goh qavaradi: narsa ko'zdan uzoqlashganda gavhar deyarli yassi bo'lib qoladi. Narsa ko'zga yaqinlashtirilganda esa gavhar deyarli shar shakliga kiradi. Ko'z gavharida shunday xossa borligidan, yaqindagi narsalarning aksi ham, uzoqdagi narsalarning aksi ham gavhardan o'tib, aynan to'r pardaga tushadi. To'r parda rangni va yorug'likni sezish uchun o'ta muhim hisoblanadi. Ko'rish asabining tarmoqlari to'r pardaga joylashgandir. Bu tarmoqlarning chekka uchlarida maxsus asab hujayralari – shakli tayoqcha va kolbachaga o'xshagani uchun tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan hujayralar bo'ladi. Odam ko'zining to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor.

Kolbachalarning yorug'likka bo'lgan ta'siri kuchli emas. Kolbachalar yordami bilan biz faqat kunduzgi yorug'likni sezamiz.

Xromatik ranglar kolbachalar yordami bilan ko'riladi. Xromatik ranglarga kamalak ranglari - qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglari kiradi. Kolbachalar kunduzgi yorug'likda ko'rish yoki rangni ayirish apparati deb ataladi. Tayoqchalar esa, aksincha, yorug'likni yaxshi sezadigan bo'lib, eng xira yorug'likni ham seza oladi. Kechasi, ya'ni qorong'ulikda biz tayoqchalar yordami bilan ko'ramiz. Axromatik ranglar faqat tayoqchalar yordami bilan ko'riladi. Axromatik ranglar —oq, qora va xilma-xil kul ranglar kiradi. SHu sababli g'ira-shirada xromatik ranglar yaxshi bilinmaydi yoki butunlay bilinmaydi, natijada hamma narsalar bizga kulrang bo'lib ko'rinadi. To'r pardaning eng sezgir joyi — sariq dog'ning asosan kolbachalar bilan to'lgan markaziy chuqurchasidir. Nimaning aksi sariq dog'ga tushsa, o'sha narsa hamma narsadan ko'ra ravshanroq ko'rinadi. Biron narsaga tikilganimizda ko'z muskullarining yordami bilan ko'zimiz shunday buriladiki, natijada o'sha narsaning aksi albatta, har bir ko'zimizdagi to'r pardaning sariq dog'iga tushadi. Bunday ko'rishni to'g'ridan ko'rish deyiladi. Narsalar suratining sariq dog'dan tashqarida — to'r pardaning yon qismlarida aks etishi yondan ko'rish deb nomlanadi.

To'r pardaning bir joyida rangni va yorug'likni sezadigan tayoqchalar bilan kolbachalar mutlaqo yo'q. Bu — ko'ruv asabining ko'z soqqasidan chiqish joyidir. To'r pardaning ana shu joyi yorug'likdan ta'sirlanmaydi va ko'r dog' deb ataladi.

Odatda ko'r dog'ning borligini payqamaymiz, chunki, narsaning bir ko'zdagi ko'r dog'ga tushadigan tasviri ikkinchi ko'z to'r pardasining sezgir joyiga to'g'ri keladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yolg'iz to'r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po'stida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar bilan ham bog'liq ekanligi to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan tayoqchalarda ko'rish purpuri degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko'zga yorug'lik ta'sir ko'rsatganda ko'rish purpuri kimyoviy yo'l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo'linadi va mazkur jarayon ko'rish asabini qo'zg'atib, yorug'lik sezgisini hosil qiladi va qorong'ulikda esa purpur funktsional holatini qayta tiklaydi.

Ko'rish sezgilaridagi maxsus hodisalar.

Ko'rish sezgilaridagi bir qancha maxsus hodisalar ko'rish organidagi apparatlarning holatiga bog'liqdir. Rang kontrasti,

“shapko’rlik” (qorong’ida va tunda yaxshi ko’ra olmaslik) va “rang ajrata olmaslik” (rang turlarining farqiga bora olmaslik) shunday hodisalardan hisoblanadi.

Qizil rangli kvadratni bir varaq oq qog’oz usiga qo’yib tikilib qarasak, bir necha vaqtdan keyin shu kvadrat atrofida och havo rang hoshiyani, ya’ni qizil rangga qo’shimcha rangni ko’ramiz. Kontrast hodisasi ana shudir. Ushbu misolda qo’shimcha rang asosiy rang bilan bir vaqtda seziladi. Bu bir vaqtdagi kontrastdir. SHuningdek, izma-iz kontrast ham bo’ladi. Masalan, qizil doiraga uzoq vaqt qarab turib, keyin oq yuzaga ko’z tashlansa och havo rang – sariq rangli doira, ya’ni qizil rangga qo’shimcha rang ko’ramiz. Izma- iz kontrast hodisasi ana shudir.

Rang kontrastining hosil bo’lishiga sabab, kishi uzoq qarab turganda kolbachalarning qizil rangni sezuvchi elementlari charchaydi. Natijada ularning sezuvchanligi kamayadi. Ayni vaqtda qo’shimcha rangni sezuvchi elementlar qo’zg’algancha qolaveradi, ularning sezuvchanligi kuchliroq bo’ladi. SHu sababli, ranglarning aralashish qonuniga muvofiq, qo’shimcha rang seziladi.

Ba’zi odamlar kechqurun va tunda xira ko’radi yoki butunlay ko’rmaydi. Bu hodisa “shapko’rlik” deyiladi. To’r pardadagi tayoqchalarning sust ishlashi yoki butunlay ishlamasligi bu hodisaga olib keladi.

Ba’zi bir insonlar ranglarni sira ajrata olmaydilar. Ular hamma ranglarni axromatik rangdek ko’radilar. Bu hodisa “rang ajratolmaslik” - xromatik ranglarni seza olmaslik va farq qila olmashk hodisasidir. Statistika ma’lumotlariga qaraganda, ranglarni ajrata olmaslik hodisasi erkaklar orasida 4% , ayollar orasida 0,5% uchrar ekan. Qizil va yashil rangni ajrata olmaslik ko’proq uchraydi. Bu fanda daltonizm (bu fenomenni birinchi bo’lib tushuntirgan olim Dalton sharafiga) deyiladi.

Ranglarni ajrata olmaslikning vujudga kelishiga ko’zning to’r pardasidagi kolbachalarning ishlamasligi yoki qisman ishlashi sabab bo’ladi.

Eshitish sezgisi. Eshitish analizatorining qo’zg’atuvchilari tovush to’lqinlaridir. Havo tebranishi quloqqa kirganidan so’ng quloq pardasining tebranishiga olib keladi.

Eshitish sezgisi orqali odam har xil tovushlarni aks ettiradi. Barcha eshitish sezgilarini uch turga ajratish mumkin – nutq, musiqa

tovushlari va shovqin. Musiqa tovushlari – ashula va musiqa asboblarning tovushlaridan iborat. SHovqinga motorning tovushini, yurib ketayotgan poezdning tovushini misol qilish mumkin. Kuchli va davomli shovqin odam ishchanlik qobiliyatining, eshitishining pasayishiga olib keladi.

Eshitish sezgisining xarakteristikasi ajratiladi. Eshitish sezgilari tovush to'liqlari tebranishining takrorlanishiga bog'liq bo'lgan tovush balandligini, tovush to'liqlari tebranishining shakliga bog'liq tembrni aks ettiradi. Odamlarning ovozlari, musiqa asboblarning tovushi turli tembr bilan farqlanadi.

Odarning qulog'i har qanday tovushlarni ham eshitavermaydi. U sekundiga 16 dan 20000 gacha bo'lgan tebranishga reaksiyani hosil qiladi. Eshitish analizatorining miyadagi qismi po'stloqning chakka qismiga joylashgan. Eshitish sezgisi ham ko'rish sezgisi kab inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Eshitish sezgisiga odamning nutqi bog'liqdir. Lekin shunday bo'lsa ham, odam qulog'ining eshitish imkoniyati juda katta. Eshitish a'zosi xisoblangan quloq juda murakkab tuzilishga ega bo'lib, asosan uch qismdan iboratdir: a) tashqi quloq; b) o'rta quloq; v) ichki quloq.

Tashqi quloq – quloq suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat. Tashqi quloq havo to'liqlarini yig'uvchi karnay desa bo'ladi. Tashqi quloq bilan o'rta quloq o'rtasidagi parda nog'ora parda yoki quloq pardasi deb ataladi.

O'rta quloq – nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha, sandon va uzangidan iborat. Nog'ora parda, shuningdek, unga yopishuvchi suyakchalar havo tebranishlarini ichki quloqqa o'tkazadi. O'rta quloq maxsus kanal yordami bilan og'iz bo'shlig'iga va burun bo'shlig'iga tutashgan.

Ichki quloq yoki quloq labirinti o'zaro birlashgan uchta bo'lakdan iborat. Ichki quloqning (u quloq dahlizi deyiladi) va pastki qismi chig'anoqdan iborat, ichki quloqning uch bo'limi endolimfa nomli maxsus suyuqlik bilan to'la. Havo to'liqinidan hosil bo'lgan qo'zg'alish ichki quloq orqali miyadagi eshitish markaziga olib boriladi va u yerda eshitish sezgisi hosil bo'ladi. Ichki quloqning asosiy qismi quloq chig'anog'idir. Ana shu quloq chig'anog'ining ichida kortiy organi degan qismi bor. Bu qism quloq chig'anog'ini yuqori tomondan berkitib turuvchi tayoqchasimon hujayralardan iboratdir. Demak, har xil tebranishdagi havo to'liqlari ana shu kortiy

organi orqali eshitish asablariga beriladi. Retseptorlarda hosil bo'lgan qo'zg'alish markazga intiluvchi (afferent) asab tolalari orqali bosh miya katta yarim sharlarining chakka qismiga, ya'ni eshitish markaziga olib boriladi va u yerda eshitish sezgisi hosil bo'ladi.

Hid bilish sezgisi. Hid bilish sezgisi orqali odam turli hidlarni aks ettiradi. Hid bilish sezgisining a'zosi burun bo'shlig'ining yuqori qismiga joylashgandir. Hid bilish analizatori uchun qo'zg'atuvchi bo'lib havo bilan burun sohasiga tushgan hidli narsalarning zarralari xizmat qiladi. Hid bilish retseptorlarida paydo bo'lgan qo'zg'alish markazga intiluvchi (afferent) asab tolalari orqali bosh miya katta yarim sharlarining hid bilish markaziga yetkaziladi va u yerda hid sezgisi hosil bo'ladi.

Hozirgi davrda hid bilish sezgisi odam uchun judayam muhim rol o'ynamaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, itlarning hidlarga sezgirligi ming marotaba yuqori ekan.¹³ Lekin ko'rish va eshitish qobiliyatini yo'qotgan odam uchun hid bilish sezgisi muhim ahamiyat kasb etadi. Sog' odam ko'rish sezgisidan qanday foydalansa, ko'r odam hid bilish sezgisidan shunday foydalanadi: hidlar orqali tanish joylarni, tanish odamlarni tanib oladi.

Ta'm bilish sezgisi. Ta'm bilish sezgisi so'lak yoki suvda erigan moddalarning ta'm retseptoriga ta'sir ko'rsatishi natijasida paydo bo'ladi. Ta'm bilish retseptorlari tilning usti va yon qismlarida, tanglayda joylashgan bo'ladi. Ta'm bilish sezgilari asosan to'rt xil ta'mni: shirin, achchiq, nordon, sho'mni his qiladi. Boshqa ta'mlar esa bu ta'mlarning ma'lum mutanosiblikda qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Teri sezgilari. Teri sezgilarining ikki turi ajratiladi – taktil sezgilar (biror narsaning tekkanini sezish) va harorat sezgisi (issiq yoki sovuqni sezish). Teri sezgilarining retseptorlari butun tananing yuzasiga joylashgan. Lekin terining turli qo'zg'atuvchilarga ta'sirchanligi turlichadir. Biror narsaning tekkanini sezuvchi retseptorlar barmoqlarning uchlarida va til uchlarida ko'proq joylashgan. Kurak, orqa tomonning sezuvchanligi past. Issiq va sovuqqa tananing kiyim bilan yopilgan qismi sezuvchanroqdir.

Tana yuzasida havo tebranishi sababli paydo bo'ladigan vibratsiya sezgisi teri sezgilarining o'ziga xos turidir. U sog'lom odamda zaif rivojlangan bo'ladi. Lekin ko'rish va eshitish qobiliyatini

¹³ Психология. Учебник для гуманитарных вузов под. Ред.В.Н.Дружинина.С.-Пт.,2001г.стр.128

yo'qotgan odamlarda yaxshigina rivojlanib, ularning fazoda mo'ljal olishiga yordam beradi. Vibratsiya sezgisi orqali ular transportning yaqinlashayotganini, eshikning taqillaganini, musiqani his etadilar.

Endi biz organizmning ichki muhitdan keladigan ta'sirotlarni aks ettiruvchi sezgilar bilan tanishib chiqamiz.

Organik sezgilar. Organik sezgilar yordamida inson qorni ochligini, tashnalikni, ko'ngil o'zishni, nafas yetishmasligini his etadi. Barcha tana a'zolari sog'lom bo'lib, normada ishlasa sezgilar birlashib insonning umumiy tetikligini aks ettiruvchi sezgiga aylanadi.

Muvozanat sezgisi. Muvozanat sezgisining a'zosi – boshning harakati va holati haqida xabar beruvchi ichki quloqning vestibulyar apparatidir. Muvozanat a'zosining kuchli qo'zg'alishi vaqtida ko'ngil aynishi kuzatiladi (kemada kuzatiladigan dengiz kasali). Lekin muntazam qilinadigan mashqlar muvozanat a'zolarining barqarorligini yaxshigina oshiradi.

Harakat sezgilari. Harakat yoki kinestetik sezgilar tana qismlarining harakati va holatini sezishga yordam beradi. Harakat analizatorining retseptorlari mushaklarda, paylarda va bo'g'imlarda joylashgan bo'ladi. Harakat sezgilari mushaklarning qisqarishi, tana qismlarining holati, masalan, qo'lning qanchalik bukilganligi, haqida signal beradi.

Tuyish sezgilari. Tuyish sezgilari teri va harakat sezgilarining birligidan hosil bo'ladi. Tuyish sezgisi aniq harakatlarni talab etadigan kasblar uchun juda muhimdir. Bola tuyish sezgisi orqali olamni o'rganadi.

Ko'rish sezgisini yo'qotgan insonlar uchun tuyish sezgisi juda muhimdir. Mashqlar yordamida u juda takomillashishi mumkin.

Og'riq sezgisi. Og'riq sezgisi turli tabiatga ega. Birinchidan, terining ustida, ichki a'zolarida va mushaklarda joylashgan maxsus retseptorlar (og'riqni sezadigan) mavjud. Teri, mushak, ichki a'zolarining kasalliklari mexanik og'riq beradi. Ikkinchidan, biror bir analizatorga juda kuchli qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatganda ham og'riq sezgisi hosil bo'ladi. Yorqin nur, haddan ortiq baland tovush, kuchli sovuq va issiqlik, o'tkir hid og'riqli sezgini hosil qiladi. Og'riq sezgisi juda yoqimsiz, lekin ular organizmdagi noxush holat haqida ma'lumot beradigan bizning ishonchli qo'riqchimizdir. Agar og'riq bo'lmaganida inson jiddiy jarohatlarni sezmagan bo'lar edi. Og'riqni

sezmaslik insonda kamdan-kam uchraydigan va inson uchun noxushliklarni olib keladigan hodisadir.

Sezgilarning umumiy qonuniyatlari

Sezgi chegaralari va analizatorlarning sezgirligi.

O'ylab ko'rganmisiz nima uchun inson qo'lga qo'ngan changni sezmaydi? Nima uchun chumolining yurganini eshitmaydi? Chunki hamma qo'zg'atuvchilar ham sezgini hosil qilavermaydi. Sezgi hosil bo'lishi uchun qo'zg'atuvchi muayyan kuchga ega bo'lishi kerak. Judayam kuchsiz qo'zg'atuvchilar sezgini hosil qila olmaydi. Qo'zg'alishning salgina sezila boshlagan darajasi sezgining absolyut chegarasi deyiladi. Agar shu qo'zg'alish kuchi salgina susaytirilsa ham sezgi yo'qoladi. Sezgi hosil qilmaydigan kuchsiz qo'zg'alishlar sezgi chegarasidan pastda turuvchi qo'zg'alishlar deb ataladi. Ular inson tomonidan anglanmaydi.

Ba'zan analizatorlarning sezgirligini, ularning kuchsiz qo'zg'atuvchilarni seza olish qobiliyatini baholash zarurati tug'iladi. Buning uchun mazkur analizatorning absolyut sezgirligi tushunchasi qo'llaniladi. Analizator qanchalik kuchsiz qo'zg'atuvchini seza olsa, uning sezuvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi. Demak, sezgining absolyut chegarasi qanchalik past bo'lsa, absolyut sezgirlik shunchalik yuqori bo'ladi.

Yaxshi va qulay sharoitda analizatorning sezgirligi juda yuqori bo'lishi mumkin. Agar atmosfera toza bo'lganda normadagi insonning ko'zi qorong'ulikda 27 km. masofadagi yonayotgan shamni sezish qobiliyatiga ega ekan.

Hid bilish a'zosi yana ham sezgir. Inson muskusning hidini (o'tkir hidli modda) bir litr havoda 1/ 100 000 000 nisbatda bo'lsa ham sezishi mumkin. Bunday kam miqdordagi moddani hech qanday kimyoviy tahlil ko'rsata olmaydi.

Analizatorning yana bir xarakteristikasi mavjud. Bu uning qo'zg'atuvchi kuchidagi o'zgarishni sezish xususiyati. Qo'zg'atuvchilar ta'siri o'rtasidagi sezilar-sezilmas farqni sezish farqlash chegarasi deyiladi. Farqlash chegarasi deb inson sezishi uchun qo'zg'atuvchi kuchini qanchaga oshirish kerakligini ko'rsatuvchi nisbiy ko'rsatkichga aytiladi.

Nemis fiziologi Veber insonning chap va o'ng qo'ldagi yukning qaysi biri og'irligini topish qobiliyatini tekshirish davomida farqlash sezgirligining nisbiyligini aniqlagan. Ko'z analizatori uchun bu

ko'rsatkich 1/100 tashkil etadi, eshitish analizatori uchun 1/10. Masalan zalning dastlabki yorug'ligi 1000 Vt bo'lsa 10 Vt qo'shilganda inson yorug'likning o'zgarganini sezadi. Agar 100 kishidan iborat xorga 7-8 kishi qo'shilsa o'zgarish sezilmaydi. O'zgarish sezilishi uchun 10 kishi qo'shilishi kerak.

Veberning tadqiqotlariga asoslanib nemis fizigi G.T.Fexner sezgining jadalligi qo'zg'atuvchining kuchiga bog'liqligini aniqlagan. G. Fexner juda kuchsiz va o'ta kuchli ta'sirlar ostida nisbiy chegaralar o'z ahamiyatini yo'qotishini aniqlagan. SHuningdek, u qo'zg'atuvchining kuchi geometrik progressiya asosida oshib borishi bilan sezgi jadalligi arifmetik progressiya asosida oshishini aniqladi. Sezuvchanlik ham farqlash chegarasi o'lchamiga nisbatan teskari bog'liqlikda bo'ladi: farqlash chegarasi qanchalik katta bo'lsa, sezuvchanlik shunchalik kichik bo'ladi.

Veber – Fexnerning psixofizik qonuni: sezgining jadalligi qo'zg'atuvchining kuchiga proporsionaldir.

Sezgining quyidagi asosiy xususiyatlari ajratiladi:

sifat - sezgining turi va o'ziga xos xususiyati. Masalan, eshitish sezgisi ovozning tembri, balandligi bilan ajralib turadi, ko'rish sezgilar yorqinligi bilan;

qo'zg'atuvchining kuchiga bog'liq bo'lgan miqdor xarakteristikasi. Masalan, tumov odamning hidlarni idrok qilish darajasi pasayadi;

davomiyligi—sezgi organlarining funktsional holati, qo'zg'atuvchining harakatlanish vaqti va retseptorning funktsional holati bilan belgilanadigan vaqt xarakteristikasi. Qo'zg'atuvchi sezgi organlariga ta'sir ko'rsatganida sezgi darhol hosil bo'lmasdan, bir oz vaqt o'tib hosil bo'ladi. Masalan, ta'm sezgisi 50 ms dan keyin, og'riq sezgisi 370 ms. dan keyin.

fazoviy lokallashuvi – qo'zg'atuvchining fazodagi lokallashuvi haqidagi ma'lumot. Ba'zi holatlarda sezgilar qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatayotgan tana qismi bilan bog'lanadi, masalan, ta'm sezgilari.

Sezgilar adaptatsiya, sensibilizatsiya va sinesteziya hodisalari

Sezgilar chegarasining absolyut me'yori bilan belgilanadigan analizatorlarning sezgirligi barqaror bo'lmasdan bir qancha fiziologik va psixologik shart-sharoitlar ta'sirida o'zgarib turadi. Ushbu shart-sharoitlar orasida adaptatsiya (moslashish) hodisasi alohida o'rin tutadi.

Adaptatsiya (lot. *adaptatio* – moslanmoq, sozlanmoq) – bu analizatorlarning ta'sir ko'rsatayotgan qo'zg'atuvchiga moslashishi natijasida sezgirlikning o'zgarishidir.

Adaptatsiya hodisasi analizatorlarning markaziy qismlari, xususan, asab markazlaridagi qo'zg' alishning o'zgarishi bilan bog'liq. Qo'zg'atuvchi uzoq vaqt davomida ta'sir ko'rsatsa, bosh miya po'stlog'i tormozlanish, sezgirlikni pasayishi bilan javob beradi. Tormozlanish boshqa markazlarning kuchayishiga olib kelib, yangi sharoitda sezgirlikning oshishiga yordam beradi. Umuman olganda adaptatsiya organizmni muhitning yangi sharoitlariga moslashuvidagi egiluvchanligini ko'rsatuvchi muhim jarayondir.

Bu yerda qonuniyat quyidagicha: kuchli ta'sirotdan kuchsiz ta'sirotda o'tganda sezgirlik ortib boradi, kuchsiz ta'sirotdan kuchliga o'tilganda sezgirlik kamayib boradi. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortish tomoniga ham, kamayish tomoniga ham o'zgarishi mumkin. Gap shundaki, agar qo'zg'atuvchi kuchli bo'lsa, bu yerda sezuvchanlik kerak emas, agar kuchsiz bo'lsa, ularni sezib olish uchun yuqori sezuvchanlik talab etiladi.

Bu hodisaning uch xil turini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Qo'zg'atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi natijasida sezgining yo'qolishi. Masalan, terining ustiga qo'yilgan yengilgina yuk bir ozdan so'ng sezilmaydigan bo'lib qolishi.

2. Kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi. Masalan, ko'pchilik uchun harorat adaptatsiyasi tanish. Daryoga suvga tushgan odamning dastlab sovuqdan eti junjikadi, lekin bir ozdan so'ng suvning sovuqligi sezilmay qoladi. Xonadagi o'tkir yodning hidi bir ozdan so'ng sezilmay qoladi.

3. Kuchsiz qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgirlikning ortishi. Ko'rish analizatoriga nisbatan buni qorong'ulik adaptatsiyasi ham deyiladi. Bunda qorong'ulikda uzoq vaqt bo'lishlik natijasida ko'zning sezuvchanligi ortib boradi.

Sensibilizatsiya.

Bizning barcha analizatorlarimiz bir-biriga ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Sezgilar o'zaro ta'sir ko'rsatganda sezgirlik ikki qarama-qarshi jarayonda, sezgirlikning ortishi va kamayishida namoyon bo'ladi. Kuchsiz qo'zg'atuvchilar analizatorlarning sezgirlikni orttiradi, kuchlilari esa sezgirlikni pasaytiradi. Masalan,

ko'rish sezgirligini sokin musiqa bilan oshirish mumkin. Kuchsiz ko'rish qo'zg'atuvchilari eshitish sezgirligini oshiradi.

Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortib borishi sensibilizatsiya deyiladi. Sezgi organlarining sensibilizatsiya hodisasi uzoq vaqt davomida maxsus kasb bilan shug'ullangan odamlarda kuzatiladi. Mahoratli uchuvchilar dvigatel motorini bir minutda necha marta aylanayotganini farqlab beradi.

Analizatorlarning markaziy bo'limlari joylashgan bosh miya po'stlog'ida qo'zg'alishning irradiatsiyalashuvi (tarqalishi) va kontsentratsiyalashuvi (to'planishi) jarayonlari sezgilar o'zaro munosabatlarining fiziologik mexanizmi bo'lib hisoblanadi. I.P.Pavlovning fikriga ko'ra, kuchsiz qo'zg'atuvchi katta yarim sharlar po'stlog'ida osongina tarqaladigan qo'zg'alish jarayonini hosil qiladi. Qo'zg'alish jarayonining tarqalishi (irradiatsiyalashuvi) natijasida boshqa analizatorning sezuvchanligi oshadi. Kuchli qo'zg'atuvchi ta'sir qilganda qo'zg'alishning aksincha to'planish xususiyatiga ega bo'lgan jarayoni yuzaga keladi. O'zaro induksiya qonuniga binoan bu markaziy bo'limlarda boshqa analizatorlarning tormozlanishiga va ular sezuvchanligining susayib ketishiga olib keladi.

Sinesteziya. Sezgilarning o'zaro munosabati sinesteziya hodisasida ham kuzatiladi. *Sinesteziya – bu bir analizatorning qo'zg'alishi natijasida boshqa analizatorga xos bo'lgan sezgining hosil bo'lishidir.* Sinesteziya sezgilarning har xil turlarida kuzatiladi. Tovush qo'zg'atuvchilari ta'sir qilganda ba'zi bir insonlarda ko'rish obrazlarl paydo bo'lganida qo'pincha ko'rish-eshitish sinesteziyasi uchraydi. Har xil odamlarda bu sinesteziyalarda muvofiqlik bo'lmaydi, lekin ular ayrim insonlar uchun turg'un bo'lib hisoblanadi. Ayrim bastakorlarda (N.A. Rimskiy-Korsakov, A.N.Skryabin va boshq.) "rangni eshitish" qobiliyati bo'lgan ekan. Litvalik rassom M.K CHyurlyonisning ijodida ham bu xildagi sinesteziyaning yorqin namunasini ko'rish mumkin edi.

Inson hayoti faoliyati davomida biror bir analizatorning faoliyati sust yoki umuman bo'lmaganida boshqa analizatorlarning faoliyati kuchayishi kuzatilgan. Jumladan, ko'zi ojiz odamlarda teri-tuyish yoki eshituv analizatori faoliyatining kuchli ishlashi (ko'zi ojizlarning pulni aniq farqlay olishi yoki musiqani teran anglash xususiyatlari).

Sezgining rivojlanishi

Sezgililar inson tug'ilgan zahoti rivojlana boshlaydi. Insonda sezgi rivojlanishi harakat tizimining rivojlanishidan oldinda bo'ladi. Mushukning bolalari onasidan ketib qolmasligi uchun ko'r bo'lib tug'iladi, qushlarda onaga bog'lovchi inprinting mexanizmi yorqin rivojlangan. Bolada esa bunday mexanizmlar yo'q, uning xatti-harakati sensorikaning nazorati ostida quriladi.

Bola tug'ilganida uning teri sezgirligi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bola tug'ilganida ona tanasining harorati bilan havoning haroratini farq qilishi tufayli titray boshlaydi. Lablar bilan og'iz sohasi sezgir bo'ladi. Bolaning ta'm sezgirligi ham rivojlangan bo'lib, ona sutini shirin suvdan ajrata oladi. Bolaning hid bilish sezgisi ham yaxshi rivojlangan bo'ladi. Onasini sutining hididan taniy boshlaydi. Lekin ovqatlanish bilan bog'liq bo'lmagan hid bilish sezgirligi uzoq rivojlanadi. Ko'rish va eshitish sezgirligi murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tadi. Bola o'z harakatlarini ikkinchi oydan boshqara boshlaydi. To'rtinchi oydan yangi predmetlarni ko'proq tomosha qiladi. Besh oylik bo'lganda ranglarni farqlay boshlaydilar. SHundan so'ng yorqin predmetlarga ko'proq qaray boshlaydilar.

Taktill sezgililar rivojlanadi. Bu sezgi narsalarni ushlab olish va ularni tadqiq etishda juda muhim.

Bolaning birinchi yarim yilida sensor mexanizmlarning jadal rivojlanishi ro'y beradi.

Boshqa sezgirlilik turlariga nisbatan aytish mumkinki, absolyut sezgirlilik hayotning birinchi yilidayoq yuqori rivojlanish darajasiga erishadi.

Sezgilarning rivojlanishi turli odamlarda turlichadir. Bu ko'proq irsiy omillarga bog'liq. Sezgilarning rivojlanishi mashqlar, masalan, musiqa bilan shug'ullanish, rasm chizish orqali amalga oshadi.

IDROK MURAKKAB PSIXIK JARAYON SIFATIDA

Idrok haqida umumiy tushuncha. "Sezgi" va "idrok" tushunchalari o'zaro bir-biri bilan bog'liq hodisalardir. Ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Predmetning turli xususiyatlarini aks ettirayotgan sezgililar birgalikda idrokni hosil qiladi. Idrokni sezgililar yig'indisi deyish mumkin. Lekin bu jarayonni faqat sezgilarning oddiy jamlanmasidangina iborat deb fikr yuritish noto'g'ri.

Tajriba o'tkazish mumkin. Tekshiriluvchining ko'zini bog'lab, oldiga turli predmetlar qo'yiladi. Dastlab predmetga tegishi va nimani his etayotgani so'raladi. So'ngra qanday predmet ekanligini aytish so'raladi. Javoblar olingach, predmetni qo'lga olib nima ekanligini topish vazifasi beriladi. Harakatning faolligi butun predmet haqidagi tasavvurni beradi. Idrok natijasida insonda tevarak olam va predmet haqida yaxlit obraz paydo bo'ladi.

Idrok – bu tevarak olamdagi hodisa va predmetlarni insonning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir ko'rsatishi natijasida ongda yaxlit holda aks etishidir.

Idrokning asosida analizatorlararo aloqalar yotadi. Masalan, "limon" so'zi talaffuz qilinganda ko'rish analizatorining ishi bo'lgan shakli, rangi, ta'm bilish analizatorining ishi bo'lgan mazasini tasavvur qila olamiz.

Idrok murakkab jarayon bo'lib, mazkur vaqtda insonga nima ta'sir ko'rsatayotganini bilishga yo'naltirilgan jarayondir. Har bir predmet murakkab butunlik va u juda ko'p xossalarga ega. Predmet yaxlit holda idrok etilar ekan, shu bilan birga uning alohida xususiyatlari ham idrok qilinadi. Bu ikki tomon bir-biri bilan mustahkam bog'langan: yaxlitning idrok qilinishi uning qism va xususiyatlarni idrok qilish bilan muvofiqlashgan. Bir vaqtning o'zida uning o'zi ham ularning idrok qilinishiga ta'sir ko'rsatadi. Predmetning biror - bir qismi bo'lmasligi mumkin yoki yaxshi idrok etilmayotgan bo'lishi mumkin. Lekin biz predmetni nima ekanligini anglaymiz. Chunki har bir predmet o'zining belgilariga ega.

Maqsadga yo'naltirilgan idrok jarayoni quyidagi harakatlardan tashkil topgan: - obyektни izlash; - uning eng xarakterli belgilarini ajratib olish; - obyektни tanish, ya'ni uni u yoki bu obyektlar yoki hodisalar toifasiga kiritish.

Psixofiziologlarning tadqiqotlariga ko'ra, idrok murakkab tahliliy jarayondir. Idrok qilish jarayonida harakatli tarkibiy qismlar ishtirok etadi. Bular aniq predmetlarni idrok qilishda ularni ushlab ko'rish va ko'zlar harakati; ta'mni idrok qilishda til harakatlari va boshqalardir.

Idrok qilishda u yoki bu predmetni idrok qilish istagi, uni idrok qilishning zarurligi, yaxshiroq idrok qilishga yo'naltirilgan intilish muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayonda insonning diqqati va yo'nalganligi ham ishtirok etadi.

Insonning idrok qilish jarayoniga bo'lgan munosabati bu jarayon uchun katta ahamiyatga ega. Predmet inson uchun qiziqarli yoki ahamiyatsiz bo'lgani uchun, u odamda turli his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. Inson uchun qiziqarli bo'lgan predmetlar faol idrok etilishi va, aksincha, ahamiyatsiz bo'lgan predmetlar sezilmasligi mumkin.

Demak, idrok – bu insonga ta'sir ko'rsatayotgan predmet yoki hodisani bilishga yo'naltirilgan murakkab jarayondir.

Idrokning fiziologik asoslari. Idrokning fiziologik asosi bo'lib his-tuyg'u organlari, asab tolalari va markaziy asab tizimida ro'y beradigan jarayonlar xizmat qiladi. Asab qo'zg'alishi retseptordan his-tuyg'u organlaridagi asab tugunlarining markaziy proektsiyasidan iborat bo'lgan po'stloqning sensor sohalariga o'tkaziladi. Proektsiya sohasi qaysi organ bilan bog'langanligiga ko'ra, ma'lum sensor axborot shakllanadi. Idrokning fiziologik asosi, uning harakat faoliyati, emotsional kechinmalar, tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'langandir. Tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sirida paydo bo'lgan asab qo'zg'alishlari asab markazlariga o'tadi, bunda ular po'stloq sohasidagi boshqa asab qo'zg'alishlari bilan o'zaro ta'sirga kirishadi va po'stloqning ma'lum bir sohasini qamrab oladi. O'zaro ta'sirga kirishgan va po'stloqning muayyan sohalarini qamrab olgan bunday qo'zg'alishlar to'ri idrokning fiziologik asosi hisoblanadi.

Idrok sezgi bilan mustahkam bog'liq bo'lganligi uchun, u ham reflektor jarayon. I.P.Pavlov idrokning asosida shartli reflekslar yotishini aytib o'tgan. Idrok sezgilarga nisbatan murakkabroq jarayondir. U miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish va umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Chunki, tahlil faoliyati amalga oshirilmasa anglangan idrok vujudga kelmagan bo'lar edi. Idrok jarayonida tahlil bilan birgalikda sintez ham ishtirok etadi. Miya po'stlog'idagi muvaqqat asab bog'lanishlarining o'rnatilishi sintezning negizini tashkil etadi. Idrok jarayonini ta'minlovchi muvaqqat asab bog'lanishlarini analizatorlar o'rtasida va bir analizator chegarasida hosil bo'ladigan ikki turga ajratish mumkin. Birinchi turdagi muvaqqat asab bog'lanishlari organizmga bir modallikka ega bo'lgan ko'p tomonli qo'zg'atuvchining ta'sir etishida alohida o'rin egallaydi. Masalan, bunday qo'zg'atuvchi sifatida eshitish analizatoriga ta'sir ko'rsatuvchi alohida tovushlarning o'ziga xos uyg'unligidan iborat bo'lgan musiqa xizmat qilish mumkin. Bu to'plam yagona murakkab qo'zg'atuvchi sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Bunda asab aloqalari faqat qo'zg'atuvchining o'ziga nisbatan emas, balki, ularning vaqtinchalik, fazoviy va shu kabi munosabatlariga nisbatan ham hosil bo'ladi. Natijada katta yarim sharlar po'stlog'ida integratsiyalash (birikish jaryoni) yoki murakkab sintez jarayoni sodir bo'ladi.¹⁴

Ko'p tomonli qo'zg'atuvchi ta'sirida hosil bo'ladigan asab aloqalarining ikkinchi turi – bu turli analizatorlar chegarasidagi aloqalardir. Bunday aloqalarning paydo bo'lishini I.M. Sechenov assotsiatsiyalarning mavjudligi bilan tushuntirgan. Odamda, bu assotsiatsiyalar, eshitilgan so'zning obrazi bilan birgalikda kuzatiladi, bunda idrok yaxlitlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Idrok jarayonining qonuniyatlari. Idrokning asosiy xususiyatlaridan biri uning predmetliligidir. Predmetlilik bilish jarayonlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Predmetlilik obyektning fazo va vaqtda alohida jismoniy jism sifatida yakka o'zi idrok etilishida namoyon bo'ladi.

Inson tomonidan kuzatilayotgan voqelik ikki teng bo'lmagan qismga bo'linadi: biri - predmet. U aniq, konkret va uni ko'rish, eshitish mumkin. Ikkinchisi – fon, predmetning ortida joylashgan noaniq umumiy narsa bo'lib, aniq obyektga ajratishga yordam beradi. Bu xususiyat figuraning fondan ajratish fenomenida kuzatiladi. Bu fenomenini tushunishga bolalar psixologi E.Rubinning figuralari yordam beradi. (5-rasm).

Predmetli idrokda tuyish va harakat muhim ahamiyatga ega. B.G.Апанъев bir hodisa haqida aytib o'tgan: kontuziya natijasida bir odamning bosh miyasi shikastlangan, ko'z soqqasi umuman harakat qilmay qo'ygan, ko'rish idroki predmetli aks ettirishni ta'minlamay qo'ygan. *

Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitligidir. Yaxlitlik – turli sezgilar ko'rinishida olinadigan predmetning alohida xususiyatlari va sifatleri asosida predmetning yaxlit obrazini yaratishdir (6-rasm).


Yaxlitlikni tahlil qilishda ikkita o'zaro bog'liq jihatlar ajratiladi:

- 1) turli elementlarning bir butun, yaxlit bo'lib birlashishi;
- 2) shakllantirilgan butunlikning, yaxlitning element sifatlaridan mustaqil bo'lishi. SHu bilan bir qatorda butunning idrok qilinishi qismlarning idrok qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.

¹⁴ Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 295 p



5-rasm. Vaza va odamlar



6-rasm. Qismlar va butunning idrok qilinishi

Butunning uni tashkil qiluvchi qismlardan mustaqilligi butun tuzilmaning qismlardan ustunligida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxsning idrok qihsh jarayoniga xos bo'lgan bir nechta qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz:

A. Figura va fonning ilgari bog'liqligi qonuni. Bu qonunning ma'nosi: odam ilgari tajribasida bo'lgan, bevosita to'qnash kelgan, tanish narsalarni idrok qihshga moyil bo'ladi. Agar

biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lgan bo'lsa, tabiiy fonda qabul qiladi. Masalan, boshqa mamlakatga borgan inson atrofdagi odamlar orasidan o'z mamlakatining milliy libosidagi odamni tez ajratib oladi. Boshqa kiyimdagi odamlar u inson uchun fon hisoblanadi.

B. Idrokning konstantligi ("constanta" -so'zidan olingan bo'lib, o'zgarmas doimiy) qonuni. Bu qonun ma'lum ma'noda oldingisiga bog'liq. Ya'ni bunda ham ilgari tajriba katta rol o'ynaydi. Ma'nosi: odam o'ziga tanish bo'lgan narsalarni o'sha xossa va xususiyatlar bilan o'zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Insonning sezgi organlariga kelayotgan signallar doim o'zgarib turishiga qaramasdan, biz ularning shakli, rangi, katta-kichikligini o'zgarmas doimiy deb idrok qilamiz. Predmetning ko'z to'r pardasidagi proektsiyasining razmeri predmet bilan ko'z va ko'rish burchagi orasidagi masofaga bog'liq, lekin insonga, masofadan qat'iy nazar, predmetlarning hajmi o'zgormagandek tuyiladi. Tanish predmetning rangi, tanish obyektning shakli kuzatish sharoitidan qat'iy nazar doim bir xil idrok qilinadi. Masalan, samolyot ichida o'tirib yerga qaraganda avtomobil yo'llari, ularda harakat qilayotgan mashinalar kichkina ko'rinadi, lekin ular kichik tarzda idrok qilinmaydi.

Bu o'rinda bir etnografning Afrikadagi kuzatishi xarakterli. U kunlarning birida pigmeylar deb ataluvchi qabila vakillaridan biri bilan quyuq o'rmondan chiqqan (bu qabilaning umri quyuq o'rmonda o'tadi). Ro'parada yaylovda sonsiz mollar podasi o'tlab yurgan bo'lgan. Etnograf ularni oddiy mollar podasi sifatida idrok qilgan, pigmey esa ularni chumolilarga o'xshatib, ularning ko'pligi va kichikligidan xayratlangan. Olimda idrokning konstantligi namoyon bo'lgan bo'lsa. Uning sherigida uning buzilganligi kuzatilgan.

Demak, idrokimizning konstantligi, ya'ni ilgari tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o'zgartirmay, turg'un holda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muhitda to'g'ri moslashuvimiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta'minlaydi.

V. Kutishlar va taxminlarning idrokka ta'siri. Ko'pincha bizning idrokimiz ayni paytda biz nimalarni kutayotganimizga bog'liq bo'lib qoladi. Biz ko'p holatlarda o'zimiz ko'rgimiz kelgan narsalarni ko'ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz.

Inson idroki shaxsiy ma'no va ahamiyat kasb etgan ma'lumot vositasida ongdagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi. Aynan shunday hodisalar ba'zan idrokdagi xatoliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Amerikalik D.J.Begbi degan olim stereoskop orqali amerikalik va meksikalik bolalarga shakli unchalik aniq bo'lmagan slaydlarni birin ketin ko'rsatgan. Amerikalik bolalar rasmda beysbol o'yinini, oq sochli qizni ko'rganlar, meksikalik bolalar buqalar jangini, qora sochli qizni ko'rganlar. Ko'pchilik bolalar esa ko'rsatilgan ikkita rasmdan faqat bittasini ko'rganini e'tirof etganlar. Demak, bizning idrokimiz, uning mazmuni madaniy va ma'naviy muhitga ham bog'liq bo'lib, bu kutishlar tizimidan kelib chiqadi.

G. O'zgarma ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Bu qonunning mohiyati shundaki, muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi. Masalan, tinch xonada soatning tiqillashi eshitilib turadi. Lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng go'yoki to'xtab qolganday – eshitilmaydi.

D. Anglanganlik qonuni. Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma'nosi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki his qilayotgan narsamiz ma'nosiz, tushunarsiz, noaniq bo'lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. Masalan, xitoy tilini bilmaydigan odam shu tilda so'zlashuvchilar orasiga tushib qolsa, psixologik jihatdan juda qiynaladi. Ya'ni bizga barcha narsalarda ma'no va mazmun kerak. Odam odatda tushunadigan narsasinigina idrok qiladi.

E. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Biz idrok jarayonida ilgari tajribaga tayanishimiz bilan ko'pincha adashamiz, ba'zan esa, o'zimiz uchun yangiliklar ochib, tajribani yanada boyitamiz. Ilgari tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo'lib, bizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma'lumotlarning ko'lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, idrok – tashqi muhit to'g'risidagi taxminlarimizni isbot qilishga qaratilgan faol jarayondir. Biz bevosita idrokimiz “tagiga yetolmayotgan”, “tushunmayotgan” narsalarni bevosita his qilgimiz, qo'limiz bilan ushlab ko'rgimiz, ular bilan ishlagimiz keladi. Ya'ni idrok qilinayotgan narsada noaniqlik, sir paydo bo'lsa, biz “Bu nima bo'ldi?” degan savol asosida taxmin qila boshlaymiz va uni tekshirish uchun harakat qilamiz. Aynan xarakatlar,

amaliy ishlar idrokimiz imkoniyatlari va chegaralarini kengaytiradi va anglashga yordam beradi.

SHunday qilib, bir qarashda oddiy ko'rinadigan idrok jarayoni inson bilimlari, tushunuvchanligi va faolligi bilan bog'liq psixologik jarayon bo'lib, u aslida shaxsiy tajribamizning birlamchi asosi va bazasidir. Anglanilgan va shaxsning tajribasiga aylangan ma'lumotlar yana bir muhim psixik jarayon-xotirada o'z aksini topadi.

Idrokning faolligi va kuzatuvchanlik. Idrok jarayoni faqat tevarak-atrofdagi narsalarning sezgi organlarimizga ta'sir qilib turishi natijasidagina emas, balki shu bilan birga idrok qilayotgan odam o'zining olamni bilish va amaliy faoliyatida yon atrofdagi narsalarga ta'sir ko'rsatishi natijasida ham vujudga keladi.

Idrokning faolligiga, avvalo unga bog'liq bo'lgan hissiy kechinmalar sabab bo'ladi. Bu his-tuyg'ular, avvalo, shu paytdagi idrok tarkibiga kiradigan sezgilarning emotsional (hissiy) tomonidan iborat bo'ladi. Idrok qilinayotgan narsa va hodisalar to'g'risida o'tmishda tug'ilgan taassurot va fikrlar bilan bog'liq hissiyot ham shu jumladandir. Ko'pincha, odamning idrokiga shu paytda kechirayotgan bironta hissiyoti – shodligi, xushchaqchaliqligi, g'amginligi, tajangligi va boshqa shu kabi tuyg'ulari ta'sir qilib, idrok qilinayotgan narsa yoki hodisaga ma'lum bir tus beradi. SHu sababli, insonning kayfiyati "yomon" vaqtda tabiat manzaralari unga allaqanday g'amgin, ma'yusdek ko'rinsa, kayfiyati "yaxshi" vaqtda tabiat kulib turganday, hamma yoq "quvnoq" dek tuyuladi va h.k.

His-tuyg'ular idrok mazmunini jonli, yorqin qiladi, idrokni ma'lum bir tomonga yo'naltiradi. His-tuyg'ular idrokning faollik darajasini kuchaytiradi, idrok amalga oshayotgan sharoit boshqa psixik jarayonlarning ildamlik darajasiga ta'sir qiladi: bu jarayonlarni tezlatadi yoki susaytiradi. Idrok bilan bog'liq hislar, jumladan, xayol jarayonlarini qo'zg'atib faollashtiradi. Masalan, inson qattiq vahimaga tushganida har bir arzimagan narsadan ham xavfsirayveradi, oddiy arzimagan narsa ham nazarida allaqanday dahshatli tuyuladi yoki inson shodligida har narsadan xursand bo'ladi.

Idrok jarayonida diqqat g'oyat katta ahamiyatga egadir. Diqqat idrokning faolligini oshiradi va idrokning mukammal, to'liq va ravshan bo'lishiga xizmat qiladi. Diqqat, faollik darajasiga qarab, ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin.

Maqsadsiz, muayyan bir obyektни tanlab olmasdan, kuch sarflamasdan idrok qilish jarayoni ixtiyorsiz idrok deyiladi. Bunday idrok jarayonlari diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalb qilayotgan obyektlarning ta'siri bilan qo'zg'aladi. Masalan, biz uzoqdan kelayotgan samolyot ovozini beixtiyor eshitamiz, tunda qirda yonayotgan gulxanni beixtiyor ko'ramiz. O'zining yorug'ligi, rang barangligi, harakati, xushohangligi, konstantligi bilan ajralib turadigan narsa yoki hodisalar, odatda beixtiyor idrok qilinadi. SHuningdek, ayni vaqtda bironta ehtiyoj va manfaatlarimizga javob beradigan, shaxsiy tajriba va bilimlarimizga ko'p darajada muvofiq keladigan va biz uchun katta ahamiyatli bo'lgan obyektlar ham beixtiyor idrok qilinadi. Ixtiyorsiz idrok tetik, bardam vaqtimizda bizda to'xtovsiz bo'lib turadigan jarayondir.

Ixtiyoriy idrokda oldin belgilangan maqsad asosida biron bir obyekt belgilab olinadi. Badiiy bir rasmini ko'rish, ma'ruzani diqqat bilan eshitish, yozgan ishlardagi imlo xatolarni topish, qo'shiqni mazmuniga e'tibor berib tinglash, biron tanishimizni ko'pchilik orasidan qidirib topish ixtiyoriy idrokka misol bo'la oladi.

Ixtiyoriy idrok ixtiyorsiz idrokdan ayrilgan holda bo'ladigan jarayon emas. Ixtiyorsiz idrok ixtiyoriy idrok uchun go'yo "fon" bo'lib xizmat qiladi.

Tizimli, rejali va davomli idrok qilish qobiliyati kuzatuvchanlik deb ataladi. Har bir kishi ma'lum darajada kuzata bilish qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat har kimning o'z hayotiy tajribasi va bilish faoliyatida taraqqiy qilib boradi. Ammo har kimning ham razm solish qobiliyati kuchli bo'lavermaydi. Razm sola bilish, kuzatuvchanlik qobiliyati shaxsning nihoyatda qimmatli bo'lgan sifatlaridandir. U mavjud bo'lgan sharoitni turlicha tushunishga, o'rab turgan olamni samarali o'rganishga va xususan, o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda kuzatuvchanlikni o'stirishga katta ahamiyat bergan. "Agar ta'lim bolalarning aqlini o'stirmoqchi bo'lsa ularning kuzatuvchanlik qobiliyatini mashq qildirish kerak" – deb aytgan edi.¹⁵

¹⁵Танланган асарлар, 6-том, ПФА, Москва, 1949-йил, 267-бет

SHuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodda kuzatuvchanlikni tarbiyalash pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Appertsepsiya. Har bir idrok tärkibiga sezgilar bilan birga odamning o'tmishda hosil qilgan tajribalari va bilimlari ham kiradi.



7-rasm. Idrokda o'tmish tajribasining namoyon bo'lishi

Ushbu rasmlarga uchburchak va doira idrok qilinadi. Aslida bu rasm uchburchak ham emas, doira ham emas, balki uch chiziqdan, ikkinchisi esa yarim doiradan iborat shakl. Bu rasmlarda yetishmagan tomonini o'zimizdan, o'z tajribamizdan olib "qo'shamiz" va bu rasmlarni doira va uchburchak deb tasavvur qilamiz. Biz o'tmishdagi tajribamizda bu figuralarni ko'p ko'rganmiz, bu figuralar bilan ko'p marta ish ko'rganmiz, bu figuralarning obrazlari miyamizda mustahkam o'rnashib qolgan. SHu sababli, bu rasmlarni ko'rishimiz bilan ilgari bizda hosil bo'lgan tasavvurlar yana esimizga kelib, miyamizda uchburchak va doiraning yaxlit obrazlari paydo bo'ladi. Tevarak-atrofdagi hamma narsalarni idrok etish ana shunday tarzda amalga oshadi.

Odamning aqli qanchalik yetuk, muayyan sohaga oid tasavvuri, fikri tajribasi, bilimi ham boy bo'lsa, uning shu sohada idroki ham shunchalik murakkab, chuqur va sermazmun bo'ladi. Bu xususiyatlar moddiy buyumlarni idrok qilishda namoyon bo'ladi. Masalan, bironta yangi mashinani tegishli ixtisosi bo'lmagan kishi tomonidan idrok qilinishi, ixtisosi bor odamning idrokiga qaraganda, mazmungan torroq va yuzaki bo'ladi. Ayni bir obyektlarni tegishli ixtisosi bo'lmagan kishining kuzatishlariga qaraganda, olimning chuqur ilmiy kuzatishlari xiyla farq qiladi. Ma'lumki, shaxsning tajribasi, bilimi, xayol va tafakkuri, hissiyot va diqqat jaryonlari, umuman shaxs psixikasining mazmuni idrokda namoyon bo'ladi. Bu psixik hayotning

idrokda aks etuvchi va idrokka ta'sir ko'rsatuvchi mazmuni appertseptsiya deb ataladi.



Insonlarning ayni bir narsa yoki hodisani idrok etishida ko'rinadigan farqlar appertseptsiya bilan belgilangan bo'ladi. Bu xususiyatlar odamning tajribasi va bilimlariga bog'liq xususiyatlardir. Insonlar ayni bir narsa yoki hodisani yoshlari, ma'lumotlari, turmush tajribalari, kasblari, sinfiy chiqishlari, temperament, xarakter, qobiliyat va qiziqishlaridan kelib chiqib, turlicha idrok qiladilar.

Ayni bir narsa yoki hodisani ayni bir kishi turli vaziyatda turlicha idrok qilishi mumkin, bu xol har gal o'sha kishining kayfiyati, hissiyoti, diqqati, manfaati, maqsadi va boshqalarga qarab ro'y beradi (8-rasm). Bironta murakkabroq vaziyatni idrok qilayotganimizda e'tiborimiz va manfaatimizning talabiga qarab, biz shu vaziyat tarkibiga kirgan yakka bir narsani yoki uning qismini ajrata olamiz. Masalan, bog'da biz uchun zarur bo'lgan daraxtni ajratib idrok qilamiz. Musiqa eshitayotganimizda biz uchun tanish bo'lgan kuyni tezda ajratib olamiz.

Idrok jarayonida ba'zan uchrab turadigan subyektivizm ham appertseptsiya natijasidir. Bu subyektivizm vaqtni, harakatni idrok qilishda, qizg'in munozaralar borayotgan paytda bir kishining gapini idrok qilishda uchraydi. SHuningdek, appertseptsiyalar fazo, vaqt hamda harakatni idrok qilishda katta roly o'ynaydi

zamon psixologiyasiga oid adabiyotlarda idrokning tasniflanishiga doir bir qancha yondoshuvlarni keltirish mumkin. Tasniflanishlardan birining asosida idrokda ishtirok etuvchi analizatorlardagi tafovutlar yotadi. Idrokda qaysi analizator ishtirok etishiga bog'liq ravishda ko'rish, eshitish, teri-tuyish, kinestetik, hid bilish va ta'm bilish idroklari ajratiladi.

Odatda, idrok – bir necha analizatorlarning o'zaro ta'sirining natijasi bo'lib hisoblanadi. Idrok turlari sof holda juda kam uchraydi. Idrok turlarining o'zaro uyg'unlashib ketishi natijasida idrokning murakkab turlari hosil bo'ladi. O'quvchi tomonidan matn idroki ko'rish, eshitish va kinestetik idrokni o'z ichiga oladi.




8-rasm. Idrokning insonning holatiga bog'liqligi

Idrokning turlari. Endi idrok turlarini ko'rib chiqamiz. Hozirgi Idrokning boshqa tur tasnifining asosini materiyaning mavjud bo'lish shakllari: fazo, vaqt va harakat tashkil etadi. Bunga muvofiq ravishda fazoviy idrok, vaqt idroki va harakat idroki ajratiladi.

Fazoni idrok qilish. Barcha jismlar fazoda joylashadi va istalgan hodisa ma'lum vaqtda mavjud bo'ladi. Bugungi kunda turli mamlakatlarda jarliklarning ustidan shishaga o'xshash ko'priklarni qurish urfga kirgan. Bunday ko'prik ustida turgan odamda fazoning idrokini yaqqol namoyon bo'ladi. Jismning fazoviy xossalariga kattalik, shakl, fazodagi holat kiradi.

Jismning kattaligini idrok qilishda uning ko'z to'r pardasidagi tasviri muhim ahamiyatga ega. Bu haqida idrokning konstantlik qonuniyatida gapirib o'tildi.





9-rasm. Predmetlarning kontrastligi


Predmet fazoviy idrokining boshqa xususiyati predmetlarning *kontrastligidir*. Biz idrok etayotgan predmetning atrofidagi boshqa predmetlar uning idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'rta bo'yli odam bo'ylari baland odamlar orasida o'zining haqiqiy bo'y o'lchamidan ancha kichik bo'lib ko'rinadi. Katta aylanalar o'rtasidagi aylana, kichik o'lchamli aylanalar orasidagi xuddi shunday diametrli aylanaga nisbatan kichik bo'lib ko'rinadi (9-rasm). SHuningdek, predmetning kattaligi idrokiga *uning rangi* ham ta'sir ko'rsatadi. Och rangli jismlar to'q rangli jismlarga qaraganda bir muncha kattaroq bo'lib ko'rinadi. Katta hajmli shakllar, masalan, shar yoki tsilindr^u ularga mos bo'lgan yassi tasvirlardan kichikroqdek tuyuladi.

Predmetning shaklini idrokida konstantlik hodisasi xuddi shunday saqlanib qoladi. Masalan, yon tomonimizda joylashgan kvadrat yoki dumaloq jismga qaraganimizda uning to'r pardadagi proektsiyasi ellips yoki trapetsiya shaklida bo'ladi. SHunday bo'lsada, aynan bir jismni bir xilda, bir shaklga ega holatda ko'ramiz.

Uzoq masofada joylashgan predmet shaklining idroki o'zgarishi mumkin. Predmet uzoqlashgani sayin shaklning mayda detallari yo'qolib boradi, uning shakli sodda ko'rinishga kelib qoladi.

Insonning fazoni idrok qilishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Predmetning uzoqligi va fazo chuqurligining idrok qilishda ko'zlarning *konvergenstiyasi* va *divergentsiyasi* muhim ahamiyatga ega, chunki, predmetlarning idrok etilishi uchun ularning tasviri chap va o'ng ko'zlarning to'r pardasidagi mos nuqtalarga tushishi kerak, bu esa ikkala ko'zning konvergenstiyasiz yoki divergenstiyasiz amalga oshmaydi. *Konvergenstiya deb ko'z soqqalarining bir-biriga nisbatan qarama-qarshi aylanishi hisobiga ko'rish chiziqlarining birlashishiga aytiladi*. Masalan, bu nigohning uzoqdagi predmetdan yaqindagiga o'tishida sodir bo'ladi. Teskari – yaqindagidan uzoqdagi



9-rasm. Predmetlarning kontrastligi

Predmet fazoviy idrokining boshqa xususiyati predmetlarning *kontrastligidir*. Biz idrok etayotgan predmetning atrofidagi boshqa predmetlar uning idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'rta bo'lyli odam bo'ylari baland odamlar orasida o'zining haqiqiy bo'y o'lchamidan ancha kichik bo'lib ko'rinadi. Katta aylanalar o'rtasidagi aylana, kichik o'lchamli aylanalar orasidagi xuddi shunday diametrlilik aylanaga nisbatan kichik bo'lib ko'rinadi (9-rasm). SHuningdek, predmetning kattaligi idrokiga *uning rangi* ham ta'sir ko'rsatadi. Och rangli jismlar to'q rangli jismlarga qaraganda bir muncha kattaroq bo'lib ko'rinadi. Katta hajmli shakllar, masalan, shar yoki tsilindr ularga mos bo'lgan yassi tasvirlardan kichikroqdek tuyuladi.

Predmetning shaklini idrokida konstantlik hodisasi xuddi shunday saqlanib qoladi. Masalan, yon tomonimizda joylashgan kvadrat yoki dumaloq jismga qaraganimizda uning to'r pardadagi proektsiyasi ellips yoki trapetsiya shaklida bo'ladi. SHunday bo'lsada, aynan bir jismni bir xilda, bir shaklga ega holatda ko'ramiz.

Uzoq masofada joylashgan predmet shaklining idroki o'zgarishi mumkin. Predmet uzoqlashgani sayin shaklning mayda detallari yo'qolib boradi, uning shakli sodda ko'rinishga kelib qoladi.

Insonning fazoni idrok qilishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Predmetning uzoqligi va fazo chuqurligining idrok qilishda ko'zlarning *konvergenstiyasi* va *divergentsiyasi* muhim ahamiyatga ega, chunki, predmetlarning idrok etilishi uchun ularning tasviri chap va o'ng ko'zlarning to'r pardasidagi mos nuqtalarga tushishi kerak, bu esa ikkala ko'zning konvergenstiyasiz yoki divergenstiyasiz amalga oshmaydi. *Konvergenstiya deb ko'z soqqalarining bir-biriga nisbatan qarama-qarshi aylanishi hisobiga ko'rish chiziqlarining birlashishiga aytiladi*. Masalan, bu nigohning uzoqdagi predmetdan yaqindagiga o'tishida sodir bo'ladi. Teskari – yaqindagidan uzoqdagi

jismga o'tishida – ko'z divergentsiyasi, ya'ni ko'rish chiziqlarining ajralishi kuzatiladi.

Vaqt idroki qo'zg'alish va tormozlanishning ritmik almashinishi bilan bog'liq. Qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lingan vaqt qisqa tuyiladi. Vaqtning davomiyligini va ketma-ketligi (biologik soat) ni idrok qilish jarayoni vaqt idrokining asosida yotadi.

Vaqt idrokida ikki jihat ajratiladi:

1. Subyektiv, ya'ni bo'layotgan hodisalarga shaxsiy munosabatimiz bilan bog'liq. U muayyan vaqt bo'lagining qanday hodisalarga boy bo'lgani va ularning emotsional rang-barangligi, qiziqarliligi bilan bog'liq. SHaxs uchun ahamiyatli voqealar kutilganda vaqt juda sekin o'tgandek idrok etiladi. Salbiy voqealar bilan bog'liq vaqt esa cho'zilib ketgandek tuyuladi.

2. SHartli - obyektiv. U hodisalarning obyektiv kechishi va vaqt oraliqlari bilan bog'liq.

Agar birinchi jihat insonning vaqtni his etishini aks ettirsa, ikkinchisi, vaqt yo'nalishida harakatlanishga yordam beradi.

Harakatni idrok qilish. Harakatni idrok qilish mexanizmi murakkab bo'lib, uning tabiati hali to'liq aniq emas. Agar predmet fazoda harakatlanayotgan bo'lsa, u holda biz uni, uning harakatini yaxshi ko'rinish sohasidan chiqishi natijasida idrok qilamiz, bu bilan u bizni nigohimizni unda ushlab turishimiz uchun to'xtatishimiz ko'zimizni yoki boshimizni harakatlantirishimizga majbur qiladi. Bunda ikki hodisa sodir bo'ladi. Birinchidan, predmetning tanamiz holatiga nisbatan surilishi uning fazodagi harakatlanishidan darak beradi. Ikkinchidan, miya predmetni kuzatayotgan ko'zlar harakatini qayd etadi.

Harakat idrokida harakat haqida bilvosita tasavvur yaratuvchi qo'shimcha belgilar muhim rol o'ynaydi. Agar uzoq vaqt davoimida aylanayotgan spiralga qarab turilsa va so'ngra ko'zni to'xtab turgan predmetlarga yo'naltirilsa ularning qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilishini kuzatish mumkin. Harakatlanayotgan poezdning oynasidan uzoq vaqt qarab turilsa, so'ngra poezdning ichidagi turgan predmetga qaralsa. Ular qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilayotgandek tuyuladi. Bu illyuziyalar ketma-ket harakatlanuvchi obrazlar bilan bog'liq.

Harakat idrokining barcha nazariyalarini ikki guruhga ajratish mumkin. Nazariyalarning birinchi guruhi harakat idrokini oddiy,


ketma-ket keladigan ko'rish sezgilarining harakati o'tadigan alohida nuqtalaridan hosil qiladi va harakat idroki bu oddiy ko'rish sezgilarining qo'shilishi natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi (V. Vundt).

Ikkinchi guruh nazariyalarining ta'kidlashiga ko'ra, harakat idroki oddiy sezgilarga bog'liq bo'lmagan maxsus sifatga ega. Bu nazariya vakillari (M. Vertgeymer)ning aytishicha, kuy tovushlarning oddiy yig'indisi emasligiga, ulardan farqlanuvchi yaxlitlik bo'lgani kabi, harakat idroki ham bu idrokni tashkil etuvchi oddiy ko'rish sezgilarining yig'indisiga teng bo'lmaydi.

Vertgeymerning fikriga ko'ra, harakat idroki harakatlanuvchi predmetlarning o'zini idrok qilishdan farq qiluvchi maxsus kechinma hisoblanadi. Agar obyekt turlicha holatdagi idrokining ikki ketma-ketligi bo'lsa, u holda harakat kechinmasi bu ikki sezgilardan tuzilmaydi, balki, o'rtada turib, ularni birlashtiradi. Bunday harakat kechinmasini Vertgeymer *fi – fenomeni* deb atagan.

Illyuziyalar. Ba'zan idrok jarayonida narsalar noto'g'ri, yanglish idrok qilinishi mumkin. Noto'g'ri idrok jarayoni illyuziya deyiladi. Bir narsaning ikkita bo'lib sezilishi *Aristotel's (Arastu) illyuziyasi* deyiladi. Og'irligi aynan teng, ammo kattaligi har xil bo'lgan ikkita buyumni ketma-ketiga ushlab turilsa, kattasi yengilroq, ikkinchisi og'irroqdek tuyuladi. 1kg metallardan ishlangan tarozining toshi, 1kg paxtadan og'irroqdek tuyuladi. Yuqorida bayon qilingan Aristotel's illyuziyasining paydo bo'lish sababi shuki, bunda bitta narsa barmoq uchlarimizning terisi yuzidagi shunday ikki nuqtaga tegadi, odatdagi tabiiy sharoitda esa bitta narsa ana shu ikki nuqtaga hech qachon birdaniga tegib turmaydi. Og'irligi baravar bo'lib, kattaligi har xil bo'lgan buyumlardan kichikrog'i kattarog'iga qaraganda og'ir ko'rinishining sababi shundaki, odam hajmi kattaroq buyumining hajmi kichikroq buyumdan og'ir ekanini o'z tajribasida doimo sinab kelgan. Binobarin, hajmi har xil buyumlarni ko'z bilan idrok qilganda beixtiyor shu tajribasiga tayanadi. Kattaroq buyumni ushlaganida ko'proq zo'r beradi. Kichikroq buyumni qo'lga olganida, uncha zo'r bermaydi. Natijada og'irligi baravar bo'lgani bilan zo'r berish yoki muskullarning qarshilik ko'rsatishi uchun sarf qilingan kuch darajasi har xil bo'lganligidan kichikroq buyum og'irroqdek his qilanadi.

Idrok hamisha ham obyektiv olamdagi narsalarning aynan o'zini aks ettirmaydi. Idrok etishdagi ko'plab xatolarga ko'rish illyuziyalari sabab bo'ladi (10-rasm).



10-rasm. Ko'rish illyuziyasi


Kamon o'qining illyuziyasi. Garchi ikkala o'q amalda baravar uzunlikda bo'lsa ham ikkinchisi birinchisidan uzunroq tuyuladi (11-rasm).



11-rasm. Kamon o'qining illyuziyasi


Temir yo'l izlarining hayoliy ko'rinishi. Garchi har ikkala iz ham aslida baravar bo'lsa ham, bir-biriga to'g'ri keladigan ikkala to'g'ri iz oralig'idagi bo'shliqning ancha tor qismidagi chiziqlar uzunroqdek tuyuladi. (12-rasm)

Kesishishning illyuziyasi. Bitta to'g'ri chiziqda ehtimol VX chiziqlari emas, balki AX chiziqlari o'tadi (13-rasm).



12-rasm. Temir yo'l illyuziyasi



V
A



X

13-rasm. Kesishishning illyuziyasi

Umumiy markazli doiralarning illyuziyasi. Rasmda aks ettirilgan umumiy markazli doiralari to'g'ri chiziqlarning qisqa bo'laklari (oq rangda tasvirlangan) ushbu doiralarni ularning muhit bilan kesishgan joyidan kesib o'tganligi sababli burma chiziq singari idrok etiladi. (14-rasm).



14-rasm. Umumiy markazli doiralarning illyuziyasi

Idrokning buzulishi hodisasi gallyutsinatsiyadir. Ba'zan gallyutsinatsiyani illyuziya bilan adashtirib yuboriladi. Illyuziya ayni shu lahzalarda shaxsning sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan biror

narsani yanglish, noto'g'ri idrok qilish jarayonidir. Gallyutsinatsiya esa ayni vaqtda reallikda mavjud bo'lmagan narsalarning real idrok qilinishidir. Masalan, gallyutsinatsiyada mavjud bo'lmagan odamlar ko'zga ko'rinishi mumkin. Gallyutsinatsiya asab tizimi bironta zaharli narsa (alkogol, kokain, nasha) bilan ta'sirlanganda ham sodir bo'ladi.

Idrokning rivojlanishi. Bola tug'ilganida unda idrok xali rivojlanmagan bo'ladi. Go'dak dunyoni predmetli idrok qila olmaydi. B.M.Teplovning fikriga ko'ra, predmetli idrok belgilari predmetlar bilan harakatlar shakllana boshlagandan keyin paydo bo'ladi (2-3 oylikda). Besh -olti oylikda bola nigohini predmetlarda ushlab tura boshlaydi. Kattalar bilan muloqot idrokning rivojlanishiga yordam beradi. Bog'cha yoshi davrida o'yin faoliyatida, kichik maktab yoshi davrida o'qish faoliyatida bolada idrokning yaxlitligi rivojlanadi. Lekin ularda idrok tasodifiy belgilarga asoslanadi.

Ta'lim jarayonida idrokning rivojlanishi bir necha bosqichdan o'tadi. Birinchi bosqich predmetlar bilan harakatlar jarayonida predmetning adekvat obrazining shakllanishi bilan bog'liq. Keyingi bosqichda bolalar ko'z va qo'l yordamida predmetlarning fazoviy xususiyatlari bilan tanishadilar. Maktabda ta'lim jarayoni idrok qilinayotgan obyektlarning xususiyatlarini hech qanday harakatsiz farqlash, solishtirish, taqqoslash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalarda idrokni rivojlantirish uchun:
obyektni muayyan ketma-ketlikda ko'rish;
muhim xususiyatlarni nomuhimdan ajratishga o'rgatish;
muayyan predmet va hodisalarni solishtirish, taqqoslash, o'xshash va farqlarini topish, ularning orasidagi bog'lanishlarni o'rnatishga o'rgatish muhim.

DIQQAT

Insonga muntazam ravishda juda ko'p qo'zg'atuvchilar ta'sir ko'rsatadi. Inson ongi ularning hammasini qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Inson bu qo'zg'atuvchilar ichidan o'zi uchun qiziqarlisini, o'z ehtiyojlariga, hayotiy rejalariga javob beradiganini tanlab oladi. Mana shu fenomen diqqatdir. Psixologik fenomen tizimida diqqat alohida ahamiyatga ega. U barcha psixik jarayonlar va holatlarda ishtirok etadi. Diqqat insonning barcha faoliyatlarida ishtirok etadi.

Eng oddiy faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatgacha hammasi diqqatning ishtirokisiz amalga oshmaydi. SHu sababli ba'zi olimlar uni alohida hodisa sifatida o'rganilishiga qarshi chiqadilar. Boshqalari esa diqqatning alohida psixik jarayon ekanini e'tirof etadilar.

Diqqat sezgi a'zolari orqali keladigan ma'lumotlardan birini, boshqalarini inkor etgan holda ongli yoki ongsiz tanlash jarayonidir.

Psixologiya fanida diqqatga har xil tarif beriladi, uni yoritishda psixolog olimlar turli nazariyalarga asoslanib yondashadilar. P.I.Ivanov ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv (faol) qaratilishini diqqat deb hisoblaydi. Demak P.I.Ivanovning fikriga ko'ra, insonning faoliyat jarayonida amalga oshirgan harakatlari, fikrlari, o'ylari, tasavvurlari va boshqa hodisalar diqqatning obyekti bo'la oladi.

A.V.Petrovskiyning fikricha, diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqazo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir. Bu ta'rifga ko'ra yo'naltirilganlik, subyektning ehtiyojlariga, uning faoliyati maqsadlari va vazifalariga mos keladigan obyektlarning tanlanganligida, ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy tanlashda va ajratishda vujudga keladi.

Bundan tashqari, diqqatning psixik hodisalarning qaysi sinfiga tegishliligi haqida ham turli fikrlar mavjud. Ba'zilarning ta'kidlashiga ko'ra, diqqat – bu psixik bilish jarayoni. Boshqalar diqqat har bir faoliyatning zarur sharti ekanligiga, diqqatning o'zi esa ma'lum iroda kuchlarining ifodalanishini talab etishiga asoslangan holda, diqqatni iroda va insonning faoliyati bilan bog'laydilar.

Diqqat hodisasini tushuntirishning murakkabligi, uning “toza” ko'rinishda uchramasligidan iborat. Diqqat o'zining bilish mazmuniga ega emas, u faqat boshqa bilish jarayonlari faoliyatiga xizmat ko'rsatadi. SHuning uchun diqqatni bilish jarayonlarining o'sish xususiyatlarini xarakterlovchi holat, psixofiziologik jarayon sifatida o'rganish zarur. Diqqat o'zi nima?

Diqqat - bu inson ongining muayyan obyektlarga yo'nalganligi va unda to'planishidir.

Ongning yo'nalganligi deyilganda uning tanlash xususiyati, ya'ni subyekt uchun ahamiyatli, qiziqarli bo'lgan aniq predmet yoki hodisalarga qaratilishi tushuniladi.

Diqqatning boshqa xususiyati uning faoliyatga u yoki bu darajada chuqurlashganligini tushuntirib beruvchi *to'planishidir*. To'planganlik boshqa narsalardan chalg'ish bilan bog'liq jarayon.

Yo'nalganlik va to'planganlik bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq. Diqqat biror-bir narsaga yo'naltirilganda diqqat unda to'planadi ham.

Diqqatning inson psixik faoliyatida tutgan o'rnini tushunish uchun ongni biror bir predmetga yo'naltirish kerak. Ko'rish maydonining markazida joylashgan predmet aniq, ko'rish maydonining chetida turganlari esa aksincha idrok etiladi.

Insonlararo munosabatlar tizimida diqqat o'zaro hamfikrlik, odamlarning bir-birlariga moslashishi, shaxslararo nizolarning oldini olish va o'z vaqtida hal etishga yordam beradi.

SHuningdek, diqqat o'qish va mehnat faoliyatining ham zaruriy shartidir.

Diqqat jarayonining ilmiy-nazariy va fiziologik asoslari

Diqqat boshqa psixik jarayonlar qatori ma'lum fiziologik hodisalar bilan bog'liq. Diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'stlog'idagi "optimal qo'zg'alish nuqtasi" tashkil qiladi. Buni I.P.Pavlov: "Agar bosh suyagiga qaraganda uning ichidagi miya ko'rinadigan bo'lsa, agar miya katta yarim sharlarida ortimal qo'zg'alish uchun eng yaxshi sharoit tug'ilgan nuqtasi yiltillab ko'rinadigan bo'lsa edi, ongi sog'lom bo'lib, bir narsani o'ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda, uning miyasining katta yarim sharlarida juda g'alati jimjimador shakl bo'lib, surati va hajmi har lahzada bir o'zgarib, turlanib, jimir-jimirlab turuvchi yorug' narsalarning u yoqdan-bu yoqqa yugurib qimirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug' narsa atrofidagi boshqa yerlari bimmuncha xira tortib turganini ko'r ar edik"¹⁶ deb tasvirlaydi.

Ma'lum yo'nalishdagi alohida qo'zg'atuvchilarni ajratish va jarayonlar keclushining fiziologik asosini ba'zi asab markazlarining qo'zg'alishi, boshqalarining esa tormozlanishi tashkil etadi. Odamga ta'sir ko'rsatayotgan qo'zg'atuvchi retikulyar formatsiya tomonidan amalga oshiriladigan miya faollashishini yuzaga keltiradi.

Retikulyar formatsiyaning "ishga tushirish" mexanizmlari ichida *taxminiy refleksni* alohida ta'kidlab o'tish lozim. CHunki, bu refleks odam va hayvon organizmlarining atrof-muhitning barcha

¹⁶ (Полное собрание сочинений, III том, 1-китоб, 248 бет).

o'zgarishlariga nisbatan tug'ma reaksiyasi hisoblanadi. Masalan, jimjit xonada kitob o'qib o'tirgan inson eshik ochilishi bilan eshikka qaraydi.

Diqqatning fiziologik mexanizmlari juda murakkabdir. D.E.Brodvent diqqat – ma'lumotni kirib kelishda, ya'ni periferiyada tanlab o'tkazuvchi filtr deb hisoblagan. Uning fikriga ko'ra, agar odam bir vaqtning o'zida turli ma'lumotni ikki qulog'i bilan qabul qilgan bo'lsa, lekin yo'riqnomaga binoan faqat chap qulog'i bilan qabul qilishi zarur bo'lgan holatda, o'ng quloqqa uzatilgan ma'lumot umuman qabul qilinmaydi. Keyinchalik periferik mexanizmlar ma'lumotni tanlab o'tkazishi aniqlangan.

Diqqatning *markaziy* mexanizmlari bir xil asab markazlarining qo'zg'alishi, boshqalarining tormozlanishi bilan bog'liq. Asab qo'zg'alishining kuchi bilan bog'liq bo'lgan tashqi ta'sirlarni ajratish aynan shu darajada sodir bo'ladi. Kuchli qo'zg'alish u bilan bir vaqtda sodir bo'lgan kuchsiz qo'zg'alishni siqib chiqaradi va psixik faoliyatning muvofiq yo'nalishda kechishini belgilaydi. Lekin bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatib, bir-birini kuchaytiruvchi bir yoki ikki qo'zg'atuvchilarning qo'shilish ehtimoli ham mavjud.

Diqqatning fiziologik asoslari haqida gap yuritilganida, yana ikki muhim hodisa: asab jarayonlarining irradiatsiyasi va dominantlik haqida aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. CH. SHerrington tomonidan belgilangan va akademik I.P. Pavlov tomonidan keng qo'llanilgan asab jarayonlarining induktsiyasi qonuniga binoan, bosh miya po'stlog'ining biror sohasida yuzaga keladigan qo'zg'alish boshqa sohaslarining tormozlanishiga sabab bo'ladi (baravar induktsiya) yoki miya ushbu sohasining tormozlanishi bilan almashinadi (ketma-ket induktsiya). Irradiatsiya hodisasi sodir bo'ladigan bosh miya po'stlog'i sohasida qo'zg'alish uchun qulay sharoitlar yaratilgani uchun darajalar oson ishlab chiqariladi, yangi shartli aloqalar samarali tarzda o'rnatiladi. Bu fiziologik jarayonlar diqqatni ta'minlaydi.¹⁷

Akademik A.A. Uxtomskiy tomonidan oldinga surilgan dominantlik printsipiga ko'ra, miyada doimo ma'lum vaqt ichida asab markazlari ishini muvofiqlashtirib turuvchi va bu bilan insonning xatti-harakatiga ma'lum bir yo'nalganlik beruvchi qo'zg'alishning

¹⁷ Г.Югай, Н.Мираширова "Умумий психология". Тошкент. 2015. 134 б

vaqtincha hukmron o'chog'i mavjud bo'ladi. Dominantlik xususiyatlariga asoslangan holda asab tizimiga keluvchi impulslar bu yerda to'planadi. Bu vaqtda boshqa markazlar faolligi susayadi, buning hisobiga qo'zg'alish kuchaytiriladi. Bu xossaga binoan, dominantlik qo'zg'alishning barqaror o'chog'i hisoblanadi, bu esa o'z navbatida diqqat jadalligini mustahkamlovchi asab mexanizmini tushuntirishga imkon yaratadi.

SHunday bo'lsada, na asab jarayonlari induktsiyasi qonuni, na dominantlik ta'limoti diqqatning, ayniqsa, ixtiyoriy diqqatning mexanizmlarini to'laligicha ochib bera olmaydi. SHuning uchun, hozirgi zamon fanining taraqqiyoti diqqatning fizilogik mexanizmlarini tushuntirib berishga urinayotgan qator kontseptsiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari neyrofiziologik jarayonlarga ko'proq e'tibor ajratadilar. Sog'lom odamlarda diqqatning zo'riqishi sharoitlarida miyaning istalgan sohasida bioelektrik faollikning o'zgarishlari yuzaga kelishi aniqlandi. Bu faollikni peshona sohasida joylashgan neyronlarning alohida turi faoliyati bilan bog'laydilar. Neyronlarning birinchi turi -- "yangilik detektorlari" yangi rag'batlar ta'sirida faollashadilar va ularga o'rganib qolish darajasiga ko'ra faollikni kamaytiradilar. Ulardan farqli ravishda "kutish" neyronlari organizmning dolzarb ehtiyojini qondirish xususiyatiga ega bo'lgan obyekt bilan uchrashganidagina qo'zg'aladilar.

SHunday qilib, diqqat bir-biri bilan o'zaro bog'langan miya tuzilmalarining yaxlit tizimi faolligi bilan ta'minlanadi. Diqqat fiziologik mexanizmlarining o'ta murakkab tuzilishi va uning tabiatiga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar diqqatning bir qator psixologik nazariyalarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Diqqatning nazariyalari orasida T. Ribo nazariyasi keng ommalashgan nazariya hisoblanadi. Bu nazariyaga muvofiq diqqat har doim hissiyotlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yordamida vujudga keladi. Ixtiyoriy diqqatning jadalligi va davomiyligi diqqat obyekti assotsiatsiyalangan emotsional holatning jadalligi va davomiyligi bilan ta'minlaganligi sababli, hissiyotlar va ixtiyoriy diqqat o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud.

T. Ribo diqqat doimo organizmning jismoniy va fiziologik holatlarining o'zgarishlari bilan birgalikda kechishini ta'kidlagan. Diqqat tabiatini tushuntirishda Ribo harakatlarga alohida o'rin

ajratadi. Uning fikricha, diqqatning jamlanganlik holati organik reaksiyalar bilan birga diqqatni ma'lum darajada tutib turishning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladigan tana, yuz, gavda, oyoq-qo'llar qismlarining harakatlari bilan birgalikda kechadi. Biror-bir obyektida diqqatni jamlash va ushlab turishga ketkaziladigan urinish har doim fiziologik asosga ega bo'ladi. Ribo bu holatga, mushak zo'riqishi mos keladi, diqqatning chalg'ishi esa, mushak charchog'i bilan bog'liq bo'ladi degan fikrni bildirgan. Bundan kelib chiqadiki, ixtiyoriy diqqat harakatlarni boshqarish qobiliyatidan iborat. SHuning uchun ushbu nazariya *diqqatning motorika nazariyasi* deb nomlangan.

D.N. Uznadzening fikriga ko'ra, diqqat mayl bilan bog'langan. CHunki, mayl diqqat holatini ichkaridan ifodalaydi. Mayl ta'siri ostida ma'lum obraz yoki taassurotning ajralishi sodir bo'ladi. Bu obraz yoki taassurot diqqat obyektiga aylanadi, jarayonning o'zi esa obyektivlashtirish deb nomlanadi.

P. Ya. Gal'sperin diqqatning quyidagi ta'rifi ni ilgari surgan:
diqqat mo'ljal olish-tadqiqot faoliyatining turlaridan biri;
diqqatning funktsiyasi faoliyatning ustidan nazoratni amalga oshirish;

diqqat alohida natijaga ega emas;
diqqatning barcha konkret harakatlari yangi aqliy harakatlar shakllanishining natijasidir.

Diqqatning vazifalari va turlari.

Diqqat insonning psixik faoliyatida bir qator vazifalarni bajaradi:
Organizmga kelayotgan ma'lumotlarni maqsadga yo'nalganlik bilan tanlab o'tkazilishini tashkil etadi;

Idrokning aniqligini, xotiraning mustahkamligini, aqliy faoliyatning mahsuldorligini ta'minlaydi;

SHaxslararo munosabat tizimida muhim rol o'ynaydi.

Psixologiyada diqqatning bir qator turlari tavsiflanadi. Insonning diqqati tashqi olamdagi predmetlarga va hodisalarga yo'naltirilganligiga yoki insonning ichki olamiga (fikrlari, hislari, kechinmalariga) yo'naltirilganligiga ko'ra ichki va tashqi diqqat ajratiladi.

Namoyon bo'lish shakliga ko'ra guruhiy va individual bo'ladi. Diqqatning biror obyekt, predmet va hodisada ushlab tura olish qobiliyatiga ko'ra barqaror va beqaror diqqat ajratiladi. Diqqatning bir obyektidan boshqasiga o'tishi oson yoki qiyin bo'lishi mumkin.

Diqqatni ushlab turishda irodaning ishtirokiga ko'ra ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoriydan keyingi diqqat ajratiladi (13-sxema)/



13-sxema. Diqqatning turlari

Ixtiyorsiz diqqat stixiyali tarzda paydo bo'ladi. Uning paydo bo'lishi uchun irodaviy kuch kerak emas. U mazkur vaqtda tevarak atrofdagi hayotiy ma'no kasb etadigan obyektga yo'naltiriladi. Ixtiyorsiz diqqatning paydo bo'lishiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Obyektiv omillarga quyidagilar kiradi:

predmet va hodisalarning xususiyatlari (rangi, tovushi);

yangiligi;

dinamikligi (harakatsiz obyektlar fonida harakatlanishi);

kontrastligi (baland bo'yi qiz va past bo'yi yigit).

Subyektiv omillarga:

dominant motivatsiya (qorni och odam ovqat bilan bog'liq obyektga e'tiborini qaratadi);

bilish yoki faoliyat obyektiga munosabat (kitob magazinida inson o'z kasbiga oid kitobga e'tibor beradi).

Ixtiyoriy diqqat manbalari subyektiv omillar bilan belgilanadi. Ixtiyoriy diqqat oldindan qo'yilgan va rejalashtirilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishini faol boshqarishdan iborat. Ixtiyoriy diqqat quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

Maqsadga yo'nalganligi;

Faoliyatning tashkil etilganligi xarakteri;
Barqarorligi.

Ixtiyoriy diqqat inson oldiga vazifa qo'yilganda va bu vazifaning yechimi irodaviy kuchni talab etganda vujudga keladi. Bu insonning o'z qiziqishlari bilan bog'liq vazifa bo'lishi mumkin. SHuningdek, o'z burchini anglash bilan bog'liq ham bo'lishi mumkin.

Diqqatning yana bir turi mavjud bo'lib, u ixtiyoriydan keyingi diqqat deyiladi. Bu diqqatni N.F.Dobrinin shunday nomlagan. Bu diqqat turi ixtiyoriy diqqatga o'xshash, maqsadga yo'nalganlik xususiyatiga ega bo'lib, dastlab iroda kuchini talab etadi. Lekin odam faoliyatning ichiga kirib borib, uning mazmuni bilan qiziqib qolgandan so'ng irodaviy kuch kerak bo'lmay qoladi. Diqqat ixtiyoriydan keyingi diqqatga aylanadi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqatda ixtiyoriy diqqatning elementi (maqsadning mavjudligi) va ixtiyorsiz diqqatning elementi (uni ushlab turish uchun irodaviy kuchning kerak emasligi) ni o'zida jamlaydi. U ongli maqsadlar bilan bog'langan holatda qoladi va ongli qiziqishlar tomonidan quvvatlab turiladi. SHu bilan birga, ixtiyoriy diqqatdan farqli ravishda ixtiyoriydan keyingi diqqatda iroda kuchi ishtirok etmaydi.

Diqqatning ko'rib chiqilgan uch turi bir-biri bilan bog'langan bo'lib, biri ikkinchisiga tayanadi.

Diqqatning xususiyatlari. Insonning diqqati beshta asosiy xususiyatga ega. Bular diqqatning kuchi va barqarorligi, jamlanishi, taqsimlanishi, bo'linishi, diqqatning ko'lami.(5-sxema).

Diqqatning kuchi va barqarorligi uzoq vaqt davomida bitta faoliyat predmetida, obyektida fikrni jamlay olishlik qobiliyatida namoyon bo'ladi. U predmetlar bilan faol amaliy faoliyatda, aqliy faoliyatda saqlanadi. Diqqat barqarorligining ko'rsatkichi uzoq vaqt davomida faoliyat mahsuldorligining saqlanishidir.

Diqqatning barqaror bo'lishiga yordam beruvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

insonning individual-fiziologik xususiyatlari (inson asab tizimining xususiyatlari, organizmning umumiy holati);


faoliyat motivatsiyasi (faoliyat predmetiga qiziqishning mavjudligi yoki yo'qligi, uning shaxs uchun ahamiyati);

yangi faoliyat yoki obyekt murakkabligining oshishi (murakkab obyektlar faol aqliy faoliyatni vujudga keltiradi);

ijobiy hissiyotlar, faoliyatdan qoniqish hissi.

Asab tizimining kuchsizligi, kasallik, charchoq, chalg'ituvchi omillar diqqatning barqarorligini susaytiradi.

Masalan, diqqatning barqarorligini oddiy tajribada tekshirish mumkin: kesik piramida (17-rasm) beriladi: agar unga ma'lum vaqt davomida tikilib turilsa, u ketma-ket, yo qavariq, yo botiq bo'lib ko'rinadi.



17-rasm. Kesik piramida

Harakatsiz, o'zgarmayotgan obyektida passiv diqqat 5-6 soniyaga teng. Yuqoridagi kesik piramidada diqqatni yo qavariq holda yoki botiq holda mana shu vaqt davomida ushlab turish mumkin.

Diqqat barqarorligini o'lchash uchun alohida harflarning tartibsiz ketma-ketligidan iborat Burdon jadvalidan foydalanish mumkin.

Diqqatning jamlanishi – uning obyektida jamlanish darajasidir. Diqqatning jamlanishi bosh miya po'stlog'idagi kuchli qo'zg'alish o'chog'ining vujudga kelishi va shu vaqtning o'zida boshqa qismlarda tormozlanish natijasidir. Diqqatning bir obyektida jamlanishi, boshqa obyektlardan chalg'ishni bildiradi. Diqqatning jamlanishi miyaga kelayotgan ma'lumotlarni anglash va eslab qolishning zarur sharti. Odam bir kitobga qiziqib, unda diqqatini jamlaganda atrofdagi shovqinni eshitmaydi.

Diqqatning taqsimlanishi. Insonning o'z diqqat markazida ma'lum miqdordagi obyektlarni ushlab tura olish qobiliyati. Misol uchun Yu.TSezarъ fenomenini keltirish mumkin. U bir vaqtning o'zida yetti xil bir –biri bilan bog'lanmagan faoliyat bilan shug'ullana olgan. Ba'zi shaxmatchilar bir paytning o'zida bir necha odam bilan shaxmat o'ynashlari mumkin.

Diqqatning taqsimlanishi ba'zi kasblar uchun juda muhim hisoblanadi. Masalan, bir necha stanokning ishini kuzatish lozim bo'lganda.

Diqqatning taqsimlanishi faoliyatni egallash jarayonida rivojlanadi. SHuningdek mashqlar yordamida ko'nikmalarni shakllantirish davomida ham rivojlantiriladi. Lekin bir vaqtning o'zida jiddiy aqliy zo'riqishni talab etadigan faoliyatni amalga oshirish qiyinchilik tug'diradi.

Diqqatni taqsimlash darajasi bir qator sharoitlarga bog'liq:

mujassamlashtirilgan faoliyat turlari xususiyatiga (ular bir jinsli va turli xil bo'lishi mumkin);

murakkabligiga (ruhiy zo'riqishni talab etish darajasiga);

ma'lumligi va odatiyligi darajasiga (faoliyatning asosiy usullarini egallab olish darajasiga) bog'liqdir.

Diqqatning bo'linishi – bu diqqatni bir obyektдан boshqasiga o'tkazish tezligi bilan belgilanadi. Bo'linish ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Agar diqqatning bo'linishi ixtiyorsiz bo'lsa, bu hol inson diqqatining beqarorligini, organizm dam olishga intilayotganini bildiradi. Diqqatning bir obyektдан boshqasiga, bir faoliyatdan boshqasiga bo'linishi ixtiyoriy bo'lsa, u holda u irodaviy zo'riqishni talab etadi.

Diqqatning yengil va oson bo'linishi quyidagi omillarga bog'liq:

oldingi va keyingi faoliyat o'rtasidagi munosabat;

oldingi faoliyatning tugallangan yoki tugallanmaganligi;

subyektning u yoki bu faoliyatga munosabati (faoliyat qanchalik qiziqarli bo'lsa, unga o'tish shunchalik oson bo'ladi va faoliyat qanchalik murakkab bo'lsa, unga o'tish shunchalik qiyin bo'ladi);

subyektning individual xususiyatlari (asab tizimining tipi, individual tajriba);

inson uchun faoliyat maqsadining aniqligi, ahamiyati.

Diqqatning bo'linishi mashq qilinishi mumkin bo'lgan xususiyatdir.

Diqqat hajmi – insonning bir vaqtni o'zida aniq idrok qila olishi mumkin bo'lgan obyekt, ma'lumotlar miqdori. Bir vaqtning o'zida qanchalik ko'p obyekt yoki uning elementlari idrok qilinsa, diqqatning hajmi shunchalik katta bo'ladi va faoliyat shunchalik samarali amalga oshiriladi. Katta odam diqqatining hajmi bir vaqtda o'rtacha 5-7

obyektga teng. Diqqat hajmini eksperimental aniqlash qisqa muddatli xotira bilan bog'liq.

Diqqatning hajmini aniqlash uchun *taxistoskop* degan maxsus asbobdan foydalaniladi. Bu asbob yordamida sinaluvchilarga idrok etish uchun turli ma'no jihatidan bog'liq bo'lmagan harflar, shakllar taqdim etiladi. Bunda idrok qilinadigan narsalar taxistoskopning ekranidagi teshikdan ko'rsatiladi va bu teshik juda qisqa vaqt ichida bekilib qoladi. Idrok qilinadigan narsalar ma'no jihatidan bir-biri bilan bog'liq bo'lsa yoki bu narsalar yaxlit biror narsaning elementlari bo'lsa, bunda diqqat hajmi katta bo'ladi.

Diqqat xususiyatlarini o'rganishda *parishonxotirlik* haqidagi masala muhim ahamiyat kasb etadi. Parishonxotirlik deb, odatda, diqqatning ikkita bir-biriga qarama-qarshi hodisasiga aytiladi. Birinchi turdagi parishonxotirlik asosiy faoliyatdan ixtiyorsiz chalg'ishdir. Inson bir faoliyatda o'z diqqatini ko'p ushlab tura olmaydi. Qiziqarli ishdan ham tez chalg'iydi.

Parishonxotirlikning bu turi inson diqqatini hech bir narsada uzoq vaqt jamlay olmagan vaziyatda, hech birida ushlanib qolmasdan, muntazam ravishda bir obyektдан ikkinchisiga yoki bir hodisadan ikkinchisiga o'tib turishida kuzatiladi. Bunday parishonxotirlik vaqtinchalik xarakterga ega bo'lishi ham mumkin.

Bunday parishonxotirlikning quyidagi sabablarini ko'rsatish mumkin:

- miyaning ba'zi bir organik kasalliklari;
- asab tizimining umumiy izdan chiqishi;
- qon kasalliklari;
- kislород yetishmovchiligi;
- jismoniy yoki aqliy toliqish;
- og'ir hissiy kechinmalar.

Agar bunday parishonxotirlikning oldi olinmasa, u odatiy tus oladi.

Parishonxotirlikning ikkinchi turi biror bir faoliyatga haddan ortiq "sho'ng'ib" ketib atrofdaagi hodisalar haqida o'ziga hisob bermaslikdir. Bunday parishonxotirlik o'z ishiga berilgan olimlar, san'at olami odamlarida kuzatiladi.

Ko'rinib turganidek, parishonxotirlikning ikki turi ham tabiatiga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi. Birinchisi ixtiyoriy diqqatning bo'shligi, diqqatning biror obyektida jamlana olmasligi bo'lsa.

ikkinchisi haddan ortiq jamlanishidir. Savol tug'iladi "Nima uchun bunday diqqatning jamlanishi kamchilik hisoblanadi?" Chunki haddan ortiq o'z fikrlariga sho'ng'ib ketgan inson atrofda nima bo'layotganini bilmaydi. Bunday odamlar ko'chada jarohatlangan, boshqa dorini ichib zaharlangan, uydan chiqqanda gazni o'chirmagan holatlar bo'lgan. Bir olim uy eshigini qulflab kalitni axlat chelakka tashlab, cho'ntagiga sigaretini solgan va shimi yona boshlagandagina o'ziga kelgan.

Diqqatning rivojlanishi. Diqqat boshqa psixik jarayonlar singari o'zining rivojlanish bosqichlariga ega. Bola hayotining dastlabki oylarida ixtiyorsiz diqqat irsiy mexanizmlar yordamida amalga oshadi. Hayotining uchinchi oyidan o'zining hayoti bilan bog'liq obyektlar bilan qiziqqa boshlaydi. Besh- yetti oyligidan narsalarni ko'proq kuzata boshlaydi, ayniqsa, yorqin predmetlarni. Bu unda ixtiyorsiz diqqatning yaxshigina rivojlanganligini ko'rsatadi.

Ixtiyoriy diqqatning nishonalari, odatda, birinchi yilning oxirida ko'rina boshlaydi. Bolada ixtiyoriy diqqatning shakllanishi undagi yo'nalgan-tadqiqot faoliyati va tarbiya jarayoni bilan bog'liq.

Hayotining ikkinchi –uchinchi yili bolada ixtiyoriy diqqat kattalarning nutqiy ko'rsatmalari ta'sirida rivojlanadi. Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bola o'z harakatlarini o'yin talablariga muvofiqlashtirishni va ularni qoidalarga mos ravishda yo'naltirishni o'rganadi. Ko'pchilik jismlar va hodisalar bilan tanishib borish, oddiy munosabatlarni farqlash malakasining asta-sekin shakllanishi, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlashish, bolalar bilan sayr qilish va o'yinlar o'ynash, ertak, ashula va she'rlar eshitish bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi, shu bilan birga, uning qiziqishlari va diqqatini rivojlantiradi.

Bola to'rt-besh yoshda kattalarning murakkab ko'rsatmasi ostida ixtiyoriy diqqatini yo'naltira boshlaydi. Besh-olti yoshida o'z-o'ziga ko'rsatma berish asosida ixtiyoriy diqqatning oddiy shakli vujudga keladi.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishi va takomillashishi maktab davrida jadal kechadi. Intizomga o'rgatish, o'z xulqini nazorat qilish ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardir.

Maktab davrida ham ixtiyoriy diqqatning rivojlanishi ma'lum bosqichlardan o'tadi. Birinchi sinfda bola mashg'ulotlarda o'z xulqini to'liq nazorat qila olmaydi, unda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi.

Yuqori sinflarda bolaning ixtiyoriy diqqati yuqori darajaga ko'tariladi. O'quvchi yetarlicha uzoq vaqt davomida ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullana oladi, o'z xulq-atvorini nazorat qiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, diqqatning sifatiga tarbiya sharoitlarining o'zigina emas, balki, organizmdagi fiziologik o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi. SHunday qilib, diqqatning rivojlanishida ikki asosiy bosqichni ajratish mumkin: asosiy xususiyati tashqi tomondan belgilangan diqqatning ustunligidan iborat bo'lgan maktabgacha rivojlanish bosqichi va ichki diqqatning jadal rivojlanishi xususiyatiga ega bo'lgan maktab davri rivojlanishi bosqichlaridir.

O'z diqqatini boshqarish ko'nikmasining shakllanishi shaxsning qat'iyatlilik, intizomlilik, tartiblilik va o'z-o'zini nazorat qila olishlik xususiyatlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Diqqatni rivojlantirishning eng yaxshi usuli – o'zini odamlarga e'tiborli bo'lishga o'rgatishdir.

XOTIRA

“Agar sen oldingi xotiralaringni eslash qobiliyatini yo'qotsang sen uchun hayot tugaydi” James Mc.Gaugx¹⁸. Psixolog sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Xotira bu – doimiy va o'zgaruvchan hamda saqlangan ma'lumotlarni o'rganishdir. Xotira ustidagi izlanishlar uning qanday ishlashini tushunishimizga yordam beradi. Masalan 92 yoshli qariya insult bilan kasallangandan so'ng u oldingidek harakatlana olardi. U oilaviy albomlarni ko'rganda qarindoshlarini eslay oladi, arifmo, kundalik yangi suhbatlarni va hatto haftaning qaysi kuni ekanligini eslay olmaydi. U har safar yangiliklarni eshitganda ta'sirlanadi va pochchasining o'limini tez-tez eslaydi. Buning aksi o'laroq Xotira Olimpiadasida medallar sovrindori rus jurnalisti Shereshevskiy boshqa jurnalistlar intervyularni qayd qilsa, u shunchaki tinglardi. Balki biz 7 yoki 9 tagacha bo'lgan raqamlarni takrorlay olarmiz ammo Shereshevskiy 70 tagacha bo'lgan raqamlarni 3 soniya ichida takrorlay oladi. Bundan tashqari, u raqamlarni orqadan oldiniga ham osonlik bilan aytib bera oladi. Hatto u yuzlab ro'yxatlar

¹⁸ David G. Mayers Psychology 2010 by Worth Publishers 327 bet

orasidan 15 yil oldingi ro'yxatni ham aniq aytib bera olgan. U shunday boshlagan: "Biz stol atrofida o'tirgan edik, siz kursida kulrang kastyum kiygan holda o'tirgan edingiz va menga mana bunday holatda qarayotgan edingiz"¹⁹.

Ajablanarli holat shunday emasmi? Siz ham imkoniyatlaringizni sinab ko'rishingiz mumkin. Atrofdagi turli tovushlar, qo'shiqlar, yuzlar, ko'rinishlar, turli joylar, turli ta'm va hidlar mavjud. Tasavvur qiling, siz 2500 ta yuzlar va joylarni har biriga 10 soniyadan vaqt ajratib ko'rdingiz. Keyinroq esa oldingisiga o'xshamagan boshqa 280 ta yuzlar va joylarga e'tibor bering. Ralf Xaberning axborotiga ko'ra siz 90% oldingilarini eslab qolasiz. Keyingi tajriba tasavvur qiling, siz oldin shakli aniq bo'lmagan, har tomonlarga chizilgan rasmni ko'rdingiz, so'ngra shakli aniq bo'lgan to'liq rasmni ko'rdingiz.

David Mitchellning tadqiqotlariga ko'ra to'liq obyektlarni ko'rish va eslab qolish noaniqlariga nisbatan oson va tez. Xotira tadqiqotchilari 1 asrdan ko'proq vaqtdan buyon quyidagi savollarga javob izlamogda: Qanday qilib biz xotira yutuqlariga erishishimiz mumkin? Nima uchun biz, hatto, bir daqiqa oldin uchrashgan insonimizning ismini unutib qo'yamiz? Xotiralar miyada qanday saqlanadi? Nima uchun ayrim narsalarni tez unutimiz ammo alamli, istalmagan hodisalarni unutishimiz qiyin? Qanday qilib bir hodisa ikki shaxsning xotirasida turlicha qoladi? Xotiramiz imkoniyatlarini qanday o'stirishimiz mumkin?²⁰

Insonlarni o'rganish va axborotni qabul qilish bo'yicha 3 turga ajratsak bo'ladi. Bular: eshitish, ko'rish va harakat xotiralar. Bular miyaga kirayotgan xabarning turiga bog'liq.

Ko'rish: bunda yaqqol tasavvurlar hosil qilinadi. Bunda so'z tasavvurdagi manzaralar timsolida xotiraga joylashadi. Doktor Medina fikricha: barcha sezgi organlari ichida eng muhimi aynan axborot qabul qilish bo'yicha mavjud sezgidir.

Vizual xotira cheksizdir. Tadqiqotlardan birida ishtirokchilarga 10000 ta rasm berilgan va so'ng boshqa rasmlar bilan aralashirilgan rasmlarni berib ularni ajratish topshirilgan. 99% aniqlikda rasmlar to'g'ri ajratilgan. Va hatto 3 oydan so'ng ham shu natija takrorlangan.

¹⁹ David G. Meyers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 328 bet

²⁰ David G. Meyers Psycholog, © 2010 by Worth Publishers 329 bet

10% o'qiganda, 20% eshitganda, 30% o'qib eshitganda, 50% eshitib ko'rganlarda, 70% suhbatlashganda, 90% bajarayotganda eslab qolingan. Tevarakdagi ma'lumotlarni hissiyotlarimiz orqali qabul qilamiz. O'rganish va xotirada saqlashning turli usullari mavjud. Har bir odamda ma'lum usullarning majmui mujassam bo'lib turlicha usullarda turlicha o'rganish mumkin²¹.

Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi har qanday ma'lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa, yoki o'zgaransa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Lekin har doim ham bizning professional faoliyatimiz manfaatlariga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. «*Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi*».

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa haqidagi hodisalarni yomonlarini esda qoldiramiz. Bu xotiraning yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma faqlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklari bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog'liqdir. Kuchsiz, irodasiz kishilar har doim

Amerikalik Psixolog olimlar Devid G. Mayers "Psixologlar inson xotira tizimini qanday tasvirlashadi? Xotiraning qanday ishlash modeli bizga xotirani qanday tuzish va avvalgi holatiga qaytarish haqida o'ylashimizga yordam beradi" deb yozadi. Devid G. Mayers "U xotiraga o'ziga xos modelni tavsiya

²¹ David G. Mayers Psychology © 2010 by Worth Publishers 327 bet

yuzaki yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, materialni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga fikrlash qobiliyatiga, ko'nikma va odatlariga ham bog'liqdir. Shunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Hayotimizda xotiraning ahamiyati. Yaxshiyamki xotiramiz bor. Xotira tufayli bizda ajoyib imkoniyatlar borligini so'zsiz qabul qilamiz. Xotira hayotimizni belgilaydi. Xotira tufayli biz oilamizni taniymiz, o'z tilimizda gapira olamiz, uyimizga olib boradigan yo'lni yo'qotmaymiz hamda oziq ovqat va suv joyini aniqlaymiz. Xotira tufayli biz tajribalarimizdan bahramand bo'lamiz va uni qayta qo'llay olamiz. Ammo, ba'zida aynan xotira tufayli aybdorlarni va aybdorligimizni kechira olmaymiz. Biz nimani ko'proq eslasak, u xotiramizning katta qismini egallaydi. Agar xotiramiz bo'lmaganida, o'tgan quvonchli va alamli lahzalarimizni, aybdorlik hissini yoki g'azabni sezmagani bo'lardik. Uning o'rniga biz hozirgi yangi lahzada yashagan bo'lardik. Bunday holatda har bir kishi begona va har bir til yangi hamda har safarda kiyinish, ovqat pishirish va velosiped haydash muammosi kabi muammolar bo'lardi. Biz hatto o'zimizga ham begona bo'lardik. Uzoq o'tmishimiz va hozirgi lahzamiz o'rtasida hech qanday bog'liqlik bo'lmasdi. Xotira tadqiqotchisi Jamesning ta'kidlashicha: "Agar sen oldingi xotiralaringni eslash qobiliyatini yo'qotsang sen uchun hayot tugaydi".

Xotirani o'rganish. Axborot ishlash modellari. Psixologlar inson xotirasi tizimini qanday tasvirlashadi? Xotiraning ishlash modeli bizga xotirani qanday tuzish va avvalgi holatiga qaytarish haqida o'ylashimizga yordam beradi. Odatda ko'p uchraydigan birinchi

model: kompyuterda axborotni ishlash tizimining ba'zi jihatlarini inson xotirasiga o'xshashligidir. Biz har qanday hodisani eslashda: miyamizga ma'lumotlarni olamiz (kodlash), ma'lumotlarni mustahkamlaymiz (saqlash), keyinchalik u ma'lumotlardan foydalanamiz (qayta ishlash). Kompyuterda ham xuddi shunday ma'lumotlarni kodlash, saqlash va qayta ishlash mavjud. Kompyuterda ham ma'lumotlar kodlarda saqlanadi. Kompyuterga ma'lumotlar klaviaturada kiritilsa, miya ma'lumotlarni hissiy kodlashtiradi. Kompyuterda ma'lumotlarni saqlashda chegaralar bor. Ammo, kompyuter xotirasi biznikiga nisbatan aniq va mustahkam. Bundan tashqari kompyuter xotirasida ma'lumotlar jarayoni tez, ammo, inson miyasida bu jarayon sekin va bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishi mumkin. Psixologlar bir necha axborotni qayta ishlash modellarini taklif qilishmoqda. Birinchi zamonaviy model: Muvofiqlik— bir-biriga bog'liq xotiralarning nerv tarmoqlarida paydo bo'lishi. Muayyan xotiralar asosan shu operatorlar tarmog'ida faollashadi. Biroz eskiroq, ammo, oson bo'lgan ikkinchi model: Richard Atkinson va Richard Shiffrin xotirani 3 bosqichda tashkil etishni taklif etdi:

Vaqtinchalik hissiy xotira.

Qisqa muddatli xotira.

Uzoq muddatli xotira.

Bu 3 bosqichli jarayon oddiy bo'lsa-da tarixiy ahamiyatga ega. Bu 3 bosqichli jarayon cheklangan va aniq. Bu yangilangan model 2 ta muhim yangi tushunchalarni keltiradi: birinchi ikki bosqichda ongli xabardorlik. Ishchi xotira uzoq muddatli xotiraga to'g'ridan-to'g'ri va avtomatik ravishda axborot faol qayta ishlanadi. Biz barcha axborotlarni shu zahoti sergaklikda o'ylay olmaymiz. Biz ko'pincha muayyan, yangi yoki muhim bo'lgan axborotlarga e'tiborimizni qaratamiz. Masalan, biz xotiraning hajm quvvatini aniqlashimiz mumkin: tasavvur qiling, sizga alifbodagi biron harf ko'rsatildi, so'ngra oddiy bir savol so'raldi, keyin navbatdagi harf va keyin yana boshqa oson savol so'raldi. Yaxshi natijaga erishganlar savollarga qaraganda harflarni eslab qolishdi. Ular kundalik hayotida asosiy e'tiborlarini vazifalarga qaratishadi.

Hissiy xotira — Xotira tizimida hissiy ma'lumotlarni zudlik bilan qisqa eslab qolish. Bir lahza yuzlaridagi ma'lumotlarni qayd etadi.

Qisqa muddatli xotira – faol xotirada bir necha belgilar aniq saqlanadi, masalan, 7 ta raqamgacha bo‘lgan ma’lumotlarni eslab qolamiz. Aynan shu faoliyatdagi yoki ishlovchi xotira bo‘lishi mumkin. Fikrlashimiz asosida ishlovchi, vazifalarni bajaruvchi ijro etuvchi xotiralar yotadi. Qisqa muddatli xotirani biz bo‘laklarga bo‘lib uzaytirishimiz mumkin.

Uzoq muddatli xotira – xotira tizimidagi doimiy va chegarasiz bog‘liqlik. U nisbatan samarali va mustahkam. Bilim, ko‘nikma va tajribalarni o‘z ichiga oladi. Unutilgan ma’lumotlarni gipnoz yoki elektrlash orqali qayta eslash va uzoq muddatli xotiraga o‘tishini tezlashtirishi mumkin. Uzoq muddatli xotira o‘ziga xos tarzda ishlatilmagan xotiralarni bir chekkada saqlab qo‘yadi. U cheksiz va tashqi ta’sirga moyil emas. Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira vaqti bo‘yicha ham, ma’lumotlarni saqlab qo‘yish bo‘yicha ham farq qiladi.

Atkinson va Shifrinning klassik 3 bosqichli modeli xotira jarayonini tushunishda yordam beradi, ammo bugungi tadqiqotchilar uzoq muddatli xotiraning boshqa yo‘llarini ham topishdi. Masalan ayrim axborotlar xotiraning ongli ishtiroki orqali “orqa eshik”dan uzoq muddatli xotiraga o‘tadi. Ishchi xotirasida ko‘p va faol ishlash qisqa muddatli xotira bosqichida uchraydi. Doktor Penfild faoliyati davomida epilepsiya kasaliga chalingan bemori miyasining qaysi qismi jarohatlanganini bilish uchun bemor miyasining qismlariga kichik elektr toklar jo‘natadi. Bemor og‘riq sezmaydi, chunki miyada og‘riq sezuvchi nervlar yo‘q. Shunda bemor yoshligidagi voqealarni eslayotganini aytdi. Bu doktorning hujayralarga birma bir tegib chiqayotgani natijasi edi. Shundan keyin Penfild o‘z taklifini bildirdi, biz deyarli barcha ma’lumotlarni xotiramizda saqlab qolamiz, gap ularni qayta eslash uchun turtki berishda.

Biz qanday qilib ma’lumotlarni kodlaymiz?

Ba’zi axborotlar masalan: yurish yo‘nalishingiz, tanish voqealar xotira tizimida tanish bo‘ladi. Ba’zida siz telefon raqamlarni yodlash uchun unga diqqatingizni jamlaysiz. Bir vaqtning o‘zida shu faoliyat uchun miya salohiyatiga avtomatik ishlov berish tufayli vazifalarning katta miqdori sizning ongingizda davom etadi. Masalan, kosmos haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlashda ongli harakat yuzaga keladi. O‘rganishda esa sahifadagi ma’lumot materialidan kodlar joylashadi.

Keyinchalik bu ma'lumotni eslash uchun u joylashgan joy va vaqtni tasavvur qilishingiz mumkin.

Makon: O'rganayotganda sahifa joylashgan hudud, ma'lumotni olgan sahifangiz orqali eslab qolish mumkin. Hamda o'rganayotgan xona orqali eslash imkoniyati ham mavjud.

Vaqt: Siz o'rganayotganda kunlik voqealarning ketma-ketligini eslashingiz mumkin, Keyinchalik bu ketma-ketlikni qayta tiklashingiz mumkin.

Takrorlanish: biror voqeaning necha marta sodir bo'lganini eslashingiz mumkin. Keyinchalik tasavvur qilishingiz mumkin. Masalan "men uning uyiga 3-marta borgandim" kabi.

Yaxshi o'zlashtirilgan ma'lumotlar: masalan siz ona tilingizdagi biror so'zni uchratdingiz, uni yoza olmasligingiz mumkin, lekin siz uning ma'nosini aniq tasavvur qilasiz, chunki bu necha yillardan buyon foydalanadigan axborotingiz.

Xotira jarayoni va uning turlari.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. SHu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. «Indvidning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi *xotira* deb ataladi». Lekin mazkur ta'riflarni tahlil qilgan professor E.G'oziev tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. «*Xotira* atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir».

SHuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

SHaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklar bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog'liqdir. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki, yomon xotirleydilar. Aksincha, irodali, materialni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga fikrlash qobiliyatiga, ko'nikmaa va odatlariga ham bog'liqdir. SHunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog'liqdir. SHaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Xotiraning nerv fiziologik asoslari. Esda olib qolish nerv tizimining egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, qo'zg'atuvchilar ta'sirida o'zida go'yo bir iz qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning darajasi har xil bo'ladi. SHaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ravishda rivojlanadi. Atrofni o'rab olgan borliqni faol

biluvchi kishi o'z miyasi faoliyatini o'xtovsiz kuchaytiradi. SHu bilan birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishi, xotira samarasining susayishi, ba'zi paytda odamning toliqishiga sabab bo'ladi. Dam*olgandan keyin yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yosh o'tishi bilan sasayadi. Masalan, keksa kishilar gaplaridan adashib ketadi, ilgari gapirganlari esdan chiqib, o'sha gapni takrorlayveradilar. Miya egiluvchanligining ko'rsatkichi bosh miya po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarini tezlikda vujudga kelishi, davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirilishi hisoblanadi. Muvaqqat nerv aloqalari assotsiatsiyalarni hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir. Assotsiatsiya bizning xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea hodisalarning o'zaro bog'lanishidir. Biror buyumni esda olib qolish, boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda akademik I.P.Pavlovning quyidagi so'zlari juda xarakterlidir. «Muvaqqat nerv bog'lanishlari – deb yozadi I.P. Pavlov hayvonot olamida va bizning o'zimizda ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. SHu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turli-tuman harakat, taassurot bo'lmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlar-ki, bu bog'lanishlarni psixologlar assotsiatsiyalar deb ataydilar».

Xotira, ya'ni esda olib qolish, idrok qilinayotgan narsalardan hosil bo'lgan obrazlar o'rtasida assotsiatsiyalarning yuzaga kelishidan iboratdir. SHu bois inson xotirasidagi assotsiatsiyalar 3 turga ajratiladi. Bular yondoshlik assotsiatsiyasi, o'xshashlik assotsiatsiyasi va qarama-qarshilik assotsiatsiyalaridan iboratdir. Yondoshlik assotsiatsiyasining asosida vaqt va fazoviy munosabatlar yotadi. Boshqacha qilib aytganda, yondoshlik assotsiatsiyasi bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilishdan hosil bo'ladi.

Masalan, bog'chada bolasi har kuni o'zining tarbiyachi opasi va tarbiyalanayotgan guruhini idrok qiladi. Keyinchalik, ya'ni katta bo'lgandan so'ng bog'chasini eslasa tarbiyachi opasi va aksincha, tarbiyachi opasini eslasa, bog'cha guruhi ko'z o'ngida gavdalanadi.

Hozirgi paytda idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o'rtasida ma'lum o'xshashlik bo'lsa, bu narsalar o'rtasida o'xshashlik assotsiatsiyasi hosil bo'ladi. *Masalan*, bola dastavval bog'chaga kelgan paytida bog'cha mudirasining tashqi ko'rinishi,

ovozi va munosabatlarini o'z onasiga o'xshatishi mumkin. Keyinchalik bola onasini ko'rganda, mudira opasini va aksincha mudira opasini ko'rganda onasini eslaydigan bo'lib qoladi. Bu ikkala odamning bola tasavvuridagi obrazlari o'rtasida assotsiatsiya hosil bo'ladi.

Hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o'rtasida qarama-qarshi belgilar va xususiyatlar bo'lsa, bunday narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyasi yuz beradi. *Masalan* yoz-qish, issiq-sovuq kabi narsalar o'rtasida qarama-qarshilik assotsiatsiyalari hosil bo'ladi.

SHunday qilib, xotiraning nerv-fiziologik asosida bosh miya po'stida hosil bo'ladigan shartli reflekslar, turli assotsiativ bog'lanishlar yotadi. Lekin, odam esda olib qolish paytida assotsiatsiyalar hosil bo'lganligini mutlaqo sezmaydi. Har xil assotsiatsiyalarning hosil bo'lganini odam keyinchalik biror narsani esga tushirish paytida bo'ladi.

Xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlari xususida to'xtalar ekanmiz, so'nggi yillarda texnikaning g'oyat tez rivojlanishi natijasida turli esda olib qoluvchi apparatlarga bo'lgan ehtiyoj benihoya ko'payib ketganligini ta'kidlash joiz. Bu o'z navbatida xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlarini psixolog va fiziologlardan tashqari injenerlar, bioximiklar, genetiklar hamda kibernetiklar tomonidan o'rganilishiga olib keldi. Natijada xotiraning nerv fiziologik mexanizmlarini tushuntiruvchi bir qancha yangi nazariyalar maydonga keldi. Ana shunday nazariyalardan eng muhimi molekularning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan bioximik nazariyadir. Bu nazariyaga ko'ra biror narsani esda olib qolish va esda saqlab turish maxsus tuzilishni o'zgarishi bilan bog'liqdir. O'tkazilgan tekshirishlarga ko'ra, biror narsa esda olib qolinganda, asosan nerv hujayralarining (neyronlarning) dendrit shoxlari tarkibida o'zgarish yuzaga keladi. Ular qandaydir boshqacharoq tuzilishga kirib oladilar. Dendritlar tuzilishidagi hosil bo'lgan o'zgarish darrov o'tib ketadigan bo'lmay, ancha mustahkam bo'ladi. SHu sababli esda olib qolgan narsa uzoq vaqt xotirada saqlanib turadi.

Xotira turlari

Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko'rinishga egadirlar. Odatda

xotirani muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasi sifatida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unutish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga bog'liqligi olinadi. SHu * o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim darsliklarda xotira turlari turlicha klassifikatsiya qilinadi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida quyidagi klassifikatsiya uchraydi:

Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab: harakat, emotsional, obrazli va so'z mantiq xotira.

Faoliyatning maqsadlariga ko'ra: ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira.

Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» o'quv qo'llanmasida quyidagi xotira klassifikatsiyasi qayd qilinadi:

Psixik faolligiga ko'ra: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.

Faoliyat maqsadiga ko'ra: harakat, emotsional, obraz va so'z-mantiq xotirasi.

Muddatiga ko'ra: uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira.

E.G'oziev tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» o'quv qo'llanmasida xotira turlari quyidagicha klassifikatsiya qilingan.

1. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra:

a) harakat yoki motor harakat xotirasi;

b) obrazli xotira;

v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;

g) so'z-mantiq xotira.

2. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:

a) ixtiyorsiz;

b) ixtiyoriy;

v) mexanik.

3. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

a) qisqa muddatli xotira;

b) uzoq muddatli xotira;

v) operativ (tezkor) xotira.

4. Ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra:

a) musiqiy;

b) eshitish xotirasi;

5. Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:

- a) fenomenal;
b) kasbiy.



Keltirilgan хотира turlarini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

Harakat xotirasi - inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlarini ustunlik qilishida kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda, fikr va mulohazalarda aks etadi.

Turli harakatlar va ularning bajarilishi tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqalarni esda qoldirish, mustahkamlash, esga tushirishdan iborat xotira turi harakat xotirasi deb ataladi.

Xotiraning boshqa turlariga qaraganda, harakat xotirasi ba'zi odamlarda aniq ravshan ustunlik qilishi uchrab turadi. Psixologiya fanida klassik misolga aylanib qolgan ushbu holatni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: bir musiqa ishqibozi musiqalarni xotirasida mutlaqo qayta tiklay olmas ekan, lekin u yaqindagina eshitgan operani faqat pantomimika tarzidagina qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular o'zlarida harakat xotirasining borligini umuman payqamaydilar. Mazkur xotira turining

g'oyat ahamiyati shundan iboratki, u yurish, yozish, ifodali harakat malakalari bilan bir qatorda har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashkil qiladi. Agar insonda harakat xotirasi bo'lmaganda edi, o'zini har gal «boshdan boshlab» o'rganar edi. Figurali uchish, langar bilan sakrash, gimnastika, chopish, xatti-harakatlar, badiiy gimnastika bilan shug'ullanish harakat xotirasini taqozo etadi. Jismoniy chaqqonlik, mehnat mahorati, «oltin qo'llar», ziyrak ko'zlar, egiluvchanlik va kuzatuvchanlikka ega bo'lish yuksak, barqaror harakat xotirasi mavjudligining alomati bo'lib hisoblanadi.

His-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi. Bu xotira his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. SHuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Voqelikdagi narsa va hodisalardan, o'z-o'zimizga bo'lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish, esda saqlash, esga tushirishdan iborat xotira turi hissiy xotira turi deb ataladi. Boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlanib qolgan hissiyotlar harakatga undovchi va o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlanib qoluvchi signal tarzida namoyon bo'ladi.

Hissiy xotira o'zining vujudga kelish xususiyati, tezligi, dinamikasi, davomiyligi bilan xotiraning boshqa turlaridan ma'lum ma'noda ajralib turadi. Har bir odamga o'z turmush tajribasidan ma'lumki, ko'pincha, qachonlardir o'qigan kitoblar, tomosha qilgan kinofilmlar faqat «taassurotlar», bog'lanishlar zanjirini yechishning dastlabki tuguni sifatida namoyon bo'ladi. SHuning uchun hissiy xotira ijtimoiy ahamiyat kasb etib, umumiylik alohida olingan odamlar kayfiyatlari bir-birlariga o'xshashligi, iliq ruhiy muhitni vujudga keltirish yoki noxush kechinmalar to'ldinini barpo etish ehtimoli to'g'risida mulohaza yuritilayotgan alomati ostida ijtimoiy guruhiiy, jamoaviy, barqaror va beqaror kayfiyatni vujudga keltiradi.

Obrazli xotira - tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta'mlar, ranglar shakllar, bilan bog'liq bo'lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmunni, binobarin, narsa, hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va

bog'lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug'ilganida esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi.

Psixologiya fanida obrazli xotiraning bir necha turlari ajratib ko'rsatiladi va ular quyidagilardan iborat.

Izchil obrazlar sensor xotiraning eng sodda ko'rinishi yoki shakli izchil obrazlardan iboratdir. Izchil obrazlarning namoyon bo'lish hodisasi quyidagilardan tuziladi: agar subyektda bir necha daqiqa oddiy qo'zg'atuvchi yuborilsa, jumladan 10-15 sekund yorqin qizil kvadratga qarab turish taklif etilsa, so'ng tekshiruvchi oldidan kvadrat olib quyilsa, u qizil kvadrat o'rnida xuddi shunday geometrik shakl izini ko'rishda davom etadi. Asosan bu shakl ko'pligi rangda tovlanadi. Mazkur iz o'sha zahoti, ba'zan bir necha sekunddan keyin paydo bo'lib, 15 sekunddan to 45-60 sekundgacha o'sha obyektida saqlanib turadi, shundan so'ng asta-sekin oqara boshlaydi. Natijada o'zining aniq qon turini yo'qotadi, keyinchalik mutlaqo yo'qolib ketadi. Goho butunlay yo'qolishi uchun qaytadan paydo bo'lishi mumkin. Odamlarning individual psixologik xususiyatlariga qarab, izchil obrazlarning aniqligi va davomiyligi turlicha bo'lishi ko'zga tashlanadi.

O'zining kelib chiqishi, kuchliligi jihatidan izchil obrazlar salbiy va ijobiy turlarga bo'linadi. Agar kuchli ravishda odam qizil rangga qarab turib, so'ngra nigohini oq qog'ozga ko'chirsa, u holda obyektida ko'k-yashil rang paydo bo'lganday ko'rinadi. Izchil obrazlarning ushbu turi salbiy, izchil obrazlar deb ataladi. Bu holatni yana bir misol orqali tushuntirilsa, quyidagi ketma-ketlik hodisasi namoyon bo'ladi. Qorong'u xonada ko'z oldida bir narsaga, masalan, qo'l yaqinlashtirilsa so'ngra qisqa muddatli (0,5 sek) elektr chirog'i yoqilsa, bu holda chiroq o'chgandan keyin odam bir necha daqiqa davomida narsalarning aniq obrazini ko'rishda davom etadi. Mazkur obraz o'z rangida bir qancha muddat saqlanib, so'ng ko'zdan yo'qoladi.

Izchil obrazlar xotira jarayonining sodda izlariga misol bo'la oladi. CHunonchi, hodisalarga qarab uzaytirish ixtiyoriy ravishda qayta tiklash mumkin emas. Binobarin, izchil obrazlar ushbu xotiraning murakkabroq turlaridan ana shu jihatlari bilan farqlanadi.

Izchil obrazlarning eshitish turi orqali sezishda kuzatish mumkin, lekin bu vaziyatda izchil obrazlar kuchliroq namoyon bo'lishini va qisqa muddat davom etishi kuzatiladi.

Eydetik obrazlar psixologiyada izchil obrazlardan eydetik obrazlarni farqlash an'ana tusiga kirgan bo'lib, "eydos" yunoncha "obraz" degan ma'noni anglatadi. Xotiraning bu turi, ya'ni eydetik obrazlar o'z vaqtida nemis psixologiya maktabining namoyondalari aka-uka Yenishlar nomidan ta'riflab berildi. Ba'zi odamlar shu davrlarda kuzatilgan narsa yoki suratlar ko'z o'ngidan olib qo'yilsa ham surat siymosi uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega.

Mazkur narsa va jismlarning aniq obrazlari, tasvirlarni kuzatish mumkin. Bu hodisa jahon psixologiya fanida tajribada tekshirib ko'rilgan. Tajribada tekshiriluvchiga 3-4 minut davomida rasm ko'rsatilgan va tasvir olib qo'yilgandan so'ng uning tarkibiy qismlari, tuzilishi haqida qatnashchilarga savollar berilgan. Bu jarayonlarda tekshiruvchilar birorta savolga javob bera olmagan bo'lsalar, aniq texnik obrazga ega bo'lgan ishtirokchilar esa rasmni davom etishgandek har bir savolga aniq javob berishga erishganlar.

Tajribalarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlar uzoq vaqt inson ongida saqlanishi mumkin. Mabodo ularning yo'llari yopilib qolgan bo'lsa ham, lekin hech qanday qiyinchiliklarsiz ularning siymosi qayta tiklanishi mumkin.

Rus psixologiyasida eydetik obrazlarning namoyon bo'lish hodisasi A.R. Luriya tomonidan ko'p yillar davomida o'rganilgan va shunga ko'ra eydetik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta'riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo'lib, subyektlarning oldiga qo'yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta'siri ostida o'zgartirish mumkin.

Aka-uka Yenishlar tomonidan o'tkazilgan oddiy tajribada eydetik xotiraga ega bo'lgan tekshiruvchiga olma va undan sal uzoqroqda joylashgan irmoq tasvirlangan rasm ko'rsatilgan. Rasm o'rtasidan bo'lib, qo'yilgandan keyin tekshiruvchida olmani olib qo'yish istagi kuchayib borayotgani so'ralgan. Muayyan yo'l-yo'riq berilgandan keyin tekshiruvchi mana bunday holatni tasvirlab beradi: irmoq olmaga yaqinlashib, uni iladi va ixtiyorsiz ravishda qatnashchi tomon tortadi. Xullas, eydetik obrazlar harakatchan bo'lib, subyektning ruhiy ko'rsatmasi ostida sifat va miqdor o'zgarishiga yuz tutadi. Ilniy tekshirishlarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlar bolalik va o'spirinlik davrlarida muayyan muddat xukm suradi va vaqtning o'tishi bilan asta-sekin so'na boradi.

Psixofarmokologik tadqiqotlarining ko'rsatishicha, eydetik obrazlarni kuchaytiruvchi kaliy ionlari va shuningdek uning kuchsizlantiruvchi kaltsiy ionlari moddalari mavjuddir. Ilmiy izlanishlardan olingan miqdoriy materiallar eydetik obraz paydo bo'lishining psixologik ildizlarini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Tasavvur obrazlari xotiraning yanada murakkabroq turi bo'lib hisoblanadi va ularning xususiyatlari haqida tasavvurga egamiz. Inson daraxt, meva, gul to'g'risida tasavvurga ega ekanligi shuni ko'rsatadiki, uning ilgari tajribalari subyektning ongida shu obrazlarning izlarini qoldirgan. Ilmiy tushunchalar talqin qilinganda tasavvur obrazlari eydetik obrazlarga juda yaqindek tuyuladi. Lekin eydetik obrazlar haqidagi psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, tasavvur obrazlari unga qaraganda ancha boy bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan ajratuvchi farq tasavvur obrazlarining polimodallik xususiyatidir. Buning asosiy mohiyati tasavvur obrazlari ko'rish, eshitish, teri orqali sezish izlarining tarkibiy qismlarini birlashtiradi. Masalan, meva to'g'risidagi tasavvur obrazi uning tashqi ko'rinishi, mazasi, og'irligi, vaznini o'zaro birlashtirib aks etadi.

Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan asosiy farqi shundan iboratki, u narsa va hodisa haqidagi tasavvurlarni aqliy jihatdan qayta ishlashni o'z tarkibiga kiritadi va jismlarning asosiy xususiyatlari ajratilib, ma'lum kategoriyaga birlashtiriladi. Inson gul obrazini faqatgina esga tushirmaydi, balki uni muayyan bir so'z yoki tushuncha bilan aytadi, nomlaydi, xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi, aniq bir kategoriya mohiyatiga kiritadi.

Demak, tasavvur obrazlarida odamning xotirasi idrok qilingan narsalarning izini sust ravishda saqlab balki, bir qator tasavvur bilan boyitadi, narsa mazmuni va mohiyatini tahlil qilib, u haqida o'z bilimlari, tushunchalari kabilarni tajriba bilan bog'lovchi ijodiy sermahsul faoliyatni amalga oshiradi. Bularning barchasi irodaviy sifatlar, aqliy zo'riqish, asabiy taranglashuv natijasida ruyobga chiqishidan dalolat beradi.

Tasavvur obrazlari xotiraning murakkab faoliyati mahsuli bo'lib, ular izchil yoki eydetik obrazlarga nisbatan murakkab psixologik hodisadir. Tasavvur obrazlari xotira izlarining murakkab turi bo'lib uning aqliy jarayon bilan yaqinligi inson bilish faoliyatini muhim tarkibiy qismidan iborat ekanligidan dalolat beradi.

Soʻz- mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli ularni ifodalash faqat oʻzlashtirilayotgan materiallarning asosiy maʼnosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni soʻzma-soʻz ifodalanishini aynan aytib berishga qaratilgan boʻlishi mumkin. Agar maʼlumot, axborot, xabar, material maʼno jihatidan qayta ishlanmasa, u holda materialni soʻzma-soʻz oʻzlashtirish, mantiqiy oʻrganish boʻlmasdan, balki aksincha mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi.

Soʻz-mantiq xotirasining vujudga kelishida birinchi signal bilan bir qatorda ikkinchi signallar tizimi asosiy hisoblanadi. Chunki soʻz mantiq xotirasi faqat insongagina xos boʻlgan xotiraning maxsus turi hisoblanib, bu xotira turi oʻzining sodda shakllari bilan hayvonlarga ham taalluqli boʻlgan harakat, his-tuygʻu va obrazli xotiralardan sifat, ham miqdor jihatdan keskin farq qiladi. Ana shu boisdan soʻz-mantiq xotirasi bir tomondan xotiraning boshqa turlari taraqqiyotiga asoslanadi, ikkinchidan ularga nisbatan yetakchilik qiladi. SHu bilan birga, boshqa turlarning rivojlanishi soʻz mantiq xotirasining takomillashuviga uzviy bogʻliqdir. Soʻz-mantiq xotirasining oʻsishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi.

Xotira turlariga nisbatan boshqacha tarzda yondashish hollari ham uchraydi. SHu bois xotira faoliyatini amalga oshirayotgan faollik xususiyatlari bilan uzviy bogʻliq ravishda turlarga ajratiladi. Masalan, faoliyat maqsadiga koʻra xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga boʻlinadi.

Ixtiyoriy xotira deganda maʼlum maqsadni roʻyobga chiqarish uchun muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirilishidan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni odam ongi bevosita boshqaradi. Koʻpincha psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qoʻyiladi. Bu jarayon maʼlum kerakli topshiriq yoki vazifa qoʻyilsa, esda olib qolishga yetaklovchi faoliyat biron-bir maqsadni roʻyobga chiqarishga yoʻnaltirilgan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematik topshiriqlarini yechayotganimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻymaymiz. Mazkur soʻz mantiq xotirada asosiy maqsad faqat masala yechishga qaratiladi. Buning natijasida sonlarni esda saqlashga, hech qanday oʻrin ham qolmaydi. SHunga

qaramay, biz ularni qisqa muddat bo'lsa-da, esda saqlashga intilamiz. Bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi.

Esda olib qolishni maqsad qilib qo'yish esda olib qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Serb psixologi Radosavlevich o'z tadqiqotida quyidagi hodisani bayon etadi. Tajribada tekshiriluvchidan biri sinovda qo'llanilayotgan tilni tushunmaganligi tufayli uning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarmagan. Buning oqibatida uncha katta bo'lmagan tadqiqot materiali 46 marta o'qib berilganiga qaramay, esda olib qolinmagan. Tajribaning keyingi bosqichida vazifa tekshiriluvchiga tushuntirib berilgandan so'ng u material bilan olti marta o'qib, tanishib, uni takrorlab, qismga ajratib esga qayta tushirishga erishgan.

Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotining ikkita ketma-ket bosqichlarini tashkil etadi. Ixtiyorsiz xotiraning turmushda va faoliyatda katta o'rin egallashini har kim o'z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri ma'lum maqsadsiz aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumot, xabar, axborot, ta'surotlarning ko'pchilik qismini aks ettirishdir. SHunga qaramasdan inson faoliyatining turli jabhalarida o'z xotirasini boshqarish zarurati tug'ilib qolishi mumkin. Xuddi mana shunday sharoitlar, holatlar, vaziyatlarda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yaratadigan xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga egaligi shubhasiz.

So'ngi paytlarda rus va xorij psixologiyasida xotira borasidagi tadqiqotchilarning e'tiborini esda olib qolishning dastlabki, boshlang'ich daqiqalarida vujudga keladigan holatlar, jumladan tashqi taassurot izlarining mustahkamlanishigacha bo'lgan jarayonlar, holatlar, mexanizmlar, shuningdek, ularning mustahkamlanish muddatlarini ham o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Masalan, biror material xotirada mustahkam joy olish uchun uni subyekt tomonidan tegishli ravishda qayta ishlab chiqish zarur va materialni bunday ishlab chiqish uchun ma'lum darajada muddat talab etish tabiiydir. Ana shu muddat xotirada qayta tiklanilayotgan izlarni mustahkamlash deb qabul qilingan. Mazkur jarayon inson tomonidan yaqindagina bo'lib o'tgan hodisalarning aks sadosi sifatida kechiriladi va takomillashadi. Inson muayyan daqiqalarda, lahzalarda, ayni paytda bevosita idrok qilinayotgan narsalarni go'yo ko'rishda,

eshitishda davom etayotgandek tuyuladi. Ushbu jarayon kelib chiqishi jihatidan beqaror, hatto o'zgaruvchan, lekin ular shu qadar maxsus tajriba orttirish mexanizmlarining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. SHu boisdan ularning roli shu qadar ahamiyatli-ki, bu jarayonlarda esda olib qolish, esda saqlash, axborotlar, ma'lumotlar, xabarlarini qayta esga tushirishning alohida turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayon odatda psixologiya fanida qisqa muddatli xotira deb ataladi.

Juda ko'p qaytarishlar va qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlanib qolishi xarakterli bo'lgan uzoq muddatli xotiradan farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish va shu ondayoq qayta tiklashdan so'ng qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Hozir ilmiy adabiyotlarda qisqa muddatli xotirani quyidagi atamalar bilan nomlash uchraydi: «bir lahzalik», «dastlabki», «qisqa muddatli» va boshqalar.

Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holat operativ xotira deb ataladi. Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyon qilish uchun ushbu misol keltiriladi. Matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni muayyan bo'laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yamiz. SHu boisdan oraliq natijalarni yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqib boshlaydi.

Mazkur holat matnni talaba yoki o'quvchi tomonidan o'qishda, uni ko'chirib yozishda, ijodiy fikr yuritishda, aqliy faoliyatni amalga oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xotira jarayonlari

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. Esda qoldirish idrok qilingan narsa va hodisalarni miya po'stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po'stida muvaqqat nerv bog'lanishining vujudga kelishidir. Esda qoldirish o'zining faolligi jihatidan ikkiga bo'linadi:

- a) ixtiyoriy esda qoldirish;
- b) ixtiyorsiz esda qoldirish.

Ixtiyorsiz esda qoldirishda oldindan maqsad quyilmaydi, mavzu tanlanmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi. O'zining go'zalligi, hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli va boshqa

xossalari bilan farq qiladigan narsa va hodisalar ixtiyorsiz esda qoladi. Masalan, tasodifiy hodisalar, karnay-surnay ovozi ixtiyorsiz esda qoladi.

Ixtiyoriy esda qoldirishda esa oldindan maqsad qo'yib mavzu belgilanadi. Masalan, dars materiallarini esda olib qolish, imtihonga tayyorlanish va boshqalar. Ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:

maqsad qo'yish, masalan, institutga kirish oldidagi maqsad;

o'quv materiallarini tushunib esda qoldirish;

esda qoldirishning ratsional usullaridan foydalanish, masalan, esga tushirish yo'li bilan esda qoldirish.

Beixtiyor esda qoldirishda qiziqish katta rol o'ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog'liq narsa va hodisalar beixtiyor oson esda qoladi. Biz ba'zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushunchaga ega bo'lsa, shu faktlarga tegishli bo'lgan hamma narsalar oson esda qoladi.

Ixtiyorsiz esda qoldirish inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, undan ortiqcha harakat talab qilmagan holda hayoti tajribalarni kengaytiradi va boyitadi. Biroq ixtiyorsiz esda qoldirish tez bo'lsa ham ko'pincha noaniq bo'ladi, bunday esda olib qolingan narsa va hodisalar keyinchalik yanglish esga tushiriladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni esda qoldirishdir. Kishi ixtiyoriy esda qoldirish uchun esda saqlashning maxsus usullarini saqlagan holda materialni puxta esda qoldirish uchun o'zining kerakli kuchini sarf qiladi. Ammo mexanik esda saqlanishni ma'noli esda saqlash bilan qo'llanilishi foydalidir.

Psixologiya fanida esda olib qolishning quyidagi turlari mavjud:

Ma'lumot, xabar, taassurot, axborot va materiallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.

Egallash yoki o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish.

Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.

Aralash holatda esda olib qolish, eshitish, ko'rish, harakat kabilar orqali idrok qilish va esda olib qolish yoki bir nechta ta'sir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Mana shu yo'llar orqali eshitish, ko'rish, eshitish harakat, kombinotorlashtirilgan (aralash) turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri bo'sh ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assotsiatsiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog'lanishlari paydo bo'lish sur'atini aniqlash maqsadida ular xususiyatlariga binoan quyidagi:

Sabab oqibat bog'lanish.

Bo'lak va yaxlit munosabati.

Qarama-qarshilik munosabati.

Inkor etish holati.

Adekvat yoki aniqlik turlarga ajratiladi.

Esda olib qolish inson faoliyatining xususiyatiga bevosita bog'liqdir. A.A.Smironov, P.I.Zinchenko tajribalari shuni ko'rsatadiki, esda olib qolish u yoki bu faoliyatdagina samarali bo'lishi mumkin. A.A.Smironovning tajribalarida tekshirishlarga qaraganda ikki xil faoliyat taklif qilinsa, birinchi holda ular ma'noli matnni esda olib qolish nazarda tutiladi. Sinaluvchilar matnni yodlar ekanlar, materiallar ustida hech qanday faol ish olib bormaganlar. Ikkinchi holda esa esda olib qolish vazifasi qo'yilmaydi-yu, lekin matn ustida muayyan ish olib borish unda uchraydigan ma'noviy xatolarni aniqlash taklif etiladi. Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan.

Maxsus vositalar va oqilona usullarni qo'llash orqali esda olib qolish sohasidagi yondashishdan iborat tashkiliy faoliyat alohida ahamiyatga ega. A.A.Smironov o'tkazgan tajribasida shuni ko'rsatadiki, matnni maxsus tuzib chiqilgan rejaga asoslangan holda yodlash rejasiga, pala-partish esda olib qolishdan ikki barobar samaraliroq ekan, psixolog olimlarning tavsiyasiga binoan yodlash jarayonida materialni takrorlash bilan uni faol esga tushirishni o'zaro almashtirib turish yuqori natijalar beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalar bu usullarni mustaqil ravishda egallay olmaydilar, odatda ularni muallimning rahbarligida egallashadi. Aks holda o'quv faoliyati ishtirokchilari materialni bevosita ixtiyorsiz esda olib qolish bosqichida qotib qolishi mumkin, bu hol aqliy o'sishga qarama-qarshidir.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'quv materiallarining ma'nosiga tushunib esda olib qolish yo'li oqilona yo'l

bo'lib qolmasdan, balki u mexanik esda olib qolish jarayonidan o'zining samaradorligi bilan keskin darajada ajralib turadi.

Esda olib qolish jarayoni deganda sezgi, idrok, tafakkur, ichki kechinmalarni xotirada saqlanish xususiyati tushuniladi. Kundalik hayotimizda kitob, jurnal, gazeta o'qiyotganimizda materialni esda olib qolish uchun shu materialning ma'nosiga tushunib olishga harakat qilamiz. Jamiki narsa insonga yetarli darajada tushunarli bo'lmasa, u taqdirda ularni esda olib qolish jarayoni juda qiyin kechadi. O'rganilayotgan materialning mazmuni va ma'nosiga tushunib olish uchun odam uni tahlil qilishga, umumlashtirishga harakat qiladi. A.A.Smironov ta'kidlaganidek, materialni o'zlashtirib olish xuddi shu jarayonga yaqqol misoldir. Mualliflarning shaxsiy fikriga ko'ra o'zlashtirayotgan materiallarni esda olib qolish qiyinligi sababli ularni tushuna olmaslikdir. Tushunib olishning esda olib qolishdagi ahamiyati xuddi shu bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiya fani to'plagan ma'lumotlarga qaraganda o'zlashtirilayotgan materialni mexanik tarzda egallashga nisbatan uning ma'nosini tushunib o'zlashtirish bir necha marta mahsuldordir.

Esda olib qolish jarayonida o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi muhimdir. Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib 1885 yilda oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani, 1888 yilda intellektni ilmiy tajriba metodi negizida tekshirdi va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. U xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Xotirani «sof» ko'rinishda o'rganishga harakat qilib ma'no kasb etmaydigan bo'g'inlardan foydalandi. Uning bu tadqiqoti kishining mantiqiy xotirasi emas, balki mexanik xotirasiga nisbatan qo'llanishiga xos to'g'ri yo'nalishdir.

G.Ebbingauzning bu tadqiqoti psixologiyada introspektiv (o'z-o'zini kuzatish yoki ichki kuzatish) metodiga qarama-qarshi qo'yilgan ilmiy tajribaviy metod yutug'i sifatida qarama-qarshi qo'yilgan ilmiy tajribaviy metod yutug'i sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. U xotira jarayonini tekshirishda o'z oldiga 38 ta ma'no anglatmaydigan bo'g'inlardan tuzilgan materialni esda olib qolishni maqsad qilib qo'ygan. Bu materialni o'zlashtirish o'rtacha 55 marta takrorlashni talab qiladi. Esda olib qolish uchun 38-40 so'zdan, 11 ta so'z o'zaro bog'liq bo'lmagani so'zlardan foydalangan. Bu materialni

o'zlashtirish 6-7 marotaba takrorlashni talab etgan, umumiy hisob esa 9÷1 nisbatga to'g'ri keladi.

Rus psixologlari tadqiqotlarining natijalari ma'noga ega bo'lgan materialni o'zlashtirishda esda olib qolish uchun turli xil yo'nalish, ko'rsatma berish muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrni tasdiqlaydi. A.N.Leont'ev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikov va boshqalar bolalarning xotira faoliyatini o'rganganlar. SHuningdek, ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar.

I.P.Zinchenko, M.N.SHardakov, A.I.Lipkinalar tadqiqot ishlarining aksariyati shunga bag'ishlangan bo'lib, turli materialni esda olib qolishda tushinishning ahamiyati muhimligini tasdiqlashga intilgan. Bu materialni esda olib qolishga to'g'ri yo'nalish berilishining natijasida material mazmunini tushunib olgan hamda esda olib qolish tezligi, aniqligi, mustahkamligi va to'liqligi ta'minlanadi.

A.A.Smironovning ta'kidlashicha, shu davrgacha hech kim hech bir ilmiy adabiyotlarda bolalarga va quyi sinf o'quvchilariga ahamiyatli bo'lgan materialni mexanik tarzda esda olib qolishlari ko'rsatilmagan.

Nemis psixologi Vil'lyam SHtern (1871-1938) fikricha, bolalarda ham katta yoshdagi odamlarda ham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash kam miqdordir. Bu mulohaza haqiqatdan ham to'g'ri, Meymon fikriga ko'ra, inson ulg'ayishi bilan ma'nosiz materialni esda olib qolish kamayib boradi va kam samara beradi, lekin ma'noga ega bo'lgan bilimlarni esda olib qolishi esa sezilarli darajada rivojlanib boradi. SHunga o'xshash omillar boshqa psixologlar tomonidan ham to'plangan bo'lib, bu haqda boy materiallar umumiy psixologiya xrestomatiyalarida o'z aksini topgan.

A.A.Smironov ma'no anglatmaydigan bo'g'inlarda va ma'no kasb etuvchi so'zlardan tuzilgan material asosida tekshirish o'tkazgan. Katta va kichik yoshdagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishni alohida tekshirish har ikkala yosh davrida mazmunli va mazmunsiz materiallarni esda olib qolishning munosabatini tekshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Ma'no kasb etgan materialni esda olib qolish yosh bolalarga nisbatan kattalarda ustunligi lekin, ma'nosiz materialni esda olib qolish kichik yoshdagi bolalarga qaraganda kam samara bermasligi aniqlangan. Ma'nosiz bo'g'inlar nafaqat kichik yoshdagi bolalarda, balki katta yoshdagilarda ham yaxshi o'zlashtiriladi.

A.N.Leont'ev tadqiqot ishlarida katta yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishi ta'kidlangan. Katta yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. SHuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etadi. SHuningdek, ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materiallarni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Esda olib qolishga hech qanday yo'nalish berilmay,, materialni yaxshi olib qolinishi kishining jadal faoliyati bilan bog'liq. Ixtiyorsiz esda olib qolish faol irodaviy kuch sarflash hisobiga amalga oshadi. A.A.Smironov ma'noli materialni esda olib qolishning bolalar uchun yengil ko'chishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq narsa emasligini ta'kidlab o'tadi. CHunki bolalar hali tushunib olmagan materialni go'yo ma'nosi yashirib yotgandek qabul qiladilar. Matn ma'nosining noma'lumligi unga nisbatan qiziqish, bilishiga intilish mazmunini izlashga talabchanlikni uyg'otadi. Odatda ma'nosiz so'zlarni laboratoriya sharoitiga qaraganda kundalik turmushda puxtaroq eslab qolinadi.

Qator psixolog olimlarning mulohazalariga binoan: 1) materialni esda olib qolish darajasi yosh davrlari xususiyatiga ega emas, balki uning yakkahol shaxsiy xususiyatlariga bog'liqdir; 2) mexanik esda olib qolishning odat tusiga kirib qolishi ham yosh davrlarining xususiyati emasdir; 3) so'z esda olib qolish, mexanik esda olib qolishning biron-bir xususiyatidir. Esga tushirish va uning turlari.

O'tmishda idrok qilingan narsalar, his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qaytadan tiklanishi esga tushirish deyiladi. Esga tushirishning nerv-fiziologik asoslari bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarning qo'zg'alishidir. Esga tushirishning tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma'lum vaqt o'tkazib eslash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari mavjud.

Tanish ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilish natijasida u yoki bu hodisani esga tushirishdir. Tanish aniq va

noaniq bo'lishi mumkin. Noaniq tanishda biz bu narsani notanish emasligini his qilamiz, xolos. Masalan, bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi, lekin uni qaerda ko'rganimizni eslay olmaymiz. To'liq, aniq tanishda esa idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol o'ynaydi. Masalan, biz bir kishini ko'rib, uni taniy olmasak, uning familiyasini yoki ismini eshitsak, darrov kim ekanligini bilamiz.

Eslash narsa va hodisalarni, uni ayni paytda idrok qilmay esga tushirishdir. *Masalan*, bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni, bilib olgan ishlarimizni bemalol esga tushirishimiz mumkin. Eslash ham aniq va noaniq bo'ladi. Masalan, biz she'rni yoddan aytib bersak ham uni qaerda va qachon o'qiganimizni eslay olmaymiz. Esga tushirish avval tanishdan boshlanadi. Masalan, imtihonga kirganda biletni ko'rib, uning savolini o'qib taniymiz. Demak, bunda predmetning nomi muhim rol o'ynar ekan. Bevosita esga tushirish materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat. Masalan, she'rni yod olganimizda bir necha satrni o'qigan kitobga qaramasdan takrorlaymiz, ya'ni bevosita esga tushiramiz. Bir karra ko'zdan kechirilgan materialni bevosita esga tushirilgan miqdoriga qarab, xotiraning ko'lami aniqlanadi.

Materialning ko'p qismini bevosita esga tushira oladigan kishining xotira ko'lami keng hisoblanadi. Masalan, artistlarda so'z va iboralarni esda tutib qolish xotirasining ko'lami keng bo'ladi. Hisob-kitob ishlarini yuritadigan xodimlarda sonlarni esda tushirish xotirasining ko'lami keng bo'ladi.

Vaqt o'tkazib esga tushirish esda olib qolingan narsani oradan bir qancha vaqt o'tkazib esga tushirishdirki, bunda shu orada ongimizda boshqa jarayonlar o'tgandek bo'ladi. *Masalan*, yoshligimizdagi voqea va hodisalarni shu tariqa eslaymiz.

Idrok qilingan narsalar miyamizda o'rnanib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esda saqlash deganda ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his-tuyg'u va ish-harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushuniladi. Bunga sabab asab tizimining egiluvchanligidir. SHuning uchun asab tizimi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga tayyor turadi. Faqat esga tushirish uchun qulay sharoit bo'lsagina esga tushadi. Bunday sharoit bo'lmaganda zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi.

SHunday qilib, esga tushirishda ana shu tariqa qiynalib qolib, zarur bo'lgan narsani shu onda esga tushira olmaymiz.

Unutilgan narsalarni yana xotirada qaytadan tiklanishi reministsentsiya hodisasi (xira esga keltirish) deyiladi. Bu hodisaning sababi shuki, uzoq vaqt bir ish bilan mashg'ul bo'lganda miya charchashi yuz beradi. CHarchash haddan tashqari oshishi natijasida nerv xujayralarida tormozlanish yuz beradi. Materialni esda qoldirilgandan keyin 12 soat ichida esga tushirilsa, materialning ko'p qismi unutiladi. Materialni o'qib o'rganib olingandan keyinoq uni yaxshi xotirlay olmay, ammo oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin uni to'la xotirlay olishlikning sababi materialni o'qib, o'rganib olishda ro'y beradigan charchashdir.

Materialni eslash uchun bo'lgan kuchli xohish natijasida tormozlanish yuzaga keladi, bu esa materialni qayta esga tushirishdagi qiyinchilikni kuchaytirib yuborishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan ishga chalg'ib ketgan insonlarda tormozlanish tarqab ketadi. SHunda esga tushirish lozim bo'lgan narsa xotiraga kiradi. Materialni mustahkamlashga bo'lgan qiziqishning bo'lishi materialni uzoqroq esda saqlashga olib keladi. Unutish vaqtga bog'liq bo'ladi. Bu G.Ebbingauz tomonidan aniqlangan bo'lib, unutish materialni yod olingandan keyin darhol ayniqsa tez ro'y beradi, undan keyin esa unutish ancha sekinlashadi.

G.Ebbingauz unutishning vaqtga bog'liqligini tajriba orqali aniqlagan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha, materialni yod olgandan so'ng unutish sur'ati tez keyinchalik esa u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma'nosiz ayrim bo'g'inlarni unutish ustida olib borilgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda, o'rganilgan narsalar bir soatdan keyin unutiladi. Materialni o'zlashtirish jarayoni mabcoynida xotirlash natijasida unutish sekinlashib boradi. Muvaqqat asab bog'lanishlari susayishi natijasida qachonlardir sodir bo'lgan narsa va hodisalarning o'zaro aloqalari xotirada asta-sekin yo'qolib boradi. Vaqtning o'tishi bilan birmuncha unutilib ketilayotgan vaqtli bog'lanishlarni, ya'ni assotsiatsiyalarni qaytadan tiklash jarayoni kuch-quvvat, xatti-harakatlarni talab qiladi.

G.Ebbingauzning izdoshlari va shogirdlari tomonidan o'tkazilgan juda ko'p tadqiqotlarning ko'rsatishicha, unutish sur'ati materialning ma'noli yoki ma'nosizligiga, uning qanchalik anglanilganligiga bog'liqdir. Material qanchalik mazmundor anglanilgan tushunib

olingan bo'lsa, u holda unutish ham shunchalik sekin kechadi. Lekin ma'noli materialga nisbatan ham unutish avval tez sur'atda bo'lib, keyinchalik esa u sekinlashadi. Biron-bir materialni o'zlashtirish yoki esda olib qolishi insonning ehtiyojlari,*qiziqishi, faoliyatning maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, bu material sekin unutiladi.

Unutishning tezligi esda olib qolingan materialning mustahkamligiga teskari proportsional xususiyat kasb etadi. Demak, esda olib qolishning mustahkamligiga o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega yoki ega emasligiga bog'liqlikdan tashqari yana bir nechta omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi va uning faoliyat mazmuniga aylanishiga ham bog'liq. SHuningdek, ular shaxsning shaxsiy, individual xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Xotiradagi individual farqlar

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorligida ifodalanadi. Bu farqlar ma'lum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bog'liqdir. Individual farqlar yana shunday hollarda namoyon bo'ladiki, ba'zi odamlar obrazli materiallarni, rang, tasvir, narsa, tovushlarni samarali va mustahkam esda olib qoladilar.

Boshqa bir odamlar so'zlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa ma'lum bir materialni esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. SHunga muvofiq psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: ko'rgazmali obrazli xotira, so'z mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. Masalan, ko'rgazmali obrazli xotira tipi ko'proq rassomlarda, so'z mantiqiy tipi nazariyotchi olimlarda uchraydi. Bundan tashqari xotirlash va esda qoldirish jarayonlarida analizatorlarning qatnashishiga qarab, xotira quyidagi tiplarga ajraladi:

a) ko'rish; b) eshitish; v) harakat; g) aralash xotira.

Bir xil kishilar ko'rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to'rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo'shilgan usulida yaxshi esda qoldiradilar. Xotiraning aralash tiplari eng ko'p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

- 1) tez esda qoldirib, sekin unutish;
- 2) tez esda qoldirib, tez unutish;
- 3) sekin esda qoldirib, sekin unutish;
- 4) sekin esda qoldirib, tez unutish.

Xotira tasavvurlari

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga xotira tasavvurlari deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishdan iborat. *Masalan*, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq.

Masalan: ertaklar, romanlar umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanishi xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. Masalan, «ildiz», «o't» so'zlarini to'rt kishiga berib, qanday tasavvur qilishlarini so'rasak, ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz, chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kasbiga ko'ra tushunadi. Masalan, matematik ildizni sonning ildizi deb, botanik o'simlik qismini, uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishi, bosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir.

Tasavvur birorta turtki ta'sirida jonlanadi, masalan, biror odam haqida tasavvurlarning tug'ilishi uchun birorta so'z yoki hodisa turtki bo'ladi. Asosan, maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug'iladi.

Xotira borasidagi nazariyalar

Inson xotirasining qonuniyatlarini o'rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma'lum bir sharoitda qayta namoyon bo'luvchi izlar qoldiradi.

SHuning uchun, xotira deganda, inson tabiat, jamiyat, koinot to'g'risida ma'lumot, xabar va taassurot to'plash imkoniyatini beradigan hamda ilgari tajriba izlarini esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutishni tushuniladi. *

Bunga bog'liq ravishda psixologiya fani oldida xotira jarayonlarini o'rganish bilan aloqador bo'lgan qator murakkab muammolar masalalarini tadqiq qilish masalasi turibdi. Bular quyidagilardan iborat: izlarni esda olib qolishning fiziologik mexanizmlari qanday, esda olib qolishga qanday obyektiv (tashqi), subyektiv (ichki), tabiiy, biologik va ijtimoiy, psixologik sharoitlar ta'sir qiladi, ularning chegaralari qanday kabi masalalarga qaratilgan.

Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari 3 yo'nalishda o'rganilgan: psixologik, neyrofiziologik, bioximik.

Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi. Ulardan birinchisi assotsiativ nazariyadir. Ma'lum bir bilimlar inson ongida birin ketin o'rin olishi tufayli ularda assotsiativ bog'liqlikni yuzaga keltiradi va ushbu bog'liqlikda biror bir narsa esga tushiriladi. Ushbu assotsiatsiyalarni 3 turga bo'lish mumkin, ya'ni obyektlarning fazoviy bog'liqligi, bir- biriga mosligi va qarama-qarshiligidir. Bundan 3 ta assotsiatsiya kelib chiqadi: bir-biriga bog'liqlik, o'xshashlik va qarama-qarshilik. Assotsiatsiya nazariyasi bo'yicha xotira assotsiativ bog'lanishlar asosida mavjud ma'lumotni saqlash va qayta tiklash imkoniyatiga ega.

Ikkinchi psixologik nazariya xotiraning geshtalt nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asosiy ta'limoti narsaning negizi, yaxlitligi, yig'indisidir. Ushbu nazariyaga asosan xotira yaxlit hodisa sifatida tahlil etiladi.

Bixeviorizm – inson xotirasida, esda olib qolishda takrorlashning ahamiyatiga diqqatni qaratadi.

Freydizm xotirani emotsiyalar, motivlar va ehtiyojlar bilan bog'laydi.

Xotiraning mantiqiy nazariyasi A.Bine va Byullerlar tomonidan ilgari surilib, ular xotiradagi materialni xotiraning mantiqiy esda olib qolinishi bilan bog'laydi.

A.N.Leont'ev, N.I.Zinchenko, A.A.Smirmovlar tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turli tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qolingani materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir.

Bioximik nazariya tashqi ta'sir ostida nerv hujayralarida yuz beradigan o'zgarishlarni qayd qilish va xotira jarayonida DNK va RNK ahamiyatini aniqlashga qaratilgandir. DNK xotirani genetik tug'ma tashuvchi sifatida, RNK esa individual xotiraning ontogenetik asosi sifatida qabul qilinadi. Kibernetik nazariya bo'yicha xotira ma'lumotni qabul qilib olish, qayta esga tushirish va unutishdir.

Adabiyotlarda keltirilishicha, navbatdagi nazariya xotira jarayonlari asoslari haqidagi fiziologik nazariyadir. Vaqt oralig'ida esda olib qolish, saqlash va esga tushirish xotiraning asoslari fiziologik nazariyasini tashkil qiladi. Har qanday tashqi ta'sir nerv tizimida izsiz o'tmaydi va qandaydir «iz» qoldiradi. «Iz»ning fizik ta'siri qayta impuls harakatini yengillashtiradi. Vaqtinchalik nerv munosabatlarining yuzaga kelishi, ularning izini va keyinchalik faollashtirilishini xotira jarayonlari asoslari nazariyasi sifatida ko'rib chiqiladi.

80-yillarda nemis psixologi German Ebbingauz o'z «sof» xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda, tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda qolish jarayoni tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub Ebbingauzga materialni esda olib qolishning egri chizig'iga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amerikalik psixolog Eduard Torndaykning tekshirishlari paydo bo'ldi. U birinchi bo'lib tekshirish predmeti sifatida hayvonlarda ko'nikmalarni paydo bo'lish jarayonini tanlagan edi.

XX asrning birinchi 10 yilida xotirani tekshirish yangi ilmiy talqinga ega bo'ldi, uning moddiy asosi to'g'risidagi muammolarga mohiyati jihatidan mutlaqo boshqacha yondoshish ro'yobga chiqdi.

Xuddi shu davr xotira psixologiyasida keskin burilish nuqtasini vujudga keltiradi. Akademik I.P.Pavlov shartli reflekslarni o'rganishning ilmiy metodini taklif etadi, bu narsa o'z navbatida bosh miya yarim sharlarida yangi bog'lanishlar paydo bo'lishiga va

mustahkamlanishning asosiy fiziologik mexanizmlarini tekshirish imkoniyatlarini tug'dirdi. Ana shunday qilib, ushbu bog'lanishlar paydo bo'lishiga va saqlab qolishga yordam beradigan shart-sharoitlar, shuningdek, bog'lanishlarning saqlanishiga ta'sir qiluvchi holatlar, omillar va mexanizmlar tasvirlab berildi. I.P.Pavlov diy asab faoliyati ta'limoti va uning asosiy qonunlari xotiraning fiziologik mexanizmlariga oid bilimlarning asosiy manbasiga aylanib qoladi.

Bolalarda xotiraning yuksak (yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vygotskiyga nasib etgan. U 20-yillarning oxirlarida maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va u o'z shogirdlari A.N.Leont'ev (1905-1979) va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllari ruhiy faoliyatning murakkab shakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiylikini ko'rsatadi. SHuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab berdi.


Psixologlardan A.A.Smironov, P.I.Zinchenkolar ham xotira bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini olib bordilar, uning yangi qonunlari va mexanizmlarini ochdilar. Esda olib qolishning faoliyat maqsadiga bog'liqligini yoritdilar, murakkab materialni esda olib qolishning oqilona usullarini ko'rsatib berishga muvofiq bo'ladilar. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, psixolog olimlar tomonidan xotira borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va borilmoqda.

TAFAKKUR

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda



qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.



Aynan tafakur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. SHu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bavosita tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Psixologiya fani nimadan bahs etadi, degan an'anaviy savol mavjuddir, biroq hozirgi davrda tafakkur psixologiyasi predmeti nima degan savol tug'ilmoqda. Ma'lumki, psixologiya fani tafakkurni o'rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlari logika, filosofiya, hatto kibernetika tadqiqilmoqda. SHuning uchun tafakkur psixologiyasi predmetini aniqlash juda muhim masalalardan biriga aylanib qolmoqda.

Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Aks xolda u eslab qolmaydi ham, keyingi safar analogik obyekt bilan to'qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya'ni, biz ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi *ma'noli*, kerak bo'lsa, *ma'nili* bo'lishini xohlaymiz. SHunisi xarakterliki, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomondan beriladigan ma'no har bir alohida shaxs tomonidan turlicha idrok qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - hayotining ma'nosi bo'lsa, dexqon uchun yer va undan olinadigan hosil - ahamiyatli hisoblanadi. hattoki, bitta narsaning o'zi turli odamlar uchun turli xil ma'no va mazmun kasb etadi. O'sha kitob misolini oladigan bo'lsak, kitob industriyasi bilan shug'ullanuvchi muhandis uchun - ishlab chiqarish mahsuloti, kitob do'koni sotuvchisi uchun - tovar - mahsulot, o'quvchi uchun - ilm manbai, muallif olim uchun - ijodining mevasi, eng qimmatli narsadir.

Har bir alohida narsaga bo'lgan munosabatimiz uning biz uchun qadr-qimmatiga bevosita ta'sir etadi, u gox ijobiy, gox salbiy bo'lishi

mumkin. SHu nuqtai nazardan ham biz narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lamiz. Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashirishga bag'ishlangan ma'ruza qanchalik zerikarliday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo'llari haqidagi ma'lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so'zning morfologik tahlili - shunchalik befarqlik holatini keltirib chiqaradi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izxor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada *tafakkur, fikrlash* deb ataladi.

✦ **Т**афаккур - атроф- мухитдаги воқеликни нутқ ёрдами билан бавосита, умумлашаган ҳолда ақс эттиривчи психик жараён, ижтимоий сабабий боғланишларни англашга, янглик очишга ва башорат қилишга йўналтирилган ақлий фаолиятдир.

Ta'rifda tafakkurning eng muhim xususiyatlari 3. funksiyasi sanab o'tilgan, ya'ni so'z (fikir) bilan, umumlashtirib, bavosita, ijtimoiy sababiylik, yangilik ochish, bashorat qilish. jarayon, faoliyat va boshqalar.

Tafakkurning nerv-fiziologik asosi. Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog'lanishlari birinchi signal tizimidagi bog'lanishlarga tayanadi. I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o'zaro o'tkazish jarayonida hozir bo'ladi, deb ta'kidlagan. Ikkinchi signal tizimi asosida birinchi signal bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida dastlab umuminsoniy empirizmni

va nihoyat odamning o'z tevaragidagi olamni va uning o'zini bilish uchun oliy qurol bo'lgan oliy tafakkur voq'e bo'ladi. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv-fiziologik asos bo'lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Akademik I.P.Pavlov ta'kidlaganidek, "avvalo umuminsoniy empirizmni nihoyat, atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy oliy tafakkur zarurdir".

Tafakkur operatsiyalari. Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-obyektni anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. SHuning uchun tushunchalar narsalarning butun bir sinfi, turkumi to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bular tafakkurning obyekti bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas.

Analiz, sintez, taqqoslash, abstraktsiyalash va umumlashtirish.

t: **Анализ – шундай бир тафаккур операциясидирки унинг ёрдами билан биз нарса ва ходисаларни фикран ёки амалий жихатдан**

Analiz jarayonida butun bir narsaning qismlariga va elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil obyektlari amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ifodalanishi mumkin. Allomalarimizning ta'kidlashicha, maymunning yong'oqni chaqishining o'ziyoq boshlang'ich, oddiy analizdir. O'quvchi va talaba yoshlar turmushda va va dars jarayonida analiz yordami bilan ko'pgina ishlarni amalga oshiradilar, topshiriqlar, misol va masalalarni yechadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan o'zlashtirib olish analizdan boshlanadi. Masalan, buni quyidagi sxemada ko'rish mumkin.


Dars jarayoni vaqtida tafakkurning analiz qilish faoliyati katta o'rin tutadi. CHunonchi, savodga o'rgatish nutqni tahlil qilishdan, gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematik masalani yechish tahlil qilishdan, dastlab bir qancha ma'lum sonlarni topishdan boshlanadi. Agarda inson oldiga avtomashina motorining tuzilishini bilish vazifasi qo'yilsa, u holda bu topshiriqni hal qilish u motorni ayrim qismlarga

ajratib, har bir qismni o'z navbatida alohida olib tekshirish lozim bo'ladi va hokazo.

Muammoli vaziyatlarni yechish usullari



Analiz va sintez jarayonlarining yuzaga kelishini quyidagicha izohlash mumkin.



Yuqorida aytib, o'tilgan motor yoki boshqa qismlarning rolini tushunish uchun yolg'iz analizning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki tarkibiy qismlarni birlashtirgan holda bir-biriga ta'sir qilib turgan motor va mashinaning butunligicha olib tekshirgandagina uning motor yoki mashina ekanligini anglash mumkin.

Синтез – шундай бир тафаккур операциясидирки, биз нарса ва ҳодисаларнинг анализда бўлиган, ажратилган айрим қисmlарини, бўлақларини синтез ёрдами билан фикран ва амалий равишда бирлаштириб, бутун ҳолига келтирамыз.

Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo'laklarini bir butun qilib qo'shishdan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta'rifdan ko'rinib turibdi. Analiz aqliy bo'lgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi. Masalan, birinchi sinf bolasi o'z harf xaltasidagi keltirilgan harflardan foydalanib, bo'g'in, bo'g'inlardan so'z, so'zlardan gap, gaplardan qisqa axborot, undan esa hikoya tuzadi.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustahkam bog'langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi, har qanday analiz predmetlarni narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Таққослаш – шундай бир тафаккур операциясидирки, бу операция воситаси билан объектив дунёдаги нарса ва ҳодисаларнинг бир-бирига ўхшашлиги ва бир-биридан фарқи аниқланади.

XIX-XX asrlarda yashagan olim K.D.Ushinskiy taqqoslash jarayoni borasida quyidagilarni ta'kidlagan: "Agar siz tabiatni bir narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o'ziga juda o'xshash bo'lgan narsalardan tafovutini topingiz va uning o'zida juda uzoq bo'lgan narsalar bilan o'xshashligini topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim belgilarini payqab olasiz, demak shu narsani tushunib olasiz".

Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqni, teng yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddiyatlarni aniqlashdan iborat bo'lgan fikr yuritish operatsiyasi, bilishning dastlabki va zarur vositasi bo'lib hisoblanadi. Ajdodlarimiz taqqoslashning ta'limdagi roli to'g'risida shunday fikrlarni bildirgan edi. Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko'rish yo'li bilan bila olmasak, boshqa yo'l bilan bila olmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo'lmagan biron bir narsaga duch kelganimizda edi, u holda biz shu narsa to'g'risida hech qanday fikr qila olmagun bo'lar edik.


Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo'l bilan amalga oshishi mumkin: amaliy aniq narsalarni bevosita solishtirish va nazariy tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taqqoslash. Agar odam ikki boylam yukni qo'l bilan ko'tarib, bir necha xil taom mazasini qiyoslasa yoki ikki paykal paxtazor

hosildorligini taqqoslasa, bu amaliy taqqoslash bo'ladi. SHuningdek, o'quvchilar ikki qalam yoki ikki sterjenning uchini yog'ochga yoki qog'ozga solishtirsalar, u analogik holatga misol bo'la oladi. Bundan tashqari metr bilan masofani, taro'zi bilan og'irlikni, termometr bilan haroratni, teleskop bilan osmon jismlarini o'lchash paytida ham taqqoslash jarayoni vujudga keladi.

Inson tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning barchasini bevosita aks ettirish, qo'l bilan paypaslash imkoniyatiga ega emas. SHu boisdan to'planadigan bilimlarning aksariyati qo'l bilan ushlab, ko'z bilan kuzatish evaziga emas, balki fikr yuritish orqali, mantiq yordamida anglaniladi. Ular o'rtasida o'xshash va farqli alomat hamda belgilar nazariy taqqoslash asosida ajratiladi. Demak, inson olayotgan keng ko'lamdagi axborotlar farqini fikran taqqoslash yordamida anglab yetadi. Jumladan, o'quvchilar dilda o'ylayotgan narsalarni fikran solishtirib ko'radilar. Ba'zan turli yoshdagi kishilar o'z tengdoshlari xarakterida, qiziqishida, yurish turishida, muomalasida va boshqa xususiyatida o'xshashlik va tafovut borligini topadilar.

Абстракция – шундай фикр тафаккур операциясидирки, бу операция ёрдами билан моддий дунёдаги нарсa ва ходисаларнинг муҳим хусусиятларини фарқлаб олиб, ана шу хусусиятлардан нарсa ва ходисаларнинг муҳим бўлмаган иккинчи даражали хусусиятларини фикран ажратиб ташлаймиз.

Mazkur jarayonni quyidagi sxemada ham ko'rishimiz mumkin.



Abstraktsiya jarayonida obyektдан ajratib olingan belgi, alomatning o'zi tafakkurning mustaqil obyekt bo'lib qoladi. Abstraktsiya operatsiyasi tahlil natijasida vujudga keladi. Masalan, sinf devorini tahlil qilish jarayonida uning faqat bir belgisini, ya'ni oqligini ajratib olish mumkin va oq devor to'g'risida emas, balki devorning oqligi to'g'risida, keyin esa umuman oqlik haqida fikr yuritish mumkin. Kishilar quyosh, oy, yulduz, elektr, olov ba'zi planetalar, ayrim tosh va hokazolarning ko'z o'ngilarida yoritishni kuzata turib ularning bitta umumiy belgisini, ya'ni yoritishni fikran ajratib olib, umuman yoritish to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Buyumlarni narsa va hodisalarni jism va predmetlarni bir-biri bilan taqqoslash paytida ham abstraktsiyalash jarayoni yuzaga keladi. Bunda narsa va hodisalarning mavjud belgilariga, masalan tusiga, shakliga, tezligiga, og'irligiga, qiymatiga va shu kabi o'xshash sifatlarga qarab taqqoslanadi.

Abstraktsiya operatsiyasi bilan insonni qurollantirish intellektual jihatdan intensiv rivojlanishiga olib keladi, shuningdek mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtiradi.

Умумлаштириш — тафаккурда акс этган бир туркум нарсаларнинг, ўхшаш муҳим белгиларнинг шу нарсалар тўғрисидаги бitta тўшунча килиб, фикрда бишлаштириш

Psixologiyada umumlashtirish muammosi bo'yicha yagona yo'nalishdagi nazariya mavjud emas. SHuning uchun psixologlar bu jarayonni turlicha talqin qiladilar, goho uni guruhlariga bo'lib o'rganadilar. SHuningdek, maktab ta'limini qaysi umumlashtirish usuli asosida amalga oshirish to'g'risida olimlar turlicha nuqtai nazardan yondashadilar. S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov tomonidan ta'limda nazariy jihatdan umumlashtirish usulini yoqlab chiqsalar, N.A.Menchinskaya, D.N.Bogoyavlenskiylar ham nazariy, ham amaliy usulni qo'llashni tavsiya etmoqdalar. Ammo o'quv faoliyatining turli-tumanligi dars jarayonida har xil umumlashtirish usullaridan foydalanish kerakligini taqazo qiladi.

Psixologiyada umumlashtirishning keng qo'llaniladigan ikki turi: tushunchali umumlashtirish va hissiy-konkret umumlashtirish yuzasidan ko'proq fikr yuritiladi. Tushunchali umumlashtirishda predmetlar obyektiv muhim belgi asosida umumlashtiriladi. Hissiy-

konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga binoan tashqi belgi bilan umumlashtiriladi. Psixologlar noto'g'ri umumlashtirishning hissiy-konkret umumlashtirishdan tafovuti borligini hamisha ta'kidlab kelmo'qdalar. O'quvchi va talaba ba'zan predmetlarni muhim bo'lmagan belgisiga asoslanib noto'g'ri umumlashtiradilar, vaholanki, topshiriq shartida bu talab ular oldiga mutlaqo qo'yilmaydi. Lekin bu nazariyaning himoyachilari noto'g'ri umumlashtirishni alohida tur deb hisoblaydilar.

Umumlashtirish, abstraksiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo'lmaydi, har qanday umumlashtirish asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi. Umumlashtirish jarayoni abstraksiyasiz mavjud bo'lishi mumkin, lekin abstraksiyasiz umumlashtirishning yuzaga kelishi mumkin emas. Agar abstraksiyalash faoliyatida narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilari tasodif belgilardan fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda esa ajratib olingan o'xshash, umumiy va muhim belgilarga suyangan holda narsa va hodisalar birlashtiriladi.

Umumlashtirish jarayoni so'z ta'sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar tizimiga asoslanadi. Akademik I.P.Pavlov fikricha, nutq signallari tufayli nerv faoliyatining yangi tamoyili abstraksiyalash va shu bilan birga oldingi tizimning behisob signallarini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatida ana shu umumlashtirilgan yangi signallar tag'in analiz va sintez qilinaveradi. Fikr yuritishning umumlashtirish operatsiyasi har xil asoslarga ko'ra turlarga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtirishni mazmuniga ko'ra tushunchali umumlashtirish va yaqqol-ko'rgazmali yoki elementar umumlashtirish turiga ajratish qabul qilingan. Tushunchali umumlashtirish orqali obyektiv qonuniyatlarni muhim belgilari bo'yicha birlashtirish amalga oshiriladi. Bunda muhim belgilar umumlashtirilib, obyektiv qonuniyatlarni ochish mumkin bo'ladi. Yaqqol-ko'rgazmali umumlashtirishda narsa va hodisalar tashqi hamda yaqqol belgilar bo'yicha umumlashtiriladi.

Конкретлаштириш -- ходисаларни ички боғланиш ва муносабатлардан қатъий назар бир томонлама таъкидлашдан иборат фикр юритиш операциясидир.

Umumiy mavhum belgi va xususiyatlarni yakka yolg'iz obyektlarga tadbiiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish

operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida faol ishtirok etadi. Voqelik qanchalik yaqqol shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab yetadi. Insonlar dastavval tevarak atrofni aniq belgilariga asoslanib, aniq holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar, shu boisdan to hozirgi kunga qadar aniqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo'lib hisoblanadi.

Psixologlar tadqiqotlarining ko'rsatishiga qaraganda konkretlashtirish odamda ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, umumiy abstrakt belgining yakka obyektga tadbiiq etish amalga oshiriladi. Masalan, biz "oq" deganimizda ko'z oldimizga qor, qog'oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilar kamroq bo'lgan umumiylikni ochishda ifodalanadi. Masalan, biz olma, olxo'ri, uzumni mevalar qatoriga stol-stul, divan va shu kabilarni mebellar qatoriga qo'shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog'ida odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o'zidir.

Классификациялаш – бир туркум ичидаги нарсаларнинг бири-бирига ўхшашлигига ва бошқа туркумдаги нарсалардан фарк қилишига қараб нарсаларни туркумларга ажратиш тизимидир.

D.I.Mendelevni "Elementlarning davriy tizimi" jadvali bunga yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarning bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan. O'rganish uchun qulaylik tug'dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda ko'pchilik narsalarni guruhlariga, turkumlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik narsalarni hodisalarni guruhlariga bo'lish klassifikatsiyalash yoki turkumlarga bo'lish deb ataladi. Masalan, kutubxonada kitoblar muqovasiga, farmoyishning mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlariga bo'lish mumkin. O'quvchilarning odatda yoshi yoki jinsiy belgilari bo'yicha va shu kabilarga qarab turkumlarga bo'ladilar.

Системалаштириш – тизимга солиш шундан иборатки, бунда айрим нарсалар, фактлар, ҳодиса ва фикрлар муайян тартибда макондаги, вақтдаги тутган ўрнига ёки мантиқий тартибда

SHu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlariga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o'tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo'la oladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealarning vaqtga qarab tizimga solishning namunasi bo'la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasidir.

Maktab ta'limida o'zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bilimlar dastlab predmetlarning boblari, qismlari bo'yicha, so'ng yaxlit holda o'quvchi ongida tizimlashadi. Tizimlashtirishning ikkinchi bosqichida bir-biriga o'xshash predmetlarga oid bilimlar fikran tartibga solinadi. Uchinchi bosqichda bir necha predmetlar yuzasidan to'plangan bilimlar ma'lum tartibga tushadi, ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Tizimga solishning to'rtinchi bosqichida darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda egallangan bilimlarni tizimlashtirish nazarda tutiladi.

Demak, insonning bilish faoliyatida mavzulararo, predmetlararo bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin bilimlarning tizimga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi.

Tafakkur sifatlarini inson intellektual taraqqiyotidagi o'rni

Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o'zining individual xususiyatlariga ega bo'lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operatsiyalarining munosabatlari kishilarda turlicha namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Odatda tafakkurning individual xususiyatlari, sifatlariga bilish faoliyatining mazmundorligi, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlar kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insoning tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to'g'risida ongda qay miqdorda, ko'lamda mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Insonda sanab o'tilgan xarakterdagi g'oyalar to'lib toshsa, shunchalik tafakkur mazmundor bo'ladi. Kishilar bir-birlaridan birinchi navbatda tafakkurning mazmundorligi bilan tafovutlanadi.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatleri

ularning o'zaro bog'lanishlari, munosabatlari, tafakkurimizda to'liq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yo'sinda sistemalashganligiga qarab to'g'ri va ratsional yo'l nazarda tutiladi, u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi to'g'risida qat'iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o'zining mazmunderligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo'ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur keng tafakkur deyiladi. Fikr doirasi keng bilim saviyasi yuqori serg'oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovatli, bilimdon yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning aql-zakovati, bilimdonligi mulohazadorligi uning tafakkurining kengligidan dalolat beradi.

Inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. Tafakkurni mustaqilligi deganda kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishni, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taaalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda, trafaretga aylangan eski yo'l hamda usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O'zining o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi muhim rol o'ynaydi. Tafakkurning

tanqidiyligi obyektiv va subyektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash, o'z-o'zini baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga, ba'zan etalonga asoslanib amalga ohsa, unday tanqidiylik obyektiv tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi subyektiv xatolarga, umuman subyektivizmga og'ib ketsa, bunday holda subyektiv tanqidiylik deyiladi. Subyektiv tanqidiylik salbiy oqibatlariga olib keladi, shuningdek insonlar o'rtasida anglashilmovchilik g'ovini vujudga keltiradi, ikki shaxs o'rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo'ladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona ratsional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi deb atash mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o'zga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil deb ataladi. Nomustaqil tafakkurli kishilar tayyor mahsulotlar quliga aylanadilar, o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aql-zakovatli inson bo'lish o'rniga, kaltabin, aqldan erinchoq, behafsala odam bo'lib voyaga yetadi. Demak, tafakkurning nomustaqillik illati rivojlanishiga to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsifnomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri sermahsul tafakkur deb ataladi. Demak, vaqt oralig'ida bajarilgan ish ko'lami va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkur ixchamligi deganda muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmog'imiz shart. Fikrning operativ jihatdan tezkorlik bilan o'zgartirishdan va to'g'ri yo'nalishga yo'llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, talaba imtihonda avval g'oyani noto'g'ri yoritayotib, o'z-o'zicha birdaniga xatosini anglab to'g'ri javob bera boshlashi kabilar. Demak,

tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, axborotlarni tinglovchilarga xato va kamchiliklarsiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator omillarga, jumladan fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari tafakkurning tezligi boshqa shartlarga – insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz salbiy emotsiyalar uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imtihonda hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib, funktsiyasi jadallashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. SHuning uchun o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jahon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarni ajratib mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqidagi umumiy qonuniyatni yaratishga harakat qiladi. SHubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zalirani to'la ochish fan-texnika rivojini intensivlashdan iborat. CHunki har qanday kashfiyot, yangilik, rivojlanish inson aql-zakovatining mahsulidir. SHu boisdan

ham fan va texnikaning rivojlanishi insonshunoslik fanining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odamda nutq tafakkur jarayonida hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi.

Hukmlar. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi.

Hukmlar obyektiv voqelikni aks ettirilishiga qarab chin yoki xato bo'ladi.

Нарса ва ҳодисаларда воқеликда ҳақиқатан ўзаро боғлиқ бўлган белгилар, аломатлар ҳукмларда боғлиқ равишда кўрсатиб берилса ёки воқеликда бир-бирдан ажратилган нарсалар ҳукмларда ажратиб кўрсатилса бу чин ҳукм деб аталади.

qizdirilganda kengayadi, degan chin hukmlardir. Chunki elektr tokini o'tkazish qizdirilganda kengayishi metallarga xos xususiyatdir.

Моддий оламда ҳақиқатдан боғлиқ бўлмаган нарса ҳукмда боғлиқ қилиб кўрсатилса, бундай ҳукм хато ҳукм деб аталади.

Masalan, hozir tashqarida yomg'ir yog'yapti; yer quyosh atrofida aylanmaydi, degan misollar xato hukmlar doirasiga kiradi.

Борлиқдаги нарсалар, ҳодисалар ва воқеликни миқдорига уларнинг бирор ҳукмда акс эттирилган алоқа ва муносабатларига қараб, ҳукм қуйидаги турларга бўлиниши мумкин:

ҳукмлар сифатига кўра: тасдиқловчи ёки инкор қилувчи ҳукм;

ҳукмларнинг миқдорига қараб: яққа, жузъий, хусусий ва умумий ҳукмга;

ҳукмларнинг муносабатига кўра: шартли, айрувчи, ва қатъий ҳукмларга;

ҳукм тахминий кўринишга эга бўлиши ҳам мумкин.

Bu hukmda aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog'lik muhim bo'lishiga yoki voqelikka mos kelish-kelmasligiga bog'liq. Masalan, ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin. Paxta rejasi to'lib qolsa kerak.

Hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisalar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi. Narsa bilan belgining

aloqasi bog'liqligi borligi aks ettirilgan hukm tasdiqlovchi hukm deb ataladi. Masalan, O'zbekistonda pilla yetishtirilmaydi. Toshkentda oliy maktablar qurilmagan. Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi hukmda fikran ajratilishi mumkin. Yakka, yolg'iz narsa va hodisa to'g'risidagi hukm yakka hukm deb ataladi. Masalan, Toshkent – O'zbekiston Respublikasi poytaxtidir; Amudaryo sersuv daryolardan biridir.

Belgining biror turkumigagina taalluqliligini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm juz'iy hukm deb ataladi. Masalan, ba'zi metallar elektr tokini o'tkazmaydilar. Qarzdor talabalar sessiyaga qo'yilmaydi. Jamoaning ayrim brigadalari majburiyatga yarasha mehnat qilmaydilar. Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to'g'risida tasdiqlab, yoki inkor qilib aytilgan hukm umumiy hukm deb ataladi. Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm shartli hukm deb ataladi. Masalan, agar talaba sessiyalarga qunt bilan puxta tayyorlansa, u yaxshi va a'lo baholar oladi. Agar o'quvchi darsga diqqat qilmasa, yangi materialni o'zlashtira olmaydi. Hukmda narsalar va hodisalar bir necha belgiga nisbatan berilib, shu belgilardan farqi bitta unga tegishli bo'lsa, bunday hukmga ayruvchi hukm deb ataladi. Masalan, jismlar yo qattiq, yoki suyuq, yoki gazzimon holda bo'ladi.

Narsa bilan belgi o'rtasidagi aloqaning bor yoki yo'qligi qat'iy shaklda aks ettirilsa qat'iy hukm deb ataladi. Masalan, bahorda barcha joylarda ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Yonish kimyoviy jarayondir.

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o'rtasida aloqa bo'lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u holda inson o'z fikrlarini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin. Ehtimol, Marsda organik hayot bordir. XXI asrning oxirlarida fan-texnika yanada rivojlanib, taraqqiy etishi mumkin va boshqalar. Bunday hukmlar ehtimollik hukmlari deb ataladi. Narsalar bilan xususiyatlar o'rtasidagi aloqani taxminan emas, balki haqiqatdan aniq bilganimizda biz o'z fikrimizni mana bunday shaklda izhor qilamiz. Fakultet kutubxonasida ko'p yangi kitoblar mavjud. Maktabimizdagi kimyo xonasi juda yaxshi uskunalar bilan jihozlangan. Bunday hukmlar voqelik (assertorlik) hukmlari deb ataladi.

Hukmning shunday yuqori shakli borki, unda faqat haqiqatda bo'lgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning

aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. Masalan, butun dunyoda tinchlik g'alaba qozonishi muqarrar, sezgilarning intensivligi qo'zg'atuvchi kuchining logarifmiga proportsionaldir. Bunday hukmlar zaruriy (apodiktik) hukmlar deb ataladi. Bunday hukmlarda inson narsa, voqelik, hodisa bilan uning xususiyati o'rtasida mustahkam bog'lanish borligini va bu bog'lanishga zid keladigan boshqa bir holning bo'lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi. Psixologiyada hukmlar ikkita asosiy yo'l bilan hosil qilinishi ta'kidlab o'tiladi. Birinchi yo'l bilan hukm hosil qilinganda idrok qilish zarur bo'lgan narsalarning bevosita o'zi ifodalanadi. Ikkinchi yo'l bilan esa bevosita mulohaza yuritish yordami bilan hukm amalga oshiriladi. Masalan, bu avtomobilning yangi modeli. Mazkur misolda hukm chiqarishning birlamchi yo'li aks ettirilgan. Dastavval olimlar kashfiyot yoki ijodiy jarayonda nazariy jihatdan mulohaza yuritish yordamida hukm chiqaradilar. Ular chiqaradigan hukmning to'g'riligi amaliyotda keyinchalik tasdiqlanadi. Bu ikkinchi yo'l bilan hukm chiqarishga misoldir.

Xulosa chiqarish. Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega.

Хулоса чиқариш шундай тафаккур шаклидирки, бу шакл воситаси билан биз икки ёки undan ortiq хукмлардан янги хукм ҳосил қиламиз.

Masalan, har qanday harakat materiya harakatidir, issiqlik harakat shaklidir, degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan, demak issiqlik materiya harakatidir degan yangi hukm chiqariladi. Bunda birinchi hukm hamisha umumiy hukm bo'lib, ikkinchi hukm yakka hukm bo'ladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, mulohaza yuritish ham xulosa chiqarish ham voqelikni bevosita bilishning asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan oldingi ikki hukmga asoslanib, uchinchi hukm chiqariladi. Mazkur xulosani bevosita tekshirib ko'rishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. SHu sababdan xulosa chiqarishda fikr o'rtasidagi shunday bog'lanish natijasida bir yoki undan ortiq hukmlardan uchinchi hukm keltirib chiqariladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo'linadi: induktiv, deduktiv va analogiya.

Индуктив хулоса чиқариш – бу хулоса чиқаришнинг шундай мантикий усулдирки, бунда бир неча якка ва айрим ҳукмлардан умумий ҳукмга ўтилади, ёки айрим факт ва ҳодисаларни ўрганиш асосида умумий қонуни ва қоидалар яратилади.

Masalan, temir elektr tokini o'tkazadi, po'lat elektr tokini o'tkazadi, mis elektr tokini o'tkazadi, ruh elektr tokini o'tkazadi. Demak, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi, degan umumiy xulosa chiqaramiz.

Дедуктив хулоса чиқаришда умумий ва якка ҳукмлардан якка ёки жузъий ҳукм келтириб чиқарилади.

Misol uchun barcha metallar elektr tokini o'tkazadi. Temir metaldir. Demak, temir ham elektr tokini o'tkazadi.

Аналогия хулоса чиқаришнинг шундай шаклидирки, бунда биз икки предметнинг баъзи бир белгилари ўхшашлигига қараб, бу предметларнинг бошқа белгиларининг ўхшашлиги тўғрисида хулоса чиқарамиз. Аналогия деб нарса ва ҳодисаларнинг бир-бирига ўхшаш бўлган баъзи белгиларига қарабгина ҳукм юритишдан иборат хулоса чиқариш шаклига айтилади.

Analogik usulda chiqarilgan xulosa chin, taxminiy hamda yolg'on bo'lishi mumkin. Fikr yuritishning bunday shakli ko'pincha yosh bolalarga xos xususiyatdir. Demak, juz'iy ikki yakka hukmlarga asoslanib, juz'iy yoki yakka hukm keltirib chiqaramiz. Masalan, bog'cha yoshidagi bola mana bunday mulohaza yuritadi; adamlar darvozadan ismimni aytib chaqirib keldilar. Ular sovg'a olib kelgan bo'lsalar kerak. Bu bolaning mulohazasini tahlil qilib ko'rsak, uning fikr yuritishi mana bunday tarzda taraqqiy etganligini shoxidi bo'lamiz. O'tgan galda adam ismini aytib chaqirib kelgan edilar, yana chaqirayotirlar. Albatta, adam menga sovg'a olib kelganlar, deb xulosa chiqaradi.

SHunday qilib, analogik yo'l bilan xulosa chiqarganda murakkab qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirilmasa-da, lekin turmushning turli jabhalarida undan foydalanib turiladi.

Tushunchalar

Tafakkur tushunchalar shaklida ifodalanadi.

Тушунча деганда биз нарса ва ҳодисаларнинг энг муҳим ва энг асосий хусусиятларини акс эттиришни тушунаимиз.

Tushunchalar hukmlardan tarkib topadi. SHu sababli tushunchaning mazmunini ochib berish uchun bir qancha hukm yurtishga to'g'ri keladi. Masalan, odam ongli mavjudotdir degan tushunchani oladigan bo'lsak, bu yerda odamning eng muhim xususiyati uning ongliligi ekani qayd qilinyapti.

Tushunchalar odamning turmush tajribasi va bilimlarining ortishi jarayonida tarkib topa boradi. Ana shu jihatdan olganda maktabdagi o'qish jarayonida bolada asosan tabiat va jamiyat hodisalari haqida tushunchalar tarkib toptirishdan iboratdir. Demak, katta odamlarga nisbatan bolalarda hali tushunchalar juda oz bo'ladi.

Одатда тушунчалар моҳияти жиҳатидан конкрет ва абстракт тушунчаларга ажратилади.

Alohida olingan bir butun narsaga aloqador tushuncha konkret tushuncha deb ataladi. Masalan, stol, divan, qayrag'och, traktor va hokazo. Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat, sifat, holatlarga, shuningdek narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi. Masalan, oqlik, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug'lik, qiymati haqidagi tushunchalar va hokazo.

Тушунчалар кўлами жиҳатидан 3 турга: якка тушунчалар, умумий тушунчалар ва тўпланма тушунчаларга бўлинади.

Yakka tushunchalar yakka narsa va hodisalar haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Sirdaryo tushunchalarini misol qilib keltirsa bo'ladi. Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha aniq obraz mavjud bo'ladi. Umumiy tushunchalarda bir jinsda bo'lgan ko'p narsa va hodisalar gavdalanitiriladi. Masalan, kitob, maktab, yulduz, talaba va boshqalar.

To'planma tushunchalar bir jinsda bo'lgan narsa va hodisalar to'plami haqida yaxlit fikr yuritiladigan tushunchadir. Masalan, paxtazor, kutubxona, yig'ilish va hokazolar. To'planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda umumiy to'planma tushunchalar bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Muzeyi tushunchasi, yakka to'planma tushunchaga oiddir. Guruh, jamoa, xalq, millat va boshqalar, umumiy to'planma tushunchasiga misol bo'la oladi. Yetti og'ayni yulduzlar to'plami, Hamza teatri jamoasi, Paxtakor futbol jamoasi kabilar yakka to'planma tushunchalar jumlasiga kiradi.

Fikr yuritishda tushuncha bilan so'z o'zaro bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Bir tomondan so'z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, ikkinchi tomondan so'z tushunchaning moddiy asosi va funksiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, xalq degan tushuncha bir so'zdan, o'zbek xalqi ikki so'zdan qahramon o'zbek xalqi uch so'zdan, ozodlik uchun kurashayotgan xalqlar, degan tushuncha to'rt so'zdan tashkil topgan.

Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, ya'ni klassifikatsiyalash, umumlashtirish va abstraksiyalash yordami bilan vujudga keladi. So'zlar, belgilar, simvollar, atamalar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi. I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda, so'z ikkinchi signal tizimining, barcha signallarning signallaridir, binobarin shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumlashtiradi.

SHunday qilib, tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi. Yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi. Tafakkur yordamida inson yaratish, kashf etish, ixtiro qilishda davom etishi mumkin. Demak, yangi tushunchalar, atamalar yuzaga kelaveradi, iste'moldagilari esa yangi mazmun kasb etadi. Determinizm tamoyiliga binoan so'zlar yangi tushunchalar yaratilishiga vosita bo'lib xizmat qilaveradi, shuning bilan birga tushunchalar zahirida yangi so'zlar va iboralar vujudga keladi, yoinki yangicha talqin qilish kuchayadi. So'z bilan tushunchalarning chambarchas bog'lanishi va munosabati filogenezda ham ontogenezda ham operatsional va funksional xususiyatlarni yo'qotmaydi.

Tafakkur turlari. Muayyan ijtimoiy muhitda turmush kechirayotgan odamlarning ehtiyojlari xatti-harakat motivlari narsalarga qiziqishlar, intilishlar, mayllar, aqliy qobiliyatlari, hatto faoliyatlari ham turli tumandir. *Xuddi ana shu boisdan ularning tafakkuri ham har xil holatlarda vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning originallik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikatsiya qilinadi.

Professor E.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:



Ko'rgazmali-harakat tafakkur turi. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan yechganlar, keyinchlik unda nazariy faoliyat ajralib chiqqan. amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bir-biri bog'langandir.

Sof psixologik faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unga nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayoni ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir.

Agarda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu masalani olib qarasaq, u holda amaliy faoliyat birlamchi

ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Buning uchun insonning ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazasiga murojaat qilamiz. Bola tug'ilishdan tortib, to uning bog'cha yoshigacha davrini amaliy faoliyatda ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sishining asosiy pallasi deb atash mumkin. Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat negizida aqliy harakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, natijada ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sa boradi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar o'zlari o'ynayotgan o'yinchoqlarni qo'llari bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qilingan predmetlar va o'yinchoqlarni o'zaro solishtiradilar, qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo'laklarga ajratilganlarni yaxlit holga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntirishiga ishonch hosil qilmasdan, ayni chog'da ularni obyektini sindirib yoki buzib bo'lsa ham, ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyoqi, mayli kuchli bo'ladi. SHu boisdan amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko'pincha buzib, tuzatish yo'li bilan harakat qiladilar. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri bog'cha yoshiga yetgandan so'ng bolalarda o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur turi ham psixologik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "Psixologik lug'at"da ta'riflanishicha u konkret tafakkurning bevosita idrok qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat bo'lgan turi. Professor E.G'oziev fikricha, bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali-obrazli tafakkur deb ataladi. V.Karimova tomonidan ko'rgazmali-obrazli tafakkur esa ko'rgan kechirgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirilib bilvosita aks ettirishimizdir, deb talqin qilinadi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi, lekin u o'zining yetakchi rolini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalarda, ya'ni 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi avvalgidek to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha

tushunchaga ega bo'lmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yo'qligi shveysariyalik psixolog J.Piajening quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo'ladi. 7 yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil, hajmi jihatidan teng 2 ta soqqa ko'rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko'z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. Endi bolalar non shaklidagi soqqada xamir ko'p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurlari hali ularning idroklariga bevosita to'la bo'ysunadigan bo'ladi. Ularning ko'rgazmali-obrazli shaklda o'tadigan tafakkurlari bolalarni soqqaga qaraganda non shaklidagi xamir ko'proq degan xulosaga olib keladi.

Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmetlarning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e'tibor qiladilar. Lekin ularning ichki bog'lanishlari o'zaro munosabatlarini bildirib keladigan muhim asosiy sifatlariga ahamiyat bermaydilar. Obyektlarni fazoda joylashgan o'rni tashqi, nomuhim belgisi ularning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarida odamlarni bo'yining baland va pastligi ularning yoshini belgilaydi.

Tafakkur faolligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. Intuitsiya deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoniga aytiladi.

Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi misol va muammolarni yechish jarayoni. Bundan tashqari ixtiyoriy tafakkurga mantiqiy yoki nazorat (kontrol) tafakkuri ham kiradi. Moddiy borliqni adekvat² aks ettirish, fikr yuritish, tanqidiy va sinchkov bo'lishni taqazo etadi. Einobarin, narsa va hodisalarni atrofigicha bilish uchun obyektiv baho berish zarurati tug'iladi, bu esa o'z navbatida fikr yuritish ko'lamini keng, analitik-sintetik faoliyat doirasi mustahkam bo'lishini talab qiladi.

Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyoriy javoblar axtarish hollari uchrab turadi. Bunday paytlarda inson fikr

yuriyaptimi yoki yo'qmi buni bilish qiyin, vaholanki, u o'zicha go'yo savollarga javob topadiganday, shirin his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganday bo'ladi, shuning uchun ko'pincha "tilimning uchida turibdi" deyiladi. Odamlar qandaydir matn yoki muammo, masala ustida bosh qotirib, o'tirganlarida fikr yuritish mutlaqo beixtiyor ro'y berib qoladi va ular asosiy topshiriqni bajarishdan uzoqlashtiradi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma og'irlik qonunini zo'r berib, aqliy mehnat qilish paytida emas, balki hech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etgan. Ulug' rus olimi D.I.Mendeleevning hikoya qilishicha, u elementlar davri tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kecha-yu, uch kunduz betinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. SHunda D.I.Mendeleev uyqudan, uyg'onib, bir parcha qog'ozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib qo'ygan.

Ko'pincha psixolog va fiziologlarning ta'kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda yechimini hech kutilmaganda yuqoridagi kabi beixtiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lgan davr ichida oylab, yillab qilingan mehnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonlarining nihoyasiga yetishidir deb baholamoqda.

Yirik fiziolog hamda psixolog V.M.Bexterevning izohlashicha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab bu o'rganilayotgan masala to'g'risida uxlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish, o'ylash (fikr yuritish) va butun zehni shuning bilan birga diqqat-e'tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to'la-to'kis yo'nalishidan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab barqaror psixik holati hukm surishidir.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa-hodisalarni idrok yoki tasavvur qilishi mumkin bo'lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli va yaqqol-obrazli tafakkur turlariga ajratiladi. Agar fikr yuritish obykti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-predmetli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-obrazli tafakkur deb ataladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma geometriya, oliy matematika masalalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan g'oyat keng ma'no anglanishi bilan qator narsa va hodisalar to'g'risida, abstrakt tafakkur yordamida mulohaza borliq to'g'risida cheksizlik, sifat, miqdor, tenglik to'g'risida, go'zallik yuzasidan mavhum abstrakt mulohaza yuritish mumkinligi bilan farq qiladi.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkur deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar, jism va predmetlar, umuman butun voqelik ma'lum turkumdagi tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlarini fikran ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari muayyan obyektlarning mohiyati, mazmuni mavjud bo'lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o'zgarishi, shuningdek ularning ahamiyati va funktsiya hamda vazifalari izohlab beriladi.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda abstrakt tafakkur deb nomlash an'ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiy hukmlarda ifodalanishidir. Masalan, diqqat barcha psixik jarayon va holatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir.

Abstrakt tafakkur muammosi qator sobiq sovet psixologlari tomonidan izchillik bilan tadqiq etilgan. Sobiq sovet psixologiyasining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiylar, keyinchalik S.L.Rubinshteyn, B.G.Anan'ev, A.N.Leont'ev, N.A.Menchinskaya, P.Ya.Galperin, R.G.Natadze, D.B.El'konin, V.V.Davidov, A.M.Matyushkin va boshqalar shug'ullanganlar.

Nazariy tafakkur tufayli voqelikdagi umumiy va muhim bog'lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarni anglab olamiz. SHuning uchun Quyosh va oy tutilishini, yulduzlar tizimini harakatini, ob-havo ma'lumotlarini, yer qimirlash o'choqlarini, voqea sodir bo'lishini ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. SHu sababdan nazariy

tafakkurni oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadigan umumlashgan tafakkur deb ataydilar.

Shunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari aniqlanadi, u yoki bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat bog'lanishlari aks ettiriladi. Voqelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratilishiga yo'naltirilgan fikr yuritiladi. U qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog'liq murakkab tafakkur jarayonidir. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-harakatlarini, aqliy xarakterlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo'ladi. Masalan, talabalar faoliyatidagi konspekt yozish, referat tayyorlash, kurs va diplom ishi ustida ishlash kabilar amaliy tafakkurga yaqqol misoldir.

Муайян фикрни чин ёки ёлғонлигини объектив далиллар билан исботлаш ўрнига, инсон шахсининг ижобий ёки салбий сифатлари билангина чекланиб қолишдан иборат тафаккур тури авторитар тафаккур тури деб аталади.

U ko'pincha odamlarning muayyan soha bo'yicha bilim saviyasining, darajasining cheklanganligidan va mustaqil fikr yuritish qobiliyatining yetarli darajada o'smaganligidan dalolat beradi.

SHuningdek,

Психологияда бир-бирлари билан узвий равишда боғланган мулоҳаза юритишдан иборат тафаккур жараёнини дискурсив тафаккур деб аталади.

Ijodiy tafakkur– murakkablash faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqelikni topishga gumon va hayajon, shubha hislaridan xalos etishga qaratilgan

maylidir. Ijodiy tafakkurning navbatdagi tarkibiy qismlari quyidagicha aks ettiriladi: qo'yiladigan savollarga javob berish, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tadbiq qilish va boshqalar.

Ijodiy fikrlashni ta'minlovchi omillar: *

Fikr yuritish faoliyatida eng avval hal qilinishi zarur bo'lgan masala inson tomonidan aniqlab olinishi kerak. Muammo yoki masalani hal qilish zarur bo'lgan barcha bilimlarni tadbiq qilish uchun intilish. Masalaga, muammoga taalluqli gipoteza olg'a suriladi, bosqichlar taxmin qilinadi, yechim to'g'risida farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar hamda variatsiyalar haqidagi mulohaza yuritiladi, o'zaro xayolan solishtirib, eng samarali alomatlar ajratiladi va hokazo

Muammo oldiga qo'yilgan farazni tekshirish zarurati tug'iladi.

Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza adekvat emashigi, noto'g'ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish obyektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o'ylar taxmin qilinadi yoki o'ylab topiladi. Muammo va masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarni to'g'riligiga qanoat hosil qilish uchun yechuvchi, uni tekshirish bilan tafakkur harakatlarini yakunlaydi.

Ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqish jarayoni bo'lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi ro'l o'ynaydi.

Psixologiya fanida tafakkurni realistik va autistik turlarga ajratiladi.

Реалистик тафаккур куршаб олган атроф-муҳитни ўрганишга, акс эттиришга қаратилган фикр юритиш бўлиб, у мантикий қонун ва қондалар ёрдами билан воқеликни инъикос қилади. Аутистик тафаккур инсоннинг хоҳиш ва истакларини амалга ошириш билан боғлиқ равишда содир бўлади. Амалга оширилиши лозим бўлган тафаккур ҳаракатлари ўша шахснинг ўз тилакларини рўёбга чиқаришга йўналтирилган фикр юритилишдан иборат индивидуаллик ёки индивидуалистик тафаккурдир.

Визуал тафаккур мақсадга мувофиқ ҳаракатлар ёки англанилмаган операциялар, чунончи образлар манипуляцияси ва трансформацияси ёрдами билан амалга оширилади ва “ақлий англаниш”дан намоён бўлади.

Fazoviy tafakkur muammosi atoqli rus psixologi B.G.Anan'ev va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan taniqli psixolog I.S.Yakimanskaya tomonidan kasb-hunar kolleji o'quvchilarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda ratsional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlarini adekvat ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi, tasavvurlar, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri Z.I.Kalmikova o'z tadqiqotlarida tafakkurni produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o'rgangan edi.

Киска вақт бирлиги ичида янги оригинал фикрлар яратиш ёки муҳим илмий, амалий масалаларни ҳал қилиш билан белгиланадиган тафаккур продуктив тафаккур деб аталади. Репродуктив тафаккур эса пассив, тайёр мулоҳазаларни ўзлаштириб олишга ва “тайёр ҳолда” ундан фойдаланишга қаратилган инсоннинг билиш фаолияти кўринишидир.

Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar talqini. Tafakkur muammosi xorij psixologiyasida keng doirada tadqiq qilinib, atroflicha bilimlar va ma'lumotlar zahirasi to'plangan. Aynan keltirilgan ma'lumotlarda tafakkur tushunchasi turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi.

Ekzistentsializmning asoschisi bo'lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889-1978) tushunish uchun o'z diqqatimizni qarata olsak biz fikrlashga o'rganamiz-deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab yetish, inson fikrlash jarayonida muhim o'rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi.

Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta'limotga asosan tasavvur fikrda ifoda etiladi. SHuning uchun ham tafakkur haqidagi ta'limotni logika, mantiq deb ataydi.

K.R.Megreldizening ta'kidlashicha, insondagi biror bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to'g'ri tushuntirilishi

mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emas.

Inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o'ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo'llaydigan ijtimoiy sharoitdadir.

Insonlar fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo'ladi. Bu haqda K.R.Megrelidze shunday yozadi: inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy – tarixiyqonuniyatlar yo'lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisadir. Fikr hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida bo'lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo'lishi mumkin emas. Tafakkurning funktsiyasi miya faoliyati jarayonida kechadigan subyektiv psixologik jarayonlar bilangina chegaralanmaydi:

*Birinchi*dan, ongning subyektiv holatinigina ifodalamasdan, balki obyektga ham tegishli bo'ladi va narsalar munosabatini ifodalaydi.

*Ikkinchi*dan, yangi fikrning vujudga kelishi bilan bilish jarayoni tugallanmaydi, balki faqatgina boshlanadi. Bu bilishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, g'oyaning subyektiv holatidir, endi fikrni amalga oshirish bosqichi boshlanadi.

*Uchinchi*dan, alohida individning fikri ijtimoiy yetilgan fikrlarning xususiy ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs ijtimoiy tushunchalar, tasavvurlar yordamida fikrlaydi. K.R.Megrelidze inson fikrining ijtimoiy ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Fikrlar va g'oyalar erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o'zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. SHuning uchun inson tafakkuri tafakkur bosqichlari, inson tafakkurining shakllari va usullari haqidagi jumboqning yechimini mantiqiy izlanishlardan an'anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g'oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individ jamiyatda yetilgan ijtimoiy g'oyalarning tasodifiy ifodalovchisi bo'lib qoladi.

Akademik A.I.Berg shunday deb yozadi "inson faqat tashqi dunyo bilan to'xtovsiz muloqot qilishi sharoitidagina uzoq vaqt fikrlashi mumkin. Tashqi dunyodan to'liq informatsion ajralish bu aqldan ozishning boshlanishidir. Informatsion undovchi tafakkurning

tashqi dunyo bilan aloqasi insonga oziq-ovqatdek, issiqlikdek zarur". Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muhim o'rinlardan birini egallaydi va asrimizning boshlarida Germaniyada Vyurtsburg psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo'nalishga ega bo'lgan psixologik oqim paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalishning yirik vakillari sifatida O.Kyulpe (1862-1915), K. Byuller (1879-1922), A.Messer (1837-1937), Ax Nartsis (1871-1946) va boshqalarni sanab o'tish lozim. Ular tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar tafakkur muammosining rivojiga ma'lum darajada hissa qo'sha oldi. Vyurtsburg psixologiya maktabi vakillari tafakkurni hissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya'ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o'rganishda ratsional bosqichdagi murakkab jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi, deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo'l bilan isbotlashga harakat qildilar. Olib borilgan tadqiqotlarni o'zlarining ustilarida o'tkazib, natijalarni obyektiv bo'lishiga kamroq e'tibor berganlar.

Vyurtsburg psixologiya maktabining namoyondalari tafakkur bu ichki harakat, aktidir deb qaray boshlaydilar. O'z-o'zini kuzatish metodidan foydalanib, ish tutishda ular mana bunday ifodaning ma'nosini tushuntirib berishlari lozim, tafakkur haddan tashqari mashaqqatliki, shunga qaramay ko'pchilik shunchaki hukm chiqarishni ma'qul ko'radilar. SHuningdek, ular oldida munosabatlarni o'rnatish qism, yaxlit, tur, jins obyektning nisbati va o'zaro munosabatlarni ushbu munosabatlarning aniq a'zolarini idrok qilishni aniqlash vazifalari turadi. SHuning bilan birga ularning barcha tadqiqotlari obyektiv metodlarni izlashga oid faoliyatlarida avj oldi. Jumladan, N.Ax tomonidan sun'iy tushunchalarning shakllanishi bo'yicha dastlabki metodika yaratildi. Mazkur nazariya vakillari tafakkurni munosabatlarning aks etishi bilan bog'lab, tafakkurni munosabatlarning birlamchi qarab chiqish, yoki birlamchi ma'lumot berish manbai sifatida talqin qiladilar. Tafakkur taraqqiyoti masalasini ko'tarib chiqib, o'sishning fikrlarni faollashtirish orqali amaliy faoliyatdan tafakkurni mutlaqo ajratib qo'yidilar. Tafakkurni tadqiq qilishning asosiy metodi – bu o'z-o'zini kuzatish ekanligini tan oladi, xolos. Mazkur muammo gnoselogik nuqtai-nazardan olib qaralganda ushbu pozitsiya idealizmizmiga kirib borayotganligini anglab olish unchalik qiyin emas. Vyurtsburg maktabi namoyondalari tafakkurni alohida mustaqil bilish faoliyati sifatida aniq ko'rsata bildi. Biroq

tafakkurni amaliyotda nutqdan va hissiy obrazlardan qat'iy ajratib tashladilar.

Vyurtsburg psixologiya maktabi namoyondalaridan biri O.Zel'ts tafakkurni intellektual operatsiyalar harakati sifatida qabul qilgan. U o'z oldiga fikr yuritish faoliyatining u yoki buni jihatlari qay yo'sinda shakllanishini kuzatish, intellektual faoliyat bosqichlarini ko'rsatish aqliy faoliyatning produktiv va reproduktiv ko'rinishidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish vazifasini qo'ydi. O.Zel'ts masala yechish jarayonini o'rganishda umumiylikka ega bo'lgan masalani vujudga keltirish bosqichlariga alohida e'tibor berib, elementlar bilan predmetlar munosabatini ajratib ko'rsatadi. Buning natijasida muammo kompleksi namoyon bo'ladi. Kompleks o'z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olishi nazarda tutilgan: a) ma'lumning tavsifnomasini bo'laklarga ajratish; b) qidiriluvchi noma'lumning o'rmini aniqlash; v) noma'lum qidiriluvchi bilan ma'lum o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish.

SHunday qilib, Vyurtsburg psixologiya maktabining namoyondasi O.Zel'ts psixologiya tarixida birinchi bo'lib tafakkurni jarayon sifatida eksperimental metodlar bilan tadqiq qilgan, intellektual operatsiyalar va ularning tarkibiy qismlarini nazariy va amaliy jihatdan ta'riflab bergan, izchil ilmiy metodlarga asoslanib, o'rganishga butun vujudi bilan intilgan psixologdir. Germaniyada psixologiyaning geshtal'tpsixologiya yo'nalishi vujudga keldi. Uning, ko'zga ko'ringan namoyondalari qatoriga X.Erenfel's (1859-1932), V.Keler (1887-1967), K.Kofka (1886-1941) va boshqalar kiradi. Geshtal'tchilar fikriga qaraganda, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kiruvchi qism va elementlarni birgalikda aks ettirishdan ko'lam jihatidan keng, mazmun jihatidan rang-barangdir. Geshtal'tchilarning aksiomatik xarakterga ega bo'lgan ushbu tezislari mazkur ta'limot g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi, alohida olingan qism va elementlarning yig'indisi yaxlit tuzilish mazmunini belgilab bera olmaydi, aksincha yaxlit tuzilma qism va elementlarning xususiyatlari va xossalarini belgilab berishga qurbi yetadi.

Geshtal'tpsixologiyaning markaziy nazariyasi har qanday psixologik jarayonlarning bosh mohiyati ularning sezgilarga o'xshash alohida elementlari emas, balki konfiguratsiya shakli yoki geshtal'tchilarning yaxlit yaratishidan iborat.

Geshtaltpsixologiyada tafakkur muammosining tadqiqoti keng qamrovli tarzda olib boriladi. Jumladan, V.Kelyor antropoidlarning intellektual harakatlarini eksperimental o'rganish natijasida yuqori darajada taraqqiy qilgan maymunlarning aqliy harakatida inson harakatiga xos o'xshashlik borligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

V.Kelyorning fikricha, topshiriqni yechish mexanizmi quyidagilardan iborat: organizmning optik maydonidagi vaziyatlarning muhim elementlari bir butunlikni, ya'ni vaziyat elementlariga, geshtal't ichiga kirib, geshtal'tda qaysi joyni egallashga bog'liq ravishda yangi ahamiyat kasb etadi. Vaziyatning muhim elementlaridan namoyon bo'luvchi geshtal'tchilar muammosi vaziyatda organizmda ba'zi bir zo'riqishlar ta'sirida vujudga keladi, topshiriqni yechish muammoli vaziyatning qismlari yangi geshtal'tda yangi munosabatda idrok qilina boshlaganida tugallanadi. Masalani yechish aniq qadamlarni yuzaga keltiruvchi geshtal't sifatida maydonga chiqadi.

Geshtal'tchilarning ayrimlari "yo'nalish" atamasini qo'llab, uni o'tmish tajribasi bilan bog'lashga intiladilar. SHuningdek, ular "tafakkurning evrestik metodlari" to'g'risidagi tushunchadan ham foydalanadilar. Bunda materialni, qo'yilgan maqsadni, konfliktli holatlarni tahlil qilishni nazarda tutadilar.

Geshtal'tchilar tafakkur psixologiyasining qator muammolarini ko'tarib chiqadilar, chunonchi ijodiy tafakkurning o'ziga xosligi, tafakkur jarayonida yangilikning vujudga kelishi, bilimlar bilan tafakkur nisbati, topshiriqni bajarish jarayonida asta-sekin va birdaniga yechish yo'lini qo'llash kabilar. Tafakkurni psixologik o'rganishda funktsional rivojlanish g'oyasini amaliyotga tadbiiq qilish ham ma'lum darajada geshtal'tpsixologiya namoyondalarining xizmati hisoblanadi.

SHunga qaramasdan V.Kyoler M.Vertgaymer, K.Dunkerlarning eksperimental tadqiqotlari tafakkurning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan predmetlarni yangi aloqalar va munosabatlarga fikran jihatini ochishni aniqladilar. Ammo ular ham mazkur muammoli vaziyatda individning amaliy va nazariy aqliy faoliyatlari rolini mutlaqo tan oladilar.

Amerika psixologiyasida vujudga kelgan bixeviorizm yoki hulq psixologiyasi oqimi o'tgan asrning oxirlaridan boshlab hukm surib kelmoqda. Bixeviorizm oqimining asoschilari amerikalik psixologlar

Dj.Uotson (1878-1958) va E.Torndayk. (1871-1949) lardir. Keyinchalik bular qatoriga K.Levin (1890-1957) A.Vays (1974-1931) va boshqalar kelib qo'shiladilar. Ma'lum davrgacha mazkur oqim psixologiya olamida dominantlik rolini o'ynaydi. Hozirgi davrda bu oqim bir necha mustaqil psixologik maktablarga ajralib ketgan. Lekin ularning mohiyatida bixeviorizm nafasi urib turadi. Hammasi uchun umumiy formula S-R, ya'ni stimul-reaktsiya xizmat qilib kelmoqda.

Dj.Uotson tafakkurning ichki nutq va noverbal tovushsiz imoishora, mimika, yelka qisishi, qosh suzish, kommunikatsiya, muloqotni birga qo'shib, keng ma'noda tushunadi va uni uchta shaklga ajratib o'rganadi. Nutq shakllaridan biri nutq malakalarini sekin-asta avj oldirish deb ataladi. Bu she'rni yoki tsitatani aniq esga tushirishda o'z ifodasini topadi. Tafakkurning ikkinchi shakli subyekt uchun yangi bo'lmagan topshiriqni so'z yordami bilan yechish, yarim-yortisi unutilgan she'rni eslashga harakat va nihoyat, yangi topshiriqni yaqqol ifodali harakat va so'z yordami bilan yechish Dj. Uotson uchun malaka u individual egallagan va o'rganilgan xatti-harakatdir. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qarasa, tafakkur malakaga yaqinlashtirilib qo'yiladi, chunki she'rni esga tushirish ham tafakkur deb talqin qilinadi.

Dj. Uotson tilni o'zlashtirishning ijtimoiy jihatlarini umuman hisobga olmagan, nutqning tuzilishi va rivojlanishiga sira e'tibor qilmagan. Nutq bilan tafakkur birligi to'g'risida tamoyilni anglab yetmagan, tafakkur va ongning hulq ko'rinishi sifatida olib qaralgan.

NUTQ

Nutq haqida umumiy tushuncha. Insonning tafakkuri va nutqi o'zaro birlikda rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Tafakkurning barcha turida nutq ishtirok etadi. So'z tushunchalar, hukmlarni ifodalash, narsava hodisalarni ongda aks ettirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog'langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tiqodlar, intellektual, ma'naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe'l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi.

SHunday ekan, nutq – inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg'unligidan iborat bilishga oid psixik jarayon.

Odamlarning nutq orqali aloqa qilishlari har doim til vositasida amalga oshiriladi. Til yordamida fikr almashmasdan odamlar birgalikda mehnat qila olmas edilar. Tilsiz ijtimoiy ishlab chiqarish va binobarin, jamiyatning o'zi ham bo'lmas edi.

Til – shartli belgilar tizimi bo'lib, ularning yordamida odamlar uchun muayyan ma'noga va mazmunga ega bo'lgan tovushlar yig'indisi uzatiladi.

Nutqda alohida insonning ruhiyati ifoda topadi. Nutq xususiy jihatdan alohida shaxsga xos bo'lib, unda alohida olingan insonning psixologiyasi aks etadi, til esa hamma uchun bittadir.

Nutq orqali bildirilgan ishoralar yordamida muayyan predmet, harakat, holat va h.k. ifodalanadi. So'z esa, predmet yoki hodisa to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq.

Har bir so'zning umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi tafakkurning yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Fikr almashuv, ya'ni muloqot muayyan ma'lumotlarni, fikrlarni, tuyg'ularni odamlar bir-birlariga yetkazib berishdan iborat bo'lgan jarayondir.

Inson nutqining aniqligi cheklangan miqdordagi nutqiy belgilar – turli murakkablikdagi tarkibiy qismlar (tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va gaplar) yordamida insonning cheksiz-chegarasiz turli-tuman fikrlarini, maqsadlarini va tuyg'ularini ifodalash imkonini beradi.²²

Nutq va uning turlari. Insonning hayvonot olamidani farq qiluvchi, uning fiziologik, psixik va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi asosiy xususiyatlardan biri nutq hisoblanadi.

Nutq – inson psixologiyasining eng muhim qirralaridan biri bo'lib, boshqa psixologik jarayonlarni boshqarib, bir-biriga bog'lab turadi. Inson ongidagi tafakkur va tasavvur qilish jarayonlari nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning fikrlash faoliyatini – nutqiy tafakkurni paydo qiladi. Nutqning rivojlanishi boshqa psixologik jarayonlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

²²Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan .384 p

Nutq o'z navbatida tashqi, ichki, og'zaki, yozma dialog va monolog ko'rinishlarida bo'ladi. Nutq o'zaro munosabat va muloqotda eng asosiy qurol hisoblanadi.

Psixologiyada «til» va «nutq» tushunchalari mavjud. *Til* – bu odamlar uchun ma'lum ma'no va ahamiyat kasb etuvchi tovush birikmalarini yetkazuvchi shartli ramzlar tizimi. Til jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, odamlarning ijtimoiy ongida ularning ijtimoiy turmushini aks ettirish shakli, shuningdek, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib hisoblanadi. Tilning noyoblighi shundaki, har bir odam atrofdagilar bilan muloqotda bo'ladigan tilga ega bo'ladi va rivojlanish jarayonida uni o'zlashtiribboradi.

Til – bu murakkab hodisa. Istalgan til, avvalo, tilning *leksik tarkibi* deb ataluvchi ma'nodor so'zlarning ma'lum tizimiga egadir. Til so'z va so'z birikmalarini turli shakllarining ma'lum tizimidan iborat bo'lgan til *grammatikasiga*, shuningdek, aniq bir tilga xos bo'lgan ma'lum tovush yoki *fonetik* tarkibga egadir.

Til, asosan, har bir so'z ma'nosini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Tildan farqli ravishda nutq deb ma'lumot yetkazish, ko'rsatma, savol, buyruq berish shaklida amalga oshiriladigan nutqiy muloqot jarayoniga aytiladi. Nutq yordamida u yoki axborotni yetkazish uchun ma'lum ma'noga ega bo'lgan mos so'zlarni tanlash emas, balki ularni aniqlashtirish ham lozim. Nutqdagi har bir so'z ma'lum ma'nogacha qisqartirilgan bo'lishi zarur. Bunga so'zni ma'lum kontekstga kiritish bilan erishiladi. Masalan, «Bu qanday mashina?» degan savol bilan bizni jismning o'zida qiziqtirayotgan holatni aniqlashtirmoqchi bo'lganimizda murojaat qilamiz, agarda «Bu kimning mashinasi?», deb savol bersak, bizni jism emas, uning kimga tegishligi qiziqtirayotgani ma'lum bo'ladi.²³

Nutqda so'z ifodalari bilan yetkaziladigan mazmundan tashqari, bizning so'zlayotganlarimizga nisbatan munosabatimiz ham ifodalanadi. Bu hodisa nutqning emotsional-ifodali jihati deb ataladi va iborani talaffuz qilishda qo'llaydigan so'zlarning jaranglash toni bilan belgilanadi.

Va nihoyat, nutq psixologik jihatdan mohiyatga ega bo'lgan u yoki bu ibora maqsadini aks ettiruvchi kontekstdan iborat bo'ladi.

²³David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-421

SHunday qilib, nutqiy muloqot – bu murakkab va ko'p tomonlama jarayon. A.N. Leontevning fikriga ko'ra, har bir nutq akti «o'ziga xos nutqning shakli va turi, aniq sharoitlar va muloqot maqsadlariga ko'ra, turli nutq vositalarini qo'llashni talab etuvchi psixologik muammoning yechimini topishdan iborat». Xuddi shu nutqni tushunishga ham tegishlidir.

Nutq – bu insonga xos bo'lgan faoliyat. Nutq bilan birga til ham, ilk marotaba faqat insoniylik jamiyatida, hamkorlikdagi mehnat jarayonida yuzaga kelgan.

Ilm-fandagi ma'lumotlar insoniyatning tarixida dastlab tovushli nutq takomillashmaganligini ko'rsatadi. Odamlar qo'l harakatlari bilan muloqotga kirishganlar. Ilk iboralar bitta so'zlar bilan ifodalangan, deb taxmin qilish mumkin. Dastlabki nutq shakllari juda oddiy bo'lgan. Ularda yashirin ma'no, jumlar bo'lmagan. Nutq aniq maqsadlarda, qandaydir ma'lumotni yetkazishdagina ishlatilgan. So'ngra mehnat ta'sirida so'z ma'nolari rivojlana borgan va bu asta-sekin murakkab tilning shakllanishiga olib kelgan.

Nutq rivojlanishining keyingi bosqichi yozuvning yaratilishidir. Yozuvli nutq og'zaki nutq kabi o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlardan o'tgan. Dastlab yozuv belgilari paydo bo'lgan, keyinroq esa, tovushli nutq paydo bo'lishi bilan yozuv belgilari tovushlar ma'nosini aks ettira boshlagan. Bu zamonaviy yozuvning yuzaga kelishiga olib kelgan.

Irsiy jihatdan nutq tafakkur bilan birga ijtimoiy-mehnat amaliyotida paydo bo'ldi va u bilan insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayonida rivojlandi. Nutq yaxlitligicha ong tomonidan boshqariladi. Ongning asosiy vazifasi – turmushni anglash, aks ettirish, til va nutq buni maxsus holatda bajaradilar: ular turmushni, belgilagan holda aks ettiradilar.

Til va nutq o'zaro farqlanadilar. Til – odamlar orasidagi muloqotni amalga oshirishga yordam beradigan vosita, so'z belgilarining tizimi. Nutq odamlarning muloqot qilish maqsadida tildan foydalanishlaridir.

Tilning o'ziga xosligi shu tilda gaplashadigan xalqning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq. Odam o'z ona tilini o'zlashtirganda mazkur tilning tarixiy taraqqiyoti bilan muvofiqlashgan so'z tushunchalarni tayyor holda oladi. Tushunchalarning o'ziga xosligi mazkur til sohiblarining dunyoni qanday idrok qilishlarini, narsalarni to'falarga

ajratish usullarini belgilaydi. SHunday qilib, nutq –bu muloqot faoliyati. Ma'lumotlar til orqali uzatiladi, nutq bu tilning harakatlanishidir.

Nutqning ikki asosiy vazifasini ajratish mumkin: muloqot va signifikativ. Mana shu vazifalar evaziga nutq muloqot vositasi va ongning, fikrlarning mavjudlik shakli bo'lib xizmat qiladi. Ularning biri ikkinchisi orqali shakllanadi va biri ikkinchisi orqali ishlaydi.

Nutq tafakkurning quroli hisoblanadi. Rus psixologi L.S.Vigotskiy tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligi muammosini o'rganishga katta hissa qo'shgan. U so'zning inson ongi va psixik rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan. Uning belgilar nazariyasiga muvofiq, rivojlanishning yuqori bosqichlarida ko'rgazma-obrazli tafakkur muayyan jismning barcha belgilarini o'zida umumlashtirgan so'z yordamida so'z-mantiqiy tafakkurga aylanadi. So'z inson tafakkurini mavhum tafakkur darajasigacha rivojlanishiga yordam beradigan "belgidir". SHuningdek, so'z muloqot vositasidir. SHuning uchun u nutq tarkibiga kiradi. So'zning o'ziga xosligi shundaki, agar u o'z ahamiyatidan mahrum etilsa, u fikrga ham, nutqga ham aloqadorligini yo'qotadi. Lekin o'z ahamiyatini kasb etgan zahoti ikkisining ham tarkibiy qismiga aylanadi. So'zning mazkur xususiyatini hisobga olgan holda, Vigotskiy nutq va tafakkurning birligini so'zning ahamiyatida deb ko'rsatgan. Bunday birlikning yuqori darajasi nutqiy tafakkurdir. Nutq va tafakkur bir xil jarayonlar emas, chatishib ham ketmaydi. Lekin ular bir- biri bilan chambarchas bog'liq jarayonlardir.

Nutq va tafakkurning kelib chiqish ildizlari har xil. Dastlab ular alohida rivojlangan. Nutqning dastlabki vazifasi muloqot bo'lgan. Nutqning o'zi muloqot vositasi sifatida odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish zarurati tug'ilganda paydo bo'ldi. O'z navbatida tafakkurning nutq bilan bog'liq bo'lmagan turlari ham bor. Masalan, ko'rgazma-harakatli, amaliy, hayvonlar tafakkuri. Lekin tafakkur va nutqning keyingi rivojlanishi turli bosqichlarda turli shakllarda namoyon bo'lib, birgalikda va o'zaro chambarchas bog'liqlikda amalga oshdi.

Filogenezda nutqning rivojlanishi bir necha bosqichda amalga oshgan. Odamlarning tafakkuri narsalarga nisbatan amaliy aqliy faoliyat ko'rinishida amalga oshgan dastlabki bosqichda, nutq bu narsalar haqidagi bilimlarni ularni nomlar bilan ifodalab

mutahkamlagan. SHuning uchun mazkur bosqichda nutq amaliy faoliyat tarkibigi kirgan. Bunday nutq simpraksik deb ataladi. Tilning murakkablashuvi bilan tafakkur harakatlari bilan bevosita birlashuvidan ozod bo'lib nutq, ichki, ideal faoliyat xarakterini kasb etdi. Bunda nutq ichki nutq nomini oldi. Demak, tafakkur va nutq murakkabbirlikni tashkil etadi.

Nutq rivojlanishining keyingi bosqichi yozuvning paydo bo'lishi bilan bog'liq. SHunday qilib, inson nutqi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsulidir.

Ontogenezda nutq interiorizatsiya jarayonida shakllanadi. Bola nutqining rivojlanishi bir necha bosqichda amalga oshadi.

So'z nutqidan oldingi davr (birinchi yilning oxirigacha).

Nutqni dastlabki egallash bosqichi. Bir yarim yosh ikki yarim yosh oralig'ida bola ikki so'zdan iborat sodda gaplar tuzadi.

Nutq amaliyoti jarayonida bola nutqining rivojlanishi. Bu davr uch yoshdan olti yoshgacha davom etadi.

Bolaning yozma nutqni egallash davri. Bola muloqot doirasining kengayishi, uning nutqdan ijtimoiy munosabatlar o'rnatish uchun foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi.

Nutq rivojlanishining keyingi bosqichi insonning o'z bilim doirasini kengaytirishi, kitoblar mutoalasi, odamlar bilan muloqotning faollashuvi bilan bog'liq.

SHu bilan birga, nutq va tilning o'zaro aloqasi shubhasizdir. CHunki ma'lum tilsiz nutq bo'lmagani kabi, nutqda qo'llanmaydigan til ham bo'lmaydi. Demak, nutq – bu verbal kommunikatsiya, ya'ni til vositasidagi muloqot jarayonidir. Inson nutqi xilma-xil shakllarga ega,

Og'zaki va yozma nutq ma'lum o'xshashlikka ega bo'ladi. Bu o'xshashlik hozirgi zamon tillaridagi yozma nutq, xuddi og'zaki nutq kabi tovushli ekanligidan iborat: yozma nutq belgilari bevosita ma'noni emas, so'zning tovush tarkibini yetkazadi.

Og'zaki nutq nutqning asosiy boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, suhbat shaklida kechadigan nutq hisoblanadi. Bunday nutq *suhbat* yoki *dialog* deb ataladi. Uning asosiy xususiyati suhbatdosh tomonidan faol olibboriladigan nutq hisoblanadi, ya'ni suhbat jarayonida ikki suhbatdosh ishtirok etib, tilning sodda gap va iboralarini qo'llaydilar. Dialog nutqning ochiq holda ifodalanishi talab etilmaydi, chunki suhbatdosh suhbat davomida nima haqida so'z

yuritilayotganini tushunadi va boshqa suhbatdosh tomonidan bildirilgan iborani fikran yakunlay oladi. SHunga o'xshash vaziyatlarda birgina so'z boshqa suhbatdosh tomonidan aytilgan iborani yakunlab qo'yishi mumkin. Bunda birgina so'z yaxlit iboraning o'rnini bosadi.

Nutqning boshqa shaklini so'zlovchi tomonidan aytilgan nutq tashkil etadi, bunda tinglovchilar uning nutqini idrok qiladilar, lekin unda to'g'ridan-to'g'ri qatnashmaydilar. Bunday nutq *monolog* deb ataladi. Ma'ruzachining nutqi monologik nutq hisoblanadi. Bu nutq psixologik jihatdan dialogdan murakkabroqdir, chunki u tinglovchidan o'z mulohazalarini tushunarli, qat'iy mantiqqa asoslangan holda bayon qilish malakasini talab etadi. Bunda so'zlovchi yetkaziladigan axborotning tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilishini baholashi zarur, ya'ni u faqat o'z nutqinigina emas, balki tinglovchilarni ham kuzatishi kerak bo'ladi.



18-sxema. Nutq turlari

Dialog ham, monolog ham *faol* va *sustbo*'lishi mumkin. Nutqning faol shakli – bu so'zlovchining nutqi, tinglovchining nutqi esa sust shaklda namoyon bo'ladi. Odamlar faol va sust nutq shakllarining rivojlanish darajasiga ko'ra ajratiladilar. Ko'pincha, odam boshqa

odamning nutqini yaxshi tushunadi, lekin o'zining fikrlarini yetkazibberolmaydi. Va, aksincha, odam yetarlicha yaxshi so'zlabberishi mumkin, lekin boshqalarni tinglashni umuman bilmaydi.

Nutqning boshqa turi *yozma* nutq hisoblanadi. Yozma va og'zaki nutqlar o'rtasida psixologik tafovutlar mavjud. Yozma nutq murakkab nutq shakli bo'lib hisoblanadi. U avvaldan o'ylab iboralar tuzish, mulohazalarni aniqroq bayon etishni talab etadi. Yozma nutqga og'zaki nutqdan farqli emotsional tus beribbo'lmaydi, uni zarur imo-ishoralar bilan amalga oshirish mumkin emas.


Nutqning yana bir – *kinestetik* shakli mavjud. Nutqning bu turi insonda o'tmish davrlardan buyon saqlanib qolgan. Vaqt o'tishi bilan nutqning ushbu turi o'z vazifalarini yo'qotgan, lekin eshitish va gapirish xususiyatidan mahrum bo'lgan odamlar uchun, avvalgidek, nutqning asosiy turi bo'lib xizmat qilmoqda.

Nutq turlarining ichki va tashqi nutq turlariga bo'linishining yana bir umumiy ko'rinishi mavjud. Tashqi nutq muloqot, axborot almashinuv jarayonlari bilan bog'liq. Ichki nutq, avvalambor, tafakkur jarayonini ta'minlash bilan bog'liq.

Og'zaki, ayniqsa, yozma nutqqa tayyorgarlik ko'rishda so'zlovchining o'z ichida nutqni qaytarib olish davri mavjud. Mana shu ichki nutqdir. Unga parchalarga bo'linganlik xosdir, u vaziyatga bog'liq bo'ladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida shakllanadi. Tashqi nutqning ichki nutqqa ko'chirilishi (interiorizatsiya) tashqi nutq tuzilishining qisqarishi bilan birgalikda kechadi, ichki nutqning tashqi nutqqa o'tishi (eksteriorizatsiya) esa, aksincha, ichki nutq tuzilishini ochibberishni, uni mantiqiy, hamda grammatik qoidalarga muvofiq ravishda tuzishni talab etadi.

Nutqning buzilishi. Bosh miyaning organik zararlanish kasalliklari, bosh miyadagi nutqni tushunish markazlari jarohatlarida, kalla chanoq suyaklari shikastlanishida, isteriyalarda nutqning buzilishi kuzatilib, u *afaziya* deyiladi. Afaziyaning bir necha turlari farq qilinadi, ularning ko'pgina umumiy va bir-biridan farq qiladigan xususiyatlari ham mavjud. Afaziya bilan og'riqan bemorlarda so'zlar va ularni tashkil etuvchi nutq tovushlarini to'g'ri tanlash buziladi, shuningdek, mustaqil nutqning grammatik tuzilishi ham buziladi. Bunday bemorlarning nutqi kambag'al, ishlatiladigan so'zlar zahirasi ancha cheklangan bo'ladi. Bir xil so'zlarni va bo'g'inlarni boshqalari

bilan almashtirish kuzatilib, gapning ayrim qismlari o'rtasidagi bog'lanish buziladi. SHuningdek, o'qish va yozishning yomonlashuvi ham kuzatilishi mumkin. Afaziyalar *motor*, *sensor*, *totalafaziyalarga* ajratiladi (21-rasm)



21-rasm. Nutqni tushunish markazlari

Motor afaziya rasmda qizil rangda ko'rsatilgan Brokk markazining shikastlanishi natijasida vujudga keladi. Brokk markazi shikastlangan odam ma'noli so'zlardan foydalana oladi, lekin ularni bir-biriga bog'lay olmaydi, gap tuza olmaydilar. Bemorlar o'zlariga qaratilgan nutqningina tushumadilar. *Sensor* afaziya yuqori chakka ariqchalarning orqa qismida joylashgan, yozma va og'zaki nutqni tushunish va o'zlashtirish uchun javobberadigan Vernike markazining (rasmda yashil rangda) shikastlanishida ro'y beradi. Bemor so'zlarning bir-biri bilan bog'lay oladi, lekin ular ma'noga ega bo'lmaydi. *Total* afaziya nutqning barcha turlari yo'qolishi bilan xarakterlanadi. Bemor gapirishga harakat qilib, ba'zan u yoki bu tovushni talaffuz qilishi mumkin. Bu holat bosh miyada qon aylanishi buzilganda va atrofik shikastlanishda kuzatiladi.

MULOQOT

Inson o'z nutqi orqali muloqotda shakllanadi, rivojlanadi va shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muloqotda ruhiyat taraqqiy etadi va individ o'zini hayotga joriy etadi. Ruhij jihatdan rivojlangan odamlar bilan muloqotda bo'lish orqali, ilm olishga bo'lgan keng imkoniyatlar evaziga inson o'zining barcha yuksak qobiliyat va sifatlarini egallabborib, shaxsga aylanadi.

Tirik mavjudotlar muloqoti filo va ontogenezdagi rivojlanadi. Bu rivojlanish jarayonining barcha asosiy tomonlari: mazmuni, maqsadlari va vositalarini egallaydi. Muloqotning filogenetik taraqqiyoti muloqot mazmunining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, quyidagi fikrlarda o'z ifodasini topadi:

- bir mavjudotdan ikkinchisiga yetkaziladigan muloqot mazmunining yangi axborot bilan boyitilishi. Avvalo – bu organizmning ichki, biologik holatlari haqidagi ma'lumotlar; so'ngra – tashqi muhitning hayotiy muhim xossalari haqida axborot. SHundan so'ng muloqot mazmuniga kognitiv xususiyatga ega bo'lgan, obyektiv, tirik jonzotning xususiy ehtiyojlaridan mustaqil bo'lgan tushunchalar ko'rinishidagi olam haqida bilimlarini ifoda etuvchi axborot kiradi. Bu, endi, inson darajasida, muloqot evolyutsion rivojlanishining birinchi ikki bosqichi esa hayvonlar darajasida sodir bo'ladi;

- maqsadlarning boyitilishi o'zaro muloqotda bo'ladigan organizmlar ehtiyojlarining o'zgarishi va rivojlanishi bilan bog'liq: bu ehtiyojlar qanchalik turlicha va yuksak bo'lsa, muloqotning maqsadi shunchalik xilma-xil va takomillashgan bo'ladi.

Muloqot vositalarining filo va ontogenezdagi taraqqiyoti bir necha yo'nalishlarda boradi. Birinchidan, bu muloqotchanlik vositalarining maxsus organlari, masalan, qo'llarning ajralishi. Ikkinchidan, ekspressiv ko'rinishdagi harakatlar (imo-ishora, mimika, pantomimika)ning rivojlanishi. Uchinchidan, axborotlarni yetkazish va kodlashtirishning vositasi bo'lgan belgili tizimlarni kashf etish va qo'llash. To'rtinchidan, insonlar muloqotida qo'llaniladigan axborot yetkazish va qayta tuzish, saqlashning texnik vositalarini rivojlantirish va takomillashtirish (matbuot, radio, televidenie, telefon, telefaks, texnik yozuvning magnitli, lazerli va boshqa usullari va h.k.).

Bolaning ruhiy taraqqiyotida ontogeneznining dastlabki bosqichi davridagi uning kattalar bilan muloqoti, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Muloqotda, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish, keyinchalik so'ngra esa, verbal o'rganish – iborali qoidalar orqali bolaning hayotiy tajribasi orttirilibboriladi. U bilan muloqotda bo'ladigan odamlar bola uchun bu tajribani tashuvchi bo'lib xizmat qiladi va muloqotdan tashqari, boshqa hech qanday vosita yordamida bunga erishibbo'lmaydi.

O'z tadqiqotlarida R.S. Nemov inson muloqoti taraqqiyoti ontogenezi va uning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqadi. Uning ta'kidlashiga ko'ra, inson bolasi o'zida odamlar bilan emotsional muloqotga kirishishga bo'lgan layoqatni uch oyligida sezadi (jonlanish kompleksi), bir yoshga yetganda esa uning ekspressiyasi shunchalik boyib ketadiki, muloqotning verbal tilini tezda o'zlashtirib olish, tovushli nutqdan foydalanish imkonini beradi.

R.S. Nemovning fikriga ko'ra, maktabgacha bo'lgan davrda odam muloqotining ontogenetik taraqqiyoti bosib o'tadigan asosiy bosqichlarni quyidagicha tasavvur qilib, ta'riflash mumkin:

1. *Tug'ilgandan 2-3 oylikkacha bo'lgan yosh davri.* Mazmun jihatidan biologik bo'lgan, bolaning hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi aloqaviy muloqot. Muloqotning asosiy vositasi – sodda mimika va oddiy imo-ishoralar.

2. *2-3oylikdan 8-10 oylikkacha yosh davri.* Asosiy his-tuyg'u organlari faoliyatining boshlanishi va yangi taassurotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan bilish muloqotining dastlabki bosqichi.

3. *8-12 oylikdan taxminan 1,5 yoshgacha bo'lgan davr.* Kognitiv ehtiyojlarga xizmat qiluvchi boshqariladigan, verbal-neverbal muloqot. Tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga o'tish.

4. *1,5 yoshdan 3 yoshgacha.* Jismli faoliyat va o'yinning paydo bo'lishi bilan bog'liq faoliyat va o'yin muloqotining yuzaga kelishi. Faoliyat va shaxs muloqotiga bo'linishning dastlabki bosqichi.

5. *3 dan 6-7 yoshgacha bo'lgan davr.* Tabiatdan berilgan turli xildagi tabiiy belgilar yoki orttirilgan muloqot vositalarini ixtiyoriy ravishda tanlash va ulardan foydalanish. Syujetli-rolli o'yinlarga jalb qilish asosida paydo bo'ladigan syujetli-rolli muloqotning rivojlanishi.

Maktabga qadam qo'yishi bilan bolaning aqliy va shaxsiy o'sish jarayoni jadallashadi. Muloqot mazmuni chuqurlashadi va xilma-xillashadi, maqsadlar ko'payib, muloqotchanlik vositalari takomillashadi.²⁴

Muloqotning vazifalari va turlari. Muloqot turli-tuman vazifalarni bajaradi. Turli mualliflar muloqotning turli vazifalarini ajratib ko'rsatadilar. G.M. Andreeva kommunikativ, interaktiv va pertseptiv vazifasini sanab o'tadi. M.I.Enikeev axborotli-kommunikativ, boshqaruv-kommunikativ, pertseptiv-samarali va

²⁴ David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.422

affektiv-ekspressiv (emotsional o'zini ifodalash) vazifalarini ko'rsatadi. A.A.Brudnyy: instrumental, sindikatli, translyatsiya, o'zini ifodalash vazifalarini ajratadi. *Instrumental* –bu muloqotning harakatni bajarish uchun muhim axborotni yetkazishdan iborat bo'lgan asosiy ishchi vazifasi. Bu vazifaga yaqin bo'lgan, lekin unga o'xshash bo'lmagan vazifa, birlashtirish – *sindikativ* vazifa. Ko'pchilik muloqot aktlarining bevosita maqsadlari katta va kichik guruhlardagi odamlar o'rtasidagi umumiylikni aniqlash va mustahkamlashdan iborat. Sindikativ vazifa bilan *o'zini ifodalash* vazifasi bir-biriga yaqindir. O'zini ifodalash o'z mohiyatiga ko'ra, hamfikrlikka, aloqaga qaratilgan. Alohida o'rinni ijodiy faoliyatdagi o'zini ifodalash egallaydi, u faoliyat mahsuli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki u, odamlar o'rtasidagi muloqot predmetiga aylanadi. Va nihoyat, muloqotning *translyatsion* – faoliyatning aniq usullari, baholash mezonlari va dasturlarni yetkazish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa ta'lim olish asosida yotadi: muloqot orqali shaxsning ta'lim olishi amalga oshadi. L.A. Karpenko maqsadga ko'ra muloqotning sakkiz xil vazifasini belgilaydi:

- *aloqaviy* – xabarlarini qabul qilish va yetkazish, hamda o'zaro aloqada bo'lishga ikkala tomonning shayligi holati sifatida aloqa o'rnatish;

- *axborotli* – xabarlar, fikrlar, maqsadlar, yechimlar va boshqalar almashinuvi;

- *chorlovchi* – muloqot bo'yicha sherikni u yoki bu harakatlarni bajarishga yo'naltiruvchi faolligini rag'batlantirish;

- *boshqaruvchi* – hamkorlik faoliyatini tashkil etishda harakatlarni o'zaro yo'naltirish va muvofiqlashtirish;

- *anglash vazifasi* – yetkazilgan ma'lumotning mohiyatini mutanosib holda idrok qilish va tushunishgina emas, balki, sheriklarning ham o'zaro bir-birlarini tushunishlari (istaklari, mayllari, kechinmalari, holatlari va h.k.lari);

- *amotiv* – sherikda zarur hissiyotli kechinmalarni uyg'otish («hislar almashinuvi»), shuningdek, uning yordamida shaxsiy kechinma va holatlarni o'zgartirish;

- *munosabatlarni o'rnatish* – individ mavjudligi kutilayotgan jamiyatdagi rolli, darajali, ish bo'yicha, shaxslararo va boshqa aloqalari tizimlarida o'z o'rnini anglash va qayd etish;

- *ta'sir o'tkazish* – sherikning holati, hulq-atvori, shaxsiy-mazmunli hosilalari, shuningdek, istaklari, mayllari, fikrlari, yechimlari, tasavvurlari, ehtiyojlari, harakatlari, faolligi va boshqalarni o'zgartirish.

B.F. Lomov muloqotning quyidagi vazifalarini taklif etadi: axborotni qabul qilish-etkazish jarayonlarini o'z ichiga olgan *axborot-kommunikativ*; hamkorlik faoliyatini amalga oshirishda harakatlarni o'zaro tuzatish bilan bog'liq *boshqaruvchi-kommunikativ*; inson hissiyotlari sohasiga tegishli bo'lgan va o'z emotsional holatini o'zgartirishdagi ehtiyojlarga javobberuvchi *affektiv-kommunikativ* vazifalar.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalar real muloqot amaliyotida amalga oshiriladi.

Mazmun-maqсадlari va vositalariga ko'ra muloqotni bir nechta turlarga bo'lish mumkin. *Mazmuniga* ko'ra, u *moddiy* (faoliyat jismlari va mahsulotlari almashinuvi), *kognitiv* (bilimlar almashinuvi), *konditsiv* (ruhiy va jismoniy holatlar almashinuvi), *motivatsion* (xohishlar, maqsadlar, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar almashinuvi), *faoliyatli* (harakatlar, muolajalar, malakalar, ko'nikmalar almashinuvi) bo'lishi mumkin.

Moddiy muloqotda subyektlar, shaxsiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan holda, uning mahsulotlari bilan almashadilar, ular o'z navbatida dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Konditsiyali muloqotda odamlar o'zlarini ma'lum jismoniy yoki ruhiy holatga keltirishga mo'ljallangan bir-birlariga nisbatan o'zaro ta'sir ko'rsatadilar. Masalan, kayfiyatni ko'tarish yoki, aksincha, uni tushirib yuborish; bir-birini qo'zg'atib yuborish yoki tinchlantirish, va, oqibatda, bir-birining kayfiyatiga ma'lum ta'sir o'tkazish. Motivatsiyali muloqotning mazmuni bir-biriga ma'lum istak, mayllarni yetkazishi yoki ma'lum yo'nalishda harakatlanishga shay bo'lishlikdan iborat. Bunday muloqot sifatida insondagi biror maqsadga, boshqa odamda biror-bir intilishning paydo bo'lishi yoki yo'qolishi, kimdadir harakatga bo'lgan ma'lum maylning yuzaga kelishi, qandaydir ehtiyojning dolzablashtirilishi uchun yetishish istagining kuchliligi kabi vaziyatlarni keltirish mumkin. Kognitiv va faoliyatli muloqotning ifodasi bilish yoki o'quv faoliyatining turlari bilan bog'liq muloqot bo'la oladi. Bunda subyektdan subyektgacha

dunyoqarashni kengaytiruvchi, layoqatlarni rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi axborot yetkaziladi.

Maqsadlariga ko'ra, muloqot xizmat ko'rsatish ehtiyojlariga muvofiq holda biologik va ijtimoiy turlarga bo'linadi. *Biologik* – bu organizmni mustahkamlash, muhofazalash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muloqot. U asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. *Ijtimoiy* muloqot maqsadlari shaxslararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, individ shaxsiy kamolotining interxususiy munosabatlarini o'rnatish va rivojlantirishdan iborat. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni nechta turga ajratish mumkin bo'lsa, muloqotning ham shuncha xususiy maqsadlari bo'lishi mumkin.

Vositalariga ko'ra, muloqot bevosita va vositali, to'g'ridan – to'g'ri va bilvosita bo'lishi mumkin.

Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qo'llar, bosh, tana, tovush paylar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. *Vositali muloqot* muloqot va axborot almashinuvni tashkil etishda maxsus vosita va qurollardan foydalanish bilan bog'liq. Bular yo tabiiy (yog'och, yerdagi izlar va h.k.) yoki madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televidenie, internet va h.k.) jismlar.

To'g'ridan-to'g'ri muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o'zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi, ularga, masalan, jismoniy aloqalar, odamlarning bir-birlari bilan suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko'rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. *Bilvosita muloqot* vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot turlari orasida, shuningdek, ish bo'yicha va shaxsiy, instrumental va maqsadli kabi turlarni ajratish mumkin.

Ish bo'yicha muloqot, odatda, xususiy qism sifatida insonlarning hamkorlikdagi samarali faoliyatiga kiritilgan va bu faoliyatning sifatini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uning mazmuniga odamlar ichki dunyosining muammolari emas, balki ularning nima bilan mashg'ulliklari kiradi. Ish bo'yicha muloqotda suhbatdoshning shaxs, xarakter, yosh, kayfiyat xususiyatlari hisobga olinadi, lekin ishdan ko'riladigan manfaat shaxsiy ixtiloflardan ustun va muhimdir. Ish bo'yicha muloqotdan farqli ravishda *shaxsiy muloqot*, aksincha, asosan, ichki xarakterning psixologik muammolariga, inson shaxsini

chuqur va yaqinlik bilan ochibberadigan: hayot mazmunini izlash, muhim insonga, atrofdagi voqealarga, qandaydir ichki nizoni hal etishga nisbatan munosabatini aniqlashga qaratilgan.

Instrumentalmuloqot sifatida mustaqil ehtiyoj bilan rag'batlantirilmaydigan, maqsadga aylanmagan, lekin muloqot aktining o'zidan qoniqishdan tashqari, qandaydir boshqa maqsadga qaratilgan muloqotni keltirish mumkin. *Maqsadli* – bu o'z holicha maxsus ehtiyojni, ushbu vaziyatda muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi muloqot.

Ta'kidlab o'tish lozimki, odamlarning amaliy faoliyatida muloqotning quyidagi turlarini ajratadilar:

1. «*Niqoblar aloqasi*» - suhbatdoshning shaxs xususiyatlarini tushunish va hisobga olishga intilish mavjud bo'lmagan rasmiy muloqot bunda haqiqiy hissiyotlar, istaklar, munosabatlarni yashirish imkonini beruvchi rasmiy iboralar, odatiy xushmuomalalik, dimog'dorlik niqoblari, yuz, imo-ishora ifodalarining to'plami qo'llaniladi.

2. *Oddiy muloqot*da boshqa odamga zarur yoki xalal beruvchi obyekt sifatida baho beradilar: agar zarur bo'lsa, aloqaga faollik bilan kirishadilar, agar xalal beradigan bo'lsa, – itarib yuboradilar, yoki tahdidli qo'pol iboralarni qo'llaydilar.

3. *Rasmiy-rolli muloqot* – bu sheriklarning ijtimoiy rollari darajasidagi muloqot (boshliq – qo'l ostidagi xodim, sotuvchi – xaridor, servis xizmati xodimi – mijoz). Bunda ma'lum qoidalar va xohishlar asosida ish yuritilib, muloqot mazmuni va vositalari ularga bo'ysundirilgan.

4. *Boshqariladigan muloqot* suhbatdoshning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullarni (xushomad, qo'rqitish, aldoov va boshqalar) qo'llagan holda undan foyda olishga qaratilgan.

5. *Dunyoviy muloqot* – bu turning mohiyati biror mavzuga oid bo'lmasligidan iborat, ya'ni odamlar o'z fikrlarini emas, balki bunday vaziyatlar uchun umumiy bo'lgan fikrlarni bildiradilar.

6. *Havoyi muloqot* – bu muloqot uchun muloqot.

7. Do'stlarning *ma'naviy, shaxslararo muloqoti* vaqtida istalgan mavzuni qo'zg'atish va bir-birlarini yuz ifodasi, tovush ohangi va harakatlar yordamida tushunish mumkin.

Inson hayotida muloqot alohida jarayon yoki faollikning mustaqil shakli sifatida mavjud bo'lmaydi. U jadal va ko'p tomonlama

muloqotsiz paydo bo'lmaydigan individual yoki guruhli amaliy faoliyatga kiradi.

Odamlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim turlari verbal va noverbal muloqotdir.

Noverbal muloqot til, tovush nutqining qo'llanilishiga asoslanmagan bo'lib, bu mimika, imo-ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar vositasidagi muloqot. Bu boshqa odamdan qabul qilinadigan taktil, ko'rish, eshitish, hid bilish, hamda, boshqa sezgi va tasavvurlar. Odam muloqotining noverbal shakl va vositalarning ko'pchiligi tug'ma bo'lib, faqat o'ziga o'xshashlar bilan emas, balki, boshqa tirik jonzotlar bilan ham hissiyot va hulq-atvor darajalarida hamfikrlikka erishish orqali o'zaro ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Verbal muloqot faqat insonga xos bo'lib, zarur shart sifatida tilni o'zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o'zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o'zaro ta'sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Buyuk shoir Sa'diyning so'zlarini yodda tutish lozim: «Aqling bormi yoki yo'q, buyukmisan yo kichik, biz bilmaymiz, sen bir so'z aytmaguningcha».

Tadqiqotlarga ko'ra, odam kommunikatsiyasining har kungi aktida so'zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo'lmagan o'zaro ta'sir – 53%ni tashkil etadi. Publitsiy aytganidek: «Ovoz orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali suhbatlashamiz».

Kundalik muloqotda odamlar ko'proq quyidagi noverbal vositalardan foydalanadilar: *kinestetika* (inson hissiyotlarining tashqi ifodalanishi), *mimika* (yuz mushaklarining harakati), *imo-ishoralar* (tana alohida qismlarining ishoratli harakatlari), *pantomimika* (butun tana: gavda holati, qomat, egilish, yurish harakatlari), *takesika* (muloqot vaziyatidagi yaqinlashishlar: qo'l siqish, o'pishish, tegib ketish, siypalash, itarib yuborish va h.k.), *proksemika* (odamlarning muloqot vaqtida fazoda joylashishi, inson aloqalarida quyidagi masofalar sohalarini ajratadilar: *yaqinlik sohasi* (15-45 sm), *shaxsiy* yoki *xususiy soha* (45-120 sm), *ijtimoiy soha* (120-400 sm), *ommaviy soha* (400 sm.dan ortiq)).

Mimika, nigoh, imo-ishoralar – noverbal muloqotning ko'proq ma'lumot olish mumkin bo'lgan vositalari. Peshona, qoshlar, og'iz, ko'zlar, burun, iyak – bu yuz qismlari insonning asosiy hissiyotlari:

hijron, g'azab, shodlik, ajablanish, qo'rquv, nafrat, baxt, qiziqish, qayg'u va boshqalarni ifodalaydilar.

Muloqot turlaridan tashqari, uning ba'zi shakllarini ham ajratish mumkin, bular: rasmiy-ish yuzasidan, mutaxassislik; xususiy, ommaviy, pedagogik muloqot, autokommunikatsiya (o'zi bilan muloqot)lardir.

Muloqot o'zining maxsus masalalari hal etiladigan ma'lum davrlarga ega. Eng mas'uliyatli davr *tayyorgarlik davri* – muloqotni rejalashtirish, o'zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – *aloqaga kirishish*. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, o'zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo'nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o'rnatilishi bilan yakunlanadi. So'ngra qandaydir muammo tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda *diqqatni jamlash davri* boshlanadi. Keyingi bosqich – *motivatsion zondaj*. Uning maqsadi – suhbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So'ngra *diqqatni mustahkamlash bosqichi* boshlanadi, keyin esa fikrlarda ziddiyatlarbo'lsa, *asoslash va ishonitirish bosqichi* keladi. Va, nihoyat, *natijalarni qayd etish bosqichiboshlanadi*. Agar mavzular ko'rib chiqilgan bo'lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so'zlar, qarashlar, qo'l siqishlar o'ta muhimdir, ba'zida ular ko'p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

Muloqot o'zaro ta'sir sifatida. Muloqotning interfaol tomoni – bu odamlarning o'zaro ta'sirlashuvi, ularning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish bilan bevosita bog'liq bo'lgan muloqot tarkibiy qismlarining xususiyatlarini anglatuvchi atama.

Muloqot va o'zaro ta'sirning aloqasi muammosiga tegishli bo'lgan turli nuqtai nazarlar mavjud. Ba'zi mualliflar muloqot va o'zaro ta'sirni tenglashtirib, ikkisini ham tor ma'nodagi aloqa sifatida tushuntiradilar; boshqalar muloqot va o'zaro ta'sir o'rtasidagi munosabatni biror jarayon shakli va uning mazmuni o'rtasidagi munosabat sifatida ta'riflaydilar; uchinchi mualliflar muloqotni aloqa sifatida va o'zaro ta'sirni interaksiya sifatida bir-biriga bog'langan, lekin aslida mustaqil holda mavjudligi haqida mulohaza yuritishni afzal biladilar.

Agar kommunikativ jarayon hamkorlikdagi faoliyat asosida yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bu faoliyatga tegishli bilimlar va g'oyalar bilan almashish, erishilgan hamfikrlik faoliyatni yanada rivojlantirish bilan bog'liq yangi urinishlarda amalga oshishini belgilabberadi. Bir vaqtning o'zida ko'pchilikning bu faoliyatda qatnashishi har bir ishtirokchining unga o'zining alohida hissasini qo'shishi kerakligini bildiradi, bu esa o'zaro ta'sirni qo'shma faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuntirish imkonini beradi. Bunday faoliyat davomida ishtirokchilarning axborot almashibgina qolmay, «harakatlar almashinuvi»ni tashkil etishlari, umumiy faoliyatni rejalashtirishlari ham o'ta muhimdir.

O'zaro ta'sir tuzilishi ketma-ket amalga oshiriladigan fazoviy, psixik, ijtimoiy aloqa sifatida, o'zaro ta'sir harakatlari sherikchilik, ijtimoiy munosabatlar (o'zaro qo'shilgan harakatlar tizimi) tomonidan bildiriladigan muvofiq keluvchi javob olish maqsadiga ega bo'lgan harakatlarni tizimli amalga oshirish sifatida ifodalanishi mumkin.

Psixologiyada barcha mavjud bo'lgan o'zaro ta'sir turlari ikki qarama-qarshi turga bo'linadi: kooperatsiya (hamkorlik) va raqobatchilik. *Kooperatsiyahamkorlik* faoliyatini tashkillashtirish, guruh maqsadlariga erishishni ta'minlabberuvchi o'zaro ta'sir hisoblanadi. *Raqobatchilik*– bu o'zaro ta'sir subyektlarining qarama-qarshi yo'naltirilgan maqsadlari, qiziqishlari, fikrlari, qarashlari, mulohazalarining to'qnashuvi. An'anaviy tarzda raqobatchilik o'zaro ta'sirning salbiy turi sifatida ko'riladi. Lekin oxirgi vaqtda qator tadqiqotlar raqobatchilikning ijobiy tomonlarini ko'rsatgan.

Muloqotning aniq mazmuni o'zaro ta'sir sifatida ishtirokchilar tomonidan faoliyatning yagona jarayoniga qo'shiladigan individual hissalarining ma'lum nisbati bo'lib hisoblanadi.

L.I. Umanskiy qo'shma faoliyatni tashkil etishning uch xil shaklini keltiradi:

1. *Qo'shma-individual faoliyat* – har bir ishtirokchi bir-biridan mustaqil holda umumiy ishning o'ziga tegishli qismini bajaradi.

2. *Qo'shma-tadqiqot faoliyati* – umumiy vazifa har bir ishtirokchi tomonidan ketma-ket bajariladi.

3. *Qo'shma-o'zaro harakat faoliyati* – har bir ishtirokchi boshqalar bilan bir vaqtning o'zida o'zaro harakatda bo'ladi.

O'zaro harakatning real mexanizmi psixologik jihatdan ishtirokchilar o'rtasida bir-birini tushunish qay tarzda paydo bo'lishini

tahlil etish asosida tushuntirilishi mumkin. O'zaro harakatni belgilash va olibborish o'zaro hamfikrlik asosida ishlab chiqilishi mumkin. Agarda o'zaro ta'sir harakatlarini belgilash bajariladigan ijtimoiy faoliyatdagi ijtimoiy munosabatlar xususiyati bilan belgilab berilgan bo'lsa, o'zaro ta'sir harakatlarini olibborish bevosita sherik haqidagi tasavvur bilan belgilanadi. Bu ikki holatning birligida o'zaro ta'sir harakatlarining real holati yuzaga keladi. Uning muhim xususiyati – qarorni birgalikda qabul qilish. SHunday qilib, o'zaro ta'sir mexanizmini bilish uchun bir individning fikrlari, motivlari va mayllari uning sherigi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelishi va ularning birgalikda qaror qabul qilishlarida namoyon bo'lishini aniqlab olish zarur.

Muloqot orqali insonning inson tomonidan idrok qilinishi. Bir odamning boshqasi tomonidan idrok qilinish jarayoni muloqotning zarur tarkibiy qismidir. Bu jarayon pertseptsiya deyiladi. Xulq-atvorning tashqi tomonidan, S.L. Rubinshteyn fikrigako'ra, boshqa odamni «o'qish», uning tashqi belgilarining ma'nosini anglash mumkin. Bunda hosil bo'lgan taassurotlar muloqot jarayonida muhim boshqaruvchi ahamiyatga ega bo'ladi. CHunki, boshqa odambilan muloqotning samarali bo'lishi uni «o'qishning» aniqligiga bog'liqdir.

Boshqa odam haqidagi tasavvur shaxsiy o'zini anglash darajasi bilan uzviy bog'langan: boshqa odam qanchalik to'liqroq ochib berilsa, odamning o'zi haqidagi tasavvuri shunchalik to'la bo'ladi. Boshqa odamni bilish davomida bir vaqtning o'zida bir necha jarayonlar amalga oshiriladi, bularga: boshqa odamni emotsional baholash, uning xatti-harakatlari tuzilishini tushunishga urinish, o'zining hulq-atvorini belgilash kiradi.

Lekin bu jarayonlarga kamida ikki odam jalb etiladi, va ularning ikkisi ham faol-subyekt bo'lib hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, o'zini boshqalar bilan qiyoslashtirish ikki taraflama amalga oshiriladi: sheriklardan har biri o'zini sherigiga o'xshatadi. Demak, o'zaro harakatni belgilashda u faqat sherigining ehtiyojlari, motivlari, mayllarini emas, balki, sherigi uning ehtiyojlari, motivlari, mayllarini qanday tushunishini ham hisobga olishi kerak bo'ladi. Buning barchasi o'zini boshqa odam orqali anglash tahlili ikki taraf: o'xshatish va refleksiyadan iborat bo'lishiga olib keladi. Boshqa odamni tushunishning oddiy usullaridan biri o'zini unga o'xshatishdir.

O'xshatish va mazmuniga ko'ra unga yaqin bo'lgan hodisa – empatiya o'rtasida uzviy bog'liqlik bor. *Empatiya* affektiv «tushunish» demakdir. Uning emotsional tabiati boshqa odamning, muloqot bo'yicha sherik vaziyati «o'ylab o'tirilmadan» «his etiladi». Bunda boshqa odamning muammosini anglabetish emas, balki, muammolarini yechishda unga emotsional ko'mak berish ko'zda tutiladi.

Ma'lum ko'rinishda empatiya mexanizmi o'xshatish mexanizmi bilan hamohangdir: ikkalasida ham o'zini boshqa odamning o'rniga qo'yish, hodisalarga uning nuqtai nazari bilan qarash malakasi o'rin egallaydi. Lekin hodisalarga boshqa birovning nazari bilan qarash deganda o'zini o'sha odam bilan tenglashtirishni bildirmaydi.

Muloqot jarayonida ikki sherikning ham bir-birini qanday tushunishijuda muhim. Bir-birini tushunish jarayoni refleksiyada namoyon bo'ladi. *Refleksiya* deganda individning muloqot bo'yicha sherigi tomonidan qanday idrok etilishini anglashi tushuniladi.

Odamlarni muloqot davomida to'g'ri idrok qilish va baholashga halaqit beruvchi omillar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Muloqot vaziyatlarini ushbu vaziyatda odamlar muloqotining maqsad va vazifalari, xohishlari va motivlari; qo'yilgan maqsadlarga erishishga mos keladigan xulq shakli; kuzatuv vaqtida odamlar kayfiyati va masalalar holati kabi belgilari bo'yicha farqlay olmaslik.

2. Kuzatuvchida boshqa odamni idrok qilish va baholash jarayoni real holatda boshlanmasdan turib, avvaldan belgilangan fikrlarning mavjudligi.

3. SHakllanibbo'lgan stereotiplar asosida kuzatuvdagi odamlar oldindan ma'lum guruhlarga ajratiladi va diqqat u bilan bog'liq sifatlarni izlashga yo'naltiriladi.

4. Baholanayotgan inson shaxsi haqida yetarlicha to'liq va ishonchli ma'lumot olinguniga qadar oldindan xulosa chiqarishga intilish.

5. Boshqa odamlarning fikriga quloq solmaslik va inson haqidagi faqat o'zining shaxsiy taassurotiga tayanish.

6. Tabiiy sabablarga ko'ra, vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan odamlarga baho berish va idrok qilishdagi o'zgarishlarning mavjud emasligi. Bu inson haqida yangi ma'lumotlarning avval bildirilgan fikrlarni o'zgartira olmasligi.

1. Nutq – odamlar tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

2. Muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi.

3. Kommunikatsiya – o'zaro hamfikirlilikka boshlovchi, ikki tomonlama axborot almashinuvi jarayoni.

4. Kooperatsiya - hamkorlik faoliyatini tashkillashtirish, guruh maqsadlariga erishishni ta'minlabberuvchi o'zaro ta'sir.

5. Verbal kommunikatsiya - inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi.

6. Nizo – muloqot ishtirokchilarining har biri muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir/

SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Inson haddan tashqari talantli, aqlli va ma'lumotli bo'lishi mumkin- u, lekin u na kasbiy sohada, na oddiy hayotda yetarlicha muvaffaqiyatga erishmasligi mumkin. Buning sababi nima? Bu savolga shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi ta'limotlarni o'rganish orqali javob topish mumkin. Hayot ko'rsatayaptiki, keyingi paytda shaxslararo munosabatlar bo'yicha mavjud ilmiy tavsialarga ko'pchilik odam murojaat etmoqda.

Odamlar o'rtasidagi munosabatlar – bu (agar qisqa ifodalash joiz bo'lsa) amalga oshirilgan va ularga nisbatan javob reaksiyalaridir. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganar ekanmiz, biz individ (yoki tashkilot) qanday qilib boshqa odamlar to'g'risida ma'lumot olishni, qanday qilib u boshqa odamlarni tushunishga va ular bilan kontakt o'rnatishga o'rganishni bilib olamiz. har qanday muloqot jarayonida muomala ish harakat va unga nisbatan javob reaksiyasi mavjudligidan kelib chiqib shaxslararo munosabatlarni tashkil etar ekanmiz, bunda quyidagicha 4 ta variantni ko'ramiz:

Biz konkret bitta odam, bir nechta yoki ko'pchilik odamlar tomonidan ma'lum bir javob reaksiyasini olish uchun biron-bir ish harakatni amalga oshirishimiz mumkin.

Bizning ish harakatlarimizdan bittasiga javob reaksiyasi salbiy bo'lishini bila turib, unga nisbatan ijobiy, juda bo'lmaganda neytral javob reaksiyasini olish maqsadida bu ish harakatimizni o'zgartirishga harakat qilishimiz mumkin.

Ma'lum bir sharoitda boshqacha hatti-harakat qilolmasligimizni (yoki hohlamasligimizni) bilar ekanmiz, hatti-harakatimizga nisbatan salbiy javob reaksiyasi muqarrar ekanligini ham bilamiz. Bunday holda biz muloqotga kirishayotgan odamimizga nima uchun biz shunday qilishga majbur bo'lganimizni tushuntirishimiz kerak. shunda biz ijobiy javob reaksiyasi ololmasak ham juda bo'lmaganda neytral javob reaksiyasi olamiz.

Nihoyat biz (yoki oramizdan kimdir): "Men o'zim qanday hohlasam, shunday hatti-harakat qilaman, mening xulq-atvorimni qabul qilish yoki qilmaslik bu sizlarning ishingiz" – deyishimiz mumkin.

Ma'lum sharoitlarda ushbu to'rtta variantdan bittasini tanlar ekanmiz, shu tarzda ongli yoki ongsiz holda biz o'z imidjimizni paydo qilamiz.

Har birimiz ma'lum bir imijdan foydalanamiz va uni boshqa odamlarga namoyon qilamiz. Ayrim odamlar boshqa odamlarda o'zi hohlagan taassuratni paydo qilish uchun o'z obrazini ongli ravishda shakllantiradilar, boshqalar esa bunday qilmaydilar. Ammo, odam bir sharoitda namoyon qilgan imidji (obrazni) boshqa sharoitda ham xuddi shunday namoyon etavermaydi. Masalan: odamning ko'chada yoki o'z xodimlari bilan muloqotda o'zini namoyon qilishi bilan o'z uyida o'zini namoyon qilishi o'rtasida tubdan farq bo'lishini ham unutmasligimiz kerak. Ba'zida erkak to'g'risida "ko'cha xandon, uy zindon" qabilida baho berishimizda ham asos borligini bilishimiz zarur. Albatta bz turli sharoit va holatlardan kelib chiqqan holda o'zimizni turlicha tutishimiz va namoyon etishimiz tabiiy. CHunki sharoit va holatdan kelib chiqsak, o'zimizni shunday tutishimiz maqsadga muvofiq. Biz boshqalarni idrok etar ekanmiz, eng avvalo odamlarning tashqi ifodalanadigan jihatlarini ko'ramiz.

Unda odamning tabiatini belgilab beradigan uning ichki jihatleri qanday, ularni bilish mumkinmi degan savol tug'iladi.

Yana shu xususiyat e'tiborliki, inson shaxsning har bir xususiyati uning atrofdagi odamlar qanday hatti-harakat qilishilariga, ular qanday yurishlari, kiyinishlari, gapirishlari, tinglashlariga bog'liq ravishda

ularning ta'siri ostida shakllanadi. Bunday yondashuv ma'lum ma'noda to'g'ri. Chunki biz o'z atrofimizdagilarning kiyinishiga, nima kiyishlari va o'zlarini qanday tutishlariga qarab ularni tushunamiz. Bu ma'lumotlar bizning keyingi hayotimiz, ish faoliyatimizda juda muhim bo'lishi mumkin. Chunki ushbu ma'lumotlarga asoslangan holda biz birga ishlaydigan odamlarimiz, rahbarimiz, xodimimiz, otamiz, onamiz, turnush o'rtog'imiz bilan o'zaro munosabatlarimizni tashkil etamiz. Demak, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishishga o'rganish har birimiz uchun juda muhim.

Odanning shaxslararo munosabatlar doirasidagi yaxshi hatti-harakatlari uning to'g'ri tashkil qilingan muloqoti tufayli odamlar tomonidan baholanadi. Demak, bu yerda muloqot asosiy narsa hisoblanadi. Uylab ko'raylik, biz barchamiz o'z hissiyotlarimizni o'zimiz yaxshi ko'radigan odamga ko'rsatishimiz kerak, muvaffaqiyatlarimizni o'zimiz ma'qullash olishni hohlagan odamimizga ko'rsatishimiz, fikrlarimizni fikri biz uchun qimmatli bo'lgan odamga aytishimiz kerak. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, biz buni to'g'ri amalga oshirishimiz zarur. Tasavvur qiling, siz yosh bola va qariya bilan, xodimingiz va xaridor bilan bir xil tilda gaplashmaysiz - ku.

Siz o'zingizni, o'z qadriyatlaringizni, talantingizni, malakalaringizni, o'z fazilatlaringizni yaxshi bilishingiz mumkin. Ammo, ularni muvoffaqiyatingizni ularning yaxshi munosabatiga bog'liq bo'lgan odamlarga ifodalay olmasangiz, ko'rsata olmasangiz biron bir narsaga erishish imkoniyatlaringiz juda kam bo'lishi tabiiy. Agar siz o'z afzalliklaringizni namoyon qilmasangiz va ko'rsatmasangiz, siz o'zingizning qobiliyatlaringizni sir saqlagan bo'lasiz. Bu esa siz to'g'ringizda boshqa odamlar hech narsa bilmashligiga yoki sizni tushunmasliklariga olib keladi. Bu esa ularga sizga taalluqli biron bir qaror qabul qilishlariga halaqit bermaydi. Hatto ular sharoitni bilmasalar yoki tushunmasalar ham, siz bu sharoitda yetakchi mavqedamisiz yoki pastroq mavqedamisiz buni bilmasalar ham bu ularga siz haqingizda fikr bildirishlariga yoki sizga nisbatan biron bir hatti-harakat amalga oshirishlariga hech ham halaqit qilmaydi. Demak, siz haqiqatan ham shaxslararo munosabatlarga jalb etilgansiz. SHu bilan birga siz ularni doim amalga oshirasiz. Bu

shaxslararo munosabatlar muloqotga kirishishni taqoza etadiki, bu jarayonda inson shaxs sifatida shakllanadi va o'zini namoyon qiladi.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj odamning asosiy ehtiyojlari turkumiga kiradi. muloqot - –u ikkita yoki bir nechta odamlarning o'zaro ta'siridan iborat bo'lib, u asosan bilish va emotsional baholovchi xarakterdagi ma'lumotlarning almashinuvidan iboratdir.

Murakkab ko'p qirrali muloqot jarayoni:

Xulq atvorning ma'lum bir namunalari va modellarini shakllantirishni;

Odamlarning o'zaro harakat qilishini;

Odamlarning bir-birlariga o'zaro ta'sirini;

Ma'lumotlar almashinuvini;

Odamlar o'rtasida munosabatlar shakllanishini;

Odamlarning bir-birlarini o'zaro his qilishliklarini va tushunishlarini;

Odamning "ichki" meni obrazini shakllanishini o'z ichiga oladi.

Muloqot turli tuman vazifalarni bajaradi va shunga asosan ular klassifikatsiya qilinadi. O'zaro bog'liq uchta tomonni hisobga olgan holda muloqot funktsiyalari quyidagi turlarga ajratiladi:

Pertseptiv tomoni- muloqot jarayonida odamlarni bir – birlarini idrok etishi va tushunishi;

Kommunikativ tomoni – informatsiyalar almashinuvi jarayoni;

Interaktiv tomoni – muloqotda odamlarning o'zar ta'siri jarayoni.

Muloqotning pertseptiv funktsiyasi asosida boshqa odamni, shu jumladan muloqot sherigini idrok qilish va tushunishayotgan bo'lib, u inson psixikasini emotsional sohasini tartibga solib turishiga (regulyatsiya qilishga) yo'naltirilgan. Chunki muloqot odamning emotsional holatlarining muhim belgilab beruvchisi hisoblanadi. Maxsus insoniy hissiyotlarning barchasi odamlarning muloqoti sharoitida paydo bo'ladi va rivojlanadi, ya'ni, yo emotsional holatlarning yaqinlashuvi, yo ularning qutblarning ajralishi, yo o'zaro kuchayishi yoki susayishi amalga oshadi.

Muloqotning kommunikativ funktsiyasi o'zaro ta'sir qiluvchi individlar o'rtasidagi turli ko'rinishlardagi informatsiya almashinuvidan iborat. Insoniy muloqotda informatsiya almashinuvi o'ziga xos xususiyatgaega: bu jarayon har bir faol subyekt hisoblangan ikkita individ o'rtasida amalga oshadi; u albatta

sheriklarining fikrlari hissiyotlari va xulq atvori o'zaro ta'sirini nazarda tutadi.

Muloqotning interaktiv funksiyasi xulq-atvorni tartibga solishdan va odamlarning o'zaro ta'siri jarayonida hamkorlikdagi faoliyatni bevosita tashkil qilishdan iborat. Bu jarayonda odam o'z sherigi faoliyatining motivlariga, dasturlariga, uning qaror qabul qilishiga hatti-harakatlarini bajarishi va nazorat qilishiga, hatto xulq-atvorini birgalikda qo'zg'atish va korrektsiya qilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Dj.Rokfeller ishbilarmonlik faoliyatida muloqotning ahamiyatini yaxshi tushungan holda: "odamlar bilan muloqotga kirisha olish malakasi xuddi qand yoki kofega o'xshagan, pulga sotib olinadigan tavordir. Men dunyodagi har qanday tovardan ko'ra ushbu malakaga ko'proq pul to'lashga tayyorman", - degan edi.

Muloqotga kira olish ko'nikmasi o'zi nima? Bu – demak odamlarni farqlay olish va shu asosida ular bilan o'zaro munosabatlarini ko'rish degani, bu esa muloqot psixologiyasini bilishini taqozo etadi. Muloqot jarayonida odamlar bir-birlarini idrok etadilar, ma'lumotlar almashinadilar va o'zaro ta'sir ko'rsatib harakat qiladilar.

Muloqot jarayonida bir-birovni idrok etish va tushunishi

Muloqot idrok jarayonida muloqot sherigi to'g'risida shakllanadigan tasavvur bilan belgilanadi.

Idrok jarayonining murakkabligi shundaki, odamni informatsiyalarni qayta ishlash qobiliyati cheksiz emas. Muloqot sherigining obrazi shakllanishi jarayonida odam ko'pincha u to'g'risida ma'lum miqdordagi uzuq-yuluq informatsiyalarga duch keladi va ularni ko'pgina emotsional hamda psixologik omillarni hisobga olib baholaydi. Ehtimoldan holi emaski, u o'zining tasavvurlariga mos keladigan va o'z maqsadlariga ko'proq to'g'ri keladigan ma'lumotlarni e'tiborga oladi.

Bundan tashqari idrok jarayonini xato xulosalar ham buzishi mumkin. Informatsiya yetarli bo'lmagan holatda odam o'z so'hatdoshi to'g'risidagi xulosalarni o'zi bilib ulgurgan kam miqdordagi ma'lumotlarga tayanib ko'radi, uning tasavvuri shakllangach esa, keyin qo'shimcha olingan ma'lumotlarni inobatga olmaydi.

Muloqot sherigi to'g'risidagi ushbu to'g'ri yoki yolg'on xulosalarning muhimligi shundaki, ular bo'lg'usi o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etadilar va odamlarning o'zaro munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatishlari mumkin.

Odanning uni boshqa odamlar qanday idrok etishlari to'g'risidagi tasavvuri odamning xulq-atvorini ma'lum darajada belgilab beradi

Odamlarni baholash va ular to'g'risida to'g'ri obrazni shakllanishining murakkabligi atrofdegilar biz to'g'rimizda olmoqchi bo'lgan informatsiyalarni ongli ravishda buzib ko'rsatishga va informatsiyalarni doimo nazorat qilishga intilishimizga ham bog'liq. Odam, odatda o'zi qanday bo'lsa shundayligicha emas, u qanday ko'rinishini hohlasa xuddi shunday o'zini namoyon qiladi.

O'zaro tushunishda odanning "ochiqligi" ya'ni boshqalarga nisbatan haqqoniy va tabiiy bo'la olish katta ahamiyat kasb etadi.

Odanning o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvuri muloqotda juda ko'p psixologik to'siqlarni paydo qiladi, informatsiyalarni, boshqalarning fikrlarini rad etishga olib keladi, bular barchasi oxir-oqibat nizoni xulq-atvoriga sabab bo'lishi mumkin.

SHaxsning o'zi to'g'risidagi adekvat tasavvuri shakllanishining sharti bu o'z xulq-atvorini boshqa odamlar nuqtai-nazaridan idrok qilish va tahlil qilish, bunda boshqa odamlarning qaytarma aloqa yo'li bilan olingan fikrlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zaro munosabatlarda o'z-o'zining obrazini shakllantiruvchi qaytarma aloqa ma'lumotlarini olishni amerikalik psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan va Djoxari derazasi deb nom olgan model asosida tasvirlash mumkin.

| | |
|------------------------|-----------------------|
| Ochiq zona (I) | Ko'r zona (II) |
| Yashirin zona (III) | Noma'lum zona (IV) |

Djoxari derazasi

Namoyon etilgan kvadrat shaxs xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. Vertikal chiziq ushbu informatsiyalarni ikki qismga bo'ladi: individ o'zi to'g'risida biladigan ma'lumotlar (chap qism) va u o'zi to'g'risida bilmaydigan ma'lumotlar (o'ng qism). Gorizantal chiziq barcha informatsiyani odam to'g'risida

boshqalarga ma'lum bo'lgan (yuqori qism) va boshqalarga noma'lum bo'lgan (pastki qism) ma'lumotlarga bo'ladi.

Ochiq zona (I) individning o'ziga ham, atrofdagilarga ham ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni ifodalaydi. Bu ma'lumotlar individ va boshqa odamlar o'rtasida shaxsiy informatsiyalarni erkin ochiq almashinish jarayonida namoyon bo'ladi. Ochiq zonaning kattaligi individning muloqot sheriklari bilan ishonchli munosabatlarini nazarda tutadi.

Ko'r zona (II) individ to'g'risida boshqa odamlarda mavjud, lekin uning o'ziga noma'lum bo'lgan informatsiyani, ya'ni shaxs to'g'risida u bilan muloqot jarayonida shakllanadigan atrofdagilarning fikrini ifodalaydi. Hohish bo'lsa bu informatsiyani individ muloqot jarayonidagi nigohlar replikalar, videotrening yordamida olishi mumkin.

Individ o'zi to'g'risidagi qaytarma aloqa informatsiyasini olar ekan, u atrofdagilar uni qanday idrok etayotganliklarini bilib oladi.

Agar bu nuqtai-nazar individning fikriga mos kelsa, keyingi muloqot yaxshi davom etadi. Agar olingan informatsiya individning o'zi to'g'risidagi fikridan yomon bo'lsa, bo'nda himoya mexanizmlari ishga tushadi, yo nizoli vaziyat paydo bo'lishi, yo individning ushbu informatsiyani bergan odamlar bilan munosabatlari uzilishi mumkin.

Umuman olganda informatsiyaning ko'r zonadan ochiq zonaga uzatilishi boshqa odamlar ongini manipulyatsiya qilish vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Yashirin zona (III) bu individning o'ziga ma'lum, lekin atrofdagilardan yashirilgan informatsiyalardan; qo'shimcha ma'lumotlar, malakalar, xarakter belgilari, xulq-atvor maneralaridan tashkil topgan. U yoki bu sabablarga ko'ra ushbu ma'lumotlar yo atrofdagilardan yashiriladi, yoki ularni namoyon qilishga sharoit bo'lmaganligi sababli yashirilgan bo'ladi.

Noma'lum zona (IV) individ to'g'risidagi na uning o'ziga, na atrofdagilarga ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar individning o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar individning o'z shaxsiga xos xususiyatlari va imkoniyatlari to'g'risida bo'lishi mumkin. Bu ma'lumotlar faqat alohidaekstremal sharoitlarda namoyon bo'lishi mumkin, lekin butun hayoti davomida namoyon bo'lmasligi ham mumkin.

Ushbu informatsion makonning o'Ichamlari muloqot ushbu odam bilan qanday holatda kontaktlar o'rnatilishi boshlanishi yoki o'rnatilgan munosabatlar holatida ekanligiga bog'liq ravishda o'zgarib borishi mumkin. Kontaktlarning chuqurlashuvi, munosabatlarning rivojlanishi ochiq makonning ko'payishiga va yopiq makonning kamayishiga olib keladi. Odam o'zini ochiq tutsa, boshqa odamlar u to'g'risida ko'proq bilish imkoniga ega bo'ladilar bu esa o'zaro bir - birovni tushunish imkonini oshiradi.

O'zi to'g'risidagi informatsiyani ongli ravishda nazorat qilish va ongli ravishda buzish nafaqat muloqot sheriklarini idrok qilinishini qiyinlashtiradi xatto odamning o'z-o'zini anglashini ijtimoiy aynanlashuvini qiyinlashtiradi. Agar odam boshqalardan yopilib yuradigan bo'lsa u o'z-o'zini yomon anglay boshlaydi.

Muloqot jarayonida birinchi marotaba ko'rib turgan odam bilan, hamda yetarlicha yaxshi tanish odam bilan o'zaro munosabatga kirishga to'g'ri keladi.

Boshqa odam obrazining shakllanishi stereotiplashtirish orqali amalga oshadi. Muloqot tajribasiga ega bo'lgan deyarli har bir katta yoshdagi odam odamlarning tashqi ko'rinishiga, kiyimiga, gapirish manerasiga va xulq-atvoriga ko'ra ularning ko'pchilik ijtimoiy-psixologik xarakteristikalarini ayrim psixologik xususiyatlarini, yoshini, ijtimoiy qatlamini, kasbini yetarlicha aniq belgilay oladi. Aynan shu narsalar stereotiplarning shakllanganligi bilan izohlanadi. Lekin bunday aniqlik faqat neytral sharoitlarda bo'ladi. Boshqa sharoitlarda esa deyarli har doim ma'lum bir darajadagi xatolar mavjud bo'ladi. Agar munosabatlar neytralligi qancha kam bo'lsa, odamlar bir-birlaridan qanchalik manfaatdor bo'lsalar, xato ehtimoli shunchalik ko'p bo'ladi.

Muloqotimiz biz kim bilan muloqotga kirishimizga bog'liq holda sezilarli farqli ravishda tuziladi. Bunday farq muloqot sherigimizning xarakteristikasiga bog'liq. Muloqot sherigini biron-bir guruhga mansub qilish bilan bog'liq xarakteristikalar yetarlicha aniq idrok etiladi. Boshqa belgi va xususiyatlar esa ma'lum sxemalarga asosan oddiygina qo'shib qo'yiladi, aynan shu yerda xatolar ehtimoli namoyon bo'ladi. Idrokning bu xatolari ayrim omillar: ustunlik, jozibadorlik va bizga nisbatan munosabat omillariga bog'liq.

Muloqotga kirishuvchi odamlar teng emaslar: ular o'zlarining ijtimoiy mavqelari, hayotiy tajribalari, aqliy imkoniyatlari va shu

kabilari bilan farq qiladilar. SHeriklar tengsizligida ko'pincha idrokning tengsizlik xatolariga olib keladigan sxemasi qo'llaniladi. Bu xato psixologiyada ustunlik omili deb nom olgan.

Bizdan biron-bir muhim ko'rsatkich bo'yicha ustun odam bilan uchrashganimizda biz uni o'zimiz bilan teng bo'lgan holatdagiga qaraganda ijobiyroq baholaymiz. Agar biz o'zimiz biron-bir xususiyatga ko'ra undan ustun odam bilan uchrashsak, uni yetarlicha baholamaymiz. SHu bilan birga ustunlik biron-bir o'lchamga asosan qayd qilinadi, yuqori baholash (past baholash) esa ko'pchilik o'lchamlarga asosan amalga oshiriladi. Idrokning bu sxemasi har qanday tengsizlikda emas, faqatgina biz uchun muhim, ahamiyatli tengsizlikda ishlay boshlaydi.

Odamni idrok qilishda jozibadorlik omili ta'siri shundan iboratki, uning ta'siri ostida odamning qandaydir bir sifatleri boshqa odamlar tomonidan yuqori baholanadi yoki past baholanadi. Bu yerda xato shundaki, agar odam bizga (tashqi jihatdan) yoqsa, ayni vaqtda biz uni aqlliroq yaxshiroq, qiziqarliroq va shu singari tarzda hisoblashga moyil bo'lamiz, ya'ni uning ko'pchilik shaxsiy sifatlarini yuqori baholaymiz

Bizga nisbatan munosabat omili quyidagicha harakat qiladi: bizga yaxshi munosabatda bo'lgan odamlar bizga yomon munosabatda bo'lgan odamlar bizga yomon munosabatda bo'lgan odamlarga nisbatan yuqori baholanadi. Bizga nisbatan munosabat sherigimizning biz bilan murosaga kelganmi yoki kelmaganligiga qarab baholanadi.

Psixologlar tadqiqotlaridan ma'lum bo'ldiki, begonaning fikri shaxsiy fikrimizga qanchalik yaqin bo'lsa, bu fikrni aytgan odamning bahosi shuncha yuqori bo'lgan. Bu qoida teskari kuchga ham ega: kimki qanchalik yuqori baholangan bo'lsa uning qarashlari o'zimizning qarashlarimiz bilan shunchalik o'xshash deb hisoblangan

SHaxslararo muloqot jarayonida odamlarni idrok etish va tushunish identifikatsiya, empatiya va refleksiya kabi psixologik mexanizmlarga asoslanadi.

Boshqa odamning tushunishning eng sodda yo'li identifikatsiya-o'zimizni boshqa odamga o'xshatish orqali amalga oshiriladi. Identifikatsiya holatida odam guyoki o'zini boshqa odamning o'rniga qo'yadi va shunday sharoitlarda o'zi qanday yo'l tutgan bo'lishini aniqlaydi.

Identifikatsiyaga yaqin bo'lgan yana bir mexanizm empatiya-hislar asosida tushunish, boshqa odamning muammolariga emotsional tarzda munosabat bildirishga intilish. Bunda boshqa odamning sharoiti fikrlabgina qolmasdan, balki his qilinadi. Empatik tushunishni ko'pchilikka nisbatan amalga oshirib bo'lmaydi, chunki u psixika uchun og'ir bosim hisoblanadi.

Bir-birovni tushunish jarayoni refleksiya jarayoni bilan bog'langan. Refleksiya bu harakat qilayotgan individ tomonidan o'zining muloqot sherigi tomonidan qanday idrok etilayotganliklarini anglashdir. Bu nafaqat boshqa bilish balki, boshqa odam meni qanday tushunayotganligini bilish, ya'ni guyoki kuzguda ikkilangan aks etishdir.

Muloqot kommunikatsiya sifatida

Muloqot-bu eng avvala muloqot ishtirokchilari uchun ahamiyatli bo'lgan informatsiyalar almashinuvidir

Muloqotning barcha vositalari ikkita katta guruh: Verbal (nutqiy) va noverbal (nutqiy bo'lmagan) vositalarga ajratiladi. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra suhbat jarayonida nutqiy muloqot 35% dan kam qismini tashkil etgan holda, 65% ziyod informatsiya noverbal vositalar yordamida uzatiladi. Nutqiy (verbal) kommunikatsiya orqali toza informatsiya uzatiladi. Noverbal kommunikatsiya bo'ycha esamuloqot sherigiga bo'lgan munosabat uzatiladi.

Odamning noverbal xulq-atvori uning psixik holati bilan chambarchas bog'langan va ularni ifodalash vositasi bo'lib hisoblanadi. Noverbal xulq-atvor asosida shaxsning ichki dunyosi ochiladi. Muloqot hamkorlikdagi faoliyatning psixik mazmuni shakllanishi amalga oshiriladi. Odamlar o'zining nutqiy (verbal) xulq-atvorini o'zgarayotgan sharoitlarga tezda moslashtirib olishlari mumkin, lekin tana tili (noverbal namoyon bo'lish) kam o'zgaruvchidir.

Muloqotning noverbal vositalariga tananing barcha harakatlari, ovozning intonatsiya xarakteristikasi, taktil ta'sir, muloqotning makondagi tashkil etilishi kabilar kiradi.

Noverbal muloqotda eng muhimlaridan biri kinesik vositalar-boshqa odamning muloqotda ifodalovchi regulyativ vazifani bajaruvchi ko'rish orqali idrok etiladigan harakatlaridir. Buni mimika, gavda holati, imo-ishora, nigoh yurishda namoyon bo'ladigan ifodalovchi harakatlar kiradi. Informatsiya uzatishda asosiy rol

mimika bajaradi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha suhbatdoshning yuzi harakatsiz bo'lsa yoki uni ko'rmasangiz 10-15% informatsiya yo'qotilar ekan.

Mimika bilan nigoh yoki vizual kontakt juda chambarchas bog'liq. Ko'z yordamida odamning holati* to'g'risida eng aniq signallar uzatiladi, chunki ko'z qorachog'ining kengayishi va torayishi ongli nazoratga bo'ysunmaydi.

Odamning yuz ifodasi gavda harakatlariga qaraganda ko'proq ongli ravishda nazorat qilib turiladi. SHuning uchun ham tana ko'proq informativ hisoblanadi. Gavdaning turli pozalari turlicha informatsiyalarni ifodalaydi. Masalan, yopiq pozalari (tikga turgan holatda napolen pozasi; kukrakda qo'llar qovushtirilgan holat, o'tirgan holatda, ikkita qo'l yiakka tiralgan holat) ishonchsizlik, norozilik qarshi harakat, tanqid sifatida idrok etiladi.

Ochiq pozalar esa (tikka holatda, qo'llari kaftlari yuqoriga qarab ochilgan, o'tirgan holatda qo'llar erkin tashalgan, oyoqlar uzatilgan) ishonch, rozilik, xairixohlik, psixologik komfort sifatida idrok etadi. Odamning qadam tashlashaiga qarab uning emotsional holatini osanlikcha bilib olish mumkin. Masalan. G'azab holatida eng og'ir qadam tashlanadi, xursandchilikda-eng yengil qadam, qiyinalayotgan paytda – bo'shashgan g'amgin qadam, mag'rurlanish holatida – qadamlar uzunligi eng katta bo'ladi.

Nutqning ritmik intonatsion tomonlari, pauzalari, yig'i, yutal, kulgu va boshqalar nutqiy muloqotning o'rnini bosishi yoki uning ta'sir kuchayishiga yordamlashishi mumkin. Psixologik jihatdan yaxshi tayyorgarlikga tayyor odam u yoki bu jumlaning qanday ifodalanganligiga qarab odam tomonidan qanday harakat qilinishini aniqlash mumkin.

Noverbal muloqot vositalari orasida qo'l siqish, yelkaga urib qo'yish kabi harakatlardan ma'lum mazmun kasb etadi. Biz vositalardan qanday foydalanish va ularning xarakteri muloqot sherigi mavqega, yoshiga, jinsiga, tanishlik muddatiga, madaniy va milliy xususiyatlariga bevosita bog'liq.

Qo'l siqish qanday amalga oshirilishiga qarab u ustunlikni (qo'l yuqoridan uzatiladi, kaft pastga qaragan), tobelikni (qo'l pastdan uzatiladi, kaft yuqoriga qaragan) va teng huquqlikni ifodalash mumkin. Muloqot har doim fazoviy tashkil qilinadi. Fazoviy

ulchamlar orasida muloqotga kirishuvchilar orasidagi masofa muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikali olim E.Xoll muloqotga kirishuvchilar orasidagi masofalarni o'rganish natijasida bir-biridan farq qiluvchi quyidagi to'rtta oraliq masofani taklif etadi.

-intim masofa (0-45 sm) –eng yaqin odamlarning muloqoti;

-shaxsiy (45-120 sm) –tanish odamlar bilan muloqot;

-ijtimoiy (120-360 sm) – ko'proq begona odamlar bilan muloqot va rasmiy muloqot

-ommaviy (360- va undan yuqori) – turli xil auditoriyalar oldida chiqishlar.

Suhbatdoshlarning stol atrofida qanday joylashganliklari ham muloqot xarakterini belgilab beradi.

Muloqot jarayonida nafaqat emotsional holatlar uzatiladi, balki informatsiya uzatiladi. Informatsiya mazmuni verbal va nutqiy shaklda uzatiladi. Informatsiyani uzatish jarayonida uning mazmunida qisman yo'qotishlar sodir bo'ladi.

Fikr uylanildi, nutqiy shaklga ega bo'ldi (100%) - aytildi (80%) – eshitildi (70%) – tushunildi (60%) – xotirada qoldi (24%).

Ushbu sxemaga muvofiq birlamchi fikrning 4 dan 1 qismi esda qolishi aniq bo'lishiga qaramasdan odamlar baribir bir birlarini tushunadilar. Informatsiyani tushunish korrektsiya qilib turiladi, chunki muloqot bu faqatgina informatsiya uzatish emas balki informatsiya almashinuvi bo'lganligi sababli qaytarma aloqa ham o'zaro tushunishda muhim rol uynaydi.

Nutqiy muloqotda gapirish ko'nikmasi ya'ni, notiqlik sanoati muhim hisoblanadi, chunki o'z fikrlarini aniq shakllantira olish ularni suhbatdosh uchun tushunarli tilda ifodalash muloqot jarayonida suhbatdoshlarning hatti harakatlariga e'tibor berish, informatsiyani suhbatdosh tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlab beradi.

Agar aytiladigan fikrlar suhbatdoshga yo'naltirilgan bo'lmasa, u manolog shaklida bo'ladi. Manolog tarzidagi muloqotda boshlang'ich informatsiyaning 50% gacha ba'zi hollarda 80% gacha yo'qotish bo'lishi mumkin.

Muloqot muvofaqqiyati faqat gapira olish qobiliyatiga emas, suhbatdoshning tinglay olish qobiliyatiga ham bog'liq. Tinglay olmaslik-samarasiz muloqotning asosiy sababi aynan shu narsa tushunmovchiliklarga xotalarga va muammolarga olib keladi.

Kommunikativ malakalarning shakllanishi vaqt va sabr chidamni talab qiladi.

Muloqot o'zaro ta'sir sifatida. Muloqotning asosiy mazmuni muloqot sherigiga ta'sir ko'rsatish tashkil etadi. Muloqot jarayonida boshqa odamlarning hatti harakatlariga nisbatan doimiy reaksiya amalga oshadi. So'zlar orqasida har doim harakatlar turadi va bu muloqotga kirishar ekanmiz, biz doimo "u nima qilyapdi?" degan savolga javob beramiz va bizning xulq-atvorimiz olingan javobdan kelib chiqib tashkil etiladi.

Muloqotni tushunish imkoniyani beruvchi asosiy usullardan biri bu muloqot sheriklarining holatini shuningdek ularning bir birlariga nisbatan pozitsiyalarini idrok etish. Har qanday suzlashuvda, suhbatda, ommaviy muloqotda, sheriklarning nisbiy mavqe: ayni sharoitda kim yetaklovchi va kim yetaklanuvchi ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot sharoitini sheriklar egallagan pozitsiyadan kelib chiqib tahlil etish transaksion tahlil (E.Bern, T.Xorris) yo'nalishida rivojlangan. Bu yo'nalishda E.Bern tomonidan ishlab chiqilgan va taklif etilgan sxema keng yoyilgan bo'lib, unda asosiy tushunchalar "Men" va transaksiya, ya'ni muloqot o'lcham birligi.

Odamlar faoliyatini psixologik kuzatuvlardan ma'lumki, xulq-atvor xarakteristikasi to'plami odam kim bilan (rahbar, kasbdoshlar, turmush o'rtog'i, farzandi bilan va b) o'zaro ta'sirga kirishayotganligiga qarab turlicha bo'ladi. Xulq-atvorning o'zgarishi bilan bog'liq amalga oshadi. Odam xulq-atvori sxemasi bilan psixikasi holati o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, buni E.Bern ongning tipik holatlari deb belgilaydi.

IV BOB. SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

HISSİYOT

Hissiyot to'g'risida tushuncha. Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg'otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanmasida hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga

bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G'oziev muallifligidagi «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z-o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi. Aynan emotsiya tushunchasining mazmuni nimadan iborat va hissiyot tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligi qanday degan savol tug'iladi? SHunga muvofiq emotsiya tushunchasining mazmun mohiyatini yoritadigan bo'lsak; jumladan professor E.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida emotsiya-odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalanişidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo'ladi.

Odamning hissiyotlari uning mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odamning ehtiyojlari o'zgarib boradi. Natijada odamda borgan sari yangi, yangi hissiyotlar, chunonchi, ma'naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo bo'ladi.

Hissiyotlar ham boshqa bilish jarayonlari kabi odamning faoliyatlari davomida namoyon bo'ladi. Masalan, mehnatsevarlik hissini yuzaga keltirish uchun ma'lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish kerak. U yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o'ziga ta'sir qilib, uni o'zgartiradi. Masalan, hohlamasdan o'zini majbur qilib ishlayotgan odam bilan o'zi hohlab sitqidildan ishlayotgan odam ishining unumdorligi o'rtasida juda katta farq mavjud. Odamning kayfiyati yaxshi xursand, ruhi tetik bo'lganda ishi ham barakali bo'ladi, aksincha odamning dili g'am, qandaydir tashvishli yoki g'amgin bo'lganda qo'li ishga bormaydi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, odamning ruhi tetik, xursand bo'lgan paytda, idroki hali juda jonli, esda olib qolishi, tuyg'ularga boy, tafakkuri o'tkir, nutqi burro bo'ladi.

Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilar bir-birlari bilan qo'shilib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg'otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi. Impressiv so'zi lotincha taassurot degan ma'noni anglatadi.

I.P.Pavlov tirik mavjudotlarning arofirmizdagi muhitga moslashuvida hosil qiladigan buziladigan dinamik streotiplar orqali biror hissiyot va emotsional kechinmalarning ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi.

Dinamik stereotip deganda tashqi qaytarilish natijasida hosil qilingan shartli refleklar, nerv bog'lanishlarining barqaror tizimi tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik stereotiplarning «o'zgarishi» salbiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot bu uning kechirilishining turli shakllari faqat darak vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Emotsiya harakatlari juda ko'p tana o'zgarishlar ifodalanadi. Odam organizmidagi o'zgarishlar kechirilayotgan hissiyotning obyektiv ko'rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo'lgan, ya'ni ovozning o'zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo'ladigan jarayonning qayta o'zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emotsional harakatlarning ekspressiv tomoni deb ataladi.

Hissiyotlar odatda juft-juft bo'lib uchraydi. Masalan, yoqimli-yoqimsiz, xush-noxush, xursand-xafa, g'azab-muhabbat, nafrat kabi ana shunday hissiyotlar subyektiv xarakterga ega bo'ladilar, lekin ularning tashqi ifodasi ham bo'ladi. Masalan, hushchaqchaq odam bilan g'amgin odamning yuz ifodasini ko'z oldimizga keltirib ko'rish mumkin. Aynan mazkur jarayon psixologiyada ambivalentlik yoki ikki taraflamalik deb ataladi. Ambivalentlik – lotincha har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir obyektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama – qarshi emotsional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo'shib va biri ikkinchisiga o'tib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo'lish kechiriladigan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan, rashk hissida muhabbat va nafrat.

Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari. Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir. CHunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo'rqqan paytida esa rangi o'chib, qaltirab ketadi, xattoki odamning ovozida ham o'zgarish paydo bo'ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.

Demak, odam ma'lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekretsiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog'iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo'rqish paytida «Yuragi orqaga tortib ketdi», «Sovuq ter bosib ketdi» kabi iboralarning ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oralig'i bilan ham bog'liqdir. Masalan, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.


Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: «Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak».

Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik streotipning yotishi yaqqol ko'rinadi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimli ko'ydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyni bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli buzib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik streotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuylar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi klassik asarlar ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda

qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik streotiplar ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.

SHunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. CHunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

Inson va hayvonlardagi emotsiyalar. Odam his-tuyg'ulari bilan hayvon hissiyotlari o'rtasida juda katta farq bo'ladi. Odamda juda ko'p miqdorda his-tuyg'ular borki, bunday hissiyotlar hayvonlarda uchramaydi. SHuning uchun ham odam ham xayvon uchun umumiy bo'lgan g'azablanish, qo'rqish, jinsiy hissiyot, qiziquvchanlik, xursandchilik, g'amginlik emotsiyalari hayvonlarda sifat jihatidan farq qiladi. SHu o'rinda S.SHexterming emotsional faktorlarning paydo bo'lishi kognitiv-fiziologik kontseptsiyasini keltirib o'tish joiz.



Insoniy emotsiyalar «insoniylashtirilgan» ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Emotsiyalarning «insoniylashuvi» shunday namoyon bo'ladiki, ichdan kechadigan hissiyotlar mazmuni, juda boy va murakkabdir. Odamlar bilan mehnat, siyosat, madaniyati, oilaviy hayot o'rtasida paydo bo'lgan munosabatlarning ko'pligi, sof

insoniy hissiyotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ular bolalarga odob bilan javob berishni, suhbatdoshiga ochiq ko'ngillik bilan jilmayish, keksalar va nogironlarga hurmat bilan joy berishni o'rgatdi. Odam o'z hissiyotlarini o'zi boshqaradi. Ba'zi kishilar emotsiyalarini yashirish niyatida qarama-qarshi emotsiyalarni ifodalaydilar. Masalan, qayg'urish yoki qattiq og'riq paytida kulimsirash, kulgilari kelgan paytda yuzlarini jiddiy, o'ychan holga keltira oladilar. Lekin o'zining imo- ishoralari va mimikalarini boshqara olishga qaraganda nafas olish, qon aylanish va ovqat hazm qilish tizimidagi o'zgarishlarni ushlab qolish juda qiyin bo'ladi. Odam xayajonlangan paytda bir maromda nafas ola biladi, ko'z yoshlarini ushlab qola oladi, lekin rangini o'zgartirish yoki qizartirishga qodir emas. Ammo emotsiyalarni paydo qiluvchi narsalardan o'zini chalg'itishi mumkin.

Hissiy holatlarning ifodalanishi. Hissiy holatlarning ifodalanishi birinchidan, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo'l, oyoq harakatlari), ikkinchidan organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o'zgarishida, uchinchidan tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

His-tuyg'ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-qomatning o'zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati (so'lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o'zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o'zgarishlari, «ovozi mimikasi» va gaplar tarkibining sintaksis o'zgarishi, «tutilmasdan gapirish», yoki alohida «silliqlik» hamda «ifodalilik»ning yuzaga kelishi nihoyat hissiyot o'zining to'la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emotsional kechinmalari vaqtida nutqning tezligi o'zgaradi. Ko'pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o'zgaradi. O'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, g'amginlik va ma'yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so'zlashgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi.

Hislarni kechirish shakllari. Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyot to'satdan, darhol paydo bo'ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo'lib ketadi, darhol g'azabga keladi, achchiqlanadi va hokozi. Lekin ba'zan shu hissiyotlar o'zi dafa'tan qo'zg'almaydi, balki asta-sekin tug'ila

boshlaydi. SHunday hissiy kechinmalarning qay darajada tez paydo bo'lmasligini belgilash qiyin yoki butunlay bilib bo'lmaydi. Emotsional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotlarni kuchi avvalo yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidadir. Hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros bilan kechirilganligi bilan belgilanadi.

Hissiyotning qo'zg'alish xususiyatlari paydo bo'lish yo'lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Atrof-muhitning holati shu paytdagi ehtiyojlarning kuchi shu xislat tuzilishiga sabab bo'lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashi, odamning dunyoqarashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo'lishi va o'tmishi hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez kuchli va barqaror bo'lishiga ko'ra his-tuyg'ularning quyidagi turlari farqlanadi: hissiy ton, emotsiyalar, affekt, stress, kayfiyat va boshqalar.

Hissiy ton Hissiyot ko'pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o'ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo'ladi. Yoqimli suhbatdosh, kulguli voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko'ngildagi mashg'ulot, hushchaqchaq sayohat, og'ir ish kabilar. Hissiy ton tushunchasiga ko'pgina adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida hissiy ton sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsa va hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy bo'yoq yoqimli yoki yoqimsiz idrok bilan bog'langan hissiyot, deb ta'riflanadi. Professor E.G'oziev tomonidan hissiy ton-u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Q.Turg'unov lug'atida hissiy ton – hissiyot sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsaga hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus emotsional bo'yoq yoqimli va yoqimsiz kechinma bevosita sezgi yoki idrok bilan bog'langan hissiyot. Masalan, og'riq bir qator qo'zg'ovchilar yaqqol ifodalangan yoqimsiz hissiy ton bilan ajralib turadi. *

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar stenik (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuch degan ma'noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs «parvoz qiladi»,

«yulduzni narvonsiz oladi», kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi. Faollik qilib, tinchimaslik uning sifatiga aylanadi. Q.Turg'unov lug'atida stenik hisga quyidagi ta'riflar uchraydi: stenik hislar – shaxsning hayot faoliyatini kuch-g'ayratining orttiradigan barcha bilish jarayonlarini faollashtiradigan ijobiy hissiyot turi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi.

Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat astenik (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. SHu sababdan favqulotda shaxsdagi befoyda emotsional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo'rqoqlikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o'zining aniq tashqi ifodasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Emotsional o'zgarishlar organizmning tashqi o'zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko'rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g'azablanganligini yoxud biror narsadan qo'rqib ketganini va shu kabi his-tuyg'ularning ko'pini aytib bera olamiz. Hissiyotlarning tashqi alomatlarini ifodali harakatlar deb ataladi.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi turli ko'rinishlarda ro'y beradiki, unda asosiy o'rinni ko'rgazmali jihatlar asosiy o'rin egallaydi.

*Birinchi*dan, emotsiyalar nafas olish a'zolarining ishlarida o'zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg'ular ishga tushganda nafas olishning tezligi va ampitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg'ular ustun kelganda kamayadi, qo'zg'algan vaqtida nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo'r berish vaqtida-sekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtida tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo'rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turli emotsional holatlarda nafas olishning o'zgarishi

- a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;
- b) faol xafalikda 9 marta;
- v) qo'rqishda 64 marta;
- d) jahl chiqqanda 40 marta.

Ikkinchidan, emotsiya imo – ishoralarda, mimikada, ya'ni kishining yuzida bo'ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma'nodor harakatlarida ko'rinadi.

Uchinchidan, gumoral harakatlardagi, ya'ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo'ladigan yanada chuqur o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

Demak, emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-bashara va qad-qomatning o'zgarishlari, ayrim tashqi sekretsiya bezlarining faoliyati yosh so'lak, ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o'zgarishlar, ya'ni ularning tezligi, kuchi, koordinatsiyasi va hokazolar kiradi.

Emotsiyalarning eng aniq va yaqqol ko'rinishlaridan biri kulgi bilan yig'idir.

L.N.Tolstoy o'z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan. «Har xil sabab bilan yig'lagan paytda odamning boshi va og'zi har xil qiyofada o'zgaradi» - degan edi. Leonardo da-Vinchi.

Rus psixologi P.M.Yakobson tomonidan ishlangan rasmlardan ko'rinib turibdiki, odamning aftidagi qiyofa asosan lablar, qosh va ko'z o'zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatga, shuningdek, ko'zning qanchalik chaqnab turishiga bog'liqdir. Ko'zning qanchalik chaqnashi ko'z yoshining miqdori, ko'z shilliq pardasidagi tomirlarning kattalashuvi bilan belgilanadi. Maskaning tagida ko'rinib turgan ko'z o'zining ifodasini yo'qotgan bo'ladi. Ko'z, lab, qovoq, qoshning har xil holati, xatto odam chehrasini ham turli qiyofaga kiritadi.

Odam hissiyotlarini bildirishning eng nozigi va eng kuchlisi san'at, xususan, muzika bilan lirik she'rlardir, ularni tom ma'noda hissiyotning tili deyish mumkin.

Odam o'zini va gavda harakatlarini, shuningdek tovushni ataylab chiroyli qilib ko'rsatishi mumkin. U garchi «muayyan hissiyotlarni o'zi kechirmayotgan bo'lsa ham o'sha hissiyotlarni ifodalaydigan harakatlar qila oladi.

Har bir kishi ham o'z hissiyotlarining tashqi ifodalarini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin. Odamlarni kundalik muomalalarida badanning xilma-xil ifodali xarakatlari, imo-ishoralar xususan, ko'z bilan qilinadigan imo-ishoralar, tovushning ohangi, g'amingligi

muhim ahamiyatga ega. SHunchaki bir xo'mrayish, salgina jilmayib kulish, yelka qisish kabi ifodali harakatlar kishining maqsadini anglatadi.

Kayfiyat tushunchasiga psixologik manbalarda turli nuqtai nazardan yondashilgan taqdirda ham mazmunan ular bir xillikni anglatadi. Jumladan K.Turg'unov lug'atida shaxsning kuchsiz yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan nisbatan barqaror umumiy emotsional holati, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi, deb ta'kidlanadi. Professor E.G'oziev fikricha, kayfiyat shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holatdir.

Kayfiyat, ya'ni odamning xursand yoki g'amgin kayfiyati hech vaqt sababsiz maydonga kelmaydi. Odam bajarayotgan biror ishning mavaffaqiyatli tugashi yoki imtihondan yaxshi o'tish- yaxshi tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi. Qilayotgan ishingizni oldinga yurmasligi yoki ishga berilgan yomon baho odamda ma'yuslik, kuchiga ishonmaslik kayfiyatini tug'diradi.

Kayfiyatning xush yoki noxush bo'lishi, birinchi navbatda odamning sihat-salomatligi bilan ham bog'liqdir. Masalan, ichimiz qattiq og'rib turgan vaqtda kayfiyat chog' bo'lmaydi.

Odatda odamda kayfiyatning u yoki bu turi, ya'ni xushchaqchaqlik xursandlik yoki g'amginlik, ma'yuslik, tushkunlik ustun bo'lishi mumkin. Ana shunga qarab odamlar xushchaqchaq, g'amgin, sertashvish deb turli guruhlariga bo'linadilar. Lekin shuni aytish kerakki, odam o'z kayfiyatining quli bo'lib, qolmay, uni boshqara bilishi kerak. O'z kayfiyatini idora qila biladigan odamlarning har doim ruhi tetik, kayfiyati chog' va ishida unum bo'ladi. Kayfiyatni idora qila olmaydigan odamlar bilan yashash juda qiyin bo'ladi. Bunday odamlar arzimagan narsadan kayfiyatini buzib, to'msayib yuradigan yoki arazlab yotadigan odamlar bo'ladi. Bunday odamlarni odatda «sirkasi suv ko'tarmaydigan» yoki «jahli burnini uchida turadigan» odamlar deyishadi. Agar odam har doim o'ylab, aql bilan ish tutsa, kayfiyatini bo'lgan bo'lmagan narsalarga buzavermaydi.

Inson kayfiyatini paydo bo'lishiga va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi quyidagi ikkita omillarni tahlil qilish lozim: Ulardan bittasi obyektiv va subyektiv xususiyatli vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taalluqli

bo'lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqligi); b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinchisini bir manba sifatida talqin qilish mumkin, bu-subyektiv, shart-sharoitlardir. Masalan, mehnat va o'qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi. Ikkinchi subyektiv munosabatlar, iliq psixologik muhit, muloqatmandlik maromi, rag'batlantirish, muloqot o'rnatish uslubi, shaxsiyatiga tegmaslik, teng xuquqlilik, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokozo.

Affekt tushunchasiga berilgan ta'riflarga asosiy e'tiborni qaratadigan bo'lsak bu ham shaxsning kuchli emotsional holatlari bilan bog'liqdir. K.Turg'unovning lug'atida aytilishicha, affekt tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan qisqa muddatli emotsional holatdir. A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida affekt haddan ziyod tez kechishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayonlar ustidan irodaviy nazorat buzilishiga yetaklovchi organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsional jarayonlarga aytiladi. M.Vohidov darsligida affekt to'satdan tez paydo bo'lib, tez orada o'tib ketadigan nihoyatda kuchli hissiy holat sifatida e'tirof etiladi.

Affekt lotincha so'z bo'lib, ruhiy hayajon ehtiros degan ma'noni anglatadi. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishini ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba'zan affektlar tormozlanish holati tarzida namoyon bo'ladi va bunday holatda organizm bo'shashib, harakatsiz bo'lib va shalvirab qoladi. Bunday holat ko'pincha odam birdaniga qo'rqqanida, to'satdan quvonganida va shu kabi holatlarda o'zini yo'qotib qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Affekt holatini boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarning barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar bilinmay boradi. Kuchli zo'riqish oqibatida mayda kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'liq egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloq osti nerv tugunlaridan oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o'zida kuchli hohishi sezadi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha ko'pincha hissiyotlar affektiv shaklda o'tishi tajribalarda sinab ko'rilgan. Jumladan: 1) teatr tomoshabinlarida; 2) tantana nashidasini surayotgan olomonlarda; 3) es-xushini yo'qotgan telbasimon odamlarda; 4) ilmiy kashfiyot laxzasida; 5) tasodifiy qizg'in uchrashuvlarda, jo'shqin shodliklarda mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini tushunish, o'zini qo'lga olish, uddalash qurbiga ega bo'ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo'qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, o'ylamasdan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar ma'suliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir. Affektlar o'tib bo'lgandan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, barcha narsalarga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollikning barham topishi, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi. SHuni ham unutmazlik kerakki, affektiv qo'zg'alish muayyan davrgacha davom etishi, ba'zan o'qtin-o'qtin kuchayishi yoki susayishi sodir bo'lib turishi mumkin.

Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress--ffektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta'rif beriladi. Profssor E.G'ozievning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me'yoridan oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug'ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishlar sifatida ko'rsatiladi.

Stress – inson organizmini haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir.

Stress ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

Konstruktiv – biz turidagi (ko'pchilik orasida);

Destruktiv – men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon.

Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Insonning aqliy jihatlari va fiziologik tizimida stress holati bo'lmasligi mumkin emas. Bular ko'p hollarda muloqotlarda va boshqa ijtimoiy jarayonlarda yuz beradi. Stressni

fiziologik va psixologik turlari mavjud. Fiziologik stress – bu o'ta jismoniy zo'riqish, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi.

Fiziologik stress organizm o'ta zo'riqishi, temperaturaning baland yoki past bo'lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zida odam organizmida qattiq og'riq bo'lganda, og'riq nimadan kelib chiqqanligini tushunib yeta olmaslik oqibatida odamda qo'rquv, xavotirlanish paydo bo'ladi va stress holatiga olib keladi.

Psixologik stress-odamning ruhiy holatiga voqealarni ta'siri tufayli paydo bo'ladigan stress .

Psixologik stress informatsion stress va emotsional stress turlariga ajraladi.

Informatsion stress axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish vazifalarni bajarishda bir qancha yechimlar bo'lsa-da, aniq ulardan qaysi birini tanlash yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishdagi ikkilanishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilish oqibatida odam psixikasi zo'riqadi (charchaydi) va buyrak usti bezlaridan stressli garmonlar ko'p ishlab chiqara boshlaydi. Haddan tashqari zo'riqish natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va oqibatda tanglikka olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni tashqi ta'simi qabul qila olmay qoladi. Bu ba'zi hollarda salbiy yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Miyada stressga olib kelgan axborot tormozlanib, saqlanib qolganda tanglik holatining yuqori nuqtasiga chiqqanda tanglik holatidan chiqib ketolmay o'z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Emotsional stress-ta'qiq qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar (oilaviy mojarolar, to'satdan ishdan bo'shatish yaqin kishisini yo'qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik sababli, xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto'g'ri munosabat qilinganda va hokazolarda) ko'rinadi.

Olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, falokat, hayotiy o'zgarishlar, kundalik tashvishlar ko'proq stresslar hisoblanadi.

Falokat – bu notinchlik, urush, yer qimirlash, suv toshqinlari, avtohalokatlar va hokazo. Bularning hammasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Olimlar shuni ta'kidlashadiki, qattiq yer qimirlashi, suv toshqinlari, yong'in bo'lishi kabi falokatlarning

inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi natijasida xavotirlanish darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Hayotiy o'zgarishlar – bu insonni hayotida yuz beradigan voqea va hodisalardir. Masalan, yaqin kishisining halok bo'lishi, kutilmaganda ish o'rnini yo'qotishi, ajralishlar va hokazo. Agarda inson bir qancha inqirozli vaziyatni boshidan o'tkazsa, qattiq kasallanishi va hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin.

Kundalik tashvishlar – bu ish joylarida sodir bo'ladigan qiyinchiliklar, o'qish joylaridagi o'quvchilarning o'quvchilarga, o'qituvchilarning o'qituvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lishlari, imtihonlarni muvaffaqiyatsiz yakunlanishi va hokazolarda namoyon bo'ladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, mayda stresslar to'planib borib inson sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi va boshqalarda kuzatilishi mumkin. Doimiy yuz berib turadigan kundalik tashvishlar, aqliy, jismoniy, emotsional va ruhiy zo'riqishga olib kelishi mumkin

Stress ayrim odamlarda yengil kechadi, ayrim odamlarda jiddiyroq, qiyinroq o'tadi. Bunga asosiy sabab quyidagilar deb belgilanadi: uning hosil bo'lishi stressli vaziyatga qay darajada munosabatda bo'lishimizga va bu holatni baholashimizga va u bilan kurashishimizga bog'liqdir. Masalan, optimist odamlar stress holatini taqdirning bir sinovi deb qabul qilsa, pessimist odamlar uning hayotiga xavf-xatar tug'ildi, deb qabul qilar ekanlar. Pessimistlarda xavotirlanish darajasi yuqori bo'ladi va ular vaqtida ovqatlanmasalar ham stress holatiga tushib qolaveradilar. Psixologlar Maykl SHayer va Marlъz Karver fikricha, optimist inson eng og'ir, qiyin vaziyatda ham yaxshi deb oldinga intiladi, o'z organizmida stress moslashib olishiga yo'l qo'ymaydi.

Umuman olganda stress atamasi XX-asrning 40-yillariga kelib ommaviylashgan. Bunga sabab stress holatini to'g'ri tushunish va undan himoyalalanishni o'rganish, chunki stress turli salbiy munosabatlar natijasida vujudga kelishi mumkin.

U. Kennon yana shuni ta'kidlab o'tadiki, organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi, ya'ni maqsadga intilish uchun tayyorgarlik ko'rishda organizmida qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani u organizmni moslashish tizimi deb ataydi.

Kanadalik olim vrach G.Selʼe (1936-1976 yillar) oʻzini 40 yillik ilmiy izlanishlari bilan U.Kennon nazariyalariga qoʻshimchalar kiritib, stress psixologiya va tibbiyotda asosiy tushunchalarda biri ekinligini aytib oʻtgan. G.Selʼe stress har doim ham zararli emas, baʼzan inson organizmiga yordam, koʻmak foyda berishi mumkin. Ayrim hollarda stressga tushib qolganda odam yashash uchun kurashish oʻz ehtiyojini qondirish uchun faollashib, oʻzi bilmagan zahiradagi energiyasini ishga solishi mumkin degan. U tirik organizmning noqulay tashqi sharoitlariga moslashuvchanlik muammosini oʻrganib chiqqan.

G.Selʼeni fikricha, shu sabablar muhim va nomuhim stressni keltirib chiqaradi. Bu vaziyatlar bir-biriga bogʻliqdir. Bunda 3 bosqich ajratiladi.

- xavotirlik bosqichi; - moslashish bosqichi; - oʻta charchash bosqichi.


Xavotirlik bosqichida taloqning kichrayishi, yogʻ qavatining yoʻqolishi, oshqozonda oʻtkir yalligʻlanishning sodir boʻlishi, buyrak tepasida likotsidlarning kamayishi kuzatiladi. SHu bilan birga teri jarohatini pasayishi, koʻz yoshlanishi, soʻlakning ajralishi kuzatiladi. Agarda taʼsir kuchli boʻlsa, bu bosqichda xavotirlik holati boshlanadi.

Moslashish bosqichida buyrak usti bezlari kattalashadi, organlar va toʻqimalarning ishlashi sekinlashadi. Agar stressni keltirib chiqaruvchi omil organizmga kuchli taʼsir etsa etmasa shu holat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar taʼsir kuchli boʻlsa, uchinchi bosqich boshlanadi.

Oʻta charchash bosqichi – organizmda kuzatilayotgan yutuqlarga koʻra bosqich xavotirli bosqichga yaqin. Bunda odatda organizm kasallanadi.

Birinchi boʻlib stress boʻyicha 1932 yili fiziolog Uolter Kennon va 1936 yilda vrach Gans Selʼe chuqurroq tushuncha berishga harakat qilganlar. U.Kennonning gomeostaz nazariyasi asosida 1933 yilda «Psixika va tana» asari yaratildi. Bu asarda barcha tashqi sharoit oʻzgarishlariga optimal (toʻla) moslasha oladigan bir yaxlit organizm haqida yozilgan. Organizmdagi turli oʻzgarishlar, yaʼni ochlik, qoʻrquv, jahldorlik holatlarini koʻp yillar kuzatib oʻrganish natijasida «gomeostoz» yaʼni organizmni ichki holatini davomiyligi nazariyasi yaratildi. Uning fikricha, gemostoz va tashqi muhit taʼsirida asosiy oʻrinni markaziy va vegetativ nerv tizimi egallaydi. Markaziy nerv tizimi tashqi-muhit, bilan vegetativ nerv tizimi esa gomeostoz holatini

saqlab turadi. Bundan organizmni «qochishi va kurashishi» uchun energiya ishlab chiqaruvchi simpatoadrenal tizimi muhim rol oʻynaydi. Quyida Jems Lange va Kenon-Bard nazariyasining mohiyati keltirilgan.



SHet el mualliflari asosan ijtimoiy, psixik va fiziologik stress shakllarini ajratadilar. Ularning fikricha, ijtimoiy stress asosida shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy yashash sharoiti yotadi. Ijtimoiy ziddiyatlar doimiy oʻziga ishonmaslik va keskinlikni yuzaga keltiradi.

Yuksak hislar. Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida, yakka holda mavjud boʻlmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlashtirilgan hislar yuksak hislar deyiladi. Yuksak hislar oʻz tarkibiga birinchi soddaroq koʻrinishdagi turli hislarni oladi.

Inson faoliyatining qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi, hislarni qaysi birining asosiy ekanligiga qarab, yuksak hislarning muhim turlari: praksik, axloqiy, intellektual, estetik turlari ajratiladi.

Praksik hislar. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan

munosabatda bo'lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e'tirof etadigan yoki inkor qiladigan maqsadlarga erishish yo'llarini baholaydigan ta'sir qilish usullari va ko'lamlarini ma'qullaydigan va ma'qullamaydigan, ularni to'g'ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Mehnat inson hayotining asosi bo'lib, insonning mehnatga bo'lgan hissiy munosabati yuksak hislar orasida muhim o'rinni egallaydi,

Mehnat faoliyatida shaxs:

Biror maqsadni anglaydi.

Uni e'tirof qiladi yoki inkor etadi.

Maksadga erishish yullarini baholaydi.

Uni tadbqiq etish usullari va qurol vositalarini ma'kullaydi yoki ma'qullamaydi.

Ularning tanlanganligiga shubhalanadi.

Inson muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradi va hokazo.

Ahloqiy hislar odamning boshqa kishilarga, jamoa va o'zining ijtimoiy burchlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma'lum ahloqqa, ya'ni ijtimoiy ahloq-qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy hususiyatlariga hamda o'zining xatti-harakatlariga baho beradi.

SHaxsning yetakchi ahloqiy hislaridan biri bu burch hissidir. Bu his odam yashab va ishlab turgan tor doiradagi jamoa (oila, maktab, ishlab chiqarish, korxonona) manfaatleri nuqtai nazaridan turib, harakat qilish lozimligini anglaganda ham kechiriladi. Odam o'zining ijtimoiy burchlari nimalardan iborat ekanligini bilib va tushunibgina qolmay, balki ularni bajarish zarurligini ichdan his qilib qayg'uradi. Kishilar hayoti va faoliyatida o'zaro yordamlashish, hamjihatlik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o'rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi.

O'rtoqlik munosabatlarining yuksak cho'qqisi do'stlik hissida namoyon bo'ladi. Do'stlik hissi o'rtog'iga mehribonlikda uni ko'rish u bilan gaplashish o'z fikr hislari bilan o'rtoqlashishda namoyon bo'ladi. Haqiqiy do'stlik hissi do'stga nisbatan yuksak talabchanlik bilan bog'liqdir. Xato va kamchiliklarni tuzatishga ham yordam berish, do'stlikka yaqin bo'lgan muhim ahloqiy his muhabbat hissidir.

Muhabbat jamiyatda nikoh va oilaning ahloqiy psixologik asosi hisoblanadi.

Agar odamning jamiyatdagi xatti-harakatlari ahloq normalariga mutlaqo zid bo'lsa, odam vijdon azobiga uchraydi. Vijdon azobi murakkab hissiy holatdir. Mobodo odam biror ahloqsiz harakat qilib, vijdon azobiga uchrasa, undan qutilishi juda qiyin bo'ladi. Chunki vijdon azobiga uchragan odam jamiyat oldida o'zining nohaqligini biladi va o'zini-o'zi so'roq qila boshlaydi. SHuning uchun odam o'zidan-o'zi qochib qutila olmagandek, vijdon azobidan ham hech qachon qochib keta olmaydi.

Ma'lumki, vijdon azobi kishining qalbida chuqur ichki kurash hissini tug'diradi. O'z xatti-harakatida ahloq tamoyillariga amal qilmagan, uyati ham vijdoni bo'lmagan kishilarni «vijdonsiz» odamlar deyiladi. Kishi yomon bir ish qilib qo'rganligi bu kishining o'ziga munosib emasligini, anglashi bir tomondan vijdonini qiynaydi, vijdon azobiga soladi, ikkinchi tomondan ahloq talablariga xilof ish qilish bilan boshqalardan malomatga qolishni, ularni o'miga nisbatan salbiy xislat paydo qilishni ham tushunadi. Masalan, mazkur jarayonga quyidagi misolni keltirib o'tish joiz. AQSH prezidenti R. Trumen 1945 yili 6 avgustda Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashlashga buyruq bergan edi. Amerikaning birinchi darajali uchuvchisi Mayor Klod Izerli Xirosimaga atom bombasini tashlab 300 000 kishini yostig'ini quritishda ishtirok etdi. Atom bombasi zarbidan o'lgan yosh bolalarni qariyalarni, xotin-qizlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Izerli vataniga qaytganda "Xirosima qahranoni"ni sifatida uni tantana bilan kutib olishadi.

Izerlini vijdon azobi kundan kunga battarroq qiynay boshladi. U vijdonini tinchitmoq uchun nafaqadan, hamma mukofatlardan voz kechdi, o'ziga berilgan ordenlarni qaytarib bermoqchi bo'ldi. Pul to'plab Xirosimaga yordam yubordi. Ammo vijdon azobi hamon uni ezardi, ta'qib qilardi, kechalari uxlolmasdan o'zini o'zi o'ldirishga urinib ko'rardi. Ammo natija chiqmadi, zora qamasalar, deb jinoyat qildi. Nihoyat Klod Izerli aqldan ozibdi, deb uni jinnixonaga yotqizdilar.

Estetik hislar ham yuksak ahloqiy hislardan hisoblanadi. Estetik his deganda biz go'zallikni idrok qilish, go'zallikdan zavqlanish va go'zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo'lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik

hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. Masalan, bahor faslidagi tog' manzaralari yaylovlarda qo'y va qo'zichoqlarning o'tlab yurishlari, baland qorli qoyalarni uzoqlardan mag'rur turishlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug'diradi yoki xuddi dengizdek ko'z ilg'amaydigan ko'm-ko'k paxtazorlar uzoqlarda chiroyli bo'lib ko'rinib turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko'tarinki ruh tug'diradi.

Odamlar hayotning turli faktlariga va ularning san'atini aks ettirishiga qandaydir go'zallik yoki xunuklik fojiali yoki kulguli, oliyanoblik va razillik, nozik yoki dag'al hodisalar sifatida munosabatda bo'ladilar. Bu hislar tegishli baholarda estetik didlarda namoyon bo'ladi va o'ziga xos badiiy lazzatlanish holatida kechiriladi.

Estetik hissiyotlarning manbalari juda ko'p va xilma-xildir. Masalan, tabiat manzaralaridan lazzatlanishdan tashqari tasviriy san'at asarlari, badiiy-adabiy asarlar, muzika va xaykaltaroshlik, arxitektura va me'morchilik ishlari ham odamda estetik hisni tug'diradi. Bundan tashqari odamlarning o'zaro bir-birlari bilan bo'lgan munosabat va muomalalari ham estetik hissiyotlarning manbalari bo'la oladi. Odamning kiyinishi, uyining tutishi, qanday jihozlanish, boshqalar bilan muomalasi ham estetik hislarimizning manbai bo'la oladi. Masalan; dag'al gaplashadigan kishidan odam nafratlanadi, aksincha muomalali, gapni o'rinli va madaniyatli qilib gapiradigan kishidan odam zavqlanadi. SHunday odamlarga taqlid qilgisi keladi. Umuman odamning estetik hissiyotlari ko'p manbalarga ega bo'lgan murakkab hissiyotlardandir.

Intellektual hissiyotlar ham o'z mohiyati jihatidan ahloqiy hissiyotlarga yaqin bo'lgan hissiyotlardir. Intellektual hissiyotlar odamning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar bo'lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Intellektual hissiyotlarga dastavval ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo'lmaydigan, hayratda qoldiradigan emotsiyalarga berilib qolgan odam o'zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshirish mumkin. Bu his odam faol bilish faoliyati orqali hosil qilgan g'oya hamda e'tiqodlarni hayotga tadbiiq

ish uchun bo'lgan kurashning qiyin daqiqalarida unga madad beriladi.

O'zining intilish (mayllarida), qaror va harakatlarida har doim loq tamoyillariga amal qiladigan kishilarni axloqli kishilar deb ataymiz.

Inson o'zi uchun qadrlı biror bir narsasini yo'qotganda yoki yaqin onidan ayrilganida vujudga keladigan hissiyot -bu qayg'udir. Insonningdek, inson faoliyatdan kutgan natijasiga erisha olmay qolsa, kuzisi ushalmasa yoki o'zini yolg'iz his qilganida ham uni qayg'u hissiyoti chulg'ab oladi. Har bir inson yagona va takrorlanmas. Insonning uchun qayg'uni keltirib chiqaruvchi sabablar ham insonlarga har xilicha ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi odamlarda bir sabablar qayg'u hissiyotini keltirib chiqarsa, boshqalarda aksi bo'lishi mumkin. Bir kishi aba imtihonda qoniqarli baho olganidan xursand bo'lsa, boshqasi esa bundan xafa bo'lishi mumkin. Ko'rinib turibdiki qayg'uga har xil moyillik individualdir.

Qayg'uga moyillikni ikki omilga – biologik va ijtimoiy omillarga ajratib ko'raylaydi. Qayg'u hissi asosiy rol o'ynaydigan depressiya holati irsiy xarakterga ega. Lekin qayg'uga moyillik faqat irsiy omillar bilan emas, balki hayotning hayotiy tajribasi bilan ham belgilanadi.

Qayg'u uzoq muddat his qilinsada, inson yuzida faqat bir necha xarakteriyal ifodalanishi mumkin. Qayg'uning yuzda ifodalanishiga "Kuchli qayg'u" filmidagi Pjero obrazining yuzini keltirishimiz mumkin. Kuchli qayg'u hamma odamlarning ham yuzida ifodalanmaydi. Kuchli qayg'u odamlar o'zlarining xafaliklarini bildirmaslikka harakat qiladilar, yuzini o'zlashtirishga, xotirjam bo'lishga harakat qiladilar. Lekin kuchli qayg'u har xil xarakteriyatuvchi nigohidan qayg'uni berkitish mumkin emas. Qayg'u bir xarakteriyat uchun hislar yig'indisidan iborat. Kuchli qayg'u insonni og'riqni his qilishga majbur qiladi. Inson ko'krak qismida og'riqli sezgini his etadi. Lekin kuchli qayg'u bu hislar odatda muayyan obrazlar, fikrlar, xotiralar bilan bir xarakteriyatda kechadi. Qayg'u his etilganda boshqa g'amgin hodisalar yodga keladi, idrok qilinayotgan dunyo mungli ko'rinadi.

Kuchli qayg'u odamni og'riqni sezishga majbur etadi. Odam kuchli qayg'uda, ko'krakda og'riqni his etadi. Albatta bu og'riq inson qo'lini og'riq bilan urib olgandagi yoki boshqa jismoniy og'riqlardan farq qiladi, ya'ni bular azoblanishning turli shakllaridir. Qayg'u ruhiy og'riqni paydo qilishi mumkin va bu og'riq jismoniy azoblanishdan farq qiladi, chunki chuqurroq va o'tkirroq his etiladi. Lekin differentsial hissiyot

nazariyasiga ko'ra inson qo'rquv yoki boshqa salbiy hissiyotlardan ko'ra qayg'uni yengilroq boshdan kechiradi.

Qayg'u funksiyalari. Hech bir hissiyotni faqat ijobiy yoki salbiy, yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli deb bo'lmaydi. Qayg'u ham xuddi shunday. Muayyan sharoitda u yagona to'g'ri reaksiya hisoblanishi mumkin.

Bunday sharoit yaqin insonning o'limi bo'lishi mumkin. Oila o'zining bir a'zosini yo'qotganida oilaning boshqa a'zolari bir joyga to'planadi. Oilaning har bir a'zosi qarindoshlari bilan bog'lab turuvchi chuqur mustahkam aloqani his etadi. Bu his insonning psixik hayotida muhim ahamiyatga ega. Marhumga nisbatan birgalikdagi qayg'u har bir odamning baxtli va to'laqonli hayoti uchun zarur bo'lgan yordam va dalda manbaidir.

Qayg'u inson hayot sur'atini sekinlashtirib, unga "orqaga nazar tashlashga" imkon beradi. Qayg'u hissiyoti bilan birga kechadigan psixik va somatik jarayonlarning sekinlashuvi dunyoga yangi nazar bilan qarashga yordam beradi. Bu narsa ba'zan qayg'uni chuqurlashtirishi mumkin, shu bilan birga inson ilgari o'ylab ko'rmagan narsalarni tushunishiga yordam beradi.

Qayg'u vaqtida inson qanchadan – qancha imkoniyatlarni qo'ldan boy berganini tushunadi. Ba'zan inson yaqin odamini yo'qotgandan so'ng qon – qarindoshlik va oilaviy aloqalarning hayotimizdagi ahamiyatini tushuna boshlaydi. Qayg'u insonga yaqin insonlariga e'tiborliroq bo'lishni tushunishga, hayot qadrini o'tkirroq his qilishga yordam beradi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, qayg'u hissiyoti, kommunikativ funktsiyani bajaradi. Qayg'uni namoyon qilish orqali inson o'zini yomon his qilayotganini, yordamga muhtojligini bildiradi. Qayg'uni namoyon qilayotgan insonga, ayniqsa, bolaga atrofdagilar hamdard bo'lishga intiladilar. Izard Savitski va Simning quyidagi tajribasi haqida gapiradi. Tadqiqotchilar tekshiriluvchilarga voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan suhbatdan bir minutlik lavhalarni ko'rsatganlar. Har bir o'smiring yuzi muayyan hissiyotni ifoda etib turgan. Tekshiriluvchilarga har bir o'smir sodir etgan jinoyatlar haqida ma'lumot berilgan. Tekshiriluvchilar o'smirlarning qanday jazoga loyiq ekanligini belgilashlari kerak edi. Tajribada jinoyatlar og'irligi jihatidan bir xil bo'lsada yuzida qayg'u ko'rinib turgan o'smirlarga

yuzida g'azab yoki quvonch ifodalangan o'smirlarga nisbatan yengilroq jazo belgilashga moyillik aniqlangan.

Qayg'u boshqa hissiyotlar singari motivatsiya funksiyasini bajaradi. U odamlar bilan aloqani tiklash yoki mustahkamlash istagini paydo qiladi. Muvaffaqiyatsizlik tufayli paydo bo'lgan qayg'u insonni muammoni yechishga undaydi. "Salbiy motivatsiya" muayyan darajada inson uchun zarur. U tufayli inson o'z shaxsiy muammolari va boshqa odamlarning muammolariga e'tiborini qaratadi. Agar inson muammodan qo'rqa, odam u muammoni hal etishdan ko'ra undan qochishga harakat qiladi.

Qayg'u inson uchun shunchalik og'irki, u muammoni yechishga yo'naltirilgan faoliyat motivatsiyasining davomiyligini ta'minlabberolmaydi. SHuning uchun qayg'uni to'la yengish ko'nikmalarini egallash inson uchun zararli bo'lishi mumkin, chunki qayg'u hissiyoti insonning shaxsiy o'sishini ta'minlash uchun muhim motivatsion ahamiyatga ega. Qayg'u empatiya mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Qayg'uli insonga atrofda gilarning rahmi keladi, unga yordam berishga intiladilar.

Qayg'uning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi. Jazo orqali qayg'uning ijtimoiylashuvi. Qayg'uning bunday ijtimoiylashuvi, masalan, bolaning yig'isi kattalarda salbiy reaksiyani paydo qilganda, ota-ona yoki tarbiyachi bolani yig'layotgani uchun jazolaganlarida ro'y beradi. Masalan, ota-ona bolani uyqudan bosh tortganda, sevimli o'yinchog'ini yo'qotganda, ovqat yegisi kelmaganda bir xil urushadi. Bir xil haqorat va doimiy jazo bolaning qayg'usini chuqurlashtiradi va bola buni namoyon qilish orqali ota-onaning yanada ko'proq noroziligiga ro'baro keladi. Bu aylanadan chiqish yo'li yo'q. Bolaning individualligi zaiflashadi, odamovi bo'lib qoladi, qayg'udan qo'rqadi, doim tushkun va charchoq holatda bo'ladi. Agar ota-ona bolaga qayg'uni namoyon etishni man qilmasdan, balki uni yengishga yordam bersalar, vaqt o'tishi bilan u o'zini yetarli darajada hurmat qiladigan va o'ziga ishongan odamga aylanadi.

Agar ota og'li yig'lagani uchun uni doim jazolasa, u holda bolaning ongida qayg'u bilan qo'rquv o'rtasida mustahkam aloqa shakllanadi. Bola yig'i og'riqli jazoni olib kelishini o'zlashtiradi. Bolalarda og'riqni kutish qo'rquvning kuchli aktivatoridir. SHunday qilib, qayg'u qo'rquv bilan bog'lanadi. Bola bu bog'lanish qanday shakllanganini tushunmasligi, vaqt o'tishi bilan butunlay unutishi

mumkin. Bu holda qayg'uni paydo qilayotgan vaziyatlar u uchun juda og'ir bo'ladi, qo'rquvni his qiladi. Odam qanchalik o'z hislarini tahlil qilmasin, ularning sabablarini tushunishga harakat qilmasin, u qo'rquv va qayg'u orasidagi o'zaro aloqani anglashga qodir bo'lmaydi.

Qayg'uni rag'batlantirish orqali ijtimoiylashuvi.

Qayg'uni ijtimoiylashuvining bu tipida ota-ona farzandini xotirjam qilishga, qayg'uni paydo qilgan sabablarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshiradi. Ota-ona yoqimli so'zlar va hamdardlik bilan chegaralanib qolishsa, bu yaxshi holat emas. Lekin agar ota-ona bolaga real yordam ko'rsatsa, salbiy qo'zg'atuvchilarni bartaraf etish usullarini birga faol izlashsa, bolada qayg'uni namoyon qilish, u bilan kurashish va muvaffaqiyatga erishish uchun harakat qilish yaxshi rivojlanadi. Ijtimoiylashuvning bu tipida odam qayg'uni yengishga o'rganadi, qayg'uni ketidan quvonch kelishini biladi. Qayg'uning ijtimoiylashuvini bu tipi jazolashdan ko'ra mahsuldordir. Qayg'u hissiyotining chegarasi past bo'lgan bola mazkur hissiyotning chegarasi yuqori bo'lgan bolalarga nisbatan ko'proq yig'laydi. Bunday bolalar quvnoq yoki bosiq bolalarga nisbatan ko'proq jahlni chiqaradi.

Boshqa hissiyotlar kabi qayg'uni boshqarishning uchta usuli bor: 1) boshqa hissiyot orqali boshqarish; 2) kognitiv boshqarish; 3) motor boshqaruv.

Boshqaruvning birinchi tipi mazkur vaqtda boshdan kechayotgan hissiyotga qarama – qarshi hissiyotni faollashtirishga yo'naltirilgan ongli harakatdir. Kognitiv boshqarish noxush hissiyotlarni bostirish va uning ustidan nazorat o'rnatish uchun diqqat va tafakkur jarayonlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Motor boshqaruv hissiyot kuchini pasaytiruvchi erkin boshqariladigan mushaklarni jismoniy faollikka jalb etishni nazarda tutadi.

Hissiyotning samarali boshqaruvi hislar, fikrlar va harakatlarning birgalikdagi mehnati natijasidir. Masalan, qayg'u paytida inson o'zida yoqimli hislarni paydo qilishga qiynaladi. Lekin odam o'z diqqatini unda quvonch va qiziqish uyg'otadigan hodisa yoki faoliyatga ko'chirishga erishsa qayg'uni yengish ehtimoli ortadi. Agar bu vaqtda odam o'zi uchun qiziqarli bo'lgan, jismoniy va aqliy kuchni talab etadigan faoliyat bilan shug'ullansa odam quvonchni his etadi va qayg'uni yengadi.

Demak, inson kundalik turmushi davomida duch keladigan uammoli vaziyatlar, qondirilmagan birlamchi ehtiyojlar, boshqa hissiyotlar, shuningdek, obrazlar, tasavvurlar va xotiralar qayg'uning psixologik asosini tashkil etadi. Qayg'u hissiyoti bir qator funktsiyalarni bajaradi. Qayg'u odamlarni birlashtiradi, do'stlik va qariyb aloqalarni mustahkamlaydi. Qayg'u insonning aqliy va jismoniy faolligini tormozlaydi va bu bilan insonga murakkab vaziyatni yaxshilab o'ylab ko'rishga yordam beradi. SHuningdek, qayg'u insonni boshqa odamlar bilan aloqalarini qayta tiklashga va mustahkamlashga yordam beradi. Qayg'uni boshqarishning uchta usuli mavjud: qayg'uning kuchini kamaytirish va bartaraf etish uchun boshqa hissiyotni faollashtirish, diqqat va tafakkurni chalg'itish va jismoniy boshqariladigan mushaklar va jismoniy faollikni zo'riqtirish usuli.

Qo'rquv hissiyoti.

Qo'rquv – bu ko'pchilik odamlar dahshat bilan o'ylaydigan hissiyot. Inson qayg'u, g'azab, nafrat va uyatni qo'rquvdan ko'ra ko'proq his etadi. Qo'rquv hayotimizning real bir qismi. Inson turli vaziyatlarda qo'rquvni his etadi, lekin barcha bu vaziyatlar bitta umumiy xususiyatga ega, ya'ni inson ularni osoyishtaliklariga va avfsizliklariga xavf tug'dirayotgan vaziyatlar sifatida idrok qiladi. Ko'rquv chuqur his qilinganda uzoq vaqt xotirada qoladi. Ko'pchilik odamlar yoshligida biror narsadan qattiq qo'rqqan holatlarini xuddi hech bo'lgandek yaxshi eslaydilar. Bolalikdagi qo'rquv bilan bog'liq xotiralar va predmetlar inson balog'atga yetganida ham hissiy xarakterini yo'qotmaydi. Fobiyadan azoblanadigan odamlar muayyan predmetlar, hodisalar yoki vaziyatlar insonda qanchalik kuchli qo'rquvni paydo qilishini boshqalardan yaxshiroq biladilar. Qo'rquv hissiyoti ustidan nazorat masalasi, ayniqsa, fobiya hodisasi fanda ozirgacha o'z yechimini topmagan. Qo'rquvni xavotir bilan almashtirib bo'lmaydi. Qo'rquv – bu aniq, alohida kategoriya sifatida o'rinli hissiyot. Xavotir – bu turli hissiyotlarning kombinatsiyasi va qo'rquv hissiyoti – mana shu kombinatsiya qismlaridan biridir.

Qo'rquv - bu yaqinlashib kelayotgan haqiqiy yoki taxmin qilinadigan falokat tufayli yuzaga keladigan ichki holat. Psixologiya nazariyasidan u salbiy rangdagi emotsional jarayon deb qaraladi. Xavotir dunyosida qo'rquv - bu shaxsning omon qolishida katta rol o'ynaydigan o'tmishdagi salbiy tajribalarga asoslangan tuyg'u.

Qo'rquv - bu yaqinlashib kelayotgan yoki kutilayotgan falokatning ichki holati. Psixologiya nuqtai nazaridan u salbiy hissiyot deb qaraladi.

Qo'rquvni subyektiv his qilish qo'rqinchlidir, u insonni harakatsiz "qotirib" qo'yishi va bu bilan uni yanada nochor ahvolga solishi mumkin. Yosh o'sgan sari insonda qo'rquvni paydo qiladigan predmetlar ham o'zgarib boradi. Insonni jismoniy jarohat olish xavfi qo'rquvga solmasligi mumkin, lekin u g'ururining tahqirlanishi va o'ziga beradigan bahosining pasayishidan qo'rqadi. Inson muvaffaqiyatsizlik va ruhiy yo'qotishdan qo'rqadi, chunki ular har bir insonning qalbida haqiqiy o'zgarishlarni amalga oshirishi mumkin.

Qo'rquvning sabablari. Psixiatr Djon Boulbining aytishicha, muayyan obyektlar, hodisalar va vaziyatlar qo'rquvni paydo qiladi, ya'ni xavfning - 4 ta tabiiy signali bor. Bu tabiiy signallarga og'riq, yolg'izlik, ta'sirotning to'satdan o'zgarishi va obyektning shitob bilan yaqinlashuvini kiritgan. Bu omillar tug'ma bo'lishi shart emas, lekin biz bu ta'sirlarga qo'rquv bilan javob berishga tabiatan beriluvchamiz. Tabiiy signallar kam sonli bo'lishiga qaramay, ular qo'pgina qo'rquv aktivatorlari asosida yotadi.

Og'riq qo'rquvning birinchi va tabiiy aktivatori. Og'riqni kutish tufayli paydo bo'lgan qo'rquv o'rganish jarayonini juda tezlashtiradi. Og'riq bilan bog'liq har qanday hodisa va vaziyat shartli stimullar bo'lishi mumkin va u bilan takroriy uchrashuv individual his qilingan og'riqni eslatadi. Muayyan vaziyatda qo'rquvni his qilish uchun og'riqni his qilish shart emas. Fobiyadan azoblanadigan odamlarning ko'pchiligi qo'rquv obyekti ularga zarar yetkazganligi haqida birorta ham hodisani aytib bera olmaydilar. Balki qachonlardir fobiya obyekti bilan bog'liq og'riqni his qilgan bo'lsalar buni unutib yuborgan bo'lishlari ham mumkin. Lekin baribir bizning qo'rquv va fobiyalarimizning ortida hech qanday muayyan salbiy tajriba yotmaydi.

Ba'zi odamlarni ilon hech qachon chaqmagan bo'lsa ham va umuman hech qachon tabiiy sharoitda ilonni uchratmagan bo'lsa ham ilondan qo'rqadilar. Boshqalar hech qachon aviakatastrofaga uchramagan bo'lsa ham samolyotda uchishdan qo'rqadilar. SHunday qilib, bizning qo'rquv va fobiyalarimiz og'riqni faqat real his qilish zamirida emas, balki fantaziyamiz mahsuli bo'lishi mumkin.

Yolg'izlik. Qo'rquvning tabiiy aktivatorlaridan biri yolg'izlikdir. U bir o'zi yolg'iz qolganida o'zining xavfsizligiga xavf uyotganini sezadi, lekin u odamlar orasiga kirishi bilan qo'rquv tinadi. Muayyan vaziyatlarda katta yoshdagi odam uchun ham yolg'izlik xavfli omil bo'lishi mumkin. Masalan, inson yolg'iz o'zi u, g'orga, dunyo bo'ylab sayohatga chiqqanida o'zini xavf ostiga qo'yadi. Albatta, bu vaziyatlar tipik emas, inson tunda sayr qilib ham xavfni xavfga qo'yishi mumkin.

Ta'sirotning to'satdan o'zgarishi. Ta'sirotning to'satdan o'zgarishi insonni qo'rquv aktivatori sifatidagi roli fanda yaxshi o'rganilmagan. Ushbu hodisa moslashishga qiynalayotgan o'zgargan sharoit u uchun xavfli bo'lishi mumkin va qo'rquv hissiyatini paydo qilishi mumkin.

To'satdan yaqinlashuv. To'satdan yaqinlashuv ham qo'rquvning tabiiy aktivatori hisoblanadi. Ba'zi bir tadqiqotlar obyektning to'satdan yaqinlashuvi qo'rquvning tabiiy aktivatori ekanligini tasdiqlaydi. Sakkiz oylik bolalar begona odam yaqinlashganda qo'rquv kuzatilib, avj o'tkazib reaksiyasini namoyon qiladilar. Lekin shu bilan birga ko'pchilik tadqiqotlarning ko'rsatishicha begona odamning yaqinlashuvi odat qo'rquvni, balki qiziqish, quvonch va g'azabni ham paydo qilishi mumkin. Lekin faqat muayyan sharoitlardagina ularda yaqinlashayotgan begona odam qo'rquvni paydo bo'ladi. Mazkur vaziyatda begona odamning tashqi ko'rinishi va yaqinlashish tezligi qo'rquvning muhim omili bo'ladi. Yirik odamning yaqinlashuvi bola yaqinlashgandan ko'ra ko'proq qo'rquvni paydo qiladi. SHunday bo'lsa ham, obyektning shiddat bilan yaqinlashuvi muayyan sharoitlarda, har qanday g'oyadalar uchun xavfning tabiiy signali hisoblanadi.

G'aroyiblik. G'aroyiblikni qo'rquv omili sifatida xavfning tabiiy aktivatorlariga qo'shimcha ravishda ko'rish mumkin. Mazkur omilni o'rganish muvofiq kelmaslik gipotezasi sifatida ishlatadilar. Bu gipoteza bo'yicha, odatdagi stimuldan yetarli darajada farqli har qanday stimul hissiyatni faollashtirishi mumkin. Begona stimul omilining darajada mos kelmasligi, ya'ni uning sifati va intensivligi odatdagi stimulning ilgarigi tajribasiga mos kelmasa qo'rquvning faollashuv omili anchagina ortadi. Biz predmetning g'aroyibli haqida o'rganishimizda biz predmetning individga tanish predmetlardan farqli ekanligi, uning tushunarsiz bo'lib namoyon bo'lishini tushunamiz. Individga begona va tushunarsiz ekanligiga ko'ra u individ tomonidan faollashtirilgan manbai sifatida idrok qilinadi.

Balandlik. Balandlik qoʻrquv aktivatori sifatida xavfning tabiiy signali hisoblanadi. Muayyan sharoitlarda va individual rivojlanishning muayyan sharoitida bolalar balandlikdan qoʻrqa boshlaydilar.

Fobiyalar. Koʻpchilik olimlarning fikriga koʻra fobiyalar – muayyan obyektlar yoki vaziyatlar bilan bogʻliq intensiv qoʻrquv boʻlib, orttirilgan buzilish hisoblanadi. Baʼzi olimlar fobiyalarni shartli emotsional reaksiyalar deb hisoblaydilar. Boshqalari bu shartli emotsional reaksiyalarning zamirida biologik moyillik yotadi deb hisoblaydilar. Fobiyalar koʻpincha insonda uzoq vaqt davom etadi, chunki, biror – bir fobiyadan azoblanadigan odam oʻzi uchun qoʻrquv obyektini chetlab oʻtishga oʻrganadi, har qanday toʻqnashuvdan qochishga oʻrganadi, natijada obyekt oʻzini qoʻrqitish kuchini saqlaydi. SHunday qilib, fobiyalarning uzoq muddat mavjudligi sababini qoʻrquv obyektini bilan real toʻqnashuv tajribasining yetishmasligi bilan tushuntirish mumkin.

Qoʻrquvning subyektiv his etilishi. Qoʻrquv – juda kuchli hissiyot va u insonning xatti – harakatiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Inson qoʻrquvni his etganda uning diqqati keskin torayadi va xavf haqida signal berayotgan obyekt yoki vaziyatda nisbatan oʻtkirlashadi. Qoʻrquv idrokni, tafakkurni va individning tanlash erkinligini cheklaydi. Bundan tashqari, qoʻrquv inson xatti – harakatining erkinligini ham chegaralaydi. Qoʻrquvda inson oʻziga tegishli boʻlmaydi, u bitta yagona intilish – xavfni yoʻqotish, xavfdan qochish uchun harakatlanadi.

Agar qoʻrquv asoslangan boʻlsa va inson oʻzining butun energiyasini toʻplab, xavfni tezda bartaraf eta olishi mumkin boʻlsa, bu holda idrokning torayishi va xatti – harakat erkinligining chegaralanishi nafaqat toʻgʻri, balki zarur deyish mumkin.

Uncha kuchli boʻlmagan qoʻrquv bezovtalanish, xavotirlanishdan his etiladi. Qoʻrquv oshib borgani sari odamning oʻzini bexavotir ekanligicha ishonchi yoʻqolib boradi va oʻzini himoyasiz seza boshlaydi. Odamda vaziyat uning nazoratidan chiqayotgan his paydo boʻladi. U oʻzining jismoniy va psixik “Men” i xavf ostida qolganini his etadi. Tomkinsning fikricha, qoʻrquv – eng zararli va halokatli hissiyat. Qoʻrquvning halokatli ekanligi shundaki, u insonni hayotdan koʻz yumishiga olib kelishi mumkin. Dahshatda namoyon boʻladigan qoʻrquv yurak va boshqa organlarning ishi uchun javob beradigan

vegetativ asab tizimining yuqori darajadagi faollashuviga olib keladi. Vegetativ asab tizimining haddan ortiq faollashuvi hayotiy muhim organlarning zo'riqib ishlashiga olib keladi.

Qo'rquvning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi. Qo'rquv ham boshqa hissiyotlar singari barcha insonlarga xos. Lekin qo'rquvni namoyon qilish ba'zi millat vakillari uchun juda uyatli holat. Masalan, Amerikada o'g'il bola o'zining qo'rqqanini yashira olmasa, u boshqalar tomonidan izza qilinadi, kulguga qoladi.

Ba'zi ota-onalar qo'rquvning namoyon bo'lishini biror bir vaziyatda minimum darajaga yetkazishga intiladilar. Agar ularning o'zlari birorta vaziyatda qo'rquvni his qilsalar, buni bildirmaslikka harakat qiladilar va bu bilan bolani bu kechinmadan himoya qilmoqchi bo'ladilar. Lekin bu to'g'ri emas. Bola qo'rquvni favqulodda reaksiya sifatida tasavvur qiladi va u xavfli vaziyatlardan qochishga intiladi. Boshqa ota-onalar qo'rquvning oqibatlarini oshirib yuboradilar. Bu holda bola har qanday qo'rquvni mag'lubiyat deb idrok qiladi va bunday kechinmalardan haddan ortiq cho'chiydi.

Qo'rquvning ijtimoiylashuvini eng maqbul usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

ota-ona farzandini atayin qo'rquvga soladi;

ota-ona bolada qo'rquv hissiga ozroq sabrli bo'lishni tarbiyalashi kerak;

ota-ona bolani qo'rquv manbaiga qanday qarshi turishga o'rgatishi kerak;

qo'rquv ustidan nazoratning turli strategiyasini ishlab chiqishga yordamlashishi kerak.

Ota – onaga bolaning xavfsizligini ta'minlashi, bola uchun “hissiy yaqin” bo'lishi, uning xafagarchiligiga xamdard bo'lishlari va qo'rquvni yengishga bo'lgan har qanday urinishlarini qo'llab – quvvatlashlari kerak.

Qo'rquv belgilari

Qo'rquv paytida odam fiziologiyasida odatdagi holatga nisbatan juda ko'p o'zgarishlar yuz beradi:

Kortizol, adrenalin ajralib chiqadi.

Simpatik asab tizimi faollashadi.

Og'riq chegarasi, reaksiya tezligi, mushaklarning kuchi, chidamliligi oshadi.

Yurakning tezligi va nafas olish tezligi oshadi.

Terlash va qon bosimi ortadi.

Tana bo'ylab qon tomirlari torayadi.

Ovqat hazm qilish sekinlashadi yoki butunlay to'xtaydi.

ko'z qorachig'i kengayadi.

SHakar miqdori ko'tariladi.

Tezkor reflekslar tezlashadi.

Tananing bu barcha reaksiyalari o'zini saqlab qolish instinkti uchun xarakterlidir - ehtimol, barchaning eng kuchli instinkti. Ular shuningdek salbiy oqibatlariga olib keladi: tananing umumiy charchoq, chanqoqlik, tanadagi titroq. Qo'rquv, stress, xavotir va xavotirni qanchalik tez-tez boshdan kechirsangiz, shunchalik immunitet bosilib qoladi va natijada kasallikka olib keladi.

Professor Y. V. SHcherbatix qo'rquvni tasniflashni taklif qildi U barcha qo'rquvlarni uch guruhga ajratadi. Biologik, Ijtimoiy va Ekzistentsial

Birinchi guruhga inson hayotiga tahdid bilan bevosita bog'liq bo'lgan qo'rquvlar kiradi, ikkinchisi - ijtimoiy mavqeini o'zgartirish qo'rquvi, uchinchi guruh qo'rquvlari - barcha odamlarga xos bo'lgan shaxsning mohiyati bilan bog'liq

Ijtimoiy qo'rquvlar insonning hayoti yoki sog'lig'iga emas, balki uning ijtimoiy mavqeiga yoki o'z-o'zini hurmat qilishiga tahdid soladigan holatlar tufayli yuzaga keladi

uchinchisi - Ekzistentsial qo'rquvlarga hayot, o'lim va inson hayoti bilan bog'liq barcha narsalar kiradi: o'lim qo'rquvi, kelajak, vaqt, ochiq va yopiq makon, inson mavjudligining ma'nosizligi.

Qo'rquvni boshqarish texnikasi. Qo'rquvni boshqarishning bir qator samarali texnikasi bor.

Desensitizatsiya. Mazkur texnika Uolp tomonidan ishlab chiqilgan. U individda qo'rquvni paydo qilayotgan obyekt va vaziyatlarga sezgirlikni pasaytirishga yo'naltirilgan. Avval mijoz yuz, bo'yin, tana mushaklarini bo'shashtirish usullariga o'rgatiladi. CHunki, inson qo'rqqanida bu mushaklar taranglashadi. Terapevt mijozni mushaklarni to'la bo'shashtirishga o'rgatgach, mijozda qo'rquvni paydo qiladigan vaziyatlarni aniqlaydi va qo'rqitish darajasi bo'yicha tartibga soladi. U mijozdan mushaklari to'la bo'shashganda qo'rqitish darajasi eng past bo'lgan vaziyatni tasavvur qilishni so'raydi. Bu hol vaziyat tasavvur qilinganda mushaklar to'la bo'shashgan holga kelmaguncha davom etadi. So'ngra keyingi

o'rquvni paydo qiluvchi vaziyatga o'tiladi va xuddi shu hol krorlanadi.

Imploziv terapiya yoki "portlash terapiyasi". Bu texnikadan ydalanilganda mijozdan uning hayotidagi eng og'ir hodisalarni slash so'raladi. Bu hodisalar doirasi maxsus diagnostik so'rovnoma ordamida aniqlanadi. Mijozlar bu texnika qo'llanilganda kuchli avotirni va ekstremal qo'rquvni his etadilar. Ba'zi mijozlar uchun bu xnika samarali ta'sir ko'rsatadi.

Modellashtirish. Bu texnika boshqa odamning hislarini kuzatishni azarda tutadi. Mijozning do'sti yoki boshqa odam mijozni qo'rquvga pladigan vaziyatda qo'rqmasdan harakatlanish modelini namoyish ladi, qo'rqituvchi obyekt bilan o'zaro ta'sirlashuv usullari odellashtiriladi.

Hissiyotlarni o'zaro boshqarish texnikasi. Qo'rquv hissiyoti oshqa hissiyotlar ta'sirida kuchsizlanishi yoki chekinishi mumkin. Agar qo'rqitayotgan obyekt yoki vaziyat insonda g'azabni paydo qila lsa, inson kuchli qo'rquvni his qilmasligi mumkin. Qo'rquvni nazorat ilish uchun qo'rquvga qarshi turadigan hissiyotni his qilish va amoyon etish qobiliyatini mashq qilish lozim. Agar bu mashqlar issonni qo'rqitadigan vaziyatlarga o'xshash holatlarda amalga shirilsa samarali bo'ladi.

Xulosa qilish aytish mumkinki, qo'rquv insonlar tomonidan amdan – kam his qilinadigan hissiyot, ko'pchilik odamlar bu issiyotdan qo'rqadilar. Qo'rquv insonning shaxsiy xavfsizligiga lhdidni idrok qilishidir. Qo'rquv jismoniy va ruhiy bo'lishi mumkin. ir qator vaziyatlar mavjudki, ular insonda qo'rquvni paydo qiladi. ularga og'riq, yolg'izlik va ta'sirotning to'satdan o'zgarishini kiritish umkin. Insonning tajribasi ortgani sari u turli vaziyat, hodisalardan o'rqishga o'rganadi. Agar ota va ona muayyan qo'zg'atuvchidan o'rqadigan bo'lsa, farzandlari ham bu qo'zg'atuvchidan qo'rqishi timoli yuqori bo'ladi. Ota – ona bolaning xavfsizligini ta'minlashi, ni qo'rquvni yengishga o'rgatishlari kerak.

IRODA

Iroda to'g'risida tushuncha. Ma'lumki, insonning ehtiyojlari timoiy tuzum shakllari taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. SHu bois o'z tiyojlarini qondirish uchun inson harakat qiladi. SHaxs o'z

harakatlari yordami bilan muhitga moslashadi va undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadi. Lekin shu bilan birga odam muhitni o'z ehtiyojlariga muvofiqlashtirib o'zgartiradi, qayta quradi va o'ziga moslashtiradi.

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki asosan oqilona, ongli harakatlardir. Bu onglilik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi, shu maqsadga yetishish uchun yordam bera oladigan vositali yo'l va usullarni oldindan qidirib topadi, to'sqinlik va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g'ayratini ishlata oladi.

Odam faqat o'ziga xos madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda-gina emas, balki, tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli va oqilona ravishda ish tutadi.


Odam tevarak – atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy harakatlardir.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aks urish, ko'z qovog'ini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. CHunonchi, ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo'ladi. Bunday hollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita-bog'liq bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. SHunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy

ligida iroda – bu kishining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga hishida qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati va y-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishi akdir, deb ta’riflanadi. Q.Turg’unov muallifligidagi lug’atda ilanishicha, iroda – shaxsning ongli harakatlarida, o‘z-o‘zini shida ifodalanadigan, ayniqsa maqsadga erishish yo‘lida aydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda oyon bo‘ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, iroda anda biz oldindan belgilagan, qat’iy bir maqsad asosida amalga riladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to‘siqlarni yengish bilan ‘liq bo‘lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G’ozievning umiy psixologiya ” darsligida iroda-bu tashqi va ichki nchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni n tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman anda iroda shaxs faolligining ko‘rinishi hisoblanadi. SHu bois g yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan lanadi.

Иродавий ҳаракатлар



Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo‘ladi. Odam o‘z ga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan yvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni g‘ib bo‘lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. alan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday

bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida akti amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir. *

Odanning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. SHu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.

Odanning irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy xarakterlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni irodaviy harakat deb bo'lmaydi. SHu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini yengish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi, Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Irodaning nerv-fiziologik asoslari. Irodaviy ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv – fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli

harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan minimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: "Mening ta'vurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim-laridagi nerv faoliyatidan iborat".


Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida birinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ongning ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlari orqali (ya'ni o'ziga-oina) pand- nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Ongning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda birinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo'lsa kerak akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baholab, bu signallar tizimi insonlar hulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarining yuksak boshqaruvchisidir" – degan edi. SHuni ham ta'vur kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aksincha jarayoni ma'lum bir tizimli, ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining uning normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, o'ng davom etadigan qattiq kasallikdan so'ng nerv tizimi nihoyatda zaiflashib, odamning irodasi bo'shashib ketadi. Odam biror-kan qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo'shashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta'minlash maqsadida odam vaqti – vaqti bilan dam olib turishi kerak.

Irodaviy akt va uning tuzilishi. Ixtiyoriy harakatning dastlabki harakatlang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o'rtaga qo'yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha ta'vurlash mumkin.

Maqsad-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini ta'vur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan


borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.



Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagini va zarur ishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha ifodalanishi mumkin.

Xatti-harakatdan kutilgan maqsad turlicha ravshanlikda tasavvur etilishi mumkin. Maqsad qancha ravshan bo'lsa, unga yetishish yo'lidagi intilish ham shuncha muayyan bo'ladi.

darsligida iroda – bu kishining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishi demakdir, deb ta’riflanadi. Q.Turg’unov muallifligidagi lug’atda ta’riflanishicha, iroda – shaxsning ongli harakatlarida, o‘z-o‘zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo‘ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, iroda deganda biz oldindan belgilagan, qat’iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to‘siqlarni yengish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G’ozievning “Umumiy psixologiya ” darsligida iroda-bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko‘rinishi hisoblanadi. SHu bois uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.



Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo‘ladi. Odam o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo‘lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. Masalan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday

bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida akti amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir.

Odamning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. SHu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy xarakterlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni irodaviy harakat deb bo'lmaydi. SHu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini yengish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Irodaning nerv-fiziologik asoslari. Irodaviy ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv – fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlarni har doim to'la ongli

atlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan tal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: "Mening yurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida in darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) q'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim ridagi nerv faoliyatidan iborat".


Shundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida chi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlari orqali (ya'ni o'ziga-band- nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. ung uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda chi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan a kerak akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho, bu signallar tizimi insonlar hulq-atvori va ixtiyoriy atlarining yuksak boshqaruvchisidir" – degan edi. SHuni ham a kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar ga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z atida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks h jarayoni ma'lum bir tizimli, ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi llar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning atini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy atlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar i ham ishtirok etadi.

rodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining niy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, davom etadigan qattiq kasallikdan so'ng nerv tizimi nihoyatda rsizlanib, odamning irodasi bo'shshib ketadi. Odam biror n qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi ashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini nlash maqsadida odam vaqti – vaqti bilan dam olib turishi kerak.

rodaviy akt va uning tuzilishi. Ixtiyoriy harakatning dastlabki ang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu adning o'rtaga qo'yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha ash mumkin.

Maqsad-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish atini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika rsitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan

borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.



Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagini va zarur ishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha ifodalanishi mumkin.

Xatti-harakatdan kutilgan maqsad turlicha ravshanlikda tasavvur etilishi mumkin. Maqsad qancha ravshan bo'lsa, unga yetishish yo'lidagi intilish ham shuncha muayyan bo'ladi.

Maqsad ko'zlash kishining avvalo shaxsiy (biologik va madaniy ruhiy) ehtiyojlariga bog'liq. Ko'pincha kishining maqsad ko'zlashi va biron-bir narsaga intilishi tevarak-atrofdagi tabiiy vaziyatga, yoki xuddi shu paytda kishi yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'ladi. Masalan, kishi qiyin ahvolga tushib qolsa, shu ahvolidan bir amallab qutilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Kishi shu vaziyatni ma'lum darajada o'zgartirish, bir nimaga barham berish, bir nima qilish, bir nima ko'rish va shu kabi maqsadni o'z oldiga qo'ya oladi. Kishi jamoat tartibini birov buzayotganligiga bevosita guvoh bo'lishi va tartib buzuvchilarga qarshi kurash uchun shu onda qandaydir choralar ko'rishni maqsad qilib qo'yishi mumkin.

Kishida kelib chiqadigan ehtiyojlar darrov yaqqol tasavvur qilinadigan maqsad tarzida hosil bo'la qolmaydi. Ko'ngildan kechayotgan ehtiyoj va intilishlar turli darajada anglanishi va turlicha tasavvur qilinishi mumkin. Masalan, kelib chiqadigan ehtiyoj va intilishlar ba'zan istak tarzida ko'ngildan kechadi-kishi hozirgi ahvoldan noroziligini his qilib turadi-yu, lekin qanday maqsadga yetishilayotganini, binobarin, shu maqsadga erishishga doir yo'l-yo'riqlarni aniq bilmaydi. Istak shunday holatki, bunda odam o'ziga allanima kerakligini his qilib turadi-yu, bu narsani nima ekanligini aniqlab ololmaydi, ya'ni uni tasavvur qilolmaydi, fahmiga yetmaydi. Bunday odamning o'zi ba'zan "menga bir narsa kerak, bir narsa yetishmayapti, ammo bu narsaning nima ekanligini o'zim ham bilmayman" degan gapni ko'ngildan o'tkazadi. Boshqa kishilar to'g'risida ham: "nima istayotganini o'zi bilmaydi" deymiz.

Istak paytida kishi qanday maqsadga intilayotganini bu maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlarini anglab yetmas ekan, demak, istakni bevosita amalga oshirish ham mumkin emas.

Ehtiyoj ko'ngildan kechib, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglanila boshlaydi. Bunday anglanilgan ehtiyojlar tilak-havaslar deb ataladi. Ammo odam o'z intilishlarining maqsadini tasavvur qilganda ham shu maqsadga yetishish yo'llari va vositalarini hali tasavvur qila olmasligi mumkin. Bunday to'la anglanilmagan intilishlar (tilak, havas) ba'zan zo'r xayol surish bilan, ba'zan esa cheksiz orzu bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zan (xayolparast insonlarda) bunday tilak havaslar ko'ngildan kechirish orqali orzu (fantaziya) doirasida qolib ketaveradi. Xilma-xil tilak havaslari to'lib-toshgan kishilar ham mavjud. Bu kishilar doimo

xo'rsinadilar, armon qiladilar, o'zlarini ham tevarak-atrofdagi kishilarni ham tanqid qiladilar. Bu kishilar ko'pincha yaxshi orzular qilishadi-yu, amalda kam faoliyat ko'rsatishadi yoki butunlay faoliyat ko'rsatishmaydi.

Harakat yo'llari, usullari topilib odam ularni tasavvur qilayotgan ekan, demak ehtiyojni qondirishga intilish tamomila anglaniladi, odamning tilak-havasi esa bir narsa bo'lib qoladi. Bunday intilish holati ba'zan hoxish deb ataladi. Kishi biror ishni qilmoqchiman, falon ishni bajarmoqchiman, o'qishga kirmoqchiman va hokazo deb gapirar ekan buning ma'nosi shuki, mazkur kishi o'z intilishlarining maqsadini va shu maqsadga yetish vositalarini anglash, tasavvur qilish va bilish bilangina cheklanib qolmay, maqsadga yetish mumkinligini, ma'lum bir yo'ldan ish ko'rishga tayyorligini va qilinadigan harakatlarining oqibatini kam anglaydi.

SHunday kishilar borki, ularda muayyan tilak-havaslar tarzida tamomila anglanilgan intilishlar doimo katta o'rin tutadi. Bunday kishilar o'zlariga nimalar kerakligini, nimani hoxlayotganliklarini, nima ish qilmoqchiliklarini va uni qanday bajarish kerakligini hamisha biladilar. Bunday kishilar o'z oldilariga hamisha aniq maqsad qo'yadilar va shu maqsadga yarasha ish ko'radilar. Bunday kishilarni ma'lum maqsadni ko'zlaydigan kishilar deyiladi. Ma'lum maqsadni ko'zlash kishining ijobiy sifatidir. Bu sifatni taraqqiy ettirish, irodani tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning vazifalaridan biridir.

Har bir kishining anglab, bilib, ko'ngildan kechiradigan ehtiyojlari ko'p, uning vazifalari va intilishlari ham kam emas. SHuning uchun kishida xilma-xil maqsadlarda doimo zohir bo'lib turadi va bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish istagi tug'iladi. Har bir kishida amaliy va nazariy vazifalar vujudga kelib turadi va ana shu vazifalarni hal etish kerak bo'ladi. Barovar amalga oshirib bo'lmaydigan bir necha maqsad kelib chiqqanda, qanday bo'lmasin faqat bittasini tanlab olib boshqa maqsadlarni qo'yib turishga to'g'ri keladi. Qaysi maqsadni oldinroq, boshqasini esa keyinroq amalga oshirish masalasini hal qilishga to'g'ri keladi. Ba'zi maqsadlarni esa qo'yib turishga to'g'ri keladi.

Ba'zan shunday ham bo'ladiki, kishi oldida bir-biriga zid keladigan bir nechta maqsad ko'ndalang turadi va shu maqsadlardan birini tanlab olish shart bo'ladi. Masalan, yigit yoki qiz maktabni tugatib, oliy o'quv yurtiga kirib o'qisam, degan masalani hal

etayotganda turli maqsadlar va ularga yetish yo'llari degan maqsadlar o'rtasida ichki qarama-qarshilik, ichki "kurash" ro'y berishi mumkin.

Maqsad qo'yish bilan bir vaqtda yoki undan keyin shu maqsadga qaysi yo'l, usul va vositalar bilan yengish masalasi kelib chiqadi.

Kundalik turmushimizda yoki faoliyatimizda maqsad qo'yish bilan birga uni amalga oshirish usullari darrov anglanadi. SHuning uchun bu yerda maqsad qo'yish bilan to'ppa-to'g'ri harakat boshlanib ketishi mumkin. Masalan, kishi qo'lga qalam olishni hojlasa, uni bemalol olishi mumkin, uxlagisi kelsa yotadi va hokazo. Oddiy ixtiyoriy harakatlar shu bilan ta'riflanadi. Ammo yangi maqsadlarni qo'yishda o'sha maqsad usullarini qidirib topish, tasavvur qilish va o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Bu yerda maqsad bitta bo'lgani holda unga bir necha yo'l va usul bilan yetishish mumkin. Qanday bo'lmasin eng yaxshi yo'l va usulni tanlab olishga to'g'ri keladi. Ayrim ixtiyoriy harakatlarning murakkabligi shular jumlasidan kelib chiqadi.

Bir necha maqsad ko'ngilga kelib, shulardan biriga turli yo'l va usullar bilan erishish mumkin bo'lsa, kishi muayyan bir maqsadni tanlab olishi va shu maqsadga yetish uchun muayyan eng muvofiq yo'lni tanlab olishi kerak. SHunga ko'ra, ijtimoiy mehnat faoliyatda ham, kasb-korda ham, shaxsiy ishlarda ham, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatda ham kishi o'z intilishlarini va ixtiyoriy harakatlarini oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish murakkab aqliy faoliyat bo'lib, aniq, muayyan va ravshan maqsadni belgilash, shuningdek shu maqsadga yetish uchun eng to'g'ri usul va vositalarni qidirib topishdan iborat. Rejalashtirish jarayonida mumkin va zarur bo'lgan hamma harakatlar, mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va to'siqlar hisobga olinadi, ish-harakat natijalariga dastlabki baho beriladi. Odam asosiy rejaga ega bo'lgan bir qarorga kelishi, maqsadiga yetishishi mumkin.

Harakat motivlari va motivlar kurashi. Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo'l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsadga nima uchun boshqa yo'llar bilan emas, balki mana shu yo'llar bilan hal etishi kerak degan savolni ko'ngildan o'tkazadi. Maqsadni va unga yetish yo'lini tanlash jarayonida unga ma'qul yoki noma'qulligi nuqtai nazaridan baho beriladi.

Maqsadni va unga yetishish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishni, yoki ish ko'rmoqchi bo'layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi. Irodaviy ixtiyoriy harakatlar g'ayri ixtiyoriy (irodadan tashqari) harakatlardan farq qilib, motiv tufayli sodir bo'ladi.

Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xildir, kishining intilishi va hohishlari qaysi ehtiyojlardan kelib chiqsa, avvalo shu ehtiyojlar ixtiyoriy motivlarga kiradi. Ma'lum maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash ko'pincha biror ehtiyojning mazmuniga va ahamiyatiga bog'liq. Kuchliroq ehtiyoj boshqa motivlar orasida kuchliroq motiv bo'lishi mumkin.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo'l bo'lgan taqdirda ularning ma'qul yoki noma'qul ekanligi chamalab ko'riladi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermovchi har qanday narsa harakatning motivi deb ataladi. "Motiv – deb yozadi I.P.Ivanov – kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki aynan shu maqsadni qo'yishi kerak, nima sababdan u o'z maqsadiga erishmoq uchun boshqa bir yo'llar bilan emas, balki xuddi shu yo'l bilan harakat qilishi kerak degan savolga javobdir".

Maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash jarayonida odatda tafakkur va hissiyot ishtirok etadi.

Tafakkur faoliyati (fikir qilish) bu yerda asosan har bir motivga "qarshi" yoki "tarafdor"likni muhokama qilib asoslashdan iborat bo'ladi. Kishi motivlarni muhokama qilishda va asoslab berganda odatda ayni hodisa yuzasidan yoki o'zining xatti-harakatlarida doimo asoslanadigan ma'lum bir faktlardan tamoyil va qoidalardan foydalanadi. Motivni shu tariqa muhokama qilish va asoslab berish motivatsiyalash deb ataladi.

Maqsadni va unga erishish yo'lini tanlash jarayonida hissiyot turtki rolini o'ynaydi. Hissiyot ayrim tasavvur va motivlarni yorqin, jonli va jozibali qilib ko'rsatadi. Hissiyot kishining intilishlarini faollashtiradi va susaytiradi, hissiyot biron maqsadni, biron harakat yo'lini tanlab olishga turtki beradi.

Maqsadlarga, erishish yo'llarini va vositalarini tanlash sharoiti ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi, bu kurashda turli kuch va

jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. SHuning uchun ham bu jarayon motivlar kurashi deb yuritiladi.

Motivlardan biri ko'proq asosli, ikkinchisi kamroq asosli ekanligi ularning kurash jarayonida oydinlashib qoladi, ba'zi motivlar kuchliroq hissiyot bilan maydonga chiqsa, ba'zi motivlar sust hissiyot bilan maydonga chiqadi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyot o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Odam ba'zan "ikkiga bo'linib" qoladi: "Aql uni desa, hissiyot (ko'ngil) buni deydi".

Motivlar kurashi ba'zan har xil hislar o'rtasidagi, masalan, burch hissi bilan unga zid bo'lgan qandaydir boshqa shaxsiy his o'rtasidagi kurash tarzida boradi.

Bu motivlar ko'pincha bir-biriga qarshi ta'sir ko'rsatadi, qarorga kelish va uni ijro etishni paysalga solib, iroda jarayonini susaytiradi. Motivlarning bunday kurashida kishida ichki konflikt holati vujudga keladi.

Ana shunday ichki ziddiyat holati bu ziddiyatdan qutilishga intilishi bilan ko'pincha shu zid holatidan qutilish yo'lini yengillashtiruvchi yo'llarni axtarish bilan bog'langan bo'ladi.

Ichki nizo holati g'oyat ko'ngilsiz noxush holat sifatida kechishini har kim o'z tajribasidan biladi. Kishi dunyo va hayotni ravshan tasavvur qilgandagina ish va harakatlariga, ahloq qoidalariga amal qilgandagina uning shaxsiy motivlari jamiyat manfaatlariga qo'shilib ketgandagina ichki nizo holatiga yo'l qo'ymasligi yoki undan qutilishi mumkin.

Qarorga kelish. Maqsadga yetishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak – teatrgami yoki o'rtog'ining yonigami-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi.

Kishi ba'zan tez qarorga keladi, bu qarorning bajarilishi mumkinligiga ishonadi. Buni qat'iyat deb ataymiz. Ba'zi motivlar kurashi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu qat'iyat

sezgirlikdir. Masalan, o'rta maktabni bitirayotgan va bitirgan ba'zi yigit-qizlar qaysi o'quv yurtiga yoki korxonaga kirish masalasini tez hal qiladilar, boshqalari esa juda uzoq vaqt ikkilanib, xayolga tolib yuradilar. Qat'iyat odamda jiddiylik vaziyatining yengillashtirishi mamnunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iyatsizlik ikkilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyotga tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi va bilimlariga, temperamenti va xarakteriga, boshqa kishilarning nasihat, buyruq, iltimos takliflariga quloq solishiga bog'liq bo'ladi. Biror qarorga kelish sur'ati asosan qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Murakkab tarzdagi motivlar kurashi va qarorga kelish faqat shunday hollarda bo'ladi, bunda odamning hayoti va faoliyati uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangicha usullar va vosita talab qiladi.

Qat'iyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdagina emas, shuningdek bu qarorni tez va dadil bajarishda ham zohir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni aniq belgilangan muddatda bajarish – qat'iyatni namoyon qilish demakdir.

Qaror qabul qilinsa-yu, keyin o'zgartirilsa, yoki boshqa qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday qarorni yuzaki yoki bo'sh qaror deb ataladi. Qat'iyat va mustahkam qarorga kelish-irodaning yuksak sifatidir.

Qabul qilingan qarorning o'zgarishi ko'pincha yana bu qaror to'g'risida yetarli darjada o'ylamaslikdan, emotsional holatning o'zgarishidan yoki kishi harakat qilayotgan sharoit o'zgarishidan kelib chiqadi. Qarorning o'zgarishi ko'pincha motivlar kurashining qaytadan boshlanib ketishiga va oxirgi marta qat'iy qaror qabul qilishga olib keladi.

Qarorni ijro etish. Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir.

Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin, sport

jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. SHuning uchun ham bu jarayon motivlar kurashi deb yuritiladi.

Motivlardan biri ko'proq asosli, ikkinchisi kamroq asosli ekanligi ularning kurash jarayonida oydinlashib qoladi, ba'zi motivlar kuchliroq hissiyot bilan maydonga chiqsa, ba'zi motivlar sust hissiyot bilan maydonga chiqadi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyot o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Odam ba'zan "ikkiga bo'linib" qoladi: "Aql uni desa, hissiyot (ko'ngil) buni deydi".

Motivlar kurashi ba'zan har xil hislar o'rtasidagi, masalan, burch hissi bilan unga zid bo'lgan qandaydir boshqa shaxsiy his o'rtasidagi kurash tarzida boradi.

Bu motivlar ko'pincha bir-biriga qarshi ta'sir ko'rsatadi, qarorga kelish va uni ijro etishni paysalga solib, iroda jarayonini susaytiradi. Motivlarning bunday kurashida kishida ichki konflikt holati vujudga keladi.

Ana shunday ichki ziddiyat holati bu ziddiyatdan qutilishga intilishi bilan ko'pincha shu zid holatidan qutilish yo'lini yengillashtiruvchi yo'llarni axtarish bilan bog'langan bo'ladi.

Ichki nizo holati g'oyat ko'ngilsiz noxush holat sifatida kechishini har kim o'z tajribasidan biladi. Kishi dunyo va hayotni ravshan tasavvur qilgandagina ish va harakatlariga, ahloq qoidalariga amal qilgandagina uning shaxsiy motivlari jamiyat manfaatlariga qo'shilib ketgandagina ichki nizo holatiga yo'l qo'ymasligi yoki undan qutilishi mumkin.

Qarorga kelish. Maqsadga yetishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak – teatrgami yoki o'rtog'ining yonigami-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi.

Kishi ba'zan tez qarorga keladi, bu qarorning bajarilishi mumkinligiga ishonadi. Buni qat'iyat deb ataymiz. Ba'zi motivlar kurashi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu qat'iyat

sezgirlikdir. Masalan, o'рта maktabni bitirayotgan va bitirgan ba'zi yigit-qizlar qaysi o'quv yurtiga yoki korxonaga kirish masalasini tez hal qiladilar, boshqalari esa juda uzoq vaqt ikkilanib, xayolga tolib yuradilar. Qat'iyat odamda jiddiylik vaziyatining yengillashtirishi mamnunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iyatsizlik ikkilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyotga tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi va bilimlariga, temperamenti va xarakteriga, boshqa kishilarning nasihat, buyruq, iltimos takliflariga quloq solishiga bog'liq bo'ladi. Biror qarorga kelish sur'ati asosan qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Murakkab tarzdagi motivlar kurashi va qarorga kelish faqat shunday hollarda bo'ladiki, bunda odamning hayoti va faoliyati uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangicha usullar va vosita talab qiladi.

Qat'iyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdagina emas, shuningdek bu qarorni tez va dadil bajarishda ham zohir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni aniq belgilangan muddatda bajarish – qat'iyatni namoyon qilish demakdir.

Qaror qabul qilinsa-yu, keyin o'zgartirilsa, yoki boshqa qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday qarorni yuzaki yoki bo'sh qaror deb ataladi. Qat'iyat va mustahkam qarorga kelish-irodaning yuksak sifatidir.

Qabul qilingan qarorning o'zgarishi ko'pincha yana bu qaror to'g'risida yetarli darjada o'ylamaslikdan, emotsional holatning o'zgarishidan yoki kishi harakat qilayotgan sharoit o'zgarishidan kelib chiqadi. Qarorning o'zgarishi ko'pincha motivlar kurashining qaytadan boshlanib ketishiga va oxirgi marta qat'iy qaror qabul qilishga olib keladi.

Qarorni ijro etish. Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir.

Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin, sport

mashg'ulotlari va boshqalar. kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shu kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.

Qarorni ijro etish odatda ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qaror kechikmasdan belgilangan vaqtda ijro etilsa bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik, puxtalikni bildiradi.

Ammo qabul qilingan qaror hamisha bajarilavermaydi. Ayrim hollarda esa o'z vaqtida ijro etilmay qoladi. Kishining ba'zi bir holatlarida a'zoyi-badani bo'shashib turganda, xafalik chog'ida o'z kuchlari va imkoniyatlaridan hafsalasi pir bo'lib turganda qaror ha deganda bajarilavermaydi. Qarorni bajarishda ro'y beruvchi to'sqinliklar oldindan nazarda tutilmaganda yoki maqsadning o'zi vaziyat o'zgarishi bilan kerak bo'lmay qolganda shunday bo'ladi.

SHunday hollar ham bo'ladiki odam ko'pgina qaror qabul qiladi, ammo qarorning ijrosi cho'zilib ketadi, paysalga solinadi, boshqa muddatlarga ko'chiriladi. Ijrosi paysalga solinadigan yoki butunlay ijro etilmaydigan qarorlar ko'pincha niyatlar deb ataladi. Ancha vaqtdan keyin, lekin muayyan muddat o'tgach ijro etiladigan qarorlar ham niyatlar deb ataladi. Masalan, o'quvchi yoki talaba o'quv yilining boshida barcha imtihonlarni faqat "a'lo" baholar bilan topshirishga qaror qilishi mumkin.

Irodaviy zo'r berish. Qabul qilingan qaror to'g'ridan-to'g'ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun ongli ravishda irodaviy zo'r berish ham kerak.

Irodaviy zo'r berish ongning avvalo nerv-muskul apparatining zo'riqishida ifodalanadi va organizmning tashqi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Irodaviy zo'r berishning ana shu ifodali tomoni odamning iroda holatini tasvirlovchi badiiy asarlarda gavalantirilganini ko'p uchratish mumkin.

Ba'zi odam irodaviy zo'r berolmagani sababligina qabul qilgan qarorni muddatida ijro etolmaydi. Bunday hollarda "bajarsammikan yoki yo'qmi" degan yangi kurash ham boradi. Zo'r berish uchun yana kuch sarflashga to'g'ri keladi. Kuch sarflay olmaslik yoki bu masalada ikkilanish irodaning shu paytdagi bo'shligini ko'rsatadi. Qabul

qilingan qarorni zo'r berish yo'li bilan ijro etish irodaning muhim belgisi hisoblanadi.

Irodaning o'ziga xosligi ongli ravishda zo'r berishning biron darajasida bajariladigan harakatlardan iborat. *

Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi. Kishining irodasi juda katta to'siqlarni yengishga to'g'ri kelganda, ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yo'li bilan yengishga to'g'ri keladigan to'sqinliklar ikki xil: ichki va tashqi to'sqinliklarga bo'linishi mumkin.

Irodaviy zo'r berish yo'li bilan yengishga to'g'ri keladigan ichki to'siqlar odam organizmi va psixikasining holatidir. Odam tinch harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo'lishi mumkin, masalan, dam olish, uxlash, charchash, kasallik paytida shunday holat bo'ladi. Biron ish bilan shug'ullanmay harakatsiz o'tirishga, ya'ni yalqovlikka undovchi mayl ham shunday holatdan hisoblanadi.

Irodaviy zo'r berish yo'li bilan avvalo organizmning passiv holatini o'zgartirish uni faol holatga keltirish zarur bo'ladi. Masalan, o'rnida yotgan kishi (motivlar kurashi) turlicha qaror qiladi va o'zini majbur qilib o'rnidan turadi. Yalqovlikni yengish uchun ba'zan juda ko'p zo'r berishga to'g'ri keladi.

Irodaviy zo'r berish yo'li bilan kishining aqliy faoliyatini ham faol holatga keltiriladi. Masalan, ma'ruza boshlanishi bilan talaba darhol irodaviy kuchni ishga solib, diqqatni bir joyga to'playdi, irodaning barqarorligini saqlab qoladi, tafakkur va esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.

"Harakat qilish o'ziga qanday o'rgatilgan bo'lsa – deydi I.M.Sechenov* – harakatni to'xtatib qolishni boshqarishga ham shunday o'rganmoq kerak".

Kishi irodaviy zo'r berish yo'li bilan ixtiyorsiz faollikni batamom yo'qotib yubormaydi, balki shu faollik ko'rinishlarini faqat o'zgartiradi, yoki bosib qo'yadi. Ixtiyorsiz faollik ko'rinishlarini bosilishi vazminlik deb ataladi.

Iroda-avvalo kishining o'zini qo'lga ola bilishi, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini bosa bilishi demakdir. Iroda kishining o'z-o'zini idora qila olishi, o'z xulqi va faoliyatini anglab, bilib tartibga solish va boshqara olish qobiliyati demakdir.

Kishining ichki to'siqlarni yenga olish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila olish qobiliyati odatda ichki iroda deb yuritiladi. Kishi irodaviy zo'r berish yo'li bilan tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydigan tashqi to'siqlarni yengishi zarur bo'ladi. Kishi o'z oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga qarshilik qilayotgan to'sqinliklarni yengib o'tadi, voqelikni o'z maqsadiga muvofiq ravishda o'zgartiradi va uni o'z ehtiyojlariga moslashtiradi. Insonning to'siqlarni, tashqi qiyinchiliklarini yenga olish qobiliyati tashqi iroda deb ataladi.

Ammo irodani faqat shartli ravishda ichki va tashqi deb ikkiga bo'lish mumkin. Inson irodasi bitta, lekin u tashqi olamdagi o'zgartirish va boshqarishga qaratilishi bilan birga shaxsiy, subyektiv holatlarni va jarayonlarni boshqarishga qaratilishi ham mumkin. Modomiki, shunday ekan, tashqi to'sqinliklarni yengish ichki to'sqinliklarni yengish bilan chambarchas bog'liqdir.

Inson tashqi olamga ta'sir etar ekan, tashqi olam hodisalarini boshqarish bilan bir vaqtda o'zini, o'z organizmini, qo'l-oyoq muskullarini ham boshqaradi, ularning tarangligini kuchaytiradi yoki susaytiradi, ularning harakatlarini uyg'unlashtiradi, butun organizmning moslashish vaziyatini vujudga keltiradi va zarur paytda bu vaziyatni o'zgartiradi va hokazo. SHu bilan birga ixtiyoriy harakatlar, asosan mehnat faoliyatida odamning ixtiyoriy faollik ko'rinishlarini to'xtatib va bosib turishga to'g'ri keladi. SHuning uchun odamning irodaviy zo'r berishi va ixtiyoriy harakatlari tashqi to'sqinliklarni yengishga qaratilishi bilan bir vaqtda organizmning ichki ahvolini ham o'zgartiradi. Inson tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartirar ekan, o'zini-o'z vujudini ham o'zgartiradi.

Irodaviy harakatlar bajarilgandan keyin ularga baho beriladi. Qaror ijro etilgandan keyin, ba'zan esa qarorni bajarish jarayonida ham ko'pincha harakatlarga baho berish, qarorni qanday ijro etilganligiga baho berish kerak bo'ladi. Qarorni ijro etish yuzasidan qilingan baho berish qabul qilingan qarorni hamda qilinadigan ishni ma'qullash, oqlash yoki qoralashdan iborat bo'ladi. Bu baho qabul qilingan qaror yoki bajarilgan harakatlardan mamnun bo'lish yoki mamnun bo'lmaslik tufayli kelib chiqqan maxsus hissiy kechinmalarda ifodalanadi. Salbiy baho ko'pincha qilingan ishlarga pushaymon bo'lish, achinish, uyalish va afsuslanish kabi hislar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Qilinayotgan yoki qilinadigan ishlarga

beriladigan baho qabul qilingan qarorni yoki bajarilgan harakatlarni ma'qullovchi, oqlovchi yoki qoralovchi maxsus hukmlarda ifodalanadi.

Qilinyotgan yoki qilinadigan ishlarga ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa nuqtai nazardan baho beriladi. Mana shunday baho berishdan kelib chiqadigan his va hukmlarda kishining dunyoqarashi, axloqiy sifatlari va tamoyillari, shu bilan birga xarakteri va qiziqish – havaslari ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarda kishining o'zi baho beribgina qolmaydi, balki kishi qaysi jamiyatda yashasa va ishlasa o'sha jamiyat ham baho beradi.

Odam qilgan yoki qilayotgan ish harakatlariga tevarak-atrofdagi kishilar ijobiy baho bergandan keyin ichki ma'naviy qanoat his qiladi hursand bo'ladi va kuchiga kuch qo'shilgandek bo'ladi. Ayrim ish-harakatlariga salbiy baho berilganda esa kishi o'ziga xos uyalihs hissin ko'nglidan kechiradi va vijdon azobiga uchraydi.

Qilingan ish-harakatga berilgan baho kishining faoliyatida katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu baho kishining keyingi faoliyati uchun rag'bat va motiv bo'lib qoladi. Salbiy baho odatda ayni faoliyatni to'xtatish yoki o'zgartirishga motiv bo'ladi. Ijobiy baho faoliyatni davom ettirish, kuchaytirish va yanada yaxshilashga, jumladan mehnat unumdorligini oshirishga rag'batlantiradi.

Shaxsning irodaviy sifatlari. Kishining irodaviy sifatlari ya'ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Irodaviy sifatlarning klassifikatsiyasi sxema tarzida quyidagicha ifodalanadi.



Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. SHaxsning bu o'ziga xos

xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'lavermaydi.

Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko'rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq kerak.

Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi dernasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Buning ma'nosi shuki dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz.

Iroda kuchi va xarakter qat'iyati. Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi: ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz hoxishlarni farq qilamiz.

Iroda kuchi ravshan va aniq maqsad qo'yishda, shuningdek mazkur maqsadga yetishishga yordam beradigan yo'l, vosita va usullarni ochiq tasavvur qilishda namoyon bo'ladi. Bu ochiq ravshanlik darajasi esa kishining turmush tajribasiga, bilimiga va umumiy saviyasiga bog'liq. Aniq maqsad qo'yishda inson tafakkuri va ayniqsa real xayollar (fantaziya) ning taraqqiy etishi xususiyatlari katta rol o'ynaydi.

Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorni mustahkamligida, sabotlikda ko'rinadi. Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan oqilona qat'iyatlik va sabotlik kuchli iroda belgilaridandir. Qat'iyatsizlik ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarilishiga shubha bilan qarash va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir.

Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa ravshan ko'rinadi. Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga ahd qiladi. Hatto salomatligini va hayotini xavf ostida qoldirishi mumkinligi hayotiga ham kelmaydi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o'ziga bergan amridir. Kishi ahloqiy burchining talabiga ko'ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zumda hayot bilan o'limdan birini tanlab olsa, bunday jasorat iroda kuchi ekanligini ko'rsatadi.

Jasorat shunday qarorki, u go'yo ish-harakatga aylanadi. Bu ish-harakat esa kuchli zo'r berishni talab qiladi. Xarakter xislati bo'lgan dadillikda odamning qanchalik puxta o'ylab ish ko'rishiga qarab, bu dadillik maxsus tusga kiradi.

Puxta o'ylab ish ko'rishni o'zi yuksak g'oyaviylikka va kishining axloqiy tamoyillariga asoslangan taqdirda ijobiy xislat hisoblanadi. O'ylab, shoshmasdan bir qarorga keladigan kishilarni mulohazakor kishilar deb ataymiz.

Odatda o'zgaruvchan ayrim hislar kayfiyatlar ta'sirida tez bir qarorga keladigan xarakterli, dadil kishilar ham mavjud. Bular hissiyotga beriladigan tasodifiy kayfiyatli kishilardir. Bunday kishilar odatda sabotsizligi, shoshma-shosharligi va kalta o'ylashi bilan ajralib turadilar.

Kishi uncha ikkilanmasdan o'ylab, e'tibor bilan to'g'ri bir qarorga kelsa va shu qarorni dadil amalga oshira bilsa, dadillik xarakterning ijobiy xislati bo'ladi.

Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to'g'ri keladigan ish – harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog'langan bir murakkab vaziyatda dadillik ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Qat'iyatsizlik xarakterning salbiy xislatidir, qat'iyatsizlikda kishi sustlik bilan bir qarorga keladi, qabul qilgan qarorini ko'pincha o'z vaqtida bajarmaydi. Bunday odam qabul qilgan qarori to'g'riligiga shubhalanadi, turli imkoniyatlardan birini tanlab olishda ikkilanadi, ayniqsa qiladigan ish-harakatlari xavf-xatar bilan bog'langan bo'lsa, shunday ahvolga tushadi. SHu sababli qat'iyatsiz kishilar ko'pincha kam faolliklari bilan ajralib turadilar yoki umuman passiv bo'lib, yalqov, tanbal degan taassurot tug'diradilar.

Sabotlilik dadillikka chambarchas bog'liq bo'lib, xarakterning ijobiy xislati hisoblanadi. Xarakterning bu xislatiga ega bo'lgan kishilar qabul qilgan qarorlarini odatda o'zgartirmaydilar, bekor

qilmaydilar va bu qarorlarini bajarmasdan qo'ymaydilar. Bu kishilar va'dalarining ustidan chiqadilar, aytgan so'zlarini albatta qiladilar, ularning gapi bilan ishi bir bo'ladi. Ularga ishonsa bo'ladigan subutli insonlardir.

Qabul qilingan qarorlarini ko'pincha bekor qiladigan, bergan va'dalarini ustidan chiqmaydigan, aytgan so'zidan tonadigan kishilar subutsiz hisoblanadi.

Kishi irodasining kuchi va qat'iyati xarakterning irodaga bog'liq bo'lgan qaysi xislatlarida ifodalangan bo'lsa o'sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo'ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni irodasi kuchli, xakteri kuchli deb bo'lmaydi. Balki shu sifatleri bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlargina irodasi kuchli, xakteri qat'iy deb ataladi. Iroda kuchi va qat'iyati odamning o'zini tuta bilishida, jasurligida, matonatida va chidamliligida namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. SHuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish, galdan-galga qoldiraverish, boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilmaslik irodaning kuchsizligi alomatidir.

Lekin qabul qilingan qarorni bajarish har qanday qilingan ish-harakatning, irodaning kuchli ekanligidan darak beravermaydi. Iroda kuchi asosan irodaviy harakatlar yordami bilan qanday to'siqlar yengilganiga va shu yo'l bilan qanday natijalarga erishilganligiga qarab aniqlanadi. Irodaviy zo'r berish vositasida bartaraf qilinadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xakteri iroda kuchining obyektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Kishi katta to'sqinliklarni, qiyinchiliklarni, qarshiliklarni irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yordami bilan bartaraf qilib, zo'r muvafaqqiyatlarga erishsa, bu kishi irodasi kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Kosmonovtlar mislsiz iroda kuchini butun jahonga namoyish qilishadi. Bu qahramonlar kosmik parvozlarga tayyorlanish davrida ham, parvoz paytida ham o'z irodalarining yuksak sifatlarini namoyish etadilar. Bu qahramonlar kuchli iroda va uning xilma-xil ko'rinishlari o'z xakterining asosiy xislati bo'lgan kishilarning yorqin misolidir.

Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arzimasi to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmasligida ko'rinadi. Masalan, ba'zan kishi biron kerakli xatni yozishga yoki biror zarur ishini boshlashga o'zini majbur eta olmaydi. Irodaning kuchsizligi odatda irodasizlik deb ataladi. Qarorni bajarish jarayonidagi ixtiyoriy ish-harakatlardagi iroda kuchi o'zini tuta bilishda, jasurlik, sabot va matonat, chidam va toqatda namoyon bo'ladi.

O'zini tuta bilish nomidan ham bilinib turibdiki, kishining o'zini idora qila bilishi va o'zini qo'lga ola bilishi demakdir. O'zini tuta bilish kishining oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishuvda to'sqinlik qiluvchi, irodasini bo'shashtiruvchi ichki holatlarni yengishda ko'rinadigan kuchli irodadir. Bunday holatlarga masalan, qo'rqish, o'z kuchlariga ishonmaslik, zerikish, qayg'urish hissi kiradi. Bunday holatlar kishini faoliyat ko'rsatmaslikka rag'batlantiradi yoki qo'yilgan maqsadlarga qarama-qarshi bo'lgan g'ayri ixtiyoriy harakatlarda o'z ifodasini topadi. Bunday holatlar har kimda bo'ladi. Ammo odamning shaxs sifatidagi xususiyati shundan iboratki, u o'zidan ana shu salbiy va keraksiz holatlarni iroda kuchi bilan o'zgartira oldi yoki bartaraf qila oladi. Bu borada K.D.Ushinskiy quyidagi so'zlarni keltirib o'tadi: "Qo'rquvni his qilmasdan xavf-xatarga o'zini uradigan kishi mard emas, balki eng kuchli qo'rquvni ham bosa oladigan va qo'rquv ta'siriga berilmagan, xavf-xatarni o'ylamaydigan kishi marddir".

O'zini tuta bilish kishi xarakterining xislati bo'lib, asosan ichki irodaning namoyon bo'lishidan iborat. Bu xislat kishining o'z xulq-atvorini nazorat qila bilishda o'zini, o'z harakatlarini, nutqini qo'lga ola bilishida, shu sharoitda keraksiz yoki zararli deb qaraladigan harakatlarda o'zini tiya bilishida ifodalanadi. Xarakter shu xislatiga ega bo'lgan kishilar o'zlarini qo'lga ola biladilar. Ular o'zlarini tuta biladilar, ular uyushqoq kishilardir.

O'zini tuta bilmaslik irodaning kuchsizligini yaqqol ko'rsatuvchi belgidir. Odam o'zini qo'lga ola bilmaganda o'z mayllarini, ixtiyorsiz harakatlarini nazorat qila olmaganda g'ayri ixtiyoriy faollik ko'rinishlari reflekslar, instinktlar, tasodifan ko'ngildan kechadigan hislar, qo'rquv, hadik-shubha, gumon, g'azab, rashk, ichiqoralik, affektiv holatlar va shu kabilar kishi irodasini bo'g'ib qo'yadi. Bunday hollarda odam o'zini tiya olmay qoladi. O'zini tiya olmaslikning eng

yomon ko'rinishi buzuqlikdir. Buzuqlik butunlay instinktlar va salbiy emotsiyalar ta'sirida bo'lish demakdir.

Jasurlik kishining omonligi va hayoti uchun havfli bo'lgan to'sqinliklarni bartaraf qilishda ko'rinadigan iroda kuchidir. Masalan, parashyutchi har gal o'zini samolyotdan tashlaganda jasurlik qiladi. Jasurlik o'zini tuta bilishga chambarchas bog'liq. Jasurlik bor joyda o'zini tuta bilishlik mavjud. Kishi o'zini tuta bilsa jasurlik qila oladi. Biron maqsadga yetishish yo'lida mutassil jasurlik ko'rsatish, dovyuraklik jasorat deyiladi.

O'zining hayoti uchun xatarli to'sqinliklarni yengishga doimo tayyor turgan va shunday to'sqinliklarni yenga oladigan kishilarni jasur kishilar deb ataymiz. Bular xavf-xatardan cho'chimaydigan, xarakteri kuchli, dovyurak, botir kishilardir.

Jasurlikning yo'qligi irodaning kuchsizligini ko'rsatadi. Buni qo'rqqoqlik, nomardlik deb ataymiz. Irodasi kuchsiz bo'lgan bunday kishilar odatda qo'rqqoq, yuraksiz kishilar deb ataladi. Sabot, matonat ma'lum maqsadga yetishda ko'pincha uzoq vaqt davomida irodamizga ta'sir etib turuvchi katta to'sqinlik va qiyinchiliklarni bartaraf qilishga to'g'ri keladi. Irodaning bunday ko'rinishi shaxsning eng muhim sifati bo'lib, iroda kuchining yaqqolligini ko'rsatadi.

Sabot, matonat – qandaydir bir aniq maqsadni ko'zlab, muntazam ravishda irodaviy zo'r berish demakdir. Ammo kishilarning hayoti va faoliyatida ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, kishi o'z oldiga qo'ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yetib bo'lmaydigan yoki kishiga shunday bo'lib tuyuladigan to'sqinliklarga uchrab qoladi. Bunday hollarda kishi ba'zan qabul qilgan qarorni o'zgartiradi, bekor qiladi, u qiyinchiliklardan qo'rqishi va o'z oldiga qo'ygan maqsadidan voz kechishi mumkin. Ba'zan shunday bo'ladiki, talaba to'satdan o'qishni tashlaydi. Ilgari tanlagan ehtiyojidan voz kechadi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay, o'lda-jo'lda qoldirib ketadi.

Kishi o'z harakat, maqsadini yaxshi o'ylamaganda maqsadga yetishsa, yordam bera oladigan vosita va usullarni puxta o'ylamaganda, o'zining kuch – imkoniyatlarini yetarli yoki to'g'ri hisobga olmaganda odamda belgilangan maqsaddan shu tariqa qaytadi, irodasida chekinadi. Dastlabki muvaffaqiyatsizlikka haddan tashqari katta ahamiyat berilganda, bu muvaffaqiyatsizlikka noto'g'ri, yoki yengil baho berilganda, unga faqat salbiy tomondan qaraganda shunday bo'ladi. Kishi muvaffaqiyatsizlikka uchrash bilan bir vaqtda

o'z kuchlariga, o'z imkoniyatlariga, o'z qobiliyatlariga ishonmaganda odam "ruhi tushib", o'zini passivlikka qo'l qovushtirib o'tirishga mahkum etadi. Albatta umuman irodasi kuchsiz kishilarda shunday bo'ladi. Bunday kishilar irodasining o'smaganligi, yetarlicha tarbiyalanmaganligi bilan farq qiladi.

Ammo irodali mavjudot bo'lgan odam hayot va faoliyatida jamiyat yoki o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan maqsadidan qaytmasligi ham mumkin. U iroda kuchiga zo'r berib, to'sqinliklarga qarshi kurashni kuchaytirishi, qabul qilingan qaroriga yarasha uzoq vaqt ish ko'rishi mumkin. Barcha to'sqinlik va qiyinchiliklarga qaramay u zarur natijani qo'lga kiritmoq uchun damba-dam, orada vaqt o'tkazib zo'r berishi, g'ayratini ko'rsatib ishlashi mumkin.

Kutilgan maqsadga yetishda katta qiyinchiliklar va yengib bo'lmaydigan to'siqlar bo'lsa, kishi shu maqsadga yetishi uchun zarur yo'l, vosita va usullarni o'zgartirib, yangi usullarni qidirib topishi mumkin. Katta to'sqinliklarni bartaraf qilib, uzoq qunt qilib, maqsadga yetishda ko'rinadigan bunday iroda kuchi sabot-matonat deb ataladi. SHunday iroda sifatiga ega bo'lgan kishi esa sabot-matonatli, kuchli irodali, qat'iy xarakterli kishi deb ataladi.

Har qanday faoliyatning, jumladan o'qib, o'rganishning muvaffaqiyati sabot-matonatga bog'liq. Bilimli bo'lmoq uchun sabot-matonat kerak. Har bir sohada-texnika, san'at, muzika, sport va shu kabi sohalarida bilim va malaka ortirmoq uchun sabot-matonat kerak.

Sabot-matonat xarakterning eng qimmatli xislatidir. Bu xislat kishining maqsadga yetish yo'lida qanday qiyinchilik va to'sqinliklar bo'lishidan qat'iy nazar shu maqsadga erishishida o'z ifodasini topadi.

Xarakter xislati bo'lgan sabot-matonat ba'zi kishilar faoliyatining hamma sohalarida, namoyon bo'ladi boshqa kishilarda esa bu xislat ularning manfaatlari bilan bog'langan, va ayrim faoliyat sohalarida ko'rinadi.

Sabot-matonatli kishilar boshlagan ishlarini hamisha oxiriga yetkaza biladilar. Ular o'zlariga nisbatan ham boshqa kishilarga nisbatan ham talabchan bo'ladilar.

Sabot-matonatli kishilar muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ruhini tushirmaydi, balki aksincha, maqsadga erishish uchun ishga yanada qat'iyroq kirishadi, shu maqsadga erishishning yangi yo'l va vositalarini izlab topadi.

Sabot-matonatli kishilar o'ziga va boshqa kishilarga nisbatan talabchanligi bilan ajralib turadilar. Ular belgilangan yo'ldan yurishlariga to'sqinlik qila oladigan hamma narsaga qarshi tura oladigan, bu to'sqinliklarni yenga oladigan matonatli kishilardir.

Sabot-matonat irodaning chidam va toqat degan sifati bilan ham chambarchas bog'liq. Maqsadga yetishda bartaraf qilinadigan to'sqinlik va qiyinchiliklar kishidan kuch va vaqt sarf qilishni talab etibgina qolmay, balki ko'pincha jismoniy va ruhiy azob beradi ham.

Kishining o'z faoliyatida ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq toliqish, och qolishdan, hamma turli kasalliklardan azob chekadigan kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib shu maqsadga yetishga intilaversa, bunday intilishlarda ko'rinadigan iroda chidam va toqat deb ataladi. Odamning organizmidagi yemirilish jarayonlarini yengishda ifodalanadigan ajoyib iroda o'zini tuta bilish va matonatni ko'rsatadigan misollar talaygina bo'lib, u quyidagi misollardan birida keltirib o'tiladi.

Sobiq sovet uchuvchisi Alievning bir o'zi havo jangida dushmanning yettita samolyotiga qarshi mardonavor kurashdi va hammasini urib tushirdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu jangda Alievning samolyotini dushman o'qlari teshib yuborgan edi. Aliev o'zi bir necha bor yaralandi. Ammo u o'zini yo'qotib qo'ymay, samolyoti bilan o'z aerodromiga borib qo'ndi. Aerodromiga yetib borguncha dushman egallab olgan yerlardan uchib o'tishi kerak edi. Dushmanning zenit to'plari Alievning samolyotini qattiq o'qqa tutdi va samolyotining bir necha joyini snaryad parchalari teshib yubordi. Uchuvchi yana bir necha marta yaralandi. Lekin Aliev bu safar ham sarosimaga tushmay samolyotini boshqarib boraverdi va uni o'z aerodromiga eson-omon qo'ndirdi. Samolyot kabinasi ochilganda uchuvchi o'lgan edi. U ikki qo'lidan, oyog'idan, kuragidan, yelkasidan, orqasidan, jag'idan va boshidan yaralangan edi. Vrachning aniqlashishicha, og'ir yarador bo'lgan Alievning bu holda ucha olishi sira mumkin emas edi. Ammo Aliev samolyotini boshqarib, aerodromga to'g'ri qo'na olgan. Uchuvchining irodasi va o'zini tuta bilishi tufayli o'qning yemiruvchi kuchlaridan g'olib kelib, umrining so'nggi daqiqalarini cho'zishga erisha oldi.

Sabot-matonatli chidamli va toqatli kishilar maqsadga yetishishda va qiyinchiliklarga qarshi kurash jismoniy va ruhiy azoblarga hamda boshqa mashaqqatlarga chiday oladilar. Ular har qanday vaziyatda

o'zlarini tuta oladilar, jasurlik, mardlik, botirlik, qat'iyat ko'rsata oladilar.

Bunday xarakterli kishilarga optimallik kayfiyati, hayotga quvnoqlik bilan qarash, porloq kelajakka doim ishonch bilan boqish, boshqa kishilarga o'z kuchlari va mehnat imkoniyatlariga yetishish kabi xislatlar xosdir.

O'zini tuta bilish jasurlik sabot-matonat, chidam va toqatda ko'rinadigan kuchli iroda mardlik deb ataladi. SHu sifatlar bilan farq qiladigan kishilar esa mard kishilar deb ataladi.

Kishilarning hayoti va faoliyatida shunday hollar ko'p bo'ladiki, bunda odam zarur paytida o'zini tuta olmay qoladi, jasurlik, sabot-matonat, intizomlilik ko'rsata olmaydi. Xarakter xislati irodasiz kishilar mavjud, bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki irodasiz kishilar deyiladi. Bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki chidamsiz kishilar deyiladi. Bular xatto arziyas qiyinchilik va to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmaydigan kishilardir. Bular salgina muvaffaqiyatsizlik yoki qiyinchilik kelib chiqqanda ham o'z oldiga qo'ygan maqsaddan voz kechib ish harakatini to'xtatadigan, o'z qarorini bekor qiladigan yuraksiz, qo'rqqoq kishilardir. Ular vaziyat talab qilganda zarur jasurlik sabot-matonat, chidam, toqat, qat'iyat ko'rsatmaydilar. Bular cho'chima, yalqov joni paxta kishilardir. Bunday kishilarning xatti-harakatlari odatda ularning o'zidan ko'ra tashqi sharoitga bog'liq bo'ladi.

Bunday xarakter xislatlarga ega bo'lgan kishilar pessimistik kayfiyatda bo'lib, dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydilar. Ular doimo barcha kishilarning salbiy, yomon tomonlarini ko'radilar, bu kishilarning fikricha, o'zlarining barcha kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklarining sababchisi boshqa kishilardir. Bu xildagi ba'zi kishilar passiv beparvo kayfiyatda bo'ladilar.

Irodaning mustaqilligi. Kishilarning irodaviy harakatlariga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko'riladi. Tashabbuskorlik biror bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tevarak-atrofdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini epcchilik, mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda namoyon bo'ladi.

Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga ola biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo'l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi.

Mustaqillik qilinilmagan va qilinilgan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko'rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to'g'riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir.

Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko'z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko'rinadi. Tanqidiy ko'z bilan mulohaza yuritish xarakter xislati bo'lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko'rinadi, xarakterning shu xislati bo'lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga e'tibor bilan quloq soladi, ularga muayyan tamoyillar nuqtai nazaridan baho beradi, ijobiy foydali narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoйда narsani dalillar bilan rad etadi.

Ayrim kishilarning iroda mustaqilligi ba'zan qaysarlik kabi maxsus holatda ko'rinadi. Bu holat shundan iboratki, odam boshqa kishilarning aytgan hamma gaplariga, maslahat, iltimoslariga qarshilik ko'rsatadi. Qaysarlik qilayotgan odam yo buyurilgan ishni qilmasdan, o'z bilganini qilaveradi yoki buyurilgan ishni teskarisini qiladi.

Intizomlilik – xarakter xislati bo'lib, jamiyat talablariga ongli ravishda o'z ixtiyori bilan bo'ysina bilishda ko'rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o'z burchiga ongli ravishda bo'ysinishda o'z ifodasini topadi.

Intizomli kishi mustaqil tashabbuskor bo'lib, ayni vaqtda qabul qilingan qarorlarni so'zsiz ijro etadi, jamiyat manfaatlariga va axloq tamoyillariga itoat qila biladi.

Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko'rsatadi. Iroda kuchi katta to'sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilangina ifodalanmay, tashabbuskorlik ko'rsatish, mustaqillik, dadillik ko'rsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi.

Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va

qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Irodaning ahloqiyligi deganda odatda kishi o'z oldiga qanday maqsadlar qo'yilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli kelib chiqishi va ma'lum bir qarorga kelishida qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo'lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, kishilarning axloqiy hislarlari haqida fikr yuritilganda aytilgan so'zlarni emas, balki ularning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. SHuning uchun kuchli irodaning mardlik, o'zini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatleri deb hisoblaymiz.

Kishi biror qarorga kelishda o'z qarori va harakatlari uchun axloqiy mas'uliyat sezsa, uning irodasi axloqiy hisoblanadi. Kishining chinakam axloqiyliigi ma'naviy qiyofasi, so'zida va muhokamalarida emas, balki faoliyatida, ishida va asosan mehnatda, ya'ni mehnatga va ishning o'ziga mehr qo'yishida namoyon bo'ladi.

TEMPERAMENT

Temperamentning psixologik tavsifi. Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli, ko'lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeeliklariga, omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki

sekin, engil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar.

Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar o'rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta'kidlanadi, ular orasidagi farqlarni ajratib ko'rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o'ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

Favqulotda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o'laroq, aynan shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.

Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo'lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining (umrining) davomida yoki uning muayyan bir bo'lagida (ta'sirga beriluvchanligi sababligidan qat'iy nazar) barqaror, o'zgarmas va mustahkamdir.

Yakkahol shaxsga dahldor temperamentning turli xususiyatlari o'zaro bir-biri bilan g'ayriqonuniy ravishda birlashgan bo'lmasdan, balki ular o'zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o'ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Psixologiya fanida temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarmas temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Psixologiya fanining ijtimoiy tarixiy-taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi "aralashma" degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460 – 356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to'hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda.

Temperamentning fiziologik asoslari. Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq

ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha "chole"), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas "qora", chole "o't"), balg'am (yunonchâ "phlegma") kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

O'tning xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir.

Qonning xususiyati-issiqlikdir, uning vazifasi-tanani isitib turishdir.

Qora o'tning xususiyati-namlkdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir.

Balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, flegmatikda balg'am, melankolikda qora o't ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melankolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda.



Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov (1849-1936) hisoblanadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli refleklar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv sistemasini

xususiyatlari mohiyatidandir. Unga ko'ra quyidagi 3 ta xususiyatni ajratib ko'rsatadi:

- 1) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi;
- 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;
- 3) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemasi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv sistemasining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi. Ular quyidagilardan iborat.

1. Kuchli, muvozanatli, epchil;
2. Kuchli, muvozanatsiz, epchil;
3. Kuchli, muvozanatli, sust;
4. Kuchli, muvozanatsiz sust.

Yirik rus psixologlaridan biri B.M. Teplov (1896 - 1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar. SHuningdek, B.M. Teplov ilmiy maktabining namoyondalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati dinamiklik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayoni to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik deb atay boshlaganlar. SHuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunonchi: senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

Nerv sistemasi tiplarining kelib chiqishi. Nerv sistemasining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yuritilganda, albatta I.P.Pavlovning ta'limotini eslash maqsadga muvofiqdir, chunonchi irsiyat yo'li bilan shartlangan tip—bu genotip demakdir. Hozirgi davrda nerv sistemasining umumiy tipi (genotip) irsiyatga bog'liq

ekanligi haqidagi ma'lumotlar, juda ko'p bo'lib, ular qiyosiy jihatdan hayvonlarni o'rganish natijasida topilgandir.

Temperamentning tipologiyasi mobodo insonlar temperamentlari bo'yicha qiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o'zaro o'xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo'ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to'g'risida materiallar to'plangan.

I.P. Pavlov ta'limoti bo'yicha nerv sistemasi tiplarining va Gippokrat ta'limoti bo'yicha temperamentning o'zaro munosabatlari

| Temperament tiplari | Nerv sistemasi kuchi | Nerv tizimining muvozanati | Nerv tizimining gildamligi |
|---------------------|----------------------|----------------------------|----------------------------|
| Xolerik | Kuchli jo'shqin | Muvozanatsiz qizg'in | Serharakat |
| Sangvinik | Kuchli serharakat | Muvozanatli | Serharakat |
| Flegmatik | Kuchli vazmin | Muvozanatli | Inert (sust) |
| Melanxolik | Kuchsiz | Muvozanatsiz tormozli | Serharakatsiz yoki inert |

Ularda temperament tipi deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisi (majmuasi) tushuniladi. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin.

Nerv sistemasi va temperamentning bog'liqligi

| Nerv tizimining turlari | | Kuchli | | | Kuchsiz |
|--------------------------------|------------------------------|----------------------|----------------------|-------------|-------------------------------|
| | | | Jonli | Inert | |
| Nerv jarayonlari xususiyatlari | Kuch Vazminlik Harakatlanish | Kuchli Harakatlanish | Kuchli Harakatlanish | Kuchli Sust | Kuchsiz Harakatchan yoki sust |
| Temperament | | Xolerik | Sangvinik | Flegmatik | Melanxolik |

Temperament va psixik reaksiyaning bog'liqligi

| <i>Temperament</i> | <i>Reaksiya</i> | |
|--------------------|-----------------|-----------------|
| | Tezkorlik | Kuch |
| Sangvinik | Tez | o'rt |
| Xolerik | Tez | haddan tashqari |
| Flegmatik | Sekin | kuchli |
| Melanxolik | Sekin | kuchsiz |

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin va ularning psixologik tavsifini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.



Сензитивлик (lotincha Sensus – sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda birorta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

Реактивлик. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Реактивlikning yorqin ro'yobga chiqishi-emotsionallik, ta'sirlanuvchanlikda ifodalanishidir.

Фаоллик. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishga qarab fikr yuritiladi.

Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati.

Odamning faoliyatiko'p jihatdanimaga bog'liqligigabinoan, chunonchitasodifiy tarzdagitashqivaichkisharoitlarga (kayfiyatga, favquloddagihodisalarga) yokimaqsadlarga, ezguniyatlarga, xohish-intilishlarigako'rafikrbildirish nazardatutiladi.

Reaksiya tempi. Turlixususiyatli psixik reaksiyalar vajarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatligiga, aql tezligiga asoslanib xulosachiqariladi.

Harakatlarning silliq ligivaunga qarama-qarshisifatrigidlik (qotibqolganlik), shaxsningo'zgaruvchiantashqitaassurotlarga qanchalikengillikvachaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust vazaifligiga (rigidligi qotibqolganligicha) nisbatan baho berishdan iboratdir.

Ekstravertlik va introvertlik. SHaxsning faoliyat va reaksiyasi ko'p jihatdan kechinmalarga bog'liq, chunonchifavqulotdagitashqitaassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.


Temperament tiplarining tavsifnomasi

Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatlari, holatlari ro'y beradi. Temperament tiplariga mos xususiyatlarni muhimlari quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinish turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi.

Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlar, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi. Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.



Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. SHuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. SHuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r

qatʼiylik bor, diqqatini koʻchirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik – senzitivligi sust, hissiy qoʻzgaluvchanligi oz, kuldırish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzısh qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta koʻngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imoishoralari oz, harakatlari ifodasiz. Gʻayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. CHidamliligi, matonati, oʻzini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan toʻplaydi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan koʻchiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan mostlashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qoʻshiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik – yuksaksenzitivlikxususiyatigaega. Sezgirliгиyuksak (sezgichegaralariyuqori). Arzimagansababgakoʻra, koʻzlaridanyoşoqibketaveradi. Nihoyatdaarazchan, sekinyigʻlaydi. Samimiy, judaozkuladi, faolligisust. Oʻziga ishonmaydi, tortinchoq, ozginaqiyinchilik tugʻiladiganboʻlsa, qoʻliniyuvibqoʻltigʻiga uribqoʻyaqoladi. Gʻayratsizqatʼiyemas. Diqqati tez chalgʻiydi, barqaroremas. Psixik tempisust. Rigid (qotibqolgan). Introvertlikxususiyatigaega.

Faoliyatning individual uslubi va temperament. Faoliyatning individual uslubi insonda oʻzidan oʻzi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida (bogʻcha yoshidan eʼtiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar) shakllanib boradi. Insonning temperamenti faoliyatning individual uslubini tarkib toptiradi. Xuddi shu boisdan, faoliyatning individual uslubi deyilganda shaxs uchun oʻziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yoʻllari individual tizimi tushuniladi.

Temperament xususiyatlarining oʻziga xos yigʻindisi inson faoliyati munosabatlari va bilish jarayonlarida faolligining individual uslubi jarayonida namoyon boʻladi.

Faoliyatning individual uslubi faqat temperamentga emas, balki boshqa sabablarga, shaxsiy tajriba jarayonida hosil boʻlgan koʻnikma va malakalarga ham bogʻliqdir. Faoliyatning individual uslubini inson organizmini tugʻma xususiyatlari va asab tizimi tiplarining faoliyat sharoitlariga moslanishi deb qarash mumkin. Faoliyatning individual

uslubini asosini asab tizimi xususiyatlari yig'indisi tashkil qiladi. Faoliyatning individual uslubiga kiruvchi ikki xil xususiyatlar mavjud.

1. Asab tizimi individual xususiyatlari nuqsonlarining o'rnini to'ldiruvchi tajriba jarayonida shakllangan xususiyatlar.

2. Insonda mavjud layoqat va qobiliyatlardan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi xususiyatlar.

Temperamentning xususiyati faollikning samaradorligida emas, balki usullarning o'ziga xosligidadir. SHu ma'noda Ye.A.Klimov tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, stanokchi, to'quvchilarning ishini kuzatish natijalari muhim sanalgan. Ma'lum bo'ldiki, bir necha stanokda ishlashda nerv tizimi harakatchan tipdagi ham, harakatsiz tipdagi xodimlar ham ishlab chiqarishda muvaffaqiyatlarga erishadilar. Temperamentni harakatchanligiga ko'ra qarama-qarshi xususiyatli kishilar bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat taktikasiga murojaat qilishlari aniqlandi. Harakatchanlari shoshilinch, tezroq bajaradi, temperamentning sust tipdagi kishilar esa shoshilinch harakatning zarurhigini bildiradigan tayyorlov ishlariga ko'p e'tibor berishi bilan ajralib turadi.

Faollikning individual uslubini V.S.Merlin, Ye.A.Klimovlar o'rganib, uning kishida darrov paydo bo'lmasligi va faqat stixiyali tarzda paydo bo'lishini ko'rsatishdi. Agar kishi o'z temperamentiga muvofiq yaxshi natijalariga erishishiga yordam beradigan o'zining yo'llari va usularini faol izlasa, individual uslub yuzaga keladi.

Odamlarning birgalikdagi faolligi sharoitlarida ular temperamentning dinamik fazilatlarini ular faoliyatining pirovard natijasiga har biri individual ishlagan holdagiga qaraganda ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda mazkur faoliyatni bajarish uchun ancha qulay va kamroq qulay bo'lgan temperamentning har xil tiplarini birga qo'shib ketishi aniq bo'ladi. CHunonchi, xolerik temperamentli kishining faoliyati sangvinik yoki xolerik temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganiga qaraganda flegmatik yoki melanxolik bilan birgalikda ishlagan hollarda ancha samarali bo'ladi. Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, temperamentning u yoki bu xususiyatlarining ahamiyatini ko'pgina faoliyat turlarini birgalikdagi xarakterini hisobga olmasdan baholab bo'lmaydi. O'z temperamentining xususiyatlarini egallash va ularning o'rnini to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillaridan boshlanib, ta'lim va tarbiya ta'sirini negizida yuzaga keladi.

Temperament tiplari va xarakteristikasi. *Sangvinik temperamenti.* Bu tipga mansub insonlar reaktivligi va faolligi bilan ajralib turadi. Har qanday hodisalarga tezda e'tibor qaratadi. Hissiyotlari tez paydo bo'ladi va tez o'zgaradi. Yomon kayfiyat ularga xos emas. Agar shunday bo'lib qolsa, bu holat tez o'tib ketadi. Ular serg'ayrat, yangi ishga tez beriladi, lekin undan tez soviydi, oxirigacha yetkazmasligi mumkin. Ularda rektivlik va faollik balansda, shu sababli ularni tartibga solish oson, ular o'zini, o'z hissiyotlarini ushlab tura oladi. Ular yangi sharoitga va yangi talablarga tez moslashadilar, diqqatlari tez ko'chadi, odamlar bilan tez chiqishib ketadilar, birinchi bo'lib muloqotga kirishadilar. Ko'nikmalarni tez o'zlashtiradilar va tez o'zgartiradilar. Sangviniklarda reaksiya sur'ati yuqori. U harakatchanlikda, nutqning tezligida, zehn tezligida namoyon bo'ladi. Sangviniklarning harakatlari tez va silliq, nutqi - tez, baland, aniq, ohangi rang-barang, imo-ishoralarga boy. Sangviniklar -ekstravertlar. Ular muloqotga tez kirishib ketadilar, odamlar orasida bo'lishni yoqtiradilar. Ularning senzitivligi, sezuvchanligi past, sezgi chegaralari baland. Sangvinik temperamentli kishilar tevarakatrofdagi voqealardan tez ta'sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko'ngilsiz hodisalar ularni uncha qattiq xafa qilmaydi. Bir zayldagi ishlarni uzoq davomli sur'atda bajarishga moyil bo'lmaydilar. Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat, ildam va chaqqon bo'ladilar. Ular har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor bo'ladilar. Ko'pincha, bir qancha vazifalarni birdaniga bo'yinlariga oladilar. Lekin har bir ishga ishtiyoq bilan tez kirishganliklari singari, boshlagan ishdan tez qaytishlari ham mumkin. Sangviniklar chin ko'ngildan va'dalar berishlari, lekin ko'pincha vâ'dapi unutilib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu xil temperamentli bolalar o'yinlarga tez va zavq bilan kirishadilar, o'yin davomida, o'z rollarini tez-tez o'zgartirib turishga moyil bo'ladilar. Ular darrov xafa bo'lishlari va yig'lashlari mumkin, lekin ular xafalikni tez unutadigan bo'ladilar. Ularning yig'isikulgi bilan tez almashadi.

Sangviniklarning 15 xususiyatlari:

Quvnoq

G'ayratli

Boshlagan ishini oxirigacha yetkazmaydi

O'ziga ortiqcha baho beradi

Qiziquvchan
Muvaffaqiyatsizliklardan oson qutuladigan
SHaraitga moslashuvchan
Mehnatsevar
Dilkash va mehribon
Bardoshli
Tez va baland ovoqli nutqqa ega
Mimikalarga boy
Muomalada tortinmaydigan
1 ishdan 2-siga o'tib ketadigan



Xolerik temperament. Xolerik temperament tipidagi insonlarga yuqori reaktivlik va faollik xos. Ularning hislari sangviniklarniki kabi tez paydo bo'ladi, lekin jadalligi va barqarorligi bilan farqlanadi. Hislarini tashqaridan aniq ko'rish mumkin. Xoleriklar juda faol, charchamasdan g'ayrat bilan ishlashi mumkin. Ularning reaktivligi faollikdan ustunlik qiladi. SHuning uchun xoleriklar asabiy, tezda jahllari chiqib ketadi, o'zlarini ushlab turolmaydilar. Ishga butun vujudi bilan berilib, har qanday to'siqlarni yengib o'tadi. Ular affektga moyil, kayfiyatlari tez o'zgaruvchan, atrofdegilar bilan muloqotda keskin bo'lishi mumkin. Psixik reaksiyalarining sur'ati tez. Ular tez gapiradilar, zehni, masalaning mohiyatini tez ilg'aydilar va yechimini topadilar, harakatlari keskin va shiddatli. Xoleriklar sangviniklardek egiluvchan emas, ulardan ko'proq rigidroq SHu sababli ularning

intilishlari va qiziqishlari barqaror, muayyan sharoitga ko'nikib qolish ularda yorqinroq namoyon bo'ladi. Xoleriklar ekstravertlar.



Xoleriklarning 15 xususiyatlari:

Jaxldor

Qat'iyatli

Mas'uliyatli

Harakatchan

Ularning e'tiborini jalb qilish mushkuldir

Sabrsiz

Hovliqma

Engiltabiat

Betoqat

Qaysar

Tortishuvlarda topqir

Arazlamaydigan

Betayin

Tajovuzkor

Kamchiliklarga toqatsiz

Flegmatik temperamenti. Flegmatik temperamentidagi odam reaktivligining zaifligi bilan farq qiladi. Juda kuchli ta'sirotlargina ularni o'zidan chiqarishi mumkin. Flegmatiklarning hislari sekin paydo bo'ladi, uzoq saqlanadi, affekt holatiga tushmaydi, mimikasi va xatti-harakatlari bir xil. I.P.Pavlovning fikriga ko'ra flegmatiklar "hayotning tirishqoq mehnatkashi", g'ayratli, bir xillikdagi zo'riqishni talab qiluvchi ishlarni muvaffaqiyatli bajarishi mumkin, yuqori darajadagi faollik kuchsiz reaktivlikdan ustun turadi. Bu temperament tipining vakillari sabrli, vazmin o'zlarini ushlab tura oladilar, kuchlarini bekorga sarflamaydilar, ishlarini oxiriga yetkazadilar. Ular rigid, yangi sharoitga qiyinchilik bilan ko'nikadilar, odatiy hayot tarzini, odatdagi ishini va muloqot doirasini qadrlaydilar, diqqatining

bir faoliyatdan boshqasiga ko'chirishi qiyin. Ularda ko'nikmalarni o'zgartirish ham qiyin. Reaksiya sur'ati, harakatlari sekin, nutqi sokin, tez emas. Flegmatiklar introvertlar. Tashqi ta'sirotlarga yorqin javob qaytarmaydilar, o'zlarining fikrlari, kechinmalari, obrazlari dunyosida yashaydilar. Yangi odamlar bilan chiqishib ketishlari qiyin, turli davralarni va e'tibor markazida bo'lishni yoqtirmaydilar. Do'stlariga sodiq, o'rganib qolgan sharoitida yaxshi faoliyat yuritadi, shovqinni yoqtirmaydi, bir joyda o'tiribbajariladigan ishni ma'qul ko'radi. Yangi odamlar bilan muloqotga kirishishi qiyin, lekin o'rnatilgan aloqalarni, ularni sir-asrorlarini saqlay oladi. Saranjom-sarishtali, tartibni yoqtiradi, intizomli, boshlagan ishini oxiriga yetkazishga harakat qiladi, tashkilotdagi an'analarga sodiq. Quyidagi yarim hazil o'xshatish qarama-qarshi temperament tiplari tavsifini tushunishni yengillashtiradi: "...odatda urushni xolerik va sangviniklar olibboradilar, flegmatiklar vayronalarni tiklaydilar.



Flegmatiklarning 15 xususiyatlari:

- Bosiq
- Sovuqqon
- Ishlarda sobitqadam
- Mulohazali
- Ehtiyotkor
- Andishali
- Kutishga qodir
- Bekorga gapiravermaydigan
- Osoyishta
- Sabrli
- Boshlagan ishini oxiriga yetkazadi
- Kuchini bekorga sarflamaydi
- Tanbehlardan kam ta'sirlanadi
- Muloyim
- SHaxsiyatiga tegish mushkul.

Melanxolik temperamenti. Melanxolik temperamentiga mansub odamlar juda sezuvchan, tez xafa bo'ladilar, yig'loqiroq. Ularga kuchsiz reaktivlik xos, hislari sekin paydo bo'ladi, lekin chuqur bo'ladi. Bu ularning shaxsida o'z izini qoldiradi. Ularning kayfiyatlari barqaror, lekin ko'pincha astenik xarakterga ega. Melanxoliklarning faolliklari past. Ular tez va dam olishsiz ishlashni yoqtirmaydilar, tez charchaydilar, yangi ishni yoqtirmaydilar, o'zlariga ishonmaydilar, qiyinchilikdan qo'rqadilar. Bunday paytda g'ayratlari so'nib, taqdirga tan beradilar. Psixik jarayonlar sur'ati va harakatlari sekinlashgan, nutqi past, tez emas, mimikasi zaif. Melanxoliklar rigid va introvert, muloqotga kirishuvchan emas. Yangi odamlar bilan tanishganlarida uyaladilar, o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Ba'zan o'zlarining fikrlari, kechinmalari, xayollari dunyosiga g'arq bo'ladilar. Odatdagi sharoitda odamlar bilan muloqotga kirishuvchan bo'lishi mumkin, odobi, o'zgalarning hislari bilan hisoblashish kabi xususiyatlari bilan farqlanadi.



Melanxoliklarning 15 xususiyatlari:

Uyatchan

Hayajonlanadigan

Muomalada qiyinchilikka uchraydi

O'z kuchiga ishonmaydi

Yolg'izlikka oson ko'nikuvchan

O'z-o'zi bilan ovora

Tez charchaydigan

Nutqi sekin

Yig'loqi

Suhbatdoshi xarakteriga moslashadigan

Hissiyotga beriluvchan

Tanbehlarga ta'sirchan

SHubha bilan qarashga moyil

Azoblanuvchan

Temperamentning faoliyatda namoyon bo'lishi. Odamlarning temperamentidagi farqlar ularning faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Unda muvaffaqiyatga erishish uchun odamlarning o'z temperamentlarini bilishlari, uning kuchli tomonlariga suyanib, zaif tomonlarini to'ldirib, uni faoliyat sharoitlari va talablariga bo'ysundira olishlari muhim. Bunday moslashuv faoliyatning individual uslubida namoyon bo'ladi.

Faoliyatning individual uslubi – bu maqsadga muvofiqlashgan, temperament xususiyatlariga mos keladigan, faoliyatning eng yaxshi natijalarini ta'minlaydigan usul va yo'llar tizimidir.

Faoliyat individual usulining shakllanishi ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda subyektning shaxsiy manfaatdorligi juda zarur.

Faoliyatning individual uslubi sharoitlari:

- 1) psixologik xususiyatlarning namoyon bo'lishini baholash orqali temperamentini aniqlash;
- 2) kuchli va kuchsiz tomonlarning yig'indisini topish;
- 3) o'z temperamentini egallashga ijobiy munosabatni yaratish;
- 4) kuchli xususiyatlarini takomillashtirish va zaiflarini kompensatsiya qilish mashqlari.

Temperament faoliyat turini tanlashda ham muhim ahamiyatga ega. Xoleriklar emotsional faoliyat turlari (sport, bahs-munozara, ommaviy chiqishlar) bilan bajonidil shug'ullanadilar, lekin bir xillikdagi ishlarni yoqtirmaydilar. Melanxoliklar yakka holda bajariladigan faoliyat turlarini yoqtiradilar.

Ma'lumki, sangviniklar o'quv mashg'ulotlari jarayonida yangi mavzuning asosini tez o'zlashtirib oladilar, yangi harakatlarni xato bilan bo'lsa ham tez bajaradilar, ko'nikmalarni o'zlashtirish va takomillashtirishda uzoq va sinchkovlik bilan shug'ullanishni yoqtirmaydilar. Flegmatiklar biror narsa tushunarsiz bo'lsa, yangi harakatlarni bajarmaydilar, agar tushunib olsalar uzoq va mashhaqqatli mehnat qila oladilar.

Sportchilar uchun startdan oldingi holatda temperamentga bog'liq bo'lgan farqlar mavjud. Sangviniklar va flegmatiklar startdan oldin jangovar shaylik holatida bo'ladilar, xoleriklar startdagi asabiylik holatida, melanxoliklar startdagi apatiya holatida bo'ladilar. Musobaqalarda sangviniklar va flegmatiklar barqaror natijalarni,

ba'zan mashqlardagidan yuqori natijalarni ko'rsatadilar. Xoleriklar va melanxoliklarning natijalari barqaror emas.

O'quvchilar asabtizimining kuchi va muvozanatlashganligini ularni jazolash va rag'batlantirishda ham hisobga olish kerak. "Kuchsiz" va "muvozanatlashmagan" o'quvchilarda ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ularni maqtash ijobiy natija beradi. "Kuchsiz" va "muvozanatlashmagan"lardan ko'ra "kuchli" va "muvozanatlashgan" o'quvchilarga tanbeh berish samaraliroqdir.

Temperament asabtizimining tug'ma xususiyati bo'lishiga qaramay, uning har bir tipida bu tipga mansub bo'lmagan xususiyatlarni shakllantirish mumkin.

1. Temperament – psixik faoliyat dinamikasi xususiyatlari (psixik jarayonlarning intensivligi, sur'ati, ritmi, tezligi) tomonidan shaxs xarakteristikasidir.

2. Temperament insonning tug'ma xususiyati.

3. Qadimdan temperamentning to'rtta tipi ajratilgan: xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.

4. I.P. Pavlovning ta'limotiga ko'ra oliy asab faoliyatining tipi temperamentning fiziologik asosini tashkil etadi. U asabtizimining uchta xususiyati: asabtizimining kuchi, muvozanatlashganligi, harakatchanligi (qo'zg'alish va tormozlanishning) bilan xarakterlanadi.

5. Temperamentning xususiyatlariga quyidagilar kiradi: sezitivlik, reaktivlik, faollik, faollik va reaktivlikning o'zaro munosabati, reaksiya sur'ati, egiluvchanlik-rigidlik (qotib qolganlik), ekstraversiya – introversiya.

6. Faoliyatning individual usuli - bu maqsadga muvofiqlashgan, temperament xususiyatlariga mos keladigan, faoliyatning eng yaxshi natijalarini ta'minlaydigan usul va yo'llar tizimidir.

XARAKTER

Xarakter haqida tushuncha. Xarakter-tashqi dunyo bilan munosabatlar qurish, xulq-atvor xususiyatlarini belgilaydigan insonning doimiy ruhiy xususiyatlarining tuzilishi. Muayyan shaxs xarakterining shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi:

Onaning salomatligi, uning gormonal holati. Stress paytida homilador ayolning qoniga tushadigan adrenalin nafaqat unga, balki

homilaga ham ta'sir qiladi. Bunday vaziyatlarda bola tug'ilishidan oldin his-tuyg'ular bo'ron charchagan, asab bilan bola tug'iladi.

Atrofdagi kattalarning bolaga va bir-biriga munosabati, otionalarning diqqati, yordami, bolani hatti-harakatlariga baho berish.

Tashqi ijtimoiy muhit: bolalar guruhlarining xususiyatlari, ulardagi ta'lim-tarbiya va muloqot sharoitlari.

Oilaning madaniy darajasi, uning ijtimoiy holati va moliyaviy ahvoli.

Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, sobit mafkura.

Axloqiy tamoyillar kitoblar, televidenie va Internet orqali uzatiladi.

Etakchilarning harakatlari, bola bilan bevosita aloqada bo'lgan yoki bola tomonidan qabul qilingan odamlar.

O'z-o'zini hurmat qilishi shakllanganligi, shuningdek, emotsional sezilarli ta'sir ko'rsatgan voqealar.

Xarakter to'g'risida umumiy tushuncha. «Xarakter» yunoncha «xarakter» degan so'zdan olingan bo'lib, «qalqiq chiziq» ma'nosini anglatadi. Bu yerda tanga, chaqa yuziga tushirilgan bo'rtma tamg'a ko'zda tutiladi Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz. SHaxsning xarakteriga tegishli bo'lgan xususiyatlarni xarakter xislatlari deyiladi. Xarakter xislatlari kishida tasodifiy uchraydigan xususiyat bo'lmay, balki kishining xulqidagi doimiy, barqaror xususiyatlar bo'lib, bu xususiyatlar shaxsning o'zigagina xos bo'ladi. Har bir odam ayrim paytlarda mardlik, salobatlilik, rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatishi mumkin.

Lekin kishining hayoti va faoliyatida ayrim paytlardagina yuz beradigan bunday xususiyatlar hali uning barqaror xarakter xususiyatlari bo'lmaydi. Biz kishi xarakterini ta'riflamoqchi bo'lganimizda, bu odam mardlik qildi yoki rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatdi demasdan, balki bu odam mard, rostgo'y, sofdil deb gapiramiz. Bu degan so'z, mardlik, to'g'rilik, sofdillik shu odamga xos fazilat, uning xarakter xislati degan so'zdirki, tegishli paytda mardlik, rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatishni biz muqarrar ravishda bu odamdan kuta olamiz. Agar biz bir kishining xarakter xususiyatini bilsak, bu odamning tegishli paytda qanday xatti-harakat ko'rsatishni

oldindan to'g'ri taxmin qila yoki ayta olamiz. Kishi xarakteri tarkibiga kiradigan ayrim xislatlari ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyotiga bogliq holda, tarixiy ravishda vujudga kelgan va o'zgargan. Sinfiy jamiyatda xarakterning ham sinfiy xislatlari tarkib topgan. Kishilar xarakteridagi ayni bir xislatning o'zi turlicha ijtimoiy muhitda turlicha baholanadi: bir ijtimoiy sinf, bir tarixiy davr uchun ijobiy hisoblangan xarakter xususiyati ikkinchi bir sinf, ikkinchi bir ijtimoiy davr uchun salbiy bo'lib qoladi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi bilan u ma'lum bir guruhga yoxud sinflarga xos bo'lgan ko'p xarakter xislatlari qaytadan tarbiyalanadi yoki yo'qolib ketadi, shu bilan birga yangi xarakter xislatlari paydo bo'ladi. XX asrning yakuniy bosqichi buyuk ijtimoiy o'zgarishlar va burilishlar davri bo'lib tarixga kirayapti. Bu o'zgarishlarning eng ulug'i SSSR deb atalgan kommunistik imperiyaning barvod bo'lishi va sobiq ittifoq doshrespublikalarning, jumladan, jumhuriyatimizning mustaqillik, milliy tiklanish va demokratik yo'lga kiravotganidir. Bu xalqlar insoniyatning hayotida sinalgan tabiiy-tarixiy taraqqiyot yo'li —bozor iqtisodiyotiga o'tyapti, bevosita jahon iqtisodiy-ijtimoiy oqimiga qo'shilyapti. Ushbu ulkan tarixiy jarayonlar kishilarning ruhiyatiga, xarakteriga, axloq-odobiga, o'zaro munosabatlariga chuqur va ziddiyatli ta'sir ko'rsatyapti. Bu ta'sirlar xalqimizning milliy tiklanishi va milliy qadriyatlarigagina emas, balki kishilarimizning xarakter xislatlarini ham o'zgartirishga sabab bo'lmoqda.

Xarakter va uning shakllanishi, namoyon bo'lishi uchun kishilarimizni o'rab olgan muhiti, turli faoliyatlarga turlicha munosabatlar, yashab turgan jamiyatimizdagi munosabatlar sabab bo'ladi. Bu esa xalqimizda yangicha xarakter xislatlarining shakllanishiga, asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan saxiylik, samimiyluk, o'zaro hamkorlik, bir-biriga yordam, iffat, sharm-hayo, kamtarlik, mehmondo'stlik kabi sifatlar barqaror xususiyatlarga aylanib qolmoqda. Bu xususiyatlar yana avloddan-avlodga o'tadi va mazmun, sifat jihatidan o'zgaradi va u kishilarni o'z-o'ziga, jamiyatga, mehnatga, narsalar va hodisalarga bo'lgan munosabatlarda yangicha xarakter xislatlarini shakllantiradi. Zahmatkash xalqimizning xarakteridagi irodaviy, axloqiy va fahm-farosatga bog'liq bo'lgan xislatlar mustaqillikni mustahkamlashda yana ham rivojlandi. Xarakterning bu sifatleri terrorizmga qarshi kurashda, diniy aqidaparastlik, vahobizm,

narkomaniya va shu kabi illatlarga qarshi kurashda yaqqol namoyon bo'ldi. Qancha begunoh kishilarning yostig'i quridi, lekin xalqimiz o'zining matonati, qat'iyati bilan o'z xarakterini namoyon qildi.

Hozirgi kunda laganbardorlik, xushomadgo'ylik, takabburlik, egaizm, tamoyilsizlik kabi salbiy illatlar o'rmini o'zaro muruvvat, hamkorlik, kishilarni hurmat qilish, ularga qo'llaridan kelguncha yordamlashish, mehr-saxovat, adolat, savobli ishlar qilish, halol va haromni, vijdonni his qilish yaxshilik kabi ijobiy sifatlar egallab bormoqda. Bizda yangicha xarakter xislatlari tarkib topmoqda. Bu kishilarning mehnatiga yangicha munosabat, jamiyal manfaatlariga sodiqlik, mehr-muruvvatli bo'lish, yordamga muhtoj kishilarga iltifotli bo'lish kabi yuksak fazilatlar shakllanmoqda. Kishilarimizning xarakter xislatlari ularning dunyoqarashi va ye'tiqodlari bilan belgilanadi va ularning qiziqish, qobiliyatlari bilan mahkam bog'langandir.

Dunyoqarash va e'tiqodlar Vatanimizga fidokorona muhabbat, jasorat, mehnatsevarlik, mardlik, sabot va rostgo'ylik singari xarakter xisllarini shakllantiradi va nohaqliklarga nisbatan sezgirlik singari xarakter xislatlarining vujudga kelishi, ko'proq kishining hissiyotlarida zohir bo'ladi. Kishi xarakterida markaziy o'rinni ishg'ol yetadigan sifatlar mazkur odamning iroda sifatleri va ma'naviy qiyofasida ifodalanadigan sifatlardir. Kishining xakteri uning o'ziga xos xislatlarining majmuidir. Ana shu xislatlar orasida shu kishini jamiyat a'zosi sifatida xarakterlab beruvchi xususiyatlar eng muhim ahamiyatga egadir. Iroda bilan bog'liq xarakter xislatlari. Kishidagi mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatleri xakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridir. SHu sababli, xarakter haqidagi ta'limotda ham o'zini tuta bilish, dadillik, qat'iyat singari iroda sifatleri ustida yana to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Lekin bu yerda biz ularning kishida ahyon-ahyonda ko'rinishi ustida emas, balki bunday sifatlar kishining shaxsiy fazilatlariga aylanib ketishligi to'g'risida, ularning ayrim kishi xakteri xislatlari tariqasida namoyon bo'lishi haqida gapiramiz.

Kishining iroda bilan bog'liq bo'lgan xakter xislatlari, odatda, undagi emotsional xususiyatlar bilan muayyan nisbatda namoyon bo'ladi. Ba'zi odamlarning irodasi tuyg'u-hissiyotlarida ustun turadi. Bunday odamlar o'z maqsadiga yetishiga xalal berish mumkin bo'lgan har qanday his- tuyg'ularini darhol bostira oladi. Odatda, bunday

odamlarni irodasi kuchli, mustahkam irodali odam deyiladi. Shunday odamlar ham bo'ladiki, ularning xatti-harakatida hissiyot ko'proq o'rin oladi; bunday odamlar o'z xatti-harakatlarida ko'pincha tasodifan tug'iladigan his-tuyg'ulari ta'siri ostida ish ko'radilar. Bunday odamlarning hissiyoti kuchli bo'lib, tasodifiy kayfiyat va tuyg'u-hissiyotga tez beriluvchan bo'ladilar, shu sababli ularning xarakteri hissiy xarak-ter deb ta'riflanadi. Ba'zi odamlarda esa irodaviy faollik undagi tuyg'u-hissiyotlar bilan birlikda «monand ravishda» namoyon bo'ladi. Masalan, mehnatsevarlik mana shunday xarakter xislatiga ega bo'lishdir. Mehnat faoliyati kishidan chidam va irodaviy zo'r berishni talab qiladi, buni esa unda mehnatga bo'lgan muhabbat hissi yengillashtiradi, mehnatni serunum qiladi. Iroda bilan tuyg'u-hissiyotlarning mana shunday nisbati bequsur, uyg'im xarakter alomatidir. Xarakter kuchli va mustahkaniligi.

Odamlarning o'zaro, kimdalik munosabatlarida ham, ish sharoitida hamkishi xarakteri to'g'risida gapirilganda, odatdalinig xarakter kuchli va mustahkamligi qay darajada namoyon bo'lishiga qarab hukm chiqariladi. Kishi xarakteridagi bunday xislat, avvalo, kishining o'z mehnat qobiliyatlari va xatti-harakatlarida ko'laydigan maqsadning aniqlik darajasidan iborat bo'ladi. Kishidagi irodaviy faollik intilislulana boshlanish i, intilishlar esa qanchalik anglab olinganligiga qarab bir-biridan farq qilishi sababli, odamlar xarakteri ham, ularda qanday intilish ustun bo'lishiga qarab, bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi odamlarning qiladigan harakatlarida hali yaxshi anglab olinmagan intilish, ya'ni moyillik ustunlikni egallaydi. Bunday kishilarning intilishi, ko'pincha, noaniq, mazmunsiz bo'ladi. Bunday kishilar hamma vaqt nimanidir qidiradilar, nimanidir qumsaydilar, doimo ularga nimadir yetishmaydi, nimadir istaydilar, ammo uning nima ekanligini o'zlari ham bilmaydilar. Bunday odamlarni hech narsa qanoatlantirmaydi. Ularda hamma vaqt zerikish, xomushlik, «nolish», «tajribasizlik»ni ko'ramiz. Bunday odamlarda, ko'pincha, ko'ngli notinchlik, bezovtalik va hovli-qish bo'ladi. Bunday odamlarning xatti-harakatlarida rejasizlik, tanglik ko'p bo'ladi.

Ba'zi odamlar nimaga intilayotganliklarini anglaydilar, lekin uni amalga oshirish uchun faoliyat ko'rsatmaydilar. Ular hamisha nimanidir qumsaydilar, noliydilar, o'zlarini va atrofdagi kishilarni tanqid qiladilar. Bunday odamlar orzu-xayollar (ko'pincha, «yaxshi» niyatlar) ga beriladilar, goho-goho g'ayratlari jo'sh uradi, ammo aslida

ular faoliyatsiz, sustkash bo'ladilar. Bunday xislatlar, asosan, tarixiy o'tmish kishilari xarakteri alomatlari bo'lib, zamonamiz kishilari xarakteridan uzoqlashib bormoqda. Kishi xarakterining muhim ijobiy xislati maqsadga intilishdir, kishida muayyan xohish tariqasidagi batamom anglab olingan intilishning ustun turishidir. Bunday kishilar istaklari nima ekanligini, maqsadlari nimadalgini va unga erishish uchun nimalar qilmoqligi va qanday qilmoq lozimligini hamisha biladilar. Bunday kishilar aniq maqsadga ega bo'lib, shu maqsadga muvofiq harakat qiladilar. Iroda bilan bog'liq bo'lgan xarakter xislati ayni vaqtda aql-farosat bilan bogliq iroda xislati hamdir.

Xarakterning iroda bilan bogliq bo'lgan xislati qat'iyatlilik va barqarorlikdir. Ba'zi odamlarni biz qat'iyatli, barqaror deymiz, ba'zilarini esa qat'iyatsiz, mujmal, beqaror deb ataymiz. Qat'iyatli, barqaror odam deb, ortiqcha ikkilanmasdan, tez birqarorga keladigan kishilarni aytamiz. Qat'iyat kishining shu o'rinda qay daraja aql-farosat bilan ish ko'rishiga qarab turli tus oladi. Qat'iyatning o'zi, albatta, kishi yuksak g'oyaviy va axloqiy tamoyillarga asoslangandagina ijobiy xislat bo'la oladi. Har doim muhokama qilib, asosli ravishda, kerak bo'lib qolganda shoshilmasdan, donolik bilan ismi ko'radigan odamni aqli, dono, vazmin odam deb aytamiz. Lekin xarakteri e'libori bilan qat'iyatli bo'lgan kishilar ichida ayrim tuyg'ularga berilib, kayllyatiga qarab lez, shoshqaloqlik bilan qarorga keluvchi kishilar ham bo'ladi. liunday odamlar emotsional, impulsiv tabiatli bo'lib, ular odatda, o'zlarining shoshma-shosharliklari, yengiltakliklari va betayin bo'lishliklari bilan ajralib turadilar. Qat'iyat ortiqcha ikkilanmasdan o'ylab, to'g'ri qaror chiqara olganda va ularni dadillik bilan amalga oshira bilgandagina kishi xarakterining ijobiy xislati bo'la oladi. Kishi xarakteridagi bu xislat bir qancha narsa yoki imkoniyatlardan bittasini darrov, tezlik bilan ajratib olib hal etishni talab etadigan va ba'zan tavakkal bilan jur'at qilishni talab etadigan murakkab bir vaziyatda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi.

Qat'iyatsizlik, jur'atsizlik salbiy xarakter xislatlaridandir. Qat'iyatsiz, jur'atsiz kishi juda sekinlik bilan qaror chiqaradi, o'zining chiqargan bunday qarorlarini ham, ko'pincha, vaqtda bajarmaydi. Bunday odam har xil imkoniyatli, ehtimolli va, ayniqsa, tavakkal bilan jur'at qilish talab etadigan ishlarni bajarishda o'z qarorining to'g'riligiga ishonmay, shubhalanadigan bo'ladi. Barqarorlik qat'iyat bilan yaqindan bog'langan bo'lib, ijobiy xarakter xislatidir. Bunday

xarakter xislatiga ega bo'lgan odamlar, odatda, bergan qarorlarini o'zgartirmaydilar, bekor qilmaydilar va bajarmay qo'ymaydilar. Bunday odamlar o'z so'zida, va'dasida turadigan, saxovatli bo'ladilar; ularning so'zi bilan ishi bir-biriga mos bo'ladi. Bunday odamlar o'z so'zida mustahkam, ularga ishonsa, suyansa bo'ladi. Beqaror odamlar deb, o'z qarorlarini tez-tez o'zgartirib turadigan yoki aynib turadigan odamlarni aytamiz. Bunday odamlar o'z so'zida, va'dasida turmaydilar, subutsiz bo'ladilar Bunday odamlarning so'ziga ishonib va umid qilib bo'lmaydi. Xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan eng yaqqol xislati kishi irodasining kuchi va mustahkamligida ifodalanadi. Bunday xislatlar har kimning xarakterida ham ma'lum darajada namoyon bo'laveradi. Xuddi shunday kuchli iroda va mustahkam xarakterga ega bo'lgan kishilar bizda yuksak qadrlanadi.

Xarakterning kuchi va mustahkamligi o'zini tuta bilishlik, dadillik, chidam va matonatda ko'rinadi. O'zini tuta bilish tariqasida namoyon bo'ladigan xarakter xislati kishining o'z xatli-harakatini nazorat qila bilishda, o'zini tula bilishida, tasodifiy yuz beradigan ixtiyorsiz harakatlarini idora qila olishda, tilini tiya bilishda, muayyan sharoilda nojo'ya yoki zararli deb isbotlangan harakatlardan o'zini tiya bilishda ko'rinadi. Bunday kishilar vazmin, o'zini tutabiladigan bo'ladilar. Bunday odamlar saranjom-sarishta bo'ladilar. Xarakter kuchi dadillikda ham ko'rinadi. Dadil odamlar har qanday mashaqqat va to'siqlarga qaramay, ko'llangan maqsadiga erishadigan bo'ladilar. Bunday kishilar boshlagan bir ishni o'z tinchligining bo'lishiga, hatto o'zining hayoti uchun xavfli bo'lishiga qaramay, oxiriga yetkazadigan, sabotli bo'ladilar. Bunday odamlar jur'atli, botir va jasur kishilardir. Matonat shunday xarakter xislatidirki, bu xislatlarga ega boigan odam sobitqadam, chidamli, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda duch kelgan hamma qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan va ularni yenga oladigan bo'ladi.

Xarakter xislati tariqasida namoyon bo'ladigan matonat, sabotlilik ba'zi odamlarning barcha faoliyatlarida yuz bersa, ba'zilari esa o'zlari qiziqadigan ayrim faoliyatlarini sohasidagina yuz beradi. Matonatli kishilar boshlagan ishlarini hamma vaqt oxiriga yetkaza oladigan bo'ladilar. Matonatli odam muvafaqiyatsizlikka duch kelib qolganda ruhi tushmaydi, aksincha, ko'zlangan maqsadga yetish yo'lida yanada qat'iyat bilan kirishib, yangi yo'l va vositalar izlaydi va maqsadiga erishadi. Matonatli odamlar o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan

bo'lish bilan ajralib turadilar. Bunday kishilar o'z kuchiga ishonadigan bo'ladilar. Bular mo'ljallangan narsani amalga oshirishda duch kelgan har qanday to'siqlarga qarshilik ko'rsata oladigan, sabotli bo'ladilar. Bunday kishilar chidamli, o'z maqsadlariga erishish yo'lida uchragan to'siqlarga qarshi kurashlarda jismoniy va ruhiy azob hamda musibatlarga bardosh beradigan bo'ladilar. Bular sabr-toqatli, har qanday sharoitda ham o'zini tuta oladigan, dadillik, jasorat, matonat ko'rsatishga qodir odamlardir.

Xarakter xislati bunday odamlar zo'r qahramonliklar ko'rsatishga qodir bo'ladilar. Ular o'z hayotini bir asosiy maqsadga bo'ysundirdi va har qanday mashaqqat hamda to'siqlardan qaytmay, asosiy maqsadi yo'lida kurashadi. Bunday xarakterli odamlarga optimistik kayfiyat xos bo'lib, hayotga doimo zavq-shavq bilan qaraydilar, porloq istiqbolga zo'r umid bog'laydilar. Ular odamlarga, ulardagi bo'lgan imkoniyatlarga va o'z kuchlariga, mehnat imkoniyatlariga ishonadigan bo'ladilar. Xarakterning salbiy xislatlaridan biri kishi irodasining bo'shligidir. Iroda bo'sh yoki xakteri zaif deb, hatto arzimaydigan to'siq va qiyinchiliklarni ham yenga olmaydigan odamlarni aytiladi. Bunday odamlar qo'rqqoq, jur'atsiz bo'lib, ozgina qiyinchilik yoki muvaffaqiyatsizlikka duch kelsalar, o'zlarining qilayotgan ishlarini to'xtatishlari, o'z qarorlarini o'zgartirishlari, ko'zlangan maqsaddan voz kechishlari mumkin. Ular sharoit talab qilgan darajada sabot, sabr-toqat, matonat va chidam ko'rsata olmaydilar. Bunday odamlar yuraksiz, landovur, dangasa, ko'ngli bo'sh bo'ladilar. Bunday odamlarning xatti-harakatlarini, odatda, o'zlaridan ko'ra ko'proq tashqi sharoit idora qiladi. Bunday xarakterli odamlar umidsizlikka moyil bo'lib, hayotga, turmushga noshukurlik bilan qaraydilar. Ular hamma vaqt hamma yerda, hamma odamlarda faqat salbiy, yomon tomoninigina ko'radilar. Ularning fikricha, o'zlaridagi barcha shaxsiy kamchilik va yetishmovchiliklarga boshqalar aybdor. Bunday tipdagi b a'zi o d am lar beparvo, ko'ngilchanlikka moyil bo'ladilar. Bunday xarakter xislatlari bizdan yo'qolib bormoqda. Xarakterning mustaqilligi Kishida muayyan darajada namoyon bo'ladigan mustaqillik shaxsning iroda bilan bogliq bo'lgan individual xususiyatlariga kiradi. Bunday xarakter xislatlari: tashabbuskorlik, tanqidiy qarash va mas'uliyat his qilishdan iboratdir.

Tashabbuskorlik — xakterning qimmatli xislati bo'lib, bu xislat ko'pchilik kishilarda ommaviy tus olgandir. Tashabbuskor odam

o'zining shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatlarida ham sharoitni, qo'yilgan talablarni ustalik bilan hisobga olib, o'rta yangi vazifalar qo'yadi, qo'yilgan vazifalarni hal etish yo'llarini, vositalarini topadi va bu vazifalarni bajarishda o'zi ham faol ishtirok etadi. Tashabbuskor odam jamoa mehnatda davlat reja va topshiriqlarini amalga oshirishning eng samarali vosita va yo'llarini qidirib topadi, musobaqalar tashkil etadi, orqada qoluvchilarga yordam beradi. Tashabbuskor kishilar-faolkishilardir, ular novatorlardir. Kishidagi tanqidiy ko'z bilan qarash xislati boshqalarning aytgan fikr va mulohazalarini diqqat-e'tibor bilan tekshirib ko'ra bilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. SHunday xislatga ega bo'lgan odam boshqa kishilarning fikrlariga, qarashlariga, bergan maslahatlariga e'tibor bilan quloq solib ularning hammasini u, muayyan tamoyillar nuqtayi nazaridan, yaxshilab o'ylab ko'radi, ijobiylarini qabul qiladi va foydalanadi, noma'qul, salbiy, foydasi bo'lmaganlarini asosh ravishda rad qiladi. SHunday xislatga ega bo'lgan kishi boshqa odamlar aytadigan fikr va mulohazalarning hammasini dunyoqarash va axloq tamoyillariga tayanib tekshirib chiqadi vama'qullarini tanlab oladi.

Mas'uliyat his qilish shu odamning mustaqilligini ko'rsatuvchi tipik xarakter xislatidir. Mustaqil odam topshiriq yoki o'z tashabbusi bilan qilinayotgan ish uchun mas'uliyatni dadillik bilan ustiga oladi va boshlagan ishni oxiriga yetkazadi. U hamma vaqt adolatli tanqidni qabul qilishga, o'z xatosini bo'yniga olishga va uni tuzatishga tayyor turadi. O'z-o'ziga tanqidiy qaraydigan kishi doimo o'zida mas'uliyatni his qiladi va unga beparvolik yotdir. U erishgan narsasi to'g'risida emas, balki erishmagan narsasi haqida ko'proq o'ylaydi, u uchun muvaffaqiyat kelgusidagi ishga rag'bat stimuliginadir. Tashabbuskorlikning, tanqidiy qarashning bo'lmasligi, o'z xatti-harakatlarida mas'uliyat sezmaslik kishidagi mustaqillikning alomati, undagi xarakterning bo'shligini ko'rsatadi. Mustaqil bo'lmagan odam hamisha sustkash bo'lib, hammadan orqada qolib yuradi, o'zining to'mtoqligi bilan ajralib turadi. Bunday odamlar, odatda, o'z ishidagi muvaffaqiyatsizlikning sababini o'zidan qidirmay, obektiv sharoitga to'nkaydilar. Ular boshqalar tomonidan qilinadigan tanqidni qabul qilmaydilar va o'z xato hamda muvaffaqiyatsizliklarining gunohkori deb boshqalarni hisoblaydilar.

Kishining intizomlilik tariqasida namoyon bo'ladigan xarakter xislati jamiyat talablariga ongli va ixtiyoriy ravishda bo'ysunishda

ifodalanadi. Jumladan, intizomlilik belgilangan tartib-intizomlarga aniq rioya qilishda, o'z burchiga sadoqatli bo'lish bilan birga bergan va'dalarini vijdonan bajarishda ifodalanadi. Intizomli odamga mustaqillik, tashabbuskorlik, ishchanlik va shu bilan bir vaqtda jamiyat manfaatiga va axloq tamoyillariga bo'ysuna bilishlik xosdir. Belgilangan qoida va axloqiy tamoyillaiga bo'ysunmaydigan mustaqillik esa shaxsning o'zboshimchalik, o'zbilarmonlik, adabsizlik va ba'zan axloqiy jihatdan chetga chiqib ketish singari salbiy sifatlarida namoyon bo'ladi.

Xarakterning axloqiy xislatlari. Xarakter kuchi va mustahkamligini ifodalaydigan barcha xislatlar ularda shaxsning axloqiy maslagi, ma'naviy qiyofasi namoyon bo'lgani uchun ijobiy qimmatga ega bo'ladi. Axloqiy yoki ma'naviy xarakter xislatlari deb kishining axloqiy etiqodlarini aks ettiradigan xislatlariga aytiladi. Ma'naviy xarakter xislatlari, jumladan, kishini boshqa odamlarga, jamiyatga, mehnatga va shuningdek, o'z-o'ziga munosabatida namoyon bo'ladi. Kishining e'tiqodlarini ifodalaydigan xarakter xislatlari. Kishining ma'naviy qiyofasi haqida, avvalo, uning xatti-harakati va xulqiga qarab hukm qilamiz. Kishining ma'naviy qiyofasi, avvalo, uning xatti-harakatlari va xulqida namoyon bo'ladi. Axloqli odam deb, o'zlarining intilishlarida, qarorlarida va harakatlarida har doim gumanistik axloq prinsiplariga amal qiluvchi kishilarni aytamiz. Qat'iyat, sabot, dadillik, matonat, tashabbuskorlik, mas'uliyat hissi, intizomlilik va shu kabi iroda xislatlari kishining axloqiy qiyofasini, uning mustahkam e'tiqod va barqaror axloqiy hissini ifodalaganligi sababli, biz bu xislatlarni yuksak sifatlar deb taqdirlaymiz. Ular qaysi kishi xarakterining ma'naviy darajasi, avvalo, o'z faoliyatlarida yoki o'zining ayrim xatti-harakatlarida, tamoyillarida asoslanadigan motivlarida namoyon bo'ladiki, kishi o'z intilish, qarorlarini va o'z harakatlarini, shuningdek, boshqalar tomonidan chiqariladigan qaror va harakatlarini shu nuqtayi nazaridan baholaydi. Xalqimizning azal-azaldan, masalan, To'maris, SHiroq, Farhod va bugungi kunning boshqa ko'pgina qahramon yigit va qizlari xarakterining mustahkam matonatli bo'lganligi ulardagi e'tiqod, ularning vatanparvarlik, o'z xalqiga, davlatiga fidokorona sadoqat ruhida tarbiyalanganliklari samarasidir.

Kishilarning ma'naviy fazilati — rostgo'ylik, to'g'rilik, xalq manfaatlariga, Vatan manfaatlariga sadoqatliliklaridadir. Axloqli

kishilar davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo'yadigan kishilardir. Milliy xarakterning oliyjanob axloqiy fazilati — Vatan va o'z xalqining baxt-u saodati uchun, jamiyat ideallarini amalga oshirish uchun kurashlarda o'z hayotini qurbon qilishga tayyor turishdir. Kishining boshqa odamlarga va mehnatga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadigan xarakter xislatlari Kishining boshqa odamlarga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadigan xarakter xislatlari odamning xatti-harakatlari va nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Kishining boshqa odamlarga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadigan ijobiy xarakter xislatlari, avvalo, kishining boshqa odamlar bilan nechog'li el bo'lib ketishidir. Bu xarakter xislati kishining hamisha boshqa odamlar bilan birgalikda bo'lishga, jamoaning umumiy manfaatlari bilan nafas olishga, birgalikda qilinadigan ishlarda qatnashishga intiluvida namoyon bo'ladi. Kishilarga el bo'lib ketadigan odamlar, hatto biroz muddatga bo'lsa ham yakka qolgan paytlarida ich-ichlaridan eziladilar.

Xarakter xislati bo'lgan el bo'lib ketishning, o'z navbatida, har bir kishi — ba'zi bir xususiyatlari ham bo'ladi. CHunonchi, kishi naqadar el bo'lib ketaveradigan bo'lmasin, shunga qaramay har bir kishining boshqa odamlarga ijobiy munosabati bir xil bo'lavermaydi, har bir odamning boshqalarga qaraganda o'ziga eng yaqin ko'rgan, ko'ngliga yoqqan oshna-og'aynisi bo'ladi. Har bir odamning o'z o'rtoqlari, do'stlari bo'ladi. Buni boshqacha qilib aytganda, kimgadir mehr-muhabbat qo'yishi (sadoqat) deyiladi. Odamlar bilan munosabat, el bo'lib ketish doirasi har bir kishida turlicha namoyon bo'ladi. Bir xil odamlarning o'rtoqlari, do'stlari ko'p bo'ladi, boshqa birovlarining oshno-og'aynilari, do'stlari kamroq bo'ladi.

Odamlar do'stlik munosabatlari va mehr-muhabbatlarining barqarorligi yoki beqarorligi jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Bir xil odamlar o'z do'stlik munosabatlarida sobitqadam, vafodor, mehr-muhabbatlaridan hech qachon aynimaydigan bo'ladilar. Bu — xarakterning ijobiy xislatidir, albatta. Ammo odamlar bilan munosabatida yoki birodarligida beqaror, subut- siz, aynama kishilar ham bo'ladi, bunday kishilarning do'stlik va mehr-muhabbatida tuturiq bo'lmaydi. Ulardagi yor birodarlik hissi ba'zan juda ham jo'sh urib ketishi, shuningdek, darrov so'nib, yo'qolib ketmog'i ham mumkin. Bunday odamlar boshqa bir kishi bilan do'stlashib ketaveradi, bunisidan aynib, unisi bilan do'stlashadi. Odamlar bilan

munosabatdagi bunday tuturiqsizlik ham xarakter xislatidir, lekin u salbiy xislat.

Odamlar bilan keng doirada va barqaror el bo'lish xislati, odatda, optimizmdan iborat ijobiy xarakter xislati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu xislat olam va hayotga beg'ubor hamda quvnoq nazariya bilan qarashda ifodalanadi. Xarakteri e'tibori bilan optimist odam hatto hayotida ba'zi bir qiyinchilik yoki muvaffaqiyatsizliklarga duch kelgan paytlarda ham yertangi kunining beg'ubor bo'lishligiga qattiq ishonadi. Xarakterning e'tibori bilan odamga el bo'lmaydigan, yakkalanib yuruvchi kishilar bo'ladi. Ular shaxsiyatparast, xudbin bo'ladilar, butun ha-yotida fikru-zikri va xatti-harakati faqat o'zining shaxsiy manfaatini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Bunday odamlar faqat o'z rohat farog'ati, o'z foydasinigina o'ylaydi, xolos. Bunday shaxsiyatparast va xudbin kishi-lar orasida odamlar bilan chiqisha olmaydigan, jizzaki, odamlarni yoqtirmaydigan, odamlar ham ularni yoqtirmaydigan shaxslar bo'ladi. Bunday kishilar, ko'pincha, o'taketgan xudbin bo'ladi, ular hech bir narsada biror yaxshi tomon ko'rmaydilar va ko'rishni istamaydilar. Odamlarga ishonmaydilar, o'z kuchlariga ishonmaydilar.

Kishining odamlar bilan el bo'lib ketish darajasi bir odamning barcha xatti-harakatida ayrim xulq-atvorlarida va so'zlarida namoyon bo'ladi. Kishining xatti-harakatlari va so'zlarida uning boshqa odamlarga bo'lgan sifatleri, chunonchi, samimiylik, haqqoniylik kabi sifatleri namoyon bo'ladi. Samimiy va haqqoniy odam deb xatti-harakati va nutqida har doim to'ppa-to'g'risini, haqiqatni aytuvchi kishilarni aytamiz. Bunday odamlar qalbi pok, hamma vaqt to'ppa-to'g'risini odamning betiga dangal aytuvchi kishi bo'ladilar. o'z so'zi va xatti-harakatlarida samimiy bo'lmagan odamlarni, boshqacha «ikkiyuzlamachi», «munofiq» deb aytadilar. So'z boshqa-yu, ishi boshqa bo'lib qolsa, bu juda ham yomon bir holdir. Bu hoi munofiqlikka olib boradi. Kishi xarakterining bunday salbiy xislatlari uning ko'zbo'yamachilik, aldanchilik, qalloblik, firibgarlik singari xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Hayot shuni ko'rsatdiki, bunday xatti-harakatlarni faqat ayrimkishilarga nisbatangina qo'llanib qolmaydi, hattoki o'z jamoasiga va o'z davlatiga nisbatan ham qo'llaydigan odamlar uchraydi. Samimiyat va haqqoniylik kishi xarakterining eng muhim xislatlaridan biridir. Bu xislatlarni o'stirish tarbiyaning muhim vazifasidir. Kishi xarakterining yana bir ijobiy

xislati gumanizm «insonparvarlik»dir, ya'ni har bir mehnatkash kishi bilan munosabatda uning qadr-qimmatini zo'r e'tibor va sergaklik bilan saqlashdir.

Xarakterning bu xislati kishilar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatishda, har bir kishida uning yaxshi, ijobiy, qimmatli tomonini topa bilishda ifodalanadi. Gumanizm mehribonlikda, ziyraklikda, kishilarning ruhiy holatini, dilidagi tuyg'ularini tushuna bilish-da, ularning ehtiyojlarini avaylay bilish va yordam ko'rsatishga tayyor tura bilishda ifodalanadi. Mehribon bo'lish — xushmuomala bo'lish demakdir. Kishiga e'tibor, mehribonlik va hushmuomalalik ham har bir kishi-ning xatti-harakatida va so'zida namoyon bo'ladi.

Kishining so'zi naqadar kuchli ta'sir ko'rsatishini biz bundan oldin ham so'zlab o'tgan edik. Kishilarga mehribon, e'tibor bilan qaraydigan odamning shirin so'zi ular-ning ruhini ko'taradi, ularga madad beradi, g'am-g'ussalarini yengillashtiradi, ularga umid bag'ishlaydi, dillarini shod qiladi. Insonparvarlik bilan birga qo'shilgan haqqoniylik yuksak ijobiy xarak-ter xislatidir. Afsuski, xarakterida salbiy xislatga, ya'ni insonparvarlikka zid bo'lgan dag'allik ancha o'rin olgan kishilar hali ham uchrab turadi. Bunday salbiy xarakter xislati ham shunday odamlarning xudbinligi natijasidirki, u odamlar faqat o'zingni bil, o'zgani qo'y «misolida» ish ko'radilar va boshqa kishi-larga, hatto o'z yaqin odamlariga ham har qadamda faqat yomonlik sog'inishga tayyor turadilar. Bunday odamlarning xatti-harakatida ham, gap so'zida, odatda, har doim zaharxandalik, mensimaslik, dag'allik va beparvolik sezilib turadi, ularning boshqa odamlar bilan munosabatdagi xatti-harakati kishining dilini vayron qiladi, kayfiyatini buzadi, kishida o'z kuchiga ishonmaslik, ma'yuslik, umidsizlik tuyg'ularini uyg'otadi. Xudbin, to'ng odam boshqa kishilar bilan munosabatlarida ko'pincha so'zda ham, ishda ham berahm va adolatsiz bo'ladi. Bunday odamlar o'zlarining salbiy xususiyatlarini, odatda, boshqalarga to'nkaydilar. Har qanday, hatto chittakkina muvaffaqiyatsizliklari sababini o'zlaridan emas, balki boshqa kishilardan ko'radilar. Bunday salbiy xarakter xislatlari o'tmish qoldig'i bo'lib hozirgi vaqtda barham topib bormoqda. Xarakterning bunday salbiy xislatlari batamom barham topib ketmog'i uchun bizda hamma sharoitlar yaratilgandir. Xudbin, to'ng kishining har qanday noloyiq xatti-harakati har bir jamoada

darhol amaliy zarbaga uchraydi, keng jamoatchilik bunday noloyiq xatti-harakatni qattiq tanqid ostiga oladi.

Ma'lumki, jamoatchilik tanqidiy tarbiyalash va qayta tarbiyalashning eng samarali vositasidir. Kishi xarakterining mehnatga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan xislat ayni vaqtda uning iroda kuchini ko'rsatadigan, shuningdek, kishining boshqa odamlarga, eng avvalo, o'z jamoasiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan xislat hamdir. Axir, har bir kishi boshqa odamlar bilan, o'z jamoasi bilan faqat kimlargadir ijobiy va kimlargadir salbiy munosabatda bo'lishi orqaligina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki, asosan, mehnat faoliyatidagi real ishtiroki orqali bog'liqdir. Kishi xarakterining ijobiy xislati mehnatni sevish, ya'ni mehnatsevarlikdir. Bunday xarakter xislati kishining biror ishni shunchaki bajarish yehtiyoji bilan bog'liq bo'lmay, balki uni yaxshilab bajarish ehtiyoji bilan bog'liqdir. Bunday xislat kishining mehnat faoliyatidagi halolligi, saranjom-sarishtaligi va intizomliligi bilan bog'liqdir. Kishida bunday xarakter xislatining mavjudligi, mehnatning bu kishida ehtiyojga aylanib qolganligidan dalolat beradi. Mehnatni sevish, tejash, ehtiyot qilish xislati bilan yaqindan bog'liqdir. Tejab, ehtiyot qilib xo'jalik yuritadigan davr kishisi jamiyatning muqaddas va daxlsiz asosi bo'lgan mulkni mustahkam saqlaydi va qo'riqlaydi. Ehtiyotkor odam mol-mulkning buzilib, yorilib ketmasligi uchun, shuningdek, o'z buyumlarining butunligi uchun ham qayg'uradi. Bu uning o'z zarur ehtiyojlarini buzish hisobiga dunyo orttirish emas, albatta.

Kishi xarakterining salbiy xislati dangasalik, ehtiyot qilmaslik mehnatga beparvolik bilan qarash, topshiriqlarni yuzaki bajarishlikdir. Bunga ayrim kishilar ongida bo'ladigan mehnatga boyvachchalarcha mensimay munosabatda bo'lish singari eskilik qoldiqlari ham kiradi. Kishi xarakterining bunday salbiy xislatlari ko'pincha ma'naviy javobgarlikni sezmaslik bilan bog'liq bo'ladi. Halol mehnat qilish, jamiyat baxti-saodati, uchun kurashish bizning asosiy tamoyillarimizdan biridir. Kishining o'z -o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadigan fe'l-atvor xislatlari.

Kishining boshqa odamlarga bo'lgan munosabatlarida va xatti-harakatlarida uning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xarakter xislatlari ham namoyon bo'ladi. Bu o'z - o'ziga baho berish deb ataladigan xarakter xislatidir. Jamiyat o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarida odam ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda o'zini

boshqalar bilan taqqoslaydi va o'zida boshqalarga o'xshash yoki farq qiladigan xislatlar topadi. Odamda o'zi haqida, uning o'zligi haqida ma'lum bir fikr paydo bo'ladi.

O'z-o'ziga yuksak baho berish odamning o'zligini anglashning muhimbir tomonini tashkil etadi. Kishining o'z-o'ziga beradigan bahosi uning haqiqiy sifatlariga mos bo'lishi yoki mos bo'lmasligi ham mumkin. Odam o'zidagi sifatlarga ortiqcha baho berib yuborishi yoki ularga yetarli baho bermasligi ham mumkin. SHunday odamlar ham bo'ladiki, ular ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ma'lum birfazilatlariga ega bo'lib, bu fazilatlariga o'zi ham yuksak baho beradi. O'z-o'ziga baho berish kishining o'z qadrqimmatini, o'z sharafini bilish, yuksak singari xarakter xislatlarida ifodalanadi. O'z-o'ziga yuksak baho berish ba'zi odamlarda iftixor tariqasida ifodalanadi, bunday odamlar o'zidagi mavjud bir fazilatni doim qayd qilibgina qolmay, balki o'zini boshqalardan afzal tomonlari borligini ham qayd etadi.

O'z qadr-qimmatini, izzat-nafsini bilish, faxr salbiy xislat yemas, albatta. Bu yerda ayrim kishida bo'ladigan guruhlanish ko'zda tutilmay, balki bu odamning nima bilan faxrlanishini, o'zi uchun faxr deb nimani tushunishini ko'zda tutishga to'g'ri keladi. Faxr, izzat-nafs, o'z qadr va martabasini bilish, faqat xudbinlikdan, yegoistlikdan iborat bo'lib qolsa, u vaqtda bunday xarakter xislati salbiy deb hisoblanadi. Bunday xususiyat, ko'pincha, takabburlik, manmanlik, dimog'dorlik, kibrlanish, g'ururlanish tariqasida ifodalanadi. SHunday odamlar borki, oliyjanob xislatlarga ega bo'ladi, ammo hech vaqt bu xislatini odamlarga pesh qilmaydi, hech bir holda bu xislati bilan kerilmaydi. Bunday odamlar kamtar, oddiy kishilar bo'ladilar; bunday odamlarning xatti-harakatida, gap so'zida takabburlik, dimog'dorlik, manmanlik bo'lmaydi. Kamtarlik va soddadillik kishi xarakterining ijobiy sifatidir. Kamtar odam umum orasidan o'zini ajratib ko'rsatishga, haqiqatdagi yoki ayniqsa, o'rnitagi yo'q xizmatlarini bo'rttirib pesh qilishga urinmaydi. U o'zining boshqalardan afzallik tomonlarini, agar shunday tomonlari bo'lsa, ko'z-ko'z qilishga intilmaydi, hammaning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qilmaydi.

Kamtar kishi odamlarga o'zini savlat qilmaydi, uning odamlarga bo'lgan muomalasi, kiyimi, yurish turishi, nutqi, o'zini tutishi va odatlari har doim tabiiy va samimiy bo'ladi. Ijtimoiy va shaxsiy

hayotda oddiylik hamda kamtarlik alohida ahamiyatga egadir. Kamtarlik o'z-o'zini tanqid va o'ziga nisbatanqat'iy talabchanlik bilan o'z ishiga to'g'ri baho bora bilish, ishidagi kamchiliklarni ko'ra bilish, o'z xatti-harakati va faoliyatini tahlil qila bilish ham baho berish bilan o'z kamchiliklarini dadil ochib tashlash va ularga iqror etish hamda ularga halollik hamda vijdonan bartaraf qilish choralarini ko'rish bilan chambarchas bog'liqdir. Kishidagi kamtarlik ba'zan tortinchoqlik, iivatchanlik tarzida namoyon bo'ladi.

Yana shunday odamlar ham uchrab qoladiki, biron g'arazni, o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab va bunga yetishmoq uchun boshqa odamlar oldida o'z insonlik qadr-qimmatini yerga urishga tayyor turadi. Bunday odamlarning xatti-harakatlarida hushomadgo'ylik, tilyog'lamalik, laganbardorlik singari nihoyat past qiliqlari ko'rinib turadi.

Odamlardagi laganbardorlik, tilyog'lamalik, hushomadgo'ylik salbiy xarakter xislatidir. Ba'zi odamlar borki, ular haqiqatda o'zlarida bo'lmagan fazilatlarini o'zlarida bor deb ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Bunday odamlar o'ziga bino qo'ygan maqtanchoq, manman ko'zbo'yamachi bo'ladi, o'zini katta tutib, gerdayib yuradi. Bunday kishilar, ko'pincha, juda katta ketib gapiraveradilar-u, lekin amalda, haqiqatdan tuturiqsiz, noshud, puch odam bo'ladilar. Kishining o'zida yo'q sifatni bor degani bilan bu gap hali uning xarakteridagi haqiqiy ijobiy xislat bo'la olmaydi. Balki, aksincha, kishining o'zida yo'q sifatni bor deb ko'rsatishga urinishi, kishining o'zini ma'lum bir fazilat egasi deb o'ylab yurishi uning xarakteridagi xislat bo'lib qoladi. SHunday qilib, kishining chinakam oliyjanob xislatlari uning o'zida bor deb hisoblangan, lekin aslida yo'q xislatlar bo'lmay, balki shu kishi to'g'risida uning ishiga qarab jamoatchilik o'rtasida tug'ilgan fikr tasdiqlagan xislatdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida salbiy xislatlarning oldini olish bizning asosiy vazifamizdir. Xarakter klassifikatsiyasi va tiplari to'g'risida. Biz kishida xilma-xil ko'rinishda va turlicha namoyon bo'ladigan bir qancha xarakter xislatlari bilan tanishib chiqdik.

Har qaysi xarakter xislati bir-biridan ajralgan bo'lmay, balki ular bir- birlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladilar. SHuning uchun bir xarak-ter xislatining o'zi ham turlicha odamlarda turlicha namoyon bo'lmog'i mumkin. CHunonchi, dadillik bilan qilinadigan bir xatti-harakatning o'zi m a'qul yoki noma'qul, axloqda muvofiq yoki

nomuvofiq bo'lmog'i mum-kin. Kishidagi mardlik singari xarakter xislati faqatgina undagi iroda bilan bog'liq bo'lmay, balki aql-idrok va tuyg'u-hissiyotlar bilan bog'liqdir. Mardlik ayni vaqtda axloqiy xislat hamdir. Har bir kishining xarakteri kishi shaxsida mujassamlanadigan turlicha xislatlarning alohida bir tarzda birlashuvidir. Kishilar xarakterini klassifikatsiya qilishga yoki xarakter tiplarini aniq-lashga urinish hollari psixologiya tarixida ko'p martaba uchragan. SHunga qaramay, hanuzgacha bir xarakter klassifikatsiyasi va tipologiyasi yaratil-gani yo'q. SHu sababli ayrim kishilarni xarakterlashda, odatda, shu kishiga xa-rakterli bo'lgan bir-ikkita muhim belgisi ko'rsatiladi. ('Hunonchi, ba'zi kishilarni mustahkam, kuchli xarakterli desak, ba'zilarini kamtar, mehnat-sevar, yana boshqalarini esa xushmuomala, dilkash va hokazolar deb ataymiz. Kishining o'z faoliyatlarida, tuyg'u-hissiyot va nutqlarida, uning boshqalarga va o'z-o'ziga munosabatlarida namoyon bo'ladigan xarakter xislatlari bu kishining o'z hayotida qanday maqsadlarga amal qilishga qarab, o'z hayotini va qiladigan ishlarini qanday tushunishga qarab, ijobiy yoki salbiy bo'lmog'i mumkin. SHuning uchun ham uning barcha xarakter xislatlari yuqori axloqiy sifat kasb etadi.

Ekspluatator sinflar sharoitida qat'iyat, matonat, mustaqillik singari xarakter xislatlari, ekspluatatorlik maqsadiga qaratilganligi tufayli axloqqa zid, yaramas xarakter xislatlari deb hisoblanadi. SHunday kishilar ham uchraydiki, ularning xarakterini aniqlash qiyin bo'ladi. Bunday odamlar haqida xalqimiz juda o'rinli ravishda: «na rahmonga chiroq va na shaytonga kasov, shunchaki bir odam» deb ataydilar. Xarakterning fiziologik asoslari. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, kishi temperamenti uning xarakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi nerv sistemasining tipidan iborat. Ijtimoiy muhitning ta'siri, tarbiya va mehnat faoliyati jarayonida kishi xarakterining tarkib topishida, shubhasiz uning nerv sistemasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar nerv sistemasining plastiklik deb ataluvchi xususiyatiga ko'ra yuzaga keladi. Xarakter xislatlari shaxsning keyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida nerv sistemasining o'zgargan xususiyatlaridan iborat. Hayvon nerv faoliyati tiplarini analiz qilib, P. Pavlov bunday deb yozadi: «Tip hayvon nerv faoliyatining tug'ma konstitutsion turi — genotipdir. Lekin hayvon

tug'ilganidan boshlab tashqi sharoitning g'oyat xilma-xil ta'sirlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyatlari orqali u muqarrar javob berishi lozim bo'ladi, ko'pincha, bu faoliyatlar mustahkamlanib, nihoyat butun hayotining oxirigacha saqlanib qoladi, shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan nerv faoliyati tipga oid belgilar bilan tashqi muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasidir — fenotip, xarakterdir». P.Pavlov o'zgaruvchan nerv sistemasi tipini katta miya yarim sharlari po'stining sistemalilik ishi bilan va nerv jarayonlarining tarkib topgan, muvozanatli sistemasidan iborat bo'lgan dinamik stereotip bilan bog'laydi. Stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarning, jumladan, xarakter xislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir. Xarakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun I.P.Pavlovning ikkinchi signal sistemasidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir.

Ikkinchi signal sistemasi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lishi bilan birga kishi xulqini ham idora qiladi. «Normal o'sgan odamda, — deb yozadi P.Pavlov, — ikkinchi signal sistemasi odam xulqining oliy boshqaruvchisidir». Xarakterning fiziologik asosi to'g'risida gapirganda barcha xarakter xislatlari go'yo faqat nerv sistema tipi xususiyatlari bilangina belgilanadi deb tushunish yaramaydi, albatta. Xarakterning fiziologik asosi xarakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlarni, chunonchi, ijtimoiy maslak, mardlik, o'z burchiga sadoqatli bo'lishlarni o'z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta. Xarakter psixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy kategoriyadir; psixologiya xarakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritishligi tufayli, u ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Xarakterning taraqqiyoti. Kishi xarakteri tabiiy, tug'ma bo'lmay, balki keyin hosil bo'ladi va tarbiyalanib yetishadi. «Xarakter tarkib topadi, xarakter hosil bo'ladi» degan iboralar shuni ko'rsatadiki, odamlar kishi xarakterining tarbiya ta'siri bilan o'zgarishi xususiyatiga ega ekanligini o'zlarining kundalik oddiy kuzatib borishlaridan bilib olganlar. Burjua olimlaridan bir qanchasining Krechmer va uning izidan boruvchilar, odam xarakteri va uning taraqqiyoti tamomila kishining tana tuzilishi bilan, faqat shu bilan belgilanadi, deb isbotlashga urinishlari fanga xilof reaksiyon urinishidir. Bunday olimlar xarakterning tarkib topishida, shuningdek, shaxsning psixik hayotining taraqqiyoti etishida ijtimoiy sharoit ham,

insonning faoliyati ham, tarbiya ham hech qanday rol o'ynamaydi, deb da'vo qiladilar. Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgaraydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki munofiq, botir yoki qo'rqqoq, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xarakterning taraqqiysi kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlari-ning taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bogliqdir. SHu sababli, kishining irodasi, aql-idroki va tuyg'u-hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi va ularning tarbiyalanishi haqida aytilgan fikrlarning hammasi kishi xarak-terining taraqqiysiga ham tegishlidir.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakterining tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo, shu kishi birga yashab va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Xarakterning taraqqiysida muhitning roli kishining bolalik chog'laridan boshlab nihoyat kattadir. Ma'lumki, bola kichik yoshdan boshlab taqlidchan bo'ladi. Bolalar ota-onasiga va atrofdagi boshqa yaqin kishilariga o'xshashlikka moyil bo'ladilar. Ular kattalarning yurish-turishlari, xulq-atvori, imo-ishoralari, dasturxon ustida o'zlarini qanday tutishlari va kichkina bolalarga munosabatda bo'lishlariga va ularning gap-so'zlariga; hattoki, ularning gap ohanglarigacha hamma mayda narsalarigacha taqlid qilishga urinadilar. SHuning uchun ham ijtimoiy muhitning ta'siri ostida boladagi ayrim xarakter xislatlari juda yoshlikdan boshlab, go'yo o'z o'zicha hosil bo'lgan xususiyat tariqasida mustahkamlana boshlaydi. Kattalarga taqlid qilish xususiyati bolalarning o'sib borish davrida ham saqlanadi. SHuning uchun ham bola xarakterining taraqqiyotida kattalarning bolaga juda yoshlikdan boshlab ibrat bo'lishlari katta rol o'ynaydi. Bolalar xarakterining tarkib topishida taqlidning roli katta ekanligini hisobga olib, ota-onalar va katta yoshdagi kishilar faqat o'z bolalarigagina e'tibor bilan qarab qolmay, balki o'zlariga ham har doim e'tibor bilan qarashlari lozim, o'zlarida ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim. Bolalarda, ayniqsa, juda yoshlikdan boshlab, ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlar tarbiyalab yetkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlari bunday sifatlarni o'zlarida tarbiyalashlari va ko'rsatishlari lozim. Ota-onalar o'z farzandlarida qanday sifatlarni tarbiyalab yetkazmoqchi bo'lsalar, ular

o'zaro bir-birlari va boshqa odamlar bilan munosabatlarida ham xuddi shunday sifatlarni aks ettirishlari lozim.

Xarakterning o'sishida tarbiyaning roli. Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash asosiy rol o'ynaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo, oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta mas'uliyatli vazifa otanalar, o'qituvchilar, bolalar bog'chalari, kasb-hunar kollejlari va internat-maktablar tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalash slumdan iboratki, tarbiyachi maktab o'quvchisiga namuna bo'lishi mumkin bo'lgan kishilarni bolaga, o'quvchiga ataylab ibrat qilib ko'rsatadi; shu kishining qilayotgan ishlari, xatti-harakatlariga tarbiyalanuvchi e'tiborini jalb etadi va bu ish xatti-harakatlarning qaysibiri yaxshi, ijobiy, qaysi biri salbiy, yomon ekanligini aytadi. Tarbiyachi bolaning xatti-harakatlaridagi yaramas qiliqlarni yo'qotish va yaxshi, foydali odatlarni mustahkamlashga yordam beradigan vositalarni izlab topa-di va ularni tatbiq etadi.

Tarbiyaviy ish yana shundan iboratki, pedagog tarbiyalanuvchida muayyan ijobiy sifatlarni o'z xarakterida o'z-o'zi paydo qilish zaruriyati ongini uyg'otishi va bu ongni o'stirishi lozim. Pedagog bolalarda xakterni tarbiyalayotganida ularda tarbiyalanadigan temperamentni bilishi, har bir temperamentning ijobiy va salbiy tomonlarini bilishi zarur. Agar temperament va uning tug'ma xususiyatlari o'z holicha qolaversa, odamda yomon xarakter xislatlari tarkib topishi mumkin. Masalan, xolerik temperament odamni cho'rtkesar, qo'pol, o'zini tuta olmaydigan qilishi mumkin. Sangvinik temperament sabrsizlikka, diqqatni birjoyga qo'ya bilmaslikka sababchi bo'lmog'i mumkin bo'lganidek, flegmatik temperament sustkashlikka, loqaydlikka olib borishi mumkin.

Melanxolik temperamentli kishida o'z kechinmalariga ortiqcha berilishlik, pisiniqlik paydo bo'lishi mumkin. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan «almashtirishdan» iboratdir. Masalan, xolerik temperamentli bolalarni tarbiyalashda ularni o'ylab ish qilish, o'zini tuta bilish, atrofda odamlar bilan yaxshi muomalada bo'lishga odatlantirish va ularda shu sifatlarni o'stirishga alohida e'tibor berish lozim. Sangvinik temperamentli bolalarni sabotli bo'lishga, diqqatini bir joyga qo'ya bilishga, ishga qunt qo'ya olishga, boshlagan ishni

oxiriga yetkazishga odat- lantirmoq kerak. Melanxolik temperamentli bolalarni odamga ko'proq aralashishga, jamoachilikka, ildam harakat qilishga odatlantirmoq, ularda shu sifatlarni tarbiyalamoq kerak.

Flegmatik temperamentli bolalarni tashabbuskorlikka, faollikka, kishilarga el bo'lishga, quvnoqlikka odat-lantirmoq lozim. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotmoq uchun, ijobiy tomonlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun tarbiyalanuvchini o'z temperamentini o'zi idora qila bilishga o'rgatish lozim, uni shunday tarbiyalash kerakki, u temperamentini o'zi idora qilish zaruriyatini o'zi anglasin va haqiqatan uni idora qila olsin, temperamentiga bo'ysunmaydigan bo'lsin. O'z temperamentini idora qila bilish xarakterning muhim ijobiy xislatidir. Xarakter tarbiyasini faqat temperamentning salbiy tomonlarini ayrim ijobiy sifatlari bilan almashtirishdan iborat deb tushunish yaramaydi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog, avvalo muayyan idealni yoki davrimizning oliyjanob kishilari obrazini asos qilib olmog'i lozim. Bu ma'naviy boylikni, axloqiy soflikni va jismoniy kamolotni o'zida garmonik holda mujassamlashtirgan yangi odamlardir. Bunday yangi odam xarakterining xislati ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlikdir. Bizga yuksak ma'naviy fazilatga ega bo'lgan, halol vijdonli kishilar, tetik va xushchaqchaq kishilar, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, mustaqil jamiyat qurish yo'lida har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan, ularni bartaraf qilishga tayyor turgan kishilar kerak. Xarakterning taraqqiysida jamoaning roli Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyaviy roli nihoyat kattadir.

Inson yakka, bir-biridan ajralgan tanho hayot kechirmaydi, muayyan bir jamoada, chunonchi, muayyan oilada, maktabda, sexda, dalada hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi zvenodir. Odamning faoliyati o'yin, o'qish va mehnati xuddi mana shu jamoada voqe bo'ladi. Jamoa shaxsning eng yaqin aniq muhiti bo'libgina qolmay, balki shaxsni tarbiyalaydi ham. Kishi xarakterining kerakli ijobiy xislatlari faqat jamoadagina tarbiyalanmog' mumkin va haqiqatan ham jamoada tarbiyalanadi. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir etgandagina, ijobiy natijalarga yerishmog'i mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iylik, dadillik, sabotlilik singari ijo-biy xislatlari bolalar bog'chasidayoq bola o'yinlarida tarkib topa boshlaydi. Bolada maktabgacha tarbiya yoshida tarkib topa boshlagan xislatlar maktab jamoasida o'sadi va yanada yaxshiroq mustahkamlanadi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, inti-zom, saranjom-sarishtalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'Mish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib yetishadi. Xarakter maktab ta'lim-tarbiyaviy ishlari va o'qituvchining hartomonlama ta'sirida, o'qituvchi boshchilik qilgan o'quvchilar jamoasi, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati ta'sirida, ijtimoiy foydali mehnatda tarkib topadi. O'rtoqlari bilan yaqindan aloqada bo'lishda bolalarda o'z shaxsiy intilishlarini jamoa irodasiga bo'ysundirish ko'nikma va malakalarini o'stiradi, jamoachilik — o'rtoqlik va do'stlik hislarini taraqqiy ettiradi. Keyinroq maktabni (yoki oliy o'quv yurtini) bitirgandan keyin egallangan ixtisos va mehnat jamoasi inson xarakterining tarkib topishiga o'zini tarbiyalovchi ta'sirini ko'rsatadi. Maktab va mehnat jamoasi sharoitida jamoa oldida qabul qilingan qarorni (berilgan va'dani) yoki majburiyatni bajarish yuzasidan olingan o'zaro va shaxsiy majburiyatni xaraktemi, jumladan, xarakterning irodaviy belgilarini tarannum ettirishning muhim vositasi deb hisoblamoz. Buning samaraliligi shundaki, kishi o'zi uchun shaxsan qaror qabul qilganida u hech bir qiynalmasdan o'z qarorini bajarilishini kechiktirishi yoki uni bajarishdan voz kechishi mumkin. Bordi-yu, u shu qarorni boshqalarga, bu ishni falon vaqtgacha sifatini yaxshilab bajaraman, deb va'da (majburiyat) tarzida ma'lum qilgan bo'lsa, o'zining bergan bu va'dasini bajarmasdan qo'ymaydi. Bunday xatti-harakat (bergan va'dani bajarmaslik) kishiga «nomunosib» xatti-harakatdek tuyuladi. Bu esa uning nomusiga, tabiiyki, izzat-nafsigaga tegadi. Bunday hollarda kishi o'rtoqlari oldida uyalib va juda noqulay ahvolga tushib qolishi mumkin.

Kishi majburiyatni bajarmasa, noqulay ahvolga tushib qolishi mumkinligini oldindan bilib, shunday hoi yuz bermasligi uchun o'zining irodaviy faolligini ishga soladi va va'dasini o'z vaqtida bajaradi. Jamoa a'zolari oldida xuddi shu tarzda ixtiyoriy ravishda berilgan va'dalar va olingan majburiyatlar o'z-o'zidan tirishqoqlik, matonatlilik, mas'uliyatni his etish va intizomlilik kabi iroda sifatleri tarbiyalash vositasiga aylanadi. Jamoa sur'atda bajariladigan ma'lum

bir mehnat faoliyati kishida ijo-biy xarakter xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Har bir kasb o'zining spetsifikasiga ko'ra, kishidan alohida xarakter xislatlari bo'lishini talab yetadi va bu xislatlarning o'sishiga yordam qiladi. Kishi jamoa a'zosi sifatida boshqa odamlarga, mehnatga va o'z-o'ziga munosabatida o'z xarakterining har xil xususiyatlarini namoyon qiladi. Kishi jamoada muomala qilish jarayonida boshqalarning va o'zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xarakterning bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy yekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o'z xarakterini o'zi tarbiya-lash, jumladan, o'z xarakterini qaytadan tarbiyalash yo'liga soladi. O'z xarakterini o'zi tarbiyalash. Kishi xakteri faqat pedagoglar tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir etishning samarasi bo'libgina qolmay, balki o'z-o'zini tarbiya-lashning ham mahsulidir. SHu sababli har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xakteri va uning ayrim sifatleri uchun o'zi javobgardir.

O'z xakterini tarbiyalashda u kishi, avvalo, yaxshi fazilatlam, shaxs idealini o'zida tarbiyalab yetkazishni ko'zda tutmog'i lozim. SHu bilan bir vaqtda kishi o'z xakteridagi salbiy tomonlarni o'zi tan olishi, kamchiliklariga o'zi iqror bo'lishi kerak. O'z kamchiliklariga o'zi iqror bo'lish kishi xakterining ijobiy, progressiv xislatidir. O'z kamchiliklariga iqror bo'lish kishini o'z-o'zini tarbiyalash yo'liga boshlaydi. O'z kamchiliklariga iqror bo'lmaslik, ularni ko'rmaslik kishi xakterining eng yomon xususiyatidir. O'z kamchiliklarini ko'ra bilmagan odam oldinga qarab harakat qilishga, o'sish va kamololga yetishga layoqatsiz odamd.

Yomon xislatlarni yo'qotishga faollik bilan kirishmasdan, o'zida ularning borligiga iqror bo'lishning o'zigina kifoya qilmaydi. Iqror bo'lish zaif iroda va xakterning mavjudligidan dalolat beradi, xolos. Bunda tashabbuskorlik va iroda kuchini ham ishga solish kerak. Maktab o'quvchisi xakterining tarkib topishida o'z-o'zini tarbiyalash katta o'rin egallaydi. O'z-o'zini tarbiyalashga harakat qilish ko'p jihatdan atrofdagi odamlarning ta'siri va avvalo pedagogning ta'siri ostida tug'iladi va taraqqiy etadi. Tarbiyaviy ish o'sib kelayotgan yosh avlodda, jumladan o'z xakterida muayyan ijobiy xislatlarni o'zi tarbiyalash zaruriyatini paydo qilish va o'stirish hamdir.

Ota-onalar, o'qituvchi va tarbiyachilar boshqa tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda bolalarga o'z kamchiliklarini bilib olish va bu kamchiliklarni yo'qotish uchun harakat qilish hamda o'zlarida ijobiy iroda va axloqiy sifatlarni paydo qilish ustida mashq qilish zarurligini uqtirishlari lozim. O'z-o'zini tarbiyalashga intilishni paydo qilishda jamoaning roli katta. Ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda o'rta yoshdagi maktab davrining birinchi yillaridayoq o'quvchilarda o'z xarakterini o'zi tarbiyalashga intilish istagi sezilarli ravishda ko'rina boshlaydi.

O'smirlarda o'z-o'zini anglashning tarkib topishi asosida kishi shaxsiga xos bo'lgan yaxshi fazilatlarni o'zlarida paydo qilish masalasi tug'iladi. O'smirlar ko'pincha o'z harakatlarida faqat katta yoshdagi kishilarga yoki o'rtoqlariga taqlid qilibgina qolmay, balki har bir ishini o'z xohlaganlaricha qilishga, mustaqillikka, boshqalarga o'xshamaslikka intiladilar. Albatta, bu davrda ham bolalarda mustaqillikni uyg'otish va uni qo'llab-quvvatlash bilan birga pedagoglar bola shaxsining tarkib topishi jarayonida ularni doim yo'lga solib turishlari kerak bo'ladi. Lekin tarbiyachilik bunda o'smirlarning o'z ijodiy faoliyatlarini, tashabbuslarini ustalik bilan yo'lga sola bilishlari va ularning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishda ko'rsatayotgan o'rinli qat'iyatliklarini bo'g'ib qo'ymasliklari lozim. O'smirlardagi faollik va mustaqillikka bo'lgan intilishini tegishli izga solmoq kerak.

Kishi shaxsiga xos bo'lgan yaxshi fazilatlarni o'zida paydo qilishga intilish yuqori sinf bolalarida yana ham kuchliroq bo'ladi. Bunday intilish o'z-o'zini anglashning yana ham o'sib borishi, ulardagi dunyoqarashning tarkib topishi va bu yoshdagi bola shaxsida g'oyaviy yo'nalishning shakllanishi munosabati bilan, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Katta yoshdagi maktab bolalari axloq va xarakterning ijobiy xislatlari to'g'risidagi masalalar bilan juda ham qiziqadilar. Yigit va qizlarimiz kuchli va mustahkam irodaga ega bo'lishni istaydilar va shuning uchun ham ular, odda, o'z iroda va xarakterlarini tarbiyalash hamda o'zlarida iroda va xarakter tarbiyalab yetkazish masalalari bilan juda ham qiziqadilar. Ular iroda, xarakter o'stirish masalalariga oid ma'ruzalar linglashni vasubhatlar o'tkazishni, shu masalalarga oid adabiyotlar o'qish va munozaralar o'tkazishni sevadilar. Yigit va qizlarimiz, qat'iyat, sabot-matonat va qiyinchiliklarni bartaraf qilish, tamoyillik, dovyuraklik singari

xarakter xislatlarini o'zlarida tarbiyalab yetkazishga harakat qiladilar. Xarakterning irodaviy sifatlari tarkib topishida maktab o'quvchilari qiziqishlarining o'sishi katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilik yigit va qizlarda yuqori⁶ sinflarda o'qiyotgan davrlarida muayyan hayot ideallari bunyodga keladi, ular o'zlarining bo'lg'usi kasblarini tanlab oladilar. Bu qiziqish va g'oyalar sabotmatonatning o'sishiga, jasurlik, tashabbuskorlik, subutilik kabi irodaviy sifatlarning taraqqiy etishiga imkon beradi. O'quvchilarda xarakterning ijobiy irodaviy va axloqiy sifatlari tarkib topishiga ularning dunyoqarashlari, jumladan axloq tamoyillarini puxta yegallab olishlari katta ta'sir ko'rsatadi. Agar odam o'zining kundalik kayfiyatlari va xatti-harakatlarini ana shu tamoyillar asosida baholab borsa, unda o'z faoliyatini o'zi baholash tufayli xarakterning tegishli belgilari ham tarkib topadi. Xarakterning o'sishida namunaning ahamiyati Yuksak irodaviy va axloqiy sifatlari bilan hammaga manzur bo'lgan kishilar namunasi o'z-o'zida xarakter tarbiyalashning (umuman o'z-o'zini tarbiyalashning) juda muhim vositasidir. Odamlar o'z intilishlari va xatti-harakatlarida o'sha hammaga manzur bo'lgan kishilarga taqlid qilishlari kerak.

Yoshlarda xarakter xislatlami shakllanishida, uni tarbiyalashda ota-bobolarimiz bosib o'tgan mashaqqatli yo'llariga e'tiqodli bo'lishni o'rgatish, ular haqida bilim berish ahamiyatlidir. Chunki ular o'z Vatani, xalqining farovonligi yo'lida hatto o'limdan ham qo'rqmaganlar, o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish imkoniyati bo'lmaganda ham imkoniyat topganlar. Qomusiy olim, sharq mutafakkiri, tabobat ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino o'z davrida kasallik sirlarini (o'rganish man etilganiga qaramay) kechalari, sham yorug'ida qabristonda yangi ko'milgan murdalar qabrini ochib, ularni kesib (operatsiya) kasallik sababini o'rgangan. Ulug'bek esa osmoniy jismlarni o'rganish Xudoga shak keltirishi deb qaralgan davrda osmoniy jismlarni o'rgangan. Nomus, insof va haqiqatgo'ylik buyuk yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning hayotiy (amoyili edi. U 1926-yil 15-iyun, Samarqand shahrida sud qilinganida shunday ma'ruza qiladi: «So'zim oxirida odil sudlardan so'rayman: garchi men turli bo'xton, shaxsiyat va soxtalar bilan... ikkinchi oqlanmaydigan bo'lib qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qora ko'zlarning ko'ngli uchun bo'lsa ham mcnda eng oliy bo'lg'on jazosi bera ko'ringiz. Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi

bo'lmagan sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so'rayman». A.Qodiriy haqiqat yo'lida o'limni afzal ko'rdi. O'zbek she'riyati osmonida yorqin yulduzdek, ko'zni qamashtiruvchi chaqmoqdek paydo bo'lgan Usmon Nosimi avval Toshkentda, keyin Magadan, Kemirova turmalarida inson tasawuriga sig'mas usullar bilan qiynashdi. SHunda ham shoir o'zligiga sodiq bo'ldi. Gunohsiz kishilarni badnom qilmadi, yovuz tuzumning qonxo'r tergovchilari talab qilganidek beayb odamlarga tuhmat qilmadi. Adoqsiz qiynoqlar, odam zoti chidab bo'lmaydigan sharoit, tutqunlik azobi U. Nosimi o'ttiz ikki yoshida 1944- yilda hayotdan olib ketdi. Yurtini, yurtdoshlarini jonidan ortiq ko'rgan shoir begona yurtda, begona kishilar orasida, begona qabrda qoldi. Bashoratchi shoirning jismini millatimiz, mustaqilligimiz, ozodligimiz dushmanlari qora yerga tiqqan bo'lsalarda, uning jarangdor she'riyatini, ozodlikka chorlovchi Erkin ruhini yo'qota olmadilar Toki yurtimizda haqiqatga tashna, go'zal so'zga intiq, erkka chanqoq kishilar bor ekan. Usmon Nosirning ismi boqiydir. Uning hayot yo'li yoshlar uchun namunadir. Ulardan yoshlarimiz ibrat olib o'z-o'ziga, xalqiga, yurtiga, mehnat va o'qishga bo'lgan munosabatlarida, o'z xarakterini tarbiyalashda ularga taqlid qiladilar. Yoshlarimiz zahmatkash xalqimizni kechani-kecha, kunduzni-kunduz, qishning chillasi, yozning issig'i demay ko'rsatgan jasoratlari yoshlar uchun namuna bo'lib qolaveradi.

Ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar bolalarga taqlid uchun misol bo'la oladilar, albatta. SHuning uchun ota-onalar ham, o'qituvchilar ham, tarbiyachilar ham o'z xatti-harakatlarida xalqimizning ijobiy sifatlarini namoyish qilishlari lozim. Bunday sifatarni namoyish qilish uchun esa kishining o'zi ulami egallagan bo'lishi kerak. So'zlar vositasida har bir narsa o'rgatilsa, namuna yordamida taqlidchanlikka qiziqish uyg'otiladi, deyдилar. Xarakterni tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashda faqat qanday xislatlarni o'stirish kerakligini anglab yetishning o'zigina kifoya qilmaydi, ijobiy xarakter namunalarini bilishning o'zigina kifoya qilmaydi, ayrim xarakter hislarining qimmatli ekanligini tushunishgina ham kifoya qilmaydi, balki yana shu xislatlarga muvofiq ish qilish, bu xislatlarga ega bo'lish uchun ko'p mashq qilish ham kerak bo'ladi. Kishi

xarakteri kishining faoliyatlarida, uning boshqalar bilan qiladigan munosabatlarida namoyon bo'ladi va ayni shu faoliyat hamda munosabatlarda tarkib topadi. Insonning yaxshi xarakter fazilatlarini Vatanimiz gullab-yashnashida faol ishtirok etish jarayonida tarkib topadi.

Psixologiyada xarakter muammosi. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter hislatlarida o'z ifodasini topadi. Xarakter tushunchasi yunon so'z bo'lib, «xarakter» bosilgan tag'ma yoki qiyofa, hislat degan ma'noni anglatsada lekin u psixologiyada torroq mazmunda qo'llaniladi. Xuddi shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter hislati tarkibiga kiritib bo'lmaydi, chunonchi, aqlning ziyrakligi, toyqirligi, xotiraning barqarorligi, ko'rishning o'tkirligi idrokning tanlovchanligi singari individual psixologik xususiyatlar bunga yorqin misoldir.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanishi bilan bir-biriga mohiyati bilan muvofiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullari bilan bogliq, faoliyat, muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi, uning barqaror individual xususiyatlari majmuasi xarakter deyiladi. SHaxsning tabiatga, jamiyatga, o'ziga, ashyolarga (narsalarga) nisbatan munosabatlari uning asosiy va muhim belgisi bo'lib hisoblanadi. Odatda shaxsning munosabatlari xarakter hislatlarining individual o'ziga xos xususiyatlarini ikki xil yo'sinda aniqlash imkoniyatiga ega.

1. SHaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qandan vaziyat, sharoit, holat, muhit hissiy kechinmalarining individual o'ziga xos hislati uning - munosabatlariga bog'liq. Misol uchun, ishlab chiqarishga yaqinda kelgan A. B. ning xarakter hislati mana bunday ro'yobga chiqadi: korxonada ma'yus, o'zini jamoada noxush sezadi, tortinchoqlik, rahbar va hamkasblaridan cho'chiydi, xonadonida (mahallada) va tengdoshlari davrasida ko'tarinki ruxda, kayfiyati a'lo darajada, ular bilan munosabati ilik, vaqtichog', o'zini atrofdagilarga yaqin tutadi. Ushbu hodisani to'g'ri baholash uchun A. B.ning xarakter hislatlarini aniqlash, uning namoyon qilgan harakatlari va qiliqlarini tasvirlash bilan cheklanib qolmasdan, balki

bir nechta holatdagi hissiy kechinmalarini yaqqol tahlillash hamda voqelikni to'g'ri tushuntirishga erishish lozim.

2. Har qanday favquloddagi tipik holatdagi (muhitdagi) harakatning sifatlari hamda individual o'ziga xos usullari shaxsning munosabatlariga taalluqlidir. Jumladan, Yuqorida keltirilgan misolda A. B. ning xarakteri uning o'zini ishxonada ham mahallada tutishida o'z ifodasini topadi. SHu bilan birga xarakterni hislati hisoblanmish mehnatsevarlik: a) mehnat insonga rohat tuyg'usi keltirishida, ishsizlikda afsus chekishida; b) atrofmuhitdagi narsalarga diqqatini chalg'itmay, vaqtni behuda sarflamay, vujudi bilan vijdonan mehnat qilishida ro'yobga chiqadi.

3. SHaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari nafaqat uning munosabatlariga aloqador, balki insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlari yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga ham bog'liqdir. CHunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatini aks etgizishga emas, balki boshqa omillarga: a) diqqatning to'planishiga (markazlashuviga), b) harakatlarning aniqligi, maqsadga yo'nalganligiga, v) irodaviy zo'r berishga, g) usullar mahsuldorligiga, d) aqlning ziyrakligiga bog'liq. Xarakterni aqliy, hissiy, irodaviy hislatlarga ajratishni harakat usullaridan hamda xilma-xil ruhiy jarayonlarning ustuvorlik qiluvchi ta'siridan kelib chiqqan holda amalga oshirish mumkin.

Xarakter hislatlari shaxsiy muayyan faoliyatga undovchi omil sifatida maydonga chiqishi mumkin. Ma'lumki, xarakterni aksariyat hislatlari shaxsning xatti-harakatlari muvaffaqiyatini belgilovchi turtki va faol mayllar bo'lib hisoblanadi. Odatda shaxslar o'zaro o'xshash sharoitlarda bir xil motivlar va munosabatlarga asoslanib, aniq maqsadga intilib, maqsadga erishishga mutanosib harakat usullarga nisbatan moyillikni namoyon etadilar. Moyilliklar negizida xarakter xislatlarining undovchanlik kuchi vujudga keladi va uning ta'siri tufayli inson tabiiy sharoitga zid, maqsadga nomuvofiq xarakat usullaridan foydalanadi.

SHaxs ba'zida o'z xarakter hislatidan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishni uddasidan chiqmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyatsizlikdan xavfsirashga qaraganda, ular o'z yutuqlarini yuksakroq qadrlaydilar va yuqori baholaydilar. Muvaffakiyatsizlik

ular uchun halokatli hodisa emas, shuning uchun «tavakkalchilik»ka qo'l urishda davom etaveradilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyatsizlikdan cho'chidilar, o'ta ehtiyotkor bo'ladilar, qiyinchilikdan yuz o'giradilar, yengil ishga qo'l urishni lozim topadilar.

Maqsadga nomuvofiq, lekin shaxs uchun o'ziga xos harakat usullarinitanlashga moyillik kuchli irodaviy zo'r berish sharoitlarida, jiddiylilik (zo'riqish) vaziyatlarida yorqin aks etadi. Inson uchun o'ziga xos harakat usuli favquloddagi sharoitda maqsadga muvofiq kelsa, u holda o'z hislatiga nomuvofiq, bir-xil yo'sindagi usullardan foydalanishga qaraganda, ko'p kuch-quvvat, qat'iylik, ishchanlik namoyish qilishni ma'qul topadi. Mabodo xarakter hislatlari tabiiy (obyektiv) sharoit talabiga qarshi harakat qilishga undasa, uning hislatlari o'ziga xalaqit va pand beradi. Xarakter hislatlari sharoit, vaziyat talablariga muvofiq tushsa, u holda ular ijobiy vazifa bajaradi, bunda shaxs ijobiy faoliyat ko'rsatadi, butun kuch-quvvatini jamlab harakat qilishga imkon tug'iladi.

SHunday qilib, xarakter hislatlari shaxsni muayyan yo'sinda intilishiga, ba'zida sharoitga zid harakat qilishga undash bilan birga, ular murakkab vaziyatlarda yorqin ro'yobga chiqadilar. Haqqoniylik, dadillik, to'g'rilik shaxsni noxush kechinmalarga olib kelishiga qaramay, uni davralarda haqiqatni tik aytishga undaydi, sobitqadamlikni shakllaitirishga xizmat qiladi.

Xarakterning fiziologik asoslari. Xarakter hislatlari kelib chiqishining muhim fiziologik sharoitlaridan biri-xarakter xususiyatlarining fiziologik hamda psixologik jixatdan ifodalanishi o'rtasida o'xshashlik bo'yicha taxminiy hulosa chiqarishdir. Ma'lumki, I.P.Pavlov ilmiy maktabi materiallarida e'tirof etilishicha, laboratoriya sharoitida ovqatlanish orqali, shuningdek, teriga elektr toki bilan ta'sir qilish tufayli mustahkamlashda aynan bir hayvonda bir xil shartli qo'zg'ovchiga javoban ikki xil dinamik stereotipni hosil qilishi mumkin. Harakat stereotiplar va so'lak ajralishidan iborat ijobiy va tormozlanish shartli reaksiyalari bilan javob qaytaradi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilish sharoitida esa qo'zg'ovchilarning o'ziga mudofaa harakatlari stereotiplari reaksiyasi bilan javob beradi. Bu hodisalar negizida yotgan fiziologik mexanizm ko'chirish mexanizmi deyiladi. Ko'chirish mexanizmining mohiyati shuki, sharoitga bog'liq tarzda markaziy nerv sistemasida har xil funksional

holat paydo bo'ladi, chunki, ovqatlanishda ovqatlanishning markazlarida kuchli qo'zg'alish yuzaga keladi va bunda ovqatlanish bilan bog'liq dominanta tug'iladi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilishda mudofaa bilan bog'liq harakat markazlari kuchli qo'zg'alishi tufayli muhofaza (mudofaa) dominantasi vujudga keladi.

Hayvonlardagi mazkur hodisalarning shaxs xarakterining hislatlari namoyon bo'lishi bilan o'xshashligi mavjud: 1) ular hayvonlar va odamlar uchun stereotip xususiyatga ega; 2) sharoitga bog'liq holda odamlarda va hayvonlarda bir ko'zg'ovchiga javoban xilma-xil stereotip xususiyatli reaksiyalar tizimi vujudga keladi; 3) fuyaksional xolatlar har ikkalasida ham barqaror va doimiy xususiyat kasb etadi. Funktsional xolatlar hosil bo'lishining tashqi omillariga asoslanib; xarakter xislatlari shakllanishining fiziologik sharoitlaridan biri ko'chish mexanizmi asosida dinamik stereotiplarning vujudga kelishidir.

Xarakter hislatlarining dinamik stereotiplarga bog'liq nerv sistemasining shartli reflektor funksional xolati shaxsning sharoitga nisbatan turlicha munosabatiga bog'liqdir. Masalan, tajribaga nisbatan tekshiriluvchi munosabati o'zgartirilsa, unda nervjarayonlarining qo'zg'oluvchanligi, xarakatchanligi, to'xtalishi kuchayadi, demak, nerv sistemasining funksioial holati o'zgaradi. SHunday qilib, xarakter hislatlarining asosi ko'chish mexanizmi insonlarda xayvonlarnikidan keskin tafovutlanadi, chunki unda ikkinchi signal sistemasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarakter hislatlarining namoyon bo'lishi bilan nerv sistemasi qiyoslansa, u holda birinchisining ro'yobga chiqishi o'zgacha fiziologik sharoitga asoslanishi mumkin. Sobiq sovet psixologiyasida ta'kkidlanishicha, nerv sistemasi umumiy tipining zid xususiyatlari psixologik jixatdan zid harakat usullariga mos tushadi. B. M. Teplov, V. S. Merlin, E. A. Klimovlarning tadqiqotlarida, o'qish, sport va mehnat faoliyatlarida xarakat usullarining individual farqlari aniqlangan. Xuddi shu bois xarakter hislatlari paydo bo'lishining o'zgacha fiziologik sharoiti nerv sistemasi umumiy tipining xususiyatlari hisoblanadi. Ma'lumki, nerv sistemasining umumiy tipibu temperamentning fiziologik asosi hamdir. SHuning uchun tempe-rament tipi xarakterning individual o'ziga xos hislatlarining ro'yobga chiqishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi. I. P. Pavlov tajribasining ko'rsatishicha, muayyan tizimda

tashqi ta'sir hukm surganda nerv sistemasi umumiy tipining xususiyatlarsha taalluqli dinamik stereotipning shakllanishiga qulaylik vujudga keltirishi yoki, aksincha, xalaqit berishi mumkin.

Xarakter hislatlari va shaxsning munosabatlari. SHaxsning xarakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter hislatlarining muayyan qismida xabardor bo'lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'glimizga keladi.

Odatda psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. «Simptom» yunon sympoma belgi, mos tushish, «kompleks» lotincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida muloxaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish, o'zidan mag'rurlanish, maqtanchoqlik, o'zbilarmonlik, urishqoqlik, keksaklash kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotlilik, dilkashligi, haqqoniyliги bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter hislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

SHaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakter hislatlarining to'rtta tizimga ajratish qonuniy xolatga aylangan:

1. Jamoaga (guruhga) va ba'zi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: yaxshilik, mexribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar.

2. Mehnatga nisbatan munosabatlarni mujassamlashtiruvchi xususiyatlar: mexnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, mas'uliyatsizlik kabilar.

3. Narsalarga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar: ozodalik, ifloslik, ayash, ayamaslik va hokazo.

4. SHaxsning o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi hislatlar: izzat-nafshilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, takabburlik, dimog'dorlik, kamtarinlik, samimiylik va boshqalar.

SHartli ravishda qabul qilingan «shaxs va atrof-muhitdagi insonlar» simptomokompleksi o'z tarkibiga nafaqat boshqa shaxslarga

nisbatan munosabatlarni, balki o'ziga qaratilgan munosabatlarni mujassamlashtiruvchi hislatlar ham kiradi, chunonchi, o'ziga ishonch, o'zbiarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik yoki aksincha xususiyatlar shular jumlasidandir. SHunday qilib, «shaxs va atrof-muhitdagi insonlar»degan shartli nom berilgan hislatlar tizimi o'zga kishilarga, jamoa (guruh) a'zolariga va o'ziga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlarni birlashtiradi. Turlicha munosabatlar o'zaro bir-biriga bog'langan tarzda muayyan tizimni tashkil qiladi, natijada «men-biz» munosabati o'zaro o'rin almashtirib turadi, ya'ni o'ziga qaratilgan munosabat guruhiy xususiyat kasb etadi.

SHuning uchun shaxsning turlicha munosabatlari o'zaro bog'liqligi uning xarakteri tuzilishi xususiyatlari bilan uyg'unlashib ketadi. Umumiy va xususiy munosabatlar xarakter hislatlari bilan birlashgan holda muayyan ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu boisdan insonning xarakteri nisbatan butun, yaxlit xususiyatga ega. SHaxs munosabatlarining kelib chiqishiga asoslanib, ular markaziy (asosiy) va ularga tobe, hosilaviy munosabatlarga ajratiladi. SHaxsning markaziy (asosiy) munosabatlari ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanganligi tufayli, bunday munosabatlar hamisha sosialtipik xususiyatga egadir. Masalan, ijobiy hislatlar mujassamlashgan shaxsning asosiy munosabatlari o'zga odamlarga, jamoa (guruh)ga nisbatan munosabatlarida ifodalanadi. SHunday qilib, xarakter hislatlarining individual o'ziga xosligi, betakrorligiga qaramay, uning tuzilishi negizida hamma vaqt shaxsning sosialtipik markaziy (asosiy) munosabatlari yotadi.

Xarakteming tuzilishi qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda muhim tarbiyaviy xulosalar chiqarish mumkin. Xarakter hislatlarining ba'zi nuqsonlarini (qo'pollik va yolg'onchilikni) bartaraf qilish, uning ijobiy xususiyatlarini (xushfe'llik va haqqoniylikni) shakllantirish muddaosi rejalashtirilgan dasturda amalga oshirib bo'lmaydi. CHunki insonlarga nisbatan to'g'ri munosabatni tarkib toptirmay turib, illatga qarshi kurashib, ijobiy fazilatni shakllantira olmaymiz. SHu narsa ma'lumki, shaxsda o'zaro bir-biriga bog'liq xususiyatlarning yaxlit bir tizimini tarkib toptirish mumkin, xolos. Mazkur jarayonda xususiyatlar tizimini shakllantirishning muhim shartlaridan biri-bu shaxsning markaziy (asosiy) munosabatlarini tarkib toptirishdan iboratdir.

SHaxs xarakterining yaxlitligi busbutunligi mutlaq narsa emas, albatta, chunki insonning asosiy munosabatlaridan biri boshqa barcha munosabatlarni to'la belgilay olgandagina xarakter mutlaq xususiyat kasb etadi. Lekin shaxsning munosabatlari ijtimoiy munosabatlarning aks ettirilishidan iboratligi tufayli uning munosabatlari bilan xarakter hislatlari o'rtasida ziddiyat hukm suradi. Bundan xulosaga kelgan holda shaxsning xakteri nisbiy juhatdan yaxlitdir deyishimiz mumkin, biroq uning bir butunligi ham individual, o'ziga xos xususiyatga egadir. Yaxlitlik nuqtai nazaridan qaraganda, turli qarama-qarshi xususiyatli shaxslar mavjuddir. Xarakterdagi qarama-qarshiliklar oqibatida harakatlarda va inson xulqida shunday holat hosil bo'ladi va ijtimoiy-ahloqiy me'yorlarni buzishni yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatda harakatdagi kamchiliklar bilan kurashishning asosiy yo'li bu shaxs xakteridagi qarama-qarshiliklarni yengishga o'rganishir.

Xarakterning tuzilishi ba'zi hislatlarning o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki uning yaxlitligiga mutanosib xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Xarakter tuzilishining qatoriga ularning chuqurlikdarajasi kiradi va shaxsning asosiy munosabatlari bilan belgilanadi. Insonning boshqa odamlarga, jamoaga, mehnatga nisbatan fidoiy munosabatda bo'lishida belgilanuvchi xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar deyiladi. Mazkur mezonga qarab, shaxslarning farqlanishini yuzaki tasavvur qilmaslik kerak, chunki insonga beriladigan tavsifnoma simptomokomplekslarni ta'kidlab o'tishi bilan cheklanmasligi lozim. Aks holda shaxsning psixologik kiyofasining tavsifnomasi: birinchidan, simptomokomplekslarni chuqurroq joylashtirishni, ikkinchidan, muayyan darajada chuqurroq mujassamlashtirishni, uchinchidan, bir o'z yuzakiroq tizimni ajratishni taqozo qiladi.

Xarakter tuzilishi xususiyatlari jumlasiga faollik yoki xarakter kuchi kiritiladi va shunga asosan insonlar kuchli hamda kuchsiz xarakter turlariga ajratiladi. SHuningdek, xarakter tuzilishi xususiyatlari tarkibiga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi ham kiritilgandir. Xakterning barqarorligi ham, o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zaruriy shartlaridan hisoblanadi. SHaxsning xarakter xususiyatlari turlicha turmush sharoitlarida, qarshilik qiluvchi vaziyatlari uchrashiga qaramay, uning xatti-harakatlarini boshqaradi. SHu boisdan inson tashqi vaziyatga bog'liq

bo'libgina qolmasdan, balki tashki vaziyatni uning shaxsan o'zi yaratadi, shuningdek, maqsadga muvofiqlashtiradi.

Bundan tashqari shaxsning turmushdagi zaruriy shartlaridan biri-bu xarakterning muayyan darajada plastikligidir. Xarakterning plastikligi ikki xil ma'no kasb etadi. Xarakterning plastikligi uning barqarorligi singari muhitga faol ta'sir o'tkazishning shartlaridan hisoblanadi. Ish-amallari maqsadga muvofiq va foydali kechishi uchun ular o'zgaruvchan tashqi sharoitga moslashishlari lozim. Xarakterning plastikligi, mustahkamligi uni shakllantirishning zaruriy sharti sanaladi. Xarakterning barqarorligi, plastikligi o'ziga xos individual xususiyatga ega bo'lib, uni tuzilishining hislati sifatida mujassamlashadi.

Xarakter xususiyatlarining kuchi va barqarorligi markaziy tizimga bog'liqligiga binoan muayyan darajada shaxs munosabatlarining mazmuni bilan belgilanadi. Biroq ular munosabatlar mazmuniga bog'liqligiga qaramay, ba'zan yuzaki xususiyatga ham ega bo'ladi.

Xarakterning tarkib topishi. Psixologiyada irsiyat bilan xarakterning munosabati to'g'risida xilma-xil qarashlar mavjuddir (Krechmer, SHeldon va boshqalar). Aksariyat psixologlarning e'tirof etishlaricha, organizmning nasliy xususiyatlari xarakter hislatlarining paydo bo'lishidagi shartlaridan biri hisoblanadi, xolos. Ma'lumki, xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar tavsiflanadi. Ushbu masalani irsiyatga bog'lab tushuntirish gomozigot egizaklarni o'rganish orqali inkor qilinadi, chunki ularning nasliy xususiyatlari aynan bir hildir. Ular temperament xususiyatlari bo'yicha tubdan o'xshash bo'lsalarda, lekin xarakter hislatlariga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladilar. SHuning uchun xarakterning shaxs turmush sharoitiga bog'liqligini: a) uning fiziologik asosi ham, b) tashqi taassurotlar tizimi tufayli vujudga keladigan shartli reflektor funksional holati ham tasdiqlaydi.

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta'sirida amalga oshadi. Xarakterning har bir xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq bo'lsa, bular o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir xil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter hislatlari shakllanadi. SHu sababdan ijtimoiy tuzumni tavsiflovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy tipik xususiyatlariga emas, balki xarakterning individual xususiyatlari

(hislatlari) tarkib topishiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog'liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida xayrixoxlik, o'rtoqlik, o'zaro yordamlashish, xamkorlik yoki, aksincha, johillik, zolirnlik, badjaxllik kabi shaxslararo munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muxit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning miqdori, yoshidagi fauqi, nizoli vaziyatlar ko'rinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi. Bolalar bog'chasidagi, maktabdagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning maxsus hislatlarini tarkib toptiradi. Mexnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ham xarakter xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlar yuzaga keladi. Ilk yoshlik davrida shakllangan xarakter hislatlari nihoyat darajada barqaror bo'lib, ularga ayrim o'zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. SHaxsda mayllarning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog'liq holda tarkib topgan muncsabatlar o'zining mustahkamligi bilan ajralib turadi.

Xarakter hislatlarning chuqurligi, barqarorligi, doimiyligi ko'p jixatdan shaxs munosabatlarining onglilik darajasiga bog'liq. Insonning haqqoniylik, mexnatsevarlik hislatlari tasodifiy tarkib topmagan bo'lib, uning ongli qarashlariga, ishonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda xam namoyon bo'laveradi. Mamlakatimiz fuqarolari xarakterining kuchi va mustahkamligi ularning istiqlol nashidasidadir va vatanparvarlik yuksak his-tuyg'usidadir. SHunday qilib, psixikaning individual sifat xususiyatlari shaxsning ijtimoiy-tipik mumosabatlari bilan qo'shilgan taqdirdagina xarakter hislatlarini belgilash tavsiflash imkoniyati vujudga keladi. Psixikaning individual xususiyatlari orasida temperament xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. CHunki xarakter bilan temperamentning o'zaro munosabati ularning fiziologik asoslari bilan belgilanadi. Xarakter xususiyatlarining tashqi jihatdan namoyon bo'lib, aynan shu tarzda muayyan vaqt mobaynida kechishi dinamik xususiyat deyiladi. Xarakter hislatlarining dinamik xususiyati temperament xususiyatlariga bog'liqdir. Ana shu holatga muvofiq ravishda temperament xususiyatlari ham xarakterning ma'lum hislatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir o'tkazishi yoki qarshilik qilishi mumkin. Xarakter hislatlarining vaqt davomida tashqi namoyon bo'lib o'tishi ham temperament tipiga bog'liq.

Taraqqiyot va tarbiyaning ijtimoiy sharoitlari hamda ularning psixikaning irsiy individual xususiyatlari bilai o'zaro munosabati xarakter hislatlarini to'g'ridan-to'g'ri tavsiflamaydi, balki shaxsning faoliyati orqali belgilaydi. Uning faoliyatiga taalluqli aynan bir xil ijtimoiy sharoitda ham xuddi shu bir xil irsiy xususiyatlardan turli xarakter hislatlari shakllanadi. Xuddi shu boisdan xarakterning rivojlanishi shaxsning faol faoliyati jarayonida uning xatti-harakatlariga bog'liq tarzda amalga oshadi. Xarakterning tarkib topishida faol faoliyatning ro'li shundaki, xuddi shu faol faoliyatida xarakterning ifodalaydigan harakatning indivi dual o'ziga xos usullari tarkib topadi. Harakat usullarining avto-matlashuvi muayyan dinamik stereotip hosil qilinishi bilan bog'liq shartli reflektor funksional holatning mahsulasidir. Avtomatlashuvining bir necha turdagi psixologik mexanizmlari mavjud bo'lib, ulardan biri-bu odatlardir. Xarakter hislatlari tarkib topishining muhim shartlaridan biri-bu hislatlarni zaruriy xatti-xarakatlarda chidam bilan mashq qilishdan iboratdir.

Xarakterning tarkib topishida taqlidchanlikning ro'li katta bo'lib, harakat usullari avtomatlashuvining bosh manbai hisoblanadi. Tarkib topish jarayonida taqlidchanlikning ahamiyati ko'p jixatdan ifodali xati-harakatlarning shaxs emosional (hissiy) kechinmalariga ta'siri bilan belgilanadi. Taqlidchanlik xatti-harakat namunasiga taqlid qilish uchun mo'ljallangan shaxs munosabatlari tomonidan motivlashtirilgandagina xarakter hislatlari shakllanishining shartiga aylanadi.

Xarakterning shakllanishida muayyan psixik faoliyatga yaxlit obyektiv va subyektiv mayllik tarzidagi ko'rsatma berish (ustanovka) psixologik mexanizm negizida yuzaga kelgan avtomatlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatma (ustanovka) odatlaridan farqli o'laroq, muayyan harakatlarga tayyor turishgina bo'lib qolmay, balki bilish jarayonlariga, hissiy va irodaviy reaksiyalarga ham tayyor turishlikdir.

Xarakterning hosil bo'lishida nizoli vaziyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xarakter faqat murakkab va keskin vaziyatlarda (sharoitlarda) yorqin namoyon bo'libgina qolmasdan, balki mazkur holatlarda u tarkib ham topadi. Odatda xarakter hislatlarining o'zgarishidagi individual farqlar shaxsning nizoli vaziyatdan chiqish uchun qanday yo'l-yo'riq topishiga bog'lik, binobarin, inson sharoitdan kelib chiqib, qanday xatti-harakatni amalga oshirishga

qaror qiladi. SHunday qilib, shaxs o'zining butun hayoti va faoliyati davomida o'z xatti-harakatlari, odatlari bilan o'z xarakter hislatlarini o'zi yaratadi va ularni boshqarishga odatlanadi.

QOBILIYATLAR

Psixologiyada qobiliyat tushunchasi. Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. SHuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Qobiliyatlar - shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Qobiliyatli bola kim?

Qobiliyat ko'p qirralidir. Yosh bolalardagi qobiliyatning ko'rinishi —bu nutqning erta paydo bo'lishi va juda ko'p bo'lgan lug'at boyligidir. Bundan tashqari qobiliyatli bolalar tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqealarga o'ta qiziquvchan bo'ladilar. Iste'dodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'lishini mutaxassislar e'tirof etganlar. Qobiliyat asosan uch o'zaro bog'liq parametrlar bilan aniqlanadi: bilim darajasining ustunlik, psixologik rivojlanish, fiziologik sifatlari.

Qobiliyatli bolada bilish jarayonlari: Ular bir vaqtning o'zida juda ko'p ishlar bilan shug'ullanadilar, ular juda qiziquvchan bo'ladilar, kuchli xotiraga egadirlar va diqqatlarini bir joyga to'play oladilar.

Qobiliyatli bolada psixologik rivojlanish: Haqiqat hissi yaxshi rivojlangan, qadriyatlarining shaxsiy tizimi, hayolning o'ta rivojlanganligi, hazil hissining mavjudligi, o'zlari uchun to'g'ri kelmaydigan vazifalarni yechishga xarakter qilishi, ular qo'rquv holatini oshirib yuborishlari ham mumkin, ularda egotsentrizm kuchli bo'ladi.

Qobiliyatli bolada fiziologik sifatlar: Qobiliyatlilarda ikki xil streotip mavjud: biri ozg'in, kichkina nimjon bola yoki uning aksi. Iste'dodlilar juda kam uxlashadi.

Rus olimi I.P.Pavlov o'z ta'limotida «badiiy», «fikrlovchi», «o'rt» tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimidan iboratligi to'g'risidagi ta'limotga asoslanadi. Birinchi signallar tizimi obrazlar, emotsiyalardan va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signal tizimi I.P.Pavlov tomonidan «signallarning signali» deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson «*badiiy*» tipga taaluqlidir;

2) mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo'lsa, bu shaxs «*fikrlovchi*» tipga mansubdir;

3) agarda, har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) bu inson «*aralash*» tipga mansub odamdir.

Iste'dodli bolalar bilan ish olib borishda mutaxassislarning fikri iste'dodli bolalar bilan ishlashda Karne, SHvedal, va Linnemayerlar quyidagi mezonlarni ishlab chiqqanlar:

Har bir bola takrorlanmasdir. Ba'zilar she'r yozish, insholardan, ba'zilar matematikadagi qobiliyati bilan ajralib turadilar. Oddiy maktabda musiqaga qobiliyati bor o'quvchini xam ajrata olmasligimiz mumkin. Uchinchi bir bola esa yuqori intellektli (IQ) bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o'zini baholash mezoni juda past bo'lishi mumkin. SHu orqali xar bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonini bilishimiz lozim. SHu orqali iste'dodli bolalar bian ishlash rejasini tuzish mumkin.

Iste'dodli bolalar o'zlariga nisbatan juda tanqidchandirlar. Ular o'z «men»ini rivojlantirishga xarakat qilishlari kerak. Yaqin qarindoshlarining ta'siri iste'dodli bolalar uchun juda muximdir.ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar.

Iste'dodli bolaning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o'mi juda kattadir. Agar oila maktab o'zaro aloqada bo'lsa, bu eng yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

Iste'dodli bolalar uchun turli xil o'quv rejasini tuzish. Iste'dodli bolalarning qiziqish va extiyojlarini inobatga olib o'quv rejalari ishlab chiqilishi lozim. Ko'pgina iste'dodli o'quvchilarning qiziqishlari ko'p qirralidir.

Iste'dodli bolalar oddiy bolalar bilan o'qigan taqdirda xam, iste'dodli boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak.

Iste'dodli bolalarning dasturi xar tomonlama mukammal bo'lishi zarur.

Iste'dodli bolalarni o'qitish uchun tuzulgan rejani shu sohadan xabardor bo'lgan rahbarning o'zi nazorat qilgan taqdiridagina samara berishi mumkin.

Iste'dodli bolalarni o'qitishning namunali rejasining ish faoliyatiga bevosita tadbiiq qilish kerak.

Ota-ona va mutaxassislar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari muhimdir. Bu hamkorlik iste'dodli bolalarning iste'dodini rivojlantirish uchun xam muhimdir.

Bolaning o'ziga nisbatan bahosini bilishimiz muhimdir. Bola o'zinig oldiga qo'ygan qanday vazifalarni bajarilayotganligini ham bilish kerak, ota-ona bundan xursanmi?

Faqat reja mavjud bo'lsa, ota-ona ham, mutaxassis xam bola o'z oldiga qo'yayotgan misollarni yechayotganligini bilishi mumkin.

Namunali dastur rejalashtirilgan , effektiv va doimiy faoliyatdagi sistemani ko'rsatish kerak va bunda ota-onaning o'rmini ham ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Dasturning optimal jixatlarini ko'rishi kerak, bola bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini ta'minlash kerak.

Dastur qat'iyatlilik va maqsadga intilishni rivojlantirishi kerak. Yuqori bo'lishi juda katta axamiyatga yega emas. Maqsadga intilish va boshilagan ishini oxirigacha yetkazishi muhimdir.

Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdir.

Iste'dodli bolalar bilan ishlashda ta'slantli tarbiyachi, o'qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar maktabga xam, ota-onalarga ham juda zarurdir.

Psixologik xarakteristika. Qobiliyatli bolalar juda katta energetik kuchga ega, ular juda kam uxlashadi. Ularning qo'l harakatlari bilish qobiliyatlaridan biroz orqada qoladi. Ularga amaliyot muhimroqdir.

Intelektual va fiziologik rivojlanishdagi farqlar ularning mustaqilligini bo'g'ishi mumkin.

Qobiliyatli bolalarning ko'rish qobiliyatlari (8-yoshgacha) o'zgaruvchandir, ularning bu qobiliyatlari pasayib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. SHuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

Qobiliyatlarni o'lchash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashxur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash - qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharok usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lchashning ishonchli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Rus olimi Ye.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - xunar sohalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so'rovnoma» deb atadi. SHunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

P(T) - tabiat (usimlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari) ;

CH(O)- odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli ma'lumotlar, belgili simvollar);

X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir

yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam o'zining aqli bo'lishini xohlaydi, «Men aqlliman» demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. «Aqlsiz, nodon» degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham hafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning sharq halqlarida biror kimsaga nisbatan «o'ta aqli» yoki «o'ta nodon» iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: «Falonchining o'g'li anchagina aqli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini ko'ydirayotgan emish» degan iboralar aslida «aqllilik» kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), mikdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

CH. Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilzford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavxumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potentsialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual potentsial esa bir tomondan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomondan - shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarni oldindan bashorat qilishga imkon

beradi. SHu o'rinda «intellekt» so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik.

Intellekt - lotincha so'z - intellectus - tushunish, bihish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari - kelajagini XXI asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota - bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlari juda tez o'zlashtirib olmoqda, jaxon tillaridan bir nechta bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishda qiynalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xoxlagan sohia predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi. Hattoki, bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham o'ta tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni yechishni xohlaydi.

Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan.

Talant (yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat degan ma'noni anglatadi) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat individual xususiyatdir. Talantning asosiy belgilari:

Muvaffaqiyatni ta'minlash;

Faoliyatni mustaqil bajarish;

Originallikning mavjudligi;

Qobiliyat va iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi;

Individual-psixologik xislat ekanligi;

Ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi yaratuvchi imkoniyatligi.

Talant qobiliyatlar yig'indisi yoki ularning yig'indisidan iborat bo'lishiga qaramay, alohida olingan yakka qobiliyatni, hatto u taraqqiyotning yuksak bosqichiga erishgan, yorqin ifodalansa ham u bilan tenglashtirish mumkin emas.

Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatlار *layoqatlar* deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan - oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoklarning biologik va fizilogik sifatlari, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nastiy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug'ilishi bilan uni o'rganan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xoxlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini xoxlashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirishi shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. SHuni ham unutmazlik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi

haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'zvaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

SHuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zexni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni *iqtidorli* deymiz. Iqtidor - insonning o'zhatti - harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlariga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamharakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero *iste'dod* - har tomonlama rivojlangan, nixoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'zqobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi

Qobiliyatlar avvalom bor *umumiy* va *maxsus* turlarga bo'linadi va har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. SHaxsning umumiy qobiliyatlari undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o'quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi. Bunda unga umumiy bilimdonlik, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko'rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarini o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi.

Umumiy qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlarga zid tarzda talqin qilish mumkin emas. SHaxsning umumiy qobiliyatlari ularni hosil

qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torroq bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi. I.P.Pavlov o'z ta'limotida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan shaxslarning tavsifini beradi.

"Badiiy tip" uchun bevosita taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok va emotsiyalar natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi hos.

"Fikrlovchilar" uchun esa mavhum mantiqiy, nazariy, metodologik mulohazalarning ustunligi xos.

"O'rta" tipdagilarda esa har ikkala toifa xususiyatlarining xos ekanligi ko'rinadi.

Har bir qobiliyat o'zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavxum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy hayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa - pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o'zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalar kiradi. Xuddi shunga o'xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

GLOSSARIY

| <i>Atama</i> | <i>O'zbek tilidagi sharhi</i> | <i>Рус тилидаги шарҳи</i> | <i>Инглиз тилидаги шарҳи</i> |
|---------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Psixologiya</i> | <p><i>Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muamala, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlarning miyada aks etishi, psixik qonuniyatlar va mexanizmlarni o'rganadi. yunoncha psyuxē – jon, ruh, logos – fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi</i></p> | <p><i>наука, изучающая закономерности возникновения, развития и функционирования психики и психической деятельности человека и групп людей. Объединяет в себе гуманитарный и естественно-научный подход.</i></p> | <p><i>science that studies the laws of the origin, development and functioning of the mind and mental activity of the person and groups of people. It combines humanitarian and natural science approaches.</i></p> |
| <i>Psixika</i> | <p><i>bu tafakkur, sezgilar, hissiyotlar va kommunikativ jarayonlarni o'ziga jamlashtirgan yaxlit tizimdir. Hozirgi davrda "jon" tushunchasi o'rniga "psixika" so'zi qo'llanilmoqda.</i></p> | <p><i>Психика — сложное понятие в философии, психологии и медицине. «Форма активного отображения субъектом объективной реальности, возникающая в процессе взаимодействия высокоорганизованных живых существ с внешним миром и осуществляющая в их поведении (деятельности) регулятивную функцию».</i></p> | <p><i>Mentality - a complex concept in philosophy, psychology and medicine. "The form of the active display subject of an objective reality that occurs in the interaction of highly sentient beings with the outside world and engaged in their behavior (activity) regulatory function."</i></p> |
| <i>Abstraktsiya</i> | <i>Narsalarning o'ziga</i> | <i>Абстракция —</i> | <i>Abstraction - a</i> |

| | | | |
|-------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <p><i>xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni, narsalarning muhim belgi va xususiyatlarini ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi. lot. Abstractio mavhumlashtirish</i></p> | <p><i>отвлечение в процессе познания от несущественных сторон, свойств, связей объекта (предмета или явления) с целью выделения их существенных, закономерных признаков; абстрагирование — теоретическое обобщение как результат такого отвлечения.</i></p> | <p><i>distraction in the learning process of the non-essential sides, properties, object relationships (object or phenomenon) in order to highlight their essential, of regular features; abstraction - theoretical generalization as a result of this diversion.</i></p> |
| <p><i>Agglyutinatsiya</i></p> | <p><i>- mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir - biriga «yopishtirib» qo'shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati. Mas., suv parisi obrazi. lot. Agglutinate - yopishtirmoq elimlamoq</i></p> | <p><i>состоит из известных знаков. Мыслительная или образная деятельность основанная на создании нового образа с использованием уже существующих. Например: образ русалки.</i></p> | <p><i>It consists of a well-known characters. The current image of the thoughts and slapped kdrug other in connection with this way of thinking to the creation of new images. For example: the image of a mermaid.</i></p> |
| <p><i>Appertseptsiya</i></p> | <p><i>shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, xavaslari bog'liqligi. lot. qarashli, perceptio - idrok</i></p> | <p><i>— это процесс, в результате которого элементы сознания становятся ясными и отчетливыми. Одно из фундаментальных свойств психики человека, выражающееся в обусловленности восприятия предметов и явлений внешнего</i></p> | <p><i>- It is the process by which elements of consciousness are clear and distinct. One of the fundamental properties of the human psyche, reflected in the conditionality of the perception of objects and phenomena of the external world and the awareness of the general perception of the features of the</i></p> |

| | | | |
|-----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | | мира и осознания этого восприятия особенностями общего содержания психической жизни как целого, запасом знаний и конкретным состоянием личности. | contents of mental life as a whole stock of knowledge and the specific condition of the individual. |
| Assotsiatsiya | psixik hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik A, xronologik o'xshashlik A, qarama – qarshilik A va b.) lot. associatio - birlashtirmok | Связанные психические события, состоящие из определенных законов например, изучение космоса, хронологические совпадения, противоречия и др | Between related mental events, consists of specific laws such as the study of the cosmos, the chronological coincidence of contradictions. |
| Biografik metod | odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli. yunon. bios - hayot, grapho - yozaman, ko'rsataman | Метод изучающий человека через его данные и биографию. | This method studies a person through his data and biography. |
| Bixeviorizm | XX asr boshlarida AKSHda maydonga kelgan yo'nalish bo'lib, bunda psixologiyaning o'rganish predmeti qilib faqat odamning xulq - atvori olingan. Bu yo'nalish faqat odamning tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'lgan hatti - harakatlari bilan hulq - atvorini o'rganish | Направление появившееся в начале XX века направленное на изучение поведения человека. Это направление считает, что окружающий мир может влиять на поведение человечества. Соображение в этом случае | In the early twentieth century, it was sent to study only human behavior. This direction is considered to be the ability to influence the world around them, and on the behavior of humanity at this stop. As this happened they deny consideration. The founders of this |

| | | | |
|-----------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <p><i>mumkin, deb hisoblaydi.</i> <i>Bunda ong ahamiyati inkor qilinadi. Bu yo 'nalishning asoschilari D. Uotson, E. Torndayklar. ing. behaviour- hulq</i></p> | <p><i>отрицается.</i> <i>Основатели этого направления Д. Уотсон, Э. Торндийклар.</i></p> | <p><i>direction of John Watson, E. Torndiyklar.</i></p> |
| Verbal | <p><i>Verbal nutq – og 'zaki ifodalanadigan nutq. lot, verbalis – og 'zaki</i></p> | <p><i>Вербальная речь- образуется посредством устной речью</i></p> | <p><i>Verbal language is formed by oral speeches</i></p> |
| Vegetativ nerv tizimi | <p><i>Nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi, v.n.t, markaziy nerv tizimi bilan uzviy bog 'liq bo 'lib, bu bosh miya qobig 'i tomonidan boshqariladi. V.n.t. simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo 'linadi</i></p> | <p><i>Vegetativная нервная система управляющая внутренней системой органов, которая влияет на части обмена веществ. В.н.с связанна с центральной нервной системой, и управляется оболочкой головного мозга. В.н.с. делятся на две части: симпатичная и парасимпатичная.</i></p> | <p><i>The autonomic nervous system is governed by internal systems and organs of the impact of metabolism, v.n.s connected with the central nervous system, this right brain membranes. Leading researcher divided into two parts: the sympathetic and parasimpatik.</i></p> |
| Dominanta | <p><i>markaziy nerv tizimini ng vaqtincha hukmron qismi bo 'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.</i></p> | <p><i>Временно управляет центральной нервной системой, останавливая остальные активные части.</i></p> | <p><i>Government central nervous system temporarily stops and the remaining active parts.</i></p> |
| Dualizm | <p><i>borliq ham moddiy, ham ruhiy bo 'lgan ikki asosdan tashkil topgan deb hisoblovchi falsafiy ta 'limot bo 'lib, psixofizik parallelizm konsepsiyasining asosidir.</i></p> | <p><i>Является философским явлением, в которой реальность это материальная, духовная, психофизическая и параллельная</i></p> | <p><i>It is a philosophical study which considers the reality of this material, spiritual and psycho-physical parallel concept.</i></p> |

| | | | |
|----------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>lot, duqfis - ikki yoqqlama</i> | <i>концепция.</i> | |
| <i>Interiorizatsiya</i> | <i>tashqi amaliy harakat larning ichki aqliy am allarga aylanish jarayoni.</i> | <i>Это цикл вращения внешнего действие на внутреннее.</i> | <i>This cycle of rotation of the external effects on the internal.</i> |
| <i>Motiv</i> | <i>ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. lot. movere - harakatga keltirmoq</i> | <i>Побуждение к деятельности, связанной с конкретными потребностями</i> | <i>The reason of satisfy some necessity.</i> |
| <i>Mielin</i> | <i>nerv tolalarining yumshoq qobig'i tarkibiga kiruvchi yog'simon moddalar aralashmasi yunon. myelos - iliq</i> | <i>Жировая масса в которой входит мягкого нервного волокна</i> | <i>The oily elementar mixture which entrant to the nervous fibers soft shell.</i> |
| <i>Orientatsiya refleksi</i> | <i>shartsiz refleksning bir turi, u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi. lot. oriens - sharq reflexus - aks etish</i> | <i>Тип безусловных рефлексов, которая первым реагирует на воздействия.</i> | <i>One type of natural reflex, it exchangely responsible for every new starting influence.</i> |
| <i>Operativ xotira</i> | <i>xotira turlaridan biri. By ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, yzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalanadi lot. oreratio - harakat</i> | <i>Тип памяти. Выражающийся в процессе осуществления отдельных видов деятельности, временно использующий долговременную память.</i> | <i>The type of memory. It expresses in the process of one action, used from far memory temporary.</i> |
| <i>Ontogenez</i> | <i>organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning pa ydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui</i> | <i>Это развитие индивидуального организма. Набор изменений в которых входит период живого существа от начала до конца</i> | <i>Processing the organism incurdualy. The living natures alternation collection from appearing till to the end.</i> |

| | | | |
|------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>yunon. on, ontos - asl, tub, genesis – tug 'ilish, paydo bo 'lish</i> | <i>его жизни.</i> | |
| <i>Xarakter</i> | <i>- kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofda narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o 'z - o 'ziga bo 'lgan munosabatlarida ifodalanadi. X. muayyan sharoit hatti - harakatlarni belgilab beradigan individual psixologik xususiyatlar yig 'indisidir. yunon. karakter - xususiyat, belgi</i> | <i>Индивидуальная единица стабильных свойств человека, характеризующая отношение человека к труду, окружающим вещам и событиям, к другим людям и к себе. Характер это сумма которая определяет специфические акты индивидуальных психологических свойств.</i> | <i>The unity of persons stable psychological peculiarities. It is expressed in the attitude of persons to the labour, to the environment and events, and attitude to himself. It is the unity of certain character and behaviours.</i> |
| <i>Paralogizm</i> | <i>to 'g 'ri fikrlash qoidalarini buzish mantiqiy xatoga yo 'l qo 'yish natijasida noto 'g 'ri xulosa chiqarish. yunon. paralogismos</i> | <i>Делать неправильный вывод в результате нарушений правил в правильном мышлении, допустить логическую ошибку.</i> | <i>In the result of uncorrect thoughts to do mistake and come to the uncorrect conclusion.</i> |
| <i>Paramnezia</i> | <i>-sodir bo 'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirilgandek bo 'lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi. yunon. rara – oldida, yonida mnosis - eslash</i> | <i>Состав событий которые кажутся происходили когда-то раньше.</i> | <i>It is illness of memory about transferred events that have been before its existence.</i> |
| <i>Parapsixologiya</i> | <i>Psixologik tadqiqot sohalaridan biri, sezgi a 'zolari</i> | <i>Один из психологических исследований,</i> | <i>The type of psychological research, and</i> |

| | | | |
|----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <p>ishtirokisiz idrok qilish shakllarini, shu bilan birg tirik mavjudotning fizik hodisalarga mushak kuchisiz ta'sir etish turlarini o'rganadi. P. muammosi bahoga molik sohadir.</p> <p>YUnon. para - oldida, yonida, psyche – pyh, lodos – ta'limot</p> | <p>формы чувственного восприятия без участия органов чувств, вместе с этим изучает виды влияний живого существа на физические явления без мышечных сил.</p> | <p>research about without senses learns types of perceive, and learns living natures effect without muscles power.</p> |
| Patogen | <p>kelib chiqish, kasallik keltirib chiqaruvchi. yunon, pathos - azoblanish, genes -</p> | <p>Происхождение, вызывающий болезнь.</p> | <p>To become, bring illness</p> |
| Proektiv metod | <p>shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodka mas., tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi. lot. Prjektus - oldinga tashlangan, yunon. m ethodos – tadqiqot</p> | <p>Один из методов исследующий человека. В этом методе в опытных обстоятельствах изучаются картинки, и даются их интерпретации.</p> | <p>The types of method, about researching person. In this method perceived images in experimental conditions and its definition.</p> |
| Ekstraversiya | <p>SHaxsning tevarak - atrofndagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalishi. E. qiziqishlarning kishidan tashqaridagi narsa va hodisalarga ko'chishi demakdir nor. emavere – uyg'otish, to'liqlantirish lot. Extra - haddan tashqari, verso - o'zgarish</p> | <p>Направление человека к окружающим людям и внешним явлениям. Экстраверсия передача интересов человека к внешним вещам и явлениям.</p> | <p>The direction of persons to the environment and outer events. Here persons interests migrated to the outside events and things</p> |
| Emotsiya | <p>odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar</p> | <p>Ответная реакция людей или животных субъективно выражающий</p> | <p>The response reaction of humans or animals to the inner or outer startings</p> |

| | | | |
|---------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>ta'siriga javob reaksiyasi.</i> | <i>внутреннюю или внешнюю провокационную эффективность.</i> | |
| <i>Empatiya</i> | <i>boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati. yunon. empatheia - birgalikda dardlashmoq</i> | <i>Способность понимать психические состояния других людей и соболезновать им.</i> | <i>The realise another persons psychological conditions and to fell himself</i> |
| <i>Egoizm</i> | <i>xudbinlik bo'lib, shaxsning o'z qiziqishlari va ehtiyojlarini boshqa shaxslar va ijtimoiy guruh qiziqishlari bilan qiziqmay, ulardan yuqori ko'rishi. E, ning rivojlanishi va shaxs yo'nalishida ustivor bo'lishi tarbiyadagi jiddiy xatoliklar natijasidir. lot. ego - men</i> | <i>Эгоистичность, ставить выше свои интересы и необходимости, не интересоваться интересами других людей и гуманитарных групп. Развитие эгоизма и быть приоритетом в направлении человека это результат серьезных ошибок в воспитании.</i> | <i>It is selfishness. He puts his own interests rather than anothers. It is the result of uncorrect behavior</i> |
| <i>Eydetik - Eydetizm</i> | <i>ba'zi individlarning (eydetiklar) avval idrok qilingan narsa va hodisalarni barcha tomonlari bilan esda qoldirish qobiliyati yunon. eidōs - obraz</i> | <i>Способность некоторых индивидов запомнить предметы и события вместе с деталями.</i> | <i>Some individs ability of memory that remember perceived events in every sides</i> |
| <i>Eyforiya</i> | <i>Kayfiyatning ko'tarinkiligi, rohatlanishi, xuzurlanishi. E. Obyektiv sharoitlarga mos bo'lmagan holda mavjud bo'lgan ko'tarinki kayfiyat, beg'amlik va qontiqish holati yunon. (Masalan;</i> | <i>Поднятое настроение, удовольствие и наслаждение. Эйфория не совместимый объективным условиям поднятое настроение, небрежность и удовольственное</i> | <i>Raise of mood, relaxing enjoying. It is not equal to the occurance carelessness and condition of satisfying</i> |

| | | | |
|------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>giovhand moddani qabul kilish natijasida yuzaga keluvchi holat.) eu - yaxshi, phero - boshdan kechirmoq</i> | <i>состояние.</i> | |
| <i>Xolerik</i> | <i>temperament turi, u hissiyotning jo 'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o 'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi. yunon. chole - safro, sarik o 't</i> | <i>Вид темперамента, он выражает собой чувство энтузиазма, изменчивое настроение, не стабильное чувство.</i> | <i>Type of temperament. In this temperament person is changeable in a boiling sense, suddenly changes the mood, loses the balance of feelings and generally active in character</i> |
| <i>Nutq</i> | <i>odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli</i> | <i>Исторически сформированный инструмент коммуникации для людей.</i> | <i>The historical composed type of connection with the means of tongue</i> |
| <i>Nutq madaniyati</i> | <i>muloqot jarayonida ma 'lum til normalariga asoslangan holda ma 'noli nutqni ifoda etish</i> | <i>Вовремя общения выражать значимую речь основанную на известную языковую норму.</i> | <i>During the encounter conform to the certain language rules.</i> |
| <i>Ambivalentlik</i> | <i>bir vaqtda qarama – qarshi hissiyotlarning namoyon bo 'lishi (mas., kulgu va qayg 'u, xursandlik va kulfat) yunon. Ambi – tevarak, ikki tomondan, lot. valentia – kuch</i> | <i>Одновременное проявление противоположных чувств (например: смех и печаль, радость и бедствие)</i> | <i>At the same time appearance of opposite sense or feelings. For ex: laughing and sadness</i> |
| <i>Apatiya</i> | <i>kishining tevarak – atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishsiz befarq holati yunon. Apatheia – hissiyotsizlik</i> | <i>Безразличное состояние человека, к окружающему миру без никаких интересов.</i> | <i>The persons apathetic condition to the surround without any interests.</i> |

| | | | |
|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Astenik</i> | <i>shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar yunon, astheneia – kuchsizlik, holsizlik</i> | <i>Человеческие чувства ослабевающие активность.</i> | <i>Persons slowing down senses to activeness.</i> |
| <i>Asteniya</i> | <i>kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish yunon. Astheneia – kuchsizlik, holsizlik</i> | <i>Усталость изображающая в нервном психологическом вялости.</i> | <i>Strong tiredness and weakness described in a nervous feeble.</i> |
| <i>Affekt</i> | <i>kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat</i> | <i>Психологическое состояние характеризующийся с высокими, взрывными и кратковременными эмоциональными процессами</i> | <i>the psychological condition which happens with strong, boiling and continuously emotional experiences in short-term.</i> |
| <i>Kayfiyat</i> | <i>birorta emotsiyaning barqaror kechishi</i> | <i>Стабильное прохождение какой либо эмоции</i> | <i>the stable occuring of some sort of emotions.</i> |
| <i>Senzitivlik</i> | <i>turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi</i> | <i>Быстрая и повышенная чувствительность к разным влияниям</i> | <i>starting senses up fast and strongly according to various effects.</i> |
| <i>Stenik hislar</i> | <i>shaxsning faoliyatini oshiruvchi hislar (mas., xursandchilik va x.k.)</i> | <i>Чувства которые развивают деятельность человека (нап. радость и т.д.)</i> | <i>emotions that rises person's activities up. (e.g. happiness)</i> |
| <i>Stress</i> | <i>kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat</i> | <i>Психическое состояние являющееся из за сильных воздействиях</i> | <i>the spiritual state which is appeared by strong arisers.</i> |
| <i>Emotsiya</i> | <i>odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi</i> | <i>Субъективная, оценочная реакция человека или животного внутренним и внешним воздействиям</i> | <i>expressed by people's or animals' subjective response to the internal or the external arisers reactions</i> |
| <i>Hissiyot</i> | <i>odamning yuksak</i> | <i>Процесс,</i> | <i>man's ability wether it</i> |

| | | | |
|-------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo'lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon</i> | <i>отражающий свойство человека умения удовлетворять или не удовлетворять потребности а так же с созданием психического образа изобразать его в сознании</i> | <i>satisfies or does not satisfais the high needs of him and creates a mental conscious of its relation around the world for applying the process.</i> |
| <i>Abuliya</i> | <i>eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik</i> | <i>Сильное безволие характеризующейс я отсутствием способности принимать даже самые простые решения</i> | <i>the weak willness that becomes visible when its's time to have even simple problems.</i> |
| <i>Iroda erkinligi</i> | <i>falsafiy – ahloqiy kategoriyani ifoda etuvchi tushuncha. U o'z - o'zini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bog'liq</i> | <i>Понятие выражающее этические категории. Она зависит от познание самого себя во время адаптивование воли</i> | <i>the consept that expresses philosophical and ethical category. It depends on man's agreement when it's time to define himself.</i> |
| <i>Motiv</i> | <i>– ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab</i> | <i>Причина призывающая к деятельности, связанные с удовлетворением каких либо потребностей</i> | <i>the reason that appeals to satisfy with the certain need.</i> |
| <i>Motivatsiya</i> | <i>odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui</i> | <i>Сбор причин побуждающих человека к активной деятельности</i> | <i>the collection of reasons that motivate a person to be active in activities.</i> |
| <i>Motivlar kurashi</i> | <i>qaror qabul qilish bilan bog'liq irodaviy harakatlar bosqichi</i> | <i>Волевые действия связанные с принятием решения</i> | <i>the levels of will activities which are connected with making decision.</i> |
| <i>Labillik</i> | <i>nerv hujayralarining</i> | <i>Свойства человека,</i> | <i>the nerv cells'</i> |

| | | | |
|--------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>tezlik bilan qo'zg'alish holatidan tormozlanish va tormozlanishdan qo'zg'alish holatiga o'tish xususiyati</i> | <i>быстро перемещающие нервные клетки из подвижного состояния в торможение и из торможения в подвижное состояние</i> | <i>condition that transfer fast from braking into arousing or from arousing into braking.</i> |
| <i>Rigidlik</i> | <i>subyektiv tomonidan dasturlashtirilgan faoliyatda qayta qurishning talab qilinishi natijasida ro'y beradigan qiyinchiliklar</i> | <i>Затрудненность происходящая из за требования перестроить деятельность программированно й субъектом</i> | <i>required construction activities that is programmed by subjective happens as a result of difficulties.</i> |
| <i>Frenologiya</i> | <i>odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o'sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan</i> | <i>Теория, подтверждающая возможность определять уровень каких либо способностей человека по его черепу. Создателем этой теории является австрийский врач Ф. Галл</i> | <i>the growth of some types of people's skills on the theory that it is possible to determine the structure of the skill. This theory proposed by the Austrian doctor F.Gall.</i> |
| <i>Temperament</i> | <i>shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. Bu kishida faoliyat va hulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi</i> | <i>Сбор индивидуальных психологических способностей человека</i> | <i>collections of individual psychological properties of the person . The man's activity and behavior is characterisez by a dynamic and emotinal aspects.</i> |
| <i>Flegmatik</i> | <i>temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi. emotsional holatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon</i> | <i>Один из типов темперамента, его можно охарактеризовать с медлительными, невозмутительными действиями, и низким явлением эмоционального</i> | <i>the kind of temperamen. This can appear when the movements are slow, stable and not strong emotions in external.</i> |

| | <i>bo'ladi</i> | <i>состоянии</i> | |
|------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Sangvinik</i> | <i>temperament turlaridan. Bu tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilish hislatlari bilan tavsiflanadi</i> | <i>Один из темпераментов, его можно охарактеризовать как активным, быстрым человеком с быстро меняющимся мнением и переживающим за других</i> | <i>the sort of temperament. That sort of skill is nimble, mobile and fast changing of imaginations.</i> |
| <i>Xolerik</i> | <i>temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi</i> | <i>Тип темперамента . он характеризуется с бурной и неуравновешенной эмоцией , а так же резкими сменами характера – в общем активностью</i> | <i>the type of temperament that has full feelings, quick changable mood when the emotions expressed by the general unbalanced and mobility.</i> |
| <i>Introversiya</i> | <i>shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi</i> | <i>Мнения, чувства и переживания человека полагающиеся самому себе</i> | <i>leaning on person's ideas, sensitiveness and excitements by himself</i> |
| <i>Milliy xarakter</i> | <i>biror bir millatga xos xususiyatlar</i> | <i>Свойства характеризующие какой либо национальности</i> | <i>the traits of a nation.</i> |
| <i>Xiromantiya</i> | <i>odamning kaftiga qarab uning xarakteri, taqdiri bo'yicha fol ochish</i> | <i>Гадания о характере и о судьбе по ладоням человека</i> | <i>telling fortunes or judging of a person's character by the lines in the palm of the hand</i> |
| <i>Xarakter</i> | <i>kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdaги narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan</i> | <i>Индивидуальная единица психических свойств человека. Он выражается в отношениях человека к работе, окружающим вещам, событиям,</i> | <i>one's stable, mental features of the individual unit. It expressed by person's labor, surrounding events, other people or self-expressed in the relationship.</i> |

| | | | |
|---------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>munosabatlarida ifodalanadi</i> | <i>другим людям, а так же самому себе</i> | |
| <i>Xarakter aksentuatsiyasi</i> | <i>xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi)</i> | <i>Чрезмерное выражение определенных свойств характера (близко к психопатии)</i> | <i>expressing the person's character's peculiarities unlimitedly (apparently near the psychopathy)</i> |
| <i>Ekstraversiya</i> | <i>shaxsning tevarak – atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalishi</i> | <i>Концентрация человека на окружающих людей и внешних событий</i> | <i>the person's direction to his surrounding people and to the external events</i> |
| <i>Aqliy rivojlanish mezon</i> | <i>ong JQ – aqliy yosh (AYO) va xronologik yosh (XYO) orasidagi munosabatni bildiruvchi mezon. Intellektning biror yosh shkalasiga suyangan holda test natijalari orqali rivojlanishini aniqlash mumkin</i> | <i>Критерий обозначающий связь между разумом – умственным возрастом (YB) и хронологическим возрастом (XB)</i> | <i>indicative criteria of the relationship among consciousness (C), mental age (MA) and chronological age (ChA).</i> |
| <i>Zehn, layoqat</i> | <i>nerv tizimining ba'zi genetik nazariyalari anatomik-fiziologik xususiyati bo'lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug'ma tabiiy zaminidir ang. Perception</i> | <i>Анатомо-физиологические свойства некоторых генетических теорией нервной системы, являющейся естественным фундаментом появления и развития каких либо способностей человека</i> | <i>Some genetic theories of anatomic-psychological features of the nervous system. It is a primary individual innate foundation of developing and being formed of ability in person</i> |
| <i>Iste'dod</i> | <i>shaxsning ma'lum faoliyatida ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi</i> | <i>Высокий уровень способности, характеризуется как деятельность человека.</i> | <i>The highest degree of ability that is expressed in certain activity of person.</i> |
| <i>Geniallik</i> | <i>shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti</i> | <i>Действия человека проявляющие</i> | <i>The occurrence of person that</i> |

| | | | |
|------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | <i>bilan o'zini namoyon qilish hodisasi lot. Genius – aql zakovat, buyuk iste'dod</i> | <i>высший уровень творчества</i> | <i>demonstrates him with the highest degree of creation</i> |
| <i>Kommunikatsion qobiliyatlar</i> | <i>kishining boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta'minlaydigan qobiliyat</i> | <i>Способность человека обеспечивающий улучшение диалога с другими людьми и психологическую объединению в совместной деятельности.</i> | <i>The ability that improves person's communication with other people and provides with psychological unity in activity that done jointly.</i> |
| <i>Mayl</i> | <i>shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, hohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi</i> | <i>Интересы человека и мысли, которые привлечены к тому или иному деятельности, в человеке появляется в виде сильной желаниии, при исполнении дает удовольствие человеку.</i> | <i>Person's interests and thoughts that attracted to do certain activity. It appears as intense desire and when this desire will be done, it gives person satisfaction.</i> |
| <i>Musiqiy qobiliyat</i> | <i>shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari</i> | <i>Психологическое свойство устанавливает человеческую музыкальную способность.</i> | <i>The psychological feature of the person, that determines musical aptitude</i> |
| <i>Umumiy iste'dod</i> | <i>kishining qobiliyatlari birligi. Bu shaxsning aqliy (intellektual) imkoniyatlari doirasi bilan faoliyatining o'ziga xosligi darajasini belgilab beradi</i> | <i>Единство человеческих талантов. Это устанавливает человеческие умственные способности и идентичскую уровень деятельности.</i> | <i>The unity of person's overall abilities. It determines the sphere of intellectual possibility and the peculiar degree of person.</i> |

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. David G. Mers Psychology, © 2010 by Worth Publishers
2. Djeys U, Kalat. Psychology. 2013
3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2008. -480 b.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. Darslik.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.- 488 b.
5. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi.-T.: Noshir. 2010.
6. Shamshetova A., Melibayeva R. va boshqalar. Umumiy psixologiya o'qiv qullanma 2018
7. Umarov B.M. Psixologiya. Darslik.T.: 2012 y.
8. Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik M.: Vlados, 2003. 1-t. -240s.
9. M.G., Davletshin Do'stmuxamedova S.A., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M., Yosh va pedagogik psixologiya. T. TDPU, 2004 .
10. Gamezo va bosh. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya M. 1984 y.
11. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya. T.:TDPU, 2012.-202b
12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2010. - 400b
13. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. -T.:-YAngi asr avlodi. 2008.
14. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. -T. YAngi asr avlodi. 2006.
15. G'oziev E.G'. Psixologiya fani XXI asrda. -T.: Universitet. 2002.
16. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006
17. R.N.Melibayeva. Tafakkurni rivojlantirishning interfaol usullari. Monografiya. Adabiyot uchqunlari nashriyoti 2013 yil.
18. M.Ahmedova., R.N.Melibayeva. Nutq psixologiyasi "Chashma print" Toshkent-2014
19. Karimova V.M. Psixologiya. T.: SHarq, 2000. -256 b.
20. Klimov E.A. Obshaya psixologiya. O'quv qo'llanma. M., Piter. 2001.
21. Maklakov A.G. Obshaya psixologiya. Uchebnik – SPB.:Piter. 2003.
22. Tixomirov O. PSIXOLOGIYA: Uchebnik. M.: Vyssshee obrazovanie, 2006.

Internet saytlari:

1. www.ziynet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
4. www.psychology.uz
5. www.psychology.net.ru
6. <http://interactive-plus.ru/collection-20131105-1.html>
7. <http://general.psypublika.ru/>
8. <http://psyvert.ru/for-stud/general/aptpsp2012-2011/>

MUNDARIJA

| | |
|---------------------------------------------------------------|-----|
| KIRISH..... | 3 |
| BIRINCHI BO'LIM | |
| I BOB. PSIXOLOGIYANING METODALOGIK ASOSI..... | 5 |
| II BOB. SHAXS VA UNING MOHIYATI..... | 92 |
| III BOB. BILISH JARAYONLARI..... | 130 |
| IV BOB. SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... | 272 |
| GLOSSARIY..... | 388 |
| FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 403 |

JO'RAYEVA S.N., SHARAFUTDINOVA X.G., MAMARADJABOVA B.A.

UMUMIY PSIXOLOGIYA

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2022

Muharrir: Xolsaidov F. B.

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.

Bosishga 14.06.2022. da ruxsat etildi. Bichimi 60x90. "Times New Roman" garniturası.

Ofset bosma usuli da bosildi. Shartli bosma tabog'i 26. Nashr bosma tabog'i 25,25.

Adadi 250 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-a uy.



+99893 552-11-21

Muallif va nashriyot roziligisiz chop etish ta'qiqlanadi.

ISBN978-9943-7267-9-6



9 789943 726796